S.A. TOSHTEMIROVA

TARIXSHUNOSLIK

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

S.A. Toshtemirova

TARIXSHUNOSLIK

5110600 – Tarix yo'nalishi talabalari uchun o'quv qo'llanma

O'quv qo'llanma

«ZEBO PRINT»
TOSHKENT – 2022

UO'K: 66(075.8)
KBK: 35ya73

S.A. Toshtemirova
Tarixshunoslik [Matn]: o'quv qo'llanma / S.A. Toshtemirova. –Toshkent: «ZEBO PRINT», 2022. – 314 b.

Mazkur o'quv qo'llanmada tarixshunoslik fanining maqsad va vazifalari umumlashtirilgan bo'lib, unda asosan tarixshunoslik fanini o'qitishga qo'yilgan talablar, tarixiy voqealarni tarixshunoslik nuqtai nazaridan o'rganish va tahlil qilish, qadimgi davrdan XX asrgacha yaratilgan asarlar, ilmiy tadqiqotlar, monografiya va boshqa nashrlarning tarixiy bilimlar rivojlanishiga qo'shgan xissasi, mazkur manbalarning haqqoniyligi, undagi fikrlarning xilma-xilligi, tarixiy shaxslar va voqealarni baholash, tarixiy bilimlarni to'plash va o'rganishda tarixiy tamoyillarga asoslangan holda xulosa chiqarishga qaratilgan masalalar keltirib o'tilgan. Tarixshunoslik fanining boshqa fanlar bilan, tarixning boshqa sohalari bilan aloqadorligi, ayniqsa tarixshunoslikka oid tarixiyiy bilimlarni rivojlanishida mahalliy va xorijiy tadqiqqotchilarning qarashlari va ularni qiyosiy tahlil qilish kabi masalalarga katta ahamiyat berilgan.

Qo'llanmada tarixshunoslik fani bo'yicha tarixiy davrlarga tasniflangan holda, asosan O'rta Osiyo tarixi tarixshunosligiga oid ma'lumotlar o'rin olgan bo'lib, bu talabalarda muayyan tarixiy davrga oid manbalar, monografiyalar, ilmiy tadqiqotlar, ilmiy maqolallar va boshqa ilmiy adabiyotlarni tarixshunoslik asosida tahlil qila olish, ularga o'z munosabatini bildirish, fanga oid nazariy va uslubiy tushsunchalarni o'zlashtira olish, birinchi darajali va ikkinchi darajali manbalarni turkumlay olish, tahlil natijalari asosida tarixiy vaziyatga to'g'ri va xolisona baho bera olish kabi kompetensiyalarni shakllanishiga xizmat qiladi, shuningdek, unda keltirilgan savol va topshiriqlar talabaning mustaqil va noodatiy mushoxada yuritishga yo'naltiradi va buning natijasida talabalar kreativligi yanada takomillashadi.

O'quv qo'llanma Oliy o'quv yurtlari tarix ta'limi (5110600 – Tarix) yo'nalishi bakalavriat bosqichi talabalari, shuningdek umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim muassasalari o'qituvchilari uchun mo'ljallangan.

Ma'sul muharrir:
J.N.Abduraxmonova – tarix fanlari nomzodi, dotsent

Taqrizchilar:
Z.Ilhomov – Tarix fanlari nomzodi, dotsent (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti)
Ya.X.G'afforov – Tarix fanlari nomzodi, dotsent (Chirchiq davlat pedagogika universiteti)

ISBN 978-9943-8555-1-9

MUNDARIJA

KIRISH

Mustaqillik yillarida O'zbekiston tarixini har tomonlama xolis va ilmiy yoritishga alohida e'tibor qaratila boshlandi. O'zbekistonning qadimgi davrdan mustaqillik yillarigacha bo'lgan tarixini daliliy manbalar asosida tahlil qilish, tarixiy bilimlarning rivojlanishida katta ahamiyatga ega bo'lgan tarixnavislikni talabalar tomonidan yanada kengroq o'rganilishi bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Aynan shu masalalar tarixshunoslik fani doirasida bajariladi, tarix fanining shakllanishi va rivojlanishining asosiy bosqichlarini tahlil qilishni nazarda tutgan holda, mahalliy va xorijiy tarixchilarining tarixiy tushunchalari bilan tanishish orqali o'quv materialini o'rganish, ularning tarixiy asarlarini tahlil qilish amalga oshiriladi.

Tarixshunoslik fani tarix fanlarining barcha sohalari bilan bog'liq bo'lib, tarixiy bilimlarning rivojlanishida dastlabki tarixshunoslik manbalari, jumladan, doston, rivoyat, afsonalar, ilmiy-tarixiy adabiyotlar, tadqiqotlar, yozishmalar, qo'lyozmalar, esdaliklar katta ahamiyatga ega. Tarixshunoslik fanining hozirgi bosqichda tarixshunoslik tarixini o'rganish o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ular asosan mamlakatimiz siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o'zgarishlar bilan oldindan belgilab qo'yilgan. Ushbu o'zgarishlar tarixchilardan O'zbekiston tarixiga yangi nazariy va uslubiy yondashuvlarni ishlab chiqishda, kontseptual yondashuvni aniqlashda, mamlakatimizda falsafiy va tarixiy fikr tajribasini chuqurroq o'rganishda katta sa'y-harakatlarni talab qildi.

Tarixshunoslik fanining asosiy maqsadi talabalarda tarixiy adabiyotlar bilan mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish, tarix fanining to'plagan tajribasini to'plash, baholash, sharhlash ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Tarixshunoslik fani tarix fanining shakllanishi va rivojlanishining asosiy bosqichlarini tahlil qilishni o'z ichiga oladi. O'quv materialini o'rganish mahalliy va xorijiy tarixchilarining tarixiy tushunchalari bilan tanishish, ularning tarixiy asarlarini tahlil qilish asosida amalga oshiriladi.

Fan doirasida mamlakatimizda tarix fanining rivojlanish xususiyatlari va tarix fanining tarixini bosqichma-bosqich o'rganishni nazarda tutuvchi xronologik-muammoviy usullardan keng qo'llanilgan xolda ijodiy yondashish maqsadga muvofiq. Shu bilan bir qatorda, mazkur

fanni o'qitishda davrlashtirish, qiyosiy-tarixiy, retrospektiv kabi boshqa usullar ham keng qo'llaniladi. Tarixchilarning asarlarini tarixshunoslik tahlili tarixiy bilimlar haqiqatini aniqlashning yo'llaridan biridir. Bu tarixchilarining qaysi tarixiy tushunchalari cheklanganligini, tarixchilarning qaysi xulosalari keyingi avlodlari tomonidan rad etilganligini yoki inobatga olinganligini aniqlash imkonini beradi, shuningdek, u yoki bu olimning mamlakatimiz tarix faniga qo'shgan haqiqiy hissasini aniqlash imkonini beradi.

Qo'llanmada qadimdan tarixshunoslikning vujudga kelishi, yozuvlar paydo bo'lishining tarixshunoslikka ta'siri, O'rta Osiyo xalqlarining qadimgi davrdagi ijtimoiy-siyosiy tarixi tarixshunosligi, yunon-rim tarixchilari asarlarida O'rta Osiyo xalqlari tarixining yoritilishi, ilk o'rta asrlar tarixshunosligi, arablar istilosi davri tarixi va musulmon uyg'onish davri tarixiy adabiyotlarining O'rta Osiyo xalqlari tarixini o'rganishdagi ahamiyati, Temur va temuriylar davri tarixiy bilimlarning rivojlanishi bosqichma-bosqich bayon etilgan. Ayniqsa, O'rta Osiyo xonliklarining tarixshunosligiga katta ahamiyat berilgan, xonliklar tarixining mahalliy va xorijiy tarixchilar talqinida yoritilishi, xonliklarning davlat boshqaruvi, iqtisodiy-ijtimoiy tarixiga doir asarlar tahlili keltirilgan.

O'z fanining tarixini bilish tarixchining kasbiy kompetentsiyasiga o'z hissasini qo'shadi, unda oldingi avlod tadqiqotchilari tajribasida to'plangan hamma narsaga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishni shakllantiradi. Mazkur fanni muvaffaqiyatli o'zlashtirish natijasida talabalardagi kasbiy kompetentsiyalari takomillashadi, ularning kreativligi rivojlanadi. Bularning barchasi pedagogika sohasidagi tarix yo'nalishi talabalarining fanlarni chuqurroq o'rganishida shu kabi qo'llanmalarni nashr etilishi lozimligini belgilab qo'ydi, ularda O'zbekiston tarixi fanining tarixiga yangicha qarashlar va u yoki bu tarixchining tarixshunoslikka qo'shgan hissasiga yanada ko'proq e'tibor qaratishga va bu manbalarni chuqurroq tahlil qilishga harakat qilindi.

Darhaqiqat shuni yodda tutish kerakki, tarixchilarning asarlarini bilmasdan turib, ularning tarix faniga qo'shgan hissasini ham, O'zbekistonda tarix fanining rivojlanish jarayonini ham ob'ektiv baholash mumkin emas. Tarixshunoslik faniga qo'yiladigan talablar O'zbekiston tarixini daliliy manbalarga tayangan holda chuqurroq tadqiq qilish, jarayonlarning sabab va oqibatlari bo'yicha tarixiy bilimlardan kelib

chiqqan holda o'z fikr-mulohazalarini bildirish, qiyoslash, xulosa chiqarish va ulardan tadqiqotchilikda keng foydalanishga o'rganishdir.

Tarixshunoslik fanini o'zlashtirish natijasida ta'lim oluvchilarda tarixiy bilimlarning mohiyati, shakllari va vazifalari haqidagi bilimlar shakllanadi, tarixiy jarayoni rivojlanishining zamonaviy kontseptsiyalari o'rganiladi va tahlil qilinadi, tarix fanining shakllanishi va rivojlanishining umumiy qonuniyatlari hamda milliy xususiyatlari bo'yicha ko'nikmalar takomillashadi. Buning uchun ta'lim oluvchilar tarix, tarixshunoslik nazariyasi va metodikasi muammolarini, tarixnavislik tomonidan qo'llaniladigan asosiy tushunchalar, tarixiy bilimlarning shakllanishiga va tarix fanining rivojlanishiga ta'sir etuvchi omil va hodisalarni bilishi lozim.

MAVZU № 1. TARIXSHUNOSLIK FANINING NAZARIY ASOSLARI

REJA:

1. Tarixshunoslik fanining maqsad va vazifalari. Tarixshunoslik fanining tarix va ijtimoiy fanlar doirasida tutgan o'rni
2. Birinchi tarixiy va ilmiy-tarixiy asarlar
3. O'rta asr insonparvarlik (gumanistik) tarixshunosligi, tarixni yangicha davrlashning boshlanishi

Tayanch so'z va iboralar: tarixshunoslik, tahlil usullari, aniq, mantiqiy, xronologik, davriylashtirish, yozuv, insonparvarlik, qiyoslash, xolislik, haqqoniylik, ilmiylik, izchillik

1. Tarixshunoslik fanining maqsad va vazifalari. Tarixshunoslik fanining tarix va ijtimoiy fanlar doirasida tutgan o'rni

O'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi. Jamiyat taraqqiyotining asosi, uni muqarrar xalokatdan qutqarib qoladigan yagona kuch - ma'rifatdir. Ma'naviyat, ma'rifatni targ'ib qilish har bir ziyolining vijdon ishidir. Ma'rifatchi fidoyi bo'lmog'i kerak. Ammo tarixni yaxshi bilmasdan turib, yuksak ma'naviyatga erishib bo'lmaydi. Ma'naviyatni tiklashi, tug'ilib o'sgan yurtida o'zini boshqalardan kam sezmay, boshini baland ko'tarib yurishi uchun insonga, albatta tarixiy xotira kerak. Tarixiy xotirasi bor inson -irodali inson. Kim bo'lishidan qat'iy nazar, jamiyatning har bir a'zosi o'z o'tmishini yaxshi bilsa, bunday odamlarni yo'ldan urish, har xil aqidanar ta'siriga olish mumkin emas. Tarix sabokdari insonni xushyorlikka o'rgatdtsi, irodasini mustahkamlaydi. Inson uchun tarixdan judo bo'lish - hayotdan judo bo'lish demakdir. Har qanday sivilizatsiya ko'pdan-ko'p xalqlar, millatlar, elatlar faoliyatining va samarali ta'sirining mahsulidir. Bir so'z bilan aytganda ko'chmanchi, bosqinchilar kelib ketaveradi, lekin xalq boqiy qoladi, uning madaniyati abadiy yashaydi. Tarix - xalq ma'naviyatining asosidar. Modomiki, o'z tarixini bilgan, undan ruhiy quvvat oladigan, xalqni yengib bo'lmas ekan, biz haqiqiy tariximizni tiklashimiz, xalqimizni millatimizni ana shu tarix bilan qurollantirishimiz zarur.

Fanning vazifasi kelajagimizning shakli-shamoyilini yaratib berish,

ertangi kunimizning yo'nalishlarini, tabiiy qonuniyatlarini, uning qanday bo'lishini ko'rsatib berishdan iborat, odamlarga mustaqillikning afzalligini, mustaqil bo'lmagan millatning kelajagi yo'qligini, bu tabiiy bir qonuniyat ekanini isbotlab, tushuntirib berish kerak. Fan jamiyat taraqqiyotini olg'a siljituvchi kuch, vosita bo'lmog'i lozim. O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti Islom Karimovning "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" nomli risolalarida ta'kidlangan qimmatli fikrlar va yo'l-yo'riqlar siz bo'lajak tarixchi - mutaxassislar uchun ham dasturil-amaldir. Tarix ilmi sohasida sizlar o'rganayotgan fanlarning muhimlaridan yana biri - tarixshunoslik fanidir. Tarixshunoslik (istoriografiya) tarix fanining o'z tarixi (tarix ilmi, tarixiy hodisalar talqinidagi kurash, tarix fanidagi metodologik yo'nalishlarning almashinuvi va buni o'rganuvchi sohasi (Entsiklopedik lug'at. 2-tom. Toshkent. 1990 y. 248-bet).

Tarixchi tarixiy manbalarni bilishdan tashqari, o'z fanining tarixini, ya'ni istoriografiyasini ham bilishi, uning hozirgi zamondagi ahvoli bilan tanish bo'lishi, shuningdek, o'z o'rnida, zarurat bo'lganda foydalanishi lozim, deb hisoblaymiz.

Tarix - ijtimoiy fan bo'lib, u ideologiya va ijtimoiy taraqqiyot bilan mahkam bog'liqdir. Qadim zamonlardayoq tarixchilar tarixiy jarayonni, uning sabablarini, xarakterini va natijalarini ham aniq tasvirlashga, ham puxta o'ylab ko'rishga o'ringanlar.

Tarixshunoslik tarix fanining tarixini o'rganuvchi fan, u tarixiy bilimlar taraqqiyotini, muayyan tarixiy bosqichda yaratilgan ilmiy maxsulotlarni yoki ma'lum bir muammoga bag'ishlangan tarixiy tadqiqotlarni o'rganadi va tahlil qiladi. Tarixshunoslik nafaqat tarix, balki maxsus tarix fanlari (masalan, sharqshunoslik, etnologiya, arxeologiya va b) tarixi bilan xam shug'ullanadi. Tarixshunoslikning asosiy vazifasi tarix fani rivojini chuqur va har tomonlama xolisona anglashdan, muayyan taraqqiyot davrida to'plangan tarixiy bilimlarni tahliliy tadqiq etishda amalga oshirilgan ishlarning natijasini chiqarishdan hamda shu asosda tadqiq etilgan dolzarb muammolarni aniqlab, kelgusi tadqiqotlarning yo'nalishlarini belgilashdan, tarixchilarni muayyan tarixiy-ilmiy muammo doirasidagi adabiyotlarga yo'naltirishdan iborat. Tarixshunoslik o'tmishda kechgan va bugunda sodir bo'layotgan voqea-xodisalarning odamlar ongida qanday aks etishini, tarixiy adabiyotlar orqali ijtimoiy-tarixiy rivojlanish jarayonini kuzatish; jamiyat tarixiy rivojining turli bosqichlarida tarixiy bilimlarning o'sib borish jarayonini

kuzatish imkonini beradi. Boshqacha aytganda, ma'lum bosqich yoki davrda tarix fanining rivojini jamiyat taraqqiyotining asosiy yo'nalishi bilan bog'liklikda ifodalaydi, ijtimoiy-siyosiy, mafkuraviy muhitning tarix faniga ta'sirini, u yoki bu yo'nalishdagi rivojlanish va tanazzulga yuz tutish sabablarini aniqlaydi. Tarixshunoslik shuningdek, fan taraqqiyotida o'z o'rniga ega bo'lgan ilmiy-tadqiqot markazlari tarixini, unda faoliyat ko'rsatgan ilmiy kadrlarning salohiyati, ularning fan rivojiga qo'shgan xissalarini o'rganish kabi vazifalarni xam bajaradi.

Tarixshunoslik tadqiqotlarining bir qancha tahlil usullari mavjud:

qiyosiy tarixiy usul - turli tarixiy davrlarda tarixiy ma'lumotlar qanday paydo bo'ldi, harakatlandi, o'zgardi va rivojlandi, jamiyat taraqqiyotida tarixiy fikrlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi jarayonini aniqlashda qo'llaniladi;

aniq - tahliliy usul- o lib borilgan tarixshunoslik tadqiqoti voqea-xodisalar tafsilotini kelib chiqish sabablari, rivojlanish jarayonini nazariy va daliliy materiallarning o'zaro aloqasida tahlil qiladi, ularning fanda qanday yoritilganligini o'rganadi;

mantiqiy tahliliy usul - tarixshunoslikda katta imkoniyatlarga ega bo'lib, tarixiy muammoning o'ziga xos xususiyatlari, tuzilishi, boshqa tarixiy hodisalar bilan bog'likligini o'rganishda qo'llaniladi. Boshqacha aytganda, ma'lum bosqich yoki davrda tarix fanining rivojini jamiyat taraqqiyotining asosiy yo'nalishi bilan bog'liqlikda ifodalaydi;

xronologik usul - voqea xodisalar haqida turli bosqich yoki davrda to'plangan tarixiy dalillarni o'zaro bog'likda o'rganishda qo'llaniladi. Bu esa turli zamonda ilmiy fikrlarning harakatini, muammoga yondashuvda kontseptsiyalar, qarashlar, g'oyalarning g'zgarib borishini xronologik tartibda takroriy yoki xilma-xil jihatlarini ochib beradi;

davriylashtirish usuli - ma'lum bir tarixiy-davriy chegarada tarix fanining sifat, uslub va xususiyatlarining o'zgarishiga ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning ta'siri, har bir yangi bosqichda vujudga kelgan ilmiy g'oyalarni harakatlantiruvchi omil va yo'nalishlar aniqlanadi;

retrospektiv tahlil - har bir ilmiy adabiyot o'z davriga taalluqli bo'lib, uning kuchli va kuchsiz jihatlarini o'zida aks ettiradi.

Tarixshunoslik tadqiqotlarida tadqiqotchining vazifasi o'zidan avvalgi bosqichlarda yaratilgan ilmiy asarlarni zamonaviy bilimlar nuqtai nazaridan o'rganish, ularning ijobiy va salbiy jihatlarini tahlil qilishdan iborat.

2. Birinchi tarixiy va ilmiy-tarixiy asarlar

Yozuvlar vujudga kelganiga qadar epik asarlar (epos grekcha so'z bo'lib, doston, rivoyat, afsona asarlarini anglatadi) tarixni o'rganish uchun yagona manbaa edi. Yozuvlar ixtiro qilinganidan so'ng esa toshlar yoki binolardagi bitiklar va yilnomalar - eng qadimiy yozma tarix manbalari hisoblanadi.

Mashhur yunon tarixchisi, "Tarix otasi" Gerodotning (eramizdan avvalgi V asr 480-425 yillar) "Tarix" kitobi bizgacha yetib kelgan eng qadimiy tarixiy manbadir. U o'zining mashhur asarida birinchi marta qadimgi Sharq xalqlari tarixining ocherkini yozgan, bu ocherkning ko'p qismi juda sodda bo'lsada, lekin katta mahorat bilai yozilgan va qimmatli fikrlar bayon etilgan asardir. Eramizdan avvalgi I asrda yashagan Diodor "Tarix kutubxonasi" nomli asarida o'zidan oldin o'tgan tarixchilarning turli asarlaridan, xususan Gerodot bilan Ktesiy asarlaridan keng foydalangan. Diodor osur podsholigining asoschilari Nin va Semiramidning afsonaviy hayot va faoliyatlarini ayniqsa mufassal tasvirlagan.

Eramizdan avvalgi I asrning oxiri va eramizning I asri boshlarida yashagan Strabonning "Geografiya"sida qadimgi Mesopotamiyaning tarixi haqida ma'lumotlar saqlanib qolgan. Strabon o'z asarida Mesopotamiyaning tabiiy sharoitini tasvirlagan hamda Dajla va Frotning vaqti-vaqti bilan bo'lib turadigan toshqiniga va sun'iy sug'orish tarmoqlari tashkil qilishniig zarurligaga e'tibor bergan. Strabonning ko'pgina kuzatishlari anchagina qiziqarli bo'lsada, lekin uning tasvirlarida juda mubolag'a qilib yuborilgan joylar ham bor. U bobilliklarning urf-odat va kiyim-kechaklari, uylanishdagi rasm-odatlari va ko'mish marosimlarini batafsil tasvirlagan. Strabon o'zining bu hikoyalarida ko'p narsalarni tasvirlashda Gerodotga ergashgan. Strabon asarida Bobil va undagi Xaldeya astronomlari observatoriyasining ajoyib ta'rifi, shuningdek Nin va Semiramida haqida qadimgi davr tarixshunosligida keng o'rin olgan afsonalar kabi tarixiy afsonalar saqlanib qolgan. Shuning uchun ham bu afsonalarning avloddan - avlodga o'tishi va keyingi vaqtlargacha saqlanib kelinganligi ajablanarli emas. O'rta asr tarixchilari bu afsonalarni qadimgi zamon tarixchilari yozib qoldirgan oz-moz ma'lumotlar bilan birga, yangi davr boshlarida qadimgi Sharq olimlarining allaqachonlar unitilgan xalqlari madaniyatiga qaytadan

qiziqish uygotgan olimlarga meros qilib o'tkazganlar.

Miloddan avvalgi V-IV asrda yashagan Fukididning Peloponnes urushlari haqidagi asarini dunyodagi birinchi ilmiy tarixiy asar deb e'tirof etishadi. Bu asar o'sha davr tarixiy voqealarining ishonchli va haqoniy tasvirlanganligi bilan ajralib turadi, Gerodot asariga nisbatan Fukudid asari olg'a tashlangan qadam edi. Uning kitobida hayot voqealariga Olim "Xudo"larining aralashuvini ko'rmaymiz. Fukudid asarida tarixiy tahlilning asosiy talablari - voqealar guvohlarining aytganlarini taqqoslash va bevosita o'sha voqea qatnashchilarining hikoyalaridan foydalanish kabi fazilatlarni ko'ramiz,

Fukudid ham asotirlar, miflardan foydalanadi va bunda asosiy e'tiborni tarixiy taraqqiyotga iqtisodiy omillarning ta'siriga qaratadi. Tarixiy dalillarni aniq bayon qilish va haqiqatni aniqlashga intilish Fukudid asarining asosiy fazilatidir. Fukudid birinchi bo'lib tarixni pand-nasihat qiluvchi fan deb hisoblagan edi. U yozgan ediki, tarixning maqsadi, ilgari uylaganlaridek, o'tmish haqida qiziqarli hikoya qilib berishdan iborat emasdir, uning maqsadi - voqealarni haqqoniy tasvirlab berishdan iborat, toki avlodlar undan foyda chiqara olsinlar. U yozgan ediki, biron-bir ahamiyatsiz tarixiy dalilni to'g'ri va oddiygina bayon qilish uni turli uydirmalar bilan bezab-bejashdan ko'ra xiyla yaxshiroqdir. U o'z tarixida faqat o'z ko'zi bilan ko'rgan-bilgan kishilarning shahodatidangina foydalanib qolmasdan, shu bilan birga hujjatli manbaalar - shartnomalar va har xil obidalarga yozilgan yozuvlardan ham foydalangan. Shu tariqa u birinchi bo'lib tarix sohasiga ob'yektiv manbalarni taqdim qilgan.

Fukudid tarixi o'sha davrning ilmiy asaridir, u jiddiy xronologik tarzda yozilgan, unda u yoki boshqa voqealarning sabab va natijalari manbalarga asoslangan holda bayon qilib beriladi. U tarixiy taraqqiyotni turli xildagi kishilar va guruhlar manfaatlarining kurashi natijasi deb qaragan. Uning tarixining birinchi, muqaddima kitobida eng qadim zamonlardan boshlab Gretsiya tarixi qisqacha bayon qilingan. Er.avv. IV asrda tarixchi Ksenofont (er.avv. 430-355 yilda)ning asarlari Gerodot va Fukudid asarlaridan o'zining ochiq siyosiy manfaatdorligi bilan farq qiladi, lekin uning asarlari Gretsiyaning er.avv. IV asrdagi tarixi uchun muhim manbadir. Ksenofont 120 dan oshiq asar yozgan. Mehnatsevarligi uchun unga "Attika asalarisi" deb laqab qo'yilgan. Ksenofontning asosiy asarlari - grek davlatlarining tarixi bo'lib, ular "Eppenika",

"Anabasis", "Xo'jalik haqida" traktat va –"Lakedemon politiyasi"dan iborat. Birinchi asarida u Fukudidning Peloponnes urushi haqidagi tarixini er.avv 404 yilga yetkazib tamomlagan va so'ngra Gretsiya tarixini yozishni davom ettirgan. "Anabasis" asarida u er.avv 401 yilda 10000 grekning Eronga qilgan yurishini tasvirlagan. Ksenofont er.avv IV asrning birinchi yarmida grek dunyosining qimmatli tasvirini chizib beradi hamda greklarning yurishi vaqtidagi Kichik Osiyoni tasvirlab ko'rsatadi. Xo'jalik haqidagi traktatida u er.avv IV asrda Gretsiyaning ekonomikasiga oid muhim dalillarni yoritib beradi.

"Lakedemon politiyasi" asarida u Spartaning konservativ aristokratik tuzumini ideallashtiradi. Eramizdan avvalgi II asrda grek tarixchisi Polibiy (eramizdan avvalgi 200-120 yillar) yashagan davr Gretsiya uchun juda qayg'uli bo'lgan. Bu davr Makedoniya urushlari va Gretsiyaning Rim tomonidan asoratga solinishi davri edi. Polibiy garov tariqasida Rimga yuborilgan. Polibiy O'rta dengiz mamlakatlarini o'z ichiga olgan "Umumiy tarix"ni yozgan, bu tarixdan bizga faqat uchdan bir qismigina yetib kelgan. Polibiy tarixi muhim tarixiy manbadir.

Polibiy voqealarni chuqur o'rgangan, hodisalarning sababli aloqasini aniqlagan va o'z tafsilotlarini aniq-ravshan qilib yozgan. U Rim O'rta dengizni zabt etgan davrni, ellinistik davlatlarning Rim bilan kurashini aks ettirgan.

Polibiy tarixi ellinistik Gretsiya, Makedoniya, sharqiy ellinistik davlatlar uchun hamda Rim tarixi uchun manbadir, chunki unda ellinistik davlatlarning ichki holati va Rim bilan kurashi tasvirlab ko'rsatilgan.

Polibiy har bir davlatning tarixini yakka holda emas balki boshqa davlatlar bilan o'zaro aloqador holda o'rganmoq kerak, deb hisoblagan. U ta'kidlab ko'rsatadiki, men umumiy tarixni yozayotibman, bu kishilarning faoliyati natijasida rivoj topgan progmatik (amaliy) tarixdir, mening maqsadim - Rimning nisbatan tez fursatda ellinistik mamlakatlarning ko'p qismi zabt etishining sababini aniqlashdir. Kelib chiqishi va dunyoqarashi jihatidan Polibiy aristokrat bo'lgan.

Er.av I asrda tarixchi Diodor Sitsiliy (er.avv 90-21 yillar) yashagan. U Sitsiliyada tug'ilgan va o'z hayotining ko'p qismini shu yerda o'tkazgan. Diodor jahon tarixiga oid katta asar yozib, uni "Tarixiy kutubxona" deb atagan. Afsuski, Diodor Sitsiliy asarlariniig ko'p qismi yo'qolgan, lekin saqlanib qolgan qismlari ham katta qiymatga egadir.

Yozuvchi Plutarxning eramiz I asrining ikkinchi yarmida - II asrning

boshlariga oid asarlari Gretsiya tarixi bo'yicha ham Rim tarixi bo'yicha ham juda ahamiyatlidir. Plutarx eramizning 46-126 yillar Gretsiyaning Xeroniya shahrida tug'ilgan, bu vaqtda Gretsiya Rimning bir viloyati edi. Plutarx Afinada juda ajoyib ma'lumot olgach, so'ngra o'z vataniga qaytgan va umrining oxirigacha o'sha yerda istiqomat qilgan.

Uning asarlaridan "Siyosiy biografiyalar" ayniqsa mashhur bo'lib, bu asarlarida u avval biror mashhur arbobning biografiyasini, so'ngra unga o'xshash Rim arbobining biografiyasini yozgan. Oxirida mazkur shaxslarni bir-biriga taqqoslab ko'rgan va ularning o'xshashligi va tafovuti haqida so'zlagan. Jiddiy suratda aytganda u yozgan tarjimai hollar tarix emasdir, hatto uning o'zi ham bir necha marta, men tarixchi emasman degan, lekin ayni vaqtda Plutarx atoqli davlat arboblarining hayoti va faoliyatini tasvirlab yozar ekan, voqealarni siyosiy ta'riflarni tilga olmasdan. o'tishi mumkin emas edi. Uning asarlari yana shuning uchun ham benazir tarixiy manbadan iboratki, u ham Diodor singari, biografiyalarda qadimgi mualliflarning bizgacha yetib kelmagan asarlaridan foydalangan.

3. O'rta asr insonparvarlik (gumanistik) tarixshunosligi, tarixni yangicha davrlashning boshlanishi

Tarixshunoslik tarix faniga nisbatan yangi fan xisoblanadi. O'rta asrlarda yaratilgan ba'zi tarixiy asarlarda, jumladan, Abu Rayxon Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" va "Xindiston", Abu Bakir Narshaxiyning "Tarixi Buxoro", Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma", Boburning "Boburnoma", Muhammad Yusufbek Bayoniyning "Tarixi Xorazm", "Shajarai Xorazmshoxiy", Axmad Donishning "Buxoro amirligining tarjimai xollari" va boshqalarda muayyan ma'lumotlarni umumlashtirishga, dalil va tarixiy jarayonlar bayonida tahliliy yondashuvga bo'lgan harakatlar kuzatiladi.

O'rta asr insonparvarlik (gumanistik) Uyg'onish davri alohida ahamiyat kasb etadi. XIV-XV asrlarda Florentsiyadagi gumanizm arboblaridan biri Leonardo Brunini (1369-1444). U o'zining 12 kitobdan iborat "Florentsiya tarixi" nomli asarini yozib, unda XIV asrlarda bu shaharda yuz bergan ijtimoiy harakatlarga katta e'tibor beradi.

Lirik tanqidchi, faylasuf, tarixchi va filolog, Epikurning muxlisi Lorentso Valla (1407-1457) Florentsiya gumanistlari bilan bog'langan

edi. Lorentso Valla papa kuriyasining bir qancha hujjatlari (shu jumladan, mashhur "Konstantin sovgasi") soxta ekanligini isbot qildi, bir vaqtlar u papa kuriyasiga qattiq nafrat bilan qarardi, hatto bugun papa davlatini sekulyarizatsiya qilish loyihasi ham ishlab chiqqan edi. Valla Tavrot tekstini ilmiy jihatdan tanqid qilishni ham boshlab berdi. "XIV-XV asrlardagi boshqa tarixchi gumanistlardan Flavio Biondo (1388-1463) eng ko'p nom qozongan bo'lib, u "Rim imperiyasining qulashidan boshlanadigan tarix" (410 yildan 1410 yilgacha bo'lgan davr) nomli umumlashtiruvchi tavsifdagi katta asar yozdi. Bu asarning eng qimmatli tomoni shundaki, Biondo asl ma'nodagi o'rta asr davrini eng keyingi davrdan (XV asr va undan keyingi) ochiq-oydin qilib, eng keyingi o'rta asrni yangi tarixning alohida davri deb qaradi".

Florentsiyaning eng mashhur siyosiy arbobi Nikolo Makiavelli (1469-1527.) ulkan mutafakkir, tarixchi, huquqshunos va faylasuf bo'lgan. Makiavelli "Florentsiya tarixi"ning muallifi hamda qadimgi Rim tarnxchisi Tit Liviy va qadimgi davrdagi boshqa avtorlar yozgan asarlarning sharhlovchisidir. Ammo u o'zining "Podsho" degan (taxminan 1512 yilda yozgan) kitobi bilan shuhrat qozongan. Makiavelli bu kitobida Italiyaning o'sha davrdaga ilg'or sinflarining milliy birlik yo'lidaga intilishlarini yaqqol ifodalab bergan. Jan Boden (1530-1596), Tomas Mor (1478-1535) Sebaet'yan Frank (1499-1542) asarlari Germaniyada gumanizmning qanchalik kuchli ta'sir etganligini ko'rsatadi, jumladan:

O'rta asr Yevrona tarixshunosligining o'ziga xos hususiyatlari;

XVI-XVII acrlardagi feodal va burjua qarama-qarshiliklarning tarix dalillariga ta'siri masalalari Burjua ijtimoiy va tarixiy fikrning paydo bo'lishi va shakllanishi;

XIX asrda Ogyust Kont (1799-1857) Ieorg Vil'gel'm, Fridrix Gegel' (1770-1831) va boshqalarning tarix to'g'risidagi fikri va qarashlari;

XX asrda Yevropadagi tarixshunoslik maktablari; .

Arnol'd Joze Toynbi, Kaetan'e, K.Yaspers ijodi;

Xil'da Xuk Xel' va boshqalarning tarixshunoslik metodlari va hokazolarning o'rganishimizda jahon tarixi tarixshunosligi fanining o'rni va ahamiyati beqiyosdir.

O'zbekistonda tarixshunoslik tarix fanining maxsus sohasi va alohida predmeti sifatida XX asrning II yarmida shakllandi. O'zbekiston FA Tarix instituti tashkil topgach, bir qator tarixshunoslar, jumladan

V.X.Nepomnin, R.N.Nabiev, I.K.Dodonov, L.M.Landa, X.I.Inoyatov, B.V.Luninlar muayyan muammolarning tarixshunosligini tadqiq qilishga kirishdilar. 1968 yil Tarix instituti qoshida "Tarixshunoslik" bo'limi tashkil etilishi bu sohaning rivojiga katta xissa qo'shdi (bo'limni 1968-1988 yillarda t.f.d. B.V.Lunin, 1988-1992 yillarda t.f.n. V.A.Germanov boshqargan, 1992 yillardan t.f.d. prof. D.A.Alimova rahbarlik qilgan.)

Ma'lumki istoriografiya tushunchasi ikki ma'noda qo'llaniladi:

1. Tarixiy bilimlar taraqqiyoti va tarixiy tadqiqot usullariga doir fan ma'nosida.

2. Muayyan tarixiy davrga yoki muammoga bag'ishlangan tarixiy tadqiqotlar majmuasi ma'nosida (masalan, hozirgi davr istoriografiyasi).

O'rta Osiyo xalqlari tarixining istoriografiyasi deganimizda, O'rta Osiyo xalqlarining eng qadimgi zamonlardan hozirgacha bo'lgan tarixiga manba bo'lib xizmat qiluvchi tarixiy tadqiqot, ya'ni tarixshunoslik asarlarini tushunamiz.

Tarix fan sifatida qachon va qanday paydo bo'lgan? Bu savolga javob olish uchun qadimgi, ya'ni qadimiyat istoriografiyasiga (manbalariga) murojaat qilish lozim bo'ladi.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Tarixshunoslik fanining maqsad va vazifalarini keltirib o'ting?
2. Tarixshunoslik tadqiqotlarining tahlil usullariga izox bering?
3. Yozuvning vujudga kelishi tarix faniga qanday xissa qo'shdi?
4. Insonparvarlik tarixshunosligi qachon va qanday boshlandi?
5. Yevropa tarixshunosligining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?

MAVZU № 2. QADIMGI DAVR TARIXSHUNOSLIGI

REJA:

1. Tarixshunoslikda yozuvlarning paydo bo'lishining ahamiyati
2. O'rta Osiyo xalqlarining qadimgi davrdagi ijtimoiy-siyosiy tarixi tarixshunosligi
3. Yunon-rim tarixchilari asarlarida O'rta Osiyo xalqlari tarixining yoritilishi
4. Musulmon tarixshunosligi

Tayanch so'z va iboralar: istoriografiya, epos, Iliada, Odisseya, Alpomish, Go'ro'g'li, Gerodot, umumjaxon tarixi, pragmatik tarix, Fukidid, Polibiy, Tabiriy, Maqdisiy, ibn Xaldun

1. Tarixshunoslikda yozuvlarning paydo bo'lishining ahamiyati

O'rta Osiyo xalqlarining qadimgi davrdagi ijtimoiy-siyosiy tarixini o'rganishda asosiy muammo ularning o'zlari haqida yozma manbalar kam qoldirganligidadir. Ko'chmanchilar ijtimoiy-siyosiy hayoti, turmush tarzi, xo'jaligi va madaniy hayoti haqida ma'lumot beruvchi turli davrga oid manbalar sayyox, savdogar, elchi yoki missionerlik tarzida yurtimizga kirib kelgan kishilar tomonidan umumiy tarzda yozib qoldirilgan. Ularda faqat ba'zi voqealar haqida ko'proq siyosiy voqealar haqida to'xtalib, xo'jaligi va yashash tarzi haqida umumiy ma'lumotlar yozilgan. Bu manbalarda O'rta Osiyoning alohida bir hududi haqida to'xtalilmay, umumiy ma'lumotlar keltirilgan. Masalan, xitoylik josus-elchilarni ko'proq bu o'lkada yashaydigan xaqlarning joylashuvi, chegaralari, aholi soni, qurollanishi ittifoqchilari qiziqtirgan. Shuning uchun ko'plab xujjatlar bir-biriga o'xshash va ularda ko'proq geografik nomlar keltirilgan.

"Avesto" yashtlarida ta'kidlangan turlar, danay-turlarining Yaksart saklari ekanligi. Avestoning muqaddas ilox Anaxitaga bag'ishlangan qismida dastlabki Turon podsholari qarorgohlaridan Qang'xa (Qang'ye) "baland va muqaddas" deb ta'riflangan siyosiy va diniy markazning Sirdaryoning o'rta oqimida bo'lganligi, bu xalqlardan xaomu pishiruvchi buyuk "tur"lar - xaumovarkalarning ham shu hududda yashashi

eslatiladi

Eron ahamoniylarining Bihustun bitiklarida saklarning katta guruhi saka - tigraxaudalarning Sirdaryo o'rta oqimida yashaganligi, ularning ittifoqlari haqida ma'lumot beriladi. Suzadagi saroy qurilishi haqidagi Doro I yozuvida uchi o'tkir kigiz qalpoqli saka - tigraxaudalar Ahamoniylarga xiroj olib kelayotganlarning o'n birinchi guruhida, ot yetaklagan, qo'llarida sarpo tutgan holda tasvirlangan[1].

Qadimgi davr mualliflari O'rta Osiyoning Sirdaryo xavzasini sak qabilalari konfederasiyasi tashkil topgan hududlardan biri deydi. Ular saklarning sug'dlar bilan qo'shnichiligi, So'g'dning sharqiy chegaralari Sirdaryo bo'yi dashtlari bilan tutash bo'lib, jangovor ko'chmanchilarni Yaksart daryosi sug'dliklardan ajratib turishi, bu saklarning Yaksart orti saklari saka - xaumavarkalar ekanligini ta'kidlaydi.

Dionisiy va Periyeigit So'g'd ortida, Yaksart bo'ylab, kamonda jang qiluvchi va dunyoda undan eng behato otuvchi saklar yashaydi deb ma'lumot beradi. Ma'lumki, davlatlar tashkil topishida aholining dehqonchilik vohalari bo'ylab joylashishi ham muhim ahamiyatga ega. Bunday jarayonlar miloddan avvalgi I ming yillikning so'ngi choragida Sirdaryo bo'ylarida ham jadal kechmoqda edi.

Qadimgi yunon tarixchilarining asarlarida O'rta Osiyoning chorvador xalqlari haqida batafsil ma'lumotlar uchraydi. Bu xalqlar tarixini yozish, Gomer, Esxil, Aristey kabi adiblar tomonidan boshlangan, lekin skif (sak va massaget)lar haqida keng va aniq ma'lumotlarni birinchi bo'lib miloddan avvalgi V asrlarda yashagan yunon tarixchisi Gerodot beradi. Ksenofont, Ktesiy (mil. avv V-IV asrlar) kabi tarixchilar ham bu qabilalar haqida ma'lumot bergan. Yunonlar bosqinidan keyingi rim manbalarida bu o'lkada yashovchi aholining mohir jangchilar ekanligi, ular Iskandarni Sirdaryoning naryog'iga o'tishga qo'ymaganligi haqida yoziladi

Skiflar turmush tarzi, urf-odatlari haqida Gippokrat (er.av. V-asr) Misr, Kichik Osiyo, Liviya va Skiflar mamlakatlariga qilgan safar kundaliklarida ma'lumot beradi.

Kvint Kursiy Ruf (milodiyI asr), Plutarx (milodiy I asr), Arrian (milodiy II asr), Pompey Trog (miloddan avvalgi I asr), Yustin (miloddan

[1] Абдуллаев А.А. Ўзбекистон тарихи\\T.,Университет, 1999, 43 б
[2] Геродот. История в девяти книгах.Книга четвертая. M.,1985. 219-232 c.

avvalgi II-I asrlar) kabi muarrixlar ham O'rta Osiyo ko'chmanchi qabilalarining turmush tarzi, urf odatlari va mashg'ulotlari to'g'risida ma'lumotlar beradi[1].

Qadimgi tarixchilardan Strabon (miloddan avvalgi I asr) birinchi bo'lib O'rta Osiyo ko'chmanchi xalqlarini umumiy bitta (skif) nomi bilan emas alohida hududiy joylashishiga qarab, mayda guruhlarini ham sanab ko'rsatadi. Uning yozishicha "Skiflarning katta qismi Kaspiydan boshlab sharqqa tomon daxlar deyiladi. Ulardan sharqdagilar sak va massaget deyiladi".

Miloddan avvalgi VI-IV asrlarga oid manbalarda hudud aholisi asosan chorvador ko'chmanchilar ekanligi ta'kidlansa, keyingi manbalarda (miloddan avvalgi IV-II asrlar) saklarning manzilgohlari, oddiy uylari borligi haqida ham ma'lumotlar berilgan[2].

Xitoy yilnomalarida ko'chmanchi sak qabilalari tomonidan asos solingan Qang' davlati haqida eslatiladi. Unda ta'kidlanishicha bu davlat Janubiy Qozog'iston, Toshkent voxasi, Sirdaryo bo'ylari, Xorazm va So'g'dgacha bo'lgan hududlarni birlashtirgan edi. Shuningdek qang'arlar haqida, "paxsa (loy) devorli uylar ichida yashovchi,"- deb ham ma'lumot beriladi. Bular hududda ko'chmanchi chorvadorlar bilan birga dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi aholi salmog'ining ham ancha bo'lganligini ko'rsatadi. Shuningdek, ilk o'rta asrlarga mansub Xitoy va arab manbalarida hududga tutash dehqonchilik viloyati bo'lgan Ustrushona haqida ko'plab ma'lumotlar berilgan.

Grek va Rim adabiyoti orqali boy va betakror tariximizning qadimgi davri tasvirlangan go'zal sahifalarga duch kelamiz. Hatto, Gomer davrlaridayoq, skiflarning nomi uzoq Afinaga yetib borgandi. Bu o'rinda Gomerning skiflar haqidagi fikri beixtiyor e'tiborimizni o'ziga jalb etadi. "Homer o'zining poemasida skiflar haqida kuylagan edi, - deb yozadi Flaviy Arrian "Aleksandrning yurishi" asarida. - Skiflar haqiqatgo'y odamlar bo'lgan. Ular Osiyoda yashaydi, bir oz kambag'alrog'u, ammo juda haqiqatgo'y". Demak, eramizdan ilgarigi VIII -VII asrlarda yashagan yunon shoiri Gomerning skiflarga bunday ta'rif berishi tasodifiy hol bo'lmasa kerak, albatta. Bundan ko'rinadiki,

[1] Бойназаров Ф.Ўрта Осиёнинг антик даври. Т., Ўқитувчи 1991, 296.

[2] Филанович М.И. Ташкент –Зарождения и развитие города и городской культуры. Т., Фан. 1983 14 стр.

o'sha davrlardayoq Gresiya bilan O'rta Osiyo o'rtasida siyosiy-madaniy aloqalar mavjud bo'lgan. Qadimdan jahon kezishni eng yaxshi odat deb bilgan grek va Rim sayyohlari O'rta Osiyoga bir necha marotaba tashrif buyurishgan. Gresiya, O'rta Osiyo, Xitoy, Hindiston mamlakatlari orasida karvon tinimsiz qatnab turgan. Eramizdan ancha ilgariyoq O'rta Osiyoliklarga Filotun - Aflotun (Platon), Suqrot (Sokrat), Arastu (Aristotel), Buqrot (Gippokrat), Faysoguras (Pifagor) nomlari yaqindan tanish edi. Bu ulug' olimlarni o'rta osiyoliklar xuddi o'zlarining donishmandlaridek hurmat bilan tilga olganlar. Ular haqida xalqimiz orasida donolik va aql-farosatdan hikoya qiluvchi xilma-xil afsonalar yaratilgan.

Uzoq yunon o'lkasi bilan O'rta Osiyo xalqlari o'rtasida qadim-qadim zamonlardayoq madaniy aloqa bo'lganligini aniq misollar orqali ham isbot etish mumkin[1].

Eramizdan avvalgi VI - V asrlardayoq bo'lib o'tgan eron-yunon urushi chog'ida uzoq yunon o'lkasidan Barkalik butun bir elat Baqtriyaga, milet o'lkasidagi Branxid va Everget qabilalari So'g'diyonaga Eron shohi Kir tomonidan badarg'a qilingan edi. Bu haqda Kursiya Ruf o'zining "Aleksandr Makedonskiy tarixi" asarida shunday bir qiziqarli lavhani keltiradi. Aleksandr branxidlar yashayotgan shaharga yetib boradi. Branxidlar shohni yaxshi kutib olib, darrov uning amriga bo'ysunadi. Miletliklar ilgaridan branxidlarni sotqinligi uchun yomon ko'rishar edi. Shuning uchun shoh branxidlar taqdirini hal qilishni ularga topshirdi. Miletliklar bu muammoni hal qila olmagach, shoh uni o'zi hal qilish uchun kirishib, shaharni o'rab oladida, bitta ham odam qoldirmay qirib tashlaydi.

Qadimdan Eron, Gresiya, Makedoniya, Misr, Parfyya, Mideya, Girkaviya, So'g'diyona, Baqtriya, hatto hind va rimliklar o'rtasida ham mustahkam do'stlik aloqalari mavjud bo'lgan[2]. Urush tufayli, savdo-sotiq, madaniy va adabiy aloqalar orqali bo'lsada, bu o'lkalarda yashovchi qabilalar, ellar va elatlar vakillari bir dasturxondan tuz nasiba yeyishgan, quda-qudag'ay bo'lishgan. Bir-birining tilini o'rganishgan, bir-birining dunyo e'tiqod qo'yishgan, bir-birining urf-odatlarini qabul qilishgan.

[1] Бойназаров Ф.Ўрта Осиёнинг антик даври. Т., Ўқитувчи 1991, 296

[2] Қадимги тарихчилар Ўрта Осиё хакида. Тузувчи ва таржимон Зоҳир аълам I Юрист медиа маркази 2008, 75 б.

Bir-biridan nasl-nasab orttirib, musofirlik azobini birga totishgan. Ko'pgina tarixchilar, mabodo Eron, Gresiya, Misr, Makedoniya, Rim, Marg'iyona, Girkoniya, Turkiya, Kavkaz, So'g'diyona, Baqtriya, hind o'lkasining qadimgi dunyosi haqida so'z yuritishganda faqat qirg'in-barot urushni, jaholatni, vahshiylikni, yovuzlikni eslashadi. To'g'ri, bularning hammasiga urush sababchi, ammo mustahkam do'stlik, quda-andachilik, qo'shnichilik va hamdardlik, madaniy va adabiy aloqalar ham bo'lgan. Qadimgi dunyo xalqlarining turli xil aloqalari haqida yoki urushlar tarixiga to'xtalganda masalaning mana shu tomoniga ham e'tibor berishimizga to'g'ri keladi.

"Iliada" va "Odisseya" dostonlarida eramizdan ilgarigi XIII - XII asrlar voqealari tasvirlanadi. Bu davrda greklar bilan troyaliklar o'rtasida bo'lib o'tgan qirg'in-barot urush o'n yildan ko'proq vaqt davom etadi. Gomerning "Iliada" dostonida tasvirlanishicha; yunonlar Troya yerlarini zabt etganlarida Qora dengiz sohillariga - Paflagoniya, Sangariy viloyatlariga kelganligi. Hippomolglar bilan uchrashganligi qayd qilinadi. Biroq, shu o'rinda Homer qaysi asrni nazarda tutyapti? O'zi yashagan zamonnimi yoki yunon-troya urushi (eramizgacha XIII - XII asr) davrinimi? Masalaning bu jihati hozircha tarixchilarga ma'lum emas. Osiyoning g'arbida joylashgan, qulay va go'zal geografik sharoitga ega bo'lgan, hozirgi Turkiya davlati hududida barpo etilgan muhtasham va ulkan Troya shahrini greklar o'n yil davomida qamal qilib turadi. Greklarning ayrim to'dalari o'shanda skiflar yurtiga kelgan. Greklarning Olviya o'lkasiga qachon va qanday kelib qolganligi xususida olimlar o'rtasida hamon kuchli munozara, tortishuv ketmoqda[1].

Olviya shahri skiflarga juda yaqin masofada joylashgan edi. Hatto bu shaharda ayrim skif vakillarini ham uchratish mumkin edi. Gerodot Qora dengiz qirg'oqlari bo'ylab safardaligida Olviya shahri va ularga yaqin joylashgan skiflar haqida qiziqarli ma'lumotlarni eshitadi. Undan ilgari xam skiflar haqida talaygina kitoblarni o'qib, ularning hayot kechirish tarziga qiziqib qolgan edi. Grek tarixchisi Gekatay asarlaridan skiflar haqida birmuncha ma'lumotlar olgan edi. Qadim zamonlarda Aristey o'zining "Arimasplar" poemasida skiflar hayotini kuylagan. Ulug' so'z san'atkori Gomer o'zining "Odisseya" poemasida skiflar yurtiga qisqacha ta'rif berib, "bu yerlar hamma vaqt tuman bilan qoplangan.

[1] O'sha manba. 83 б.

osmondan qalin bulutlar suzardi" (XI qo'shiq. 14 - 15 miyeralar) deb aytgan edi.

Mana shu dalillarning o'ziyoq yunonlarning eramizdan ilgarigi VIII-VII asrlarda skiflar hayotiga qiziqish bilan qaraganligi, hatto skiflar yurtiga kelib ketganligidan, Yevropa va Osiyo mamlakatlari o'rtasida iqtisodiy-siyosiy aloqa mavjud bo'lganligidan dalolat beradi. Darhaqiqat, yunonlar bilan troyaliklar o'rtasidagi qariyib o'n yildan ziyod davom etgan qirg'in-barot urush, eramizdan avvalgi XIII asrda bo'lib o'tgan edi. Grek lashkarlari hozirgi Turkiya yerlariga bostirib keladi. Hatto Qora dengiz bo'ylaridagi ayrim elatlarni ham o'zlariga qaram qilib oladi.

Gomerdan so'ng skiflar hayotiga qiziqish bilan qaragan ma'rifatli ziyolilardan biri Gerodot edi. Gerodotning skiflar hayotiga qiziqish bilan qarashida Gomer ijodining ta'siri bor, albatta. Gerodot dunyoga kelgan Galikarnos shahri Gomerning ona shahri Ioniyaga qo'shni hududda edi. Shuning uchun ham Gomer poemalari Ioniya atrofidagi shaharlarda juda ko'p nusxalarda keng tarqalgandi. Galikarnosliklar Gomer poemalarini o'qishni o'zlari uchun sharaf deb bilganlar. Hatto ular uchun Gomer poemalarini yod olish odat tusiga kirgan.

2. O'rta Osiyo xalqlarining qadimgi davrdagi ijtimoiy-siyosiy tarixi tarixshunosligi

O'rta Osiyoda hududida yashagan xalqlar o'tmishini davrlar silsilasidan holi chegaralangan ko'rinishda kechgan deb tasavvur qilish mumkin emas. Tarixiy jarayonlarni o'rganishdagi yondashuvlar keyingi yillarda sifat jihatidan yangi nazariya – ijtimoiy tuzumni qaytadan tasniflash masalasini ham taqozo etmoqda. O'rta Osiyo xalqlarining ijtimoiy hayoti masalasida, XIX asr 80 yillaridan buyon qator tadqiqotchilar tomonidan turli xil fikrlar aytilgan. Ushbu tadqiqotlar natijasida, ko'chmanchilar jamiyati tuzilishida kuchli ijtimoiy - iqtisodiy differensasiya mavjud bo'lib, ular jamiyati urug' qabila tuzumining yuqori cho'qqisi - harbiy demokratiya ko'rinishida bo'lganligi, quldorlik tuzumi miloddan avvalgi V asrdan boshlangani, keyingi davrdagi jamiyat tuzilishi harbiy demokratiya yoki ilk feodal - patriarxal ko'rinishida bo'lganligi kabi

xulosalar chiqarilgan[1]. Biroq, hanuz ushbu masalalarda yagona, o'z tasdig'ini to'liq topgan ilmiy fikrga kelinmagan. B.A.Litvinskiy ko'pgina sak qabilalari sinfiylik belgilari mavjud bo'lgan jamiyatda yashaganligini takidlaydi[2]. G.Ye.Markov, O'rta Osiyoliklar jamiyatida mulkiy tabaqalanish mavjud bo'lsada, tabaqaviy va sinfiy differensasiyaning sust rivojlanganligi, chorvaga nisbatan xususiy mulkchilik saqlangan holda, yer - yaylovlar umum jamoa, qabilaga tegishli bo'lgani, boy chorvadorlarning yollanma mehnatdan foydalangani, bir nechta qabilalarning harbiy ittifoqlarga birlashib, ularning o'z qo'shini mavjudligi, dashtning ma'lum qismini nazoratda tutadigan qabilaviy tashkilot faoliyati, jamiyatning asosi esa urug'chilik an'analariga tayanishi kabi qator xususiyatlarni sanab ko'rsatadi. Ularga asoslanib muallif, O'rta Osiyoliklarda kuchli mulkiy va ijtimoiy differensiya jarayoni va sinflar tashkil topishi, ya'ni sinfiylik jamiyati mukammal tugallanmagan ko'rinishda bo'lgan degan xulosaga keladi. S.P.Tolstov Xorazm bilan kuchli aloqada bo'lgan massaget qabilalarida sekinlik bilan davlatchilik shakllanganligini ta'kidlagan[3]. Biroq, keyinchalik, bu fikrini tasdiqlaydigan materiallarning kamligi tufayli unga turlicha e'tirozlar bildirilgan. Gerodot, skiflarning o'z podshosi borligi, Plutarx ularning podsholaridan, Idanfirs, Ateya haqida, Strabon esa ko'chmanchi skiflar podshosi Sirn haqida ma'lumot berib, ularning oddiy odamlar ekanligini ta'kidlaydi. O'rta Osiyo xalqlarining jamiyati miloddan avvalgi II asrdan milodning VIII-IX asrlarigacha quldorlik bosqichi (jamiyati) ni bosib o'tganligi va bu jamiyat harbiy quldorlik demokratiyasi shaklida rivojlanganligini, milodiy eramizdan avvalgi I ming yilliklardagi ilk ular jamiyatini davlatchilikkacha bo'lgan ittifoq, o'rta asr ko'chmanchilari jamiyatini esa davlatchilik ko'rinishiga ega bo'lgan siyosiy tuzilma sifatida e'tirof etish mumkin. O'rta Osiyoliklar jamiyatida sharq despotizmi deb atalgan holat ham o'troq dehqonchilikdagi kabi rivojlangan shaklda bo'lmagan. Milodiy eramizdan avvalgi I-ming yillik boshlariga kelib dastlabki davlat konfederasiyalariga asos solinadi "Avesto"da

¹ Мамбетуллаев М.М. Кочевники Приаралья и их этнокультурные связи с Хорезмом // Культура номадов Централной Азии. – Самарканд: 2008. – С.130., Хазанов А.М.Социальная история скифов. –М.: 1975. –С. 265

² Литвинский Б.А. Древние кочевники «Крыши мира» – С. 194.

³ Толстов С.П. Древний Хорезм. Опыт историко-археологического исследования –М.: МГУ, 1948 –С. 54

ular "turlar" deb nomlanadi. Qadimgi manbalarda Sirdaryo havzasi sak qabilalari konfederasiyasi tashkil topgan hududlardan biri bo'lib, bu saklarning kamonda jang qiluvchi va undan bexato otuvchi, mergan Yaksart saklari – saka-xaumavarkalar ekanligi ta'kidlanadi[1]. K.A.Abdullayev ba'zi tadqiqotlarda saka-xaumovarkalarni saka amyurgiyalar bilan chalkashtirish hanuz davom etayotganligini uqtirib, ko'plab yozma manbalar tahlili asosida, "xaoma iste'mol qiluvchi xaumovarkalarning yashash joyi Sirdaryo o'rta oqimida bo'lgan",- deb ta'kidlaydi[2]. O'rta Osiyo xalqlarining qadimgi davrdagi davlatchilikning asosiy xususiyatlari Qang' davrida shakllanadi. Qang' to'g'risidagi ilk ma'lumotlar «Avesto»da uchraydi, bu manbada u Qangxa deb nomlanadi. Qang' davlati [illegible] sak qabilalari bo'lib, ular Jetiasar madaniyati vakillari bilan kuchli aloqada bo'lgan. Miloddan avvalgi II va milodiy II asrlarda bu davlat tarkibiga Suse (Kesh Shahrisabz), Fumu (Zarafshon vodiysi), Yuyni (Toshkent vohasi), Gi (Buxoro vohasi), Yuyegyan ([illegible] shahri va atrofi) zabt etilganligi, unga qarashli Kan, Mi, Sao, [illegible]. Mu kabi dehqonchilik viloyatlar bo'lganligi eslatiladi. Miloddan avvalgi II-I asrlarda Orol dengizining shimoliy-g'arbiy va Kaspiy dengizining shimolidagi Yan va Yansay yerlari ham Qang' davlatiga qaram bo'lgan. O'rta Osiyodagi davlatlar vaqtinchalik ahamiyat kasb etuvchi qabila ittifoqlari tarzida mavjud bo'lgan. Bu qabila ittifoqlari [illegible] vaqtlari tarqalib va yana vaziyatga qarab qaytadan tashkil etilgan. Bu siyosiy birlashmalarda xalq yig'ini muhim rol o'ynagan. Xalq yig'inida barcha qurolli aholi qatnashib, unda urush yoki sulh masalalari hal qilingan[3]. Ittifoqqa kiruvchi qabila boshliqlari ishtirok etadigan qurultoy, muqaddas joyda, istehkomga yaqin yerda chaqirilib, unda eski odat bo'yicha dasht podshohligiga nomzod saylangan, hukmron [illegible] tashqari yangi davlat yoki ittifoq uchun nom ham qo'yilgan. Ko'chmanchilarda esa qabila oqsoqollarining ma'qullashi bilan [illegible] odatda otadan o'g'ilga emas, balki ushbu sulola (xonadonning)

¹ Страбон. География. В семнадцати книгах. Книга 7, глава 6 . Типографи Рис. Vena 1979 512 с

² [illegible] К.А. Кочевники в древней Центральной Азии – Самарканд. [illegible] Института Центральноазиатских исследований 2009 С 20-26

³ Шайдуллаев Ш., Омонтурдиев Ш. Ўрта Осиё кўчманчи халқларининг сиёсий бирлашмалари //Марказий Осиё деҳқончилик ва дашт цивилизациясининг ўзаро [illegible] илмий назарий анжуман материаллари – Самарканд: 2011. –Б. 88.

yoshi katta (birinchi avlod) vakiliga, xususan, akadan ukaga, amakidan jiyanga meros qolar edi. Bu tartib bitta oila qo'lida davlat boshqaruvining saqlanib qolmasligini ta'minlagan. Hokimiyatni hukmron sulola qo'lida jamlash tamoyili Markaziy Osiyoning ko'chmanchi davlatlarida boshqaruvning an'anaviy usuli bo'lib, u ikki yoqlama samara berardi. Ya'ni bir tomondan, ko'chmanchi chorvachilik hukmron bo'lgan sharoitlarda boshqaruvning va mudofaaning barqarorligi ta'minlansa, ikkinchidan, sulolaning o'z ichida ham nisbatan osoyishtalik ta'minlanar edi. Qadimgi davrning yirik siyosiy birlashmasi - Qang' davlatida o'lkalar viloyatlarga bo'linib, chorvador qabilalarga qarashli hududlar jabg'ular tomonidan boshqarilgan. Jabg'ular odatda, hoqonlarga yaqin kishilardan tayinlangan[1]. O'troq aholi yashaydigan viloyatlarni boshqarish esa mahalliy hokimliklar tasarrufida qoldirilib, ular hoqon tayinlagan tudanlar nazoratida markaziy hokimiyatga muntazam soliq to'lab turgan. Xitoy manbalarida Qang'uy podsholari mamlakatni oqsoqollar kengashiga tayanib boshqarganligi eslatiladi. Bu kengashda qabila boshliqlari, harbiy sarkardalar faol qatnashib davlat hokimiyatiga molik masalalar hal etilgan. Podsho hokimiyati maslahat majlisi bilan hamkorlikda ish yuritgan. Bu boshqaruv usuli tarixda harbiy demokratiya tamoyilari asosida tashkil topgan davlat tizimi, deb nom olgan[2] Davlatni boshqarishda avvalo, hukmron sulola a'zolari hamda ular tomonidan barpo etilgan boshqaruv tizimi yordam berar edi. Manbalar ma'lumotiga ko'ra, u to'rtga bo'lingan, ya'ni:

qarindoshlar: hoqonga ittifoqdosh bo'lgan qabila va halqlar;

hoqonning o'ng tomonida o'tiruvchi amaldorlar va ma'muriy hodimlar;

hoqonning chap tomonida o'tiruvchi amaldorlar va xodimlar[3].

Ko'chmanchilarda davlat vujudga kelishi, qo'shni qabilalarni ham buysundira olgan jasur, barcha ishlarda tadbirkor va omadli sardor boshqaruvidagi bir qabilaning kuchayishi bilan ham bog'liq bo'lgan. Qadimgi davrning oxirlariga kelib yangi (navbatdagi guruh – xioniy, kidariy, eftaliy kabi) qabilalarning kirib kelishi bilan, hokimliklar avval mahalliy sulolalar tomonidan boshqarilgan bo'lsa, keyinchalik

[1] Шониёзов К.Ш. Қанг давлати ва қанглилар. – Тошкент: Фан, 2000. –Б.98
[2] Асқаров А.А. Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи. – Тошкент: Университет, 2007. –Б.167.
[3] Эшов Б. Ўзбекистон давлатчилик тарихи. – Тошкент: Маърифат, 2009. – Б. 198

ular turkiy sulolalar qo'liga o'tadi. Qadimgi davrda O'rta Osiyoga ko'chmanchilarning kirib kelishi bilan oldindan shakllanib kelayotgan turkiy udumlar asosidagi ko'pgina davlat boshqaruv tartiblari (Qang' davrida), aniq ifodalanib, sayqal topgan. Bu holat ko'chmanchilarning keyingi (turklar) kirib kelish bosqichlarida ancha aniq namoyon bo'ladi. O'rta Osiyo xalqlarining ijtimoiy siyosiy tizimi qanchalik puxta va mukammal bo'lmasin siyosiy jipslikka tobora rahna tushardi. Bu jarayon, xukumat umumxalq manfaatini ko'zlagan taqdirda ham o'z mevasini bermasdan qolmas edi. Ushbu o'ziga xoslik zaminida ishlab chiqarish darajasining pastligi hamda urug'chilik turmush tarzining saqlanishi yotardi. O'rta Osiyo xalqlarining ijtimoiy tuzumini feodal munosabatlar vujudga kelishining ilk ko'rinishi deyish mumkin. Gerodot, skiflar podshosi vafot etsa, u bilan birga ellik nafargacha xizmatkori, qo'riqchilari va ko'plab sara otlari qo'shib dafn etilganini yozadi. Boy chorvadorning xo'jaligida yollanma xizmatkorlar va qullar ham bo'lgan. Ammo ko'chmanchi xo'jaliklarda qullarning qochib ketmaganligidan unga munosabat yomon bo'lmaganligi va uning ahvoli ham og'ir bo'lmaganligini ko'rsatadi. Xullas, qadimgi davrda O'rta Osiyo xalqlari jamiyatida ijtimoiy munosabatlar jadallashgan. Bu davrda ko'chmanchilarning kirib kelishi, o'zbek davlatchiligiga xos ijtimoiy siyosiy munosabatlar yanada sayqal topishida muhim ahamiyat kasb etgan. Bu an'analar asosidagi boshqaruv tartiblari ulkan hududlarni yagona tizimga keltirib, tarqoq ellarni birlashtirishga xizmat qildi.

Maqsadli tarzda olib borilgan arxeologik izlanishlar natijasida, O'rta Osiyo xalqlarining hayot tarzi, ularning urf odatlariga oid ko'plab moddiy va madaniy ashyolar qo'lga kiritildi. Yodgorliklardan topilgan uy ro'zg'or, qurol yarog' va zeb-ziynat buyumlari, shuningdek, ular qadimiyatiga oid yozma manbalar ma'lumotlari O'rta Osiyo xalqlarining o'z xo'jaligi hayot tarziga xos madaniyat sohiblari bo'lganligidan shohidlik beradi. Yunon manbalarida O'rta Osiyo ko'chmanchi chorvador xalqlarining xo'jalik hayoti, turmush tarzi va urf udumlari haqida qimmatli ma'lumotlar berilgan[1]. O'rta Osiyo xalqlarida do'stlik, vafo va sadoqat juda qadrlangan. Bolalar hali go'dakligidayoq do'st tutintirilgan. O'rta Osiyo xalqlarining ma'naviy hayoti, dini ularning tasavvurlarida ham aks etgan. Ularning dinini ibtidoiy deb bo'lmaydi.

[1] Бойназаров Ф. Ўрта Осиёнинг антик даври. – Тошкент: Ўқитувчи, 1989. – Б 50

Qang'uylar, jumladan, O'rta Sirdaryo bo'yi xalqlari zoroastrizm dinidagi xudolardan bo'lgan Farn ilohiga sig'inishgan. Ushbu iloha hukmdorlarning panohi va qo'riqlovchisi, shuningdek uy, oila, sog'liqni saqlovchi xudo hisoblangan. Bu xudo qo'y ko'rinishida deb qabul qilingan[1]. Qovunchi madaniyati sohiblarida mashhur hind eposi Mahobxaratada ta'kidlangan ho'kiz (qora mol) ga sig'inish bilan bog'liq odatlar ham mavjud bo'lgan. Xitoy yilnomasi "Veyshu"da turklar diniga xos bir nechta aqidalar ko'rsatilgan. Manbalarda O'rta Osiyoliklarning quyoshga, ajdodlar arvohiga, butun xalqqa tegishli bo'lgan ko'k ruhi (tangri)ga sig'inish va tog'lar, suv manbalari (daryo va ko'llar) ga topinish kabi diniy marosimlari eslatiladi. Chorvadorlarning udum va marosimlari haqida Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otu turk" asarida ham ko'p ma'lumotlar berilgan. "Unda tun kun topun tangriga buyinmag'il korkun angar iymani o'ynamag'il", ya'ni kecha kunduz ulug' tangriga ibodat qil yo'ldan ozib adashma, xudodan qo'rq, undan uyal degan jumlalarni o'qish mumkin. Bunda xudo sifatida Ko'k Tangriga e'tiqod ta'kidlanmoqda. Ko'k Tangriga sig'inish - O'rxun bitiklarida ham qayd etilgan: "Avval yuqorida moviy osmon, quyida qora yer bo'lgan. Ular o'rtasida inson bolalari paydo bo'ldi". Osmon ruhi deganida aynan Ko'k Tangrini anglaganlar. Ko'kka qurbonlik keltirish odati turkiy xalqlarda, hatto XIX asr oxirlarida ham bo'lgan.

3. Yunon - rim tarixchilari asarlarida O'rta Osiyo xalqlari tarixining yoritilishi

Eron-Yunon urushi qatnashchilaridan Gerodot Osiyo mamlakatlari haqida qiziq hikoyalar eshitadi. Eronliklar ustidan g'alaba qozonilgandan so'ng, grek ho-jimliklari o'rtasida o'zaro kelishmovchiliklar avjiga chiqadi. Gerodotning ona shahri Galikarnos hokimi Ligdamidga qarshi ko'tarilgan isyonda Paniasid bilan Gerodot ham ishtirok etgan edi. Ligdamid isyonni kuch bilan bostiradi. Paniasid o'limga mahkum etiladi. Gerodot esa mamlakatdan quvg'in qilinadi. Shundan so'ng, bo'lajak tarixchi Osiyo mamlakatlari bo'ylab safarga chiqishga qaror qiladi. Go'zal Ioniya shahriga kelib dengizchilar bilan do'stlashadi. Gerodot dastlab Kichik Osiyoga yaqin o'lkalarga sayohat qiladi. So'ngra Frakiya

[1] Литвинский Б.А. Кангюйско-сарматский фарн.. –С. 74.

bo'ylab Yevropa safarini davom ettirib, Bolqon orollarida bo'ladi. Istr (Dunay) daryosi qirg'oqlariga keladi. Keyin Vizantiya o'lkasiga boradi. Bu yerlarni Doro eramizdan avvalgi 512 yilda skiflar yeriga yurish qilishdan avval bosib olgan edi. Doro hozirgi Istambul shahriga yaqin joyda Bosfor daryosining quyi oqimida skiflar yeriga o'tish uchun ko'prik qurgandi. Gerodot bu ko'prikdan o'tib Tear daryosi qirg'oqlari bo'ylab o'z sayoxatini davom ettiradi. Bu daryo Gerodotni o'ziga maftun etadi. Daryo bo'yida yashovchi xalqlar Tearning shifobaxshligini, undan odamlar va otlarni davolashda foydalanishlarini aytadi. Yunon-[illegible] keyin [illegible] Qora dengiz bo'ylarida ayrim elatlarni [illegible] qaram qilib olgan edilar. Olviya shahri atrofidagi o'lkalar ham [illegible] dengiz atrofida joylashgan edi. Qora dengiz bo'ylariga joylashgan Ochakova shahridan shimol tomonga to hozirgi Parutino, Ilinsk qishloqlarigacha cho'zilgan 25 kilometrlik masofa o'sha paytlarda [illegible] ko'li ostida edi. Gerodot Gerr - Samara va Girkis - Donesk daryosi bo'ylarida yashovchi skif qabilalari hayoti bilan ancha yaqindan tanishadi. Gerodotning bu daryolar bo'yida yashovchi skif qabilalari haqida aytgan qiziqarli hikoyalari kishining dyaqqat e'tiborini beixtiyor o'ziga jalb etadi. Nahotki, qadimgi davrlarda Volga, Don, Dunay, Dnepr daryolari bo'ylarida skiflar yashagan bo'lsa, degan savol xayolingnzga keladi. Axir, skif qabilalari O'rta Osiyoda yashamaganmidi, deb o'ylab [illegible]. Atoqli rus olimi A.B.Ditmar qadimgi skif qabilalari haqida bir qator yirik tadqiqotlar yaratadi va skiflarning kelib chiqish tarixi haqida o'zining qimmatli fikrlarini bildiradi. "Skiflar O'rta Osiyodan tarqalgan edi, - deb yozadi A.B.Ditmar o'zining "Skifiyadan Elefantingacha" nomli tadqiqotida, - ularning (skiflarning) tili shimoliy eron tillari guruhiga kiradi, shuningdek, ular O'rta Osiyoda yashagan sak va massaget qabilalari bilan urug'dosh edi[1]. Bu yerlarda yashovchi skiflar bug'doy, piyoz, sarimsoq va mosh iste'mol qilganlar. Ular bug'doyni faqat o'zlari uchungina ekib qolmasdan, balki savdo-sotiq uchun ham ekardilar". Gerodot keyinchalik shohlik hukmron bo'lgan skiflar o'lkasiga keladi. Bu skiflar kuchli davlatga ega edilar. Tanais daryosidan [illegible] tomon ancha uzoqda joylashgan bu skiflarning o'z podshohlari bo'lib boshqa skif qabilalari ularga qaram edi. Podshohlik skiflar o'zga skiflarni o'zlariga qul deb bilardi. Gerodot skiflarning urf-odatlari bilan

[1] Кшибеков Д. Кочевое общество. – Алма-ата.: Наука, 1984. –С. 32

yaqindan tanishadi. Ularning asosiy yumushlari chorvachilikdan iborat edi. Skiflarning chorvachilik ishlariga Gerodot katta qiziqish bilan qaraydi. Ko'chmanchilik joniga tekkan skiflar ko'chganda qulay bo'lsin uchun namatdan g'ildirakli arava - uy yasab olgan edilar. Yuk tashish ishlarida otdan tashqari mollardan foydalanadi. Ularning eshak va cho'chqasi yo'q edi. Bundan tashqari, Gerodot skiflarning harbiy ishlari va qurollari bilan ham tanishadi, o'rganadi. Gerodotning aniqlashicha, skiflarning shimol tomonida yana Melianxlenlar qabilasi yashardi. Ular hamma vaqt qora tusda kiyinib gorardi. Urf-odatlari skiflarnikiga yaqin turardi. Bu qabilalar tillari eski slavyan tillari guruhiga kirardi. Shimol tomonda juda sovuq bo'lgan keng yalangliklar joylashgan edi. Tanais daryosi bilan Meotida - Azov dengizi o'rtasida sarmatlar yashardi. Ular shimol tomonga cho'zilgan o'n besh kunlik keng o'lkada yovvoyi va xonaki daraxtlar ichida yashardi. Ular skiflar tilida gaplashardi, biroq ularning tillari qadimdan shakllangan edi. Sarmatlarning urf-odatlari skiflarnikiga sira ham o'xshamasdi. Sarmatlar (sara-matlar) skif qabilalariga urug'dosh edi. Sarmatlardan yana shimol tomonga yurilsa, Gerodotning yozishicha, qalin o'rmonlar bilan o'ralgan o'lkaga chiqilardi. U yerlarda budinlar yashardi. Bu xalqning sochlari malla, ko'zlari ko'kish edi. Budinlarning asosiy qismi ko'chmanchilik bilan hayot kechirardi.

Gerodot dastlab Axmoniylar davlatining markazi bo'lgan Suza shahriga keladi. Efes va Sard shaharlarida bo'ladi. Kichik Osiyodagi Galis, Messopotamnyadagi Evfrat va Tigr daryolaridan o'tadi. Frakiya o'lkalarini kezadi. Bu yerda u o'ng qo'liga qilich, chap qo'liga nayza tutgan ulkan odamlar bilan uchrashadi. Gerodot o'z asarlarida Kavkaz tog'larini juda keng ta'riflaydi. Ayniqsa, Kaspiy dengizi va uning sohillarini, bu sohilda yashovchi elatlar hayoti haqida qimmatli ma'lumotlar beradi. Araks daryosi Kaspiy dengiziga kelib qo'shiladi, deydi tarixchi. Esxil o'zining "Zanjirband Prometey" tragediyasida Kavkaz tog'lari va Kaspiy dengizi haqida so'z yuritadi, bu yerlarni "gekatey milet" deb ataydi. Gerodotning fikricha, Kaspiy bo'ylarida ko'chmanchi massagetlar yashaydi. Massagetlar baliq go'shti, parranda va sutli taomlarni iste'mol qilishardi. Bu yerning xalqlari juda jangari bo'lishgan. Aytishlaricha, Eron shoxi Kir ham ularni o'ziga bo'ysundira olmagan. Gerodot O'rta Osiyo haqida tarixiy jihatdan juda muhim ma'lumotlar keltiradi. Bu yerda bir necha hokimliklar mavjudligini,

ularning hammasi ulkan Eron davlatiga qaram ekanligini ta'kidlaydi. Bu hokimliklarni aniq nomi bilan ataydi. Jumladan, Baqtriya, Girkaniya, Kaspiy, so'g'dlar, saklar, Xorazmiylar va ariylar (bu o'rinda ariylar Afg'onistonning g'arbiy qismiga joylashgan elatlar nazarda tutiladi). Baqtriyaning poytaxti o'sha vaqtda Balx shahri bo'lgan, Kaspiy hokimligiga Turkmanistonning janubi - g'arbiy qismida joylashgan qabilalar kirgan. Xorazmiylar - Xorazmda, so'g'dlar — Politamet (Zarafshon) bo'ylarida, saklar Tyan-shan tog'ining g'arbiy etaklarida joylashgan edilar. Bu xalqlar sharqdan to Kaspiy dengizigacha bo'lgan hududga tarqalgan. Girkaniya bilan Xorazm o'lkasi o'rtasidan Ares daryosi o'tadi. Bu daryodan uzun - uzun kanallar qazilib, sug'orish shoxobchalaridan dehqonchnlikda unumli foydalanadilar. Shundan so'ng Gerodot Xindiston o'lkasida sayohatini davom ettiradi. Panjobga boradi. Bu yerga bostirib kelgan Doro haqida qimmatli ma'lumotlar to'playdi.

Strabonning o'n yetti kitobdan iborat "Geografiya" asari jahon adabiyotida o'zining munosib o'rniga ega. Asarda qadimgi davrlarga oid juda boy materiallar bor. Bu materiallar ayniqsa tarixiy jihatdan qimmatlidir. "Geografiya" asari o'z davri uchungina emas, bugungi kunda bizning zamondoshlarimiz uchun ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Strabon eramizdan ilgarigi 64 - 63 yillarda Amasiya viloyatida tug'iladi. Yozuvchi Qora dengizdan yuz kilometr janubda, O'rta Yer dengiziga tomon 31 cho'zilgan o'lkada tug'iladi. Amasiya jug'rofiy sharoiti qulay bo'lgan viloyatdir. Bir tomondan Qora dengiz, ikkinchi tomondan O'rta Yer dengizi bilan tutashgan, tabiati go'zal bo'lgan o'lkalardan biri edi. Shoh Mitridat II (eramizdan avvalgi 302 -266 yillar) davrida Amasiya Pontiy viloyatinnig markazi edi. Shoh Fornak I (eramizgacha bo'lgan 184 - 157 yillar) davrida viloyat markazi Sinon shahriga ko'chiriladi. Amasiya avvalgidek muhtasham va qadimiyligini saqlab qoladi, biroq bu shaharga endi avvalgidan kam e'tibor berila boshlaydi. Albatta, bunday o'zaro toj-taxt urushlari Strabon yashagan davrgacha bo'lib o'tsada, Strabon bu tarixiy voqealarning qanday kechganligini to'liq o'rgangan edi. Bundan tashqari, shoh Nikomeda III (eramizdan avvalgi 74 yil), Mitridat IV (eramizdan ilgarigi 120 -63 yillar), Lukull (eramizgacha 70 yil), Pompey (eramizdan oldingi 66 yil) davrlarida ham ko'plab qirg'in janglar bo'lib o'tadi. Bu jangu jadallar bevosita Amasiya shahri bilan bog'liq holda ro'y beradi. Bunday tarixiy voqealarga boy shaharda

Strabonning dunyoga kelishi favqulodda moziyning zulmat bulutlari bilan qoplangan osmonida yulduz chaqnagandek bo'ldi. Strabonning yoshligi ajoyib va g'aroyib voqealarga boy, adoqsiz tarixiy hodisalar bo'ronida o'tadi. Strabon, Gerodotning memuar asarlarigina emas, shaxsi hayotlari, fidoiyliklari xam biz uchun ibratlidir. Sayohatlar ijod manbaidir. Sayohat tufayli tafakkur to'lqınlari mavj uradi. Yangi fikrlar, yangi so'z bunyodga keladi. Bunday tafakkur xukmi, ijod hokimligi alohida xalqlar uchungina emas, jahondagi ko'pgına xalqlar uchun birdek naf berishi mumkin.

Strabonning o'n yetti kitobdan iborat yirik asari juda ko'plab mamlakatlar va xalqlar tarixiga bag'ishlangan. Strabonning o'zi yer yuzining yuzlab o'lkalarida, minglab katta-katta shaharlarda bo'ladi. O'zi bo'lgan elatlarning tarixini ko'rgan va bilgan voqealari asosida yoritsa, uzoq yurtlarga oid dalillarni aniq manbalar, tarixiy kitoblardan qidiradi. Nomlanishi "Geografiya" deb atalsa ham, asar boshdan oxirigacha dunyo xalqlari, elatlarining faqat joylanish chizgilaridan iborat, deb tushunmaslik kerak. Asarda ilmiy va badiiy qimmatga ega bo'lgan yorqin ifoda va ma'lumotlar mavjud. Bu asar jo'g'rofiya fanining rivojida katta rol o'ynaydi. Shuningdek, u qadımgi adabiyot tarıxini yorituvchi ilmiy tadqıqot hamdir, chunki, adib qadimgi dunyoda ijod qilgan shoirlar, fojianavislar ijodiga to'xtalar ekan, o'z asarıdan ko'pgina sahifalarni adabiyot mavzuiga bag'ishlagan va adabiyotning o'ziga xos xususiyati haqida qimmatli fikrlarni bayon qila olgan. Muhim tomoni shundaki, Strabon o'tmıshdoshlari bo'lgan shoirlarni shunchaki tilga olib o'tmasdan, ularning ijodiga keng to'xtaladi, asarlaridan katta-katta parchalar keltirib, ularga o'z munosabatini bildiradi. Alohida adiblar ıjodigagina emas, adabiyotning umumiy yo'nalishlariga, rivojlanish yo'llarıga ham keng to'xtaladı. Shoirlar ijodini baholashda Strabon o'zining kuchli ilmıy fikrlariga tayanadi. Ayniqsa, Gomer, Sofokl, Yevripid, Kallimax ijodi yuzasidan bildirgan xulosalari ko'p jihatdan qimmatlidir. Shu tufayli "Geografiya" asarıni faqat jo'g'rofiya tarixı uchungina ahamiyatlı, deb qarash bir yoqlamalıkdir. Strabon ensiklopedist olim sifatida tarix, adabiyot jo'g'rofiya, etnografiya fanlarining uzviy bog'liqligi nuqtai nazaridan masalaga keng va mufassal to'xtaladi. "Geografiya" hajm jihatdan yirik asar bo'lib qolmasdan, mazmunan ham juda boydir. Bu asar Strabon nomini jahonga tanitdı. Asarning yana muhım xususiyatlaridan biri shundaki, unda

estetık zavq bag'ishlovchi lavhalar juda ko'p. Strabon o'z asarida go'zal badiiy ifodalarga juda keng o'rin beradi. .Mamlakatlar, o'lkalar tabiatı go'zal badiiy bo'yoqlar bilan sug'oriladi. Kitobda O'rta Osiyoda yashovchi sak, so'g'd, skif, massaget qabilalari o'tmishn alohida qayd qilib o'tiladi. XII – XIII - XIV kitoblarda Kichik Osiyo tarixi yoritiladi. XV kitobdan ham Eron va Hindiston davlatlari haqida qimmatli ma'lumotlar olamiz. XVI kitob Sharqiy Osiyo mamlakatlari, Ossuriya, Vavıloniya, Messopotamiya, Suriya, Finikiya, Arab mamlakatlaridan hikoya qiladi. XVII kitob esa Misr, Efiopiya, Liviya o'lkalariga bag'ishlangan. Strabon Kaspiy dengizining sharq qismida yashovchi massagetlar hayotiga to'xtalar ekan, bu qabilalar haqida ilgari o'tgan muarrıxlar qariyib hech narsa yozmaganligını ta'kidlaydi. Yozilganlari ham juda oz yoki yetarlicha anıq ma'lumotlar bermaydi, deydi. Muallif Qora dengizining shimoliy qismida yashovchi skif, sarmat qabilalari haqıda to'xtalar ekan, bu joylar "varvarlarning yerlari" deydi. Albatta, Qora dengiznnng shimol qismida yashovchi skıflar, Kaspiy dengızining sharqiy qısmida joylashgan massagetlar haqida grek va Rim adiblari ilgari ham yozishgan. Bu haqda Gerodotning ijodidan ancha kengroq ma'lumotlar mavjud. Rimliklar Vengriya, Ruminiya yerlarini bosib olib, to Dunay daryosi bo'ylarigacha kelgan edi. Biroq ular O'rta Osiyoga yurish qilishni nazarda tutmagan edilar. Rimliklarning bostirib kelayotganini eshitgan Kaspiy dengizining shimolidagi va Dunay daryosi bo'ylarıdagi skiflar sharqqa tomon ko'chib o'tadilar. Biroq ular Hindiston Afg'oniston yerlarigacha, Xitoydan Osiyogacha cho'zilgan o'lkalarni yaxshi bilishardi[1]. Kaspiy dengizining sharqiy qismida joylashgan keng tekisliklar Girkoniya viloyati bo'lib, bir tomoni Mediya va Arman toglari bilan o'ralgan. Strabon Kaspiy dengizining Sharqiy qırg'oqlarini kezgan. Xozirgi Turkmaniston kengliklarida xam bo'lgan, bu yerdagi qabilalar bilan uchrashgan. Chunki "Bu yerdagi qabilalar qashshoq yashardi", deydi Strabon. Shu fikrning o'ziyoq bu yerdagi elatlarning hayoti bilan u yaxshi tanish bo'lganligidan dalolat beradi. Strabonning bu o'lkalarga kelganligi noma'lum, ammo uning Qora dengiz bo'ylariga kelganligini, Kavkaz o'lkasida bo'lganligini tarixiy ma'lumotlar tasdiqlaydi. Girkoniya unumdor, serhosil yerlar bo'lib, juda keng o'lka edi. Bu o'lkaning bir cheti dengizga borib

[1] Ахмад Зиё Ўзбек давлатчилиги тарихи. Тошкент, 2000.406

to'xtaladi. Bu dengiz Kaspiydan 1400 stadiy balandlikka joylashgan edi. Bu Orol dengizi bo'lishi ehtimoli bor. Mana shu lavhalardan xam ko'rinib turibdiki, Strabon Girkoniya o'lkasining joylashishinigina emas, bu vodiydagi shaharlar, serxosil, unumdor yerlar, qabilalarining iqtisodiy ahvoli haqida ham ma'lumot bermoqda. Girkoniya ba'zi bir davrlarda Marg'iyona, hatto So'g'diyona davlatlari bilan ham qo'shilib ketgan. Mahalliy xalqning boyligi asosan quyidagilardan iborat edi: uzumchilik, vinochilik, bog'dorchilik, boshoqli o'simliklardan non olishadi, o'rmonlarida asalarilar bilan shugullanishadi. Dengiz, orollarida yashash juda qulay. Aytishlaricha, bu yerlardagi odamlar oltin ham saqlagan. Girkoniyaning hukmdorlari dastlab o'zga yurtlardan bo'lgan varvarlar, forslar, keyinchalik parfiyanlar bo'lib, ular o'zga yurtlardan kelgan qo'pol va johil varvarlar edi. Qo'shni o'lkalarda qaroqchilik, ko'chmanchilik hukm surib, keng cho'llar yastanib yotadi. Girkoniya o'lkasining qadimgi davrlari haqida berilgan ushbu ma'lumotlar, faqatgina ma'lumotlar tizimidan iborat bo'lib qolmasdan, shu davrga oid ayrim muhim masalalarni yechishga ko'maklashadi. Girkoniyadan dengiz tomon Oks daryolari oqib o'tadi Aristobulning aytishicha, Oks Hind daryosini xisobga olmaganda, Osiyoda eng yirik daryodir.

Strabon O'rta Osiyoga oid dalillarni sinchkovlik bilan o'rgangan. Hatto ayrim mubolagali yoki ishonchsiz manbalarga ham tayangan. Lekin o'z asariga ozgina shubha tug'dirgan dalillarni olib kirmagan. Bu jihatdan u O'rta Osiyoga kelib ketgan Aristobul ijodiga katta ishonch va hurmat bilan qaraydi. Hatto O'rta Osiyoda bo'lgan Ptolomey "Kundalik"lariga ham bir oz shubha bilan munosabatda bo'ladi. Chunki, Ptolomey Aleksandrning eng yaqin kishisi va ishongan sarkardasi edi. U o'z kundaligida Aleksandr - Makedonskiyga ortiqcha baho berib yuborgan. Shuning uchun ham o'z kundaliklarida tasvirlangan ayrim voqealarning bayoniga u Aleksandr Makedonskiyning ishonchini qozonish uchun mubolag'a jumlalarni qo'shib bayon etardi. Tanais daryosi Osiyoni Yevropadan ajratib turadi. Osiyoning katta qismi Tanais daryosi bilan Girkoniya dengizi o'rtasida joylashgan bo'lib, bu joylar makedoniyaliklar tomonidan bosib olinmagan edi. Osiyoning bu bo'lagini Aleksandr bosib olgan deb, yozuvchilar o'zlarini ko'r-satish uchun ustakorlik bilan noto'g'ri fikr yuritganlar. Strabonning yuqoridagi fikrlarida qayd etilishicha, makedoniyaliklar Tanais daryosi bo'ylariga bormaganligi ma'lum bo'ladi. Atoqli olim Bobojon Gofurov

esa makedoniyalik shoh Aleksandrning Tanais daryosi bo'ylariga bormaganligi haqidagi dalillarni tasdiqlaydi. Hind togidan Ox, Oks kabi ko'plab daryolar oqib keladi. Bu daryolar ichida eng shimoliy qismida joylashgan Yaksart bo'lib, u xam Kaspiy dengiziga quyiladi. Haqiqatan ham, ko'pgina tarixiy kitoblarda Yaksart daryosi Tanais daryosi bilan chalkashtiriladi. Strabon ta'kidlaganidek, Tanais daryosi Yevropa yerlaridan oqsa, Yaksart Osiyoni kesib o'tadi. Biroq, Strabon Yaksartni Kaspiy dengiziga quyiladi, deydi. Balki o'sha davrlarda Orol dengizi Kaspiy bilan tutashgan bo'lishi ham mumkin yoki ikki dengiz oraligida juda oz masofa qolgan bo'lishi ham mumkin. Har holda, Yaksartni Kaspiy dengiziga quyiladi, degan Strabon unchalik haqli emas. Biz uchun Strabonning xizmati shu bilan xarakterlanadiki, ko'pgina mavhum dalillarga u aniqlik kiritgan. Masalan, Yaksart bilan Tanaisni bir-biridan ajratib berishning o'ziyoq muhimdir. Chunki, Yaksart bo'ylarida bo'lib o'tgan voqealar olimlar uchun juda ahamiyatli. Ko'pgina tadqiqotlar bu ikki daryo o'rtasida bo'lib o'tgan voqealarni bir-biriga chalkashtiradi.

Arrianning "Aleksandrning yurishi" asarining ikkita kitobi: uchinchi va to'rtinchi kitoblari O'rta Osiyo tarixiga bag'ishlangan. Uchinchi kitob 30 bobdan tashkil topgan. Uchinchi kitobning 28 bobidan boshlab O'rta Osiyo tarixining o'ziga xos tasviri keltiriladi. "Aleksandr Oks daryosi qirg'og'iga keldi", deydi muallif. Bungacha bo'lgan boblarda Aleksandrning Eronga qilgan yurishi, Eron shoxi Doro ustidan g'alaba qozonishi hikoya qilinadi. Eron shohi yengilgandan so'ng, u Kavkaz tog'lariga qarab qochadi. Aleksandr uni izma-iz ta'qib etib kelaveradi Ta'qib bir necha kun davom etadi. Doro Kavkaz tog'lariga yashirinmoqchi bo'ladi. Biroq Bess Eron shohining eng yaqin kishisi bo'lishiga qaramasdan, Doroni o'ldirib, boyliklarini olib, O'rta Osiyoga qarab qochadi. Aleksandr Doroning o'ligini topib olib, uni Sharq udumiga ko'ra izzat-ehtirom bilan dafn etishni buyuradi, o'zi Bessning izidan ketadi. Bir necha vaqt Kavkazda bo'lib, u yerda "shahar quradi va unga Aleksandriya deb nom beradi". Oks daryosi hozirgi Amudaryoning qadimgi nomidir. Bu daryo hind daryolarini hisobga olmaganda, Osiyodagi eng katta daryolardan biri edi, - deyiladi asarda. Aleksandr Oks daryosidan kechib o'tishga harakat qiladi. Biroq daryo juda keng edi undan kechib o'tish mumkin emasdi. Daryoning kengligi 6 stadiy (1 stadiy -grek o'lchovida 184 metr, 98 santimetrga to'g'ri keladi). Shu

bilan birga. daryo ancha chuqur edi. Bu daryoga qulay ko'prik qurish uchun uzoqdan yog'och olib kelishga to'g'ri kelardi. Daryoga ko'prik qurish ancha uzoq vaqtni talab etardi. Shuning uchun Aleksandr teridan qayiqqa o'xshash suv o'tmaydigan moslama yasashni buyuradi. Terilarni o'simliklarning quruq poyasi bilan tikdiradi (bunday o'simlikning nomini muallif tilga olmaydi. Ehtimol u qamish bo'lsa kerak. Chunki daryo bo'ylarida qamish o'sadi). Shunday qilib, Aleksandr qo'shinlari Oks (Amu) daryosidan besh kun davomida o'tib oladi[1]. "Daryodan o'tolmagan urushga yaroqsiz, keksa kishilarni Aleksandr uylariga jo'natib yuboradi. O'z ixtiyorlari bilan. Aleksandr qo'shinlarini tark etib, o'z yurtlariga ketmoqchi bo'lgan fessaliyaliklarga xam ruxsat beradi". Shu voqealar bilan bog'liq epizodlarga e'tibor bersak. Aleksandr dastlab O'rta Osiyoni jangu-jadallarsiz, osongina qo'lga kiritish niyatida bo'lgan. Aleksandr Oks daryosidan o'tgandan so'ng, So'g'diyona tomon shoshiladi. Chunki bu yerda Bess katta qo'shin bilan Aleksandrga qarshi kuch to'playapti, degan xabar tarqaladi. Shu vaqt Spitamen bilan Detaferndan Aleksandrga chopar kelib, agar kichik bir guruh yuborsa, Bessni ushlab berishligini bildiradi. Bu xabarni eshitgandan so'ng Aleksandr guruhga Laganing o'g'li Ptolomeyni bosh qilib, Spitamen bilan Datafern huzuriga yuboradi. Bu guruh juda yaxshi qurollangan, saralangan jangchilardan iborat edi. Baqtriya va So'g'diyonaning hokimi bo'lgan Bess aslida Ahmoniylar sulolasidan bo'lgan. Doro III ni o'ldirgandan so'ng u o'zini shoh deb e'lon qiladi. Ahmoniylar, so'g'diyonaliklar Bessni tutib berishga qaror qiladilar. Ptolemey 10 kunlik yo'lni to'rt kunda bosib o'tib, Spitamen tunagan qarorgoh yaqiniga keladi. Piyoda askarlarga yurishi davom ettirishni buyurib, o'zi otliq askarlar bilan Bess joylashgan qishloqqa yaqinlashadi. Spitamen Bessni o'z qo'li bilan dushmanga tutib berishni or bilib, Ptolomeyga Bess joylashgan qo'rg'onni ko'rsatib, o'zi So'g'diyonaning ichkarisiga qarab ketadi. Ptolomey Bess joylashgan qo'rg'onni o'rab olib (qo'rg'on-devor bilan o'ralgan, uning maxsus darvozasi bor edi), uning qo'riqchilariga agar Bessni tutib berishsa, ularga tegmaslikka va'da qiladi. Shundan so'ng qo'rg'onning darvozasi ochiladi. Jangu jadalsiz tinch yo'l bilan ular Bessni asir olishib, yana Aleksandr huzuriga qaytishadi. Aleksandr o'z podshohi Doroga hiyonat qilgan Bessdan nafratlanadi. Shuning uchun

[1] Кшибеков Д. Кочевое общество. – Алма-ата.: Наука, 1984. – С. 51

ham Ptolomeyga Bessni jazolashni buyuradi. Mana shu epizoddan xam ko'rinib turibdiki, Aleksandrning Bessni shunday sharmandali holga qo'yishi va qo'shinniga namoyish etishi bilan muhim bir masalaga ishora qilinyapti. Birinchidan, kimda kim xiyonat yo'liga qadam qo'ysa - jazosi shu, sharmandali o'lim, demoqchi bo'lsa, ikkinchidan, o'z jangchilariga ham katta saboq bermoqda.

Ma'lumki, bundan ilgarigi davrlarda Eron shohi Kir, so'ngra Doro O'rta Osiyoga tez-tez hujum qilib, bu yerdagi tarqoq qabilalarni bosib olgandi. Arrianning tarixiy xizmati shundaki, asardagi voqealar tasviriga u haqiqiy ijodkor ko'zi bilan qaraydi. Tarixiy haqiqatni bo'yamasdan ko'rsatishga harakat qiladi. Bundan ilgarigi epizodlarda, jumladan. Eron shohi Doro bilan bo'lgan jang tasvirlarida ham adib o'zining mana shu pozitsiyasida qoladi. Doroga nisbatan so'g'diyonaliklarning nafrat o'ti kuchli. Chunki u makedonlar bilan bo'lgan urushgacha So'g'diyona yerlarini bosib olib, boyliklarni talab, odamlarni qul qilib olib ketgan edi. Eronliklar bilan makedonlar o'rtasida bo'lib o'tgan qirg'in janglarda ming-minglab so'gdiyonaliklar ham qatnashib, ularning ko'plari qurbon bo'lgan. Doro qonxo'r, yovuz, mol-dunyo, duru-javohirlarga hirs qo'ygan shoh bo'lsa-da, ammo u sotqin emasdi. Osiyoga bostirib kelgan yovga qarshi bir necha yillar davomida kurashadi. Aleksandr bir necha marta katta-katta va'dalar berib, undan taslim bo'lishni taklif qilganda ham Doro unamaydi. Yunonlar bilan eroniylar o'rtasida urush uzoq vaqt davom etadi. Hatto Doroning onasi, xotini, o'g'il va qizi Aleksandr qo'lga asir tushganda ham Doro dushmanga tiz cho'kishni xohlamaydi. O'z yurtiga sotqinlik qilishni istamaydi. Dushmanga qarshi kurash rejasidan qaytmaydi. Arrian bu o'rinda Doroning qilmishidan nafratlanishi va uni haqorat qilishi ham mumkin edi. Biroq adib hamisha, voqeaga real yondashishga harakat qilgan. O'z navbatida, yozuvchi Aleksandrning xarakterini yorqin bo'yoqlarda ochib beradi. Bosqinchilik Aleksandrning qonida bor edi. Otasi Filipp II ning butun umri jangu-jadallarda o'tgan. Yozuvchi Aleksandrni bosqinchi, shu bilan birga, tanti va mard sarkarda obrazi sifatida tasvirlaydi. U Doroning onasi, xotini va farzandlariga ozor yetkazmaydi. O'g'lini eng bilimdon, donishmand kishilar qo'liga topshirib, saboq berishni lozim topadi. Doroning qiziga uylanishni ko'pgina yaqin kishilar Aleksandrga taklif etadi. Biroq Aleksandr ularning bu takliflarni rad etadi. Grek va Rim adabiyotida Aleksandr haqida ko'plab asarlarning yaratilganiga

yuqorida guvoh bo'ldik. Aleksandrning zamondoshi, ellinizm davrining atoqli alibi Kallimaxning Aleksandr haqidagi asari ham dastlabki shunday badiiy ijod namunalaridan bo'lgan. Kallimaxning shogirdi Apolloniyning Aleksandr haqidagi asari qadimgi dunyodayoq mashhur edi. Rim adabiyotida Lukian xam "Aleksandr" asari bilan o'z davrida shuhrat qozonadi. Enneyning "Aleksandr" tragediyasini butun rimliklar xayrixoxlik bilan tomosha qilgan. Bu asarda O'rta Osiyo, jumladan, So'g'diyona tarixi u yoki bu darajada o'z ifodasini toptan edi[1]. Grek va Rim adabiyotining qadimgi davriyoq Kvint Kursiy Rufning "Aleksandr Makedonskiy tarixi", Arrianning "Aleksandrning yurishi", Plutarxning "Aleksandr" asarlari yaratilgani yuqorida aytib o'tildi. Bu tarixiy nasr namunalari O'rta Osiyoning qadimgi davrlariga oid muhim voqealar tafsiloti bilan tanishtiradi. Shu bilan birga yana qadimgi dunyodan uch ulug' adibning, Diodor, Pompey Trog va Yustin nomlari ham qadimgi tarix tarixshunosligida alohida ahamiyatga ega. Diodorning hayotiga doir juda kam ma'lumotga egamiz. Uning qachon tugilgani noma'lum, ammo eramizgacha bo'lgan I asrda yashab o'tgani anik Diodor ijodini chuqur o'rgangan va bu haqda tadqiqot ishlari olib borgan adabiyotshunos M. Mandes xam Diodorning hayotiga oid keng va batafsil ma'lumotlar berolmaydi. Diodor Aleksandriya shahridagi jahonga nomi ketgan katta kutubxona bilan tanishadi. Bu kutubxonada ellinizm mamlakatlaridan keltirilgan yetti yuz mingdan ziyod nodir qo'lyozmalar, bebaho kitoblar saqlanmoqda edi. Diodor bu noyob nusxalar bilan tanishish sharafiga muyassar bo'ladi. Bu kutubxonaga asos solgan, Makedoniya tarixida o'chmas iz qoldirgan Aleksandrning tarjimai holiga oid tarixiy dalillarni yig'a boshlaydi. Diodor "Shoh jurnali" yoki "Efemerida" sahifalarini diqqat e'tibor bilan o'qib chiqadi. Aleksandr bilan Osiyoga kelgan tarixiy voqealarning shohidi bo'lgan Ptolomey, Aristobul, Kallisfenning "Kundalik"lari bilan xam batafsil tanishadi. Diodorning "Tarixiy kutubxona" asarida O'rta Osiyo tasviriga uncha keng o'rin berilmagan. Shuningdek, qadimgi So'g'dnyonadagi jug'rofiy muhit, shaharlar va qishloqlar bilan bog'liq hodisalar, tarixiy voqealarning qayerda kechganligi haqidagi ma'lumotlar kitobda aniq dalillarda yoritilmagan. Bu jihatdan Diodorning "Tarixiy kutubxona" asari Aleksandr haqidagi Ruf, Plutarx, Arrian asarlaridan farq qiladi.

---

[1] Аҳмедов Б. Ўзбекистон тарихи манбалари. Тошкент, 1991.636.

Asarning tarixiy va badiiy xususiyatlarini e'tiborga olsak, bu asar o'sha davrlardayoq grek adabiyotida munosib o'rin egallagan edi. Bir so'z bilan aytganda, Diodor nomini jahonga tanitgan uning "Tarixiy kutubxona" asaridir. U asar ustida o'ttiz yil mehnat qilgan. Diodor ijodini keng tadqiq qilgan M. Mandes, u o'z asarida tarixiy voqealarga tarixchi sifatida emas, yozuvchi nuqtai nazaridan yondoshganligini ta'kidlaydi. Masalaga, M.Mandes fikriga asoslanib yondoshadigan bo'lsak, haqiqatan xam kitobda tarixiy sanalarga emas, voqealar bayoniga kengroq e'tibor berilgan. Asarning badiiy ifodasi Diodor qalamining o'tkirligini ko'rsatadi. Kitobda tasvirlangan voqealar tafsilotining bayoni xususida e'tiroz yo'q, biroq bu voqealarning qayerda kechganligi - Baqtriyadami yoki So'g'diyonadami, Oks daryosi bo'yidami yoki Yaksart yoqasidami, ajratish ancha qiyinchilik tug'diradi. Kitobda Eron va Hindiston voqealariga keng o'rin berilgan. Bu holat asar muallifining tarixiy dalillarga munosabatini belgilaydi. Diodor o'rgangan tarixiy asarlarda O'rta Osiyo tasviri uncha keng berilmagan.

Diodorning "Tarixiy kutubxona" asari keyinchalik Yustin va Plutarx ijodiga katta ta'sir ko'rsatgan. Bu adiblar Diodor ijodidan foydalanganligini o'z asarlarida qayd qilib o'tadi. Ayniqsa, Plutarxning "Aleksandr va Sezar" nomli "Qo'shaloq hayotnoma" sida Diodorning badiiy tasvirlash uslubi ta'sirini ko'ramiz. Plutarxning "Aleksandr" asari Diodorning "Tarixiy kutubxona"siga juda yaqin turadi. Diodor o'zining 17 kitobdan iborat asarini Aleksandr Makedonskiy davriga bagishlaydi. Diodor asarining ko'p boblari yo'qolib ketgan. Ayniqsa, So'g'diyona tarixiga tegishli boblarning anchagina sahifalari yirtilib, yo'qolgan. Shuning uchun xam bu kitobning 69 - bobidan 97 - bobigacha bo'lgan 28 bobdagi sahifalardagi voqealarning ko'pchiligi So'g'diyonada va unga qo'shni o'lkalarda bo'lib o'tadi. Kitobda So'g'diyona tarixini tasvirlash yozuvchi uchun bir qancha qiyinchiliklar tug'dirgan. Bu tabiiy hol, o'zidan uch asr ilgari bo'lib o'tgan voqealarni tasvirlash eramizdan avvalgi birinchi asrda yashagan grek "yozuvchisi Diodor uchun, qadim So'g'diyona bilan yaqindan tanish bo'lmagan bir adib uchun ancha murakkab kechganligi o'z-o'zidan ravshan. Kitobda Oks (Amu) daryosi Arake deb nomlanadi. Gerodotning "Tarix yoki tadqiqot" asarida ham Amudaryo Arake deb nomlanadi. Arrianning "Aleksandrning yurishi" asarida esa Amudaryo Oks deb atalganining

guvohi bo'lamiz. Bundan taxmin qilish mumkinki, O'rta Osiyo tarixini o'rganishda Gerodot ijodiga murojaat etgan. Aleksandr Araks daryosidan o'tgandan keyin, dahshatli va qurqinchli voqeaning guvohi bo'ladi. Eron shoxi Doro sakkiz yuzga yaqin kishini bu yerlarga haydab yuborgan, qolganlarini shafqatsiz qirib tashlagan edi. "Bu odamlarning birining qo'li qirqilgan, boshqasining oyog'i kesilgan, birining burni, boshqasining qulog'i yo'q edi. Ularning hammasining ahvoli ayanchli edi. Ularning ichida bironta ham jazo olmagani yo'q edi. Ular yordam so'rab Aleksandrga yalinadılar. Aleksandr ularning ahvolini ko'rib, juda achinadi. Hatto ko'ziga yosh keladi". Aleksandr ularga yordam beradi. Kitobda tasvirlanishicha, Aleksandr bu muhtoj kishilarning har qaysisiga 3000 dirham pul, beshtadan kiyim, 2 juftdan poyabzal, 50 tadan qo'y, 50 puddan bug'doy va boshpana beradi. Bu epizodda Aleksandrning rahmdilligi, oddiy odamlarga g'amxo'rligi, insonparvarligi tasvirlansa, bundan keyingi epizodda uning shafqatsizligi, molu dunyoga o'chligi, inson boshiga jabr-jazo keltiruvchi qonxo'r bosqinchi ekanligi tasvirlanadi.

Poliyen "Qadimgi sarkarda va qahramonlarning jangovarlik mahoratini o'z ichiga olgan Polien asarini faqat harbiy kishilar emas, balki tarixiyligi jixhtidan barcha toifadagi odamlar xam bilishi zarur. Faqat qurol kuchi bilan emas, uzoqni ko'zlaydigan o'tkir fikrlari bilan dushmanni mag'lubiyatga uchratgan sarkardagina eng oliy darajadagi harbiy san'atni egallagan hisoblanadi", - deb ta'kidlaydi asarning ruscha so'z boshisida tarjimon Dimitriy Pappadopulo. Tarjimon o'z fikrida davom etib yana shunday deydi: "Uzoqni ko'ra olmaydigan sarkardalar juda ko'p talafot ko'rib, o'tkir fikrli sarkardalar shuncha ko'p foyda ko'rgan, yuksak harbiy mahoratga ega bo'lmagan sarkardaning qo'shinlari hamma vaqt o'limga mahkum etilgan. Tajribali, uzoqni ko'ra oluvchi sarkardalar boshliq bo'lgan qo'shinning saf tortib turishiyoq dushmannn dovdiratib qo'ygan[1]. Sarkardaning bitta oqilona fikri, harbiy tadbirkorligi dushman ustidan g'alabaga, kuchli flotni qirib yuborishga, o'tib bo'lmas to'siqlarni yengishga, bir qancha viloyatlarni zabt etishga sabab bo'lishi mumkin. Bu haqiqatni isbotlash uchun xalqlar tarixidan juda ko'plab misollar keltirish mumkin. Poliyenning ijodi

[1] Каримов Ш., Шамсутдинов Р. Ватан тарихи. Тошкент. 1997., Центральная Азия в Кушанскую эпоху, Т. 2, Москва, 1974

jahon madaniyati xazinasida alohida yuksak o'rin egallaydi. Poliyen asarlarining tarixiy va badiiy qimmati hali tadqiqotchilar tomonidan chuqur o'rganilgan emas. Shuningdek, hayotiga oid manbalar ham tiklanganicha yo'q. "Harbiy hiylalar" deb nomlanuvchi sakkiz kitobdan iborat nodir asar Polien nomini jahonga tanitdi. O'zbek xalq ogzaki ijodida afsona deb nomlanadigan "Shiroq" hikoyasi ham Polien asari orqali bizgacha yetib kelgan. Doroning skiflar yurtiga yurishi haqida ko'plab rivoyatlar mavjud. Ularning deyarli barchasida ham Doroning skiflardan yengilganligi hikoya qilinadi. Polien keltirgan "Shiroq" ("Sirak") da Doro qo'shinlarining skiflar tomonidan tor-mor etilganligi bayon qilinsa, Gerodot asaridagi "Doroning skiflar o'lkasiga yurishi" hikoyatida skiflar bilan bo'lgan jangda Doroning bevosita o'zi qatnashadi. Skiflar ot ustidan o'q otishga juda usta bo'lib, asosan chorvachilik bilan shug'ullanishardi. Bepoyon tekisliklari o't o'lanlarga juda boy edi. Doro ularga qarshi yurish boshlaydi. Oldin choparlarni, so'ngra ularning orqasidan piyoda lashkarlarni yuboradi Izma-iz quvib kelayotgan Doro qo'shinlari kechasi horib - charchab, tamaddi qilishayotganlarida skiflar qo'qqisdan hujum boshlaydilar. Skiflarning otliq qo'shinlari hamma vaqt eroniylarning otliq qo'shinlaridan ustunlik qilishardi. Piyodalari esa zaifroq edilar. Bu talofatdan so'ng, tang ahvolda qolgan Doroga skiflar o'z vakillarini yuborishadi. Vakillar Doroga sovg'a-salomlar olib borishadn. Bu sovg'alar ichida bitta qush, sichqon, qurbaqa va beshta yoy o'qi bor edi. Eronliklar butun aql - zakovatlarini ishga solib, skiflar yuborgan sovg'anrng mag'zini chaqishga, ma'nosini anglashga harakat qiladilar. Buning ma'nosi shunday edi: "Agar qushga aylanib, osmonga uchib ketmasang yo sichqon kabi yerning tagiga yashirinmasang yoki qurbaqaga o'xshab botqoqlikdan sakrab o'tmasang, sizlar uchun o'z ellaringizga sog' omon qaytish yo'q. Mana shu yoy o'qlaridan o'lib ketasiz". Bu yerlarda yo'l yo'q edi. Lashkarlarning asosiy qismi piyodalardan tashkil tolgan. Eronliklar qaysi yo'ldan Istr daryosining xavfsiz ko'prigiga yetib olishni o'ylab, hang-mang bo'lib qoladılar Otliq skiflar yo'lni yaxshi bilishardi. Shunnng uchun ham, ular ko'prikka eronliklardan ilgari yetib keladi. Ular ko'prikni qo'riqlayotgan ionyaliklarga shunday deydi: "Ioniyaliklar, oxirgi kuningiz keldi, bu yerda qolib, nohaq ish qilyapsizlar. Jonlaringning omon qolganiga shukur qilib, skiflar xudosidan minnatdor bo'linglarda, ko'prikni buzib, zudlik bilan o'z yurtlaringga qaytinglar. Dorodan

shunday qasos olaylikki, u qayta bu yurtlarga yovuzlik niyatida qadam bosmasin". Ioniyalnklar o'zaro kengasha boshlashadi. Gellespont davrida Xerson xokimi va sardori bo'lgan afiniyalik Miltiad skiflar taklifini ma'qullaydi. Miletlik Giltiyey sal boshqacharoq fikrda bo'ladi. U agar Doroning qudrati yakson qilingan bo'lsa, endi hokimiyatni hech kim idora eta olmaydi. Davlatga endi xalq hokimlik qiladi. Uning bu fikriga boshqalar ham qo'shiladi. Ioniyaliklar o'zaro kengashib, skiflarning g'azabi qo'zg'almasdan ko'prikni buzib, o'z yurtlariga jo'nab qolishga qaror qiladi[1]. Shu kuni kechasi yetib kelgan Doro vayron etilgan ko'prikni ko'rib vahimaga tushadi. Doro ovozi o'tkir bir misrlikka qirg'oq bo'ylab borib, miletlik Giltiyeyni chaqirib, qaytarib kelishni buyuradi. Birinchi ovozni eshitishi bilanoq, Doroning sog'-omon ekanligini sezgan Giltıyey hamma kemalarni qaytarib, ko'prıkni tuzatadi. Shunday qilib Doro skiflar o'lkasidan o'z yurtiga qaytib ketadi. Doro Frakiyani o'z hukmiga bo'ysundirgach, mamlakatda katta qo'shinga ishonchli sardor qoldıradi. Gıltiyeyga esa qılgan xızmatlari evaziga Frakiyadan bir viloyat hokimligini beradi. Gıltiyeynıng qudrati oshib ketishidan qo'rqqan qo'shin sardori Megabız, uni Suzaga chaqirib olishni Dorodan o'tinib so'raydi. Doro uning maslahatiga quloq solib, Giltiyeyni Suzaga chaqirib oladi.

To'maris kabi jasur ayollarimiz, Shiroq kabi erksevar o'g'lonlarimiz, Spitamen kabi haqiqiy vatanparvarlar tarixda juda ko'p bo'lgan. Shiroqning bunday tadbirkorligini Vavilonni egallashda Zopir ham ko'llaydi.

4. Musulmon tarixshunosligi

Musulmon tarixshunosligi bevosita shariat va islom aqidalari bilan bog'liqdir. Musulmon olimlari tarixiy voqealarni islom aqidalari, Allohning qudrati va qazoi taqdir bilan bog'laydilar. Qur'oni Karimda aytilishicha, inson tirik ekan, u Allohning irodasi bilan ish ko'radi. Tarixchi esa jamıyatda yuz beradigan voqealarning sabablarini shariat qoidalari bilan uyg'unlashtirishi zarur edi. Chunki har qanday mantıqıy fikrlash voqealarning sababini aniqlashni taqozo etadi. Musulmon tarix-chilari bu murakkab vaziyatda o'ziga xos yo'l topdilar. Ular

[1] Сагдуллаев А.А. Ўзбекистон тарихи. – Т.: Университет, 1999, 53 б

voqealarning kelib chiqish sabablarini bayon etib, bu sabablar ham Allohning irodası ekanligini e'tirof etdilar. Alloh-ta'olo lozim topsa, bu voqealarni boshqa izga burib yuborishi ham mumkın. Musulmon tarixchilari ko'p o'rınlarda "Qur'on" suralari va oyatlarga asoslanadilar. Bunday qarash tabiiyotchilarga ham keng yo'l ochib berdi. Ammo islom ta'limoti Arabistondan tashqari mamlakatlarga yoyilgan paytdan boshlab tarix fani sezilarli darajada rivojlanadi. Ana shu davrda (VII asrdan boshlab) arablar, forslar, turkigo'y mutafakkirlar (Abu Abdulloh Xorazmiy Beruniy, Tabariy, Maqdisiy, ibn Xaldun va boshqalar) musulmon Sharqi tarixchiligi faniga asos soldilar.

Islom mamlakatlaridagi xalqlarning turli-tumanligi g'oyalarning ham g'aroyib tarzda aralashib birikib ketishiga olib keldi. Islomiyatdan [illegible] turkiy xalqlarning majusiy shomonizmi amalda edi va hatto Baqtriya markazi Balx shahrida buddaviylarning yirik diniy qasri [illegible] bor edi. Xalifalikning mashhur vazirlari Barmakiylarning ismi Budda monastiri nozirı Barma (Parma) so'zidan olingan edi. Navbahor [illegible]ning nomi esa Budda monastiri noziri Nav Bixardan olingan. Buxoroning nomi ham shundan kelib chiqqan, deyishadi. O'rta Osiyoda [illegible] zardushtiylar va manixeylar — moniylar yonma-yon yashar edilar. [illegible]da bular orasida jiddiy nizolar yo'q edi. So'g'd xalqlarining farovonligi asosan hosildor vodiylar bilan bog'liq edi. Bu vodiylar [illegible] hozirgıga nisbatan gavjumroq va obodroq edi. Ular asosan tranzit ([illegible]ldan yo'lga o'tuvchi) savdo safarlari bilan tirikchilik qilishardi. Turonliklar va eronliklar o'rtasidagi, ko'chmanchilar va o'troq xalqlar [illegible]dagi doimiy to'qnashuvlar xalqaro savdo-sotiqqa unchalik ziyon [illegible]tkazmas edi. Qutayba ibn Muslim harbiy yurishlariga (705 - 707 yy.) [illegible] So'g'd aholısı hech kimdan yengilmagan va madaniy markazlari [illegible] islom dini ta'siriga o'tmagan edi. Qutayba istilosidan keyin Marv, [illegible] va Hirotdagi kabi Xorazm, Buxoro va Samarqandda ham [illegible] joylashdi. Ko'p joylarda mahallıy hokımlar arablarning [illegible]lari yoki noiblari sifatida qoldirilgan edi.

Xuddi shu davrda (711 - 712 yy.) Sind dıyori (Hindistonning shimoli hozirgi Pokiston) da ham islom hokımiyati o'rnatildi. Daybul (xozirgi Karachi) porti va HIRUN (xozirgi Xaydarobod) shahri (u yerda [illegible] qirq gaz keladigan Budda haykali ham) islom lashkarboshlig'i Muhammad ibn Qosim qo'liga o'tdi. U ham mashhur lashkarboshi [illegible] singari, Iroq hokimi tomonidan yuborilgan edi. Xorazm va

Movarounnahrdagi ko'pchilik olim va shoirlar VIII asrda islom dinini qabul qilgan bo'lsalar-da, ammo ular (nima uchundır) shu viloyatlarning madaniy, ma'naviy hayotiga unchalik ta'sir ko'rsatmadilar. Ularning ba'zilari xalıfalikning markaziy shaharlari madaniy hayotida faol qatnashdilar. So'g'd va Xorazm aslzodalarining ko'pchilıgi islom dinini qabul qilmagani uchun qirib tashlandi, so'ng islom doiylari — missonerlari faoliyati jonlanib, ko'pchilik islom dinıni qabul qilgach, Buxoro va Samarqand shaharlarida musulmon ma'naviy madanıyati ravnaq topdi.

Arablar O'rta Osiyoga yangi diniy ta'limot — islom ta'limoti bilan birga yangi yozuvni ham olib keldilar. Arab yozuvi asta-sekin butun Eron va Turonga yoyilib, Abbosıylar hukmronligining ikkınchi asriga (ya'ni X asrga) kelib, murakkab o'rta forsiy - paxlaviy yozuvini siqib chıqardi. Buning oqibati shu bo'ldiki, Sharq xalqlarinig boy yozma obıdalari bizning kunlargacha juda kam saqlanib qoldi. Musulmonlarning muqaddas kitobi "Qur'oni Karim" arab yozuvida bitilgani, shuningdek arab alıfbosi nisbatan ilg'orligi, tovushlarga asoslangani, ya'ni har bir fonema - tovushga alohida belgı - harf borligi ham katta ta'sir ko'rsatdi. O'rta Osiyo xalqlari orasida kimlar va qachon birinchi bo'lib, arab yozuvini qo'llay boshlaganligi biz uchun qorong'u. Bizningcha, arablar qo'l ostidagi o'lkalarda asta-sekın tabiiy ravishda shu yozuv qo'llana boshlagan bo'lsa kerak. Samarqand yaqinidagi Mug' g'orıdan topilgan Divashtich tilxati shu yozuvda bitilgan (I. Yu. Krachkovskiy. Asarlar. 1-tom).- Ishonch bilan shuni taxmin qilish mumkinki, arab yozuvi dastlab, ma'ınuriy-xo'jalik ehtiyojlari uchun ishlatilgan bo'lsa kerak. Chunki arab yozuvi sodda, qulay va tez yozishli edi. Ehtimol, keyinroq yirik hajmdagi forsiy va turkiy matnlarni, pandnoma dostonlarni va adabiy-tarixiy risolalarni ham shu yozuvda bitish qulay ko'ringandir? Har holda dastlabki vaqtlarda qo'yozmamalarning qaysi tilda bitilishi muhim bo'lgandir .

Shunday qilib, VIII asrdan XX asrning boshlariga qadar bo'lgan O'rta Osıyo tarixi tarixshunosligiga doir nodir qo'lyozma asarlarga egamiz. Bulardan bir qismi turli qabilalarda va mamlakatlarda bosmaxona usulda nashr etilgan. Afsuski, bız hozirgi musulmon Sharq mamlakatlarida arab yozuvida bitilgan O'rta Osiyoga oid yozma manbalarning hammasi haqida ravshan ma'lumotga ega emasmiz, chunkı ularning ko'pchilıgi biz uchun qorong'u. Ammo Abu Rayhon Beruniy

[illegible] Sharqshunoslik oliygohi va Hamid Sulaymon nomidagi [illegible]lyozmalar oliygohi olimlari mehnati bilan O'rta Osiyo tarixiga [illegible] muhim manbalarni topish mumkin bo'ldi. Ch.A.Stori ma'lu-[illegible] tarixiy qismi (ruscha tarjimasiga yozilgan so'zboshi [illegible] aytıshicha) faqat fors tilida bitilgan bir necha yuz ming [illegible]lyozmalar mavjudligidan dalolat beradi.

[illegible], hozirgi vaqtda tarixshunoslik fani ılmiy va amaliy muammo [illegible] qolmoqda. Hozirgi davr sharqshunoslari, tarixchilari va turko-[illegible] ancha-muncha ishlarni amalga oshirdilar.

[illegible] Osiyo xalqlari tarixiga doir hozirgi davr tarixshunosligi [illegible] muntazamlashtirib, uning vujudga kelishi va rivojlanishining [illegible] bosqichlarini aniqlash, tarixshunoslik fani taraqqiyotining kelaj-[illegible] haqida fikr yuritish lozim.

[illegible] maqsadlardan kelib chıqib, quyidagi masalalarni ko'rib chiqish [illegible] muvofiq;

[illegible]tiylik tarixi tarixshunosligi. Uning tarixi va hozirgi ahvoli: [illegible]lık Iskandar istilosiga qarshi So'g'diyona xalqlarinıng [illegible] kurashi tarixshunosligining ba'zi muammolari (mil. avv. [illegible]-127).

[illegible] Renessansi (Uyg'onish davri). O'rta Osiyo tarixi [illegible] (Narshaxıy, Tabariy, Beruniy, Maqsidiy va boshqalarning [illegible])

[illegible] ıstılosi va ularning hukmronligi davrida (XIII-XIV [illegible]) Movarounnahrga doir tarixıy asarlar.

[illegible] va temurıylar davri (XIV-XV asrlar)ga doir O'rta Osiyo [illegible]

[illegible] Osiyoning XVI asr - XIX asrning birinchi yarmidagi tarixiga [illegible]

[illegible] sharqshunosligida O'rta Osiyoga doir tarixshunoslik [illegible]

[illegible] sharqshunoslıgi tarixiga muqaddima;

[illegible] sharqshunoslikning ahvoli;

[illegible] Peterburg, Moskva, Qozon va Xar'kovda XIX asrning birinchi [illegible] sharqshunoslikning ravnaqi.

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Rossiyada [illegible]hunoslik rivoji va O'rta Osiyo tarixining o'rganilıshi;

[illegible] davrıda (XIX asr birinchi yarmi va XX asr boshlarida)

O'rta Osiyo tarixi tarixshunosligining ahvoli.

- O'rta Osiyo tarixi tarixshunosligining 1920 yillardagı ahvoli.

O'rta Osiyo tarixiga doir Vatanimiz tarixshunosligi tarixi bir necha o'n yillarni o'z ichiga oladi. Arab, fors-tojik, turkiy, eski o'zbek tillaridagi qo'lyozmalar, Rossiya va O'rta Osiyo sharqshunosligi asarlari (kitob, risola, maqola, tarixiy qasida, xotira, taqrizlari) minglab nomlardan iborat bo'lib, ulardan ba'zilari bosilib chiqqan va anchaginasi haligacha nashr etilmagan.

Hozirgi vaqtda arab, fors-tojik, eski o'zbek (turkiy) tillardagi qo'lyozmalar Ashxobod, Moskva, Leningrad, Toshkent, Samarqand, Dushanba, Boku, Qozon, Tiflis (Tbilisi), Ufa, Maxachqal'a, Kiev, Odessa, L'vov hamda boshqa shaharlarda saqlanmoqda. Bunday qo'lyozmalardan ba'zilari O'rta Osiyo va Qozog'iston diniy nazoratı muassasalarida, shuningdek viloyat shaharlari va qishloqlarida saqlanmoqda. Ilmıy-tadqiqot olıygohlarida, arxivlarida, kutubxonalarda, muzeylarda, oliy o'quv yurtlarida, masjid, madrasalarda, shaxsiy xonadonlarda xam tarixga oid qo'lyozmalar bor. Ana shunday turli hududlarda sochilgan qo'lyozmalarning hozircha aniqlangan miqdori 44 ming jilddan ziyodroqdir. Ammo shuni ta'kidlash kerakki, XIX - XX asrlarga oid qo'lyozmalar haqida juda ko'p yozilgani holda XIII - XVIII asrlarga oid qo'lyozmalar juda kam o'rganilgandir.

Tadqiqotchilar, ayniqsa yoshlar zarur adabiyotlar va manbalarni topishga, ularni o'rganishga va ilmiy tadqiq etishga juda qiynaladilar. Chunki hozirgacha vatanımizdagi qo'lyozmalar fondlarıda sharqshunoslikka doir adabiyotlarning eng yangi, umumlashgan, yirik ko'rsatkichlari tuzilmagan. Ularni tartibga solish, tegıshlı kataloglar va ko'rsatkichlar tuzısh, tarixiy yodgorliklarning, davlat arxivlarida va sharqshunoslık ilmıy muassasalarida saqlanayotgan tarıxiy asarlarning majmuasini (to'plamini) vujudga keltirish zarur.

Ana shunday yangi majmualarni, tarixshunoslikka oid yirik asarlar va adabiyotlar ko'rsatkıchlarini talabalar ham, ilmiy xodimlar ham, muallimlar, madaniyat xodimlari ham orziqib kutmoqdalar.

O'rta Osiyo xalqlari tarixı tarixshunosligini o'rganısh jarayonida uni davrlarga bo'lish, mavzular va muammolar bo'yıcha bahsli masalalar tug'ilishi mumkin. Shuningdek, har bir bobning muayyan bir xil hajmını talab qilish, hamma ham topishi qiyin bo'lgan ko'plab adabiyotlarni keltirish o'rinsiz bo'ladi.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Yunon tarixshunosligining tarixiy bilimlar rivojiga qo'shgan xissasi?
2. Xorijiy tarixshunoslikning Markaziy Osiyo tarixini urganishdagi ahamiyati nimalardan iborat?
3. Qadimgi yunon tarixchilari tomonidan O'rta Osiyoning chorvador xalqlari hayoti qanday tasvirlangan?
4. O'rta Osiyo ko'chmanchi qabilalarining turmush tarzi, urf odatlari va mashg'ulotlari to'g'risida kimlar ma'lumotlar beradi?
5. Xıtoy yilnomalarida Qang' davlati haqida qanday tarixiy ahamiyatga ega ma'lumotlar mavjud?
6. Grek va Rim adabiyotida tariximizning qadimgi davri qanday tasvirlangan?
7. "Iliada" va "Odisseya" dostonlarida mamlakatimiz tarixiga taalluqli qanday ma'lumotlar bo'lishi mumkin?
8. O'rta Osiyo xalqlarining qadimgi davrdagi ijtimoiy-siyosiy tarixi qaysi asarlar orqali yoritilgan?
9. Musulmon tarixshunosligining tarixiy bilımlarga qo'shgan xissasi?

MAVZU № 3. O'RTA OSIYO XALQLARINING QADIMGI DAVRDAN O'RTA ASRLARGACHA BO'LGAN TARIXSHUNOSLIGI

REJA:

1. Zardushtiylik dini tarixining tarixshunosligi
2. Makedoniyalik Iskandar istilosiga qarshi Sug'd xalqlarining o'z mustaqilligi uchun kurashi tarixi tarixshunosligi (mil.av.329-327)

Tayanch soz va iboralar: Zardusht, zardushtiylik, Avesto, Xorazm. Sug'diyona, Baqtriya, Xo'jand, Yaksart, "Osor-ul-boqiya", "Tarixiy kutubxona", Iskandar, Arrian, Kvint Kurtsiy Ruf, Marokanda, Spitamen

1. Zardushtiylik dini tarixining tarixshunosligi

Zardushtiylik - dunyodagi insoniyat madaniyatiga ko'p ta'sir ko'rsatgan eng qadimgi dinlardan biridir. Ayni vaqtda, zardushtiylik dini eng murakkab, tushunish qiyin bo'lgan dinlardan. Bundan 3500 yil muqaddam Osiyo dashtlarida vujudga kelgan bu din Erondagi uch qudratli davlatda (Kayoniylar, Ahmoniylar, Sosoniylar) uzoq asrlar hukm, surgan din bo'lishi bilan birga, u juda ko'p Sharq mamlakatlarida, xususan O'rta Osiyoda ham tarqalgan edi.

Tarixiy manbalarda ilk marta tilga olina boshlagan vaqtlarda zardushtiylik ancha eskirib qolgan edi.

Yevropada zardushtiylik ta'limoti qadimgi davrlardayoq katta qiziqish uyg'otgan, Zoroastr (Ozar, Zardusht) va uning ta'limoti haqida ko'pchilik yunon va rimlik yozuvchilar, faylasuflar va tarixchilar ilmiy asarlar yozgan. Sosoniylar sulolasi davrida III -VII asrlarda zardushtiylikning muqaddas kitobi — "Avesto" matnlari O'rta forsiy tilda ko'chirila boshlangan vaqtlardayoq mazkur din tarixshunosligi tug'ila boshlagan edi.

Abu Rayhon Beruniynipg "Osoru-l-boqiya"— "Qadimiy xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida (X asr) zardushtiylik dini haqida ancha mufassal fikr yuritiladi.

Yuqorida aytganimizdek, eng qadimgi zamonlardayoq zardushtiylik dini juda keng hududlarga tarqalgan bo'lib, ilk o'rta asrlarda mazkur din o'rnini asosan islom dini egallagan. Natijada bundan avvalgi

davrlarda mavjud bo'lgan zardushtiylik diniga oid adabiyotlarning juda ko'p qismi, Sosoniylar davrida amalda bo'lgan "Avesto" to'plamining taxminan to'rtdan uch qismi yo'qolib ketgan. Mana shu hol zardushtiylik ta'limoti tarixini va uning tarixshunosligini o'rganish uchun katta qiyinchilik tug'diradi. Shu ma'noda zardushtiylik mavzusining o'zi qator tarixiy-madaniy muammolarni o'rganish uchun katta ahamiyat kasb etadi. Yirik eronshunos olim, London dorilfununi professori Meri Boys shu mavzuga doir quyidagi muammolarni sanab o'tadi:

Qadimgi diniy ta'limotlarni tekshiruv jarayoni Qadimiy Sharq va qadimgi dunyo mamlakatlari - kichikroq qabilalar va shahar - davlatlardan yirik markazlashgan podshohliklar, so'ng imperiyalarga qadar kechgan siyosiy taraqqiyotning umumiy yo'nalishlari o'zaro bog'liqdir. Ilk ulug' davlat "yirik davlat tuzilmasi"dan biri Ahamoniylar davlati (miloddan avvalgi VI - IV asrlar) edi. Bu davlat Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarini, butun O'rta Osiyoni va ba'zi yunon shahar - davlatlarini o'z hokimiyati ostida birlashtirgan edi.

Keyinroq markazi Eronda bo'lgan yirik Sharq davlatlari, unga qo'shni O'rta Osiyodagi Parfiya (miloddan avvalgi III asr - milodning III asrigacha), so'ng uning o'rniga kelgan Sosoniylar davlati (III - VIII asrlar) va Qadimgi Xorazm davlati (III - VII asrlar), ellinlar (ellinlar davlatlar), so'ng rimliklar "g'arbi"ga qarshi va sharqdan Xitoy ... qarshi turuvchi asosiy siyosiy kuchlar edilar.

Eron, Afg'oniston va O'rta Osiyo xalqlari tarixining turli jihatlarini dini mazmundagi matnlarsiz o'rganish mumkin emas. Bu fikr "Avesto"ga ham tegishlidir. "Avesto" zardushtiylikning muqaddas kitobi bo'libgina qolmay, u O'rta Osiyo va Eron tarixi, madaniyatini, o'zi... siyosiy tuzumini o'rganish uchun katta ahamiyatga egadir. "Avesto" shuningdek, O'rta Osiyodagi eng qadimiy qabilalar va elatlarning ijtimoiy-iqtisodiy hayotini o'rganishda qo'l keladi. Garchi, ... Qora dengiz bo'yidagi skiflarning qabilalari zardushtiylik ... bo'lmasa-da, qadimiyat - qadimgi davr adiblarining skiflar tili, ... ijtimoiy hayot tarzi haqidagi fikrlarini Sharqshunoslik ... xususan, "Avesto"ga oid manbalar orqali yaxshiroq tushunish mumkin.

... yuzidagi eng qadimgi dinlar, jumladan, zardushtiylik haqida ... tadqiqotlar vujudga kelgan. Xorijiy olimlardan Amerikalik R.Fray

("Nasledie Irana"), farang sharqshunosi E. Benvenist, Bel'giyalik professor J. Dyushen - Gyuyimen, shved eronshunoslari X.Yu.Nyuberg va G.Videngran, Daniyalik K.Barr, nemis olimi V.Xints asarlarini, olimlardan I.A.Aliev., V.I.Abaeva, M.A.Dandamaev, I.M.D'yakonov, V.A.Livshits, B.G'.G'afurov va boshqalarning asarlarini ko'rsatish mumkin.

Zardushtiylik dini tarixiga oid ko'plab maqolalar va asarlar yaratilgan bo'lsa-da, ammo mamlakatimiz xalqlari tarixida zardushtiylikning o'rni va ahamiyati haqida jiddiy, umumlashma asarlar hanuz yuzaga kelmagan.

Londonlik professor M.Boys Eron tarixi va madaniyatiga oid asarlari bilan zardushtiylikning o'rta asrlardagi va yangi zamondagi tarixini o'rganishga katta hissa qo'shdi. M.Boys 1963-64 yillarda Yazd vodiysi shimolidagi olib borgan dala-qazilma ishlari vaqtida hozirgi zardushtiylarning e'tiqodlari va rasm-rusmlarini o'rgandi.

Yuqoridagi ishlari natijasida Meri Boys 4 jilddan iborat "Zardushtiylik tarixi" nomli yirik ilmiy asarini tayyorladi va qisman nashr etdi. Bu asarning qimmatli ahamiyatini e'tirof etgan holda unda zardushtiylikning keyingi davriga oid ma'lumotlar avvalgi davrlarga ko'chirilganligi muayyan e'tiroz uyg'otishini ta'kidlab o'tmoqchimiz. Shuningdek, M.Boysning zardushtiylikning qachon vujudga kelganligi haqidagi fikrlari munozaralidir. Miloddan avvalgi (V asr oxiri) tarixshunoslar yozishicha, Gerodotning zamondoshi lidiyalik Ksanor Zardusht nomini tilga olgan.

Keyingi tarixshunoslarning yozishicha, Ktesiy o'z asarida Zardushtni Ossuriyaliklardan yengilgan Baqtriya podshosi sifatida tilga oladi. Shuni ta'kidlash lozimki, Ktesiy asari ancha ilgari qayta ishlangan bo'lib, keyinroq o'tgan qadimiyat olimlari ana shu qayta ishlangan nusxadan foydalanganlar. Ammo Ksenofontning "Kiropediya" va "Anabasis" asarlarida Zardusht haqida ma'lumot uchramaydi. Holbuki, Ksenofont Ahamoniylar davlatining ahvoli, xalq urf-odatlari va marosimlari bilan yaxshi tanish edi. Gerodot, Ktesiy va Ksenofont asarlarida keltirilgan ma'lumotlarni umumlashtirib, aytish mumkinki, Ahamoniylar davri (miloddan avvalgi VI - V asrlar) da hali Zardushtni hukmron din asoschisi deb hisoblashmagan. Zardushtiylik dini tadqiqotchilari E.Benvenist, A. K.Kristensen, X.Nyuberg, V.V.Struve va boshqalar ham shu fikrdalar.

Xullas, O'rta Osiyoda zardushtiylik dini tarqalishi tarixining ochilmagan qirralari ko'p va bu ko'plab ilmiy izlanishlarni taqozo etadi.

2. Makedoniyalik Iskandar istilosiga qarshi Sug'd xalqlarining o'z mustaqilligi uchun kurashi tarixi tarixshunosligi (mil.av. 329-327 yy.)

Miloddan avvalgi 329 yilda makedoniyalik Iskandar qo'shinlari og'ir sharoitlarda Hindiqush tog' tizmalaridan o'tib, O'rta Osiyo hududlariga yetib keldilar. Iskandarning bu harbiy yurishlari uning istagiga muvofiq shohni kuzatib kelayotgan ba'zi adib-yozuvchilar va muarrixlar tomonidan yozib borilishi ko'zda tutilgan edi. Makedoniyalik bu adiblardan Aristobul, Ptolemey Lag va dengizchi darg'a Nearx ana shunday dastlabki tarix yozuvchilar edilar. Bu adiblarning xotiralari keyinroq o'tgan Arrian, Strabon va boshqa muarrixlarning asarlarida keltirilgan. Ammo yozma xotiralarining ko'pchilik qismi bizgacha yetib kelmagan.

Iskandarning Sharqqa harbiy yurishlari vaqtida qanday voqealar yuz berganligi undan 300-400 yil keyin yashagan 5 tarixchining asarlarida tasvirlangan. Ular o'z asarlarida Iskandar zamondoshlarining asarlari va esdaliklaridan foydalanganlar.

Iskandarning O'rta Osiyoga yurishlari tasviri esa yunon tarixchisi Arrian (miloddan avvalgi II asr) va Rim tarixchisi Kvint Kurtsiy Ruf (miloddan I asr) asarlarida saqlanib qolgan. Iskandarning Sharqqa qilgan yurishlarini mufassal yoritgan Plutarx (I-II asrlar) bilan Yustin (II asr) esa uning O'rta Osiyoga qilgan yurishlari haqida deyarli og'iz ochmaydilar. Sitsiliyalik Diodorning "Tarixiy kutubxona" asarida (miloddan avvalgi I asr) ko'p o'rinlar yo'qolgan. Bu asar 17 kitobdan iborat bo'lib, Iskandarning Amudaryo ortiga yurishi tasvirlangan boblarning faqat sarlavhalarigina saqlanib qolgan.

Tarixshunoslik an'analariga ko'ra, Kvint Kurtsiy Ruf asari ishonchli emas, muallif badiiy so'z jimjimadorligiga e'tibor beruvchi, turli-tuman bo'rttirilgan va badiiy to'qimalar bilan asarini bezovchi faylasuf-ritorikdir, degan fikr hukm suradi. Tarixchi asarini bunday yuzaki baholash haqiqatga to'g'ri kelmaydi, mamlakatimiz tarixshunosligi ruhiga ham ziddir. Kurtsiy Rufning juda ko'p ma'lumotlari boshqa tarixiy manbalar bilan taqqoslanganda yuqoridagi fikrlarning to'g'ri ekanligining guvohi

bo'lamiz. Ammo Kurtsiy Ruf asarlariga nisbatan jangchi adib Arrian risolasida O'rta Osiyo voqealari bayoni ancha ishonchli hisoblanadi. Arrian o'zi Osiyodagi janglarda qatnashgan. Uning asari aslida harbiy san'atga bag'ishlansada, u Iskandar zamondoshlari Aristobul va Ptolemey Lag esdaliklaridan foydalangan. Ba'zi o'rinlarda ulardan ko'chirmalar keltirilgan. Aristobul bilan Ptolemey Lag asarlarida faqat o'zlari qatnashgan voqealarni bayon etganliklari uchun Arrian ularda bo'lmagan voqealarning yetishmagan o'rinlarini Kurtsiy Ruf kitobidagi hikoyalar bilan to'ldiradi. Makedoniyalik Iskandar va uning davriga bag'ishlangan juda ko'p adabiyotlar bo'lishiga qaramay, O'rta Osiyoga harbiy yurishlari haqida juda kam mualliflar yozganlar.

Shunday qilib, miloddan avvalgi 331 yilda Gretsiya-Makedoniya qo'shinlari So'g'diyona hududlariga bostirib kirdilar. Ular bu yerda mahalliy aholining juda qattiq qarshiligiga uchradilar. Milliy qahramon Spitamen rahbarligidagi xalq qo'zg'oloni tarixdan ma'lum. Iskandarga qarshi o'rta osiyolik xalqlarning urushlari uzoq davom etdi.

Tarixiy manbalarga ko'ra, o'sha davrda O'rta Osiyoda sinfiy jamiyatlar va shahar turidagi madaniy markazlar tarkib topayotgan edi. Bu vaqtda O'rta Osiyo xalqlari chorvachilik va dehqonchilik bilan shug'ullanar, hali bu yerlarda, masalan, Bobildagi kabi mehnat taqsimoti kuchaymagan edi. Bu xalqlar yoki qabilalar Eron va G'arbiy Osiyo davlatlari bilan siyosiy aloqalardan manfaatdor emas edilar. Garchi Doro I Kayxusrav, Doro II kabi Ahamoniy podshohlar O'rta Osiyo mahalliy zodagonlarining qo'llab quvvatlashiga tayansada, xalq ommasi og'ir soliqlar va xirojlardan tinkasi qurigan edi. Hali Iskandar istilosi boshlanmasdan avval bu yerlarda necha bor eroniylarga qarshi xalq qo'zg'olonlari yuz bergan edi. Xorazm esa miloddan avvalgi IV asrda eroniylardan ajralib, siyosiy mustaqillikka erishgan edi. Iskandar qo'shinlari Baqtriya va So'g'diyona xalqlariga eroniylarga nisbatan yanada qattiqroq jabr-zulm olib keldilar. Iskandarning farmoni bilan ba'zi qabilalar (masalan, Branxiylar) butunlay qirib tashlangan edi. Bunday shafqatsizlik sharoitida So'g'diyona xalqlari ozodlik va mustaqillik uchun qattiq kurashni davom ettirishlari tabiiy edi. Iskandar o'zi bosib olgan boshqa joylardan farqli o'laroq, So'g'diyona mahalliy zodagonlarini o'z tarafiga og'dirib ololmadi. Aksincha, bu yerdagi mahalliy aslzodalar eroniylarning Iskandardan mag'lubiyatga uchraganidan foydalanib, mustaqillikka chiqishni orzu qilar edilar.

Tarixiy manbalardan So'g'diyona poytaxti Marokanda (Samarqand) qanday qilib makedoniyaliklar qo'liga o'tib qolganligini unchalik ravshan tasavvur etolmaymiz. Kvint Kurtsiy Rufning yozishicha, Iskandar shaharda qo'shin qoldirib, atrofdagi qishloqlarga o't qo'ygan. Kurtsiy Rufning guvohligiga ko'ra Marokanda qal'asi devorini uzunligi 70 stadiy bo'lib, shahar ichkarisida yana bir devor bo'lgan.

Bunday mustahkam shahar uzoq qamal qilinmay, qon to'kilmay olinganini tasavvur qilish qiyin. Shuning uchup sovet tarixchisi "Marokanda shahri jangsiz taslim bo'lgan" degan taxminni bildiradi. Bizningcha, bu fikr yetarli tarixiy asoslanmagan. Iskandar qo'shinlari Marokandani egallagach, Yaksart (hozirgi Sirdaryo) tomonga yuradi. Bu yurish vaqtida Iskandar qo'shinlariga qo'zg'olonchi so'g'dliklar hujum qiladilar. 30 ming qo'zg'olonchi Mug' tog'idagi oyoq yetmas istehkomlarga o'rnashgan edilar. Makedoniyaliklar juda katta talafotlar evaziga Mug' qal'asini egallaydilar. Mudofaachilar juda katta talafot ko'radilar. Ularning ko'pchiligi qirilib ketadi. 8 ming yarador, ayollar va bolalar asirlikka olinadi.

Oradan ko'p o'tmay, So'g'diyonada yana 7 shahar istilochilarga qarshi qo'zg'olon ko'taradi. Diodor ma'lumotlariga qaraganda, Iskandar qo'zg'olonchilardan 120 mingini o'limga hukm etadi. Bu raqam mubolag'ali bo'lib ko'rinsa-da, qo'zg'olon qanchalik keng tus olganini ko'rsatadi.

Iskandar O'rta Osiyoda yangi shaharlar barpo eta boshlaydi. Chekka Iskandariya shahri (hozirgi Xo'jand) Iskandar rejasi bilan qurilgan. Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, Chekka Iskandariyada grek-makedon qo'shinlarining horib-charchagan, yarador bo'lgan yoki qarib, qattiq janglarga yaramay qolgan jangchilari, yaqin-atrofdan ixtiyoriy ravishda kelgan so'g'diyonaliklar joylashtirilgan. Shahar aholisining muhim qismi asirlardan iborat edi. Iskandar rejasiga muvofiq, bunday shaharlar makedoniyaliklarning boshqa istilolari uchun tayanch istehkomlariga aylanishi kerak edi. Ammo Iskandar istilochilari O'rta Osiyo xalqlarini uzoq vaqt asoratda tutib turolmadi.

Miloddan avvalgi 329-327 yillarda Iskandar o'ziga qarshi bosh ko'targan So'g'diyonani uch marta qaytadan zabt etishga majbur bo'ldi. Ayniqsa O'rta Osiyo qabilalarining milliy qahramoni Spitamen boshchiligidagi vatanparvar kuchlarning istilochilarga qarshi ozodlik kurashi makedoniyaliklar uchun katta xavf tug'dirar edi. O'ziga qarshi

xalq harakatlarini bostirish uchun Iskandar juda ko'p harbiy va moddiy kuchlarni sarflashdan tashqari mahalliy zodagonlar bilan «do'stona» aloqalar o'rnatishga harakat qildi. Iskandar mahalliy zodagonlarning siyosiy ta'sirini va yer-mulklarini kengaytirdi. U mahalliy zodagonlarga saxovat bilan mol-dunyo, qul, cho'rilar sovg'a qilishdan tashqari, So'gdiyonaning boy va ta'sirli mansabdori Oksiartning qizi Ravshanak (yunon-rim manbalarida Roksana) ga uylandi. Iskandarning Ravshanakka uylanishi uning So'g'd-Baqtriya zodagonlari bilan aloqalarini mustahkamlash bilan birga ularni o'z tarafiga og'dirib olishga imkon berdi. Iskandar mana shu yangi siyosati bilan O'rta Osiyoni batamom o'ziga bo'ysundirishga erishdi. Shunga qaramay, Iskandarning qo'shinlari orasida uning siyosatidan norozi bo'lgan ayrim lashkarboshilar isyon ko'tarishga urindilar. Ammo ularning noroziligi shafqatsizlarcha bostirildi.

Mahalliy zodagonlarning makedoniyaliklar tarafiga utishi Iskandarga O'rta Osiyodagi dehqonlar va chorvador jamoalari qarshiligini yengishga hamda O'rta Osiyoni o'zining juda katta monarxiyasi qatoriga qo'shib olishga yordam berdi. Makedoniya istilochilariga ittifoqchi bo'lib olgan mahalliy zodagonlar O'rta Osiyo xalqlari ijtimoiy hayotining barcha sohalarida hukmron siyosiy va iqtisodiy kuchga aylandi. Keyinchalik xam Iskandar va uning vorislari (Salavkiylar va boshqalar) O'rta Osiyo xalqlari hayotida tarixan tarkib tolgan bu vaziyat bilan hisoblashishga majbur edilar.

Xullas, Makedoniya istilosidan so'ng O'rta Osiyo xalqlarining xalqaro iqtisodiy, savdo aloqalari kuchayib bordi. Ayniqsa O'rta osiyoliklarning Iskandar qo'shinlari fath etgan Hindiston bilan yaqin aloqalar o'rnatishi muhim ahamiyatga ega bo'ldi. So'g'diyona va Baqtriyada ham yangi-yangi shaharlar qad ko'tardi. Tarixiy manbalarda Iskandar va uning lashkarboshilari O'rta Osiyoda 12 ta shahar bunyod etganligi aytiladi. Shu bilan birga olimlardan I.Sh.Shifman Iskandar qo'shinlarining So'g'diyonadagi vayrongarchiliklarini Chingizxon istilosiga o'xshatadi. Bu vayrongarchiliklar oqibatida mamlakat xalqi keskin kamayib ketdi. So'g'd aholisi Vatanlarini tark etib, boshqa yurtlarga bosh olib ketishdi. Grek-makedonlar Farg'ona, Yettisuv. Markaziy Osiyo¬ni ham mustamlakalariga aylantirdilar. Iskandarning istilochilik siyosatini uning vorislari (selevkiylar) davom ettirdilar. Iskandar vafotidan 75 yil o'tgach, Baqtriya satrapi (noibi) Diodot

o'zini mustaqil hukmdor deb e'lon qildi. Pompey Trog mubolag'a qilib yozishicha, minglab shaharlar Diodot qo'l ostiga o'tdi. Selevkiylar davlati miloddan avvalgi 255-250 yillarga kelib bo'shashdi. Shundan so'ng "Древние авторы о Средней Азии" to'plami mualliflari yozishicha, O'rta Osiyoda yana mustaqil davlatlar tarkib topdi. O'zbekiston marksizm-leninizm ilmiy-tadqiqot ilmgohi nashrga tayyorlagan bu xrestomatiya sovet olimlarining shu sohadagi birinchi ishi bo'lib, unda O'rta Osiyo xalqlarining miloddan avvalgi VI asrdan milodning III asriga qadar bo'lgan tarixi, jo'g'rofiyasi, tabiiy boyliklari haqida qimmatli ma'lumotlar bor.

O'rta Osiyo xalqlari ba'zi davrlarda Hindiston va Xitoy bilan bir davlat bo'lib yashagan. Miloddan avvalgi II asrda yashagan Xan saroyi elchisi Chjan-Tsyan asarlari, epigrafik yodgorliklar va arxeologik qazuv natijalari bunga guvohlik beradi. Ayniqsa, arxeologlarning olib borgan qazuv va kuzatuv ishlari tufayli qadimiy tariximizning juda ko'p noma'lum sahifalari ochildi. Bu ishlar o'sha zamonlardagi madaniy hayot muammolari, ishlab chiqarish kuchlari, tarixiy toponimika, tarixiy jo'g'rofiya, iqtisodiy aloqalar, xalqlarimiz etnogenezi (milliy kelib chiqishi) sohasida qimmatli ma'lumotlar beradi.

Kvint Kursiya Ruf eramizning oltinchi yilida Rim imperatorligiga qarashli Tira shahrida tug'ildi. Uncha katta bo'lmagan bu shaharning tabiati nihoyatda go'zal edi. Kursiy Ruflar xonadoni uncha badavlat bo'lmasa ham o'ziga yarasha to'q edi. Bo'lg'usi yozuvchining yoshligidan bilimga chanhoqligini sezgan xonadon egalari uni lotin maktabiga o'qishga berishadi. Savodi chiqqandan so'ng u lotin tilida yozilgan asarlarni ixlos bilan o'qiy boshlaydi. Biroq bu vaqtda lotin tilida yozilgan badiiy asarlar barchaga birdek yetishmasdi. U grek tilini o'rganishga ham zo'r berib intiladi, 22 - 23 yoshida Afina safariga jo'naydi. Afinaning qadimiy adabiyot va madaniy yodgorliklariga qiziqish bilan qaraydi. Kursiy Ruf Afinadan to'g'ri Gresiyaga qo'shni bo'lgan Sharq mamlakatlariga yo'l oladi. U qayerda bo'lmasin, xalq og'zaki ijodi durdonalarini yig'ib yuradi. U Aleksandr Makedonskiy haqida ko'plab hikoya va rivoyatlar eshitadi. Shundan so'ng u Aleksandr Makedonskiyning tarixiga juda qiziqib qoladi. Afinaga qaytib kelib Aleksandr Makedonskiyning hayotiga oid manbalarni to'play boshlaydi. Ayniqsa, Aleksandriya shahri Kursiya Rufda katta taassurot qoldiradi. Aleksandrning Osiyo mamlakatlari bo'ylab yurishi yozib

borilgan maxsus "Shoh jurnali", "Efemerida" bilan tanishadi. Aleksandr bilan harbiy yurishga otlangan, shohning eng yaqin kishilari bo'lgan Ptolemey va Aristobulning "Kundalik"larini sinchiklab o'qiydi[1]. Bundan tashqari, Kursiy Ruf Aleksandr haqida yozilgan tarixiy asarlar bilan ham diqqat bilan tanishib chiqadi. U "Aleksandr Makedonskiyning tarixi" nomli asarini nihoyasiga yetkazish uchun tinimsiz ijod bilan mashhur bo'ladi. Buning uchun u uzoq, yillar zarur manbalar yig'ishga kirishadi. O'rta Osiyoning tarixiga oid ma'lumotlarni o'rganish Kursiy Ruf uchun birmuncha qiyinchiliklar tug'diradi. Uzoq, va begona o'lkalarning tarixini yozish yozuvchini ancha yillar o'ylantirib yuradi. O'rta Osiyo va Hindiston tafsilotlari yozuvchini tashvishga soladi. Muhimi shundaki, Kursiy Ruf kelajak avlod oldida javobgar bo'lib qolishidan cho'chiydi. Shuning uchun ham tarixiy dalillarga juda hushyorlik bilan munosabatda bo'ladi. Tarixiy voqealar bayonining aniq bo'lishiga intiladi. Hatto Aleksandr bilan yonma-yon yurib, janglarda bevosita qatnashgan voqealarning jonli guvohi bo'lgan Ptolomeyning "Kundalik"lariga ham bir qadar shubha bilan qaraydi. U bu haqda to'xtalib, "Ptolomey o'z "Kundaligi"da Aleksandrni haddan ziyod maqtab yuborgan" degan, fikrni aytadi. Kurs Rufning tarixiy manbalarga bunday sinchkovlik bilan qaraganligining sababi, yozuvchi tarixiy asar yozishning o'ta mas'uliyatli bir ish ekanligini chuqur xis etganligidan dalolat beradi. Tarixiy asar yozishning naqadar murakkab ekanligini Kurs Ruf tushunib yetgan Ayniqsa, Aleksandr Makedonskiy haqida asar yozish yozuvchidan tinimsiz izlanish va ogir mehnatni talab etadi. Yozuvchi faqatgina tarixiy dalillarga, tarixiy asarlarga yoki "Kundalik"larga tayanibgina qolmasdan, O'rta Osiyo va Hindiston safarida bo'lgan ko'pgina sayyoxlar bilan ham suhbatlashadi. Aleksandr Makedonskiyning Osiyo mamlakatlariga qilgan harbiy yurishidan avval ham, keyin ham O'rta Osiyoga juda ko'plab Gresiya va Rim sayyohlari keladi. Kurs Ruf oldliga qo'ygan ezgu-mzqsadga, niyatiga erishadi. U Aleksandr Makedonskiyning tarixiga bagishlangan o'nta kitob yozadi. O'nta kitobni o'z ichiga olgan bu asarning keyingi taqdiri g'oyat achinarli. Asarning birinchi va ikkinchi kitoblari yo'qolib ketgan. Beshinchi kitobning oxiri va oltinchi kitoblarning boshlanishi

[1] Қадимги тарихчилар Ўрта Осиё ҳақида. Тузувчи ва таржимон Зоҳир аълам.Т.: Юрист медиа маркази 2008,95 б.

saqlanmagan. Shuningdek, asarning o'sha kitobdagi ayrim sahifalari xam yirtilib ketgan. Asarning O'rta Osiyoga bag'ishlangan kitobidagi sahifalardan ayrim satrlar o'chganligini hisobga olmaganda, asar bizgachg to'liq yetib kelgan.

O'rta Osiyoning qadimgi davrlari tasvirlangan asarlar ichida Kvint Kursiy Rufning "Aleksandr Makedonskiy tarixi" asari alohida o'rin tutadi. Unda O'rta Osiyoning eramizdan avvalgi IV - III asrlariga oid voqealari tasvirlangan. Bu asarning O'rta Osiyo haqidagi boshqa asarlardan farqli tomonn shundaki, unda ikki daryo Oks (Amu) va Yaksart (Sir) oraligidagi tarixiy voqealar keng ifodalangan. Kursiy Rufning ushbu asari Diodor, Yustin, hatto jahon adabiyotida muhim o'ringa ega bo'lgan Plutarxning "Aleksandr" kitobidan ham ustun ekanligini ko'rish mumkin. U "Aleksandrning yurishi" asaridan ham bir qadar ustun darajadadir. Asarning VII kitobida va VIII kitobning bir qismida O'rta Osiyo voqealari tasvirlanadi. Asarda ifodalanishicha, Aleksandr So'g'diyona yerlariga ko'shni bo'lgan Girkoniyaga katta qo'shin bilan bostirib kiradi. "Atrof qumlik, sahro, quyosh qizdiradi. Suv tanqis edi. Qumlik xuddi olov purkayotgandek". Asardan keltirilgan bu parchada yozuvchi Amudaryoning narigi tomonidagi turkman cho'llarini tasvirlayapti. Makedoniyaliklarning O'rta Osiyoning olov purkab turgan issig'iga moslashishlari juda qiyin bo'ladi. "Bu yerlarda kechasi yurish ancha qulay. Ayniqsa, tong pallasidagi muzdek sahro shabadasi, quyosh chiqishi bilan harorat ko'tariladi. So'ngra butun a'zo badaningiz yona boshlaydi. Jangchilar avval ruhan tushkunlikka tushadi, so'ngra issiqqa bardosh berolmay, holdan toya boshlashadi". Kursiy Ruf xuddi O'rta Osiyo cho'llarida o'zi bo'lgandek, bu yerlarning tabiat manzaralarini o'z ko'zi bilan ko'rgandek tasvirlaydi. Yozuvchi o'z asarida sahro manzarasiga ancha keng o'rin bergan. Oy yoki kunni aniq ko'rsatmasa ham, makedoniliklarning bu yerlardan saraton oylarida o'tganligini aniqlash qiyin emas. Yana bir o'rinda yozuvchi jangchilar issiqqa bardosh berolmay oxirgi vinolarigacha, hatto moylarigacha ichib qo'yganligini aytadi. Ularga suyuqlik bo'lsa bas edi, qarab o'tirmasdan ichaverardi. Ayrimlarining qorni shunday shishib ketgan ediki, hatto qurol ko'tarishga ham darmoni yetmasdi, deb hikoya qiladi yozuvchi. Haqiqatan ham Kursiy Ruf asari O'rta Osiyoga bag'ishlangan boshqa ko'pgina grek va Rim adabiyotidagi asarlardan shu bilan farq qiladiki, unda tabiat tasviriga aloxida e'tibor

berilgan. Asarni o'qir ekansiz, sizga yaqindan tanish bo'lgan tabiat manzaralari, geografik muhit tasvirlari birma - bir ko'z o'ngingizdan o'taveradi. Odam o'tsa oyog'i, qush uchsa qanoti kuyadigan, bu borsa kelmas sahrolarda ham skif qabilalarining yashayotganligini ko'rib, yozuvchi hayratga tushgandek bo'ladi. Hatto asarni o'qigan kitobxon ham bunday voqealarga qiziqib qaraydi. Zim-ziyo, poyonsiz sahroi-kabirda odamlar yashamoqda. Skif xalqi qadimdan mana shunday matonatli, mehnatkash va kuchli iroda egasi bo'lgan. "Aleksandr jangchilari meshga suv to'ldirib kelayotgan bir cholni tutib keltiradilar. Aleksandr u kishidan suvni qayerga olib borayotganini so'raydi. Shunda u sahroda chanqab yotgan o'g'illariga olib borayotganini aytadi. Aleksandr meshni qaytarib berib, "Bu suvning hammasini men icholmayman, askarlarimga bo'lib beray desam yetmaydi, undan ko'ra sen o'g'illaringga olib boraqol, deb suv to'ldirilgan meshni cholga qaytarib beradi"[1]. Yozuvchi bu shahar aholisining tarixiga alohida to'xtaladi. Eron shoxi Kserks greklar bilan bo'lgan jangda, ularning bir qismini asir olib, So'g'diyona cho'llariga- olib kelib tashlagan edi. Bugun bu branxidlar Aleksandrni o'zlarining yaxshi qavmlaridek qarshi oladilar. Yozuvchining o'z asarida tasvirlanayotgan voqealardan ilgarigi davrga, uzoq va yaqin o'tmishga murojaat etishi tarixiy nasr talabiga xosdir. Bunday retrospektiv epizodlar tarixiy nasrda ko'p uchraydi. Bu o'rinda yozuvchi branxidlar tarixiga murojaat etib katta bir voqeani esga solishga muvofiq bo'lgan. Bunday qishloq va shaharlar O'rta Osiyo hududining bir nechta joylarida bor. To'rtinchi kuni Aleksandr Maroqand shahriga yetib keladi. "Maroqandning devorlari baland va mustahkam edi. Uning ichiga joylashgan qal'a ikkinchi devor bilan o'ralgan. Aleksandr u yerda katta qo'shinni qoldirib, o'zi yaqin oradagi qishloqlarni yoqib, talay boshlaydi". Mana shu epizoddan ham ko'rinib turibdiki, Aleksandr O'rta Osiyoda o'ta shafqatsizlik va talon-tarojlikni avjiga chi-qargan. Butun bir qishloqlarni kultepaga aylantirgan Shaharlarni o'zining toshotar mashinasi bilan buzib, vayron qilgan.

Qadim So'g'diyona tasviri va O'rta Osiyoning qadimgi davrlarida ro'y bergan voqealar Pompey Trog va Yustin asarlarida alohida mahorat bilan chizib beriladi. Bu ikkala ulug' adib ijodining biri ikkinchisining davomidir. Ya'ni Pompey Trog ijodining davomini Yustin ijodida

[1] Ахмедов Б. Тарихдан сабоклар. Т, 1994

ko'ramiz. Uning 44 kitobdan iborat "Filipp tarixi" asari turli xil sabablarga ko'ra keyinchalik yo'qolib ketgan. Pompey Trog bu asarini eramizning 7 - yillarida yozdi. Uning hayotiga oid juda kam ma'lumot bor. Pompey Trogning "Filipp tarixi" asarida asosan Filipp va Aleksandr Makedonskiy davrida yuz bergan voqealar tasvirlanadi. Muhimi shundaki, asarda faqat Makedoniya tarixi o'z ifodasini topib qolmasdan, o'sha davrda va undan keyin yashab o'tgan shohlar hayoti haqida ham qiziqarli voqealar tasviri beriladi. Shuningdek, asardan Filipp II hayoti va uning harbiy yurishlari, Aleksandr Makedonskiyning Osiyodagi tarixiy sarguzashtlarga boy xayoti keng o'rin olgan. Hatto o'z zamonasi, Avgust asri bilan bog'liq bo'lgan voqealar ham qalamga olinadi. Yustinning nomini jahonga tanitgan Pompey Trogning "Filipp tarixi" asaridir. Pompey Trog haqida qisqagina ma'lumot bergan Yustin o'zi haqida hech narsa demaydi. Shu tufayli Yustin haqida juda qisqa ma'lumot mavjud. Uning Avgust asridan keyin eramizning I - II asrlarida Rimda yashab o'tganligi ma'lum, holos. Bu ikki adib o'z zamonasida unchalik katta obro'-e'tibor topmagan bo'lsa ham, O'rta asrlar va Renessans davrlariga kelib, nomlari ko'pchilikka tanish bo'lib qoldi.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Zardushtiylik dinining mohiyati nimalardan iborat?
2. "Avesto" va uning o'rganilishi tug'risida nimalarni bilasiz?
3. Iskandarning O'rta Osiyoga yurishlari kaysi tarixiy asarlarda keltiriladi?
4. "Zardushtiylik tarixi" asarining muallifi kim?
5. Xorijiy olimlardan kimlar zardushtiylik haqida ilmiy-tadqiqotlar olib borgan?
6. M Boys zardushtiylikning o'rta asrlardagi va yangi zamondagi tarixini o'rganishdagi hissasini keltirib o'ting?
7. Aleksanr Makedonskiyning O'rta Osiyoga bostirirb kelishi tarixdagi vaqt va zamon omilining tarixiy bilimlarga ta'siri qandau bo'lgan?
8. O'rta Osiyoning qadimgi davrlari tasvirlangan asarlar ichida Kvint Kursiy Ruf asarining ahamiyati qanday bo'lgan?

MAVZU № 4. ILK O'RTA ASRLARDA TARIXIY BILIMLARINING RIVOJLANISHI

REJA:

1. O'rta Osiyo davlatlari bilan Turk hoqonligi o'zaro munosabatlari tarixshunosligi
2. Arablar istilosi davri tarixi tarixshunosligi. O'rta Osiyo xalqlarining arab istilosiga qarshi kurashi tarixining tarixshunosligi
3. Musulmon Uyg'onish davri tarixiy adabiyotlari va ularning O'rta Osiyo xalqlari tarixini o'rganishdagi ahamiyati

Tayanch so'z va iboralar: Arab xalifaligi,Tabarıy, Narshaxiy, Beruniy, Qur'on, Xadis, Tafsir, Renessans, Hudud-al-olam, Ranke, renessanizm, Narshaxiy, Buxoro tarixi, Beruniy.

1. O'rta Osiyo davlatlari bilan Turk hoqonligi o'zaro munosabatlari tarixshunosligi

V-VI asrlarda O'zbekiston tarixi Eftaliylar davlati tarixi bilan bog'liq. V asr o'rtalarida Eftalitlar davlati shakllanishi oxiriga yetdi. Eftalitlar davri bo'yicha asosiy manbalar rimlik tarıxchi Ammian Marselin (IV asr), vizantiyalik tarixchi Prisk Paniyskiy, Prokopiy Kesariyskiy va Feofan Vizantiyskiy asarlaridir, suriyalik yozuvchi Zenon Glakning "yunoncha" yozilgan "Eftalit podshoxlari tarixi" asari xam asosiy manba xisoblanadi.

Eftalitlar tarixi bilan shugullanuvchilar ko'pchilikni tashkil yetsada, ularning etnik tarkıbı, tabiatı haqıda nuqtai nazar mavjud emas. Eftalıtlar turli tillarda turlicha nomlanadi: kitoblarda e-da yoki i-da, armanlarda xeptal, ıdal, tetal, arablarda - xaytal, yaftal, yunonlarda - adel, eftalit, suriya manbalarida - abdel, eftalit, o'rta fors tilıdagı manbalarda - eftal, xeftal, tojik - fors tilidagi manbalarda - xetal, xaytal.

Xıtoy manbalarda eftalıtlarnıng kelib chiqishı haqıda juda ko'p taxminlar bor, lekin ular bir-biriga qarama-qarshidir.

Xitoy manbalaridagi ma'lumotlarni quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin:

a) eftalitlar-yuechjilarni bir ko'rinishi;
b) eftalıtlar-gaogyuy turk qabilalarini bitta bo'lagi;

v) eftalitlar-geshi (turfon) qabilalaridan kelib chiqqan;
g) ular kang' vorislaridir.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, eftalitlarning kelib chiqishi va so'zning ma'nosi to'g'risida tarixchilar o'rtasida yagona fikr yo'q.

VI asr o'rtalariga kelib Markaziy Osiyoda yirik ko'chmanchilar davlati - Turk xoqonligi tarkib topdi. Bu davrga oid ma'lumotlar yetarli, biroq ular bir-biriga qarama-qarshi va aniq ma'lumotlar bermaydi.

Ushbu davrga oid voqealar Tabariyning "Tarix ar-rasul va-l mulk" asaridir, Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asrida xam bayon etilgan.

Turk xoqonligi bilan ba'zi masalalar I.Bichurin, V.V.Bartold, A.Yu. Yakubovskiy, A.Bernshtam va boshka olimlar asarida bayon etilgan. Turk atamasi etnik mazmunini anglatmay bir necha qabila va xalq birlashuvini bildiruvchi siyosiy atama sanalgan. S.P.Tolstoy "Turk" so'zi "yosh uylanmagan jangchi" ma'nosini anglatadi deydi. So'ng bu so'z kabila an'analari va nixoyat siyosiy jihatdan birlashgan xalqlarning umumiy nomiga aylangan.

Eftaliylar saklar va massagetlarning avlodlaridir. Eftaliylar juda katta hududda o'z hukmronliklarini o'rnatdilar. 563-567 yillari turk hoqoni Istemi (Dizovul) Eron hukmdorlari bilan ittifoq tuzib, Eftaliylar davlatiga zarba beradi va ularga qarashli erlarni bo'ysundirishga muvaffaq bo'ladi. VI asr o'rtalarida Turk hoqonligi zaminida ilk katta yer egaligi munosabatlari shakllana boshladi. O'zaro urushlar natijasida bo'linib ketgan G'arbiy turk hoqonligi markazlashmagan davlat bo'lib, 15 ga yaqin mustaqil hokimliklardan, So'g'dda yuechji xalqidan chiqqan jabg'u, Buxoroda mahalliy buxorxudot, Farg'onada ixshidlar kabilardan tashkil topgan edi.

Hoqonlik tarkibiga kirgan xalqlar bir qismi So'g'd, Xorazm, Toxariston, Farg'ona dehqonchilik, shahar aholisi hunarmanchilik va savdo-sotiq bilan, uning tog'li va cho'l tumanlarida istiqomat qiluvchi katta qismi esa chorvachilik bilan shug'ullangan.

O'rta Osiyo davlatlari bilan Turk hoqonligi o'zaro munosabatlari tarixini T.Saidqulov, L.N.Gumilev Abushiy Xasan Ato va Turon Usmon asarlari orqali bilib olishimiz mumkin. Bu asarlar orasida Nasimxoning "Turk hoqonligi" nomli asari alohida o'rinni egallaydi. Garchi olim filolog bo"lsada, qadimgi turkiylarning imon-e'tiqodi, madaniyati, turmush tarzi haqida qiziqarli ma'lumotlarni keltiradi. Ushbu asarning e'tiborli joyi shundakim, N.Y.Bichurin, S.G.Klyashtorniy, V.A.Livishits

kabi tarixnavislarning ilmiy merosini yangicha yondashuv asosida talqin qila olgan[1].

Moddiy madaniyat qurollarining paydo bo'lishi insonlar hayotiga qanchalik katta ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, qo'lyozma va bosma kitoblarning paydo bo'lishi ham insoniyat madaniyati taraqqiyotiga shunchalar katta ta'sir ko'rsatdi. Turli tarixiy davrlarda, asrlar davomida vujudga kelgan qo'lyozma kitoblar inson bilimlarining asosiy manbai bo'lib keldi, bu bilimlarning kelgusi rivojini ta'minladi. Barcha madaniy jamiyatlarda kitoblarning qadri bebaho, ayniqsa Sharq qo'lyozmalarining barcha Sharq xalqlarini o'zaro bog'lab, ular tilining rivojiga qo'shgan hissalari beqiyosdir. Sharq qo'lyozma kitoblari bir nechta olamshumul dinlarning avloddan-avlodga o'tishiga xizmat qildi, ko'plab diniy va etnik silsilalar (sistemalar) ning qonun-qoidalarini jahonga tarqatdi, xullas, jahon madaniyati xazinalarining umri boqiyligi, davomiyligini ta'minladi. Sharq qo'lyozmalarini o'rganish hozirgi olimlarga Sharq xalqlarining o'tmishdagi hayotining tarixiy manzaralarini tiklashga, o'sha xalqlarning jahon madaniyatiga qanday hissa qo'shganligini aniqlashga yordam beradi. qo'lyozma kitoblarning tadqiqotchilaridan biri bunday yozadi: «qo'lyozma kitoblarni bilim manbai va estetik lazzat manbai sifatida ko'rayotgan odamning zavqini kashf etuvchi odamning zavqiga tenglashtirish mumkin. qo'lyozmalar o'tmishni tushunishga, kelajak haqida o'ylashga da'vat etadi.

Tabariyning Turk hoqonligi haqidagi hikoyasi qiziqarlidir. O'rta Osiyodan ancha olisdagi Oltoy o'lkasida juda katta Turk hoqonligi davlati tarkib topdi (551-744 yillar). Bu davlat hududlari Koreyadan to Qora dengiz bo'yigacha, O'rta Osiyo va Xitoyni ham o'z ichiga olar edi. O'sha zamonda Eron va Rum (Vizantiya) eng yirik davlatlar bo'lishiga qaramay, Turk hoqonligi oldida ta'zim qilib turar edilar.

Tabariy yozishicha, turklarning eng kuchli, jasur va qudratli hoqoni Sinnabu Yobg'u bo'lib, uning qo'shini ham juda ko'p edi. U juda ko'p lashkari bo'lgan eftaliylar bilan urushib, ularning podshosi Varzuni o'ldirdi. U Varzuning barcha qo'shinini, ularning boyligini va mamlakatini qo'lga kiritdi. Eftaliylar yurtining ilgari Xusrav I tomonidan zabt etilgan qismi bundan mustasno edi. Turk hoqonliginipg O'rta Osiyoni qo'lga kiritish niyati oshkor bo'lgach, eftaliylar o'zlarining turklar va sosoniylar Eroniday ikki o't orasida qolganligini angladilar. Eron Xusrav I Anushirvon zamonida (531-579 yy.) yiriklashib, kuchli

[illegible] eftaliylarga hiroj to'lamay qo'ygan [illegible]

[illegible] ikkala qo'shin kim oldin hujum [illegible] eftaliylar ikkala davlatga qarshi [illegible] tarixiy ismlarga kelsak, arab manbalaridagi Sinjabu, [illegible] to'g'ri keladi. Tarixiy man- [illegible] fikricha, turklar eftaliylarni [illegible] yillar orasida tor-mor keltirganlar. Bu voqeani A. A. [illegible] yilga yaqin, O. Moravchik esa 560 yil atrofida deb [illegible]

[illegible] juda aniq bo'lmasada, bu urush oqibatida, Fir- [illegible] "Chochida, Terakda (Chirchiq), Samarqand va [illegible] ko'p joylar vayrona bo'lib, boyqushlar makoniga ay- [illegible] Homiyon, Xuttalon va Balx aholilari boshiga qora [illegible]"

Tabariyning yozishicha, turklar Erondan ilgari eftaliylarga to'plab [illegible] to'lashni talab etganlar Eron Turon [illegible] qanchalik keskinlashganidan qat'i nazar, shunday [illegible] vujudga kelganki, O'rta Osiyoning janubidagi viloyatlar, [illegible] hozirgi O'zbekistoniipg janubi, Tojikiston va Turkmaniston [illegible] qo'l ostida, O'rta Osiyoning shimoliy viloyatlari esa [illegible] hoqonligi ixtiyoriga o'tib qoldi. Zarafshon vodiysida qolgan [illegible] turklarga xiroj to'lashni davom ettirdilar.

[illegible] bir muhim muammo yuzasidan Tabariy asarining tarixiy [illegible] ko'rsatish lozim. Bu, Samarqand hokimi Turek (Turk, [illegible] milodiy 719 yilda Xitoy poytaxtiga yuborgan maktubiniig [illegible] V. V. Bartol'd kitobida shu xatning ruscha tarjimasi kelti- [illegible] Biz 15 yildan buyon dashiy (dashtiy) larga qarshi tinimsiz [illegible]. Har yili biz juda ko'p askar va suvoriylarni jang [illegible], ammo shu vaqtgacha imperator (hoqon) hazrati [illegible] kuchlarini olish baxtiga muyassar bo'lmadik. Bundan [illegible] dashiylarning eng katta boshlig'i I-mi Kyu-di-bo (amir [illegible] katta lashkarlari bilan yetib keldi. Biz jangda dushman [illegible] katta zarar yetkazdik, ammo bizning qo'shinimizdan [illegible] halok bo'ldi va yaralandi. Dashiylarning piyodalari va [illegible] - sanoqsiz edi, shu tufayli bizning lashkarlarimiz ularga [illegible]. Men o'z istehkomlarimizga qaytdim: so'ng dashiylar

bizning shahrimizni qamal qildilar Ular qal'a devorlarini buzish uchun 300 ta devorbuzar qurilmalarni olib keldilar, 3 joyda katta-katta xandaq-zovur qazdilar. Ular bizning shahrimizni va mamlakatimizni vayron qilishmoqchi. Faqiringizning siz hoqon hazrati oliylaridan iltimosim shulki, tezroq Chin lashkarlarini bizga yordamga yuborsangiz. Ammo dashiylarga kelsak, ularning kuch-qudrati faqat yuz yilga yetadi, degan karomat bor. Bu yil ana shu muddat tugamoqda. Agar Chin lashkarlari bu yerga yetib kelishsa, kamina va uning qushinlari dashiylarni tor-mor keltirishimiz mumkin edi".

Biz Tabariy kitobida ko'p marta tilga olingan Samarqand hokimi Turek haqida uning maktubidan qanday ma'lumotlar olamiz?

1. Maktubning haqiqiyligi V.V.Bartol'd ta'kidlaganidek, unchalik shubha uyg'otmaydi.

2. Muhim tarixiy dalil shuki, Samarqand Zarafshon vodiysiga arab Qutayba davrida 712-719 yillarda emas, balki noib Salim ibn Ziyod vaqtida 681-683 yillarda kelishgan. Qutaybaning harbiy yurishi va Samarqandning arablar tomonidan istilo etilishi 712 yil kuziga to'g'ri keladi.

3. To'rak maktubida tarixiy voqealar mavhum va ziddiyatli bayon etilsa xam, unda Qutaybaning Samarqandni olishi haqida gap bo'lmasa xam, bu maktub arab manbalarini, jumladan, Tabariy asarini tanqidiy tadqiq etishga imkon beradi. Tabariydan mustaqil bo'lgan arab manbalari (Madoniy, Balazuriy, Dinovariy) da esa tarixiy tahlil uchun deyarli hech bir dalil yo'q, deyish mumkin.

2. Arablar istilosi davri tarixi tarixshunosligi. O'rta Osiyo xalqlarining arab istilosiga qarshi kurashi tarixining tarixshunosligi

O'rta Osiyo xalqlarining Arab xalifaligi tarkibiga kirishi arafasidagi va undan keyingi ahvoli haqida gap borganida so'zsiz arabcha, forscha va qadimgi turkiy-runiy yozuvlarga murojaat qilamiz. Tarixda uch joydan O'rta Osiyo xalqlari tarixiga doir hujjatlar arxivi topilgan: hozirgi Turkmanistonning Niso shahrida - Parfiya davlati (miloddan avvalgi I asr) hujjatlari, Tuproqqal'ada (III asr) Xorazm davlatı hujjatlari, Mug' tog'ida (Samarqand) So'g'diyona hujjatlari (VII asr) topilgan. Bundan tashqari, yerlardan juda ko'plab epigrafik yodgorliklar toshdagi

[illegible] mayda-chuyda buyumlari va san'at asarlari topilgan. O'rta Osiyo [illegible] dalliy ashyolarga boy ma'lumotlarni o'rta asrda yashagan [illegible] asarlaridan, shu asarning Bal'amiy tuzgan forscha-[illegible], jahonshumul qomusiy olim Beruniy asarlaridan [illegible] mumkin. Shu ma'noda o'rta asrning buyuk shoiri Abulqosim [illegible] "Shohnoma" dostoni ham ibratlidir. Binobarin, Sharq [illegible] madaniyati muammolariga oid hozirgi tarixiy - monografik [illegible] qo'lyozma manbalarga bevosita aloqadorligi tabiiydir.

[illegible] tarixshunosligi to'g'ridan - to'g'ri fol'klor (xalq ijodi) va [illegible] an'analar bilan, shuningdek, ilohiyot qur'on an'analari bilan [illegible] Arabcha tarixiy asarlarning mazmuni islom jamoalari [illegible] guruhlarning siyosat va aql-idrokda faol toifalari vakillarining [illegible] bilan bog'liqdir. Qur'on matni bilan aloqador ko'pgina [illegible] filologik (adabiy), tarixiy, diniy asarlar tasvirlarda [illegible], ularda qur'on suralari va oyatlari birma-bir sharhlanadi. [illegible] larning hajmi va salmog'i ancha kattadir. Bunday kitoblar [illegible] barmoq bilan sanarli bo'lgan bo'lsa, 750-1050 yillar [illegible] yaqin shunday asarlar yaratildi. Shulardan ham [illegible] bizgacha saqlanib qolgan. 200 yildan ziyod vaqt davomida [illegible] qur'on tavsiflari Tabariyning (838-923) fundamental "Tafsir" [illegible] umumlashtirilgan. Bu asarning nufuzi bizningcha, avvalgi [illegible] asarlarni muomaladan siqib chiqargan bo'lishi mumkin. [illegible] juda katta hajmda (bosma nashrda 30 jild) ekanligidan [illegible] juda ko'p xattotlar uni qunt bilan qayta-qayta ko'chirib [illegible]. Shu tufayli bu asarning ko'pgina nusxalari bizgacha yetib [illegible].

[illegible], Narshaxiy, Beruniy asarlarini tarixshunoslik yuzasidan [illegible] qilishga o'tishdan avval islom diniga doir bir masala ustida [illegible] lozim. Ma'lumki, Qur'on va Muhammad payg'ambar [illegible] hikmatli so'zlari imon ramzi, shariat islom huquqshunosligi [illegible] tamalini tashkil etadi. A.B.Halidov, Shamsuddin Boboxon [illegible] ta'kidlashicha, imom Ismoil Buxoriy, Aby Iso [illegible] Abu Dovud Sijistoniy, Ahmad an Nasaviy, ibn Madj al-[illegible] muhaddislar to'plagan hadislar bir yarim millionga [illegible] Abu Dovud, at-Termiziy, ibn Madj va an-Nasaviylar [illegible] hadislar ("As-Sunan") va ayniqsa Ismoil Buxoriyning [illegible] Sahih (yoki "Sahih") nomli hadislar to'plami Sharq xalqlari

orasida mashhur bo'lgan. Imom Ismoil Buxoriyning "Sahih" to'plami mo'tabarligi jihatidan "Qur'on" dan keyingi, ya'ni ikkinchi o'rinda turadi. Gap shundaki, al-Buxoriy jahonga tanilgan, buyuk muhaddis bo'libgina qolmay, o'z zamonasining Mazdak ta'limoti, va'zlari keng shuhrat qozondi. Tabariyning aytishicha, "oddiy fuqaro fursatdan foydalanib, Mazdakka va uning tarafdorlariga qo'shilib, ular atrofida uyushdilar". Bu fikrni Beruniy xam tasdiqlaydi: "Son-sanoqsiz odamlar ularga ergashdilar". Eron shohi Qubod I siyosiy vaziyat taqozosi bilan, ko'nglida xohlamasa xam o'zini Mazdak tarafdori deb e'lon qildi 528-529 yil voqealari shundan dalolat beradi. Qubod tarafdorlari Mazdakni o'ldirib, markaziy hokimiyatni qaytarib olishganida, mazdakchilarning yetakchilarini qirib tashladilar va ularning izdoshlarini shafqatsiz kaltaklab, quvg'in qildilar.

Shunday qilib, turli voqealar, qissalar va hikoyalar o'zaro bog'liq holda umumlashtirilgan keng ko'lamdagi tarixiy asarlar IX asrning II yarmiga to'g'ri keladi. Arab tarixshunosligining ilk davri At-Tabariyning "Tarixi ar-rusul va-l-muluk" ("Payg'ambarlar va podshohlar tarixi) asari bilan yakunlanadi. Mazkur asar tarixiy obidalar, tarixiy hikoyalar, fol'klor (xalq og'zaki badiiy ijodi), afsonalarni o'z ichiga olgan, islom olami hijratning boshlang'ich asrlarida yashagan xalqlar tarixiga doir eng mo'tabar majmuidir.

Arab tarixshunosligida shuningdek, ayrim mintaqa, iqlimlar davlatlar, mamlakatlar, shaharlarning tarixiga doir o'ziga xos ayrim tarixiy-qomusiy asarlar ham vujudga keldi.

Chunonchi, ibn Qutaybaning (889 yilda vafot etgan) tarixiy qomusi (entsiklopediyasi) Narshaxiyning "Buxoro tarixi", Abu Rayhon Beruniyning (1048 yilda vafot etgan). "Osor-ul boqiya" ("Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar"), "Hindiston", shuningdek, musulmon olimi ash-Shabustariyning (998 yilda vafot etgan) xristian (masixiylar) monastirlari ibodatxonalari tarixiga oid asarlari shular qatoriga kiradi

"Buxoro tarixi" asari "Kitob-ul-ansob" majmuasining muallifi Sam'oniy dalolat berishiga qaraganda, tarixchi Narshaxiy qalamiga mansubdir. Narshaxiy Buxoro viloyatida Narshax qishlog'ida tug'ilgan. Uning to'la ismi Abu Muhammad ibn Ja'far ibn Zakariyo ibn Xattob ibn Sharik (899-960 yy) dir. Gap shundaki, arab tilida yozilgan bu asarning asl nusxasi bizgacha yetib kelmagan yoki hozircha topilgani yo'q. Bizgacha yetib kelgan "Buxoro tarixi" so'z boshisida yozilishicha,

[illegible] 1128 yili arab tilidan quvalik Abu Nasr Axmad ibn Muhammad [illegible] al-Qubovíy o'z do'stlari taklifiga binoan fors tiliga tarjima [illegible] yozishicha, u tarjima jarayonida kitobdagi ortiqcha [illegible] keraksiz joylarni qisqartirgan, ammo asl mohiyati va mazmunini [illegible] keyingi tarixiy voqealar bayonini o'zidan qo'shgan. Kitobning [illegible] yilda Tehronda nashr etilgan nusxasidan ko'rinadiki, "Buxoro [illegible]"ga keyinroq ham boshqa mualliflar tomonidan qo'shimchalar [illegible]. Bu haqda eronlik olim Muhammad Toqi Bahor o'zining [illegible] yili Tehronda nashr etilgan "Malik ush-shuaro" kitobida guvohlik [illegible]

[illegible] nuqtai nazardan, tarjimon Abu Nasr Ahmad ibn Muhammad [illegible] al-Quboviy bunday xabar qiladi: Narshaxiy asarining do'stlari [illegible] binoan arab tilidan forschaga tarjima qilinishining sababi, [illegible] ko'pchilik o'qib tushunishiga qulay bo'lishi; qiziqarli bo'lmagan [illegible], ortiqcha arabcha o'xshatishlar va jimjimador ifodalarni qisqar[illegible] kitobning ommabop bo'lishi uchundir. Ikkinchi tarjimon Muham[illegible] ibn Zufar ibn Umar esa 1178-1179 yillarda "Buxoro tarixi"ni [illegible] tojik tiliga tarjima qilganda, uni yanada qisqartirdi va yana qayta [illegible] ko'paytirish uchun tayyorladi. Kitobning bu tarjima nusxasini [illegible] ekanmiz, 1178-1179 yilda yuz bergan tarixiy voqealardangina [illegible] 1220 yilgacha bo'lgan voqealardan ham xabardor bo'lamiz. [illegible] shundaki, tarixchi O.A.Suxareva Eron olimi Muhammad Toqi [illegible] ma'lumotlariga qaraganda "Buxoro tarixi" biz yuqorida [illegible] olganimizdan boshqa ko'p kishilar tomonidan qisqartirilgan, [illegible] kiritilgan va izohlangan. Shunga qaramasdan, hamma [illegible] va sharhchilar kitobning asl muallifi Narshaxiy ekanligini bir [illegible] tasdiqlaydilar

[illegible] asariga Narshaxiy qanday nom bergani haqida ma'lumot yo'q. [illegible] uchun uning nomi turli yurt tarixshunoslik adabiyotlarida turli [illegible] ishlatiladi: "Tarixi Narshaxiy", "Narshaxiy tarixi", "Tarixi [illegible] 'Tahqiq ul-viloyat" ("Viloyat haqiqatini aniqlash"), "Axbori [illegible] ("Buxoro haqida xabarlar") va hokazo.

[illegible] qaramay, u hozirgi tarix fanida "Tarixi Buxoro" bo'lib [illegible] o'rin oldi. VIII-XII asr Buxoro davlati tarixiga oid tarixshunoslik [illegible] "Buxoro tarixi" kitobidan olinganligini alohida ta'kidlash lozim. [illegible] bo'lgan katta qiziqish uning jahon xalqlari tillariga ko'p [illegible] tarjima qilinishiga va ketma-ket nashr etilishiga sabab bo'ldi.

Masalan, frantsuz sharqshunosi Ch.Shefer 1892 yili Parijda "Buxoro tarixi"ni nashr etdi. Bu asarni Samarqand uezdining sobiq boshlig'i, polkovnik N.Likoshin rus tiliga tarjima qilib, 1897 yili Toshkentda, o'zbek ma'rifatchisi Mulla Sulton so'zboshi bilan 1904 yili Buxoroda, Eron olimi Mudarris Rizaviy 1939 yili Tehronda, Angliya sharqshunosi R. Fray 1954 yili Kembrijda nashr etgan. Nihoyat, 1966 yili o'zbek tilida Sodiq Mirzaev tarjimasida Toshkentda nashr etildi

Shunday qilib, asl muallif Muhammad ibn Ja'far, uning tarjimoni va davomchisi Ahmad ibn Muhammad, shuningdek, keyingi mutarjim va sharhlovchi Muhammad ibn Zufar "Buxoro tarixi"da VIII-XII asrlarda yuz bergan tarixiy voqealarni bayon qilarkan, musulmon tarixshunosligi nuqtai nazaridan kelib chiqib, islom asoslari va fiqhni himoya qiladilar. Shu tufayli xalqning ahvoli va arab bosqinchilariga qarshi harakat (masalan, Muqanna boshchiligidagi xalq harakati) qoralanadi. Hukmron sinflarning unga qarshi harakati ma'qullanadi. Ammo shunga qaramay, XII-XIII asr tarixiy voqealarining holisona bayoni uni qimmatli manba darajasiga ko'taradi. Busiz O'rta Osiyo xalqlarining arablar hukmronligi davridagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy ahvoliga, keng xalq ommasining bosqinchilarga qarshi qurashiga baho berish mushkul. "Buxoro tarixi"ning hozirgi tarixshunoslik uchun qimmatli manba ekanligi shubhasizdir.

3. Musulmon Uyg'onish davri tarixiy adabiyotlari va ularning O'rta Osiyo xalqlari tarixini o'rganishdagi ahamiyati

Abu Rayhon Muhammad ibn Axmad al-Beruniy (973-1048) o'rta asrda yetishgan buyuk qomuschi olim bo'lib, tarix, falsafa, falakiyot, ma'danshunoslik va boshqa fanlar bo'yicha 152 dan ortiq ilmiy asar muallifidir. U 973 yil 4 sentyabrda Xorazmning poytaxti Qiyot (keyinchalik, Shobboz, hozir Qoraqalpog'istonga qarashli Beruniy shahri) da dunyoga kelgan.

Xorazm O'rta Osiyodagi eng qadimiy davlatlardan biridir. Ba'zi tarixchilar Xorazmiy tilini hozirgi osetin tiliga yaqin turuvchi eron guruhiga kiruvchi til edi, deb hisoblaydilar.

Beruniy zamonida Xorazm ikki davlatga bo'lingan edi. Birining poytaxti Qiyot (yoki Qob) da (V asrdan buyon) Bani Iroq sulolasiga mansub hukmdor rahbarlik qilardi. Urganchda esa Arab xalifaligi noibi

[illegible] al-Ma'mun hukmdor edi. Ikkala davlat Bag'dod xalifaligi tarkibida [illegible] 995 yilda amir al-Ma'mun Qiyotni bosib olib, ikkala davlatni [illegible] va qadimiy xorazmshohlar davlatini tikladi. Amudaryoning [illegible] o'zani qurigach, Yangi Urganch shahri bunyod etildi. Avvalgisi [illegible] Urganch deb ataldi.

[illegible] istilosidan keyin O'rta Osiyo xalqlarining qadimiy mada[illegible] inqirozga uchradi, ammo yangi sharoitlarda bu xalqlar yana [illegible] fan va madaniyatni yaratdilar. IX asr boshlarida yashagan Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy, al-Ma'jusiy arablarni hindlarning [illegible] sanoq hisobi bilan tanishtirdi va algebradan ilk risolalar yozdi. U [illegible] (matematika) va falakiyot (astronomiya) fanlarida ham yangi [illegible] ochdi. Hozirgi fan-texnikaning asosiy tushunchalaridan [illegible] "Algoritm" so'zi Al-Xorazmiy so'zining lotincha talaffuz etili[illegible] Muhammad Xorazmiydan so'ng jahon ilm-faniga katta hissa [illegible] yana bir buyuk olim Abu Abdulloh al-Xorazmiy bo'lib, [illegible] "Maftikul-ulum" ("Ilmlarning kalidlari") qomusiy asari jahonga [illegible] edi. X asrda arab xalifaligida katta o'zgarishlar yuz berdi. O'rta Osiyo va Eronning xalifalikka qaram bo'lgan ko'pgina davlatlari [illegible] va siyosiy mustaqillikka erishadi. O'rta Osiyo olim va [illegible] xalifalikning turli shaharlarida, jumladan, o'z o'lkalarida [illegible] faoliyat ko'rsatardilar. X asr boshida Abu Nasr Mansur ibn Iroq [illegible] yashardi. U Ptolomey "Almajist"iga sharh bo'lgan Mene[illegible] "Sferika" asarini qayta ishlagan edi. Beruniyning birinchi [illegible] va tarbiyachisi ana shu Abu Nasr Mansur ibn Iroq bo'lgan. [illegible] ilk yoshligi bolaligi haqida tarixiy adabiyotlarda ma'lu[illegible] yo'q. Birun so'zining ma'nosi "tashqaridan kelgan" demakdir. 'Ol[illegible] qasam bo'lsinki, deb yozgan edi u o'zining kelib chiqishi [illegible] she'rlardan birida, haqiqatdan ham men shajaramni bilmay[illegible] Hattoki o'z buvamni, buvamni bilmagandan keyin otamni qaydan [illegible]" Bu gaplarda kinoya bor, albatta.

[illegible] hayoti va ijodi uchun murakkab bo'lgan sharoitni [illegible] Osiyoda hukm surgan feodalizm sharoitidagi ijtimoiy-siyosiy, [illegible] hayot murakkabliklaridan ajralgan holda o'rganish mumkin [illegible] Narsonlik-sargardonlik qomuschi olimning qismatiga aylangan [illegible] Yosh Beruniyni 998 yili Kaspiy dengizining janubiy sohilidagi [illegible] hukmi Qobus ibn Vushmagir o'z huzuriga taklif qiladi. Beruniy [illegible] huzuridan qaytgandan so'ng o'zining tarixiy asarlaridan biri

"Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" ("Osoru-l-boqiya") asarini hokimga bag'ishlaydi. Biroq tarixshunoslik fani Beruniyning tarixiy dunyoqarashiga doir ma'lumotga ega emas. Bizning tahlilimiz shu masalaga bag'ishlanadi.

Beruniyning ko'pdan-ko'p ilmiy ishlari orasida "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" tarixiy risolasi alohida o'rin tutadi. U besh yildan ortiq Jurjonda yashaydi. Qobus saroyida yashab turgan Gilon va Tabariston hokimi Marzubon ibn Rustam taklifi bilan tarix fanida qisqa "Xronologiya" nomi bilan mashhur bo'lgan "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" risolasini yozadi. Asar muqaddimasida kun va tun nima, ularning majmui va boshlanishi, oy, yil va milodlarning, mohiyati, bu ma-salada xalqlarning tafovutlari, xalqlarning podsho, hokimlarga munosabati, Zulqarnayn degan shoh haqida, bir miloddan ikkinchi milodni chiqarish, xronologik turkumlar, soxta payg'ambarlar va adashgan xalqlar, fors, so'g'd va xorazmiylarning bayram va qutlug' kunlari va iydlari, yahudiylar, suryoniylar va nasoro xalqlarining, qadimgi sehrgarlar, sabiylar, arablar, shuningdek, islomga e'tiqod qiluvchi xalqlar, arablarning johiliyat davridagi bayramlari va musulmonlarning nishonlaydigan kunlari haqida fikr yuritiladi.

Tadqiqotchi olim S.P.Tolstov haqqoniy ta'kidlaganidek, Beruniy manbalarni o'rganishda vazminlik va bilimdonlik bilan, tanqidiy aql - mulohaza uslubi asosida ish ko'radi. Manbalarga tanqidiy munosabat shubhasiz uning salaflarida ham bor edi, ammo Beruniyda manbalarni tanqidiy tahlil qilish tadqiqotning asosiy shartiga aylanadi. O'zi tarixchilarni ogohlantirgan bir yoqlamalik, taxmin va aqidaparastlikdan Beruniyning o'zi ham xalos bo'lmasligi tabiiy, ammo bu sohada u o'zining barcha salaflari va zamondoshlaridan baland turadi. Beruniy tarixiy risolalarining ko'pi yo'qolib ketishi sababi ham ehtimol shunda bo'lsa kerak. U manbalarni shafqatsiz tanqid qilardi. Bu esa tarixiy adabiyot iste'molchilariga zamondoshlarning ko'pchiligiga manzur bo'lmasligi mumkin edi.

Beruniy "Xronologiya", "Osoru-l-boqiya" risolasida an'anaviy islom dunyosi tarixshunosligida odat bo'lgan shohlar va qaxramonlar faoliyati, siyosiy voqealar o'rniga xalqlar madaniyati tarixi, ularning urf-odati va fe'l-atvori masalalariii yoritishga e'tibor beradi. Shuning uchun tarixchilar "Yodgorliklar"ga tarixiy-etnografik tadqiqot sifatida ham qaraydilar.

Arab tarixshunosligi kelib chiqishi va g'oyaviy-nazariy asoslariga ko'ra eng avvalo fol'klor adabiy an'analar va ilohiyot - Qur'on majmuasi bilan bog'liq. Yuqorida aytib o'tganimizdek, tarixga bag'ishlangan risolalar islom jamoasining siyosiy va intellektual jihatdan faol qismi [illegible] faoliyati tarixi mavzusi bilan bog'liq. Bunga islomgacha bo'lgan Arabiston rivoyatlari, qadimgi payg'ambarlar, O'rta Osiyo, fors va boshqa Sharq podsho va hokimlarining afsonaviy tarixi ham qo'shildi. Umuman o'rta asr arab musulmon jamiyati uchun tarixan o'z-o'zini anglashning tugallangan shakllari, oy taqvimi bo'yicha yilni hisoblash, tarixshunoslik an'analarining avloddan-avlodga o'tishi xos edi.

IX asrning ikkinchi yarmiga kelib, At-Tabariyning "Tarix ar-rasul va-l muluk" ("Payg'ambar va shohlar tarixi") asari bilan tugallangan tarixshunoslikning ilk davri shakllangan edi. IX asrning ikkinchi yarmida arab tarixshunosligida yagona yoki takrorlanuvchi o'ziga xos asarlar ham vujudga keldi. Ular jumlasiga ibn Kutaybaning (889 yilda vafot etgan) tarixiy qomusi va ash-Shabustariyning (998 yillar atrofida vafot etgan) xristian monastirlari tarixiga oid asarini kiritish mumkin.

Sayohatnoma, ma'muriy-jo'g'rofiy ma'lumotnoma va jo'g'rofiy [illegible] juda boy tarixiy-toponimik ma'lumotlar mavjud. Odatda bir-ikki [illegible] jamlangan o'ta muhim asarlar, asosan IX-XI asrlarda yaratilgan. Bu kitoblar "mashhur arab jo'g'rofi-asari kutubxonasi"ni tashkil etgan. Ibn Xurdadbekning (846-847 yillar) umumjahon miqyosidagi jo'g'rofiy [illegible] va uning qayta ishlangan (885-886 yillar) nusxasi shular jumlasiga kiradi. 903 yillar atrofida ibn Alfaqihning jo'g'rofiy asari yozildi. Keyinroq ibn Rusta (943 y) o'z asarini yaratdi. Biz uchun ayniqsa, [illegible] yillarda O'rta osiyolik jo'g'rof ibn Fadlanning "Qudam" (928 y), Ma'sudiy (947-950-yillar), Istaxriy (941 yil), X asrning ikkinchi yarmida yashagan Ibn Havqal va Maqdisiylarning asarlari juda muhimdir. Shuningdek, noma'lum mullifning fors-tojikcha jo'g'rofiy asari "Hudud al Olam" (982-983 yillar) va Bayramning (XIII asr boshi) "Jahonnomasi" ham muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Arab geografiy adabiyoti va uning ahamiyati haqida I.Yu.Krachkovskiy bunday deb yozgan edi: "Ispaniyadan Turkistongacha bo'lgan mamlakatlar va Hind tog'i etaklaridagi aholi maskanlarini aniq sanab, shu'l va madaniy joylarini tavsiflab, madaniy ekinlarning tarqalish [illegible] foydali qazilmalar o'rnini ko'rsatgan holda...", fizik-jo'g'rofiy

va ob-havo sharoitini, xalq turmushi, sanoati, madaniyagi, tili, dinny ilmlarini ko'rsatgan holda (ma'lumotlar xalifalik viloyatlari hududi bilan chegaralanib qolmasdan, balki greklarga tanish dunyodan ancha chetga chiqardi) u shunday keng, tugal ma'lumot beradıki, unga o'xshashini bu davrda hech qaerda topib bo'lmas edi". Yuqoridagilarning dalili uchun yana shuni aytish mumkinki, arablar o'z hukmronlıklarını nafaqat olov va qilıch yordami bilan, balki xalq ommasini ezish orqali o'tkazib kelishdi. Ularga nafaqat katta pul, balki odamlar bilan soliq to'lanardi. Masalan, So'g'd davlati hukmdorlari yiliga xalifaga katta puldan va sovg'adan tashqari 30 minggacha qul yosh yigitlarini yuborib turishlari lozım edi. Bag'dod bozorida ularning har biri 200 dirhamga sotilardi. Bundan tashqari turli xil soliqlar mavjud edi. Tarixchilar Abu Yusuf Yequb (VIII asr) va al-Mavarziy (X-XI asr) ning yozishlaricha, eng ko'p tarqalgan soliqlar xiroj, zakot, ushr va boshqalar edi. Ularning hajmi hosil va buyum bozor narxining 25-30 foizini tashkil etardi.

Xalifalarning bosib olingan mıntaqalaridagi siyosatiga arab xalifasi Umar I ning quyidagi farmoni dalil bo'la oladi: "Biz tirik ekanmiz, bizga bo'ysungan muslimlar, qullarimizdur, biz ularning g'amini yeymız, bizdan so'ng bizning farzandlarımiz ularning farzandlari g'amını yeyishi kerak". Keyin, ibn Xurdadbek IX asr ma'lumotlariga tayangan holda, arablarning Nishopurdan 4180,9 ming, Tusdan 740,8 mıng dirxam to'plab olganlarini yozadi. Keyinroq yashagan ibn al Asir (XV asr) Eron, Ozarbayjon, Ray va Qazvinning yillik to'laydigan mablag'ı 500 ming dirham bo'lishini yozadi.

VIII-X asrlarda Ispaniyadan O'rta Osiyo va Volgabo'yi, Hindistongacha bo'lgan ulkan hududda yirik arab davlatınıng tuzilishi bu mintaqalar madaniyatining ravnaqi va gullab-yashnashiga olıb keldi Mehnat taqsimotining chuqurlashuvi va feodal munosabatları taraqqiyotı xalifalik mintaqalarining ma'lum darajada ixtisoslashuviga olib keldi. Xususan, Movarounnahr paxta va ipakka ixtısoslashdı, qishloq xo'jaligining taraqqiyoti hunarmandchilik va savdonıng ravnaqıga hamkorlık ko'rsatdı. Hunarmandchilik markazlari paydo bo'la boshladı Sevil'ya, Girnota, Genuya, Toledo, Saragossa (Ispaniya), Fes, Taxorta, Seuta, Tanjer, Qohira, Tunis, Xayfa, Quddus, Nablus, Xalab, Damashq, Xims, Xoma, Antoqiya (Falastii va Suriyada) Sano, Zabid, Makka, Madina, (Arabıstonda), Mosul, Basra va Kufa (Iroqda), Sheroz, Isfaxon, Xamadon, Qum, Tabriz, Ray, Nıshopur, Bayhaq (Eronda) shuningdek,

XI asrda qısqa vaqt turk feodal davlati Qoraxoniylar davlatining poytaxti, yulduzi bo'lib porlagan G'azna (Afg'oniston), O'rta Osiyoda Marv, Samarqand, Buxoro va Urganch shaharlari shular jumlasidandir. Bu shaharlar ko'p tarmoqli ishlab chıqarish markazlarıga aylangan va ularda musulmon Uyg'onish davrinipg rivojlanib kelayotgan moddiy va ma'naviy madaniyatining o'choqlari to'plangan edi. Mashhur sovet sharqshunosi Ye.E.Bertel's Uyg'onish davrining rivoji va uning O'rta Osiyoga ta'sirini, eng avvalo xalq ommasining arablarga qarshi tinimsiz kurashi va ularning arab hukmronligiga qarshi olib borgan ijtimoiy-siyosiy kurashi natijasi bilan bog'laydi.

XIX asrning ikkinchi yarmida tarixchi Leopol'd Ranke (1795- 1886 yy.) tarıxni o'rganishning yangi usullarini ishlab chiqdi. Uzoq yillar manbalar ustida ishlash natijasida L. Ranke tarixchining shiori "Orqaga manbalarga!" bo'lishi kerak degan qat'iy xulosaga keldi. Uning birinchi asari fanda o'ziga xos to'ntarish qildi.

U tarixiy tahlilning butunlay yangi usuli va ilmiy tadqiqotning yangi uslubini taklif qilli. Tabiiyki, rasmiy nemis tarix maktabı vakilı bo'lgan Rankening milliy chegaralangani va "Yevropaparastlik" ruhi o'z ta'sirini qoldirmay iloji yo'q edi. Shu bois, uning shogirdi XIX asrning taniqli tarixchisi Yakob Bukxard (1818-1897) o'z ustozini tanqid qilib chiqdi va umumiy siyosiy tarıxni o'rganishdagi chegaralanganlıgini isbotlashga urindi. U insoniyatning moddiy va ma'naviy madaniyati tarixini yoritishni birinchi o'ringa qo'yishni talab qildi. Ya.Burkxardning Italiya Uyg'onish davri haqidagi asarlari juda mashhurdir. U bu asarlarida tarixchilikdagi "repessansizm" oqimiga asos soldi. Oqimning ko'zga ko'ringan vakillaridan biri yirik sharqshunos olim, musulmon Uyg'onish davrini o'rganıshga ko'p umrini bag'ishlagan Xristian Adam Mets (1869-1917 yy.) dir. Metsga Rankening shogirdi T. Vaytselning "... [illegible] faqat yalang'och har xil bemaza va o'ylab topilgan arzimas [illegible] narsalardan xoli haqiqatga intilishi lozim", degan qoidasi katta ta'sir ko'rsatdi. Krachkovskiyning ta'kidlashicha, mashhur Yevropa sharqshunosi Kremer o'zining musulmon madaniyatini tahlil etgan [illegible] yetarli bo'lmagan materiallar bilan chegaralangan bo'lsa, [illegible] taqlid qilgan A. Mets "O'z vazifasini xam hududiy, xam xronologik jihatdan chegaralab olardi".

Shunga qaramay biz A. Metsning asarlariga doimo murojaat qilamiz, chunki uning asarlari qimmatliligiga tarix guvohlik berib turibdi. Fan

taraqqiyoti shuni ko'rsatdiki, musulmon Sharqi tarixi tadqiqoti unga yondoshmog'i lozim. Shuning uchun ham A. Metsning asari 1973 yili rus tilida nashr etilgan.

A.Mets 1917 yilning dekabrida "Musulmon Uyg'onish davri" asarini tugatishga ulgurmay vafot etdi. Uning noshiri Rekendorf kitob ustida ishlab, 1922 yili asar chop etildi. Hind sharqshunosi Salohiddin Xudobaxsh kitobni birinchi bo'lib ingliz tiliga tarjima qilgan, qitobning nashr etilishida Xudobaxshga ingliz arabshunosi professor D. Margolius yordam bergandi. Asarning dastlabki yetti bobi 1927 yili Haydarobod nashriyotida bosilgan. Xudobaxsh butun umr asarni tarjima qilish bilan shug'ullandi va 1937 yildagina alohida kitob holida nashr qildi. Yana shuni ta'kidlash lozimki, inglizcha tarjimada asar mazmunini buzuvchi juda ko'p harfiy va boshqa xatolar bor. Asarning ispan tilidagi nusxasi 1936 yili chop etildi. 1939 yildan boshlab turk sharqshunosi Shamol Kyoprul uni tarjima qila boshladi va 1941 yili tugatdi. Biroq u o'z mamlakatining shart-sharoitlarini hisobga olgan xolda kitobning har qismiga o'zi sarlavha qo'ydi. Birinchi qismning nomi "Учение в тюрко-испанском мире" va hokazo.

1940-1941 yillarda Misrda A. Metsning ikki tillik arabcha tarjimasi chiqdi. Bu kitobning arab dunyosida paydo bo'lishi shov-shuvga sabab bo'ldi. Tez orada asar ikkinchi bor nashr etildi. D. Bertel'sning yozishicha, «bu ikki nashrni ham kutubxonalarimizda topib bo'lmaydi» Biroq, XX asrning 70-yillarida Ma'ruf Xaznador Bertel'sga A.Metsning arabcha ikkinchi nashrini sovg'a qildi. Arabcha tarjimaning kirish so'zi muallifi Ahmad Aminning guvohlik berishicha, bu kitobning qimmati unda juda ko'p manbalardan foydalanganı-yu, juda kam muallif aralashuvidir. Shu bilan birga A.Amin. A.Mets ba'zi hollarda bittagina manbaga tayanadi, xolos. Bu muallif maqsadi va manbalarni talqin qilish tamoyiliga ziddir deb yozadi, shuning uchun Ahmad Amin tarjimonga A.Metsning arab mualliflaridan ko'chirmalarni asl nusxasidan olishni maslahat beradi Bu juda qiyin edi, chunki A.Mets Yevropa kutubxonalarida o'nlab arab qo'lyozmalaridan ko'chirmalar olgan edi. Tarjimon bu og'ir ishning uddasidan chiqdi Bundan tashqari tarjimon asarga arab qo'lyozmalari bilan ishlashga ko'mak beradigan o'zining 66 ta izoh va qo'shimchasini kiritdi.

Frantsuz arabshunosi L.Berte (1889-1955 yy.) vafotidan so'ng uning arxividan bu kitobning frantsuz tilidagi tarjimasi chiqqan.

Tabiiyki, A.Metsning asari bosilib chiqqach, olimlar, mutaxassislar va mutaxassis bo'lmaganlar, sharqshunoslar va boshqa soha vakillari o'rtasidagi turli bahs, tortishuvlarga sabab bo'ldi.

A.Metsning bu asari haqida gapirar ekanmiz, uning nomi haqida ham to'xtalib o'tish joiz. Muallif asarni "Musulmon Uyg'onish davri", "Islom Uyg'onish davri" deb atagan. "Islomdagi qanaqa Uyg'onish dayri haqida gapirish mumkin?... Muallif o'z asari qo'lyozmasini Nashrga to'liq tayyorlashga ham nomlashga va asari mazmunining bayonini tayyorlab tugatishga ham ulgurmagan. A.Mets kitobining sarlavhasi yo'qligi uni hozirgacha Musulmon Uyg'onish davri tarixi sifatida qabul qilib kelishga sabab bo'ldi. Reykendorf o'quvchilar diqqatini Renessans iborasi qo'llanilgan 18-bobga (230-bet) qaratadi, Bu termin shu yerda qo'llanilgan, xolos. Asar nomining ochilmay qolgani A.Metsning bu kitobi to'g'risida har kimning har xil yozishiga sabab bo'ldi. Shunga qaramay, Reykendorf fikricha, Adam Mets X asr musulmon davlati madaniy hayotidagi chuqur o'zgarishlarni, uning hayoti va qadimgi zamon madaniyatiga vorislik belgilarini, yozganida haq edi. Balkim V.V.Bartol'dning Yevropa Uyg'onish va musulmon madaniyati gullab-yashnashining umumiy belgisi yunon fanining qayta tiklanishi, degan fikri diqqatga sazovor. V.Bartol'dning fikricha, "Yevropa Uyg'onishi" va "Musulmon madaniyati ravnaqi" tushunchalari asosan bir-biriga o'xshash, mone tushunchalardir. Shu bois ham uning fikricha, kitobni "Islom dunyosidagi Uyg'onish" ("Vozrojdenie v mire islama") deb atash to'g'ri bo'ladi.

O'z asarlaridan birida akademik I.Yu.Krachkovskiy bunday yozadi: A.Metsning so'nggi asari muallif "Islomning Uyg'onish davri" deb atagan hijriy IV asrining (X asr) umumiy qiyofasin tasvirlaydi". Boshqa bir joyda I.Yu.Krachkovskiy yanada aniqroq yozadi: "Uninchi asr (hijriy, IV asr), xalifalikning butunlay qulab tugashi, shu bilan bir vaqtda arab madaniyatining eng gullab yashnashi A.Mets shogirdlaridan biri aytganidek, "Islomning Uyg'onish davridir". Vaholanki, N.I.Konradning fikricha "Uyg'onish" nafaqat Yevropa, balki barcha mamlakat va xalqlarga xos bo'lgan jarayon, biroq sivilizatsiyalashgan xalqlar taraqqiyotining ma'lum bir paytida yuz beradigan jarayon. Jahon tarixini o'rganish shuni ko'rsatadiki, Uyg'onish davri uzoq davrlar mobaynida taraqqiy etib kelayotgan turmush madaniyatiga ega bo'lgan xalqlar hayotida yuz beradi, shu bois Sharq Uyg'onish davri muammosi

uzoq, chuqur va izchil tadqiqotni talab qiladi. Shunday qilib, F.Engel's aytganidek, hech qanaqa nom Uyg'onish davrining mazmunini to'la qamrab ololmaydi.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Arab tarixshunosligi deganda nimani tushunasiz?
2. XI-XII asr tarixiga oid qanday asarlarni bilasiz?
3. Musulmon Uyg'onish davri deganda nimani tushunasiz?
1. O'rta Osiyo tarixidan daliliy ashyolarga boy ma'lumotlarni kimlarning asarlaridan topishimiz mumkin?
2. Tarixshunoslikda Qur'onning ahamiyati haqida fikringizni bildiring?
3. At-Tabariyning "Tarixi ar-rusul va-l-muluk" ("Payg'ambarlar va podshohlar tarixi) asarida qanday ma'lumotlar keltirilgan?
4. Tarixiy bilimlarning rivojlanishida "Buxoro tarixi" asari qanday ahamiyat kasb etadi?
5. Musulmon Uyg'onish davri tarixiy adabiyotlariga hissa qo'shgan olimlarimiz xizmatlariga to'xtalib o'ting?
6. XIX asrning ikkinchi yarmida tarixchi Leopol'd Ranke tarixshunoslikda qanday usulni taklif qilgan va uning ahamiyati nimadan iborat?
7. A.Metsning ilmiy faoliyati va uning ahamiyati haqida to'xtalib o'ting?

MAVZU № 5. RIVOJLANGAN O'RTA ASRLARDA TARIXIY BILIMLARNING RIVOJLANISHI

REJA:

1. XI-XII asrlarda O'rta Osiyo tarixshunosligining ravnaqi
2. XIII asrda Movarounnaxr va Xorazm mug'ullar zulmi ostida davri tarixshunosligi
3. Rashididdinning "Jome' ut-tavorix", "Yozishmalar" asarlari va ularning tarixshunoslikdagi ahamiyati.

Tayanch soz va iboralar: Zayn ul-axbor, Gardiziy, An-Nasafiy, Kitob al-ansob, Tarixi Bayxaqiy, Bartol'd, Juvayniy, M.Shafiiy

1. XI-XII asrlarda O'rta Osiyo tarixshunosligining ravnaqi

So'g'dlar davridagi Movarounnahrni, ya'ni so'g'dlarning Zarafshon vohasi va Qashqadaryoga xukmronlik qilgan davrini qoraxoniylar xukmronligi davriga solishtirib ham, qarama-qarshi qo'yib ham bo'lmaydi. Gap shundaki, VIII-IX asrlarda turkiy urug'lar Farg'ona va Shoshga shiddat bilan kirib kela boshladi. Farg'onada qarluq, Shoshda o'g'uz urug'ining mavqei kuchli edi. Ibn Havqal (X asr) ning yozishicha, islomni qabul qilgan minglab turk sulolalari Sharqdan Forab, Shosh oralig'idagi, ya'ni Chimkentning janubi-g'arbiy qismidagi rayonlarga ko'chib o'tdilar. XII asr tarixchisi Tohir Marvoziy "Sharaf az-Zamon" asarida "G'uzlar Islom viloyatlariga qo'shni bo'lgach, ularning ko'pi islom dinini qabul qilib, turkman deb atala boshlandi. Ular bilan Islom dinini qabul qilmagan g'uzlar orasida dushmanlik paydo bo'ldi. G'uzlar orasida musulmonlar ko'payib, islomning ta'siri kuchaya boshladi. Musulmonlar dinsizlardan ustun kelib, ularni Xorazmdan ko'chmanchi pecheneglar bajnoqlar yashaydigan hududlarga siqib chiqardilar. So'g'diylar va turkiy urug'lar aloqalarinnng kuchayishi ularning bir-biriga o'zaro ta'sirini kuchaytirdi. Turkiy urug'larning kuchli ta'siri ostida so'g'diylar o'zlarining etnik ajralishini yo'qotib, o'zaro quda-andachilik, o'zaro munosabatlar paydo bo'ldi va u tildagi va madaniy-maishiy to'siqlarni yo'qotdi. XI asrning tilchi olimi Maxmud Koshg'ariy ham "Devonu lug'ati turk" asarida bu tabiiy jarayonni ta'kidlab o'tgan. U o'sha davrda "ham turkiy, ham so'g'diycha, faqat

turlicha gapiruvchi kishilar, bo'lgani, lekin faqat so'g'diycha so'zlovchi kishilar, bo'lmagani"ni yozadi. Fikrimizcha, faqat yuqoridagi kabi bir belgiga qarab, so'g'diylarning O'rta Osiyodagi elatlarning biri sifatidagi mavqeini yo'qotgan deyish noto'g'ri bo'ladi. Buning ustiga XI asrda so'g'diy deb so'g'diycha so'zlaydigan kishilarnigina tan olishgan degan fikrga ham qo'shilib bo'lmaydi. Axir ular jismoniy jihatdan yo'qolib ketishgani yo'q, biroq ularning avlodlari turkiylar bilan qo'shilib birikib ketgan, degan fikrlar ham bor. Kim kimga aylanib ketgan, haliyam isbotlangani yo'q. Biroq bularga qaramay Maxmud Qoshg'ariy o'ta insonparvar va qalban baynalmilalchi ekanini ko'rsatdi. U xalqlar assimilyatsiyasini emas, ularning tashqi dushmanga qarshi birikishini, kishilarning haqiqat va adolat yo'lda birlashishini orzu qiladi va dushmanlik, tarqoqlik hamda adolatsizlikka qarshi kurashishga chaqiradi.

Shunday qilib, XI asrnipg birinchi yarmi tarixchisi Hilol as Sabiy-ning yozishicha, Somoniylarga Movarounnahrning markaziy qismigina qoldirilgan edi. Taxtga XI asr fors-tojik tarixchisi Bayhaqiy fikricha, aqlli va iste'dodli Mansur ibn Nuh (997-999) o'tirgach, u xalq ommasini o'ziga to'la og'dirmoqchi bo'ladi, Biroq, xalq bo'layotgan voqealarga loqaydligicha qolaveradi. 999 yil Buxoroda hokimiyatni Qoraxoniylardan bo'lgan Nuh egallaydi. Buxoroni Nasr egallagan paytda G'azna amiri Sabuqtagining o'g'li, tarixda Maxmud g'aznaviy nomi bilan mashhur Mahmud edi. Mahmud Bag'dod xalifasi Qodirbillohdan (991-1031) "Yamin ad-davle va amin al-milla" unvoni va Xuroson hukmdori degan yorliq oladi. 1001 yilda Mahmud va Nasr o'rtasida ular boshqarayotgan viloyatlarning chegarasini Amudaryo bo'yicha belgilangani to'g'risidagi shartnoma bo'lishiga qaramay, ulkan sobiq Samarqand feodal davlati o'rnida amalda ikkita mustaqil Qoraxoniylar (Qashqar, Shosh, Farg'ona, So'g'd) va g'aznaviylar (Shimoliy Hindiston chegaralaridan to Kaspiy dengizining janubiy qirgoqlarigacha bo'lgan, hozirgi Afg'oniston va Shimoli-sharqiy Eronni o'zichiga oluvchi hudud) davlati vujudga keldi.

Mahmud G'aznaviy o'z hukmronligi davrida (998-1030 yy) Ibn-job, Kashmir va boshqa shimoliy hind viloyatlariga o'n yetti marta harbiy yurish qildi. Shunday yurishlardan birida Mahmud hind shaharlaridan 20 million dirham pul, 57 ming qul va 370 fil olib ketdi. Mahmud Shimoliy Hindistonga 17 - marotaba bosib borganda

Hindistonni shu qadar xarob qildiki, bu yurt o'z holiga kelguncha mamlakat xalqi o'n yillar davomida ezilib, mehnat qildi. Bu yurishlar Mahmudni o'ta kuchli hukmdorga aylantirdi.

1025 yili Samarqand yaqinda o'sha davrning ikki zo'r hukmdori Mahmud G'aznaviy bilan Qoraxoniy, "ilekxon" unvoniga ega Qodirxon o'rtasida shaxsiy uchrashuv bo'ldi. XI asr fors tarixchisi ("Xabarlar ziynati") asarida Qodirxonning sodda va qovushmagan qo'polligi, katta uchrashuv va saroy mulozamatlariga ko'nikmaganligi, diplomatiyaning sirlaridan bexabar kishi bo'lganini yozadi. Bu ittifoq keyinroq Mahmud G'aznaviyning butun O'rta Osiyoga xukmronligi bilan tugadi.

Xullas, agar O'rta Osiyoning Somoniylar davri tarixi mufassal o'rganilgan bo'lsa, Qoraxoniylar davri tarixi hali yetarli o'rganilmagan. Yozma manbalar siyosiy voqealar va Qoraxoniylar davlatining ichki tuzilishi xususida uzuq-yuluq ma'lumotlar beradi. Tarixchilar doimo tarixiy manbalar topilib qolishidan umidvor edilar va Qoraxoniylar chiqargan tanga va boshqa manbalarga tayanardilar. Bir misol keltiramiz.

XII asrning ikkinchi choragi boshlarida Qoraxoniylarning qudratli davlati o'z qo'llarida Bolasog'un shahri bilan birga Yettisoydan to Yenisey (Enasoy) daryosining shimoli-sharqiy qismigacha bo'lgan hudud va xalqni tutib turardi. Musulmon manbalarida bu xalq Qoraxitoylar deb ataladi. 1137 yili Qoraxoniylar Xo'jand yaqinida G'aznaviy Ma'sudni tor-mor etishdi. 1141 yilning 9 sentyabrida Samarqand yaqinidagi Qatvon cho'lida saljuq - qoraxoniylarning lashkari to'la tor-mor etilib, saljuqiylar sultoni Sanjar va Mahmud chekindi. Qoraxitoylar Buxoro va Markaziy Movarounnahrni egalladilar. O'rta Osiyoda siyosiy kuchlar nisbati o'zgardi. Qoraxitoylar saljuqiylardan farqli o'laroq, Qoraxoniylar sulolasini yo'q qilishmadi. Qoraxoniylar Qoraxitoylarning vassaliga aylandilar. Samarqand yaqinidagi Qatvon cho'lidagi jangdan so'ng Samarqandda biroz vaqt qochib ketgan Qoraxoniy Mahmudning tug'ishgan ukasi hukmdorlik qildi. Farg'ona va Shimoliy Qoraxoniylar oilasi qo'lida edi. 1150 yilda Farg'onadagi Qoraxoniylar sulolasi Samarqandni ham mustahkam egalladi. Farg'ona va Samarqand birlashtirilgan bo'lsada, Samarqand davlat poytaxti bo'lolmadi, Samarqand hokimi nomiga boshliq edi.

Qoraxitoylarning 1141 yilgi g'alabasi Saljuqiylarni zaiflashtirib qo'ydi. Saljuqiylar mag'lubiyatining yana bir omili Xorazmning yangi markaz sifatida ko'tarilib chiqqani bo'ldi. Xorazmni Saljuqiylar

xukmronligidan ozod etish uchun izchil kurashganlardan biri Qutbiddin Muhammad Otsizning o'g'li (1127-1156 y.) edi. Otsiz bo'lajak Xorazmshohlarning buyuk davlati asoschisi edi (Eron saljuqlari XII asr o'rtalaridan boshlab nomigagina hukmron edilar. 1156 yili Saljuqiylar davlati sultoni Sanjar uch yillik asirlikdan so'ng poytaxt Marvga qaytib keldi va bir yildan so'ng vafot etdi, Uning o'limidan so'ng fors va Ozarbayjonda mustaqil davlatlar vujudga keldi. Xuroson ham mustaqil davlat bo'lib tanildi. Xalifalikning markazi Bag'dod o'z hokimiyatini tikladi. Bu jarayon Xorazmshohlar mavqeini kuchaytirdi. Shoh Alovuddin Tekesh (1172-1200 y) Qoraxitoylarga soliq berishdan bosh tortdi. U o'lpon yig'ish uchun Xorazmga kelgan Qoraxitoylar elchisini qatl ettirdi. Bir necha bor bo'lgan janglar natija bermadi. Faqat 1196 yilgi Xorazm va Bag'dod xalifaligi o'rtasida bo'lgan jang xorazmliklar g'alabasi bilan tugadi. Biroq, xalifalik dindorlarga suyanardi va shu bois Tekesh jangchilari yordamida keng hududlarga ta'sirini kuchaytirishga urindi. Lekin, mamlakat ichida o'ziga mustahkam tayanch topa olmadi Shunga qaramay, O'rta Osiyo xalqlarining bu davr tarixi mo'g'ullar bosqini arafasi davri sifatida O'rta Osiyodagi XII asr oxiri XIII asr boshidagi ijtimoiy - siyosiy va iqtisodiy ahvolni qisqa bo'lsada, yorqin tasvirlaydi.

Tekeshning munshiysi (shaxsiy kotibi) Muhammad Bag'dodiy ("At-tasviri ila tarassul" (Muhim nomalar bitish yo'l-yo'riqlari) asarida o'sha davrdagi ahvolni tasvirlaydi va Xorazmshoh Tekeshning Sirdaryo viloyati noibi Jaidga topshirig'ini keltiradi. Unda shoh noibiga aholining turli tabaqalari bilan to'g'ri munosabatlarni quyidagicha o'rnatishni buyuradi:

1. Sayidlar (Muhammad avlodidan) kamchilik ko'rmasligi, ularning ehtiyoji va tabarrukligi darajasidan kelib chiqqan holda ta'minlanishlari lozim;

2. Imom va ulamolar qonunlardan kelib chiqilgani holda sovg'a - salom va turli imtiyozlarga sazovor etilishlari lozim;

3. Qozi va boshqaruvchilar qonunga rioya etib, adolatni talab qilishlari kerak;

4. So'fiy va ularga yaqin kishilar shunday ta'min etilsinlarkim, toki ular yengilmas davlatimiz uchun bemalol duo o'qisinlar;

5. Obro'li oqsoqollarga g'amxo'rlik qilib turish kerak;

6. Noibga bo'ysunuvchi amaldor va sarkardalarga qat'iy boshchilik

qilish aholini talamasliklari uchun haqini o'z vaqtida berib turish zarur;

7. Xudoga ishonuvchilarni qo'llab-quvvatlash va ularga aholining xulqini kuzatib yurishni topshirish lozim.

Bu asarning to'la tavsifini birinchi bo'lib tarixchilardan A.A.Semyonov bergan. U Niso viloyati bilan bog'liq bir qator hujjatlarni tarixchilik va tarixshunoslik nuqtai-nazaridan tadqiq etadi. Niso viloyati g'uz feodallari mavqei kuchli bo'lgan Xorazmshohlar davlatining janubiy hududlari hayotida katta siyosiy ahamiyatga ega edi. Xorazm shohi Tekesh, Muhammad Bag'dodining guvohlik berishicha, g'uz feodallari yetakchilaridan biri To'g'on shohga viloyatning bir necha katta tumanlariga to'la xo'jayinlik qilish huquqini berganini yozadi. Bu yorliqqa asosan bu joylardagi dindorlar, qozi, ulamolar, boylar, "lashkarboshilar", yer egalari va boshqa tabaqa kishilari unga bo'ysunardi. Bu hujjatda, shuningdek, ayollar nomusi, aholining mulki va hayotini, mol - mulki xavfsizligini himoya qilish va boshqa talablarni qo'llashga ham chaqiriladi. Bu yerda bizning e'tiborimizni manbaning yoshi 700 yil atrofida ekani tortadi va uni o'rganishga jiddiy munosabatda bo'lish zarur. Biroq hanuzgacha tarix fani bunday tadqiqotga ega emas.

XI - XIII asr boshida O'rta Osiyoda tovar - pul munosabatlari juda rivojlanganligi ma'lum. Bu jarayon O'rta Osiyoning eng chekka, xususan tog'li rayonlarini ham qamrab olgan edi. Bu O'rta Osiyo xalqlari madaniyati ahvoliga ham ta'sir ko'rsatdi. Bizgacha XI - XIII asr boshiga taalluqli moddiy va ma'naviy madaniyatning anchagina tarixiy - madaniy yodgorliklari yetib kelgan. Ular orasida hashamatli me'morlik yodgorliklari alohida o'rin egallaydi.

2. XIII asrda Movarounnaxr va Xorazm mo'g'ullar zulmi ostida davri tarixshunosligi

Musulmon Uyg'onish davri ko'rilayotgan u yoki bu mintaqaning taraqqiyotini taqozo etadi. Agar saqlanib qolgan madaniyat yodgorliklarini saroy, masjid, honaqo, hammom va boshqalar qurilishi haqida ma'lumotlar bilan solishtiradigan bo'lsak, biz O'rta Osiyo tarixi va tarixshunosligining ko'rib chiqayotgan davri XI - XIII asr boshlari qurilish, shaharlarning kengayishi va rivojlanishi, tovar ishlab chiqarish, savdo ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi, gurkiragan.

iqtisodiyotining umumiy ko'tarilishi tezlashgan davri edi. Yana bu davrda shahar qurilishi mukammallashdi, yangi loyiha rejalar marmar, metall, ganch, loy va yog'ochdan yasaladigan yodgorliklarning bezatilishi sohasidagi muvaffaqiyatlarga erishildi. Katta qurilishlarda bu davrda marmar va shisha g'isht keng qo'llanilsa-da, biroq loy (paxsa), hom g'isht va ganch ham ayniqsa, qo'rg'on, saroy va boshqa qurilishlarda ishlatiladi. Ular jumlasiga Tojikistonning Isfara nohiyasidagi qal'ai Boloni (VI - VIII asrlar) kiritish mumkin. U (X - XII asrda) qayta qurilgan va mustahkamlangan.

Bu davrda saroylar qurish juda ko'paydi. Ular jumlasiga Xuttalon hukmdorining Termizdagi, G'azna amirlarining shahar atrofidagi lashkari bozordagi saroylarini kiritish mumkin. Bizningcha, masjid, minora, ayniqsa, mavzoleylar kabi madaniy yodgorliklar ko'proq saqlanib, yetib kelgan.

X-XII asr boshlaridagi siyosiy o'zgarishlar O'rta Osiyo xalqlari fani va madaniyatiga ta'sir ko'rsatmay o'tmadi. Mahmud G'aznaviynyng ulkan davlati markaziy feodal davlatining vujudga kelishi fan va madaniyatning rivojlanishi uchun zarur shart - sharoitlar yaratdi. G'aznaviylar davrida arab tili keng quloch yozdi. G'aznaviylar devonida avval dariy tilida ish yuritilardi. Keyin arab tili kiritildi Oqibatda fors tiliga arab tili unsurlarining kirishiga ta'sir ko'rsatdi Mahmud G'aznaviy o'z saroyi tevaragiga shoiru yozuvchilarni, tarixchi va boshqa ilm ahllarini to'plagan edi. Saroyda qasida janri rivojlana bordi. Balxlik Abdulqosim Hasan ibn Ahmad Unsuriy (X asrning 60-yillarida tug'ilib, 1039 yilda vafot etgan) qasida ustasi bo'lib, u murakkablashgan ritorik obrazlarga boy qasidachilikning yangi uslubi asoschisi edi. Abdulhasan Ali Faruhiy (1038 yilda vafot etgan) va Abdulxoji Ahmad Manuchehrny (1041 yilda vafot etgan) ko'zga ko'ringan saroy yozuvchi va shoirlari edilar. Ular asosan somoniylar davri an'analarini davom ettirishdi.

Movarounnahrning bu davr adabiy hayoti bir qancha iste'dodli shoir va adabiyotshunoslar ijodidan ham bahramand bo'ldi. Asirdin Axsikatiy (1172 yilda vafot etgan), So'zoniy Samarqandiy (1173 yilda vafot etgan), Rashididdin Samarqandiy, Asadiy Tusiy, Nosir Xusrav, Umar Hayyom, Faxriddin Gurgoniy, Xo'ja Ahmad Yassaviy, Anvariy, Ma'sud Sa'd Salmon, Muizziy, Sobir Termiziy va boshqalar shular jumlasidandir. Bu davrda tasavvuf ta'limoti keng tarqaldi. So'fiylikning

[illegible]chilari faylasuf Muhammad G'azzoliy va uning mistik g'oyibot [illegible], ilohiy ishqning alohida so'fiylik yo'nalishini yaratgan ukasi Ahmad G'azzoliy hamda so'fiylik yo'nalishidagi mashhur shoirlar, Abdulloh Ansoriy Xiraviy (1006 - 1077 y), Abdulmajid Sanoniy ([illegible] 1131 yy), Farididdin Attor (1142-1220 y) lar edilar. O'rta asrning [illegible]hilari Abu Ali ibn Sino va Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad [illegible]niyning (973-1048 yy) ijodi ham shu davrga to'g'ri keladi.

XI asrda tarixshunoslik rivojlanishini ham alohida ta'kidlab o'tish [illegible]. Ular jumlasiga Abu Nasr Utbiyning (Mahmud G'aznaviyning [illegible] tarixchilaridan biri) "Tarixi Yaminiy" asarini kiritish mumkin. [illegible] Mahmud G'aznaviyni ko'klarga ko'tarib maqtab, otasi [illegible]ning hayotidan ko'plab voqealar keltiradi, ularni qiyoslab, [illegible] davr tarixiy voqealarini tasvirlaydi.

[illegible]aznaviylar davrining eng yirik tarixchilaridan biri Abu Sayd [illegible] hisoblanadi. U "Zayn-ul-axbor" ("Xabarlar ziynati") tarixiy [illegible]lik asarning muallifidir. U 1048-1052 yillar orasida yozilgan. [illegible]iy o'z davrining tarixchi va tarixshunosi sifatida shu asarida [illegible]o'tgan tarixchilarning asarlarini tahlil qiladi. Ular orasida Tabariy, [illegible], Utbiy va boshqalar bor.

G'aznaviylar davrining buyuk tarixchisi Abul Fazl Bayhaqiy (995-[illegible]) 30 jildli fors-tojik tilidagi tarixiy asar muallifidir. Bu qomusiy [illegible] bizgacha Sulton Ma'sudning podshohligi davri va o'sha davr [illegible] tasvirlangan bir necha titilgan, chala jildlar saqlanib qolgan. [illegible] "Ma'sud tarixi" yoki "Tarixi Bayhaqiy" deb ataladi.

[illegible] V.V.Bartol'd yozadi: "Abul - Fazl Muhammad Husayn [illegible] asari musulmon tarixiy adabiyotida alohida o'rin tutadi". [illegible] Fazl Bayhaqiy (taxminan 994 - 1079 yy) davr taqozosi bilan [illegible]likda qadimdan shakllanib kelgan an'analar doirasidan [illegible] edi. Biroq, shunga qaramay u o'sha davr xususida to'laroq [illegible] berishga harakat qilgan. "Mening niyatim odamlarga sulton [illegible] haqida hikoya qilib berishdangina iborat emas, chunki ular bu [illegible] o'z ko'zlari bilan ko'rganlar va bilurlar. Mening maqsadim [illegible] yilnoma bitish va ulug'vor imoratni shunday yuksaklikka [illegible], toki u haqdagi xotiralar asrlar so'ngida xam so'nmasun. [illegible] o'xshash bir narsani bitish noo'rin bo'lur erdi". Demak, [illegible] mavjud tarixchilik uni qanoatlantirmagan va u odatdagi [illegible]dalarni buzib, tarixchilikka bir qator yangiliklar kiritgan va

bu uning asarini oldingi asarlardan ancha yuqoriga ko'taradi. O'zigacha bo'lgan tarixshunoslarga baho berar ekan, Bayhaqiy yozadi: "Boshqa yilnomalarda bunday qamrov yo'q, chunki ular voqealar haqida jo'n fikrlaydilar va juda kam qismi haqida ma'lumot beradilar. Kamina esa bu asarni bitar ekanman, tarixiy to'liq bayon qilmoqchiman, toki yuz bergan hodisalardan hech qaysisi ochilmay qolmasin".

Bu bilan u nafaqat tarixchilik doirasini kengaytirib, unga yangi mazmun kiritdi, balki unga yangi shakl ham baxsh etdi.

Bayhaqiyning yuqorida keltirilgan so'zlaridan ko'rinib turibdiki, u o'sha davr qoidasiga ko'ra yozish odat bo'lmagan voqea - hodisalarni ham mufassal yoritgan. Shuning uchuy ham Bayhaqiyning "Tarixi"da voqea - hodisalarning oldingi tarixchilardagi kabi quruq aytib o'tilishi yo'q. Aksincha, asardagi unvonli mashhur zotlar ko'z oldimizda jonsiz qo'g'irchoqlar kabi emas, balki o'z qiziqishlari, hissiyotlari, kamchiliklariga ega jonli tarixiy shaxslar bo'lib gavdalanadi. Bayhaqiy tarixan yetilgan yirik hodisalarga bevosita turtki va sabab bo'luvchi, bunday qaraganda arzimas mayda dalil va holatlarning ahamiyatini yaxshi tushunadi .

G'aznaviylar devonidagi 25 yillik davlat xizmati muallifni ko'plab tarixiy voqealarning guvohiga aylantirdi. Uning qo'lidan qanchalab diplomatik, elchilar bilan bo'lgan maxfiy shifrlangan yozishmalar, noiblar va boshqa xufya va noxufyalar bilan bo'lgan yozishmalar o'tgan "Men o'zim xalifaga, Turkiston xonlari va beklarga yuboriladigan nomalarni oqqa ko'chirar, maxfiy axborotlarni o'zim yechardim. Bu uning asarini xolis, ishonchli, obro'li manbaga aylantirdi va unga keyingi asr tarixchilari ko'p bora murojaat etishardi", - deb yozadi A. Arende. Ilgari muallifning nomini ko'rsatmay ko'chirma olishardi, bugungi kunda Abul Fazl Bayhaqiyning asariga suyangan holda keyingi tarixchilar tomonidan yo'l qo'yilgan ko'plab noaniqlik va xatolarni to'g'rilash mumkin .

Gap shundaki, Bayhaqiy bu hujjatlarning nusxalarini to'plab borgan va ularni o'z arxivida saqlagan. Biroq, xizmati oxirlarida u omadsizlikka uchradi, uyi talanib, arxiv tortib olinadi. Shu bois muallif bu haqda "Ma'sud tarixi" asari davomida qayta-qayta afsus chekadi. Shunga qaramay, oxir - oqibatda u ko'p hujjatlarni tiklashga muvaffaq bo'lgan va o'z asarida foydalanganki, bu asar qimmatini oshiradi. Asarning bizgacha uchdan bir qismi yetib kelgan, qolgan qismi ancha ilgari

[illegible] Biroq, omon qolgan qismi uning bebaholigidan guvohlik [illegible] va tadqiqotchilar haqli ravishda uni mo'g'ullar davrining [illegible] tarixchilari Aloviddin Ota Malik Juvayniyning "Tarixi jahon-[illegible]" va Fazlulloh Rashididdinning "Jome' at-tavorix" asari bilan [illegible] yadilar.

Abul Fazl Bayhaqiy fors yoki dariy tilidagi tarixshunoslikning [illegible] emas. Bu tilda allaqachonlardan beri yozib kelishardi. [illegible] kelib, tarixchilikning o'ziga xos qisqa, aniq xolis ritorikasiz [illegible]) tili shakllangan edi. O'rta Sharq mamlakatlaridagi [illegible], yuqorida ta'kidlaganimizdek, uzoq vaqt arablar hukm-[illegible] boshlangandan keyin ham shohlar hayoti, ularning reja va [illegible] yozib borishdan iborat bo'lib qolgan edi. Xalq harakati [illegible] Muqanna qo'zg'oloni haqidagi hikoyasini eslang) [illegible] keng tarqalmasin, buzilgan holda talqin etilardi. Xalqning [illegible] - maishiy hayoti, ijtimoiy - siyosiy ahvoli haqida deyarli [illegible]. Abul Fazl Bayhaqiy tarixchining vazifasini butunlay [illegible] tushuntirdi. Shu narsa uning asarini yuksaklikka ko'tardi.

[illegible] asarining omon qolgan qismi Ma'sud podsholik qilgan davr [illegible] eng nufuzli asardir. Unda Safforiylar va Somoniylar [illegible] tarixiga oid, turkman urug'larining Saljuqiylar qo'li ostiga [illegible] oid qiziqarli ko'plab ma'lumotlar bor. Bayhaqiyning asari [illegible], O'rta Osiyo xalqlari tarixini tiklash uchun katta ahamiyatga [illegible] Muallifning G'aznaviylarning O'rta Osiyo xonlari, Xorazm, [illegible] bilan munosabatlari xususidagi ma'lumotlari ayniqsa [illegible] Mehnatkash dehqon va hunarmandlarning hayoti bevosita [illegible] da, Bayhaqiy ular to'g'risida bebosh shohlar zulmi, [illegible] amaldorlar shafqatsizligini yoritish orqali bexato fikr yuritadi. [illegible] qo'shimcha og'ir soliqlardan tashqari, shoh saroyiga katta [illegible] alar yuborilib turilishi shart edi. Masalan, 625-1034 yili [illegible] tashqari, to'rt million dirhamlik sovg'a yig'ib jo'natildi.

[illegible] Bayhaqiyning hayot yo'li haqidagi ma'lumotlar juda kam. [illegible] adabiyotda ibn Funduk nomi bilan ma'lum Abulhasan [illegible] Bayhaqiyning asari bu haqdagi asosiy manba hisoblanadi. "Ma'sud [illegible] keyin yuz yillardan so'ng ma'lum (1167-1168 yy.) bo'lgan [illegible] Abul Fazl to'g'risidagi muallifga ma'lum barcha ma'lumotlar [illegible]. Biroq, bu ma'lumotlar uzuq - yuluq va noaniq bo'lgan. [illegible] qaramay, undan Ash-shayx Abul Fazl Muhammad Husayn al

kotib al Bayhaqshaning taxminan 994 yillarda Seyistonda tug'ilgani, uning otasi Sulton Mahmudning yirik amaldori bo'lgani va 470 yilning safar (1077 yilning avgust-sentyabri) oyida vafot etganini bilib olish mumkin. "Ma'sud tarixi" so'z boshisidan ham ko'rinib turibdiki, Abul Fazl nafaqat qondosh xalqlar tarixi, balki islomning falsafiy asoslari va fiqhdan arabcha tarjimalar orqali, Arastu (Aristotel') g'oyalari hamda Gippokrat tibbiyoti bilan ham tanish bo'lgan. U 25 yoshlarida G'azna davlat devoniga Abu Nasr Mishkan qo'l ostiga ishga olinadi va Abu Nasrning o'ng qo'liga aylanadi. Abu Nasr Mishkon vafotidan so'ng, devonga Abu Sahl Zavzaniy boshliq bo'ladi. U Bayhaqiyni yoqtirmasdi. Bu kelishmovchilik va saroy nayranglari hamda Abul Fazlning barcha siyosiy adashuvlari uni davlat xizmatidan ketishiga sabab bo'ldi. O'zining guvohlik berishicha, oradan 20 yil o'tgach ham bu voqealar uni ta'qib qildi va u davlat xizmatiga boshqa qaytmadi.

Ibn Fundukning ma'lumotlaridan, shuningdek muallifning o'zi tarixiy asariga qanday nom berganini ham aniqlash qiyin. Ibn Funduq uni "Tarixi O'li Mahmud", "Mahmud sulolasi tarixi" deb atagan. Biroq bu kitobning asosiy nomi emas. A.K.Arende ruscha nashr etgan A.Bayhaqiyning "Tarixi Ma'sudiy" asari sharqshunoslar o'rtasida ko'proq "Tarixi Bayhaqiy" nomi bilan mashhur. Biroq, bu unchalik muvaffaqiyatli chiqmagan, chunki uni ko'pincha "Tarixi Bayhaq" ("Bayhaq o'lkasi tarixi") bilan chalkashtirib yuborishadi.

Ibn Fundukning aytishicha ham Bayhaqiyning asari 30 jilddan iborat ekan. Shundan beshinchi, oltinchi, yettinchi, sakkizinchi, to'qqizinchi jildlarning oxiri va o'ninchi jildning bosh qismi saqlangan. Ular Ma'sud podshohligi davrini deyarli qamrab oladi. "Men bir necha o'n taboqlarga jam bo'ladigan ellik yillik tarixni bitayoturman" degan edi muallif. Boshqa paytda muallif: "Mahmud Varroq" bitishni bas qildi, men shu davrdan (to'rt yuz) to'qqizinchi yildan ("Tarix"imni yoza boshladim degandi (350 sahifa).

Shunday qilib, Bayhaqiyning o'zi nechta asarini G'aznaviylar asoschisi Sabuktegindan emas, balki 1019 – 1020 yildan, ya'ni Sulton Mahmud hukmronligining 21 - yilidan boshlab yoza boshlaganining sababini bayon qilgan, Chunki, ungacha bo'lgan davrni ikki tarixchi, Mahmudning saroy tarixchisi Abu Nasr Muhammad Utbiy "Kitob ul-Iaminiy" asarida hijriy 409 - 411 yillargacha bo'lgan voqealarni bayon qilgan. Ikkinchisi, aftidan, yuqorida tilga olingan Mahmud Varroq. U

[illegible] ming yilliklar tarixini yozgan" va hijriy 409 yilga kelib, o'z [illegible] "tashlagan", buning oqibatida Abul Fazl o'z "Tarix"ini yoza [illegible] Demak, muallif "Ma'sud tarixi"ni 1056 yil 10 iyulda yoki [illegible] aprelida boshlangan deydi.

[illegible] hisobicha, u hozirgi hisobda 11 bosma taboq asar [illegible] ulgurgan. 1063 yilarlarda ham u yozayotgani ma'lum bo'lsa-[illegible] qachon tugatgani ma'lum emas.

Muallifning boshqa manbalarga halol yondoshganini quyidagi [illegible] ham aytish mumkin. Jumladan, u shunday yozadi: "Abbosiy [illegible] haqida yozishlaricha (513 bet) yoki "Men, Abul Fazl ko'plab [illegible], ayniqsa rivoyatlarki ko'rib chiqdim va ulardan foydalandim". [illegible] yoki "tarixiy manbalarda aytiladiki..." va hokazo. Masalan, [illegible] haqidagi qiziqarli bobda u shunday yozadi: "Shu paytgacha [illegible] men ustoz Abu Rayhon qo'li bilan bitilgan kitobni ko'rganim [illegible] erdi. Alar so'zamollikda va hodisalar mohiyatini anglashda [illegible] kishi erdilar, hech narsani bilmay bitmasdilar. Men bu [illegible] shu bois yozayotirmanki, toki "Tarix"imni yozishda naqadar [illegible] bilan ish tutganim namoyon bo'lg'ay" (807-bet). Biz uchun [illegible] Beruniy kitoblarini ko'rganligi xususidagi ma'lumotlari [illegible] qimmatlidir. "Ma'sud tarixi"ning barcha nusxalarida [illegible] bizgacha yetib kelmagan bu asari "Mashohir Xvarizm" [illegible] taniqli kishilari") deb yozilgan. Bundan tashqari "Kitob [illegible] as-sulton Mahmud va axbori abix" ("Sulton Mahmud [illegible] tarixi va uning otasi haqida xabarlar") va "Kitob al-musamara [illegible] Xvarizm" ("Xorazm to'g'risidagi xabarlar xususida suhbat") [illegible] ham ma'lumki, bular shubhasiz Beruniyning bizgacha [illegible] kelmagan o'sha kitobining nomlanishlaridir. Bizga boshqa narsa [illegible] Agar Beruniy Xorazm tarixini arab tilida yozgan bo'lsa, [illegible] bu tilni yaxshi bilgan Abul Fazl Bayhaqiy ushbu asardan yaxshi [illegible]. "Beruniy kitobini bundan ancha avval ko'rgan edim..." [illegible] muallif sulton Mahmudning Xorazmni bosib olishigacha [illegible], taxminan 1018-1020 yillargacha bo'lgan voqealar bayon [illegible] yuqoridagi asar materiallaridan xotiraga kelganicha, keng [illegible] Bundan tashqari, Bayhaqiyning aytishicha, u o'rta fors [illegible] Ibn Muqaffa tarjima qilgan "Xuvot al-namog'" va "Kutub siyar [illegible] Ajam" ("Eron shohlari hasti haqidagi kitob") asarlaridan [illegible]

A.K.Arendsning "Tarixi Bayhaqiy" asarining muallif matni tarixini jonlashtirish va uning rivoji bosqichlarini aniqlash hozir zarur ma'lumotlar yo'qligi bois, mumkin emas" degan so'zlari to'g'ridir. Aftidan, asarning yetishmayotgan jildlari kitob boyliklarimizga katta zarar keltirgan mo'g'ullar bosqini davrida yo'qolgan. Bu yo'qolgan qismlardan parchalar mo'g'ullardan qochib O'rta Osiyodan shimoli - g'arbiy Hindistonga ketib qolgan Muhammad Avfiyning "Javome' ul-hikoyot" kitobida ko'proq saqlanib qolgan. A.K.Arendsning aytishicha, bu asarning bizning davrimizda sharqshunoslar o'rganayotgan eng qadimgi qo'lyozmalari XVII asrga mansubdir. Sharqshunos Ch.R'yo Britaniya muzeyidagi XVI asr qo'lyozmalari sanalarini aniqlamoqda. "Tarixi Bayhaqiy"ning qo'lyozma nusxalari ko'p emas. Ularning bir qismi Yevropaning turli kutubxonalarida, Eron, Turkiya, Misr va Hindistonda, ba'zilari xususiy - shaxsiy kutubxonalarda saqlanmoqda. Uch nusxasi Leningradda saqlanmoqda.

Ingliz sharqshunosi V.Morle bu kitobni birinchi bo'lib Kal'kuttada 1869 yili nashrdan chiqardi. Kitob Bengaliyaning Osiyo jamiyati seriyasida bosildi. Oradan yigirma besh yil o'tgach, "Ma'sud tarixi" litografiya usuli bilan Tehronda nashr etildi. Uni Eron olimi Adiy Peshavoriy nashr qildi. Shundan keyin Bayhaqiyning asarini "unutib" qo'yishdi. Faqat V.V.Bartol'dgina "Turkiston mo'g'ullar istilosi davrida" asarida undan keng foydalandi. Keyin yana jimlik cho'kdi. 1319-1941 yilga kelibgina adabiyotshunos va yozuvchi Sayd Nafisiy uning birinchi jildini Tehronda nashr ettirdi. Ikkinchi jild 1325-1947 yilda, oxirgi jild esa 1332-1954 yili bosmadan chiqdi. Sayd Nafisiyning bu nashri oldingilardan sifatliroq bo'lsa-da, biroq u Morlening inglizcha nashriga asoslangan. Ayni vaqtda u Peshavoriy nashr etgan ikki nusxadan ham foydalangan. Bu davrga kelib, ya'ni 1945 yilda Tehron dorilfununi professorlari Gani va Fayoz "Tarixi Bayhaqiy"ning matnini bosib chiqarishdi. Bu nashr ancha ishonchlidir.

V.Bartol'd asarlarini hisobga olmaganda, to 1962 yilgacha "Tarixi Bayhaqiy" to'liq Yevropa tillariga o'girilmagan. Shu bois A.K.Arende ruschaga o'girishda Gani va Fayozning 1945 yilgi nashri matniga asoslandi. Ikkinchi nashrda yana o'zgarishlar bo'ldi. Unda kirish qismiga qo'shimchalar kiritildi, ba'zi joylar, ayniqsa, iboralar tarjimasi aniqlashtirildi. Qo'shimchalarda yo'qolgan jildlarga tegishli qismlarning yangi topilganlari bor. Bundan tashqari, yana Bayhaqiy

[illegible] tasvirlangan tarixiy voqealarga aloqador "Maqomati xoja Abu [illegible] Mishkan" asa-ridan ham shu voqealarni to'ldiruvchi ayrim [illegible] ikkinchi nashrga kiritildi.

Mo'g'ullar bosqini O'rta Osiyo xalqlariga cheksiz kulfat va fojialar [illegible]. Movarounnahr shaharlari xarobaga aylandi, hunarmandchilik [illegible] inqirozga uchradi, dala-yu vodiylar bo'shab, huvillab qoldi. [illegible] mo'g'ullar zulmi "nafaqat ezar, haqorat etar, balki bosib olgan [illegible] qalbini qovjiratar edi. Mo'g'ul - tatarlar muntazam terror rejimini [illegible], talash va ommaviy qirg'inlar ularning doimiy boshqaruv [illegible] aylandi", deb yozgan edi.

[illegible] eng yirik va qadimiy o'chog'i Samarqand mo'g'ullar [illegible] qadar juda katta shahar edi. Samarqand orqali Chingizxon [illegible] borgan Xitoy rohibi Chan - Chunning so'zlariga qaraganda, [illegible] ullar bosqinidan so'ng shaharda 25 ming oila, oldingi aholining [illegible] qismi qolgandi, xolos. Demak, ilgari bu yerda 100 ming [illegible] ya'ni 400 mingdan oshiq kishi yashagan. 30 ming hunarmand [illegible] ulistonga olib ketilib, mo'g'ul shahzodalarga tarqatilgan edi.

[illegible] tarixshunoslik jihatiga qaytamiz. Xitoy rohibi Chan - [illegible] hikoyasiga sharqshunoslardan birinchi bo'lib, Bartol'd e'tibor [illegible], "Turkestanskoe vostokovedenie" ruknining 1894 yil, 43-44 - [illegible] uning "Turkiston o'lkasi XVI asrda" (Xitoy sayohatchisining [illegible] asosida) maqolasi e'lon qilindi. Bu maqoladan sayohat [illegible] aniqlash mumkin edi. U quyidagicha: Chu va Talas daryolari, [illegible] Sirdaryo, Mirzacho'l, Zarafshon, Samarqand (1221 yil dekabr [illegible] yil apreli oxiri), Kesh va Amudaryo orqali o'tib, Chingizxon [illegible] yetib borgan. qaytishda Chan - Chun Chingizxon ortidan [illegible] Bartol'd "X asrdan to XIII asrgacha (Chan - Chungacha) [illegible] davrga tegishli Turkiston xayotini mufassal yorituvchi bironta [illegible] ega emas edik. Chan - Chunning ma'lumotlari shu jihatdan [illegible] o'rganish uchun qimmatlidir", - deb yozadi.

[illegible] yerda V.V.Bartol'dning tarixiy asari "Turkiston mo'g'ullar [illegible] davrida" doktorlik dissertatsiyasiga ham to'xtalib o'tish zarur. [illegible] kirish qismida muallif kitobining nomi mazmuniga to'liq [illegible] yozadi. Muallif maxsus tadqiqot uchun mo'g'ullar bosqini [illegible] O'rta Osiyo tarixining muhim davrini olgan. O'rta Osiyoning [illegible] avvalgi asrlar tarixiga esa o'zining maqsadi uchun zarur [illegible] qadar murojaat qilmoqchi edi. Biroq, mavzuga oid adabiyotlar

bilan tanishuv muallifga o'zigacha bo'lgan tadqiqotchilarning manbalar bo'yicha xulosalar qilmaganliklarini ko'rsatdi. Ularsiz esa mo'g'ullar kelganda O'rta Osiyo qay ahvolda ekanligini aniqlash mushkul edi. Muallifning fikricha, bu kitob ilk bor O'rta Osiyo tarixini manbalar asosida, ijtimoiy va maishiy sharoitlarga e'tibor berilgan holda yoritadi.

Asar kirish, to'rtta bob va ilovadan iborat. Kirish bu tarixshunoslik, u arab tarixchi va jug'rofiylaridan tortib, to temuriylarning tarixchilarigacha bo'lgan tarixshunoslarning O'rta Osiyo tarixiga bag'ishlangan manbalarga bergan bahosi va tanqidiy sharhiga bag'ishlangan. Monografiyaning birinchi qismida V.Bartol'd XI - XV asr tarixiy manbalari, tarjimalari va ko'chirmalarini keltiradi.

Ulardan eng muhimlari quyidagilar:

1. Gardiziy (XI asr). "Zayn-ul - axbor". Matnda qo'lyozmadan alohida ko'chirmalar keltirilgan. Masalan: Xaris ibn Surayj qo'zg'oloni, Amir ibn Jamol, Tohir ibn Abdulloh, Yaqub ibn Lays va Amir ibn Lays haqidagi ko'chirma; Amirning lashkarini ko'rikdan o'tkazishi, fuqaro boshqaruvi haqidagi, Somoniylar va ularning hukmdorligi, Ahmad ibn Saxl haqidagi, Abu Ali Chag'oniyning harakatlari: Surxon vohasidagi shaharlar, simjuriylar haqidagi; arab amirlarining Turkistonni olishi, Mahmud G'aznaviy va Qoraxoniylar to'qnashuvi, Mahmudning Xorazmdagi harbiy harakatlari haqidagi, Mahmudning Qashqar xoni Qodirxon bilan uchrashuvi tasviri boshqa ko'chirmalar shular jumlasidandir.

2. "Mujmal at - tavorix val – qisas". XII asrda yozilgan bu asarning muallifi noma'lum. Bartol'd undan Yefasning o'g'li Turkning vatani Issiqko'l atrofidagi joy ekani xususidagi rivoyat va Sharq hukmdorlari unvonlarining ro'yxatini keltiradi.

3. Al-G'arnotiy (XII asr). "Kitob tuhfat ul - albob va nuhbat ul-a'job". Balx yaqinidagi Xalifa Aliping mozori deyiladigan qabrning ochilishi haqida hikoya qilinadi.

4. Insho (XII asr). Bu Rossiya imperiyasi ichki ishlar nozirligi huzuridagi Sharq tillari o'quv bo'limi fondidan olingan hujjatlardir. Biz uchun Bartol'd keltirgan quyidagi hujjatlar muhimdir: Sulton Sanjarning O'rta Osiyo xonlariga munosabati; Otsizning Sanjarga maktubi: Sanjar va Otsizning yozishmalari; Xorazm shohniig xalifa Muqtadirning vaziriga nomasi; El-Arslonning Samarqand xoniga nomasi; Otsizning Janddan O'rta Osiyo ichkarisiga yurishlariga oid hujjatlar; saljuq

hukmdorining Bag'dod vaziriga maktubi; Sanjar nomidan elchilik hujjati va boshqa hujjatlar.

5. An-Nasafiy (XII asr). "Kitob al-qand fi tarixi Samarqand". Bu kitob Osiyo muzeyining qo'lyozmalar fondidan qadimgi Samarqand tarixidan manba sifatida juda qadimiy qimmatli qo'lyozma. Aynan ana shu qo'lyozma Samarqandning ilgari (Afrosiyobdan ham oldin) Navvodon kanali yuqorisida (bu kanal hozir ham bor, u chaqar - toshoxur, Darvozai Xo'ja Ahror degan joylardagi yer osti bulog'idan boshlanadi) joylashgan o'rni haqida ma'lumotlar beradi.

6. As-Somoniy (XII asr). "Kitob al - ansob". U Osiyo muzeyi fondidan. Bu asarda Zarafshon, Qashqadaryo vodiylari, Samarqand va Buxoro tumanlaridagi qishloq va joylarning, Samarqand va Buxorodagi ko'cha va mahallalarning nomlari haqidagi ma'lumotlar, mintaqaning dindor va boshqa taniqli kishilari ro'yxati berilgan.

7. Imodiddin Isfaxoniy (XII asr). "Xaridat al-qasr va jaridat al-asr". XII asrning eng muhim tarixshunoslik asarlaridan biri. Undan Barakotning "Lam at-tavorix" (unda 500-1106, 1107 yillargacha bo'lgan tarixiy voqealar bayon etilgan. Qo'lyozma hozircha yetarli darajada o'rganilmagan) asarining muallifi haqida mufassal ma'lumotlar topish mumkin.

8. Kotib as-Samarqandiy (XII asr). "A'rad as-siyasa fi ag'rad ar riyasa". Arab tilidagi qo'lyozma. Bartol'd bu asardan Sulton Sanjarning so'zlarini ("... xalqni qattiq itoatkor holda ushlash kerak"), qilich Tamg'ochxon davridagi Ayyorbek qo'zg'oloni tafsilotlarini va u bilan xon o'rtasida Mirzacho'ldagi bo'lgan jang tafsilotlarini, Xuroson uchun jang va uning talon-toroj etilishi voqealarini tarjima qilib keltirilgan.

9. Muhammad Muayyad Bag'dodiy (XII – XIII asr). "Kitob at - tavassul ila tarassul". Unda 1182 - 1184 yillarga tegishli, Xorazmshoh Tekesh hukmdorligi davri hujjatlari jamlangan. Ular orasida Tekeshning 1183 yilda G'iyosiddin g'uriyga yuborgan maktubi ham bor.

10. Muhammad Najib ibn Baqron (XIII asr). "Jahonnoma". V.Bartol'd bu asardagi Issiq ko'l, Movarounnahr tog' boyliklari, O'rta Osiyo cho'llari, Qoraxitoylar haqidagi ijtimoiy - etnografik ma'lumotlardan foydalangan.

11. Avfiy (XIIIasr). "Jome'-ul hikoyot va lom'e ar-rivoyot". Bu asardan u Shaqiq Ibrohim Balxiyning O'rta Osiyoda Budda kohini bilan bo'lgan uchrashuvi to'g'risidagi hikoyasini, Qoraxoniylar,

ayniqsa, Ibrohim ibn Nasr Tamg'ochxon haqidagi ma'lumotlarni, din islohotchisi Moh Afridning harakati va bu harakatning Abu Muslim yordamida bostirilishi haqidagi. Somoniylar va ularning Simjuriylar bilan to'qnashuvi, Gurganchining Shahobiddin Guriy tomonidan qamal qilinishi, uyg'ur va boshqa turkiy urug'lar haqidagi ma'lumotlarni keltirgan.

12. Butxona. "She'rlar to'plami". Bu yerda mutasavvif shoir Sayfiddin Boharziyning Chig'atoy saroyi vaziri Qutbiddin Habash Amid (musulmon) ga nomasi keltiriladi. Noma muallifi oliy tabaqaning dindorlar faoliyatiga aralashayotgani xususida o'z fikrini keskin bayon etadi, norozilik bildiradi.

13. Juvayniy (XIII asr), "Tarixi jahonkushoy". Xanikov shaxsiy jamg'armasidan. Bu tarixshunoslik asaridan V.Bartol'd Chingizxon avlodi xususidagi ma'lumotlarni olgan. Bular: Chingizxon davlatining boshqaruv tuzilishi, Chingizxon o'g'illariga tegishli hudud chegaralari, mo'g'ullarni Kuchluq bilan kurashi; Xorazmshoh Muhammadning Qoraxitoylar bilan kurashining ayrim lavhalari; Xorazmdagi 1056 - 1208 yillardagi yer qimirlash, Xorazmdagi harakatlar xususidagi ma'lumotlardir.

14. Rashididdin (XIII - XIVasr). "Jome'-at-tavorix". Unda O'rta Osiyodagi Chig'atoy davlatidagi asosiy voqealar va ularning ishtirokchilari xususida juda ko'p ma'lumotlar bor. Fikrimiz-cha, Rashididdin asarlariga berilgan baho diqqatga sazovor va u O'rta Osiyo tarixshunosligida alohida o'rin egallaydi. Bu haqida keyingi faslda mufassal to'xtalamiz.

15. Jamol Qarshiy (XIII - XIVasr). "Mulhaqat as-Suroh". Unda Qoraxoniylarning islomni qabul qilishi, Qoraxoniylarning Qashg'ar tarmog'i geneologiyasi (shajarasi), Olmaliqning turli shayxlari, mo'g'ul xonlari va ularning mahramlari (Mahmud Yalavoch va uning o'g'li Ma'sudbek), Kuchlug' va boshqalar haqidagi ma'lumotlar bor.

16. Hamdulloh Qazviniy (XIVasr). "Tarixi Guzida". Muallif bu yerda shayx Abu Sayyid Moyxoniyning ibn Sino bilan suhbatini ko'rsatib o'tadi. Shayx Majididdin Bag'dodiy, Najmiddin Kubro va Sadaddin Hamaviy to'g'risidagi ba'zi ma'lumotlarni keltiradi.

V.Bartol'd foydalangan 16 - 21 manbalar nazarimizda tarixshunoslik nuqtai nazaridan unchalik katta ahamiyatga ega emas. Biroq, muallifning keyingi foydalangan manbalari alohida e'tiborga loyiq.

Ular jumlasiga quyidagi asarlarni kiritish mumkin:

1. "Shajarat al-atrok" yoki "Ulus arba' Chingiziy". ("Turklar shajarasi" yoki "Chingiziylarning to'rt ulusi"), Muallifi noma'lum (Ulug'bek yozgan deyishadi). Bu yerda Chingizxonga o'g'li Jo'jining o'limi haqidagi xabar qanday yetkazilgani haqidagi she'riy hikoya va boshqa ma'lumotlar bayon qilingan.

2. Isfizoriy (XV asr). "Kitob Rauzat -ul - jannat fi avsof al madinati Hirot" ("Hirot shahridagi jannat ravzasi"). Bu yerda Mo'g'ulistonga olib ketilgan Hirot hunarmandlari haqida qimmatli ma'lumotlar bor.

3. Ahmad Muhammad Mo'yin – al - fuqaro (XV asr) "Kitobi Mullazoda". Kitobda Buxoro shayxlari va imomlari haqida biografik ma'lumotlar, Buxoro sadrlari shajarasi haqida va boshqa ma'lumotlar bor.

Tuzuvchining Sharq manbalari bilimdoni sifatida jahon kitob markazlaridan uzoqda ishlagani holda qo'liga tushgan va Yevropa, Sharq, Rusiya, O'rta Osiyo kitobxonalarida ko'rgan barcha ma'lumotlarni sinchiklab to'plaganini tan olmoq kerak. Sharq va O'rta Osiyo olimlarining tarixiy va adabiy - tarixiy asarlari hali topilmagan edi, ko'plari Yevropaning turli qo'l yetmas joylarida saqlanardi. Shunga qaramay V.V.Bartol'dning Sharq muarrixlari asarlarini to'plash bo'yicha bajargan ishlari O'rta Osiyo xalqlari tarixini o'rganish, tarixshunoslikni rivojlantirish uchun o'ta muhim ahamiyatga egadir.

3. Rashididdinning "Jome' ut-tavorix", "Yozishmalar" asarlari va ularning tarixshunoslikdagi ahamiyati

XIII asr oxiri XIV asr boshlarida chingiziylar saroyida yashagan yirik tarixchi olim va siyosiy arbob Rashididdinning hayoti va ijodi mo'g'ullarning Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlaridagi hukmronligi davri bilan bog'liqdir. Fazlulloh Abul Hayr Rashididdin Hamadoniy 1240 - 1247 yillar orasida Hamadonda unchalik mashhur bo'lmagan tabib - olim oilasida dunyoga kelgan. U Abakaxon hukmdorligi (1265-1282) davrida davlat xizmatiga kiradi va G'ozonxon (1295-1296 yy.) hukmdorligi davrida saroy tabibi vazifasini egallaydi.

Rashididdin ma'rifatli kishi bo'lib, ko'p tillarni o'rgangan, adabiyot va she'riyat nafosatini tushunar, tarixiy asarlarni yaxshi bilardi, tibbiyot, kimyo va falakiyot ilmlaridan yaxshi xabardor edi. U ayniqsa ilohiyot ilmi bilimdoni sifatida mashhur edi, Fazlulloh 1298 yili vazir etib

tayinlanadi. U Xulagiy davlatining boshqa vazirlaridan farqli o'laroq, kuchli markaziy hokimiyatning zaruriyatini chuqur his qilgan hukmdor sifatida aniq siyosiy yo'nalishda ish olib bordi.

Rashididdin 19 yil hokimiyat tepasida bo'lib, o'z sinfining tub an'analariga sodiq qoldi. U feodal jamiyatning markazlashgan davlat hokimiyati uchun izchil kurashdi. Ammo, afsuski, umrini fojiali tugatdi. "Markazlashtirish siyosati" jamiyatning feodal ravnaqi yo'nalishida eski vaqtlardagidek tayanch topa olmadi.

Hukmdor madadidan mahrum bo'lgan Rashididdin 1317 yili iste'fo berdi, bir yildan so'ng esa dushmanlari uyushtirgan fitna qurboni bo'ldi. U sulton Uljaytuni zaharlashda ayblanib, o'g'li, sulton soqiysi Ibrohim bilan 1318 yilning 18 iyulida qiynab o'ldirishga, mol-mulki musodara qilinishga hukm etiladi. Tabrizda ular qurgan, asosan hunarmandlar, muqovachilar, xattotlik va yozuv qurollari yasovchi ustalar yashaydigan Rashidiy mahallasi buzib tashlanadi. Ammo tasodifgina uni qatl etilishdan saqlab qoldi. Rashididdin 10 yil o'tgach oqlandi, oilasiga mol - mulkining bir qismini qaytarishdi. O'g'li G'iyosiddin vazir bo'ldi va otasining siyosiy yo'lini davom ettirishga urinib ko'rdi. Rashididdin esa Xulagu naslidan bo'lgan Qozonxonning buyrug'i va taqdir taqozosi bilan tarixchiga aylandi. Keyinchalik shunday asarlar yaratdiki, bu asarlar uning nomini asrlar osha saqlab qoldi.

"Jome' at-tavorix" bugungi kunda haqli ravishda ko'p mamlakatlarda uzoq hukmronlik qilgan ko'chmanchi mo'g'ullarning maishiy hayoti va ijtimoiy-siyosiy tarixi bo'yicha eng kuchli manbalardan biri hisoblanadi. Forscha manbalar ichida bunga teng asar yo'q. "Jome'-at-tavorix"da boy ma'lumotlar asosida mo'g'ullarning ko'chmanchi turmushi, marosimlari, urf - odati va fe'li, ma'naviyati, qonunlari haqida yorqin hikoya qilinadi. Rashididdinning bu shoh asarida o'troq xalqlar hayoti, xo'jalik iqtisodiy turmushi, ko'chmanchi va o'troq turmush tarzlari o'rtasidagi ziddiyatlar ham o'z ifodasini topgan. "Jome'-at-tavorix"da ko'chmanchi feodallar hukmronligi ostida qolgan, "asosan o'troq aholili ko'p mamlakatlarning iqtisodiy, xo'jalik va siyosiy tarixiga oid ancha mufassal ma'lumotlar keltiriladi.

Tarixshunoslik jihatdan Rashididdin asarini chuqur o'rgangan kishi rus olimi I.N.Berezin edi. Bu sharqshunos butun umrini Rashididdin merosini o'rganishga bag'ishladi. I.N.Berezin fors tilidagi nashrlarning asosiy noshiridir.

U "Jome'-at-tavorix"ning birinchi jildi (Chingizxon hukmdorligi davri tarixi), shuningdek, "turkiy va mo'g'ul ko'chmanchi qabilalari' tarixini o'z ichiga olgan qismlarining tarjimonidir.

Biroq, I.N.Berezin hayotligi davrida asar qo'lyozmasining eng yaxshi, Toshkent va Istambul nusxalari ma'lum emas edi va shu bois, ismlar, turkiy - mo'g'ul iboralari, jug'rofiy, tarixiy toponimik iboralar aniqlashtirishni talab qilardi. Shu bilan birga I.Berezining forscha matni va ruschaga tarjimasi hozirda ham bibliografik jihatdan nodir hisoblanadi. Buning ustiga uning nashri to'liq emas edi. Shu bois 1936 yildayoq SSSR Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik ilmgohi Jome'-at-tavorix" forscha matni va ruscha tarjimasining qayta ko'rib chiqilgan nashrini bosmaga tayyorlay boshladi. 1-139 - betlarni prof. A.Romaskevich, 140-231 - betlarni filologiya fanlari nomzodi I Hechaturov va nihoyat, 232 - betdan asarning oxirigacha bo'lgan qismini yetuk sharqshunos, professor A.Alizoda tayyorladi. Yana shuni ham ta'kidlash lozimki, tanqidiy matn birinchi jildining I va II qismlari hamda ruscha tarjima matni 1941 yilgachayoq professor A.A.Romaskevich tomonidan oldindan tahrir qilingan edi.

Rashididdin "Jome'-at-tavorix"i elxonlarga bo'ysunuvchi mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy ahvoliga oid juda ko'p ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Bu sohada XIII - XIV asrning bironta ham tarixchilik asari u bilan tenglasholmaydi. Uning asaridagi ma'lumotlarga ko'ra, XIII asrdagi dehqonchilik, yerdan foydalanish tartibi, soliqlar va ularni undirish usullari, dehqonlarning to'lovlari va mamlakatning iqtisodiy ahvoli xususida bemalol fikr yuritish mumkin.

Rashididdinning bu asari, V.Bartol'dning iborasicha, o'rta asr fors tarixshunosligining "so'nggi so'zi" mana 150 yildirki, tadqiqotchilarni o'ziga tortib keladi, uning to'g'risida ko'plab asarlar bitiladi. Bu asarni o'rganish va nashr etish bilan bugun ham butun jahon shug'ullanayapti.

Yilnomalar majmuasi" bilan bir qatorda Rashididdinning "Yozishmalar"i ham Yaqin va O'rta Sharq va O'rta Osiyoning XIII-XIV asr boshi tarixini o'rganishda katta manbadir. Bu manba tarixshunosligi unchalik tahlil emas. Gap shundaki, "Yozishmalar" muallif o'lgach, 1327-1336 yillar orasida uning o'g'li G'iyosiddin Muhammad Rashidiyning munshilari oqibatida kitobga aylandi. Vazirning topshirig'iga, ko'ra, Rashididdinning sobiq shogirdi Muhammad Abarko'xiy bu to'plamni muqaddima kirishdi. Rashididdin maktublari Sharqqa keng tarqaldi.

E.Braunning shaxsiy to'plamidan shu narsa anglashiladiki, bu xatlar XIV - XV asr chegaralarida ham, keyingi asrlarda ham qayga ko'chirnb olingan. Sovet tarixchisi I.Petrushevskiyning guvohlik berishicha, "Yozishmalar" "Yilnomalar majmuasi"ga o'xshab ketadi va ularda o'sha davr rasmiy hujjatlari uchun xos bo'lgan iboralar bir xil shaklda uchraydi.

"Yozishmalar" tarixi uchun yana shuni ta'kidlash zarurki, XV asr oxirida Temuriylar saroyida ma'lum edi va shu bois, uning bir necha xatlarini Sayfuddinxo'ja ibn Nizom Oqiliy o'zining tarixiy asari "Asar al – vuzaro" barcha davrlarning eng mashhur vazirlariga bag'ishlangan kitobiga kiritdi. Bu asar 1473 yili Sulton Husayn Boyqaroning vaziri uchun yozilgan edi.

Yevropada "Yozishmalar" kitobi XIX asr boshlarida ma'lum bo'ldi. Frantsuz diplomati va sharqshunosi J.L.Russo (1780- 1831 yy.) oldin Bag'dod, so'ng Xalab va Tripolida bosh konsul bo'lib ishlagan vaqtida Xalabdan Sharq qo'lyozmalarini olib ketdi va 1817 yili Parijda ularning katalogini e'lon qildi. Ikki yildan so'ng, ya'ni 1819 yilda Rossiya imperiyasi Fanlar akademiyasi bu to'plamni sotib oldi va yangi tashkil etilgan Osiyo muzeyıga sovg'a qildi. "Russoning birinchi kollektsiyasi" ichida besh yuztacha arab, fors va turkiy qo'lyozmalar mavjud edi. Ular orasida Rashididdinning "Yozishmalar" asari ham bor edi. (qarang: Munshaot-i Rashidiy, hozir bu qo'lyozma mamlakat Fanlar Aka-demiyasi Sharqshunoslik ilmgohining Leningrad bo'limida, № 938 raqmi ostida saqlanmoqda (Russo kollektsiyasi).

"Munshoat" haqida XIX asrda ham, XX asrda ham ko'p yozilganıga qaramay, negadir asar I.N.Berezinni, E.Blosheni va hatto V.Bartol'dni o'ziga jalb qilmagan. Yuz yil o'tgachgina, Sharqda sotib olingan bu asarning ikkita qo'lyozmasi A.Xoutum - Shindler tomonidan Angliyaga keltiriladi. Qo'lyozma 1919 yili Edvard Braun qo'liga tushadi va o'sha yili oktyabridayoq asar mazmuni e'lon qilinadi. Natijada asar dunyoga tanildi. E.Braunning fikricha, unga tegishli bu qo'lyozma g'oyat noyob edi.

1920 yili E.Braun mo'g'ullar bosqini davridagi fors adabiyoti tarixi bo'yicha kitob nashr qildi. Bu kitobda Rashididdinning barcha 53 maktubi mufassal bayon qilingan edi. Braun keyinchalik qo'l-yozmaning o'zidan emas, balki o'sha davrda Kembrijda yashovchi hind sharqshunosı Muhammad Shafiy qo'lyozmadan tanlab tayyorlagan

parchalardan foydalandi. O'sha yillari M.Shafiy Rashididdinning "Yozishmalar"i tarjimasini tayyorlagan bo'lsa-da, biroq u 1955 yilda ham nashr etilmadi.

Rashididdinning "Yozishmalar"i tarixini o'rganishning keyingi bosqichi 20-yillarning o'rtalarida Eron filologi Vohid Dastgiriy tomonidan uning bir necha xatlarining "Armug'on" jaridasida bosilishi bo'ldi. Bu jaridada Eronda saqlanayotgan qo'lyozma asosida Rashididdinning bitta katta xati e'lon qilindi. 30-yillarning boshlarida esa Eron sharqshunosi o'zining keng ko'lamli "Tarixi muffasali Eron" ("Eronning mufassal tarixi") asarini e'lon qildi, Vohid Dastgariy bu asardan foydalanibgina qolmay, balki uning manba sifatidagi tarixiy ahamiyatini ko'rsatdi.

1940 yili Muhammad Shafiyning yangi kichikroq maqolasi e'lon qilindi. Unda muallif Rashididdin maktublarining qimmatini yana ta'kidlaydi va Hindistonga tegishlilarini tahlil qiladi. 40-yillarda birin ketin A.Alizoda, I.Petrushevskiylarning ingliz eronshunosi R.Leviga qarshi (1946 yili u asossiz Rashididdinning "Yozishmalar"ini XV asrning hindcha yasamasi deb e'lon qilgan edi) maqolalari paydo bo'ldi. Bu bahsga Lahordagi sharqshunoslik kolledji boshlig'i M.Shafiy 1947 yili ushbu tarixiy yodgorlik matnini e'lon qilgach, nuqta qo'yildi. M.Shafiy "Yozishmalar"ni ko'plab izohlar bilan boyitdı.

M.Shafiyning nashri bilan deyarli bir paytda, 1948 yilda Tabrizda 1 maktubning to'la matni va Rub'i Rashidiy, ya'ni Rashididdin Tabrizda qurgan mahallaga bag'ishlangan 18 - maktubning qisqartirilgan matni muallif Xusayn Nahjuvoniy tomonidan e'lon qilindi. Bu parchalar Tabriz bibliofili Muhammad Nahjuvoniy kutubxonasidagi qo'lyozmaga asosan chop etilgandi.

Maqola muallifiga "Yozishmalar"ning Lahordagi nashri ma'lum emas, biroq ular matni mos keladi. Ayrim o'rinlarda ular M.Shafiyning Lahor nashri bilan Leningrad qo'lyozmasi o'rtasidagi tafovutlarni tuzatadi. M.Shafiy nashrida tushib qolgan o'rinlar 1950 yilda "Donish" jurnalida bosilgan Rashididdinning "Yozishmalar"idan parchalarda keltirilgan edi.

Asrimizning 60 - yillari "Yozishmalar" tarixshunosligi ravnaqi yillari bo'ldi. 1956 yili A.Alizodaning kitobi, I.Petrushevskiyning XIII-XIV asrdagi Eron qishloq xo'jaligi haqidagi maqolasi, A.Falina va ... asarlari e'lon qilindi. "Jome'-at-tavorix" "Yilnomalar

majmuasi"ning mashhur noshiri professor Karl Yan 1963 yilda. Amerika sharqshunosi X.Shurman 1953 yilda e'lon qilgan asarlarida "Yozishmalar"ning mo'g'ullar davri soliqchilik iboralari, O'rta asrdagi Eron va O'rta Osiyo dehqonlari to'g'risidagi ma'lumotlaridan keng foydalaniladi.

Xullas, hozir Rashididdin "Yozishmalar"ining 13 nusxasi ma'lum Ulardan sanalgani va ro'yxatga olingani sakkizta.

Mo'g'ullarning O'rta Osiyo, Yaqin va O'rta Sharq va unga tutash mamlakatlardagi hukmronlik davri manba va tarixshunoslikka juda boy Bu davrda juda ko'p yirik asarlar yaratildi. Vardan Kirokatsi, Nasaviy, Juvayniy, Ibn Asir, Hamdulloh Qazviniy, Vassofiylar nomi juda mashhur edi. Ularning hammasi yoritilayotgan voqealarning nafaqat guvohi, balki qatnashchilaridir, shu boisdan ular yaratgan asarlarning o'ziyoq o'sha davrning tarixiy hujjatlari bo'la oladi. Hozirgi zamon tadqiqotchilari uchun Mo'g'ul xoni saroylarida yozilgan tarix bilan O'rta Osiyo, Sharq, Kavkaz orti xalqlari vakillari birinchi navbatda arab, O'rta osiyolik, arman, suriyalik tarixchilar yozgan tarixni qiyoslash, Yevropalik sayohatchilar va elchilar keltirgan ma'lumotlar bilan tanishib, xulosalar chiqarish imkoni bor.

Mo'g'ul istilochilari davri manbalarga qanchalik boy bo'lmasin "Jome' at-tavorix" va "Yozishmalar" ular orasida o'ziga xos alohida markaziy o'rin egallaydi. Rashididdinda tabiblik, botanik, tarixchi, ilohiyotchi, shoir, davlat arbobi va siyosatchining xislatlari mujassamlashgan edi G'ozonxonning topshirig'ini bajarib, u tarixchi sifatida "Yilnomalar majmuasi"ni yaratdi. "Yozishmalar"da esa Rashididdin qiyofasida buyuk vazirni ko'ramiz, bu yarim shaxsiy, yarim rasmiy yozishmalar o'zi - o'ziga guvohlik berib turibdi, bu maktublardan o'sha davr rasmiy tarafdan topilmaydigan ma'lumotlarni topamiz. Shu bilan birga bu ikki asar bir - biri bilan tutash, ko'p tomonlama bir - birini to'ldiradi.

"Yozishmalar" ko'p manbalarda yo'q ma'lumotlarni beradi va o'sha davr tarixiy asarlarida ijtimoiy - iqtisodiy hayotning yo'l - yo'lakay aytib o'tib ketiladigan tomonlari, hodisalari mohiyatini ochib tashlaydi

Mavzu yuzasidan savollar:

1. X-XI asrlarga oid qanday tarixiy asarlarni bilasiz?
2. "Devonu lug'ati turk" asarida tarix ilmiga oid qanday ma'lumotlar uchraydi?

3. "Yozishmalar" asari muallifi kim?
4. Rashididdin ilmiy merosini chuqur o'rgangan qanday olimlarni bilasiz?
5. Gardiziyning "Зayn ul-axbor" asari qaysi tarixiy davr va qanday xususiyatlarga bag'ishlangan?
6. Nima sababdan Qoraxoniylar davri tarixi yaxshi o'rganilmagan?
7. X-XII asr boshlaridagi siyosiy o'zgarishlar O'rta Osiyo xalqlari fani va madaniyatiga qanday ta'sir ko'rsatgan?
8. A.K.Arends "Tarixi Bayhaqiy" asari bo'yicha qanday ma'lumotlarni keltirib o'tgan?

MAVZU № 6. SO'NGGI O'RTA ASRLARDA TARIXIY BILIMLARNING RIVOJLANISHI

REJA:

1. Temur va uning zamonasi haqida O'rta Osiyo tarixshunosligi
2. Nizomiddin Shomiy va Sarafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asari va uning tarixshunoslikdagi ahamiyati
3. Ulug'bek xayoti va faoliyatiga oid O'rta Osiyo tarixshunosligi
4. Ulug'bek va Temuriylar davri madaniy xayotining tarixshunosligi

Tayanch so'z va iboralar: Amir Temur, Temurnoma, ibn Arabshox, ibn Xaldun, Zafarnoma, Shomiy, Abdurazzoq Samarqandiy, Klavixo, Ali Yazdiy, Mirzo Ulug'bek, Ulug'bek jadvali, Ziji jadidi Ko'ragoniy, Tarixi arba' ulus, Fatxiya, Ali Qushchi, Ulug'bek rasadxonasi, Rashoxat aynul xayat

1. Temur va uning zamonasi haqida O'rta Osiyo tarixshunosligi

Chingizxon vafotidan so'ng uning tirik qolgan o'g'illari ichida eng kattasi Chig'atoy mo'g'ul qabilachilik qonun - qoidalari (Yasoq) ning bilimdoni sifatida katta nufuzga ega edi. "Yasoq"da tilga olingan tarxonlar yoki (darhonlar) har qanday soliqlardan ozod qilingan edilar, ular qo'lga kiritgan o'ljalarini boshqalar bilan bo'lishmas, buyuk xon huzuriga istagan vaqtlarida kirishar, xato qilishsa ham to'qqiz martagacha jazolanmay, kechirilar edilar. Janglar bilan yashaydigan yarim madaniy halqlarni deyarli hammasida mana shunday feodal xolat vujudga kelgan edi.

Chingizxon va uning qudratli davlatiga bag'ishlangan bir qator asarlar (Rashididdin, "Jome'-at-tavorix" va b.) paydo bo'lgach, mo'g'ullarning harbiy yurishlariga yovvoyilarning hamma narsani bosib yanchadigan, o'zlariga notanish bo'lgan madaniyatni faqat yo'q etishnigina biladigan tartibsiz harakati sifatidagi eskicha qarashlar butunlay uloqtirilib tashlandi, deb hisoblash mumkin. Barcha murakkabliklariga qaramasdan, ko'chmanchilarning hayoti yovvoyilarning ibtidoiy turmush tarzidan jiddiy farq qiladi.

Cho'llarda turli ijtimoiy tabaqalar va guruhlar, boy va kambag'allar o'rtasida chuqur qarama-qarshiliklar mavjud edi. Mana shu qarama-qarshiliklar antagonistik kurashlarni keltirib chiqaradi. O'z mol-mulkini, birinchi galda podasini, oilasini va buyumlarini tashqi dushmandan himoya qilish zarurati tug'iladi. Yaylovlarning orqasidan ba'zida katta-katta maydonlarni qamrab oluvchi qurolli to'qnashuvlar, shuningdek xalqni o'z kuchini uyushtirishga va biror shaxs yoki urug'ning atrofida uyushishga majbur qiladigan favqulodda vaziyatlar yuz beradi. Bunday g'oyaning g'alaba qilishi uchun uning sohibi dahshatli, puxta tashkil etilgan kuchga ega bo'lishi kerak.

Bosib olingan mamlakatda ko'chmanchilar, ayniqsa sulola va uning oliy safdoshlari asta-sekinlik bilan yuksakroq bo'lgan madaniyat ta'siriga bo'ysuna boradilar, biroq o'zlari bilan olib kelgan madaniyat belgilari ham birdan yo'qolmaydi va izsiz ketmaydi. Jahongirlar ko'chmanchilik hayoti erkinligini o'z fuqarolarining madaniy rivoji bilan birlashtirishga harakat qiladilar: jahongirlarning o'z vatanlarida paydo bo'lgan davlat tarkibi, madaniyat vakillarining ta'sirisiz bo'lsa-da, o'zlari bosib olgan mamlakatlardan rivojlanishlari uchun kerak bo'lgan qulay sharoitlarni topadi, o'sha mamlakatda ilgari mavjud bo'lgan siyosiy g'oyalar bilan muvaffaqiyatli ravishda raqobat qiladi va bosqin yurtda o'z vatanidagidan ko'ra chuqurroq iz qoldiradi. Mo'g'ul davlatchiligi Mo'g'ulistonning o'z tarixiga deyarli hech qanday ta'sir ko'rsatmagan holda, Xitoyda, musulmon Osiyosida va Rossiyada barqarorroq bo'lgan siyosiy tartiblarning o'rnatilishiga olib keldi.

Mo'g'ul davlati ko'pchilik tarixchilar tomonidan boshqa ko'chmanchi davlatlar o'rtasida nafaqat o'z maydonining kattaligi bilan balki uzoq hukm surganligi bilan ham ajralib turishi ta'kidlanadi. Taniqli rus turkshunosi V.V.Radlov bu fikrni quyidagi tarzda ishonarli qilib tushuntiradi: mo'g'ul davlatiga o'troq xalqlarning ko'plab nufuzli davlatlari birlashgan edi, shuning uchun xam u bir paytlar o'zi yaratgan doirada bo'g'inlarga emas, balki bir necha madaniy davlatlarga bo'linib ketdi (Xitoy, O'rta Osiyo, Fors va b.)

Chig'atoy va uning avlodlari (1227-1370 yy.) panohi ostida bo'lgan Movarounnahr, Yettisuv va Sharqiy Turkiston davlatlari haqida yuqorida aytib o'tildi. Bu fikrni davom ettirib, shuni ta'kidlash mumkinki, Chig'atoy islomni qabul qilmadi va Yasoqning musulmon sharoitiga zid bo'lgan ko'rsatmalariga amal qilishni qattiq turib talab qilardi. Masalan u hamma jonivorlarni oziq - ovqat uchun so'ysa bo'ladi

hamda oqar suvda tahorat qilish mumkin degan fikrlarni targ'ib qildi.

Chig'atoy yurtiga amalda uning o'limidan so'ng Xorazm, g'arbiy Turkiston va Afg'onistonni o'z hukmronligi ostida mustahkamlagan nevarasi Xulagu tomonidan asos solingan edi. Chig'atoy avlodidan birinchi bo'lib Muborakshoh (1266 y) ochiqchasiga islomni qabul qildi. Biroq 1291 yili hokimiyat tepasiga kelgan Duva va uning avlodlari ashaddiy majusiylardan edi. Ularning yer - suvlari esa asosan sharqda, Tiyon-Shonning ikki tomonida joylashgan edi. Oradan 20 yillar o'tgach, ya'ni 1309 yili Movarounnahrga birinchi bo'lib Kebekxon (Ko'pekxon) qaytdi va Nahshab (Qarshi) da o'zi uchun saroy barpo ettirdi.

Movarounnahr hayotida Kebek tomonidan o'tkazilgan ma'muriy islohot katta ahamiyat kasb etdi. Ibn Arabshoh ta'riflari shuni ko'rsatadiki, Temur siyosiy faoliyatining boshlanishida Samarqand barcha rustaklar bilan yetti tumandan iborat edi. Farg'onada to'qqiz tuman bor edi, deb ko'rsatadi Ibn Arabshoh. Bunday miqdorda aholisi bo'lgan hududni tasavvur qilib ko'rmoq kerak, zero har bir tuman 10 ming jangchini maydonga chiqarishi mumkin edi. Kebek boshqa ijtimoiy - iqtisodiy islohotlar ham o'tkazdi. Chig'atoy ulusining Movarounnahr qismida Chingiziylarning so'nggi vakili xon Qozog'on (1343 y) hukmronlik qildi. Lekin Qozog'on ham ov paytida mo'g'ul xoni Tug'luq Temurning yo'l - yo'rig'i bilan uning no'yonlaridan biri tomonidan tezda o'ldirildi. Qozog'onni o'ldirishda, Xuttalon hokimi Kayxusrav ham ishtirok etadi. Uning o'limidan so'ng Movarounnahrda kuchli hukmdor yo'q edi. Nizomiddin Shomiyning ("Zafarnoma" muallifi) so'zlariga qaraganda, XIV asrning 50-yillarida Movarounnahrda u yoki bu darajada bir qancha hokimliklar bo'lib, ular hech kimga bo'ysunmas va bir-birlari bilan dushmanlik munosabatida edilar. Shahrisabz (Kesh) viloyati Hoja Barlosga tobe edi. Xo'jand muzofotida esa jaloirning rahnamosi Boyazid hukmronlik qilardi. Balx shahri va unga qarashli viloyatning bir qismi Qozonxonning nabirasi amir Husaynning qo'li ostida edi. Amir Husaynning Qozonxon bilan qondosh bo'lganligi unga o'z siyosiy mavqeini ko'tarish uchun umid bag'ishlardi. O'rta Osiyoning qolgan muzofotlari ham ulus mulki (hokimlarga qarashli) sifatida bo'lib tashlangan edi. Nizomiddin Jomiy bu mulklarni batafsil ta'riflab shuni ta'kidlaydiki, hokimlarning har biri, garchi harbiy kuchi oz bo'lsa-da, o'zgalarni mensimagandek tutishga urinar va shuning uchun butun mamlakatda o'zaro adovatlar hamda fitnalar yuz berardi.

[illegible] orqasidan dehqonlar va hunarmandlar azob chekardi. Yildan [illegible] Movarounnahrdagi vaziyat og'irlashib borardi. Shuning uchun [illegible] Oatyo 1360 va 1361 yilda Mo'g'ulistonda Tug'luq Temur [illegible] qurboni bo'ldi. Rasmiy manbalarda Temur haqidagi [illegible] faqat Tug'luq Temurning ana shu yurishlari atrofidagina [illegible]. Garchi, O'zbekiston xalqlari tarixi tarixshunoslari ichida [illegible] manbalarda Temurning bolaligi va yoshligi haqida ma'lumotlar [illegible] fikr mavjud bo'lsa-da, bizning nazarimizda bu unchalik [illegible] emas. Negaki, qo'lyozma xazinalarida noma'lum muallifning [illegible]" nomli kitobi saqlanadi. Bu kitobda barlos qabilasi va [illegible] boshchisi Xoji Barlos haqida, Temurning bolaligi, yoshligi [illegible] hokimiyat yo'lidagi dastlabki qadamlari haqida salmoqli [illegible] bor.

[illegible] toylar yuqorida aytib o'tilganidek, Kebekxon hukmronlik [illegible] paytdan boshlab, mo'g'ul hukmdorlari islomni qabul [illegible] (1309 y.) asta-sekin o'z atroflariga diniy arboblarni hamda [illegible] yig'a boshladilar, xonlik hokimiyatini markazlashtirish [illegible] olib bordilar. Biroq bu harakat mo'g'ul va turk qabila [illegible] boshchilarining qattiq qarshiligiga duch kelardi. Shuning [illegible] ham XIV asrning birinchi yarmida xonlar va urug'larning [illegible], ayniqsa O'rta Osiyoning turk va turklashgan oq suyaklari [illegible] kurash haddan tashqari kuchaydi. XIV asrning o'rtalariga [illegible] Movarounnahrning siyosiy hayotiga Xoji Barlos bekning jiyani [illegible] ham qo'shiladi. U 1336 yili Kesh shahri yaqinidagi Xo'ja [illegible] qishlog'ida tug'ildi. Uning otasi Turag'ay barlos qabilasidan edi. [illegible] "turli beklarning qo'shinini boshqardi". 1360 yildan [illegible] u 10 yil davomida goh u, goh bu feodal hukmdor tomonida [illegible] va bir vaqtning o'zida barloslar qabilasini o'z atrofida [illegible] 1361 yilda u Tug'luq Temur tarafiga o'tdi va buning [illegible] Shahrisabz hamda Qarshi viloyatining Hukmdori etib tayinlandi. [illegible] Tug'luq Temurning raqibi Balx hukmdori amir Husayn bilan [illegible]. Ular birgalikda mo'g'ullarga qarshi isyon ko'tardilar. [illegible] muvaffaqiyatsizlikka uchragach, O'rta Osiyoni tashlab Seyistonga [illegible] majbur bo'ldilar. Seyistondagi harbiy harakatlaridan birida [illegible] qo'li hamda o'ng oyog'idan yaralanadi. Shundan keyin u [illegible] bo'lib qoldi va kelgusida ulkan davlat tuzgan bu zot [illegible] (Oqsoq Temur) laqabini oldi. 1360 yilda Shahrisabz va

Qarshining begi bo'lgan amir Temur 1370 yilga kelib, ya'ni 10 yil ichida butun Movarounnahrning hukmroniga aylandi.

Ibn Arabshoh ma'lumotlaridan ko'rinadiki, Temurning otasi Tarag'ay xudojo'y musulmon bo'lgan, u olim va darveshlarning, ayniqsa shayx Shamsiddin Kulor (Kulol)ning do'sti bo'lgan. Bu taqvodor zotning xoki Go'ri Amir maqbarasiga qo'yilgan yoki ko'chirilgan. Temurning yangi diniy maslahatchisi hamda homiysi Sayd Baraka umrining oxiriga qadar Temurning maslahatgo'yi va ma'naviy padari bo'lib, Temur Xorazmga yurish qilganda ham ishtirok etadi. Sayd Baraka va termizlik sayidlardan so'ng ma'lum bir nufuzga, obro' e'tiborga ega bo'lgan zotlar samarqandlik shayxul-islom Xoja Abdul-Avval va uning jiyani Xoja Isomiddin, keshlik Xoja Afzal va keshlik shayxul - islomning o'g'illari Abdul-Homid va Abdurahmon hamda samarqandlik shayxul - islom al - Maliklardan iborat edi. Ibn Arabshohning so'zlariga ko'ra, amir Temur Zohid Zoyi al-din Abu Bakr Toyobodiyni (1381 yildan Xuroson ruhoniylarining yetakchisi, Xuroson yonidagi Tonobod qishdog'idan chiqqan) o'zi erishgan zafarlarda katta xizmati bo'lgan Shamsiddin Kulol va Sayd Baraka qatori homiylaridan biri deb hisoblagan.

V.V.Bartol'dning ta'kidlashicha, Shohruh davrining tarixchilari Chingizxon qonunlari oldida islom shariati yuqori mavqega erishgan bir paytda, tabiiyki, Temurning xudojo'yligini va dinga bo'lgan jonkuyarligini bo'rttirib ko'rsatishga moyil bo'lganlar. Shubhasiz, amir Temur ulamo ahlining homiysi bo'lgan, ular bilan tengma-teng muloqotlar olib borgan va ayniqsa payg'ambar avlodlariga alohida hurmat bilan qaragan: sohibqironning o'z tug'ishganlaridan tashqari uning davlatida hayoti daxlsiz hisoblangan yakkayu-yagona odamlar sayidlar bo'lgan deyish mum-kin. Bundan tashqari, Hofizi Abru yozishicha, Temur dini islomni mustahkamlash uchun g'amxo'rlik qilgan, u hech qachon vaqflarning pul bilan bog'liq ishlariga aralashmas edi. Bartol'd yana bir o'rinda Temur tarixni juda yaxshi bilgan, deb yozadi. Bartol'dning bu so'zlari tarixchi Ibn Xaldunning Temur bilan bo'lgan suhbati mazmuniga suyanib yozilgan.

Gap shundaki, faqat XVI asr oxirlariga kelibgina arab faylasufi ibn Xaldun (1332-1406) ilk bor musulmon dunyosida tarixni hikoya qilib berishdan tashqari, voqealarning sababiy bog'lanishlarini ham, pragmatik bayon (tarixdagi ob'yektiv taraqqiyot qonunlarini ochib

[illegible] voqealarni faqat tashqi bog'lanishi va izchilligiga qarab [illegible] qilib berish va umumdunyo tarixining taraqqiyot qonunlarini [illegible] borasida urinib ko'rdi. Ibn Xaldun tabiat va insoniyat tarixi [illegible] dialektik aloqa mavjudligini isbotlash uchun harakat qilgan [illegible] uchun ham tanqidiy manbalarda Ibn Xaldun quyidagi [illegible] suyanadi: kishilik jamiyati tarixi ham tabiat hayoti [illegible] bo'lgan muhim qonunlarga bo'ysunadi va xalqlar hayotida [illegible] namoyon bo'lishi tarixiy haqiqatning asosiy mezoni [illegible] xizmat qiladi

Ibn Xaldunning qarashlari 200 yilga yaqin vaqt mobaynida sharq[illegible] tarix va falsafa tarixi sohasida qizg'in bahslarga sabab bo'lib [illegible]

[illegible] mualliflar, shuningdek, ayrim taniqli g'arb sharqshunoslari [illegible] yoki g'ayri ixtiyoriy tarzda Ibn Xaldun asarlarining asosiy [illegible] buzib ko'rsatgan holda buyuk arab mutaffakirini XIX - XX [illegible] ijtimoiy ta'limotining g'oyaviy o'tmishdoshi, fanatizm [illegible] mistitsizmning apologeti (maddohi) qilib ko'rsatishga [illegible]

[illegible] va asosan arab mamlakatlarining taraqqiyparvar olimlari Ibn Xaldun asarlarining tarixiy mazmunini ob'yektiv ravishda tahlil [illegible] uning ta'limoti diniy asarlar bilangina bog'liq emasligini, Ibn Xaldunning tarixiy taraqqiyot qonunlarining xarakteri haqidagi [illegible] ta'kidlovchi bir qator materialistik holatlarning mavjudligini [illegible]

Ibn Xaldunning tarixiy – ijtimoiy ta'limoti uning "Insonlar ijtimoiy [illegible] mohiyati" nomli asarida aks etadi. Bu asar "Muqaddima" [illegible] ataladi, unda Ibn Xaldun tarixchining vazifalari haqida [illegible] yozadi. Tarixchi "Siyosiy asarlar bilan tanish bo'lishi va ro'y [illegible] barcha voqea - hodisalarning mohiyatini, amaldagi huquqiy [illegible] o'zaro farqini, turli xalqlar, mamlakatlar va davrlar [illegible] xususiyatlari, turmush tarzi, mafkurasi va boshqa [illegible] bilishi lozim...". Tarixchi o'tmishni hozirgi kun bilan [illegible] bilishi, ularning o'xshash tomonlari hamda tafovutlarini [illegible] bilishi, bu o'xshashlik va tafovutlarning sabablarini topishi [illegible] va dinlarning kelib chiqishini bilishi zarur. Bir so'z bilan [illegible] tarixchi jamiyatda yuz berayotgan barcha voqea - hodisalarni [illegible] sabablarini tushuntirib berishi lozim. Ibn Xaldun tarix

fani haqida o'z fikrlarini mantiqan shakllantirar ekan, kishilik jamiyati tarixi, siyosiy va tabiiy fanlarni ajratib ko'rsatadi. Ibn Xaldun kishilik jamiyatining rivojlanish qonuniyatlarini nashr etishga intilib, bu bilan u "yangi fan" yaratganiga ishonar edi. Aslida u faqat bu fan asoslarini bilishga olib keluvchi yo'lni va bu yo'lning keyingi rivojini ko'rsatgan edi. Ibn Xaldunning bu maslahatlaridan uning safdoshlari va izdoshlari musulmon tarixchilari aytarli foydalanishmadi.

Tarixning bu sahifalarini batafsil yoritishdan maqsad Temurning Sharq tarixidagi juda murakkab o'rnini ta'kidlashdan iborat. Bundan tashqari, agar Chingizxon umrining oxirigacha mo'g'ul tilidan boshqa tilni bilmay o'tgan bo'lsa, Temur o'zining ona tili bo'lgan turk tilidan tashqari, forsiyni ham yaxshi bilgan va bu tilda olimlar bilan suhbatlar qurgan, o'z saroyida tez - tez bo'lib turadigan "qissaxonlik"lardan olgan tarixiy bilimlari bilan tarixchi Ibn Xaldunni ham hayratda qoldirishi turgan gap edi. Shuning uchun ham jahonda taniqli bo'lgan sharqshunos V.B.Bartol'd Temurni shunday ta'riflaydi: "U shaxmat o'yiniga qiziqar va bu sohada yuqori darajaga erishgan; islom dini ta'limotining negizlarini shu darajada yaxshi bilardiki, diniy munozaralarni kuzatib borishi va ularda bemalol ishtirok etishi mumkin bo'lgan. Bularning hammasi uning harbiy muvaffaqiyatlariga ham yordam bergan".

Tabiiyki, Temurning tarix sohasidagi bilimlari o'tmishdan misollar aytib uz jangchilarini ruhlantirishga yordam berar, mahalliy viloyatlarda olib boriladigan hamda lashkarlarga har qanday urushdan ham ko'proq o'lja beradigan qirg'in va talonchiliklar shar'iy yo'llar bilan oqlanardi. Shuning uchun ham ulkan harbiy kuchlar unga so'zsiz ishonar va o'ta sodiq edi. Temurning o'zi bosib olgan yurt aholisiga bo'lgan munosabati turlicha edi.

Temurning amri bilan ajoyib bog'lar yaratildi, muhtasham binolar qad ko'tardi (birgina Samarqandda bunday binolar 20 mingdan oshiq edi), shaharlar, qishloqlar obod qilindi, yo'llar tiklandi, sug'orish inshootlari barpo etildi. Sharafiddin Ali Yazdiyning aytishicha, u hosil ko'tarish mumkin bo'lgan biron bir yer bo'lagining behuda yotishiga yo'l qo'ymagan ekan. Uning yaratuvchilik faoliyati vayrongarchilik ishlari kabi kishini lol qoldiradi. O'rta Osiyodagi ko'plab ulug'vor me'morlik yodgorliklari Temur va uning avlodlari nomi bilan bog'liq. Shuni ham aytib o'tish kerakki, Temurning saroylari avom xalq kira olmaydigan qilib mustahkamlangan edi. Agar Samarqandning

[illegible]rg'on qal'asidagi Ko'ksaroy asosan xazina va davlat arxivi [illegible] bajargan bo'lsa, Samarqand atrofidagi bog'lar ("Sultoniya" [illegible] Dilkusho" dan tashqari, bular Temurning shaxsiy qarorgohi [illegible] Samarqand va tevarak-atrofdagi ahli, boyu-kambag'allar uchun [illegible] va dam olish maskani hisoblangan. Eng katta bog' [illegible]ht saroyining atrofini qurshab olgan edi (saroy xarobalari [illegible] saqlanib qolgan). Samarqand bilan Shaxrisabz oraligidagi [illegible] ham ana shu nomni olgan. Bu saroy 1398 yili bino etilgan edi. [illegible] ko'rsatmasi bilan faqat Movarounnahrda emas, balki zabt etilgan [illegible] ham keng miqyosda sugorish ishlari olib borilgan.

[illegible] o'z hukmronligining dastlabki yillarida mamlakat poytaxtini [illegible] ikkilangan edi. XIV asrning 70 - yillaridan Samarqand [illegible] siyosiy markaz tusini ola bordi va shu bilan shaharning yuksalishi [illegible] Sharqning savdo-iqtisodiy, hunarmandchilik, ilmiy-adabiy [illegible] aylandi. Hozirgi kunda bizgacha Temur va temuriylar [illegible] inshootlardan oz qismigina saqlanib qolgan, xolos, aksariyati [illegible] yo'qotilgan, ayrimlari vayronalarga aylangan. Masalan, [illegible] qal'asida (Tepaqo'rg'on) 1371-1372 yillarda o'sha davrning [illegible] kishilaridan biri bo'lgan so'fiy Nuriddin Basir yoki qutbi [illegible] uchun maqbara tiklangan edi. Bu obida 1868 yilning [illegible] qadar juda yaxshi saqlangan. Chor Rossiyasi Samarqandni [illegible] olgach, shu yilning iyun' oyidayoq Kaufmanning buyrug'i bilan [illegible] yodgorlik yer bilan yakson qilinadi. Shu tufayli ham bizga [illegible] me'morchilik durdonasining faqat tarixi va tasviri tarixchi rassom [illegible] chizgan surat lariga saqlanib qolgan, xolos. Hatto [illegible] ko'hna suratlar ham 1915 yilga kelibgina oshkor qilindi va [illegible] Turkistondagi rus ziyolilarigina ogoh bo'ldilar, xolos. Hozir [illegible] tarix va unda ko'rsatilgan o'lchovlar bo'yicha xulosa qilish [illegible], Qutbi Chahordohum maqrabasi olti burchakli mahobatli [illegible] bo'lgan bino ekanligini ko'ramiz. Uning devorlari sirlangan [illegible] bilan, peshtoqlari yozma naqshlar va gumbaz qubbalari feruza [illegible] bilan ziylatlangan edi.

[illegible] bir misol. Ulug'bek madrasasida uchta minora borligini hozir [illegible] biladi (aslida to'rtta bo'lishi kerak edi). Faqat Sovet hokimiyati [illegible] kelibgina ular vayron bo'lishdan va yo'qolib ketishdan saqlab [illegible]. Ana shu minoralardan biri, aniqrog'i Toshkent tarafdan hozirgi [illegible] ko'chasiga kiraverishda o'ng tomondagisi (madrasaning

shimoliy ravog'i) ham Kaufmanning buyrug'iga ko'ra Samarqand aholisini vahimaga solish hamda isyonni bostirish (madrasada isyonchilar markazi joylashgan edi) uchun zambarak o'qi bilan vayron qilingan. Bu qo'zg'olon aprel' oyida amir Muzaffarga qarshi ko'tarilgan bo'lib, keyinchalik rus Chorizmiga nisbatan davom ettirilgan edi. Temur va temuriylar tomonidan yaratilgan yodgorliklarning juda oz qismigina bizgacha yetib kelgan. Aksariyati yillar davomida o'z-o'zidan yemirilib borgan, ayrimlari esa hatto sovet hokimiyati yillarida ham kuch bilan yo'q qilingan. Xullas, ularning ko'p qismi vayronalarga aylangan bo'lsa-da, bu xarobalarda o'sha davrlar salobati, o'tmish ijodkorlari, binokor ustalarining o'y-fikrlari va ishlari aks etib qolgan.

XIV-XVI asr tarixchilari, shoirlari va faylasuflari keltirgan ma'lumotlardan, diplomatik yozishmalar hamda O'rta Osiyoda bo'lgan xorijiy elchilarning kundaliklaridan, rasmiy hujjat va arxeologik topilmalardan o'sha davrning ishlab chiqarish, fan va madaniyat darajasini belgilab olish mumkin1. Chunonchi, Fazlulloh ibn Ro'zbexon o'zining "Mehmonnomai Buxoro" asarida ip-gazlama, shoyi gazlamalar ishlab chiqarishning gullab-yashnaganligi haqida, Samarqand to'quvchilarining beqasam, chit, parcha, baxmal va hokazolar bo'yicha kichik ixtisoslarga bo'linganliklari haqida ma'lumot beradi.

Taniqli muarrix Zayniddin Vosifiy XV asr oxiridagi voqealarni bayon qilayotib, Abdurahmon Jomiy Samarqand gazlamalarini behad xush ko'rgan va liboslarini xam faqat shu gazlamalardan tiktirganligini eslab o'tadi. Jomiy kamtarona va sodda kiyinsa ham yil bo'yi o'zining odatdagi xarjlariga 100 ming dinor sarflardi, deb yozadi uning biografi Abulvosiy. Asarda bunday dalillar juda ko'p. Yozma hujjatlar hamda arxiv manbalaridan faqat bu hunar va sohalarning gullab-yashnaganini haqidagina emas, balki usta hunarmandlar va quruvchilar, muhandislar va me'morlarning ismlarini ham bilib olish mumkin. Masalan, Davlat Ermitajining madaniyat va san'at tarixi kollektsiyasida 1989 yilgacha ulkan doshqozon va Temur nomi bilan bitilgan shamdon bor edi. Temurning hadyasi ulkan doshqozon Turkiston shahriga qaytarilgan. O'rta Osiyo va Qozog'istondagi ulkan me'morchilik majmuasi Temur amri bilan bunyod etilgan, o'rta asrlarning buyuk shoiri va mutafakkiri Xo'ja Ahmad Yassaviy maqbarasining asosiy xonasidagi gumbaz ostiga o'rnatildi. Oshkoralik sharofati ila ko'p yillar mobaynida Leningrad Ermitajida saqlangan doshqozon Temurning tortig'i o'zining tarixiy

[illegible]iga qaytdi.

Ikki tonnali to'y qozoni olti asrcha burun "yetti xosiyatli metall [illegible]masidan ishlangan, turli shakllar va Qur'ondan olingan arabcha [illegible] bilan behad nafis bezatilgan, to'y qozonining yuqori diametri [illegible] yarim metrni tashkil etadi. Unda bir yo'la 1000 oshxo'rga yetarli palov damlash mumkin".

[illegible]shamdon xam juda muhim tarixiy dalil hisoblanadi. Uning tagligida [illegible] Izzatuddin ibn Tojiddin Isfaxoniy (1387 yil) ismi bitilganligini [illegible] Ibn Arabshoh va ispan elchisi Ryui Gonzales de Klavixo qayd [illegible] o'tishgan. Go'ri Amirga o'rnatilgan qandillar ham Samarqand [illegible]larining asaridir. Vosifiy Samarqandning ko'plab ziyoli kishilari [illegible] Mavlono Muhammad shishasoz, Hasan sangtaroshlarni ham [illegible] o'tadi. XV asr hujjatlarida hunar bilan bog'liq bozor va mahallalar [illegible] uchrab turadi: Sangtaroshon, So'zangaron, Taqi Zargaron va [illegible]

Temur hukmronligi davrida o'zga o'lkalardan keltirilgan ustalar [illegible]dagi Samarqand hunarmandlari safi ko'paydi. Temur o'zi zabt etgan [illegible]lardan mahalliy ustalarni olib ketar va ularni Movarounnahr [illegible]larga, asosan Samarqandga joylashtirardi. Temurning buyrug'iga [illegible] hunarmandlar va ustalar bilan bir qatorda Samarqandga qurilish [illegible]llari va ashyolari, hatto saroylar va qasrlardan buzib olingan [illegible] materiallari jo'natilardi. Bular qatoriga yana bir "Zafarnoma" [illegible] Nizomiddin Shomiy (1371 yilgi muvaffaqiyatsiz davlat [illegible] so'ng Temur davlati hududidan quvilgan) yozishicha, [illegible] yil O'zarbayjondan tashib keltirilgan oq Marmar saroy ham kiradi.

[illegible] Ali Yazdiyning yozishicha, Temur Samarqandga hu[illegible]chilik, me'morlik, fan va boshqa sohalarda foydasi tegishi [illegible] bo'lgan barchani olib kelaverishni buyurgan. "U turli kasbdagi [illegible]larni yig'ishga urindi", deb yozgan edi Klavixo. A.Yu. [illegible]ning ma'lumotiga ko'ra, Samarqandning ishlab chiqarish [illegible] oshirmoq maqsadida Temur bu yerga Oltin O'rda, Xuroson, [illegible]jon, Armaniston, Fors, Mesopotamiya va boshqa viloyatlardan [illegible] ravishda hunarmandlarni ko'chiradi. Tarixchilar XV asrda [illegible] aholisi etnik jihatdan rang-barangligini ta'kidlashgan.

Hunarmandlar Movarounnahr shaharlari aholisining shoirlari, qo'-[illegible]lari, musiqachilari, tarixchilari jam bo'lgan madaniy qatlamiga [illegible] Ular safida Samarqandning XV-XVI asrlardagi mutafakkirlari

sovun qaynatuvchilar guruhi boshlig'i shoir Javhariy, bichiqchi Mavlono Xavofiy, tikuvchi - hunarmand Mavlono Mir Arg'un Homadoz, Mavlono Qobuliy Gazfurush (kalava sotuvchi), Mavlono Tolei Kamardo'z (kamar tikuvchi), Bisotiy Samarqandiy (gilam to'quvchi usta) va boshqalar bor edi.

Temur harbiy yurishlar chog'ida jamg'argan boyligining katta qismini o'z poytaxti Samarqandni bezashga, yangi yo'llar va savdo rastalari qurishga sarfladi. Ibn Arabshohning guvohlik berishicha Temur "dunyo savdogarlar sharofati bilan royishdir" deb hisoblaydi va nafaqat ichki, balki tashqi savdoni ham rivojlantirishga urinadi. bunda u faqat Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari emas, boshqa ko'plab mamlakatlar, jumladan Ispaniya, Frantsiya, Angliya bilan savdo aloqalarini yaxshiladi. Bu o'rinda Samarqandning g'arbiy Yevropa mamlakatlari bilan tashqi savdo aloqalariga tarixiy - jo'g'rofiy jihatdan baho berish kerak.

XIV-XV asrlar chegarasida Temur shaxsi zamondoshlarining e'tiborini jalb qilibgina qolmasdan, balki Temurning diplomat sifatidagi faoliyati ham mutaxassislar nazariga tushdi. Tarixchilar Temurning g'arbiy Yevropa davlatlari rahbarlari bilan qilgan yozishmalari haqida salmoqli dalillarga egadir. Bizda Temurning hayoti va faoliyati haqida batafsil gapirishga va yozishga imkoniyat tug'ildi. Tarixshunoslik bu borada yetarli ma'lumotlarga ega. Ammo Temur davlatining sharq va g'arb mamlakatlari bilan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy o'zaro aloqalari tarixchilarimiz tomonidan kam o'rganilgan. Bu hol ayniqsa XV asrning boshi, Temurning Usmoniylar davlatiga qarshi g'arbiya yurishi, ya'ni "Yetti yillik" urushiga (1399-1404) tegishlidir.

XIV asr oxirida Turkiyaning harbiy qudrati osha bordi. 1389 yildan boshlab Turkiya Bolqon yarim oroli va Yevropa xalqlariga nisbatan bosqinchilik yurishlarini boshladi. U Serbiya, Volgariyani bosib oldi Vengriya (Majoristonga) tahdid qila boshladi. Sulton Urhon va Yeldirim Boyazid 1396 yili g'arbiy Yevropa ritsarlari ustidan g'alaba qozonib endi Konstantinopol (Stambul)ni olishga jon-jahdi bilan tayyorlanardi. Shuning uchun Vizantiya imperatori Manuil va uning noibi Ioann Paleolog yordam so'rab, Yevropa saroylarini aylanib chiqdi. Xalqaro miqyosda bu davr Yevropa uchun eng murakkab davr edi.

Ba'zi mamlakatlar turklar bilan sulh tuzib o'zlarini xavfdan qutqarmoqchi bo'lardilar. Boshqalari Rim otasi boshchiligida ittifoq

tuzib g'ayridinlarga qarshi kurashmoqchi edilar. Lekin tezda sharoit o'zgarib qoldi. Kichik Osiyoda ikki hukmdor Temur va Boyazid to'qnashdi. Xalqaro vaziyat Temur foydasiga edi. Boyazid tomonidan mahv etilgan Kichik Osiyolik amirlar Temur saroyida panoh topishgan va unga xizmat qilar, Boyazidning yengilishini tilar edilar. G'arbning nasroniy davlatlari: Vizantiya regenti (monarx o'rniga vaqtinchalik hukmdor) va Genuya hukmdori Galat, Frantsiya qiroli Karl VI, Sultoniya shahrining (Shimoliy Eron) katolik doiylari missionerlari Temurdan ko'mak so'rashdi. Temur esa o'z navbatida Venetsiya va Stambul Konstantinoiolning dengiz kuchlarini Usmoniylar davlatiga qarshi ishlatishdan manfaatdor edi.

Imperator Manuilning Stambul Konstantinololdagi noibi Ioann Paleolog Temurdan yuqoridagi taklif bitilgan maktub oldi. Konstantinopoldan Venetsiyaga keltirilgan bu xat bizgacha asl nusxasida emas, Italiya tarixchisi Marino Sanudo (XV-XVI asrlar) tomonidan birmuncha buzib qilingan tarjima holida yetib kelgan. Tarixchi Temur xatining tarjimasini o'zining "Venetsiya hukmdorlari hayoti" kitobiga kiritgan. Bu nodir hujjatning ruscha tarjimasi ilk bor taniqli sharqshunos olim I. I. Umnyakov tomonidan amalga oshirilgan. Matnning to'la tarjimasini u 1969 yili "Samarqand tarixi" kitobining I-jildida e'lop qilgan.

Mavjud hujjatlardan Temurning diplomatik qobiliyati xususida fikr yuritish mumkin. Qo'shinlari Kichik Osiyoda bo'lgan chog'i Temur turk sultoni Boyazid elchixonasi vakillari bilan muloqotdan [illegible]lanmasdan, bir vaqtning o'zida Frantsiya qiroli Karl VI (1380-1422) va ingliz qiroli Genrix IV Lankaster (1399-1413) bilan Boyazidga qarshi ittifoq tuzish rejasini amalga oshira bordi. Temurning Yevropa mamlakatlari hukmdorlari ila olib borgan yozishmalaridan ularning qudratli Usmonli imperiyasiga qarshi kurash borasida niyatlari bir niyatdan chiqqanligi ko'rinib turibdi.

Temur va Karl VI yozishmalari bilan birinchi bo'lib XIX asr boshlarida taniqli sharqshunos frantsuz Sil'vestr de Sasi shug'ullandi. Undan so'ng 100 yil davomida bu mavzuda maxsus tadqiqotlar paydo bo'lmadi.

1928 yili Bombayda Eron sharqshunosi Mirza Muhammadxon Qazviniyning maqolalar to'plami nashr etildi, unda bir maqola yuqoridagi maktubga bag'ishlangan bo'lib, forsiy - dariy tiliga tarjimasi ham keltirilgan edi. Maktubning o'rtasida va oxirida Temurning kichik

muhri qo'yilganligi uning haqiqiyligiga shubha tug'dirmaydi.

Parij Milliy kutubxonasida Temurning Karl VI ga yozgan bizga lotincha tarjimada yetib kelgan ikkinchi xati saqlanadi. Bu xatda xam xuddi birinchisiga o'xshab, 1402 yil 1 avgust sanasi bitilgan. O'nda Temurning Anqara jangidan so'ng Boyazid ustidan g'alaba qozongani haqida yoziladi. Ikkinchi maktubning asl nusxasi mavjudligi haqida Frantsiya arxivlarida ma'lumotlar yo'q. Xat avvalida quyidagi mazmunda bitik bor: "Bul maktub ulug' hukmdor Temurbekning farang qiroliga yo'llagan maktubining forsiydan lotin tiliga o'girilgan nusxasidir".

I. I. Umnyakovning fikricha, shunday bo'lishi ham mumkinki, bu maktubning forscha matni umuman bo'lmagan. Maktub Temur nomidan lotin tilida arxiepiskop Ioann tomonidan yozilgan va Frantsiyaga 1403 yili keltirilgan bo'lishi mumkin. Forsiydan lotin tiliga o'girishga esa 1403 yil may oyida Temur elchisining Ioann elchixonasi safida Parijga kelgani asos bo'lgan. Ma'lumki, u bu yerda tantanali ravishda quyidagilarni ma'lum qilgan:

1) Temurning Turkiya ustidan qozongan g'alabasi haqida xushxabar, Boyazidning hibsga olingani, u asir olgan nasroniylarning Temur tarafidan ozod etilgani va Temurning barcha nasroniylarga ozodlik berishni mo'ljallayotgani;

2) Frantsiya qirolligining ulug'vorligini ko'rmoq va Temur hokimiyatining shavkati haqida so'zlab bermoq.

"Faranglarning nomai a'moli" ma'lumotlarida yozilishicha, elchi quyidagilarni bayon qilgan:

birinchidan, ikkala mamlakat savdogarlari uchun ham erkin savdo ishlarini yuritish foydalidir (Temurning "Dunyo savdogarlar sharofati bilan royishdir" degan bosh aqidasini eslaylik);

ikkinchidan, qirol va gertsoglar rozi bo'lishsa, erkin savdoni maxsus shartnoma yoki bitim bilan tasdiqlash mumkin. Shu xronikada yozilishicha, katolik pastor ko'plarga Temur hayotining o'ziga xos tomonlarini va o'zi Temur haqida frantsuz tilida asar bitganini gapirib bergan. Shu tariqa Yevropada Temur haqida xotiralar paydo bo'lgan.

Sovet tarixchilari bugungi kunda farang qiroli Karl VI ning Temurga maktubi tarjimasi bilan tanishtirlar. Maktub shunisi bilan qimmatliki, Karl VI ning Temurga bitgan xati bizgacha saqlanib qolgan yagona hujjatdir, ularning bundan avvalgi yozishmalari bizga yetib kelmagan.

bu matnning nusxasi esa Parij Milliy kutubxonasida saqlanadi. Karl VI ning amir Temurga Anqarada Turkiyani mag'lub etgani uchun minnatdorchilik bildirishiga ko'p asoslari bor edi.

Temurning ikki xati 1 avgust 1402 yil va 15 iyun 1403 yil sanalariga ega.

Sharqhunoslarning fikricha, Angliya bilan Sharq aloqalari juda kam o'rganilgan, chunki inglizlar o'rta asrlarda Sharqni o'rganishda qatnashmadilar, agar ingliz ritsari Jon Mandevilning 1332-1372 yillar qilgan fantastik xabarlarini e'tiborga olmasak, Temur davridagina inglizlar uning davlati bilan diplomatik aloqalar o'rnatishga dastlabki muvaffaqiyatsiz qadamini qo'yadi. Shuni ham qayd etib o'tish joizki, Angliya va Frantsiya o'rtasidagi 1396 yilgi (yoki 1386 y.) omonat sulh 1404 yili yana buzildi va ular o'rtasida yana harbiy harakatlar boshlandi. Shuning uchun Angliya singari, Frantsiya ham Temur va Temurzodalar kuchi va qudratidan o'z manfaatlari yo'lida foydalanishga urindilar.

Vatikan vakili Sultoniya arxiepiskopi Ioann Angliyaning Mironshoh (Temurning o'g'li, ulkan Temur davlatining g'arbiy viloyatlari hukmdori) bilan yaqinlashuviga faol ko'maklashdi. Sobiq Xulagu xonligi yoki mo'g'ullar davlati Bag'dod va Eron, Kavkazorti, Tabriz va Sultoniyani o'z ichiga qamrab olgan edi. Temurning tirik qolgan farzandlarining to'ng'ichi sifatida Mironshoh g'arb hukmdorlarining diqqat markazida bo'ldi, u "katolik e'tiqodi homiysi" degan nom oldi va ochiqdan-ochiq g'arb bilan yaqinlashishga urina boshladi. U nasroniy savdogarlari va shuningdek missionerlariga yaxshi ko'z bilan qaradi va Angliya qiroli Genrix IV bilan shartnoma tuzishga tayyorligini bildirdi. Bu haqda Genrix IV ning Mironshohga javob maktubidan bilib olsa bo'ladi.

Parijdagi Milliy kutubxonada Mironshoh nomidan lotin tilida bitilgan hujjat saqlangan. Hujjatni tahlil etgan professor I.I.Umnyakov quyidagi xulosalarni chaqiradi:

1. Forsiydan lotin tiliga o'girishda arxiepiskop Ioann muharrirlik qilgan, shuning uchun maktubning asl nusxasi uning arxivida saqlangan bo'lishi mumkin. Shunday bo'lishi ham mumkinki, Ioann tarjimon sifatida xatga o'z o'zgartirishlari va to'ldirishlarini kiritgan bo'lishi mumkin.

Sana masalasi bahsli bo'lib qolmoqda. Maktub Ioann fikricha, 1403 yil 22 may - 21 iyun' o'rtasida: Sil'vestr de Sasi fikricha esa, 1402 yilning iyunida yozilgan. I.I.Umnyakov fikricha, bu o'rinda Anqara

ostonasida turklarning mag'lub etilishi ko'zda tutilmoqda. Temurning Mironshoh bilan janjali sanasini aytish mushkul. Faqat Sharafuddin Ali Yazdiy asaridangina 1399 yilgi g'arbga yurish asosan Mironshohning harakatlari bilan bog'langanligini bilish mumkin.

Temurning Misr sultonini, so'ng 1402 yil Anqara jangida qudratli Usmon imperiyasini tor-mor etgani aslini olganda g'arbiy Yevropa xalqlarini qullikdan asrab qoldiki, bu hol g'arbda Sharqqa nisbatan qiziqish uyg'otdi. G'arb olis Sharqqa o'z elchilarini yo'llarkan, o'zlarining doimiy maqsadlarini unutmadilar, ya'ni elchilar hamma joyda kuzatib yurishlari, ishlarning borishi, xalq ahvoli to'g'risida, savdo, hunarmandchilik, kosiblik haqida ma'lumotlar to'plashi, o'z mamlakati uchun foydali biron yumush qilishlari lozim edi va hokazo. Ular kundalik yuritardilar. qaytganlaridan so'ng esa barcha ko'rganlari haqida batafsil hisobot yozardilar. Buning yaqqol misoli 1403 yil Temur saroyida bo'lgan Ispaniya elchisi Klavixoning kundaligidir. Klavixo kundaligi birinchi marta 1582 yil Seviyada "Buyuk Temurlangning hayoti va faoliyati" nomi bilan nashr etildi. U Madridda 1782 yili qayta nashr etildi Sreznevskiy nashrining asosi bo'lib 1582 yilgi nashr xizmat qildi Ingliz sharqshunosi Strondj "Kundalik"ni Sreznevskiy nashriga suyanib, ingliz tiliga tarjima qildi va 1928 yil nashr etdi. 1943 yili Klavixo kundaligining yangi Madriddagi nashrini F.Lopez amalga oshirdi. Nashr asosiga u XV asr qo'lyozmasini oldi, lekin u asar matnini chuqur adabiy - ilmiy tekshiruvdan o'tkazdi va kundalikni Temur davlatidagi Klavixo elchixonasi haqidagi tarixiy ma'lumotlar bilan to'ldirdi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, XV - XX asr tarixchilari va adabiyotchilarining ko'plab asarlari Temurning shaxsi va faoliyatiga bag'ishlangan. V.V.Bartol'd ta'kidlaganidek, Temur davri tadqiqotchisi "Ma'lumotlarning kamligidan emas, ko'pligidai qiynaladi. Chunki ular ko'plab kutubxonalarga sochilib ketgan, ular avvalo tanqidiy nuqtai nazardan qarab chiqishni va nashr etishni taqozo etadi". V.V.Bartol'dning bu fikri hozir ham o'z kuchini saqlamoqda.

114

2. Nizomiddin Shomiy va Sarafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asari va uning tarixshunoslikdagi ahamiyati

Temur haqida birinchi rasmiy tarix u hayotligida Nizomiddin Shomiy tomonidan tuzilgan bo'lib, uning nomi ham "Zafarnoma" (G'alabalar kitobi) edi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, bu majmua Temurning rasmiy tarixi bo'lsada, Nizomiddin Shomiy uni saroydan olisda yozgani uchun bizning fikrimizcha, dalillar va tarixiy jarayonlar bayonida birmuncha xolislik bor. Nizomiddin Shomiy va Sharafiddin Ali Yazdiy kitoblari mustaqil asarlar bo'lsada, ular bir-birlarini to'ldiradilar va XIV asr oxiri, XV asr boshlarida O'rta Osiyo xalqlarinnng tarixini chuqurroq o'rganish imkonini beradilar. Nizomiddin Shomiy kitobi Yevropada 1937 va 1956 yillari nashr etilgan bo'lsa, Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma"si Sovet O'zbekistoni tarixchilari va sharqshunoslarining katta mehnatlari tufayli 1972 yili YUNESKOning qarori bilan Temuriylar davri san'ati tarixi masalalariga bag'ishlangan xalqaro simpoziumga bag'ishlab nashr etildi.

O'zbek klassik adabiyotining asoschisi Alisher Navoiy Sharafiddin Ali Yazdiy haqida uning komilligi jumlai jahon tomonidan e'tibor etilgan, deb yozgan. Sharafiddin Ali Yazdiy Yazddan uncha uzoq bo'lmagan Taft shahrida (Eron) tug'ilgan. 1415-1435 yillari Shohruhning o'g'li Ulug'bekning akasi Ibrohim Sulton xizmatida bo'lgan. Ibrohim Sulton Sharafiddin Yazdiyga "Zafarnoma"ni yozishda homiylik qilgan. Ibrohim Sulton vafotidan so'ng (838 hijriy - 1435 melodiy) "Zafarnoma" muallifi Shohruh nabirasi, hijriy 846, milodiy 1443 yilda Sultoniya, Qazvin, Ray va Qum hokimi bo'lgan Mirzo Muhammad Sulton tomonidan saroyga taklif etilgan. Abdurazzoq Samarqandiy Temuriylar davri tarixiy vaziyatini ko'rsatish uchun muallif quyidagi tarixiy dalilni keltiradi: 1445 - 1446 yillari Shohruhning o'g'li Muhammad Sulton hokimiyatni egallash uchun o'z otasiga qarshi isyon ko'taradi. Uning isyon hamkorlari safida Sharafiddin Ali Yazdiy va Mirzo Ulug'bekning kichik o'g'li Abdullatif bor edi. Muvaffaqiyatsiz isyondan so'ng Muhammad Sultonning ittifoqdoshi, Shohruhning nabirasi Mirzo Sulton Sharafiddin Ali Yazdiyni o'z himoyasiga oladi va Hirotga olib keldi, aftidan Sharafiddin Ali Yazdiyga jahonga taniqli mutafakkir Abdurahmon Jomiyning homiyligi seziladi. Sharafiddin Ali kabi Jomiy ham, o'zini mashhur mutafakkir va tasavvufning ma'naviy

115

otasi Muhammad Porsoning shogirdi hisoblar, shuning uchun ular bir biri bilan uchrashganda shoir ulug' tarixchining hayotga va o'limga so'fiylik nuqtayi nazarini bilishga qiziqqan. Shuni ham ma'lum etib o'tish kerakki, Abdurahmon Jomiy bir necha yil o'tgach, Ulug'bek madrasasida bosh mudarris bo'lgan chog'lari "Muammoi Kabir" kitobini boshlaydi va 1451 - 1452 yillari tugatadi. Abduraxmon Jomiyning biz qo'lga kiritgan asari qo'lyozmasi ikki mustaqil asardan iborat: birinchi asar asosan so'fizm ta'limoti asoschilaridan Muhammad Porso g'oyalariga bag'ishlangan "Muammoi Kabir"ning ikkinchi qismi esa Sharafiddin Ali Yazdiyning asariga javob tariqasida yozilgan Muammo janri adabiy-tarixiy olamda yangi oqim edi, u XV - XVI asrlarda hokimlar va mutafakkirlarining diplomatik aloqa vositasida kirib kelgan. Sharafiddin Ali Yazdiy muammo janrining asoschilaridan biridir, u janrning keyingi ijodkorlari Abduraxmon Jomiy, A.Navoiy va Vasifiy hisoblanadi.

Shunday qilib, Shohrux vafotidan so'ng (hijriy 850, milodiy 1447), ehtimol Abduraxmon Jomiy Hirotga qaytganidan so'ng (1452 yil), ularning uchrashuvi yuz bergan bo'lishi mumkin. Jomiyning biograh Kamoliddin Abdul-Vose' an Nizomiy shu haqda yozgan.

Sharafiddin Ali uning Vatani Taft (Tafti Yazd)ga qaytishi xususidagi bahslarga kelsak, manbalarga qaraganda, u buyuk tarixchi umrining oxirigacha shu yerdagi xonaqohda yashadi. Bu haqda Abdurazzoq Samarqandiy xabar beradi. 1452 yilning avgustida Abdurazzoq Samarqandiy Iroqdan Xurosonga o'tayotib Tafti Yazdda bo'ldi. Shu yerda Sharafiddin Ali bilan uning xonaqohida uzoq suhbatlashdi. Abdurazzoq Samarqandiyning bu xabarini buyuk o'zbek shoiri Alisher Navoiy tasdiqlaydi. Shunday qilib, Sharafiddin Ali (1454 yil) Yazdda vafot etdi va o'sha yerda dafn etildi.

"Zafarnoma" O'rta Osiyo xalqlarining nodir madaniy obidasidirki u faqat O'rta Osiyoning emas, butun Sharq mamlakatlari tarixi manbai, shuning uchun u hozirda ham sharqshunos tadqiqotchilarning diqqatini o'ziga jalb qilmoqda va o'ziga xosligi, to'plangan materiallarning haqqoniyligi bilan ko'rsatilgan davr tarixiy manbalari ichida alohida o'rin tutadi. Gap shundaki, "Zafarnoma" tuzilishiga ko'ra ikki qismga bo'linadi:

1) Muqaddima, u Temur shajarasiga bag'ishlangan, unda turk urug'lari va Chingizxonning to'rt ulusi haqida umumiy ma'lumotlar

beriladi, umuman, bular yuqorida sanab o'tilgan asarlarda batafsil bayon qilingan (Masalan, Rashididdin, "Jome' at-tavorix", Juvayniy, "Tarixi jahonkushan" va boshqalar).

2) Asosiy qism (Temurning o'z tarixi). Muallif ma'lumotidan ko'rinadiki, bu tarixiy asar Sharafiddin Alini saroyiga taklif qilgan Shohruhning o'g'li Ibrohim Sulton tashabbusi bilan yozilgan. Shoh o'zining bobosi haqida maxsus kitob yaratishni istadi va u (1419 - 1420 yy.) sohibqiron Temur haqida ma'lumotlar to'plash haqida farmon berdi.

Muqaddimada bu jarayon quyidagicha tasvirlangan. To'plangan ma'lumotlar shohidlarning og'zaki hikoyalari bilan taqqoslangan, so'ng Sharafiddin Ali Yazdiy bu ma'lumotlar bilan tanishib chiqib, Ibrohim Sultonga ular haqida fikrini aytgan, shundan so'ng u "Zafarnoma" kitobini yozishga kirishgan. Muallif to'plangan ma'lumotlarni uch guruhga bo'ladi: voqealar shohidlarining hikoyalari, ikkinchi va uchinchi — qo'shiqchilar turi va fors manbalarining bilimdonlari. Barcha sanalar, ... jug'rofiy koordinatlar va ular orasidagi masofalar Ibrohim Sulton farmoniga ko'ra har tomonlama tekshiruvdan o'tkazilib, so'ng Sharafiddin Ali Yazdiyga beriladi. Bunda muallifga ko'rsatma berilgandiki, birinchidan, badiiy nafosatli hamda tushunarli tilda bitilgan kitob bo'lsin, ikkinchidan, muallif hujjatga qat'iy amal qilmog'i, dastlabki bitiklardan chekinmasligi, hech narsani bo'yab - bejamasligi shart edi. Shu yo'sinda Temurning keng miqyosda rasmiy tarixi dunyoga keldi. "Zafarnoma"ning boshlanishi (1419 y) va tugatilishi (1424 – 1425 yy) haqida Ali Yazdiy hamda zamondoshlari tomonidan berilgan ma'lumotlar bor. Lekin bahs boshqa mavzuda: Muallif asar ustida ishlashni davom ettirganmi, axir 1454 yilgacha yahagan-ku? Ha, muallif asar ustida ishlashni davom ettirgan. Bu haqda quyidagi ma'lumot bor:

"Sohibqiron oliy hazratlarining "Zafarnoma"siga Muqaddima muqaddas ramazon oyining 21-sanasida 1038 yili xudo panohida Samarqand shahrida bitildi, Tangri uni kulfat va g'amlardan saqlasin!" Gap bu yerda O'zSSR FA fondida saqlanayotgan "Zafarnoma"ga Muqaddima haqida bormoqda. Bugungi kunda Sharq tarixshunoslariga "Zafarnoma"ning 1436 - 1437 yillar sanasi bilan bitilgan qo'lyozmasi ma'lum. Demak, 840 yilda "Zafarnoma"ning bir necha qo'lyozmasi bo'lgan. Asarning 1972 yil Toshkentda e'lon qilingan faksimil nashri ana shu qo'lyozmalardan

biri hisoblanadi. Ehtimol u boshqa nusxalarning asli bo'lgandir, bu haqda keyinroq fikr yuritamiz. Endi Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asari yuzasidan keyingi yillarda olib borgan ishi haqidagi fikrimizni davom ettiramiz. Masalan, bu asarning muallifini yaxshi bilgan Abdurazzoq Samarqandiyning yozishicha, "Zafarnoma" 1424 – 1425 yillar tugallangan, ammo muallif "Zafarnoma"ni to'ldirish uchun 1427 - 1428 yillardan keyin ham ma'lumot to'plashda davom etgan. Abdurazzoq Samarqandiyning bu fikriga suyangan o'zbek sharqshunosi Asomiddin O'rinboev "Zafarnoma"ning 1972 yilgi nashrini tayyorlash chog'ida, Sharafiddin Ali Yazdiy tomonidan asarning ikkinchi (Shohruh tarixi) va uchinchi (Ibrohim Sulton tarixi) qismlarini yozgan, degan taxminni ilgari suradi va bu haqda kitob so'zboshisida yozadi. Lekin A.O'rinboev aytganiday "Zafarnoma"ning bu ikki qismi topilmagan. Shohruh va uning o'g'li Ulug'bekning tarixi bitilgan "Zafarnoma"ning davomini esa Toj Salmoniy yozgan. "Zafarnoma"ning Toshkentda 1972 yilda nashr etilgan nusxasining topilish tarixiga qaytamiz. O'zSSR FA ShI ilmiy xodimi A.Nosirov ushbu "Zafarnoma" qo'lyozmasi Qo'qon xoni Xudoyorxonning (1845 – 1866 yy.) kutubxonasida saqlanganini yozadi. Chor Rossiyasi tomonidan Qo'qon xonligi mag'lub etilgach, bu qo'lyozma xususiy qo'llarga o'tgan va Toshkent shahrining Sebzor dahasi qozisi Muhiddin Hoji qo'liga kelib tushgan.

1897 yilda Rossiya imperiyasi birinchi marotaba "buyuk davlat" sifatida Parijdagi xalqaro ko'rgazmada ulkan Rossiyaning chekka o'lkalaridan keltirilgan eksponatlari bilan qatnashdi. Ko'rgazma zallaridan biri O'rta Osiyo xalqlarining tarixi, tabiiy-jug'rofiy mavqeiga bag'ishlangan edi. Chunonchi, bu yerda birinchi marotaba hamyurtimiz Mirzo Barat tomonidan tayyorlangan Samarqanddagi "Registon" ansambli maketi namoyish qilindi. O'rta Osiyo zalida "Zafarnoma"ning yuqoridagi nusxasi ham Muhiddin Hojining shaxsiy kollektsiyasidan olib ko'rsatildi. Bu asar va uning badiiy qimmati haqidagi birinchi xabar (bezalishi, husnixati, oltin va bo'yoqlarda ajoyib ishlanganligi), 12 miniatyuraning o'ziga xosligi, matndagi mazmunning naqshin hoshiyali sahifalarda berilishi, 1899 yil Turkiston arxeologiya ishqibozlari to'garagida N.G.Mallitskiy tomonidan amalga oshirildi. Bu xabar V.V.Bartol'dni qiziqtirib qoldi. U 1902 yil Turkistonga "mavjud qo'lyozmalarni tekshirish" uchun kelgan edi. So'ng u 1904 yilgi safari haqida hisobotida bu qo'lyozma marhum Muhiddin Hojiga tegishli

...kanini yozgan edi. 1890-yillardayoq bu qo'lyozma bilan professor A.A.Semyonov tanishgan va bu haqda o'zining "XVII asr boshlaridagi Samarqand qo'lyozmasi Sharafiddin Ali Yazdiy "Zafarnomasi miniatyuralari" asarida faxr bilan eslatib o'tgan edi.

Muhiddin Hoji vafotidan so'ng (1902 yil) bu tarixiy hujjatning qismati ko'p vaqtgacha noma'lum bo'lib qoldi. Ammo shuni ta'kidlab o'tish kerakki, sharqshunos A.Nosirov "Zafarnoma" tavsifi uchun qisqa qaydlarida yangi topilgan "Zafarnoma"ning Navoiy nomli O'zSSR Davlat kutubxonasiga qaysi yili dalolatnoma bilan qabul qilingani xususida xatoga yo'l qo'ygan.

40 - yillarning oxirida O'zSSR Davlat kutubxonasining direktori A.A.Semyonov, uning o'rinbosari A.Po'lotiy edi. Po'lotiyning guvohlik berishicha, 1942 yil qishida u Eski shaharning kolxoz bozorida (Eski Jo'va) paranjili ayol qo'lida tasodifan bir kitob ko'rib qoladi, ayol kitobni sotish, oilasini ochlikdan asrab qolish uchun chiqqan ekan. A.Po'lotiyning yordami bilan qo'lyozma uning tannarxini aniqlash uchun professor Semyonovga berilganda, u kitob bebaholigini aytadi. Shunday qilib, kutubxona sotib olgan "Zafarnoma" qo'lyozmasi 1943 yilda Davlat kutubxonasining sharqshunoslik qo'lyozmalari bo'limi negizida O'zSSR FA ning Sharq qo'lyozmalarini o'rganish ilmgohi tashkil etilgach, shu ilmgohning mulkiga aylandi. "Zafarnoma"ning ilmiy tavsifi "O'zSSR FA Sharq qo'lyozmalari to'plami" katalogining VIII jildida bosilib chiqdi (1967 y).

Tarixiy haqiqat nuqtai nazaridan qarasak, rasmiy ohangda yozilishiga qaramay, Sharafiddin Ali Yazdiy "Zafarnoma"sida Temur faoliyatini va uning ziddiyatli shaxsini mustabid shoh va Movarounnahrda markazlashgan buyuk feodal davlati bunyodkorini birmuncha odillik bilan yoritadi.

Sharafiddin Ali Yazdiy asari qo'lyozma holida keng tarqalib ketgan, chunki asar uning zamondoshlari va keyingi asr tarixchilari uchun ham tarixiy manba bo'lib xizmat qildi. Sharafiddin Ali Yazdiyning tarixiy voqealarni bayon etish uslubi, ohangi ko'p paytgacha o'lkashunoslar, tarixchilar uchun namuna bo'lib xizmat qildi. Masalan, XVI asrning mashhur tarixchilari, Mirxond ("Ravzatu s-Safo"), "Safo-farog'at kitobi", Xondamir ("Habibu-s-siyar"-"Do'stlar atroblari") va boshqalar ham Sharafiddin Alining "Zafarnoma"siga suyanib ish ko'rdilar. XV va XVI asrlardayoq "Zafarnoma"ning g'oyasi va mazmuni Lutfiyni (1492

yilda vafot etgan) o'zbekcha g'azallar bitishga ilhomlantirgan bo'lsa, mashhur shoir Abdurahmon Jomiyning shogirdi va jiyani Xotifiyga (1521 yilda vafot etgan) tojikcha-forscha she'rlar yozishga turtki bergan. Xotifiy o'z asarini "Temurnoma" deb atadi. Ikkinchi nasriy tarjima o'zbek tiliga O'rta Osiyo mutafakkiri, XVI asrning qomusiy olimi Muhammad Ali ibn Darvish Ali Buxoriy tomonidan dastlabki Shayboniylardan Ko'chkunchixon (1510 – 1530 yy.) topshirig'iga ko'ra amalga oshirilgan. 1822-1823 yillari esa "Zafarnoma"ni Xiva shoiri Xudoyberdi ibn Qo'shmuhammad So'fi al - Xevaqiy o'zbek tiliga qisqartirib tarjima qildi. Adabiyotda 1842 yil Hofiz Muhammad ibn Ahmad al-Ajamiy "Zafarnoma"ni turk tiliga tarjima qilgan, degan ma'lumot uchraydi.

"Zafarnoma" 1723 yilda frantsuz va ingliz tillarida qisqartirilgan holida nashr etilgan. Rus sharqshunosi A.Krimskiy ma'lumotiga ko'ra, Italiya sharqshunosi Bradutti "Zafarnoma"ni ital'yan tiliga tarjima qilgan, shuningdek, asarning Temurning Oltin O'rdaga qilgan yurishi haqidagi o'rinlarining ruscha tarjimasi ham bor. Bu parchalar 1936 yil Sharlua tomonidan forscha asl matnda va frantsuzcha tarjimasi nashr etilgan.

Temurning Hindistonga yurishi tafsiloti XIX asrda ikki bor tarjima qilingan. Nihoyat, Turkiston va Oltin O'rda tarixi bilan bog'liq katta - katta ma'lumotlar mamlakatimizda 1939 yilda fors tilidan rus tiliga tarjima qilingan. O'rta Osiyo tarixshunosligining durdonasi - "Zafarnoma" jahon tarixchilarining tadqiqot manbai bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi. Chunonchi, 1887 - 1888 yillari hind sharqshunosi Mavlaviy Ilohdon tashabbusiga ko'ra olti nusxa asosida "Zafarnoma"ning ikki jildligi Kal'kuttada nashr etildi.

1958 yilda Muhammad Abbosiy tomonidan uch qo'lyozma va yuqorida zikr etilgan Kal'kutta nashri asosida Tehronda yangi nashr paydo bo'ldi. Abbosiy foydalangan qo'lyozmalarning ikkitasi muallif hayotligidagi nusxalardir: biri sanasiz, Muhammad Abbosiyning shaxsiy mulki, ikkinchisi Majlis kutubxonasida, (36782-son, ko'chirish sanasi 1436 yil), uchinchisi yana Majlis kutubxonasida bo'lib, 36773-son, 1637 - 1638 yillari ko'chirilgan.

Demak, A.O'rinboevning haqqoniy ko'rsatishicha, "Zafarnoma"ning frantsuz va ingliz tiliga tarjima qilgan tarjimonlar, shu kungacha bibliografik noyob bo'lsa-da, asarning beshdan bir qismini tashkil etgan

muqaddima qismi tarjimasini tushirib qoldirganlar. Asarning Kal'kutta va Tehronda nashr qilingan nusxalarida Muqaddima qismi yo'q. Shuning uchun A.O'rinboev tomonidan faksimal nusxa, kirish so'zi, izoh va ko'rsatmalar bilan tayyorlangan "Zafarnoma" matni asarning eng yaxshi nusxalarini o'zida jamlagandir. Shubhasiz, "Zafarnoma"ning mazkur nashri O'rta Osiyo xalqlarining XIV asr - oxiri XV asr boshlaridagi hayotini o'rganishda tarixchilarga yaqindan yordam beradi.

Ko'rilayotgan davr ichida O'rta Osiyo xalqlari madaniy hayoti murakkab va mashaqqatli yo'lni bosib o'tdi. O'zaro qirg'inbarot urushlar, tez - tez bo'lib turadigan chet el bosqinchilarining talon - tarojlari ba'zida xalqning asrlar bo'yi yaratgan ma'naviy va moddiy madaniyati boyliklarini bir uyum xaroba va kulga aylantirar, faqat mo'jiza bilan saqlanib qolgan urug'largina madaniyatning yangi nihollarini yetishtirardi. Xalqning fidoyi o'g'il - qizlari ularni sevib parvarishlar, shogirdlar va o'rinbosarlar tayyorlashar, o'zlaridan oldin o'tgan ajdodlarning an'analarini davom ettirar edilar. Temur o'limidan keyin ham shunday bo'ldi. Temurning ulkan feodal davlati qilich va qilich itoatida edi. Xalq ommasi esa feodallarning jabr - zulmi ostida edilardi.

3. Ulug'bek xayoti va faoliyatiga oid O'rta Osiyo tarixshunosligi

Temur vafotidan so'ng (1405 yil 5 fevral) hokimiyat uchun kurash boshlanadi va to'rt yildan so'ng Temurning o'g'li Shohruh bu kurashda g'olib chiqadi. U otasi idora qilgan hokimiyatni ikki ismga bo'ldi: Markazi Hirotda bo'lgan, o'zi boshqargan Xuroson davlati va markazi Samarqandda bo'lgan, o'g'li Ulug'bek boshqargan Movarounnahr davlati.

Temurning nabirasi, Shohruhning to'ng'ich o'g'li Ulug'bek 1394 yil 22 martda Sultoniya shahrida, Shohruhning 17 yashar xotini Gavharshodbegimdan tug'ildi. Gavharshodning otasi Chig'atoy zodagonlari vakili G'iyosiddin Tarxon edi. Temur vafotidan so'ng Shohruhning xotini erining hukmronlik yillarida muhim rol' o'ynadi. Yangi tug'ilgan chaqaloqqa Muhammad Tarag'ay nomi berildi. Lekin hali Temur hayotligi davridayoq uni Ulug'bek deb atashardi.

1404 yil kuzida "Yetti yillik" yurishdan qaytgan Amir Temur

o'z g'alabalariga qo'shib, 9 yoshdan 17 yoshgacha bo'lgan beshta nabirasining to'yini xam qo'shib o'tkazdi. Ular safida o'n yoshli Ulug'bek xam bor edi. Uning qallig'i, amakisi Muhammad Sultonning (uning sharafiga Go'ri Amir maqbarasi qurilgan) qizi Og'abegim (yoki Og'abeka) edi, u ham keyinchalik Go'ri Amir xilxonalarining biriga dafn qilingan. Ulug'bek 15 - 16 yoshida, 1409 yilda otasi Shohruh tomonidan Movarounnahr hokimi etib tayinlandi. Ikki yildan keyin 1411 yili 17 yoshli Ulug'bek shimoli - g'arbiy Amudaryodan Sig'noqgacha shimoli - sharqda esa Ashpara (Isfara) gacha bo'lgan ulkan muzofotning hukmdoriga aylandi. Hokimiyat jilovi Shohrux qo'lida bo'lsada, zamondoshlari Ulug'bekni itoatdagi shoh deb bilmasdilar.

Ulugbekning harbiy siyosati shu bilan ajralib turardiki, u doimo urush ochmas, zaruriyat tug'ilib qolganda, jangari qo'shnilar tomonidan xavf tug'ilganida urushga kirardi. Masalan, 1414 yilda Ulug'bek Farg'ona shahzodasi sulton Ahmadga qarshi muvaffaqiyatli urush olib bordi. Farg'ona, keyin Qoshg'ar Movarounnahrga qo'shib olindi. Mo'g'ulistonning kuchayib borayotgan xonlari Ulug'bekka tahdid solib turishardi. Avvaliga Ulug'bek ularni itoatda tutdi, lekin tezda ular bo'ysunmasdan qo'ydilar. Chunonchi, 1423 yilgi yurish vaqtida Ulug'bek Chu daryosiga yetib keldi va 1425 yilning bahorida Ketmontepa jangida uning qo'shini Sher Muhammadxon ustidan g'olib chiqdi. Boshqa boyliklar qatori Ulug'bek ikki bo'lak nefrit yasama toshni ham o'lja oldi. Ular shunchalik og'ir ediki, Samarqandga yuborish uchun maxsus yuk ko'targich qilishga to'g'ri keldi. Keyinchalik Ulug'bek hukmiga ko'ra ulardan Temurga qabrtoshi tayyorlandi. 1425 yilgi zafarli yurish sharafiga Ulug'bek Ilon o'ti degan yerdagi Jalol ota devonidagi tog' qoyasiga bitik bitishni buyurdi. Unda shunday so'zlar yozilgan: "Ulug' tangrining qo'llab-quvvatlashi birlan ulug' sulton, jamiy podshohlar hukmdori, Tangrining yerdagi soyasi, islom dinining tug'dori, din homiysi Mu'iniddin Ulug'bek Ko'rag'on, Tangri oning saltanatini poydor qilsun, Jete va Mo'g'ulistonga yurish vaqtida ushbu yerdan o'tg'on. Hijriy, 828 yil".

U bizning davrimizgacha saqlanib qolgan. Boshqa siyosatga nisbatan ham ko'proq ichki siyosatda Ulug'bek o'zining bobosiga taqlid qilardi. Agar Shohruhni musulmonlar shohi deb atashgan bo'lsa, Ulug'bek aksincha, ruhoniylar bilan unchalik chiqishmadi.

XV asr boshlarida tuzilgan, O'rta Osiyo darveshlarining tarixiga oid

[illegible] asarida darveshlarning ularga dushmanona munosabatda [illegible] doyr misollar ko'p uchraydi. Hatto Buxoro darveshlarining [illegible] Abdurahmon Jomiyning ma'naviy padari Muhammad Porso [illegible] ittifoqdosh bo'lsa-da, bora-bora shohning nazaridan [illegible]. Ulug'bek davrida O'rta Osiyo tarixini batafsil yozib [illegible] V.V.Bartol'd quyidagi voqeani keltiradi. Samarqandga [illegible] Muhammad ibn Muhammad al-Jazoiriy (2 dekabr' 1429 [illegible] vafot etgan) ruhoniylar ishlatayotgan hadislarning chin [illegible] tekshirish uchun keladi. U bilan bahsda ishtirok etish [illegible] bek Muhammad Porsoni taklif etadi va kimning nomidan [illegible] berishini so'raydi. Sinov Shayxulislom Isomiddin va [illegible] va muhaddislar ishtirokida o'tkaziladi. Muhammad Porso [illegible] aytilgan bir necha oyatlar ishtirok etuvchilar tomonidan shubha [illegible], Muhammad Porso Shayxulislom kutubxonasidan [illegible] ham e'tirof etgan kitoblardan birini keltirishni buyuradi. [illegible] qaysi javonda-yu, zarur hadis qaysi sahifada ekanini aytib [illegible] holbuki u Shayxulislom kutubxonasida avvallari sira bo'lmagan [illegible] Muhammad Porso boshqa paytlar ham o'z ilmining bilimdoni [illegible] namoyish etgan edi.

[illegible] adabiyotlarda Ulug'bekning Xoja Ahror bilan munosabati [illegible] Xoja Ahror Samarqandga 22 yoshida, 1426 yili kelgan, [illegible] paytlari 32 yoshda edi. Demak, Xoja Ahror Ulug'bekdan [illegible] bo'lgan. Xoja Ahrorning "Ubaydullanoma" tarjimai hol [illegible] anglashiladiki, u oz fursat Ulug'bek madrasasida o'qigan, [illegible] ma'ruzalarini tinglagan. Madrasani bitirgach, mudarris etib [illegible] Xoja Ahrorning katta kuyovi Abdurahmon Nishopuriyning [illegible] ("Muloqot") asarida aytib o'tadiki, "bayram va [illegible] Ulug'bek va Xoja Ahror o'rtasida madrasada tarix, [illegible] turli masalalari bo'yicha o'tkir bahslar bo'lgan. [illegible] ko'z oldida o'tar va muallif ta'kidlashicha, Ulug'bek [illegible] qizg'in bahslari xususida guvohlik berardi. Ulug'bek [illegible] fanni o'rganish va bilim olishning afzalliklari haqida [illegible] aytar, Xoja Ahror esa Islom qonunlarining asosiga amal [illegible], fiqh va hadis oyatlaridan ma'ruzalar o'qirdi. Bu [illegible] olimlar, shoirlar mudarrislar, talabalar ham ishtirok [illegible] Xoja Ahror bilan Ulug'bekning ilmiy bahslari Ulug'bek [illegible] sababchi, degan fikrga olib kelmasligi kerak. Ammo

shuni ham aytib o'tish joizki, Ulug'bek feodal davlat hukmdori sifatida ateizm va ijtimoiy adolat tamoyillariga amal qilish g'oyalaridan yiroq edi, u hamisha bobosi amir Temur kabi musulmon zodagonlarining tarafdori edi. Manbalarda yozilishicha, Ulug'bek davrida alohida imtiyozlardan taniqli shayxlar foydalanishgan. Xoja Hasan Attor, Nizomiddin Xomush (Xoja Ahrorning asosiy ustozlaridan biri), Shayx Yoqub, Charxiy sulton Ulug'bekning alohida ishonchiga sazovor edilar. Ulug'bek ham ruhoniylarsiz mamlakatni boshqara olmasligini tushunardi. So'fiylik va darveshlikning g'oyaviy markazi bo'lgan Buxoro madrasalari va xonaqohlari Ulug'bekning alohida e'tiborida edi. U Buxoroning marhamatiga sazovor bo'lishga urinardi. Ulug'bek hokimligining ilk yillaridayoq Buxoroda Madrasa qurdira boshlagan va uni 1419 yili yakunlagan. Buxoro ziyoratida u mana shu binoda to'xtadi va talabalar hamda hurmatli zotlarga sovg'alar ulashib chiqdi.

Ulug'bekning Samarqand qurilishlarida ham diniy muassasalar alohida o'rin tutgan. Bu qurilishlar uchun bugungi "Registon" deb yuritiladigan bozor maydoni tanlab olingan. Abdurazzoq Samarqandiyning fikricha, Samarqand maydonida madrasalar qurilishi 1417 yilda boshlangan bo'lib, 1420 yilda tugallangan. V.V.Bartol'd bu ajoyib binoning me'mori noma'lum desada, o'zbek olimlarining bu sohadagi izlanishlari muvaffaqiyatli tugadi. Bu madrasaning bosh me'mori Qozizoda Rumiyning shogirdi Kamoliddin Muhandisligi aniqlandi. Bino ikki qavat va to'rt minoradan iborat bo'lib, bino burchaklaridagi bu minoralar bo'yi 38 metrga yetadi, hujralar 2 talaba uchun ikki qismga bo'lingan.

Buxoro va Samarqanddagi Ulug'bek qurdirgan madrasalar eng uzoq umr ko'rdi. XV asrda yaratilgan boshqa madrasalarning ko'plari vayron bo'lgan. O'rta Osiyoga 1842-1843 yillarda safar qilgan P.Xanikovning guvohlik berishicha, bu madrasalar binolari nurab turgan. V.L.Vyatkinning yozishicha, Samarqand madrasalari o'quv yurtlari sifatida 1927 yilgacha ishlab turgan. N.Xanikov Ulug'bekning Buxoro madrasasi 80 xonadan iborat ekanligini, talabalar oyiga o'rtacha 3,5 tilla pul olishlarini yozadi.

Bino eshigida quyidagi bitik bor: "Utlibulilma farizatun li muslimuna va muslimatin" ("Ilm olmoqqa intilmoq har bir muslim va muslima uchun qarzdir"). XVI - XIX asrlar tarixchilari Mirxond, Xondamir, Davlatshoh Samarqandiy, Sayd Roqim, Rahmatullo Vozoh, Abu Tohir

[illegible] Samarqandiy va boshqalar Ulug'bek madrasalari faoliyati haqida [illegible], O'rta Osiyolik bu tarixchilarning ma'lumotlaridan biz Ulug'bekning o'zi falakiyotshunoslik ilmidan toliblarga dars berganini [illegible].

[illegible] rasmiy tarixshunoslik Ulug'bekning ma'lumoti xususida [illegible] ma'lumotlarga ega emas. Ma'lumki, Ulug'bekning birinchi [illegible] uning buvisi Saroymulkxonim edi. 1405-1411 yillarda u [illegible] Malik tarbiyasida bo'ldi. "Rashohat" asaridan Samarqand- [illegible] madrasaning bosh quruvchisi amir Shoh Malik uning tarbiyachisi [illegible] bilib olamiz.

[illegible]-1398 yillarda Ulug'bek shoir va taniqli olim, bir turkum [illegible] axloqiy asarlar muallifi shayx Orif Ozariy qo'lida Sadr [illegible] madrasasida o'qidi. Orif Ozariy bir necha yil davomida Ulug'bekning tarbiyachisi bo'lgan. Temurning Eron va Old Osiyo [illegible] qilgan 1399 - 1404 yilgi yurishlarida Ulug'bek Marogada [illegible] Nasriddin Tusiy rasadxonasining xarobalarini ziyorat [illegible]. Undan uni falakiyotshunos Mavlono Ahmad bilan Temur [illegible] bo'lgan Qozizoda Rumiy kuzatib borgan. Shundan boshlab [illegible] Rumiy shahzodaning doimiy ustoziga aylanadi. Qozizoda [illegible] shahzodaga bag'ishlangan "Matematika asoslari" kitobi [illegible] guvohlik beradi. Bu kitob talabalarga matematikadan asosiy [illegible] sifatida XV-XIX asrlarda ham xizmat qildi.

[illegible] Osiyo tarixshunoslarining yozishlaricha, Ulug'bek Madrasa [illegible] bo'libgina qolmasdan, eng yaxshi muallimlarni tanlashda [illegible] qatnashgan. Madrasaning birinchi domlasi faylasuf va fiqh [illegible] Muhammad Xavofiy edi. Madrasa ochilishi marosimida [illegible] bo'lib tinglovchilar huzurida ma'ruza o'qidi. Mahhur [illegible] zamon" Qozizoda Rumiy madrasada tabiiy fanlar bo'yicha [illegible] mudarris edi. Vosifiyning yozishicha, Madrasa qurilishi [illegible] Ulug'bekdan so'rashadi; "Kim madrasaning bosh [illegible] (rektori) bo'ladi?" Ulug'bek bu odam barcha fanlar bo'yi- [illegible] odam bo'lishi kerak, deb javob beradi. Ulug'bek so'zini [illegible] kiyimda, g'ishtlar orasida Madrasa quruvchilari bilan [illegible] Mavlono Muhammad bu vazifaga o'zining haqqi borligini [illegible] Mavlono Muhammad Madrasa qurilishida qora ishchi sifatida [illegible] (Abu Tohir Xoja Samarqandiy). Ulug'bek u bilan [illegible] ko'rib tezda uning zukkoligiga amin bo'lgan. Shuning

uchun Madrasa ochilishida unga mudarris sifatida birinchi bo'lib ma'ruza qilish huquqi berildi. Bu yerda 90 dan ortiq olim ishtirok etgan bo'lsa-da. Muhammad Havofiy ma'ruzasi mazmunini Ulug'bek va Qozizodagina anglab yetganlar.

Ulug'bek maktabi tarixida yetakchi rolni ulkan falakiyotshunos va riyozatchi (matematik) G'iyosiddin Jamshid bin - Ma'sud Koshoniy o'ynadi. U Ulug'bek rasadxonasining yetakchi olimlaridan va falakiyotshunoslik jihozlari haqida risola muallifi edi. Shuningdek, Ulug'bek va Qozizodaning shogirdi va izdoshi Samarqandlik Alouddin ibn Muhammad Qushchi "O'z zamonasining Ptolomeyi" edi. Nihoyat, Ulug'bek maktabi shogirdlaridan, uning asarlari sharhchisi, Qozizoda Rumiyning nevarasi Mirim Chalabiy e'tiborni tortardi.

Ko'rinib turibdiki, Ulug'bek ma'lumoti jihatidan ustozi Qozizodadan o'zib ketdi va atrofiga o'z davrining eng ilg'or ziyolilarini, tarixchilar, adabiyotshunoslar, shoirlar, san'atshunoslar, tabiiy fanlar vakillarini to'plagan edi. Ular orasida matematik va falakiyotchilar faxrli o'rinni eg'allardi. Ulug'bekning rahbarligi va ishtirokida madrasada ilmiy ishlar muvaffaqiyatli rivojlandi.

Quyidagi voqea madrasada tabiiy fanlar yetakchilik qilishidan dalolat beradi: Xoja Ahror haqidag'i ma'lumotlarda yozilishicha, uning shogirdlaridan biri Abu Sayd Avbaxiy (Bartol'dda Ubaxiy), avval Ulug'bek madrasasida o'qib, kitob ilmidan ko'ngli qolgan. U Xoja Ahror bilan tanishgach, o'z o'rtoqlariga din ilmini o'rganish uchun eshon huzuriga borayotganini aytib, o'z buyumlari va kitoblarini ulashib chiqadi. "Tarixchi jahongir" kitobi muallifi Davlatshoh Samarqandiyning yozishicha (XVI asr boshi), Ulug'bek madrasasida yuzdan ortiq talaba o'qigan Bu Madrasa toliblari orasida Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Husayn Boyqaro, Mutribiy Samarqandiy, tarixchi Sayd Roqim va boshqa ko'plab mashhur bo'lgan kishilar bor edi. XVI asrda toliblar soni keskin ko'paydi. Shuning uchun mudarrislarning o'zi o'ndan ortiq edi, deb xabar beradi "Abdullanoma" muallifi. Bosh mudarris barcha Samarqand olimlarining boshlig'i hisoblanardi. XV asr o'rtalarida Abdurahmon Jomiy bosh mudarris edi.

Ulug'bek o'z davrining farzandi edi. O'sha paytlarda O'rta Osiyoda hukmronlik qilayotgan dunyoqarash hamma tabiat va jamiyat hodisalari Alloh irodasiga bog'liq, deb tushunilardi. Islomga qarshi chiqadigan har qanday qarash ta'qib ostiga olinar va jazolanardi.

[illegible] Osiyo qomusiy olimi al Beruniyning geliotsentrik (quyosh-[illegible]zlik) qarashlari Ulug'bek va uning maktabiga ayon edi, lekin [illegible] bu yo'nalishda juda ehtiyotkorlik bilan fikr yuritgan. Bu [illegible]korlik Ulug'bek falakiyot maktabiga ham xos edi. Bu maktab [illegible] ilmiy ishlarining asosida geotsentrik (yer-markazlik) g'oyasi [illegible]-da, geliotsentrik qarash ham ularga yot emas edi. Masalan, Mirim [illegible] yozadi: "Murakkab harakatni qiyoslasa bo'ladigan qulay [illegible] olam markazi sifatida, yer emas. Lekin odatda uni shu markaz [illegible] qabul qilishadi", - bu dunyoning geliotsentrik tuzilishiga ishora [illegible] Ulug'bek maktabi rasman geliotsentrik sistemaga amal qilgani davr [illegible] qonuniyatidan kelib chiqardi. Shuning uchun bu hol Ulug'bek [illegible] ahamiyatiga soya sololmadi, garchi ularda diniy bo'yoq [illegible]. Shu bilan birga O'rta Osiyo tarixshunoslari Ulug'bekni [illegible] erkin fikrlovchilar qatoriga kiritishadi.

Musulmonlik nuqtai nazaridan Ulug'bek benuqson hukmdor [illegible] albatta. Lekin Bartol'd fikricha, o'z hukmini Alloh va uning [illegible] ambaridan ustun qo'yadigan zolim shoh ham emas edi. Bu o'rinda [illegible] yozib qoldirgan bir voqeani eslatib o'tamiz. Shohruhning [illegible] Hirotda taniqli mutasavvif shayx qosim Anvar yashardi (1432 [illegible]) Ulug'bek esa uning muridi edi U asli Ozarbayjondan [illegible] so'l xurufiylar harakatiga yaqin bo'lgan. U Nuriddin [illegible] Jomiyning (1414-1492 yy.) ham ustozlaridan biri edi.

Abdurahmon Jomiy 1487 yilda yozgan umrnoma qasidasidan [illegible] chiqarish mumkinki, u she'riyat, grammatika, mantiq, yunon [illegible] falsafasini, tabiiy fanlarni, matematikani, falakiyot ilmini va [illegible] o'rgangan. "Tafakkur ko'zgusi" antalogiyasi muallifi [illegible] yozishicha, Jomiy bitgan 99 ta kitobning hammasi [illegible], Hindiston olimlari tomonidan ma'qullangan. Ular bu [illegible] hech biriga e'tiroz bildirmaganlar. Yuqorida zikr etilgan, [illegible] foydalangan qasidadan ko'rinadiki, Jomiy Samarqandda [illegible] Ulug'bekni yaxshi eslab qolgan. Shuning uchun Jomiy [illegible] xabar berib aytadiki, o'zi tez-tez uchrashib turgan Qosimi [illegible] tojdorlar islomdan yuz o'girganlar" degan fikrida jon borga [illegible]

4. Ulug'bek va Temuriylar davri madaniy xayotining tarixshunosligi

XV asr O'rta Osiyo uchun ikki dunyoqarashning ayovsiz kurashi davri hisoblanadı. "Ulardan birining vakili Temurning nabirasi. Amir Temur davlatining sobiq poytaxti Samarqandda qırq yil podsholik qilgan Mirzo Ulug'bek bo'lsa, ikkinchisining vakili esa uning yosh zamondoshi, Naqshbandiylardan bo'lgan darvesh Mirzo Ulug'bek vafotidan so'ng ikki yil o'tmayoq o'zining ulkan diniy ta'siridan foydalanib siyosiy hokimiyatni qo'lga olgan va Temurning haqiqiy yoki uzoqroq avlodlari vositasida mamlakatni qariyb qirq yil boshqargan Xoja Ahror edi". Bu fikrlarda mubolaga bor, albatta. Ulug'bek madrasada saboq beradigan ilmlar orasida, falakiyot (astronomiya) alohida o'rin egallardı. Shu bois Madrasa qurilgach, to'rt yil o'tib, rasadxona qurilishi boshlandi. Chunki 1259 yilda Nasriddin Tusiy tashabbusi bilan Marog'ada qurilgan so'nggi musulmon rasadxonasi ham XIV asrning birinchi yarmidayoq vayronaga aylangan edi.

Abu Tohir Xoja Samarqandiy "Samariya" da bu voqealarni quyidagicha bayon etadi: "Mirzo Ulug'bek Madrasa bunyod qılgach, to'rt yildan so'ng, Qozizoda Rumiy, mavlono G'iyosiddin Jamshid va mavlono Muiniddin Koshiy bilan maslahatlashib, Ko'hak quyısida, Obirahmat arig'i yoqasida hashamatli rasadxona binosini bunyod etdi. Bino atrofiga qaddi baland xujralar qurdirdi, rasadxona atrofida esa ajoyib bog' barpo etdiki, keyinchalık ko'p vaqtini shu bog'da o'tkazdi". Bobur ham bu haqda shunday yozadi: "Mirzo Ulug'bek Ko'hak etagıda zijlar tuzish uchun uch qavatli juda baland rasadxona binosini bunyod etdi".

Mavlono Navoiy aytganidek, Ulug'bekning avlodlari unutilib ketdi. Ularni davrimizda kim ham eslayapti? Ulug'bek esa ilm - fanga intildi va ko'p narsaga erishdi. Ulug'bek va uning safdoshlari ilmiy ishlarining muhim natijasi 1437 yılda asosan tugallangan "Ziji Ko'ragoniy", ya'ni "Yangi fazoviy jadvallar"dir. Ulug'bek hayotitshg so'nggi kunlariga qadar bu asar ustida ishlagan.

Asar mufassal kirish (nazariy) qism va jadvallardan iborat. Asarning birinchi qismi turli Sharq xalqlarining yilni hisoblashi tarixiga; ikkinchi qismi amaliy fazoshunoslik masalalariga, uchinchisi sayyoralar nazariyasi bayoni va kichikroq to'rtinchı qismi esa falakiyotga bag'ishlangan

"Yangi fazoviy jadvallar" yaratilishidan oldin birinchi bo'lib Gipparx yulduzlar jadvalini tuzgan edi. Unda 1022 yulduzning joylashgan o'rni [illegible] bo'lib u, Ptolemeyning "Almajistiy" asarida berilgan. Bu jadvallar ilmiy jihatdan qimmatli bo'lib, samoviy jismlar harakatini o'rganish uchun ajoyib manba hisoblanadi.

Gipparxdan so'ng yulduzlarning to'la jadvalini tuzgan ikkinchi fazoshunos Ulug'bek edi. Uning jadvali ancha qimmatlidir, chunki, u yulduzlarning Samarqand rasadxonasida aniqlangan haqiqiy [illegible] asosan tuzilgan. U XVI asr mobaynida tuzilgan ikkinchi [illegible] jadval edi. XV asrgacha faqat ikki nafar fazoshunos Gipparx va Ulug'bekning yulduzlar jadvali ahamiyatini to'liq angladilar.

Ulug'bek o'limidan so'ng rasadxona o'z faoliyatini tugatdi. Uning [illegible] va asbob-uskunalari vayron va talon-toroj qilindi. Olimlar esa Samarqanddan boshqa Sharq mamlakatlariga ketishga majbur bo'ldilar. [illegible] XV asrdan to XVII asr boshlarigacha qad tiklab turgan bo'lsa-[illegible] u faoliyatsiz edi. Biroq "Ziji Ko'ragoniy" ustidagi ishlar asosan [illegible] bo'lsa-da, Ulug'bekning izdoh shogirddari, ayniqsa, Qozizoda [illegible] vafotidan so'ng (1437) Ulugbekning yordamchisiga aylangan Ali Qushchi uni to 1449 yılgacha davom ettirdi. Buning sababi [illegible] Bu savolga javob ilgari ishlab chiqılgan Ulug'bek munajjimlik [illegible] 30 yillik ilmiy dasturini amalga oshirilishi zaruriyati [illegible] bog'liq. Ulugbek shogirdi Ali Qushchiga bu dasturni bajarish [illegible] ishni davom ettirishga ruxsat bergan edi. Aynan ana shu davrda Ali Qushchining tashkilotchilik qobiliyati kuchli namoyon bo'ladi. [illegible] falakiyot va matematika sohasidagi ilmiy bilimlari keyinroq [illegible] tomonidan to'la tan olindi. Faqat ustozining bevaqt [illegible] Ali Qushchini Turkiyaga ketishga majbur qildi. Uning xizmati [illegible] "Ziji Ko'ragoniy" va boshqa ko'plab qimmatli qo'lyozmalar [illegible] qolingan. Ularning bir qismi yo'qolgan, boshqa qismi johil [illegible] tomonidan yo'q qilingan. qo'lyozmalarning ozroq qismigina [illegible] kutubxonalarida saqlanmoqda. Ali Qushchining "Arifmetika [illegible] risola" asari shular jumlasiga kiradi. U fors tilida bo'lib, [illegible] kutubxonasi va O'zbekistan jumhuriyati FA Sharqshunoslik [illegible] saqlanmoqda. "Fazoshunoslik risolasi" ham shu ilmgohdadir. [illegible] 1975 yilda Toshkentda o'zbek tilida nashr etilgan. Ali Qushchi [illegible] kelgach, "Fazoshunoslik risolas"ni forsiydan arab tiliga [illegible] turk sultoni Muhammad II ga tortiq qiladi. Bundan tashqari, u

hozirda Ayo Sofiya, Parij va Istambul kutubxonalarida saqlanayotgan "Fatxiya" asarini yozdi. Ali Qushchi 1474 yilda Istambulda vafot etgan.

Ulug'bekning yulduzlar jadvali birinchi marta 1665 yili Oksfordda Angliyalik T. Xayd, keyinchalik, 1767 yili G. Shakre, 1843 yili F.Bayli tomonidan nashr etilgan. Frantsuz sharqshunosi Sedillot T.Xayd nashrini qayta ko'chirib, Ulug'bekning kirish so'zini va jadvallarini frantsuz tiliga o'girdi hamda 1853 yili Parijda nashr qildi. Nihoyat 1917 yilda "Ziji Ko'ragoniy" AQShda nashr etildi.

Bundan tashqari, Ulug'bek "Ziji" va Nasriddin Tusiyning jo'g'rofiy jadvallari 1652 yili Londonda birinchi bor nashr etilgan. Bu ma'lumotlar bizga "Mirzo Ulug'bek asrlar qa'rini yorib o'tib kelayotgan nur" deyish imkoyatni beradi.

G'arbiy Yevropa olimlari XII asrga kelibgina Ulug'bekning ilmiy merosi xususida Sh.Grive (1648), T.Xayd (1665), Yan Gaveliy (1690) asarlari orqali xabardor bo'lishdi. Bu davrga kelib Samarqand rasadxonasi butunlay yo'q bo'lib ketgan edi.

Shunday qilib, XV asrda O'rta Osiyoda tarixiy ilmlar ham yaxshi rivojlandi. Bu yerda Hofiz Abru, Abdurazzoq Samarqandi, Mirxond Xondamir, Isfizoriy, Davlatshoh Samarqandiy va boshqa tarixchilar yashab, ijod qildilar. Ularning asarlari O'rta Osiyo tarixchiligining qimmatli manbalaridir. Masalan, Hofiz Abruning "Zubdat-ut-tavorix" ("Iilnomalar qaymog'i") asarida 1427 yilgacha bo'lgan tarixiy voqealar bayon qilinadi. Abdurazzoq Samarqandiy (1482 yilda vafot etgan) esa "Matla-us-sa'dayn majma ul bahrayn" ("Ikki baxtli yulduzning chiqishi va ikki dengizning qo'shilish joyi") asarida 1471 yilgacha bo'lgan voqealarni tasvirlaydi. Bu kitob Xulagular avlodidan bo'lgan Abu Sayd tavalludidan to Temuriylar sulolasi vakili Abu Saidgacha bo'lgan davrning (1304 - 1469 yy.) tarixiy voqealarini o'z ichiga oladi. Mirxond (1498 yilda vafot etgan) "Ravzat-us-safo" ("Tozalik bog'i") va uning nabirasi Xondamir "Habib-us-siyar" asarlari Sulton Hisayn podsholigi davri tarixiga bag'ishlanadi. Isfizoriy 1491 yili Hirot tarixini yozdi. Davlatshoh Samarqandiy esa "Tazkirat ush-shuaro" asarini Alisher Navoiyga bag'ishladi. Bu asarda yuzdan ortiq shoirlar to'g'risidagi mufassal ma'lumotlarni o'zida jamlangan.

O'rta Osiyo xalqlarining XIV-XV asr tarixini o'rganish davomida rasadxona qoldiqlari, o'sha davrning Samarqand va Buxorodagi ajoyib me'morchilik yodgorliklari jahon jamoatchiligi e'tiborini o'ziga qaratib

keldi va bu qiziqish tobora kuchaymoqda. V.L.Vyatkin, V.V.Bartol'd, I.N.Qori Niyoziy va boshqalarning bevosita Ulug'bek davri tarixini o'rganish bo'yicha eng muhim asarlari, ishlari bo'yicha yanada ko'proq ma'lumotlar bilan tanishish katta ahamiyatga ega.

Biz yuqorida Samarqand rasadxonasining o'rni, mavqei va ahamiyati xususidagi tarixiy manbalarni aytib o'tdik, 1908 yili V.L.Vyatkin XVII asr o'rtalariga mansub bir vaqf hujjatini o'rganayotganida hozirgacha Obirahmat arig'i va Naqshi Jahon degan joy nomlari bilan ma'lum bo'lgan "tole rasad"ning aniq chegaralarini topdi. Hujjat rasadxonaning o'rni haqida shu qadar aniq va tushunarli ma'lumotlar berardiki, unda aytilgan tepalikni topish hech ham qiyin emasdi". Ulug'bek rasadxonasidagi 1908 - 1909 yilgi qazish ishlari natijalari haqida V.L.Vyatkin O'rta va Sharqiy Osiyoni tarixiy arxeologiya, lingvistika va etnografiya jihatdan o'rganish Rus qo'mitasida hisobot berdi. 1909 yilgi qazish ishlarining birinchi kunlarida V.L.Vyatkin bir g'isht qalinligida, balandligi ikki metr atrofida bo'lgan aylana devor va ichida parallel joylashgan, ikkita g'isht to'siq bilan ajratilgan, keskin pastga, binoning tashqi qatlamida qazilgan chuqurga tushadigan zinalarni topdi. Zinalarni tozalab, ocha borib arxeolog rasadxonaning asosiy falakiyotshunoslik uskunasi ulkan kvadratning bir qismini topdi. Keyingi tadqiqotlar rasadxona binosining diametri 48 metr bo'lgan aylana shaklida bo'lganini ko'rsatdi, meridian bo'yi radiusi esa 40,212 metr ekanligi aniqlandi.

V.L.Vyatkinning bu yutug'i shubhasiz, jahonshumul ahamiyatga ega bo'ldi. Akademik Bartol'dning aytishicha, Ulug'bek va uning Samarqand rasadxonasi faoliyati mavzusi uni sharqshunos sifatida e'tiborini tortdi. Bu qazish ishlari unga birinchi bo'lib "Ulug'bek va uning davri" asarini yozish imkonini berdi. Bu asar 1915 yil yozilib, 1918 yili e'lon qilindi. "Ulug'bek va uning davri"ni "Turkiston mo'g'ullar bosqini davrida" asarining davomi desak ham bo'ladi.

Bu asarning mazmuni nomiga qaraganda xronologik jihatdan ancha keng. V.V.Bartol'd dastlabki ikki bobda Chig'atoy davlati va Temur davlatining qisqa tavsifini keltiradi. Ulug'bekning bolalik va o'smirlik davri haqida ma'lumotlar kamligini e'tiborga olib, u bo'lajak O'rta Osiyo hukmdori va jahonga mashhur olim Ulug'bekning o'sha davrlar bevosita oid deyarli barcha manbalarni o'rganib chiqadi. "Ulug'bek va uning davri"ning to'rtinchi va beshinchi boblari Movarounnahr

hukmdorining ichki va tashqi siyosatiga bag'ishlangan. Nihoyat, oltinchi bob Ulug'bekning shaxsiy hayoti ilmiy mashg'ulotlariga bag'ishlangan.

Bartol'd asaridagi eng yaxshi sahifalardan biri Ulug'bek hayotining so'nggi yillaridan boshlab, 40 yil davomida O'rta Osiyo siyosiy hayoti markazida turgan "qishloqi shayx"ga ilk bor tavsif berilgan joy. Akademik Bartol'd Xoja Ahrorni xalq himoyachisi deb hisoblaydi. Bundan tashqari o'sha devr ijtimoiy - iqtisodiy hayotining bir necha juda muhim tomonlari ham muallif e'tiboridan chetda qolgan. V.V.Bartol'd fan taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatgan, 1259 yilda qurilib Q'ozonxon nazaridan o'tkazilgan, 1300 yillarda ham ishlab turgan Nasriddin Tusiyning Marog'i rasadxonasi haqida hech narsa demaydi.

"Ulug'bek va uning davri" asari haqida V.V.Bartol'd "hali bor manbalardan to'laroq foydalanmadim, asar kamchiliklarini keyinroq qisman tuzatdim" deb yozgan bo'lsa-da, bu asar bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan asardir. Bu davrning Bartol'd o'rganmagan tomonlarini boshqa tadqiqotchilar o'rganishdi. Jumladan ko'p vaqtlar Samarqand rasadxonasi tarixini tadqiq etgan V.P.Heglov Yevropa manbalariga asoslanib, "Ulug'bek jahon faniga ulkan hissa qo'shgan olim" mavzusida ilmiy asar yozadi. Keyingi yili M.Ye.Massonning "Ulug'bek raszdxonasi" risolasi nashr etildi, unda muallif O'rta Sharq fazoshunoslik fani taraqqiyoti haqida qiziqarli hikoya qiladi.

Ulug'bek va uning maktabi ilmiy merosini o'rganishda Ulug'bek boshliq samarqandlik olimlarning ilmiy dasturi haqidagi taxminni birinchi bo'lib ilgari surgan G'.Jalolovning xizmati ham katta.

O'rta asrlarda O'rta Osiyo olimlarining falakiyot fani taraqqiyotiga qo'shgan hissalari ulkandir. O'zbek olimi T.N.Qori Niyoziyning falakiyot ilmiga bag'ishlangan asarlarining o'zbek va rus tillarida nashr etilganligi fikrimizga dalildir. T.N.Qori Niyoziyning SSSR Davlat mukofotiga sazovor bo'lgan "Ulug'bekning falakiyot maktabi" kitobi Temuriylar davri tarixiga oid g'oyat qimmatli asardir. Undan o'quvchi V.L.Vyat'kinning 1914 yili qazish ishlarini boshlagani-yu, mablag' yo'qligi sababli ishning to'xtab qolganligini bilib oladi. 1941 yili Navoiy davrini o'rganish munosabati bilan Navoiy qo'mitasi (M.Ye. Masson, N.A.Suxarev) yana rasadxonada qazish ishlarini davom ettirdi. Biroq, Ulug' Vatan urushi boshlanib qolib, bu ishlar to'xtatildi. 1948 yilga kelibgina bu ish bilan tarix va arxeologiya ilmgohi V.A.Shishkin

...lligida yana shug'ullana boshladi.

A.Navoiy tavalludining 500 yilligi munosabati bilam 1941 yilning iyunida T.N.Qori Niyoziy rahbarligida, Temuriylarning Go'ri Amir maqbarasidagi qabrlarni o'rganish maqsadida, Samarqandga ekspeditsiya uyushtiriladi. Komissiya qabrni 1941 yilning 18 iyunida ochdi. Qori Niyoziyning axborotiga qaraganda qabr toshida professor A.A.Semyonov o'qigan quyidagi yozuv bor ekan. "Bu nur taratuvchi qabr bu sultoni shahidning sharafli joyi, bu muattar bog', jannatiy ...larning, davlat-panohning so'nggi osoyishtaligi joyi, ilm-ma'rifat homiysi, tinchlik va din madadkori Sulton Ulug'bek (Alloh uning qabrini doimo yoritib tursin), hijriy 796 yilda Sultoniyada tavallud topdi, hijriy 810 yilning zulhija oyida esa Madinat-us salom - Samarqandda oliy hukmdor bo'ldi. Allohning irodasiga bo'ysunib, har bir banda o'ziga belgilangan muddat sari suzib boraveradi: uning umri nihoyasiga ...da, taqdir belgilagan muddat chegarasiga kelganda o'g'li unga ...dan shafqatsizlik qildi, qilich tig'idan o'tkazdi, oqibatda u azobli ...lim topib, hamma guyohlarini kechirguvchi egasining shafqatli ...luga yo'l oldi. 853 hijriy yilining ramazon oyi, 10 kuni".

Bu guruh Ulug'bek o'limining haqiqiy sababini ham aniqladi. Ulug'bek o'limining so'nggi daqiqalari haqida Abdullatif roziligi bilan Ulug'bekka hamroh bo'lib Makkaga yo'l olgan Xoja Muhammad Xisravning og'zidan tarixchi Mirxond yozib olgan mufassal hikoyasi bor. Mirxondning yozishicha 1449 yilning oktyabrida Ulug'bek bir necha mahramlari bilan Samarqanddan otda chiqib ketadi. Ular hali ... charchatib ulgurmasdanoq, yozadi Mirxond, ularni qandaydir ... quvib yetadi va Ulug'bekning uzoq safariga jihozlar hozirlash ... qo'shni qishloqqa kirib o'tish haqidagi farmonni yetkazadi. ...qa yetib kelgach, Ulug'bek va hamrohlari xonadonlardan ... joylashadilar. Sovuq oqshom edi. Shu yerga yetib kelguncha Ulug'bek quvnoq, har narsa to'g'risida suhbatlashib kelgandi. Biroq ... buyrug'i bilan navkarlar yoqqan olovdan bir uchqun sachrab Ulug'bekning to'niga yopishdi va kuydirdi. Ulug'bek unga qarab: ... ham bildingmi?" dedi. Ulug'bekning xayollari noxush tomonga ... Xoja Muhammad Xisrav esa uni ovutishga urina boshladi. Shu ... Abbos hamrohi bilan kirdi. Ulug'bek Abbosni ko'rib unga ... va mushti bilan uning ko'kragiga urdi. Abbosning hamrohi ... ushlab qoldi va Abbos Ulug'bekning qo'lini ip bilan

chandib, o'limi oldidan tavba qilishni buyurdi. Barcha kuzatuvchilar burchak-burchakka tiqilib olishgandi Abbos Ulug'bekni yonayotgan chiroq oldida cho'kkalatdida, qilichni bir senchishda uni o'ldirdi. Xoja va navkarlar Samarqandga qaytishdi. Shunday qilib, Ulug'bek 1449 yilning 27 oktyabrida 56 yoshida xoinona o'ldirildi".

T.N.Qori Niyoziyning guvohlik berishicha, haqiqatan ham Ulug'bek qabri ochib ko'rilganda uning boshi g'arb tomonga sal surilib, tepaga qaratib qo'yilgan bo'lib, uchta bo'yin umurtqasi bosh suyagidan uzilmagan holda edi. Oxirgi umurtqada o'tkir kesuvchi qurolning aniq izlari bor edi. Suyaklarning qo'l qismi bir necha qavat mato qoldiqlari bilan qoplangan edi. T.N.Qori-Niyoziy fikricha, bular yopilgan mato qoldiqlari. Bizningcha esa Ulugbekning kiyimlari qoldig'i. Xoja Muhammad Xisrav va Ulug'bekka hamroh bo'lgan boshqa kishilar uning tanasini olishganmi, yo'qmi, u qachon va kim tomonidan dafn etilgan, kabi savollarga hali to'la javob yo'q. Davlatshohning so'zlariga qaraganda Ulug'bek 853 yil ramazon oyining 8 kunida (25 oktyabr') o'ldirilgan.

Abbos Ulug'bekni o'ldirgach, uzoq vaqtlardan beri Temuriylar taxtini egallashga intilib yurgan Abdullatif taxtga da'vogar bo'lib qolishi mumkin bo'lgan ukasi Abdulazizni ham halok etdi. Abdullatifni ba'zi musulmon dindorlari vakillari va darveshlar jamiyatining rahbarlari qo'llab-quvvatlashdi. Biroq hokimiyat uchun o'zaro kurash va dindorlarning mamlakat hayotiga faol aralashuvi oxir-oqibatda fitnaga olib keldi. 1450 yilning 8 may juma kunida Abdullatif fitna qurboni bo'ldi va taxtga Temuriylarning boshqa biri Mirzo Abdulla o'tkazildi. U Ulug'bek hukmdorligi oxirida vafot etgan Isomiddinning o'g'li va vorisi edi. Bu shayx sulton Ulug'bekning tarafdori bo'lib, u 1434 yili Hirotga safarida Ulug'bekka hamroh ham bo'lgan edi. O'rta Osiyo tarixchiligi ma'lumotlariga qaraganda, Abdullatifning qattiqqo'l boshqaruvidan so'ng Abdulla davrida Samarqandliklar uchun Ulugbek boshqargan davrdagi kabi biroz yengil davrlar ham qaytdi. Shuning uchun ham akademik Bartol'dning fikricha, aynan Abdulla davrida Ulug'bek tanasining qoldiqlari Go'ri Amirga o'tkazilgan va uning buyrug'i bilan yuqorida keltirilgan padarkush Abdullatifning nomi qoralab yodlangan qabr tosh so'zlari yozilgan. Buni o'rgangan guruh hujjatlarining guvohlik berishicha, 1941 yilda Ulug'bek qabri ochilganda uning shahid sifatida, halok bo'lgan joyidagi kiyimida dafn

[illegible] ko'rilgan. Qori Niyoziyning guvohlik berishicha uning boshi shamshirning bir zarbi bilan gavdadan uzilgan.

XV asrning 50-60 yillarida tarix, adabiyot va fanning turli sohalari [illegible]oji ruhoniylar ta'siri va darveshlikning kuchayishi bilan almashdi. Nafaqat Samarqand va Buxoro, balki butun O'rta Osiyo Sharqning iqtisodiy va ilmiy markazi sifatidagi ahamiyatini yo'qota boshladi. Ishonch bilan aytish mumkinki, Ulug'bek davridagi 40 yillik madaniy va ilmiy yuksalish, XV asr O'rta Osiyoning eng reaktsion va zolim kishilaridan biri yirik feodal Xoja Ahrorning qirq yillik hukmronligi bilan almashindi. Fikrimizning dalili sifatida quyidagi ma'lumotlarni keltiramiz.

1. Ulug'bek davrining yirik shayxlaridan Samarqandda Muhammad Porso (A.Jomiyning ma'naviy ustozi), Buxoroda Hasan Attor, Badahshon va So'g'diyonada Yoqub Charxiy bor edi. Keyingi ikkovi Abu Sayd (1451-1469) va uning o'g'li Sulton Ahmad (1469-1494 y.) hukmdorlari davrida O'rta Osiyo madaniy hayotida katta o'rin tutgan Ubaydulloh Xoja Ahrorning ustozlari edilar.

2. Abdurahmon Jomiyning aytishicha, Xoja Ahrorning O'rta Osiyoning viloyatlarida 1300 tagacha, ba'zilari 3000 jarib yerlari bor edi. Xoja Ahrorning faqatgina Samarqand viloyatidagi yerlaridan xazinaga to'lanadigan ushri (hosilning 0,1 foizi hajmida to'lanadigan soliq) 80 ming man, ya'ni, bir manga 20 kilogramm don hisoblasak, 1600 tonna to'p'doyga teng edi. Bu 1300 yer maydonidan har bir boshqaruvchi [illegible] 10 - 30 ming botmon (200-800 tonna) don to'plardi, "Musammos" manbada yozilishicha, bir kuni Xoja Ahrorning uyida barcha boshqaruvchilari hisob berishga yig'ilishgan. Ma'lum bo'ldiki, ular o'z qo'l ostidagilardan 10.000 mandan ko'p daromad yig'ishibdi. Xoja Ahrorga bo'ysunuvchi boylar Sharqiy Turkiston, Xuroson va Yahin [illegible] mamlakatlari bilan savdo aloqalarini o'rnatishgan edi. Ba'zan ulardan moliyaviy yordam so'rab Movarounnahr hukmdorlari, hatto, Abu Sayd kabi yirik hukmdorlar ham murojaat etishardi. Abu Sayd [illegible]ni arboblari, ayniqsa Xoja Ahror bilan mustahkam aloqa bog'lagan edi. Xoja Ahror ruhan kuchli shaxs bo'lib, o'z suhbatdoshi irodasini buka olar va boshqara bilardi. "Rashoxoti-aynul-hayot" muallifi Husayn Voiz Koshifiyning o'g'li Ali Safiy shunday voqeani bayon etadi. Bir kuni Ali Qushchi to'qqiz nafar shogirdlari hamrohligida Xoja Ahror huzuriga keldi. Xoja Ahror ularni ko'rib, "ana it to'qqizta

kuchukvachchani ergashtirib kelyapti". dedi. Shundan so'ng kitobda yozilishicha, Ali Qushchi oldin Ozarbayjon, so'ng Istambulga ketishga majbur bo'ladi. U Samarqanddan o'zi bilan ko'plab qo'lyozmalar, jumladan Ulug'bekning fazoshunoslik jadvallariga "so'z boshi"sini ham olib ketadi.

Shunday qilib, Qori Niyoziyning asari olimlarimizning urushdan keyingi davrdagi ilmiy yo'nalishlarini yakunlovchi ish sifatida jamoatchilik e'tiborini qozondi. Muallif esa SSSR Davlat mukofoti nomzodi unvoniga sazovor bo'ldi.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Amir Temur davri tarixi yoritilgan qanday asarlarni bilasiz?
2. "Temurnoma" asarining muallifi kim?
3. Temur haqida asarlar yozgan qanday xorij olimlarini bilasiz?
4. Mirzo Ulug'bek qalamiga mansub qanday asarlarni bilasiz?
5. Temuriylar davri tarixi yoritilgan qanday asarlarni bilasiz?
6. Ibn Arabshoxning Amir Temur haqidagi ma'lumotlari bo'yicha to'xtalib o'ting?
7. Musulmon dunyosida ilk bor tarixni hikoya qilib berishdan tashqari, voqealarning sababiy bog'lanishlarini ham, pragmatik bayon qilib berishga uringan tarixchi olim va uning xizmati haqida fikr bildiring?
8. Amir Temurning diplomatik aloqalari tarixi bo'yicha qanday manbalarni keltirib o'tasiz?
9. Temur va Temuriylar davridagi iqtisodiy va ijtimoiy sohalar tarixi bo'yicha qimmatli ma'lumotlar beroladigan asarlar va ularning ahamiyatiga to'xtalib o'ting?
10. Klavixo esdaliklarining tarixiy bilimlarga qo'shgan xissasi nimalardan iborat?
11. Diplomatik yozishmalarning tarixshunoslikdagi ahamiyati?
12. Temur davri tadqiqotchilarining asosiy muammolari nimada deb o'ylaysiz?
13. Nizomiddin Shomiy va Sarafiddin Ali Yazdiy "Zafarnoma"larini qiyosiy tahlil qiling?
14. "Zafarnoma" asari tadqiqotchilaridan kimlarni bilasiz va ular ko'proq asarning qaysi xususiyatlariga to'xtalib o'tgan?

15. Ulug'bek xayoti va faoliyatiga oid O'rta Osiyo tarixshunosligida kimlar boy ilmiy-tarixiy meros qoldirgan?
16. Abu Tohir Xoja Samarqandiyning "Samariya" asarida qanday tarixiy tadqiqot usullarini korishimiz mumkin?
17. Arxeologik ekspedisiyalarning tarixiy bilimlar rivojiga qo'shgan xissasi

MAVZU № 7. BUXORO XONLIGI TARIXI TARIXSHUNOSLIGI

REJA:

1 Shayboniylar sulolasi davrida Buxoro xonligi tarixi tarixshunosligi

2. Ashtarxoniylar sulolasi davrida Buxoro xonligi tarixi bo'yicha tarixiy bilimlarning rivojlanishi

3. Mangıtlar sulolasi davrida Buxoro amirligi tarixi tarixshunosligi va uning Angliya va AQSH tarixshunoslari talqinida ifodalanishi

4. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro amirligi tarixi tarixshunosligi

Tayanch so'z va iboralar: tarixiy-geografik asarlar, memuar asarlar, biografik asarlar, qo'lyozmalar, elchiliklar, esdaliklar, qiyosiy tahlil, "Tavorixi Guzida", "Shayboniynoma", "Tarixi Muqimxoniy", davlat lavozimlari, "Nomai Olamaroi Nodiriy", ijtimoiy-iqtisodiy hayot, ichki va tashqi ahvol, sxolastika, litografiya, toshbosma, diniy-mistik yondashuv, feodal zulm

1. Shayboniylar sulolasi davrida Buxoro xonligi tarixi tarixshunosligi

Mamlakat tarixshunosligida O'rta Osiyoning o'rta asr tarixini o'rganish bo'yicha ko'plab ishlar amalga oshirilgan, lekin shunga qaramay, tarixshunos B.Axmedov o'zining 1985 yili Toshkentda nashr etilgan "XVI-XVIII asrlarda O'rta Osiyoning tarixiy-jo'g'rofiy adabiyoti" nomli asarida "biz shu kunga qadar O'rta Osiyoning qadimiy hayotini manbalar asosida o'rganish bo'yicha maxsus tadqiqotlarga ega emasmiz, tarixshunoslik tadqiqotchiligi to'g'risida esa gapirmasa ham bo'ladi", - deb ta'kidlab o'tgan. O'rta Osiyo tarixining tarixshunoslik jihatidan to'la o'rganilmaganligiga sabab tarixiy manbalarning yo'qligi emas, balki, aksincha, ularning xilma-xilligidadir. Nima bo'lganda ham, O'rta Osiyo xalqlarining XVI asrdan XIX asr o'rtalarigacha bo'lgan hayoti tariximizning eng kam o'rganilgan davrlaridir. Inqilobgacha bo'lgan davrda bu masalaga juda kam e'tibor berilgan.

Rossiya sharqshunoslari asosiy e'tiborni Temurgacha va temuriylar davrini o'rganishga qaratishgan. Sovet davrida esa, keyingi 30 yilda

bir qator qimmatli tadqiqotlar paydo bo'ldi. Biroq, XVI -XIX asrdagi O'rta Osiyo xalqlari tarixining mufassal, ko'p sonli tarixiy manbalarga asoslangan tahlili juda kam. Ular jumlasiga B.A.Ahmedov, B.G'afurov, Ye.A.Davidovich,. X.3.Ziyoev, R.B.Muqminova, A.M.Muxtorov, O.D.Chexovich va boshqalarning bir qator asarlarini kiritish mumkin. O'rta Osiyo xalqlari tarixini o'rganuvchilar uchun "O'zbekiston tarixiy manbalarda" ruknida chiqarilgan kitoblar yaxshi ko'makchi bo'la oladi. Ulardan birinchisi O'rta Osiyo qadimgi tarixiga doyr ma'lumotlar to'plangan kitob 1984 yilda nashr etilgan edi. 1988 yilda esa "O'zbekiston tarixiy manbalarda" nomli navbatdagi kitob bosmadan chiqdi. Undan O'rta Osiyo tarixi bilimdoni sharqshunos B.V.Lunin to'plagan, XVI-XIX asrlarning sayohatchilari ma'lumotlari o'rin olgan. XVI -XVIII asrlarda va hatto keyinroq ham yuz bergan ahvol oqibatida, deb yozadi XVI - XIX asrdagi O'rta Osiyo xalqlarining tarixiy manbalari juda ko'p va xilma-xil bo'lib, bu davr manbalarini o'rganishga o'z asarida XVI -XX asrlar orasida yozilgan ellikdan oshiqroq qimmatli tarixiy-jo'g'rofiy, falakiyotga oid, memuar va biografik mazmunli, O'rta Osiyoning XVI -XVIII asrlar orasidagi hayoti xususida boy ma'lumotlar beruvchi Sharq qo'lyozmalarini tahlid etib chiqqan sharqshunos B.A.Ahmedov yordam berdi. B.A.Ahmedov asarida rus va chet el elchilari- Antoniy Jenkinson, I.D.Xoxlov, aka-uka Pazuxinlar, Floriya Benevin va Novopatros mitropoliti Xrisanfning XVI-XIX asrlardagi O'rta Osiyo to'g'risidagi, uning o'sha davrdagi Rossiya bilan aloqalari haqidagi ma'lumotlari keltiriladi. Bu ma'lumotlar fors turk arab tillaridagi manbalarning ma'lumotlari bilan taqqoslanib, ochiq tarixiy dalillar aniqlashtirildi. Eng muhimi, B.A.Ahmedov ilk manbalar bilan shug'ullanuvchi tadqiqotchilar ishini yengillashtirishga katta hissa qo'shdi. U voqea va dalillarni aniqlashga intildi. Bu juda ... ulıyatli, uning manbashunoslik mehnati qadrini ikki baravar oshiradigan, O'rta Osiyo XVI-XIX asr tarixini o'rganishni osonlashtiradigan asardir. Bundan tashqari u tarixshunoslikning muhim sharti - qiyoslab va bor ma'lumotlarni jiddiy, tubdan qayta tekshirish qoidasiga amal qilgan. Buning uchun B.Ahmedov o'z tahliliga muayyan bir davr bo'yicha bir necha asarlarni kiritgan. Bular "Tavorixi guzida" ("Nusratnoma"), "Fatxnoma", "Shayboniynoma", "Mehmonnomai Buxoro", "Abdullanoma-ut-tavorix", "Badoe' ul-vaqoe"dir. Shu bilan bir vaqtda muallif bu asarga ilgari bosilgan manbalarga oid tarixshunoslik lavhalar-

ini ham kiritgan. "Tavorixi guzida", - "Nusratnoma", "Mehmonnomai Buxoro", "Dastur-ul-muluk", "Tarixi Muqimxoniy", "Ubaydullanoma" va "Tarixi Abdulfayzxoniy" shular jumlasidandir. Bu yerda muallif bir voqea to'g'risidagi turli manbalar ma'lumotlarini solishtirmoqchi emas. Bu alohida izlanish, shug'ullanishni talab etadi. Buning ustiga muallif bu asarida O'rta Osiyoning ko'rilayotgan davriga oid barcha yozma yodgorliklarni qamrab olgan emas. Shuning uchun muallif mumkin qadar to'la, ishonchli va qimmatliroq, O'rta Osiyo xalqlari tarixining yorqin davrlarini tasvirlovchi asarlarga murojaat etgan. "O'rta Osiyo hayotining boshqa davrlari to'g'risida ham shunga o'xshash tadqiqotlar o'tkazish,- deb yozadi B.Ahmedov, - masalan, arablar hukmronligi (XIII-IX asrlar) davri yoki yangi va eng yangi, (XIX - XX asrning boshi) davrni o'rganish fanga katta hissa bo'lib, SSSR va chet ellarda saqlanayotgan qo'lyozmalarning, yozma yodgorliklarning tezroq ilmiy sohaga kiritilishiga yordam bergan bo'lardi".

Misol sifatida bu asarlarning keng o'quvchilar ommasiga har holda tanish bo'lgani – "Tavorixi guzida" ("Nusratnoma") ni qisqacha tahlil qilamiz.

XV asrning ikkinchi yarmida Dashti qipchoqda ko'chmanchi feodal boylar va oliy hokimiyat o'rgasida keskin kurash bordi. Abulxayrxonning (1428-1468 yy.) o'limidan so'ng ayniqsa, bu qonli o'zaro urush yanada kuchaydi. Hokimiyat tepasiga uning nabirasi - Abulxayr Shayboniy (1488-1510 yy.) kelganidan so'ng o'o'zbek feodallarining nizolari barham topdi. U ko'pchilik o'zbek urug'larini birlashtirib temuriylarga qarshi chiqdi. XV asr oxiri - XVI asr boshlarida ko'chmanchi O'zbeklarning O'rta Osiyoning madaniy mintaqalari tomon harakatlanishi avj oldi. Biz "Nusratnoma"da o'sha davr tarixiy sharoitning qanchalik murakkabligi, Movarounnahr xalqining noroziligi kuchayishining, Samarqand, Buxoro, O'sh, Axsi, Andijon, Qarshi, Qorako'l va O'rta Osiyoning boshqa ko'plab shahar va mintaqalaridagi qo'zg'olonlarning sabablarini tushunish uchun ko'plab qiziqarli ma'lumotlar topamiz. Muallif Qorako'l qo'zg'oloni to'g'risida ayniqsa muhim ma'lumotlarni keltiradiki, ularni XVI asrning boshqa birorta manbalarida uchratmaymiz. O'zbek xalqi etnogenezi, XV-XVI asrlardagi O'rta Osiyo aholisining etnik tarkibi bilan shug'ullanayotgan etnograf ham bu kitobdan juda qiziqarli ma'lumotlar olishlari mumkin.

Shunday qilib, barcha turk va mo'g'ullarning afsonaviy bobosi

hisoblangan O'g'izxon sulolasi tarixi "Tavorixi guzida"ning birinchi qismini egallaydi. Ikkinchi qism esa Chingizxon va uning avlodlari tarixini, Shayboniyxonning tug'ilishidan, to Samarqand taxtiga o'tirgunicha o'tgan davrni o'z ichiga oladi. Uning 909 (1503-1504 yy.) yilgacha butun Movarounnahr hududini egallagani tarixi kitobning uchinchi qismidan joy olgan.

Kirish qismidan ko'rinadiki, kitob 1502-1505 yillar orasida yozilgan. U eski o'zbek tilida bo'lgan, biroq, muallifi aytilmagan, bu ko'p tadqiqotchilarning bahsiga sabab bo'lgan. Masalan, P.I.Lerx Jaloliddin Rumiyning o'g'li Sulton Valadni asar muallifi deydi. Bu ehtimoldan uzoq. R. Muqminova, A. Semyonov, V.P.Yuding taxminicha muallif Shayboniyxonning o'zi. Bu asarga tanqidiy matn tuzgan, so'zboshi yozgan, 1967 yili Toshkentda "Tavorixi guzida" asarini nashr ettirgan tadqiqotchi A.M.Akramovning fikricha esa, kitob muallifi Muhammad Solihdir. B.Ahmedov esa A.Akramovning bu fikrini ishonarli emas, deb hisoblaydi.

"Tavorixi guzida" – "Nusratnoma" asari dunyo miqyosida ikki nusxada topilgan. Birinchi qo'lyozma mamlakatimiz FA Sharqshunoslik ilmgohining Leningrad bo'limida (V -745: 147 l) va ikkinchi qo'lyozma Britaniya muzeyida (OR. 32226; 148 l.) saqlanmoqda. Qo'lyozmaning ikkala nusxasi ham qoniqarsiz ahvolda - mazmunda chalkashliklar, xatolar bor. A.Akramov o'z asarida bu kamchiliklarni tuzatishga urinsa da, hanuz, ba'zi varaqlar o'rni chalkashgan, ba'zi voqealarning qaytarilishi uchraydi.

"Nusratnoma" hanuzgacha to'liq tarjima qilinmagan. S. K.Ibrohimov va V.P.Yudin bu asarning ba'zi parchalarini o'zbekchaga o'girishgan. "Tavorixi guzida"dan tadqiqotchilar B.V.Bartol'd, A.A.Semyonov, S.K.Ibrohimov, R.G.Muqminova, S.A.Azimjonova, K.E.Petrov, B.A.Ahmedov va A.M.Akramovlar o'z ilmiy izlanishlarida ancha keng foydalanishgan. Kelgusida bu asarni keng o'quvchilar ommasiga tushunarli tilda, izohlar bilan nashr etish muhim ishlardan biridir. Bu asar Shayboniyxon tarixiga bag'ishlangan. XVI asrning mashhur shoiri va tarixchisi Kamoliddin Binoiyni uning muallifi deyishadi. Bu qo'lyozmaning qimmatli nusxasi O'zbekiston jumhuriyati FA Sharqshunoslik ilmgohida saqlanmoqda. Sharqshunos A.Mirzaevning yozishicha, Binoiy (uning to'liq ismi Ali ibn al-Muhammad al-Hiraviy) 857 (1453 y.) yilda me'mor Muhammadxon Sabza oilasida

tug'ilgan. Binoiyning bolalik yillari haqida hech qanday ma'lumot yo'q. 1495 yilda Binoiylar Samarqandga ko'chishadi. Uning zamondoshlari Navoiy, Bobur, Xondamir va boshqalar Binoiy iste'dodi xususida juda yaxshi fikr aytgan edilar. Balxlik olim (XVII asr) Muhammad Torixning yozishicha, Binoiy 1481 yilda otasi bilan birga Balxda to'rtinchi xalifa Ali ibn Tolibning qabri ustida gumbaz qurishda qatnashadi. Binoiy Samarqandda yashayotganida beixtiyor 1496-1500 yilgi tarixiy voqealar guvohi bo'ladi. Bobur va Shayboniyxon o'rtasidagi hokimiyat uchun kurash o'z davrining ilg'or tafakkur va bilim egalari uchun kurash bilan uyg'unlashib ketgan edi. Ular jumlasiga Mahdumi A'zam Kosoniyni, Xoja Ahror vafotidan so'ng O'rta Osiyo musulmon dindorlarining bosh vakillaridan biriga aylangan uning o'g'li Yahyoxonni, Binoiy, Xondamir va boshqalarni kiritish mumkin. Samarqandga kelgach, Binoiy dastlab Shayboniyxonga, so'ng Bobur Samarqandni boshqargan yuz kun davomida temuriylarga xizmat qiladi. 1498 yilning fevral-mart oylarida, Bobur Samarqandni tashlab chiqqanida Binoiy ham uning qo'shini bilan ketadi. Biroq Samarqandda hokimiyat uchun kurash davom etardi. Shu orada Binoiy yana Boburning ittifoqchisiga aylanadi.

1501 yilning o'rtalarida yuz bergan jang Binoiy va Mahdumi A'zam Dahbediyning taqdirini hal qildi. Ular to umrlarining oxirigacha o'z vatanlarida yashab qoladilar. Shundan so'ng Binoiyning yozishicha, u Shayboniyxon saroyi solnomachisiga aylanadi va xonning hukmdorligi va g'olibona yurishlari tarixini yozish to'g'risida maxsus topshiriq oladi. Binoiy bu vazifani a'lo uddaladi. Biroq, o'zaro feodal urushlar Shayboniyxonning ham, Binoiyning ham o'limiga sabab bo'ldi. U 1512 yilda, Bobur lashkari va eroniylarning Samarqandga bostirib kirib, aholini bir boshdan qirganida halok bo'ldi. Tarixchi Mahmud ibn Vali (XVII asrning birinchi yarmi) yozishicha, Binoiy Qarshi shahridagi masjidi jome' mozorida dafn etilgan. Binoiy "Shayboniynomasi" tadqiqotchilar (E.G.Braun, K.G.Zaleman, A.N.Samoylovich, M.A.Sal'e, A.A.Semyonov, A.N.Boldirev, R.G.Muqminova, A.M.Mirzaev, S.K.Ibrohimov, B.A.Axmedov va boshqalar) tomonidan keng foydalanilmoqda.

Binoiyning yozishicha, hatto 1494-1500 yillarda ham Ko'hak etagida, Obirahmat arig'i bo'yida Ulug'bek rasadxonasi buzilmagan holda qad ko'tarib turgan. Bu ma'lumot Boburning Ko'hak tepaligi joyida Mirzo Ulug'bekning yulduzlar jadvalini tuzish uchun zarur

[illegible] joylashgan rasadxonani ko'rgani haqidagi gaplarga mos keladi. [illegible] Ulug'bek rasadxonasi asboblari XVI asrda ham saqlangan. [illegible] rasadxonaning Ulug'bek o'limidan so'ng 1449 yilning [illegible] talon-toroj qilinib, buzib tashlang'ani haqidagi fikr tarixiy [illegible] to'g'ri kelmaydi.

[illegible] yerda boshqa "Shayboniynoma" muallifi Muhammad Solih [illegible] ham to'xtalib o'tish kerak. Tarixiy manbalarga qaraganda [illegible] Solih oldin Amir Temur, keyin Shohruh Mirzoning eng [illegible] amirlaridan bo'lgan Mirzo Ulug'bekning ustozi Shoh Malikning [illegible] edi. Boshqa chig'atoy beklari kabi uzoq yillar Mirzo Ulug'bek [illegible] bo'lgan Muhammad Solihning otasi Hyp Saidbek ham [illegible] Abdullatifga, keyin temuriy Sulton Abu Saidga 1451 (1468-69 [illegible] bosh tortib, Hyp tog'lariga chiqib ketdi. U Samarqand [illegible] agroflariga muntazam hujum qilib turdi. Abdurazzoq [illegible] yozishicha katta siyosiy mavqega ega Xoja Ahror, [illegible] bor Hyp Saidbekni, keyin uning ittifoqchisi, Ulug'bekning [illegible] Muhammad Jo'qini qurolni tashlab, kelishuvga undagan. [illegible] topshirgach, 1462 yil 5 oktyabrda Muhammad Jo'qi zindonga [illegible] Hyp Saidbek esa ilgari otasi hukmdor bo'lgan Xorazmga [illegible] lekin bu ko'pgacho'zilmadi. To'rt yildan so'ng, [illegible] yillarda Sulton Husayn Xorazmga bostirib kirdi. Hyp Saidbek [illegible] chaqirib olinib, "qo'rqoqlik qilgani uchun" qatl etildi.

[illegible] 1494-1495 yillarda Samarqandga kelgan, "Boburnoma" dan [illegible] Binoiy va Muhammad Solih Xoja Ahrorning o'g'li Xoja [illegible] qo'lida xizmat qilishgan. Bundan ko'rinib turibdiki, Binoiy va [illegible] Solih Hirotni bir yilda, ya'ni 1496 yilgacha tark etishgan. [illegible] Muhammad Yahyoga xizmati ham qisqa bo'ldi. Chunki [illegible] o'limidan so'ng Xoja Yahyo uning barcha huquq va [illegible] yakka xo'jayini bo'lib oldi. Muhammad Yahyo o'n [illegible] Bobur Sultonning hamfikri edi va uning Movarounnahr [illegible] bo'lishini istardi. Biroq, 1501 yilning aprelida Samarqand [illegible] bo'lgan jang Shayboniyxon g'alabasi bilan tugadi va Bobur [illegible] butunlay tark etishga majbur bo'ldi. Shayboniyxon [illegible] bor, bu gal hech qanday to'siqsiz Samarqandni [illegible] Shayboniyxon Samarqandni birinchi bor egallaganidayoq [illegible] tashkilotchilarini, jumladan Muhammad Yahyoni [illegible] edi. O'zbek amirlari uni qatl etishni talab qildilar, biroq

Shayboniyxon marhum Xoja Ahror (1494 yili o'lgan) obro'sini e'tiborga olib Muhammad Yahyoga Makkaga hajga borib kelishni taklif etadi. Shayboniy amirlaridan bir guruhi til biriktirib go'yo xondan beruxsat Xojani yo'lda o'ldiradilar. Haqiqatda esa Shayboniyxon Xoja Ahror avlodining behisob boyliklariga ega bo'lishga qiziqqan. Bunga Xojaning yer-suvlari va boyliklarini amirlarning bo'lib olishiga oid hujjatlar guvohlik beradi. Bu boyliklarning katta qismi Shayboniyxonning mulkiga aylangan.

Muhammad Solih 1501 yildan to umrining oxirigacha Shayboniylarga xizmat qildi va 1534 yılda Buxoroda vafot etdi. Muhammad Solihning she'riy solnomasi chamasi 1505 yillarda yozilgan bo'lib, Kamoliddin Binoiy asariga mos keladi.

B.A.Ahmedovning yozishicha, Binoiyning "Shayboniynoma"siga nisbatan Muhammad Solih asaridagi yangi o'rinlar bo'lib, quyidagicha

1. XX-XXIII boblar Qorako'l, Qarshi, G'uzordagi Shayboniyxonga Qarshi qo'zg'olonlarga bag'ishlangan.

2. Shayboniylarning Shohruhiya, O'ratepa, Farg'ona, Buxoro, Termiz va boshqa joylarga yurishlari bor.

3. Shayboniylarning Xorazmga qarshi 1503-1505 yillardagi yurishlari bor.

4. Yana bu asardan ko'chmanchi o'zbek feodallari, ular lashkarining O'rta Osiyoda qilgan beboshliklari va Shayboniylar bosib olgan hududlardagi aholining og'ir ahvoli haqida muhim ma'lumotlar o'rin olgan.

Muhammad Solihning "Shayboniynoma" asari kam, uning ikki nusxasi Vena kutubxonasi hamda LDD ilmiy kutubxonasining Sharq bo'limida va shu qo'lyozmalarga asoslangan ikki nashr (G.Vamberining 1885 yildagi nashri, P.M.Melioranskiyning 1908 yildagi nashri) saqlanmoqda. Bu asar shoir va filolog Nasrullo Davron tomonidan 1961 yilda o'zbek tilida nashr etilgan.

2. Ashtarxoniylar sulolasi davrida Buxoro xonligi tarixi tarixshunosligi

Ashtarxoniylar sulolasi davridagi Buxoro xonligi tarixi "Tarixi Muqimxoniy" va "Ubaydullanoma" asarlarida bayon qilinadi. Birinchisining muallifi Muhammad Yusuf Xo'jabek o'g'lidir. Muallif

[illegible] Tazkirai Muqimxoniy" ikki qismdan iborat bo'lishi [illegible] birinchi qismida Ashtarxoniylardan Muhammad [illegible] Balx taxtiga o'tirishi 1697 yil 15 noyabrdan boshlab, [illegible] tugagan. Muallif so'ziga ko'ra, u asarda 1704-1705 [illegible] keyin Balx va Buxoroda sodir bo'lgan voqealarni ham [illegible] qilgan, biroq bu orzusini ro'yobga chiqarish muallifga [illegible] "Tuhfat ul-Xoniy" mualliflarining Buxorodagi birinchi [illegible] hukmdorlarining qo'shni davlatlar bilan o'zaro munosabatlari [illegible] ma'lumotlari ham juda qimmatlidir. O'zaro ichki [illegible] Xo'jand va Toshkent hukmdorlari, Qo'qon xonligi, Qash- [illegible] Mo'oniston ham tortilgan edi. Hukmdorlarning taxtga o'ti- [illegible] va yuqori davlat mansablariga tayinlash azaldan [illegible] "Tuhfat ul-Xoniy" dagi Muhammad Rahimxonning [illegible] marosimi bayoni oldingilaridan o'zining mufassalligi [illegible]. Xususan unda bunday yoziladi: farroshlar toj [illegible] xonaga gilam va poyondozlar to'shadilar va taxtni [illegible] Munajjimlar toj kiyish uchun maqbul vaqtni belgilashar. [illegible] va boshqa amaldorlar, obro'li din vakillari (Mahdumi [illegible], Sayyid ota, Xo'ja Muhammad Islom Juyboriy va [illegible] avlodi vakillari) taklif etilardi. Xonaga ko'zlari bog'liq [illegible] Rahimxonni olib kirib, oq kigiz ustiga o'tkazishdi. Kigiz- [illegible] burchidan obro'li to'rt urug': mang'it, o'tarchi, bahrin [illegible] vakillari, kigiz chetlaridan esa yuqorida aytilgan [illegible] ko'zga ko'ringan din arboblari va obro'li to'qsabo, sadr, [illegible] sarkardalardan bir necha kishi ushlab turishardi. Shundan [illegible] hokimni taxtga o'tkazish va ziyofat, xonga sovg'a taqdim [illegible]. Xon esa marosimda qatnashayotgan kishilar yelkasiga [illegible] to'n yopardi. Muhammad Rahimxonning nomiga xutba [illegible] katta qishloq va asosiy shaharlarda uning nomi bilan [illegible] etildi. Ushbu manbaga qaraganda, davlat mansablariga [illegible], mang'it, xitoy - qipchoq, bahrin, saroy, kenagas, jaloir, [illegible] vakillari tayinlanardi. Muhammad Rahimxon [illegible] Davlatbiy mang'it (xonning tog'asi) Buxoroning parvonachisi; [illegible] (xitoy qipchoq) xonning otalig'i va bosh amiri (amir [illegible] bahrin - Miyonqoldagi yettita urug'ning [illegible] begidir, Doniyolbiy mang'it - (xonning katta tog'asi) [illegible] (xon maslahatchisi), Jahongirbiy - xon jibachisi (moliya va

xazina ishini boshqaruvchi), uning o'g'li - Ulug' o'roqchi (hosilning bosh yig'uvchisi); Barotbiy mang'it - (xonning akasi) Samarqand va viloyat hukmdori, Imomquli mang'it - Yakkabog' hukmdori va parvonachi; Nizomiddin Ma'sud - bosh hushbegi; Xudoyor kenagas Buxoro dodhosi (shahar boshlig'i) etib tayinlandilar va hokazo. Diniy mansablar quyidagicha taqsimlandi: Mahdumi A'zam Kosoniyning avlodidan bo'lgan Isxoqxo'ja o'runi shohnishin (musulmon dindorlari boshlig'i); Muhammad Islom avlodidan Nasrullo xoja - Shayhulislom. Muhammad Xoja Sayyid Atoiy - naqib; Nizomiddin Husayniy- Buxoro va viloyatning qozi kaloni; Xoja Ahrorning avlodi Shahobiddin Xoja Samarqand va viloyatning shayhulislomi etib tayinlandi va hokazo. "Tuhfat ul-Xoniy" boy etnografik materialga ega. Asarda nafaqat urug'larning nomi, balki ular yashagan joy va aholi soni ham (d 107 a, 120 b.) keltirilgan. Masalan, o'sha davrda Miyonqol vohasida bahrin, yetti urug' va jaloirlar yashagan; Shahrisabz bekligida kenagaslar, Qarshi va uning atrofidagi tumanlarda mang'itlar; G'uzorda - saroylar, Nurotada - burgutdar, Qubadiyonda - do'rmonlar, Hisor, O'ratepa va Urgutda - tuz va o'tarchilar, Jizzaxda - qirqlar, Boysunda - qo'ng'irotlar yashagan. Bu ma'lumotlar O'rta Osiyoning XVIII asr etnik tarkibini o'rganishga katta yordam beradi.

"Tuhfat ul-Xoniy" jahonda ko'p (mamlakatimizda 23 ta, Angliyada 1, Saudiya Arabistonida 1 ta) nusxada bo'lishiga qaramay, juda kam o'rganilgandir. Muhammad Rahimxonning Seraxs yaqinida 1747 yilda qizilboshlar bilan to'qnashuvi aks etgan ruschaga o'girilgan parchani hisobga olmaganda, asarning na bayoniy, na tarjima nashri yo'q.

"Tuhfat ul-Xoniy" (Xon sovg'asi) 1722-1782 yillardagi Buxoro xonligi tarixiga bag'ishlangan asar bo'lib, XVIII asr O'rta Osiyo tarixchiligida "Tarixi Rahimxoniy" degan nom bilan ham ma'lum. Sharqshunos B.Ahmedovning fikricha, asar muallifi Oxund mulla Muhammad Vafo ibn Muhammad Zokir Karminaviy (1685- 1769) va Nasaf (Qarshi)lik domullo Olimbek Niyozqulibek eshondir. Buxoro xonligining 1722-1768 yillar orasidagi tarixi qariyb 50 yillik voqealarni Muhammad Vafo, qolgan davr 1768-1782 yillar voqealari va mang'itlardan chiqqan ikkinchi hukmdor Muhammad Doniyol hukmronligi yillaridagi (1759-1785 yy.) voqealar Niyozqulibek tomonidan yaratilgan "Tuhfat ul-Xoniy" asari "Tarixi Abulfayzxoniy" tarixiy asarining tabiiy davomidir. Bu ikki asar mualliflari haqida

[illegible] hozircha hech qanday ma'lumotlarga ega emas. Faqat qozi [illegible] haqida ba'zi ma'lumotlar bor. "Ubaydullanoma"ning muallifi [illegible] Muhammad Amin Buxoriyning yozishicha, 1196 yillarda qori [illegible] Ubaydullaxonning kitobdori bo'lgan. Aftidan u bu vazifada [illegible] davrida ham va hatto dastlabki mang'it hukmdorlari [illegible] ham ishlagan.

[illegible] ul-Xoniy" tarixchilik nuqtai nazaridan shunisi bilan qimmatliki unda o'quvchi O'rta Osiyo xalqlarining xo'jalik, ijtimoiy, [illegible] tarixiga oid boy dalillarni topadi. Jumladan, unda ko'chmanchi [illegible] urug'larning yetti yil (1722- 1729 yy.) davomida Zarafshon [illegible] troq hududlariga bosqini natijasida farovon joylar huvillab [illegible]. "Tarixi Muqimxoniy" asarining birinchi qismi kirish [illegible] boblardan iborat. Kirish qismida muallif mavzuning qisqacha [illegible] keltirgan. Birinchi bobda O'rta Osiyoning XVI asr siyosiy [illegible] bayon qilingan. Ikkinchi va uchinchi boblar tarixiy voqealarning [illegible] mazmunini qamrab olgan, ularda Balx va Buxoroning XVIII [illegible] siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy va madaniy tarixi [illegible] va asosli bayon etilgan. Uchinchi bobda 1702-1704 yillardagi [illegible] voqealar, Balx va Buxoro xonligining qo'shni va chegaradosh [illegible] mamlakatlar bilan o'zaro munosabatlari, ularning Termiz, Hisor va [illegible] o'ng qirg'og'idagi hududlarda ta'siri kuchayishi o'z [illegible] topgan. Bu asar XIX asr boshlaridayoq Yevropaga ma'lum [illegible] Undan olingan parchalar Senkovskiyning asarida 1824 yili e'lon [illegible].

[illegible] tadqiqotchilar "Muqimxon tarixi" ni XVI asr oxiri - XVII [illegible] O'rta Osiyo tarixchiligining muhim manbalari qatoriga [illegible]. Shuning uchun hozirda asarning mamlakatimiz, Angliya, [illegible] qo'lyozma xazinalarida (ular 60 dan ortiq) saqlanayotgan [illegible] XIX asrda ko'chirilgan. 1860-1861 yillarda ular o'zbek [illegible] Senkovskiy tomonidan qisman frantsuz tiliga, A.A.Semyonov, [illegible] tomonidan rus tiliga tarjima qilingan.

[illegible] Muqimxoniy" Karl Ritler, German Vamberi kabi yevropalik [illegible] diqqat markazida bo'lgan. V.V.Bartol'dning [illegible] u "uzoq vaqtlar Yevropaliklar uchun Buxoro xonligi tarixi [illegible] yagona manba bo'lib xizmat qilgan". Bu asar rus tiliga to'la [illegible] qilingan va A.A.Semenovning so'z boshi va izohlari bilan nashr [illegible]

Muhammad Kozimning "Nomai Olamaroi Nodiriy" asari XVIII asr fors tarixshunosligining noyob yodgorligidir. Asar muallifi diqqat markazida Afsharıylar sulolasi asoschisi, Eron shohi Nodirning (1736-1747 yy.) Movarounnahr hududiga bostirib kirishi, bu bosqinchining Buxoro xonligiga Ashtarxoniylar hokimiyatining butunlay qulashiga sababchi bo'lishi bilan bog'liq voqealar yotadi.

Muhammad Kozim taxminan 1720-1721 yillarda tug'ilgan bo'lib, uning otasi Marvlik, afshar urug'ining Xurosondagi tarmog'iga mansub edi. Nodirshoh butun Eronning hukmdori bo'lishdan ancha oldin u bilan aloqada edi. 1728-1729 yillarda muallifning otasi Nodirshohga xizmat qilgan, u 1732-33 yillarda shoh buyrug'iga binoan Qaina shahri qabristonini, mashhur Bandi Sulton to'g'onini tiklash va boshqa qurilish ishlari bilan mashg'ul bo'lgan. Yaxshi ishlagani uchun Nodir tomonidan 50 tuman pul bilan taqdirlangan. Muhammad Kozim 1730 yilning iyul - avgust oylarida Mashhadda yashab, madrasada Saidamir Shamsiddin Ali Mazondoroniy (t. I, vv. 115 b) qo'lida o'qigan, biroq bo'lajak tarixchi yaxshi ma'lumot, bilim ololmagan. 1736 yili u Ozarbayjon hukmdori Nodirshohning akasi Ibrohimshoh xizmatiga kiradi. Muallif 1740 yilgacha bo'lgan hayoti haqida hech narsa yozilmagan. 1740 yilning 10 iyunida Nodirshoh Hirotga keladi va O'rta Osiyoga yurishga hozirlana boshlaydi. Muhammad Kozim bu yurishda ko'chma devonxona kichik amaldori sifatida (t. II. V. 279 a) qatnashgan. 1744-1747 yillarda esa, Nodirshoh shaxsiy devonxonasi xizmatchisi bo'lib, 1747 yildan boshlab Marvda qurol-aslaha omborlari vaziri bo'lib xizmat qiladi. (T. II, V. 1566-156 a, 279 a, 287 a; t. III, v. 83 a), bular uning so'nggi mansablari edi, 1166 yilda vafot etgan. "Nomai Olamaroi Nodiriy" muallif rejasiga ko'ra, uch jilddan iborat daftar, jild va mumallad.

Muhammad Kozim asarining birinchi jildini yozishi (337 varaq) 1749-50 yillarda boshlab, 1752-53 yillarda tugatgan. Qo'lyozmaning ikkinchi jildi ko'chirmasida vaqti ko'rsatilmagan. Uchinchi jild qo'lyozmasi oxiri yo'qolgan. Biroq mutaxassislarning fikricha, ikkinchi va uchinchi jildlar 1752-53 yillargacha yozib tugatilgan. Birinchi jildda 1689-1736 yillarda Eronda yuz bergan asosiy voqealar qalamga olinadi. Bu Nodirshohning tug'ilganidan tortib, Eron shohi etib saylanganigacha bo'lgan davrni qamrab olgan. Ikkinchi jildda (327 varaq) Nodirning toj kiyishidan, 1736 yilning 8 martidan, to uning 1743

[illegible] Soxta Sam Mirzo ko'zg'olonini bostirishgacha bo'lgan [illegible], Afg'oniston, O'rta Osiyo, Shimoliy Hindiston va boshqa [illegible] yuz bergan voqealar tasvirlangan. Uchinchi jildda (251 [illegible] 1747 yillar orasida Eron, O'rta Osiyo, Turkiya va Kavkaz [illegible] bergan voqealar bayon qilingan. Umuman, XVIII asrning [illegible] yarmidagi O'rta Osiyo to'g'risidagi ma'lumotlar asosan II-III [illegible] jamlangan.

[illegible] tarixiy voqealarning yoritilishi bilan bir qatorda Eron, O'rta [illegible] va Afg'onistonning og'ir iqtisodiy ahvoli, ayniqsa Nodirning [illegible] lashkarlari zabt etgan mamlakatlardagi aholining og'ir ahvoli, [illegible] lariga doir ko'plab qiziqarli ma'lumotlar o'rin olgan. Shu [illegible] Muhammad Kozimning bu asari XVIII asr fors tarixshunosligi [illegible] orasida munosib ahamiyatga ega.

"Nomai Olamaroi Nodiriy" haqida ko'plab tadqiqotlar nashr [illegible] Uning mamlakatimiz FA Sharqshunoslik ilmgoxi Leningrad [illegible] saqlanayotgan qo'lyozmasi 1919 yilda fanga ma'lum [illegible] Akademik V.V. Bartol'd ikkinchi va uchinchi jild qo'lyozmasi [illegible] yoritilgan maqolasini e'lon qildi. Bu qo'lyozmalar [illegible] FA ning Leningraddagi Osiyo muzeyiga berilgan edi. [illegible] jildning qo'lyozmasi, keyinroq, 1939 yildagina Moskvadan [illegible]. U to'g'ridagi matbuot nashrlari ma'lumotlari 1945 yildagina [illegible] bo'ldi va qo'lyozma Leningradga yuborildi. Bu asarga asosan [illegible] sharqshunoslari ko'p murojaat qilishgan. Biroq uning [illegible] etilmagani tadqiqotchilar ishini qiyinlashtirardi. Shu bois [illegible] FA Sharqshunoslik ilmgoxi bu XVIII asr fors tarixchiligi [illegible] nashr etdi. 1960 yilgi Moskva nashri sharqshunos [illegible] Maklayning mufassal so'z boshisi va 1-jild matnini o'z [illegible]. Bu jild 82 bobdan iborat. Asarning qolgan ikki jildi 1965 [illegible] yillarda bosmadan chiqdi.

[illegible] Osiyo xalqlarining XVIII asrning ikkinchi yarmi - XIX asr [illegible] ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahvoli juda murakkab [illegible] davrda Movarounnahr hududida O'rta Osiyodagi feodal tar[illegible] bartaraf etolmagan Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklari [illegible]. Hali Movarounnahrning ulkan ko'chmanchi turkman [illegible] yashaydigan hududlari mustaqil uluslar sifatida [illegible] edi. Buning ustiga Shahrisabz, Kitob, Orolbo'yi, Jizzax, [illegible] Toshkent, Qorategin, Darvoz Vahon, Sho'g'iyon kabi uluslar

mustaqil feodal hukmronligi yerlari sifatida mavjud edi.

Bu uchalasidan Buxoro xonligi kuchli va ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yaxshi rivojlangani edi. Buxoro xonligining iqtisodiy markazi Samarqand va xonlik poytaxti - Buxoro bo'lgan Zarafshon vodiysi edi.

Oxiri yo'q o'zaro feodal urushlar dehqonchilikning yomonlashuviga va Movarounnahrdagi ko'plab hosildor yerlarning qarovsiz qolishiga olib keldi. Ayniqsa ko'chmanchi qozoqlarning bosqinlari ko'p zarar keltirdi. XVIII asrning birinchi yarmida O'rta Osiyo xonliklaridagi feodal ekspluatatsiyasi o'ta shafqatsiz edi. Masalan, Samarqand hukmdori Farqodbiy (1711 -1713 yy.) shulardan biri edi. 1722 yili Kenagas Ibrohimbiy Samarqandni bosib oldi va o'z raqiblarini yo'q qildi. Ashtarxoniylar (Abulfayzxon) va mang'itlar (Muhammad Hakimbiy) bilan hokimiyat uchun sulolalar kurashida kenagaslar Rajab Sultonni xon etib ko'tardilar. Rajabxon 1723 yili Buxoroga qarshi talonchilik yurishi qildi. Uning taklifi bilan Samarqandga yetib kelgan ko'chmanchi urug'lar bog, tomorqa va ekinlarni toptab, mehnatkashlarni ayovsiz taladilarki, bu 1725 yilda Rajabxonning o'ldirilishiga sabab bo'ldi. Arxiv hujjatlari guvohlik berishicha, Rajabxon ikki marta urush ochib, ikki marta muqaddas Buxoro lashkaridan mag'lub bo'ldi va orqaga qaytdi. Bu orada qozoqlar qalmiqlar bilan dushman bo'lib qoldi, qalmiq lashkari qozoqlarga hujum qildi. Qozoq urug'lari qarshilik ko'rsatolmay, chekinib Movarounnahrga kelishdi. Ikki mag'lubiyatdan keyin xam tinchimagan Rajabxon qozoq lashkarlarini yordamga chaqirib Buxoroni mag'lub etdi. Buning evaziga qozoqlar bir necha yil mobaynida Buxoro va Samarqand ekin maydonlarini talab, mollariga yedirib yubordilar. Buning oqibatida Samarqand va Buxoroda ulkan qiyinchiliklar yuzaga keldi. Samarqandda ochlik va qimmatchilik boshlandi. Bu haqda akademik Bartol'd bunday yozadi: "Temurning sobiq poytaxti (Samarqand) Nodirshoh yurish qilgan 1740 yillarda butunlay bo'shab qolgan edi. Samarqandda mingtacha oila yashayotgan qal'a-qo'rg'onni hisobga olmaganda, aholi qolmagandi. 1772 yili Muhammad Rahimxon (1756 yili xon unvonini olgan, mang'itlar sulolasi asoschisi. Bu sulola 1920 yilgacha Buxoroda hukmronlik qilgan) shaharni tiklash choralarini ko'rdi". Mang'itlar sulolasi hukmronligi kuchayishi, markaziy feodal hokimiyatining birlashuvi jarayoni aholining iqtisodiy va siyosiy hayoti tiklanishi va rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

XVIII asr oxiridayoq shahar, qishloqning xo'jalik aloqalari kuchaygani sezilib turardi, feodal yer egaligi kuchaydi. Turk va Eron tilli dehqon aholi yerga ishlov berishar, sug'orish shoxobchalarini yaxshi saqlab, foydalanishar, hunarmand-chilikni rivojlantirishardi. Shuningdek XVIII asr oxirida ijtimoiy mehnat taqsimoti, ko'chmanchi urug'larning o'troqlashuvi kuchaydi. Bu jarayon ayniqsa, Zarafshon vodiysida XIX asrda kuchaydi. Abdulkarimning (XIX asr boshi) ko'rsatishicha, Miyonqol va Samarqandda ko'chmanchi va o'troq aholi teng bo'lgan. Boshqa asar muallifi esa Buxoro xonligidagi 2,5 million aholidan 1 millioni ko'chmanchi hayot kechirishini yozadi. Abu Tohir Xojaning yozishicha, 1748 yildan boshlab, Buxoro hukumati "bu ahvolni tartibga keltirish choralarini ko'ra boshladi".

XVII asr - XIX asrning birinchi yarmida Xoja Ahror, Mahdumi A'zam va Xoja Islom kabi musulmon dindorlarining ajralib turgan vakillari chiqmagan bo'lsada, mintaqaning iqtisodiy va siyosiy inqirozi davrida shayx, xoja, sayd va boshqa din vakillari aholi ongini qo'lda tutishga harakat qildilar. Bu jarayon XVIII asrda o'ziga xos Amir Ma'sum - Shohmurodga o'xshash xon libosidagi darveshlarni paydo qildi.

Shunday qilib, O'rta Osiyoning XVI asr - XIX asrning birinchi yarmidagi tarixini yoritgan tarixiy asarlarning barchasida o'xshash kamchilik bor. Mualliflar shohlar va ularning atroflaridagi amaldorlarga xushomad qilib, voqealarni bejab yozadilar, ko'z oldilarida yuz bergan voqealar mohiyatiga chuqur kirib bora olmaydilar. Oqibatda xalq ommaviyligi, ularning ko'tarilishlari sabablarini, siyosiy hayotning asl qiyofasini to'g'ri yorita olmaydilar. Ular ham feodalizm tarixchilariga xos bo'lgan o'ta an'anaviy madhiyabozlikdan qutila olmaganlar. Ammo bunday nuqsonlar Sovet davri tarixchiligida ham uchraydi. Shunga qaramay, yuqoridagi asarlar o'sha davrlar tarixiy voqealarini o'rganishda qimmatli ilmiy manbalar hisoblanadi.

Mang'itlar sulolasi davrida Buxoro amirligi tarixi Angliya va AQSH tarixshunoslari nazarida

Mamlakatimiz o'tmish tarixini yoritishda milliy tarixshunoslik manbalari bilan birgalikda jahon tarixshunoslik fanining alohida o'rni bor. Chunki chet el tarixchi olimlari, sayyohlari, turli sohaga oid kasb

egalari, elchilar Markaziy Osiyo tarixini o'rganishga, o'zlari guvoh bo'lgan voqea-hodisalarni qo'lyozma yoki asar holda bayon qilishga harakat qilganlar. Markaziy Osiyo xalqlari bosib o'tgan tarixiy taraqqiyoti, bebaho ma'naviy me'rosi, tabiiy boyliklari, madaniyat sohasidagi takrorlanmas xazinasi bunga sabab bo'lgan. Ayniqsa Angliya va AQSH tarixshunoslari vatanimiz tarixini o'rganishga alohida e'tibor berganlar hamda qator asarlar yozganlar. Tarixchi olimlar o'z asarlarida Markaziy Osiyo tarixini o'z nuqtai nazari hamda fikrlar bilan asoslab berganlar. Ayniqsa Angliya hukumatining Osiyoga nisbatan olib borgan siyosati natijasida ingliz tarixchilari Buxoro amirligi tarixiga taalluqli voqea-hodisalarni muntazam o'rganganlar. Ingliz tadqiqotchisi Meri Xoldevort Markaziy Osiyo tarixini o'rganib "XIX asrda ikkita asosiy sabablarga ko'ra Buxoro, Qo'qon va Xorazm tarixini o'rganish zarur", deb yozadi.

Birinchi sabab XIX asr oxirlarida yoki undan oldinroq g'arbiy imperiyaning bir qismiga aylangan xalqlar, hududlar tarixini o'rganishdir, shahar tarixi bilan birgalikda, ichki urf-odatlar hamda Markaziy Osiyo xonliklarining Osiyo va Afrika mamlakatlari bilan taqqoslab, tashqi aloqalarni o'rganish.

Ikkinchi sabab ingliz kitobxonlari uchun Markaziy Osiyo xalqlari haqida, uning o'tmish tarixi xususida qiziqarli ma'lumotlar taqdim etish. Meri Xoldsvortning "Turkestan in the ninetteenth centiry. A brief history of the khanates of Bukhara, Kokand and Khiva Oxford. 1959- Introduetion" asrida Buxoro amirligining tashqi iqtisodiy ahvoli, Buxoro-Afg'oniston, Buxoro-Eron o'rtasidagi elchilik aloqalari, tashqi savdo munosabatlariga doir tarixiy voqealar aks etgan. AQSH tarixshunoslaridan Joshua Xarlan, Ul'yam Kertis asarlarida Buxoro amirligining siyosiy-ma'muriy boshqarish borasidagi siyosati, Rossiya va Angliyani Buxoro amirligi bilan olib borgan munosabatlari, tashqi aloqalardagi ziddiyatlar keng ma'noda tahlil etilgan. Buxoro amirligiga tashrif buyurgan, mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotini o'rganishga alohida e'tibor bergan ingliz tarixshunoslari Aleksandr Bersning "Travels into Borhara being an account of a jourey from India to Cabool, Tartary and Persia in 1831-33. -London, 1834", Vol'f Jozefning "Narrative of a Mission to Nokhara in the Vears 1843-1845 to Ascertain the Fate of Colonel Stoddart and Captain Conolly. 2 vols- London. 1846. - Edinburgh, 1852." asarlarida amirlikning siyosiy

[illegible] hayotdagi tarixini, Buxoroning tashqi siyosati, Markaziy Osiyo masalasida, Angliya va Rossiya o'rtasidagi raqobatchilik, dehqonchilik, hunarmandchilik, savdo-sotiqqa doir tarixiy ma'lumotlar bayon etilgan.

Ingliz tarixshunosligida muhim tarixiy asarlari bilan katta salo[illegible] ega bo'lgan J.F.Rayt, G.Norman, S.Grexem, V.Joxelson kabi mualliflarning asarlarida Buxoro amirligiga doir tarixiy ma'lumotlar, etnografiyasi, antropologiyasi, arxeologiya, geografiyasiga oid man[illegible] Buxoro amirligidagi xalqlarning hayoti, turmush tarzi, an'analari, diniy masalalari haqida ma'lumotlar taqdim etilgan. O'rta Osiyo geologiyasini o'rganishga harakat qilgan geolog Jorj Frederik Raytning "Rossiya Osiyosi" kitobida MarkaziyOsiyoning moddiy madaniyatiga [illegible] tarixiy manbalar, Movarounnahring tabiati, milliy urf-odatlar, tabiiy boyliklari, mahalliy turkiy xalqlar turmushi va urfodatlari, Buxoro-Rossiya, Buxoro-Afg'oniston, Eron, Hindiston munosabatlari haqida ma'lumotlarni qayd etilgan. Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, Buxoro amirligi bilan iqtisodiy-siyosiy va madaniy aloqalarni [illegible] harakat qilgan davlatlar o'zlarining manfaatlarini ko'zlab, [illegible] mustamlakalarni qo'lga kiritish uchun harbiy josuslik ishlarini [illegible] oshirish maqsadida ko'plab xodimlarni savdogor, darvesh, elchi sifatida jo'natar edi. Bu sayyohlar albatta o'qimishli, siyosiy [illegible] tayyorlangan xaritalar, rasmlar chizishni puxta biladigan, til va tarjimani mukammal o'zlashtirib olgan ziyoli tabaqa vakillari edi. Shuningdek Sovet mustabid tuzum siyosatini mukammal o'zlashtirib olgan G'arb tarixchilari o'z qarashlarida Sovet tarixshunosligini Buxoro amirligi tarixiga nisbatan bir yoqlama qarashlarini qattiq tanqid ostiga olgan edi. Yevropa tarixshunosliga alohida mavqega ega bo'lgan Joshua Kunitning "Samarqand bo'ylab tong. O'rta Osiyoning qayta tug'ilishi" nomli asari 1935 yilda nashr etilib, ushbu asarda XX asr boshlaridagi Buxoro amirligining ichki va tashqi ahvoli, Sayid Olim Bahodirxonning davlatni idora qilishdagi sustkashligi, Buxoro bilan olib borilgan xalqaro munosabatlar, amirlikning idora [illegible] o'zaro ziddiyatlari muhim tarixiy voqealar bilan izohlangan. Ichki va tashqi tayanchga ega bo'lmagan Buxoro amirining siyosiy inqirozi, G'arb mamlakatlar diplomatiyasi tomonidan qilingan har[illegible]siyosiy madadni olishda Amirning jiddiy va qat'iyatlik bilan tad[illegible] qilmaganligi alohida ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek muallif Buxoro amiri Sayid Olim Bahodirxonning davlat boshqaruv, harbiy

qo'mondonlik sohasidagi kamchiliklari, uni Vatanni, hokimiyatni tashlab, Afg'onistonga qochishiga doir tafsilotlari chuqur tarixiy tahlil etilgan. Muallif Buxoro amirligida siyosiy-ma'muriy boshqaruvni quyidagicha izohlab bergan edi: "Amirning hokimiyati mutloq edi. Turli muassasalar boshliqlari, hokimlar u tomonidan tayinlanar va faqat unga ma'sul edi. Mamlakat ma'muriy birlashmalar-viloyatlar, tumanlar va qishloqlarga bo'linardi. Ma'muriy amaldorlar beklar, amlakdorlar, oqsoqollar edi. Buxoro-Arab-Eron madaniyatining shonli qal'asi O'rta Osiyoda yuz yillar davomidagi "Islomning yuragi", buyuk Ortodoksal olimlar va Qur'on sharhlovchilari vatani, 250 machit va madrasalarning markazidir". Buxoro amirligi va uning tashqi siyosati tarixini o'rganish masalasida XX asrning 40-50 yillarida F.Raymand, L.Korlis, V.Koatez, J.Gressiy va boshqalarning asarlari muhim manba bo'lib, Buxoro amirligining tashqi siyosatdagi nufuzi, tovar almashinishi, savdo-sotiq ishlarini rivojlantirish masalasida elchilik qo'lyozmalari, aloqa xatlari, Buxorodagi hunarmandchilik mahsulotlarini Angliya, Frantsiya, Italiya, Germaniya bozorlarida paydo bo'lishi kabi tarixiy voqealarni topishi mumkin. Tarixchi V.Koatezning "Sovetlar O'rta Osiyoda" kitobining "Ruslarning O'rta Osiyo xonliklarini zabt etishi" deb nomlangan uchinchi bobida quyidagi fikrlarni keltirib o'tadi: "XIX asr o'rtalarida O'rta Osiyo bilan Rossiya ayniqsa, rus shaharlari Orenburg, NijniyNovgorod, Irbit bilan O'rta Osiyo shaharlari Xiva, Buxoro va Toshkent o'rtasida savdo rivojlandi. Chor hukumati bu savdoni ruhlantirdi. O'rta Osiyo chegarasidan o'tayotgandagi tovarlar bojxonasi solig'i juda past edi va ba'zan muayyan savdo vaqtlarida soliqlardan voz kechilardi. Rossiyadan O'rta Osiyoga eksport qilinadigan asosiy molarnitemir, mis, paxta, jun mahsulotlari, teri, tamaki, shakar, shuningdek Rossiyaning umumiy metall va metall buyumlarining 3/2 qismi tashkil etardi. XIX asrning 60- yillarida mashhur sayohatchi Vamberi Buxoroning bozorlarida G'arbiy Yevropa tovarlariga nisbatan rus tovarlarining turlari ko'pligini qayd etdi. O'rta Osiyodan Rossiyaga keltiriladigan tovarlarni asosan qishloq xo'jaligi tovarlari, ishlanmagan jun, paxta va shu kabilar tashkil etardi".

3. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro amirligi tarixi tarixshunosligi

O'rta Osiyo xalqlari madaniy hayoti Buxoro xonligidagi feodal tuzumi jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy ahvoliga - poydevoriga bog'liq bo'lib uni tadqiq etishda ijtimoiy hayotning barcha sohalari o'zaro aloqadorlikda bo'lgan. Muammoning turli jihatlarini ana shunday o'zaro aloqadorlikda olib qarash madaniyat taraqqiyotining Buxoro jamiyatida qanday o'rin tutganligini, o'zbek va tojik madaniyati klassiklari, xalq ustalari va hofizlari, baxshi, oqinlarining eng yaxshi asarlarida aks etgan taraqqiyparvarlik xususiyatlarini (tendentsiyalarini) aniqlashga yordam beradi.

XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab Buxoro xonligida iqtisodining rivojlanishi uchun yaxshi sharoitlar yuzaga keldi, garchand sekinroq bo'lsa-da, ishlab chiqarish kuchlari o'sdi, shaxar hayoti va ba'zi viloyatlar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar yaxshilandi, xalqaro bozor ahamiyati ortdi, shuningdek, Rossiya bilan savdo-sotiq munosabatlari kengaydi. XVII asr oxirida Rossiyada kapitalistik munosabatlar rivojlanishi tufayli uning Buxoro xonligi bilan o'zaro aloqalari kuchaydi. Bu davrda madaniy hayotda arab tili bilan birgalikda, avvalgidek rasmiy til sifatida fors-tojik tilidan ham foydalanilgan. Ko'pgina yozishmalar va davlat ishlari fors tilida olib borilardi, bu esa xonlikning ko'pgina aholisi uchun unchalik tushunarli emasdi. Til to'siqligi ham xonlik aholisining madaniy, hayoti darajasining har xilligiga sabab bo'lgan. Bu ayniqsa markazda - aholi zich yashaydigan tumanlarida, masalan, Miyonqol, Ishtixon, Kattaqo'rg'onda yaqqol sezilgan. Bu joylarda asosan o'zbeklar yashagan. Biroq madrasaning boshlang'ich sinflarida ta'lim mullalar rahbarligida arab yoki tojik tillarida olib borilgan. Umuman olganda, madaniyatning ancha pasayishiga asosiy sabab, o'sha paytlardagi hokimlarning zulmkorligi edi. U paytlarda juda ko'plab "muqaddas" kitoblarga yozilgan sharhlar tahlilsiz o'rganilar, maktablarda esa diniy fanlardan ta'lim berilardi. Ular ilmiy dunyoqarashining cheklanganligini, masalan, quyidagi mulohazalardan bilsa bo'ladi: "butun dunyoga nur quyoshdan, ya'ni osmondan tushsa ham, Buxoroda u yerning ostidan chiqadi, chunki unda juda ko'p ulug' kishilar dafn etilgan". Bu, obrazli ifoda, albatta.

Hukmron sinfning ijtimoiy-siyosiy qarashlari uning foydali siyosiy

va iqtisodiy munosabatlarida ma'qullanadi va mustahkamlanadi Xukmron sinfning mafkuraviy qarashlari barcha vositalar va turli usullar bilan u yaratgan tuzumiga himoya qiladi va yoqlaydi, uning manfaatlari uchun ma'naviy xizmat qiladi. Buxoro xonligidagi feodal jamiyatda hukmron sinflar - feodallar, din ahllari, savdogarlar hisoblangan. Dehqonlar, hunarmandlar va aholining boshqa tabaqalari quyiroq sinflar edi. Feodallar, din ahllari, savdogarlar mafkurasida amirlar va hukmron boylar hokimiyatining muqarrarligi va abadiyligi, din ahllarinnng ishi va huquqlarining muqaddasligi, xalqning hukumatga itoatkorligi, mehnatkashlarning ezilishi va huquqsizligi ta'kidlangan. Shuning uchun dehqonlar va hunarmandlar mavjud ijtimoiy-siyosiy tuzumni qoralaganlar va zolim boylarni, umuman hukmron sinfni la'natlaganlar va kelajakda yaxshi yashashlariga umid bog'laganlar. Ezuvchi sinflarning mafkuraviy tizimi ularning bir-biridan farq qilishiga, xususiyati va o'ziga xosligiga qaramasdan umumiy asosga ega. Ular kishini kishi tomonidan ezishni himoya qilishga, xususiy mulkchilikning barqarorligini targ'ibot qiladi, mulkiy tengsizlikni qonunlashtiradi, aslzodalarning hukmronligini, ommaning itoatkorligini asoslaydi. Aksincha, eziluvchi sinflarning qarashlari qullik va zulmga norozilikni ifodalaydi, ular adolatsiz ijtimoiy tuzumni buzishga, tenglik va ozodlikka erishishga harakat qiladilar. Shubhasiz, qarama-qarshi mafkuraviy qarashlar Buxoro xonligi hayotida ham xilma-xil bo'lgan. Tabiiyki, hukmron sinf o'z qarashlarini boshqa sinflarga va ijtimoiy qatlamlarga singdirishga harakat qilar, odamlarga mafkuraviy ta'sir ko'rsatar, jamiyatda mafkuraviy jihatdan hukmronlik qilar edi. Iqtisodiy imkoniyatlarga ega bo'lgani tufayli u tashkilotlar, jamiyatlar tuzgan, o'zining qarashlarini targ'ib etgan. Hokimiyat tepasida bo'lgan hukmron sinflar davlatning boshqaruv murvatlarini, dastaklarini o'z qo'llarida tutganlar va ularni o'z maqsadlari yo'lida xizmat qildirganlar. Ta'lim tizimini va o'smir yoshlarni tarbiyalashni o'z nazoratiga olgan hukmron sinflar ular ongini turli usullar bilan tarbiyalaganlar. Kishilarning diniy dunyoqarashini shakllantirish uchun ko'plab xudojo'ylar va dindorlarni, darvesh va qalandarlarni, shoir va yozuvchilarni, shariat qonunlari va qur'onni sharhlovchilarni tarbiyalab yetishtirgan. Hukmron sinflar o'z qarashlarini har tomonlama va qat'iy ravishda xonlik aholisiga singdirishga, boshqacha fikrlovchilarni ta'qib etishga, itoatsizlarni shafqatsiz jazolashga yo'naltirganlar.

Buxoro xonligida hukmron mafkuradagi islom olimlari mavjud ijtimoiy-iqtisodiy tuzumni maqtar va yoqlar edilar. Din esa hayotga ham moddiy, ham ma'naviy jihatdan katta ta'sir ko'rsatardi. Mafkuraning barcha sohasi, madaniyat va fan mehnatkash xalqqa ta'sir o'tkazishga xizmat qilardi, ular islom diniga tamomila bo'ysundirilgan edi. Buxoro dindorlari qozikalonlar, shayxulislomlar, mudarris-lar, raislar, muftiylar, imomlar, xo'jalar, eshonlar, shayx va darveshlar islomni "xudoning irodasi" deb targ'ibot qildilar va feodal tuzumning ehtirosli himoyachilari bo'ldilar. Ularning barcha faoliyati keng xalq ommasini tinchlikka, yaxshilikka chaqirishdan iborat edi.

Mamlakat madaniy hayotining asosi - jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti edi. Tarixdan ma'lumki, madaniy hayotda ijtimoiy-iqtisodiy dunyoitlar bilan bir qatorda alohida davlat, jamoat arboblari ham muhim rol' o'ynaydilar. Ammo ko'rib chiqilayotgan davrda na Haydar va na Nasrullo va na uning merosxo'ri Muzaffarxon bunday tarixiy shaxslar emas edilar. Aksincha ular ma'rifiy faoliyatda islom va shariat qonunlarining posbonlari edilar. Saroy tarixchisi, Doniyorbiyning kenja o'g'li Muhammad Yoqub Buxoriy, masalan, Amir Haydarni mana bunday ta'riflaydi: "Olim, fozil, fikrchan, diniy rasm-rusumlarga amal qiladigan, kalomi sharifning bilimdoni. Davlat ishlari bilan band bandligiga qaramasdan u har kuni 400 mullaga, o'n minglab bechora faqirlarga ma'ruza o'qir, har kuni maosh tarqatar, shuningdek qalandarlarga ko'maklashar edi. U shayxlarni juda e'zozlar va ularga ko'p miqdorda g'alla nazr qilardi. ., tabarruk nomoz va tungi ibodatni hech qachon o'tkazib yubormasdi".

Ahli din,- deb yozadi professor A.A.Semyonov,- musulmonlik bilan payvandlangan yagona jipslashgan tabaqani tashkil qilib, shariat nomli yagona ilohiy qonunlarga amal qilardi. Hech qanday erkin fikr, hattoki yangilikka ishora ham bu toshday qotgan muhitga kirolmasdi. O'z qo'l ostidagilarning hayoti va o'limining mutlaq hukmdori bo'lgan amirlar ham ko'pincha Buxoro oliy tabaqa dindorining kayfiyati bilan hisoblashishga majbur bo'lardi". Masalan, amir Shohmurod xudojo'yligi uchun hayotlik chog'idayoq ruhoniylar tomonidan "amir Mas'um ("Gunohsiz amir") faxriy nomini oldi. Shohmurod mang'itlar sulolasidagi eng tinib-tinchimas amir bo'lib, uning hokimligi davrida sug'oriladigan yerlar ko'paygan, otasi Doniyolbiy zamonida misli ko'rilmagan darajada oshib ketgan ba'zi

soliqlar bekor qilingan bo'lsa-da, baribir O'rta Osiyo viloyatlarining mustamlakachilik jarayoni kuchaydi. U amir unvoniga qaramasdan o'zini Buxoroning eng yirik din peshvosi, Buxoro dindorlarining rahnamosi Shayx Safarning sadoqatli muridi deb bilardi. Aynan Shayx Safarning tazyiqiga ko'ra amir Shohmurod Afg'onistonga katta yurish qilib, uni "yo'ldan ozgan" mayitlarga qarshi urush degan diniy shior bilan oqladi.

"Fotihnomai sultoniy" nomli tarixiy majmuaning muallifi ("Nasrulloxonning rasmiy tarixi") Muhammad Mir Olim Buxoriy Shohmurodning Afg'oniston hukmdori Temurshohga (unga o'sha paytlari Shimoliy Hindistonning katta qismi itoatda, o'zi esa Shahrisabz begi Niyozali otaliqning ittifoqchisi edi) qarshi yurishga tayyorgarligini tavsiflab yozgandi: "Mashvarat (harbiy kengash) Shohmurodga Amudaryo bo'yida mudofaa tashkil etishni maslahat berdi. Xullas, amir hazrati oliylari kengash maslahatini oqilona deb topdi, mashqlarni to'pladi, himoya qilishga tayyor turishga chaqirdi. So'ng amir Samarqand, Jizzax, Miyonqol, Kattaqo'rg'on, Karmanada va Marvda turkman askarlarni to'plab ixtiyoriga yuborishga buyruq berdi. Bundan tashqari, u Qorako'ldagi harbiy bo'linmalarga va Buxoroning yetti tumani, Nasaf, G'uzor, shuningdek, Qo'ng'irot, Dohisori, Boysun urug'lariga Amudaryo bo'yida yig'ilib turishga buyruq berdi". "So'ng, davom etadi Mir Olim Buxoriy, - amir Shohmurod boshchiligida, bir yuz ellik ming qo'shin yuk-taqa bilan to'plandi. Bu qo'shin safida 20 ming olim va islom targ'ibotchilari bor edi. Bu hurmatli zotlarning yo'lboshchisi janobi eshon Shayxulislom edi. "So'ng muallif xabar berishicha, bu jangda odam qoni daryoday oqdi, juda ko'p begunoh odamlar o'ldirildi va mayib etildi, o'n minglab odamlar asirlikka olindi va qullikka haydalib ketildi" va h. k.

"Begunoh amir" Shohmurodning haqiqiy ishlari mana shunday bo'lgandi. Lekin Shohmurodning merosxo'ri Amir Haydar (1800- 1826 yy.) markazlashtirish siyosatini davom ettirishni eplolmadi. XIX asrning birinchi yarmida uchala xonlik o'rtasidagi o'zaro janglar davom etdi, masalan Nasrullo (1826-1860 yy.) Shahrisabzni 1856 yilda egallab olgunicha, bu beklikka qarshi 32 yurish qilgan. "Qassob amir" nomi bilan dong taratgan bu amir taxtga o'tirib, ikkala ukasini o'ldirdi va hokimiyatni qo'lga kiritgach, har kuni odamlar ko'z o'ngida 50-100 odamni ostirdi. "Gulshan-ul-mulk" tarixiy asarining muallifi, amir

Nasrulloga adovat ko'zi bilan qaragan Muhammad Yequb Buxoriy yozgan ediki, Nasrulloning Buxoro taxtiga o'tirish kuni 50 odam o'ldirilgan. Ularning deyarli hammasini olomon oldida "Nog'oraxoni" minorasidan pastga tashlangan: Masalan, qozi Tursun Bobo o'g'li bilan munajjim Mirza Aziz, shoir Aziz Sodiq (taxallusi Munoiy), Samarqand darbozasidan esa mudarris qozibek Miroxo'r Riyozbiy, Buxoro vasovullari boshlig'i Rahmatullabek, qozi Muharram, Xo'jaqul ulamo va boshqa ko'plab Buxoro ziyolilari vakillari minoradan uloqtiriladi. Ko'rib chiqilayotgan davrda diniy ahkom tazyiqi ostida avvaliga Amir Haydar, keyin Nasrullo hukmlari bilan o'z davrining din vakillari o'ldirildilar, surgun qilindilar, turli ta'qiblarga duchor bo'ldilarki, ular orasida shoira Nodira, Buxoro madrasalari mudarrisi Hojiboy, qozi Abdusaid Samarqandiy, Vobkent mudarrisi Mo'minxo'ja, Boysun mudarrisi Xudoyberdi, G'ijduvon mudarrisi Fozilbek va boshqalar madrasaning o'quv dasturiga norozilik bilan qarashar va amirga qarshi dushmanlik kayfiyatida edilar. Lekin qo'rquv bois o'z qarashlarini oshkor etolmasdilar. Harbiy-feodal guruh va uning g'oyasi himoyachilari - dindorlar mehnatkash xalq orasiga hamisha va har doim sodiq luqarolik g'oyasini yoyardilar. Diniy muassasalar faoliyati tez faollashtirilardi. Faqat Buxoroning o'zida 465 machit va 103 madrasa ishlardi. Samarqand singari yirik shaharda, uning chet hududlarini ham hisobga olsak, 155 machit va 22 madrasa, Kattaqo'rg'onda esa machit va 100 ga yaqin tabarruk joy bor edi. Bu diniy muassasalar asosan xalqni islom qonunlari ruhida tarbiyalash o'chog'i bo'lib xizmat qilardi.

Butun Sharq singari, Buxoro xonligida ham ikki xil maktab mavjud edi. Ba'zi maktablar machitlardagi kichik va tor xonaqohlarga joylashardi. Maktablarda dastlabki 5-6 yil "Haftiyak" - Qur'onning suralardan bir qismi, tojikcha "Chor kitob" (bu kitob savol-javob asosida tuzilgan) o'qitilardi. Keyin xudo va mo'tabar zotlar nomiga bitilgan hamdu-sanolardan iborat So'fi Olloyor asariga o'tilardi. Bu kitob o'zbek tilida she'riy shaklda yozilgan. Shundan so'ng mistik yo'nalishda didaktik she'rlardan tuzilgan Xoja Hofiz ijodi o'rganilardi.

Maktabning ichki va tashqi sharoiti aholining jamoat va oilaviy hayotiga mushtarak edi. Butun Buxoro xonligi va Zarafshon o'lkasida ko'pincha yangi ma'lumot sharoit yanada og'ir bo'lgan madrasada olinardi. Bir hujrada ikki kishi arang sig'adigan, yolg'iz eshigidan ham yorug'lik,

ham havo kirib turadigan nim yorug' hujralarda yashardilar Hujralarda ovqat tayyorlanardi, oziq-ovqatlar saqlanardi, shuningdek yuvinish va mashg'ulotlarga tayyorlanish ham shu yerda bo'lardi. Vaqt o'tishi bilan hujralar singari, vaqf mulki ham olib-sotish mumkin shaxsiy mulkka aylanardi.

"Buxoro madrasalarida quyidagi fanlar o'qitilardi: arab tilining sintaksisi va etimologiyasi, mantiq, islom asoslari, tibbiyot va xudojo'ylikdan iborat fan, qonunshunoslik - fiqh. So'nggi sanalgan fan g'unohni yuvish qoidalarini, fotihalarni, ro'zani, Hajga borish, dafn marosimlarini jonli-jonsiz buyumlarga soliq, savdo-sotiq, qulga ega bo'lish, ishdan ozod etish, uylanish, ajralish va boshqa diniy ko'rsatmalar yoki jamiyat munosabatlarida yuzaga kelgan hayotiy hollarni talqin qilardi Xohlovchilar hisob-kitob qilishni istagan domladan o'rganishlari mumkin edi. Adabiyot bilan har kim o'z ixtiyoricha shug'ullanishi mumkin edi. Ona tilini har kim o'zining qobiliyati va kuchiga yarasha tajribada va kitoblar o'qish orqali o'rganardi. Darslar dasturi va o'quv adabiyotlari hamisha o'zgarmasdan qolardi.

Maktab va madrasada o'qish muddati 19 yilgacha cho'zilib ketardi Shunda ham ba'zi talabalar yetarli savod olmasdi. O'qish pulli bo'lib kambag'al dehqon va hunarmandlarning bolalari ham, o'rta hol odamlarning bolalari ham goho o'qishni davom ettirolmasdi.

Buxoro xonligidagi ta'lim tartibi sxolastik ruhda edi. Asosan diniy fanlar o'qitilar, hozirgi ma'nodagi ilm berilmas edi. Bunday ta'lim mamlakatni qoloqlikka olib keldi. Shuni ham aytish kerakki, madrasalarning ilg'or tafakkurli yoshlari o'z xohishlari bilan Abu Nasr Forobiy, Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Sa'diy Hofiz, Navoiy, Fuzuliy, Bedil, So'fi Olloyor, Huvaydo asarlarini o'qib o'rganar edilar. Ana shunday ongli talabalar orasidan Abdulla Avloniy Behbudiy, Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Hamza, Shavqiy Kattaqo'rg'oniy Mujrim Obid, Muztar Miriy, Mullo qurbon Jomiy va boshqa shoir ma'rifatchilar yetishib chiqdi. Maktab va madrasani bitirgan ilg'or fikrli yoshlar o'z xalqining orzu-armonlarini tushunar va uning ahvolini yaxshilash uchun qo'lidan kelganicha yordam berishga intilar edilar Ular zamonasi va xalqiga foyda yetkazish uchun mustaqil ravishda yunon faylasuflarining asarlarini, tarix, adabiyot, jo'g'rofiya, fiqh (qonunshunoslik) ilmlarini o'rganar edilar. XI-XII asr o'rtalarida Buxoroning eng boy kutubxonasi, Somoniylar asos solgan "Dori-sh

[illegible] ilm-fan markazi bo'lib, bu yerga buxoroliklardan tashqari O'rta [illegible] va jami Sharq mamlakatlarining ilg'or fikrli odamlari kelib [illegible] Ammo hukmron sinflar xalqning savodli bo'lib ketishini [illegible]hmasdi. Amir Haydarning loqaydligi va ko'magi bilan "Dori-sh-[illegible] ning juda ko'p bebaho kitoblari turli odamlarga ro'yxatsiz berilib, [illegible] toroj bo'lib ketdi. Amir Nasrullo maxsus farmon chiqarib, "Dori-[illegible]" kutubxonasini begonalarga yopib qo'ydi va undagi xazinalarni [illegible] oldi. Amir Nasrulloning madaniyat boyliklariga yovvoyilarcha [illegible]nosabati ayniqsa 1842 yilda, Qo'qon lashkarlari Buxoroga bosib [illegible] vaqtda yaqqol ko'rindi. Amir kitob xazinalari "dushmanga [illegible]" deb, ularni sarbozlar qilichi bilan chopib, maydalab [illegible]tirdi, ba'zi kitoblar yoqildi, ba'zilari o'g'irlandi. Madaniyatga [illegible] hukumatining bunday munosabati keyingi vaqtlargacha Sharq [illegible] tarixini o'rganishni mushkullashtirdi.

V V Bartol'd yozishicha, "Buxorodagi mavjud kutubxonalar amir [illegible]ullo vaqtidayoq talon-toroj qilindi, amirning o'z kutubxonasiga esa [illegible]larning kirishiga ruxsat yo'q edi". To'g'ri, bu davrda falsafa, tarix, [illegible] doir bir qancha yirik asarlar ham vujudga keldi. Ammo [illegible]larning ko'pchiligi diniy ruhda bo'lib, ularda amirlar va xonlar [illegible] edi Bu kitoblarda xalq ommasining tarixdagi roli yetarli [illegible]tilmagan. Masalan, tarixchi Muhammad Mir Alim Buxoriy o'z [illegible] amir Shohmurod (Botirxon) siyosatini maqtab, bunday yozadi: Mazkur haqiqiy yo'lboshchi davrida islom va shariat keng quloch [illegible]. Adolat va haqiqat shu darajada qaror topdiki, bo'ri bilan qo'y bir [illegible]dan suv ichadigan bo'ldi". Mahalliy tarixchilar xalq ommasining [illegible] kamsitib, amirlar va hokimlarni maqtab, tarixiy voqealarni [illegible]lik xolis yoritmasdilar. Ular o'z asarlari bilan feodal tuzumning [illegible] negizlarini himoya qilib, hukmron sinflar manfaatlariga xizmat [illegible] Buxoro xonligida ham bilim tarqatishning eng yaxshi manbalari [illegible] edi Bu davrda xonlikda kitoblar tipografiyada emas litografiya, [illegible] yoki qo'lyozma holda tarqatilar edi. O'rta Osiyoning buyuk [illegible]lari tomonidan bunyod etilgan kitoblar qadim zamonlardan beri [illegible] ma'naviy ozuqa berib keladi Kitoblar inson va jamiyatning [illegible] boyishiga xizmat qiladi. Ilg'or odamlar kitoblarning bilim, [illegible] san'at, hunarlarni ravnaq toptirishning buyuk quroli ekanligini [illegible] bilar edilar. Kitob insonga mehnat qilishga va yashashga yordam [illegible] Inson aqli va hissiyotlariga kuchli ta'sir ko'rsatadi. O'tgan [illegible]dayoq Herman (Arman) Vamberi "Alisher Navoiy asarlari har

bir o'zbek oilasida xazina" ekanligini hayratlanib yozgan edi. Ajoyib kitoblarning xazinalari xalqning o'zida, xonadonlarda saqlanar edi. Odamlar kitoblarni avaylab-asrab, keyingi avlodlarga yetkazar edilar. Kitoblarni ko'chirib yozish, asrash va tarqatish juda katta savob ish hisoblanardi. Chunonchi, XIX asr va XX asr boshlarida Buxoro shahrida 20 ta o'zbek va tojik olimining shaxsiy kutubxonasida 10 ming nusxa turli sohalarga doir qo'lyozma va toshbosma kitoblar saqlanar edi. Hozir shu qo'lyozma va toshbosma kitoblarning ko'pchiligi sobiq Ittifoq, O'zbekistan va Tojikiston sharqshunoslik institutlarining fondlarida saqlanmoqda., Faqat O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutida turli sohalarga oid 30 ming toshbosma asar saqlanmoqda. Bular orasida mohir hattotlar - kalligraflar ko'chirgan falsafa, tarix, adabiyot, tabiiyot va boshqa sohalarga oid qo'lyozmalar bor. Lekin, feodalizm tuzumining ijtimoiy-iqtisodiy qonuniyati va talabiga ko'ra kitob ko'chirish va kitob to'plash ishlari hozirgidan boshqacha edi. Ruhoniylar hamma tabaqalarga mansub odamlarning shariatga, dini islomga zid asarlarni tarqatishiga yo'l bermas edilar. Bunday qilganlar qattiq jazolanar edi. Shuning uchun ham aholida tabiiy fanlarga doir kitoblarga nisbatan diniy-mistik ruhdagi "Rashohat-aynu-l-hayot", "Tazkiratul-avliyo", "Xazinatul-asfiyo", "Safinat-ul-avliyo", "Mazoroti Samarqand" ("Samariya"), "Sayqalnoma", "Me'rojnoma", "Maslakul-mutta-qiyn", "Sabotul-ojizkyn", "Abu Muslim", "Kimiyoi-saodat" kabi kitoblar ko'p bo'lar edi. Bu kitoblarda diniy-fantastik, ilmi-g'ayb (g'oyibot sirlari), avliyo va payg'ambarlarning ilohiy mo'jizalari, oxiratdagi jannat rohatlari va do'zax azoblari tasvirlangan edi.

Hokimlar diniy bilimlarni keng tarqatish uchun Ahmad Yassaviy, Sulaymon Baqirg'oniy (Bag'rioniy), Jaloliddin Rumiy, So'fi Olloyor va boshqalarning ijodiy merosiga katta e'tibor berar edilar. Mir Olim Buxoriyning yozishicha, amir Shohmurod "... har madrasaga mudarris va har machitga imom tayinladi. Har bir tuman (rayon)da va shaharda ilohiyotchi olimlar, qozilar va raislar diniy rasm-rusmlarga, savdo-sotiq qoidalariga va soliqlar to'g'ri undirilishiga mutasaddilik qilar edilar. Bilimga tashna odamlar har tomondan Buxoroga oqib kelardi. Tez orada madrasalar talabalarga to'ldi. Shundan so'ng amir oddiy fuqarolarga ham dini-islom yo'l-yo'riqlarini o'rgata boshladi. Buxoro aholisining xudojuyligi, taqvosi ziyoda bo'ldi. amir Haydar davrida dini-islom yanada ravnaq topgan, shu maqsadda u (amir Haydar) har yili darveshlar va aziz-avliyolarga nazr-niyoz uchun yuz ming tanga mah-

[illegible] edi". Ammo, yuqoridagi dalillardan Buxoro xonligida faqat [illegible] kitoblar tarqalgan, degan xulosa kelib chiqmasligi kerak. Xalqdan [illegible] taraqqiyparvar odamlar turg'unlik va jaholatga qarshi kurashib, [illegible] ma'rifat tarqatdilar. Xalq orasida savodli kotiblar, hattotlar, [illegible] kitoblarni to'plovchilar va saqlovchilar ko'p edi. Ma'rifatli mana [illegible] odamlar o'zbek, tojik, ozarbayjon va boshqa xalqlarning ma'naviy [illegible] boyliklarini qayta ko'chirish, to'plash va asrash bilan shug'ul[illegible]. Ular o'zbek va tojik adabiyoti klassiklarining noyob durdo[illegible] asarlarini avaylab to'pladilar. Masalan, ulug' o'zbek shoiri Alisher [illegible] "Mahbubul-qulub" asari zamonasining ma'rifatchilari Mir [illegible] Buxoriy tomonidan 1838 yilda, Ne'matillo Yaqub Samarqandiy [illegible] 1844 yilda chiroyli naqshlar bilan qayta ko'chirilgan edi va [illegible]

[illegible]qandlik mashhur naqqosh va kotib Mir Abdulhay 1825 yilda [illegible] "Chor devon"ini, naqqosh Muqimxon Samarqandiy 1850 [illegible] mashhur buyuk asar "Hamsa"ni chiroyli yozuvda qayta [illegible] edilar.

XIX asrning birinchi yarmida ulug' o'zbek shoiri Alisher Navoiy [illegible] tashqari yana Mashrab, Huvaydo, Sayqaliy, Shavqiy, Amiriy, [illegible] va boshqa shoirlarning asarlari ham husnixat bilan ko'p marta [illegible] chiqilgan edi. Bu asarlar tez-tez qayta ko'chirilib, qo'ldan-[illegible] yurardi. XIX asrning birinchi yarmida Muhammad Munis [illegible] 1854- 55 yillarda o'z devonini tuzish bilan ayni vaqtda [illegible] Sa'diy, Jomiy, Navoiy, Fuzuliy kabi ulug' shoirlarning [illegible] ham to'plagan edi. Ana shu devonlar hozir O'zbekistan [illegible] akademiyasi Sharqshunoslik ilmgohining qo'lyozmalar [illegible] saqlanmoqda. Kichik hajmdagi bu she'riy bayozlardan odatda [illegible] yig'inlarida foydalanar edilar.

[illegible] asrda Buxoro xonligi hududida juda ko'p shoir, olim, hattotlar [illegible] Muhammad Rajab Buxoriy, qori Rahmatillo [illegible] Boysuniy, Afqori Buxoriy, Adriy Samarqandiy, Habibiy, [illegible] "Tavorixi muluki ajam" ("Eron yerlari tarixi") [illegible] Mulla Muhammad Yusuf, Odilmurod Miriy, Yunusxo'ja [illegible] Muhammad Amin Buxoriy, Muhammad Yequb [illegible] Muhammad Mir Olim Buxoriy, Rahmonqulbek kotib Miro[illegible] Farhod, Muhammad Shukur Kotib, Jaloliddin [illegible] Mullo Nasrullo Kotib kabi juda ko'p taraqqiyparvar olim [illegible] yashar edilar. Ulardan ko'plari faqat asarlar yozibgina

qolmasdan, balki ko'plab shogirdlar ham tayyorlaganlar. Ular g'ayrat bilan kitoblar tuplashgan va imkoniyatlariga qarab xalq orasida bilim ma'rifat tarqatishga intilishgan. Shuni ta'kidlash lozimki, Navoiyning bizgacha yetib kelgan asarlari XIX asrning oxirida va XX asrning birinchi yarmida ko'chirilgan. Navoiy asarlaridan boshqa yana Sa'diy, Hofiz, Jomiy va Sharq adabiyotining boshqa klassiklari asarlari ham san'atkorona ko'chirilgan. Xususan 1818 yilda xattot Abdulla Xevaqiy "Devoni Hofiz" she'rlar to'plamini sharhlab tahlil etib, uni tojik tilida nasrda yozib chiqqan. O'sha yili Jomiyning mashhur "Tuhfat-ul asror" asari, ozarbayjon shoiri Sohib asarlari, 1863 yilda Fazliyning devoni ko'chirilgan. Nasrullo Buxoriy hattotlik yo'li bilan xorazmlik shoir va olim Muhammad Xoksorning (1794-1801 yy.) "Muntaxab al-lug'at" asaridan, Muhammad Rajab Buxoriy esa Mirzo Bedilning "Kulliyot"idan, Rahimbek Kotib 1780 yilda Fuzuliyning "Soqiynoma" asari va she'rlar to'plamidan, Muhammad Farhod (1806-1807 yy.) Xusayn Voizning mashhur didaktik asari "Latoif va zaroif" dan nusxa ko'chirishgan. Zarafshon vodiysining shoir va yozuvchilari Shavqiy Kattaqo'rg'oniy, Volai Samarqandiy, Xiromiy va boshqalar haqiqiy asarlar yaratibgina qolmasdan, balki o'zlaridan oldin o'tgan mashhur kishilarning asarlaridan nusxa ko'chirganlar va tarjima qilganlar. Masalan, shoir Xiromiy forscha-hindcha hikoyatlarga o'xshash pandnoma ruhidagi qiziq asarlar yaratadi. Rahmatillo Vozix esa o'rta asrda yashab, ijod etgan arab shoiri va mutafakkiri Al-Mahdiyning asarlarini tojik tiliga tarjima qiladi. Shuni ta'kidlash zarurki, o'zbek va tojik adabiyoti yetuk namoyandalari o'z asarlarida zamonining ilg'or g'oyalarini ifodalashga intilishgan. Bu she'riyat, nasr va tarixiy xronikalarning eng yaxshi namunalari feodal hukmronligi zamonida zulmat ichra nur bo'lishgan. Ularning asarlari ijtimoiy adolat va insonparvarlik, vatanga muhabbat g'oyalari bilan sug'orilgan bo'lib xalq ijodiyotini juda yaxshi aks ettirgan. Ular bizni bugungi kunda ham o'ziga maftun etadi. Ammo xalq yaxshi ko'rgan odamni hukmdorlar yomon ko'radi. O'zbek va tojik adabiyotining eng yaxshi, iqtidorli vakillari quvg'in va ta'qibga uchragan. Buxoro amirlari mutafakkirlarini quvg'in qilib qolmasdan, balki ularni zindonlarga solib qiynashganlar hatto o'ldirganlar. Ular o'limidan keyin asarlarini yashirganlar va hatto yo'qotib yuborishgan yoki ular asarlari mazmunini o'zgartirishib soxtalashtirganlar. Ularning asarlari diniy ruhdagi soxta xayollar yoki teskari fikrlar deb talqin etilgan.

[illegible] qilib, bu davrda feodal zulmi va dinning ahamiyati ku- [illegible] Vamberining yozishicha, Buxoroda XIX asr o'rtalarida [illegible] qul bo'lgan. Biroq moddiy boyliklarni dehqonlar va [illegible]ndlar yaratganlar. Buxoro xonligi bilan Rossiya o'rtasida [illegible] rivojlanganligi tufayli bizning vatandoshlarimizning [illegible] asarlari Rossiyaning ilmiy markaziga jo'natilgan. [illegible] 1820 yilda Rossiya vakolatxonasining diplomatik missiyasi [illegible]yatli tamomlagandan keyin amir Haydar rus elchisi Negriga [illegible] Tarixi Muqimxon" asarini beradi. Negri bu asarni Rossiya [illegible] akademiyasiga topshiradi. Bu asar Peterburg dorilfununining [illegible] professori O.I.Senkovskiy tomonidan frantsuz tiliga [illegible] qilinadi. Shuni eslatib o'tish kerakki, rus sharqshunos olimlari [illegible] ilg'or kishilari, O'rta Osiyo tarixchilari, faylasuflari, [illegible] va tojik adabiyoti klassiklarining nodir asarlarini saqlash va [illegible] katta hissa qo'shganlar. 1960 yilda bir guruh sovet delegatlari [illegible] Maklay, O.F.Akumushkin, V.V.Kuliev, M.A.Salohiddinov [illegible]larning XXV Xalqaro kengashida o'z ma'ruzalarida shu [illegible] kidlab o'tishgan. V.A.Ivanov 1915-1916 yillarda Buxoroda [illegible] adabiyotining juda katta kollektsiyasini to'playdi.

Mavzu yuzasidan savollar:

[illegible]lar sulolasi davrida Buxoro xonligi tarixiga oid qanday [illegible] bilasiz?

[illegible] guzida" ("Nusratnoma") asari qanday ahamiyatga ega?

[illegible]uddin Binoiy haqida qanday ma'lumolarga egasiz?

[illegible] Muhammad Solix haqida qanday ma'lumolarga egasiz?

[illegible] Tarixi Muqimxoniy" asarining ahamiyati haqida to'xtalib o'ting?

[illegible] Tarixi Muqimxoniy" asari manbashunoslikda tutgan o'rni [illegible]

[illegible] xonligi tarixi yoritilgan qanday asarlarni bilasiz?

[illegible] amirligi tarixi ingliz va AQSH tarixshunosligida qanday [illegible]?

[illegible] XVIII-XIX asrlarda Buxoro amirligi tarixi qanday asarlarda aks [illegible]

[illegible] Rossiyasi mustamlakachilii davrida tarixshunoslik rivojiga [illegible] olimlar xissa qo'shgan?

MAVZU № 8. XIVA XONLIGI TARIXI TARIXSHUNOSLIGI VA TARIXIY BILIMLARNING RIVOJLANISHI

REJA:

1. Xiva xonligining Qo'ng'irotlar sulolasi davri tarixiga doir asarlar
2. Xorazm tarixnavislik maktabining shakllanishida Abdulg'ozi Bahodirxonning tutgan o'rni
3. Mahalliy tarixchilar talqinida Xiva xonligining siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy munosabatlarning yoritilishi
4. Davlat boshqaruvi va iqtisodiy tarixiga doir asarlar

Tayanch so'z va iboralar: "Riyoz ud-davla", "Zubdat ut-tavorix", "Jome' ul-voqeoti sultoniy", "Gulshani davlat", "Shohid ul-iqbol", "Shajarayi Xorazmshohiy", "Xorazm tarixi", "Tavorix ul-xavonin", ilmiy tahlil, qiyoshlash, ichki va tashqi aloqalar, qiyosiy, mantiqiy tahlil, xronologik izchillik, ob'ektivlik, an'anaviylikning saqlanishi, bayon etishning sodda usuli

1. Xiva xonligining Qo'ng'irotlar sulolasi davri tarixiga doir asarlar

Mahalliy tarixchilar asarlarida Xiva xonligidagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy munosabatlarning yoritilishi O'zbekiston mustaqilligining ilk paytlaridanoq asl manbalarga tayangan holda, chuqur ilmiy tahlil, yaxlit bir konsepsiya asosida xalqning haqqoniy tarixini yaratish vazifasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Zero, tarixiy voqelikni haqqoniy va to'laqonli aks ettirishning zarur shartlaridan biri birlamchi manbalardan foydalanish, ularni ilmiy iste'molga kiritish hisoblanadi.

Xiva xonligining Qo'ng'irotlar sulolasi davri tarixini o'rganishda yozma ma'lumotlar muhim ahamiyatga ega. Xonlik tarixi bilan bog'liq ma'lumotlar asosan Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy ("Riyoz ud-davla", "Zubdat ut-tavorix", "Jome' ul-voqeoti sultoniy", "Gulshani davlat", "Shohid ul-iqbol") va Muhammad Yusuf Bayoniy ("Shajarayi Xorazmshohiy", "Xorazm tarixi"), Sayyid Homid To'ra Kamyob ("Tavorix ul-xavonin") singari xivalik tarixchilar asarlarida qayd qilingan bo'lib, ular XVII asrda Abulg'oziy Bahodirxon boshlab bergan

[illegible] ilmini davom ettirganlar hamda rivojlantirganlar. Ushbu [illegible] o'zlaridan oldin o'tgan va zamondoshlari asarlaridan ham [illegible] xolda, voqea-hodisalarga o'zlarining fikr-mulohazalari, [illegible] yondashuvlarini bildirganlar. Ogahiy, Bayoniy va Kamyobning [illegible] asarlari dalilik ma'lumotlarning ko'pligi va aniqligi jihatidan [illegible] ahamiyat kasb etadi. Rus olimi akademik V.V.Bartold Munis va [illegible] asarlarini adabiy tarixiy asarlar deya ta'kidlagan[1]. Olimning [illegible] fikriga qo'shilgan xolda shuni aytish mumkinki, Ogahiy, [illegible] va Kamyob asarlarida tarixiy voqealar bayon etilib, daliliy [illegible] keng o'rin olgan bo'lsada, bayon etish usuli adabiy [illegible] ko'rinadi. Ma'lumki, Xiva xoni Eltuzarxon tashabbusi bilan [illegible] Xorazm tarixini yozish ishi topshirilgan Ogahiy tomonidan [illegible] ushbu "Firdavs ul-iqbol" asarining ahamiyati shundaki, [illegible] Xiva xonligining qariyib 300 yillik (1511 – 1825 yy.) tarixi, [illegible] mobaynida istiqomat qilgan turli etnik guruhlarning ijtimoiy-[illegible] hayotda tutgan o'rni, yer egaligi, soliq va majburiyatlar, ichki [illegible] savdo, diplomatik aloqalariga oid ma'lumotlar o'rin olgan. [illegible] Qo'ng'irot urug'larining Xorazm hududiga kelib joylashishi, [illegible] vakillarining Xorazmdagi siyosiy voqealarda muhim ro'l [illegible] boshlaganlari tarixi hamda xonlik taxtiga erishish yo'lida [illegible] bayon qilingan. Ogahiy yashagan davrda Xivada yetti [illegible] almashgan, muallif ularning faoliyati davrida bo'lgan tarixiy [illegible] bayon etuvchi beshta tarixiy asarlarini yozishga muvaffaq [illegible] Jumladan, Olloqulixon hukmronligi davrini (1825 – 1843 [illegible] "Riyoz ud-davla" ("Saltanat bog'lari") asari shular [illegible] Ushbu manbaning qimmati shundaki, unda Olloqulixon [illegible] bergan voqealar, ichki va tashqi savdo, diplomatik aloqalar, [illegible] turmush tarzi, madaniyati, mamlakatda hukm surgan diniy [illegible] yoritilgan

[illegible] tarixlar sarasi yoki tarixlar qaymog'i nomini olgan [illegible] ul-tavorix" asari Xiva xoni Rahimqulixon saltanati voqealarini [illegible] 1846 yy.) tasvirlaydi. Ushbu asar ikki qismdan iborat bo'lib, [illegible] Rahimqulixonning tug'ilishidan boshlanib, diniy, dun-[illegible] gullashi, Hazorasp hokimi sifatidagi faoliya-[illegible] xonlik taxtiga chiqquniga qadar bo'lgan voqealar, ikkinchi

[1] [illegible] В.В. История культурной жизни Туркестана. – Л., 1927. – С. 113

qismda xonning taxtga chiqqandan vafotigacha bo'lgan voqealarni o'z ichiga oladi. Ushbu asar 2009 yilda Rashid Zoxid muharrirligida nashr qilindi. Tadqiqotchi Nurboy Jabborov uni nashrga tayyorlab, asarni so'z boshi, lug'at, izoh va ko'rsatkichlar bilan ta'minlagan[1]. Bu esa, uning ilmiy ahamiyatini oshiradi.

Ogahiyning "Jome' ul-voqeoti sultoniy" ("Sulton voqaealarining majmuasi") asarida 1846 – 1854 yillarda hukmronlik qilgan Muhammad Aminxon davri voqealari o'z aksini topgan. Bundan tashqari, asarning oxirida Xiva xonlari Abdullaxon (1854 y) va Qutlug'murodxon (1855 y) davridagi voqealarni bayon etuvchi qism ham bor[2]. Xiva xoni Sayyid Muhammadxon zamoniga doir Ogahiyning "Gulshani Davlat" ("Davlat gulshani") asari esa, xonlikning 1856-1865 yillari voqealarini o'z ichiga oladi[3]. Hozirda ushbu manbalar O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida saqlanmoqda. Biroq, Ogahiyning "Shohid ul-iqbol" asarining muallif dastxati hisoblangan yagona nusxasi hozirda Rossiya Fanlar akademiyasi Sankt-Peterburg Sharq qo'lyozmalari institutida saqlanmoqda. Manbaning O'zbekistonda emasligi esa, uning kam o'rganilganligiga sabab bo'la oladi. Ushbu manbaning O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida fotonusxasi saqlanib, shu asosda 2009 yil N. Shodmonov tomonidan to'liq shaklda nashr qilindi. "Shohid ul-iqbol" asari 1865 – 1872 yillarda Xiva xonligida sodir bo'lgan voqealarni bayon etadi va Muhammad Rahimxon II ning hukmronlik yillarini yoritadi. Biroq, Xiva xonligi tarixini yorituvchi va fanda "Xiva solnomalari" nomini olgan ushbu asarlar mazmuni hanuzgacha umumiy to'plam holida tadqiq qilinmaganligi tarixnavislik fani oldida turgan dolzarb muammolardan biridir. Tadqiq qilinmaganiga sabab esa, sovet davrida ushbu asarlarning mazmun-mohiyati o'sha davrdagi hukmron mafkura siyosatiga zid edi, chunki ularda Qo'ng'irotlar sulolasiga mansub Xiva xonlari johil emas, balki yuksak fazilatlarga boy, ma'rifatparvar, xalqparvar,

---

[1] Огаҳий Муҳаммад Ризо. Зубдат ут-таворих (Тарихлар сараси) // Нашрга тайёрловчи Н. Жабборов. – Т.: Ўзбекистон, 2009. – 240 б.

[2] МунировҚК. Хоразмда тарихнавислик (XVII – XIX ва XX аср бошлари). – Т.: Ғафур Ғулом,2002. – Б. 52.

[3] Муҳаммад Ризо Эрниёзбек ўғли Огаҳий. Шоҳиду-л-иқбол (Иқбол шаҳодати) // Нашрга тайёрловчи Н. Шодмонов. – Т.: Муҳаррир, 2009. – 336 б.

[illegible] sifatida baholangan (ba'zi hollarda bu kabi ta'riflar [illegible] harakatlariga to'g'ri kelmasada, mahalliy mualliflarning, [illegible] odil shoh haqidagi orzularini ifodalagan). Ogahi[illegible] Xorazm tarixini yozish ishini Muhammad Yusuf Bayoniy [illegible] Bayoniy "Shajarayi Xorazmshohiy" va "Xorazm Tarixi" [illegible] yaratib[1], tarixnavislik fani rivojiga o'zining munosib xissasini [illegible] Bayoniyning Xiva xoni Asfandiyorxon topshirig'iga binoan [illegible] "Shajarayi Xorazmshohiy" asari qadim zamonlardan boshlab, [illegible] – 1914 yillargacha Xorazmda sodir bo'lgan tarixiy voqealarni [illegible] olgan. O'zining xarakteri bilan bu asar Munis va Ogahiy to[illegible] yozilgan tarixiy asarlarning xulosasi va davomi hisoblanadi. [illegible] Xoji Yusupov taklifiga binoan yozilgan "Xorazm tarixi" [illegible] uning "Shajarayi Xorazmshohiy" asariga o'xshaydi. Biroq, [illegible] kullash lozimki, "Shajarayi Xorazmshohiy" asari tarixiy asar [illegible] voqealar adabiy uslubda bayon etilgan. "Xorazm tarixi" [illegible] esa, yozilish uslubi jihatidan undan farq qilib, yengil, xalqchil [illegible] yozilgan tarixiy asar hisoblanadi. Shuni ta'kidlash joizki, Bay[illegible] asarlari xalq tushunishi uchun oson, yengil tilda yozilgan. Ogahiy [illegible] o'qish esa, o'quvchidan muayyan tayyorgarlikni talab qilib, [illegible] o'zbek yozuvini bilgan hamma tadqiqotchi ham bemalol o'qiy ol[illegible] Ogahiy arab va fors tillarida kamdan-kam holda qo'llanadigan [illegible] ham faol so'zlar qatorida bemalol qo'llayvergan. Shu tufay[illegible] bo'limda shu paytgacha kirill yozuviga qilingan tabdillardan [illegible] mualliflar asarlari haqida olib borilgan tadqiqotlardan, hamda [illegible] qadar mahalliy tarixchilar asarlarining qo'lyozma nusxalaridan [illegible] Kamyobdan bizga bitta she'riy devon, Xorazm tarixiga [illegible] ulxavonin", "Muntaxab ul-voqeot" kabi tarixiy asarlari va [illegible] oxiri - XX asr boshlarida Xorazmda yuz bergan tabiat o'zgar[illegible] ma'lumot beruvchi esdaliklar yetib kelgan. D. Rahim [illegible] Fallasiyning bergan guvohligiga ko'ra, Sayyid Homid To'ra [illegible] "To'raxonim" nomli boshqa bir tarixiy asar ham bitgan. Asar [illegible] qul tushgan va undan bir necha nusxa ko'chirilgan. Lekin, [illegible] qadar uning qo'lyozmasi topilgan emas[2]. Kamyobning ikkin-

---

[1] [illegible] М.Ю. Ценный источникo истории Хорезма (О рукописи Баяни [illegible] Хорезма») // Известия АН УзССР. Серия Общественные науки. – Т., [illegible] № 6 – С. 71-72.

[2] [illegible] D., Matrasul Sh. Feruz- shoh va shoir qismati.- T., 1991. – B. 77.

chi tarixiy asari "Muntaxab ul-voqeot" Feruz vafotidan so'ng yakuniga yetgan. Shunday qilib, XIX – XX asr boshlarida yashagan zamonasining ko'zga ko'ringan tarixchilari Ogahiy va Bayoniy tomonidan qayd etilgan tarixiy asarlar O'rta Osiyo, ayniqsa Xiva xonligi tarixini o'rgan ishda asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Ushbu asarlarda Xiva xonligida yer-suv egaligi, mulkchilik, soliq tizimi, qurilish ishlari, savdo va diplomatik munosabatlar, boshqaruv tizimida amalda mavjud bo'lgan mansablar, toifa va urug'lar, ziyolilar to'g'risida qimmatli ma'lumotlar keng bayon etilgan.

2. Xorazm tarixnavislik maktabining shakllanishida Abdulg'ozi Bahodirxonning tutgan o'rni

Markaziy Osiyo tarixida muhim o'rin tutgan, jahon ilm - fani va madaniyati taraqqiyotiga ulkan xissa qo'shgan Xorazm voxasi o'z an'analari va tarixiy ildizlariga ega.

Mavjud qadriyatlar tarixning keyingi bosqichlaridagi taraqqiyotini belgilagan va turtki bo'lgan asosiy omil hisoblanadi. Xususan, turli sohalar qatorida Xorazmda tarix ilmi o'ziga xos shakllanish va rivojlanish jarayonlarini boshdan kechirgan bo'lib, uning tadqiq etilishi bugungi kun tarix fani taraqqiyoti uchun xam axamiyatlidir. Jumladan o'zbek davlatchiligi tarixining tarkibiy qismi bo'lgan Xiva xonligida tarixshunoslikning shakllanishi Abdulg'ozi Bahodirxon shaxsi bilan bog'liqdir.

Xiva xoni Abdulg'ozi Bahodirxon ma'rifatparvar davlat arbobi sifatida xonlik hayotida muhim o'rin tutish bilan birga o'z davrining yetuk bilimdoni, tarixchisi, xatto tabobat ilmidan yaxshigina xabardor bo'lgan olim xam edi.

Abdulg'ozi otasining nomi bilan ataluvchi Arab Muhammadxon madrasasida o'z davrining eng bilimdon mudarrislaridan, olimu fuzalolaridan ta'lim olgan. Aka-ukalari o'rtasida o'tkir zexni va qobiliyati bilan ajralib turgan Abdulg'ozi tarixchi Sher Muhammad Munis ta'biri bilan aytganda "bag'oyat ash'orfaxm va tarixdon" bo'lib yetishgan Ayniqsa, u xalq ogzaki ijodi va tarix faniga katta ixlos qo'ygan edi

Abdulg'ozi olti yoshidan to o'n olti yoshiga qadar ilm o'rganishga katta kuch sarfladi. Natijada u ilm-fan sharofati tufayli ajoyib fazilatlar egasi bo'lish sharafiga muyassar bo'ldi: "...Bu faqirga, deydi Abdulg'ozi

xudoy taolo inoyat qilib ko'p nimarsa bergan turur. Xususan, uch nimarsa bergan. Avval sipoxgarchilikning qonun yusinin suv qilib bilmoq, ikkilamchi masnaviyot va kasoidot va g'azaliyot, muqattaot va rubоiyot va barcha ash'orni faxmlamoqdek, arabiy va forsiy va turkiy lug'otlarning ma'nosini bilmoqlik; uchlamchi odam naslidin to bu damgacha Arabistonda-yu, Eronu Turonda, Mug'ulistonda o'tgan podshoxlarning otlari va umrlarini va saltanatlarining kam ziyodin bilmaklik". Bu vaqtda faxmlamoqlik va garix bilmaklikda faqirdek kishi shoyad Iroq va Xindistonda bo'lsa, bo'lgay, yuq aytsam yolgon bo'lgay". Shu o'rinda o'zining yuksak qobiliyatlarini sanab o'tgan Abdulg'ozi xonning masalaga ob'ektiv yondashishga harakat qilganligini ko'ramiz: "yer yuzi keng, eshitmogon terlarimiz bo'lsa ajab emas", - deb yozadi u. Abdulg'ozi o'z zamonasining ilg'or kishisi sifatida fan va madaniyatni rinojlantirishga katta xissa qo'shgan edi. Albatta, mamlakat ichida xukm surgan siyosiy parokandalik, notinch vaziyat har qanday taraqqiyot yuliga to'sqinlik qiluvchi sabab bo'lib, XVII asr birinchi yarmida Xiva xonligidagi o'zaro urushlar ijtimoiy iqtisodiy, xo'jalik hayotda tushkunlikni yuzaga keltirish bilan birga madaniy rivojlanishga xam nihoyatda salbiy ta'sir ko'rsatgan edi.

V V Bartol'd Xorazmdagi ijtimoiy-madaniy muhitga baho berar ekan: "XVII asr Xorazmda hech qanday adabiy faoliyat yo'q edi. Abdulg'ozi xon o'z sulolasining tarixini yozadigan kishi bo'lmaganligidan bu mas'uliyatli ishni o'zi bajarishga majbur bo'ldi", - deb yozgan .

Bu xolatni Abdulg'ozi xonning o'zi xam eslatib, ota-akalarining beparvoligi va munosib kishi topilmaganligi tufayli bitilmay kelgan tarixni o'zi yozishga majbur bo'lganligini qayd etgan. Jumladan, Chingizxon va uning ajdodlari tarixi ko'plab turkiy va forsiy zabon muarrixlar tomonidan yozib kelinganligi, xatto ularning ba'zilariga "o'n tarix, ba'zilariga yigirma va ba'zilariga atab o'ttiz tarix" yaratilganligini qayd qilgan. O'z davrining tarixchi olimi sifatida u Xorazmda tarixnavislikning xolatiga munosabat bildirib o'tgan edi: "ota va akalarimizning beparvoligi va Xorazm xalqining bevukufliki, bu ikki sababdin bizning jamoatimizni Abdullaxon va bizning otalarimizning o'tgan yeridan to bizgacha tarixlarini bitmay erdilar. Bu tarixni bir kishiga taklif qilali deb fikr qildik. Hech munosib kishi topmaduk. ...bo'ldi. Ul sababdin o'zimiz aytduk". Shu o'rinda Abdulg'ozi xon bunday xolatning ungacha hech bo'lmaganligini ta'kidlab o'tgan:

"turkning masali turur – o'ksuk o'z kindigini o'zi kesar, degan. Hech podshox va amir va hech xakim va donishmand o'z tarixini o'zi aytgan emas turur. Bizning yurtimizning xavosidin va axli Xorazmning bebizotligidin hech zamonda bo'lmagan ish bo'ldi".

Shu bois xam u xonlik tarixini yaratishga qat'iy bel bog'lagan va imkoniyati yetgan barcha kishilarni, xususan, xusnixat kotiblarini bu ishga jalb etgan. Uning yuksak tarixiy, badiiy va ilmiy qimmatga ega bo'lgan "Shajarai turk", "Shajarai tarokima" va "Manofe'- ul - inson" ("Inson uchun foydali tadbirlar") asarlari o'z davri uchun xam, keyingi avlod va bugungi kundagi yangi tadqiqotlar uchun xam nodir manba hisoblanadi.

Abdulg'ozi Bahodirxonning yuqori ta'lim darajasini Eron madaniyati va uning Xorazm ma'naviy-madaniy muxitiga ta'siri bilan izohlamoqchi bo'lgan V.V.Bartol'd, bunga Abdulg'ozi xonning o'n yil mobaynida Eronda yashaganligini sabab qilib ko'rsatgan. Bu fikrni qo'llab-quvvatlagan A.N.Kononov: "asarlaridan ma'lumki, Abdulg'ozi xon tarixiy adabiyotdan yaxshi xabardor bo'lib, bu bilimga u Isfaxonda yashagan o'n yillik hayoti davomida, tarixiy asarlar bilan tanishish uchun barcha imkoniyatlar mavjud bo'lgan davrda erishgandir" deb, ta'kidlagan .

Haqiqatdan ham fors adabiyotining ta'siri Abdulg'ozi xon ijodida yaqqol aks etganligini kuzatish mumkin. Chunki, u xam o'zbek, xam fors-tojik tillarida ijod qilib, masnaviy, g'azal va ruboiylar yozib qoldirgan shoirdir. Shubhasiz, Eronda o'tkazilgan o'n yil Abdulg'ozi xon dunyoqarashi, tafakkuri va bilim darajasiga samarali ta'sir ko'rsatgan.

Lekin, shuni xam aloxida ta'kidlash lozimki, Abdulg'ozi xonning Eronda o'tgan hayotini o'z bilimini oshirishga bag'ishlaganligi avvalo uning iqtidori va e'tiqodi hamda o'zi aytganidek, "xudoy ta'lo inoyati bilan berilgan qobiliyati" va o'z zamonasining yetuk mudarrislaridan ta'lim olib, bilimdon bo'lib yetishganligidan dalolat beradi. Chunki, masalaga bir yoqlama yondashish xato xulosalarga olib kelishini unitmagan holda Abdulg'ozi xonning tug'ilib voyaga yetgan davr Xorazm ma'naviy-ma'rifiy hayotiga atroflicha to'xtalib o'tishni taqozo etadi. Xiva xoni Xoji Muhammadxon (1558-1602) xukmronligining oxirgi yillarida yuzaga kelgan siyosiy barqarorlik, tashqi savdo, iqtisodiy-xo'jalik rivoji o'z navbatida ma'naviy muhitning jonlanishiga olib kelganligini eslab o'tish lozim. Qolaversa, Abdulg'ozi xonning

otasi manbalarda "e'tiqodli, taqvodor va beozor kishi" sifatida ta'riflangan Arab Muhammadxon (1602 - 1621) xukmronligi davrida Xiva xonligidagi siyosiy barqarorlik, qo'shni davlatlar bilan o'rnatilgan do'stona munosabat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlagan edi. Lekin, Abdulg'ozi o'z vaqtida payqaganidek, "xonning fe'li kengligi va gunoxkorlarni afv qilgani, otamiz xonning boshina va barcha yurt xalqining boshina" ko'rguliklar keltirgan edi. Natijada xokimiyatga intilgan ichki guruxlar kuchayib, o'zaro kurashlar avj olib ketgan edi. Shunga qaramay, turli savdo - diplomatik va integratsion jarayonlar Xorazmdagi madaniy-ma'naviy muxitning batamom inqirozga uchrashiga yo'l quymaganligini xam unitmaslik lozim.

Shuningdek, Eronga yuborilishidan ilgari Markaziy Osiyoning yirik madaniyat markazlari hisoblangan Buxoro, Toshkent shaharlarida va turkman kabilalari orasida yashashga majbur bo'lgan Abdulg'ozi xonning turli millat, qabila va uruglarning hayoti, urf-odatlari va an'analari, xalqning ijtimoiy-iqtisodiy axvoli bilan shaxsan tanishishi uning tarixiy-ilmiy asarlarini yaratishida muhim axamiyatga ega bo'lgan edi. O'z davrining yirik diniy va dunyoviy bilimlar markazi bo'lgan Buxoro va Toshkentning ma'naviy-madaniy muxiti yosh Abdulg'ozi ta'lim tarbiyasiga ta'sir etgan. Qolaversa, o'z davrida dunyo ilm-fani rivojiga ulkan xissa qo'shgan Ma'mun akademiyasi faoliyat ko'rsatgan xonning tarixiy ildizlari Abdulg'ozi xondek yetuk shaxsni dunyoga keltirishi tabiiy qonuniyat edi, desak mubolaga bulmaydi.

Abdulg'ozi Bahodirxonning birinchi yodgorlik asari "Shajarai tarokima" (1661 yilda yozilgan) yarim afsonaviy xususiyatga ega bo'lsa xam, turkmanlar tarixiga oid ko'pgina masalalarni o'rganishda katta axamiyatga ega. Asar XVI - XVII asrlar tarixini tekshirish va o'rganishda muhim tarixiy manba sifatida xozirgacha o'z axamiyatini yo'qotmagan "Shajarai tarokima" faqatgina muhim tarixiy manba bo'lib qolmasdan, qimmatbaxo adabiy yodgorlik xamdir.

Abdulg'ozi Bahodirxonning ikkinchi yirik asari 1664 yilda yozilgan "Shajarai turk"dir. Bu asarni Abdulg'ozi xon yozib bitira olmagan edi. Uning vafotidan so'ng o'gli Anushaxonning topshirigi bilan Urganch mullalaridan biri, o'zlarining qarindoshi Maxmud ibn Muhammad [illegible] kitobning yozilmay qolgan 21 saxifasini, ya'ni 1644-1663 yillar voqealarini yozib tugallagan. Bu xaqda asarda shunday qayd etilgan: "Ma'lum bo'lsinkim, Abdulg'ozi xoni jannatmakon, bu kitobni

tasnif qilib yarmiga yetkanda xasta bo'ldilar, o'g'illariga vasiyat qilib tururlarkim, bu kitobni notamom qilmang itmomiga sa'y qiling. Ul sababdin Abulmo'zaffar valmansur Anushaxon marxum va magfuriy, bu bandan bebizioat va kaminai beistitoat Maxmudiy ibn mulla Muhammad zamon Urganjiy bo'lgayman, bu kitobni itmomiga yetkur, deb xukm qildilar».

"Shajarai turk" Abdulg'ozi Bahodirxon ijodidagina emas, balki XVII asr o'zbek madaniyati tarixida xam ulkan o'rin tutgan asardir.

"Shajarai turk" asari Abdulg'ozining xar tomonlama yetuk bilimdon ekanligini namoyish qilish bilan birga uni tarixiy voqealarni obrazli badiiy til bilan ifoda qila oluvchi adib, so'z san'atkori sifatida xam gavdalantiradi.

"Manofe' ul-inson" risolasi (1664 y.) Abdulg'ozi xonning yana bir kirrasini – o'z davrida tibbiyot ilmidan xam yaxshigina xabardor bo'lgan olim ekanligini ko'rsatadi. Shu bois Abdulg'ozi xonni Sharq tabobatini yuksak darajada idrok qiluvchi xozik tabib sifatida xam e'tirof etish lozim .

"Shajarai Xorazmshoxiy" asarining muallifi Muhammad Yusuf Bayoniy xam Abdulg'ozini o'z davrining bilimdon tarixchisi va qobiliyatli shoiri bo'lishidan tashqari, tabobat ilmi bilan xam shug'ullanganligini ta'kidlab o'tgan. U janglarda orttirgan jaroxatlarini Ibn Sino, Abduraxmon va Yusuf tabiblarning tabobatga doyr asarlari. maslaxatlariga kura o'zi muolaja qilib, 124 illatga doir risolani yozgan

Risola turt qismdan iborat bo'lib, xar biri tibbiyotning bir soxasiga oid baxs yuritadi. Birinchi qismda, muallif oddiy dorilar, ikkinchi qismda murakkab dorilar, ularni tayyorlash va ishlatish yo'llari, uchinchi qismda dardlarning kelib chiqishiga sabab bo'luvchi omillar, kasalliklarni davolash tartiblari haqida, to'rtinchi qismda esa o'zidan oldin o'tgan tabiblarning fikrlarini va ayni vaqtda o'zining bu boradagi mulohazalarini ommabop, sodda tilda bayon qilgan.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar tahlili Abdulg'ozi Bahodirxonning serqirra shaxs ekanligini ko'rsatadi. Yoshlikdan olgan bilimi va hayoti davomida to'plab, orttirib borgan tajribasi unga zamonasining eng ilg'or kishilardan bo'lib yetishish imkonini berdi.

Xorazm tarixnavislik maktabiga asos solgan Abdulg'ozi Bahodirxonning tarix fani rivojiga ko'shgan xissasi beqiyosdir.

Tarixiy asarlari, jumladan, "Shajarai turk" osonlikcha yuzaga kelgan

emas edi. Bu haqda tarixchining o'zi shunday xikoya qilgan: "Biz tarixni mo'gul va o'zbekda, o'tgan yaxshi podshoxdarni kengashli ilmalarni, asli va qilgon ishlarini va aytgan so'zlarini barchasini bir bir aytib, ulug' kitob qilmoq ko'nglimizda bor erdi. Aytmaylik teb yurgan vaqtda xasta bo'ldum, xatim uzoqqa tortdi. Ko'nglumda aytdim, ulaqolsam, kitob etilmay qolur, mendek kishi biloturgon yo'q. Xususan bizning jamiyatimizning Yodgorxondin to faqirgacha yot yurtni kishisi muni bilmas. O'z xalqimizda xam bilur kishi yuq, bas, men shuni ko'ta borganimdin ne foyda, ayttim. Taqi navisanda ulturtirdim. Taki Odamdin Jujixonga kelguncha hech kitob yuzini boqmadim, o'zimni yodimda bor erdi, ayttim. Ammo kuvvatim kam bo'lur erdi, gox ulturub aytur erdim, goh yotub".

Abdulg'ozi xon asarlarida bildirilgan g'oyaviy-nazariy fikrlarda muallifning asarlarini yozishdan ko'zlagan asl maqsadi, kutiladigan muhim natija yaqqol aks etgan. Jumladan, "Shajarai tarokima" asarining dunyoga kelishini izoxlar ekan, muarrix: "Xorazmga turkmanlar kelib poydashgandan ko'p yillar o'tib, turkman mullari, shayx va beklari mening tarixni yaxshi bilishimni eshitib oldimga kelishdi va shunday so'zlar bilan murojaat etishdi: bizda O'gizxon haqida ko'p xikoyalar bor, lekin ularning birtasi xam yaxshi emas, borining xatolari ko'p va ular bir-biriga mos kelmas, xar qaysisi o'zicha. Birta xaqqoniy va munosib tarix bo'lsa yaxshi bo'lar edi, deb iltimoslarini bayon qildilar. Paygambar aytganidek, kimdir bir musulmonning ko'nglini hod qilsa, unga xudoning xizmatini qilganga beriladigan mukofotdan ortiq mukofot beriladi. Shunday ekan, mening so'zlarimdan o'zlari bilmaganlarini bilib oladigan necha ming kishining ko'ngillari shod bo'ladi. Umid qilamanki, gunoxdarim uchun beriladigan jazodan ko'ra ortiq qilgan savob ishim - yozgan kitobim uchun beriladigan mukofot ortiq bo'ladi"

Ko'rinib turibdiki, bir xalqning tarixiy bilimini oshirishga xizmat qilishi uning asosiy goyasi bo'lgan.

Abdulg'ozi xon tabobatga bag'ishlangan "Manofe' ul-inson" risolasi (1664 y.) ning yaratilishini xam shunday izoxlagan: "Kitoblarni nazarga keltirib erdik, maqsadi goho topilur erdi, goho topilmas erdi, ulkun topilur erdi, xozir mashaqqat bilan o'rtaga kelur. Shul sababdin, illatga dori qilmoq uchun, mo'tabar kitoblardin xoxdab jam qilib ondin so'ng illatlarni bayon qildim".

Xaqiqatan xam, Abdulg'ozi aytganidek, bu davrda tibbiyotga doyr qator arab va fors tilidagi asarlar mavjud bo'lsada, ammo, ularni topish, sof turkiy tilda o'qib foydalanish ayniqsa mexnatkash omma uchun amalga oshirib bo'lmaydigan bir orzu edi. Shuning uchun xam Abdulg'ozi xon bu soxada xam qalam tebratib, risolasini xalqqa tushunarli sodda va jonli tilda yozgan. Risola unda xalq tabobatida qo'llanilgan 700 dan ortiq dori-darmonlar haqida batafsil ma'lumot berib o'tilganligi bilan amaliy ahamiyatga ega bo'lsa, Xorazmda tabobat ilmining o'rta asrlardagi xolati va tarixini o'rganishdagi o'rni bilan tarixiy jihatdan e'tiborga loyiqdir.

Shu o'rinda ikki muhim tamoyilni aloxida ko'rsatib o'tish lozimki, birinchisi, keng xalq ommasiga sodda, oddiy tilda o'z tarixini yetkazish orqali xalqning tarixiy xotirasinn shakllantirish va rivojlantirishni, o'zlikni anglash va bu orqali tarixiy tafakkurni mustaxkamlash edi. Ikkinchidan, ilgari yozilgan asarlardan farqli o'larok tarixiy asarlarini sof turkiy tilda yozishga qaror qilgan Abdulg'ozi xon zamonasining yetuk olimi va tajribali davlat arbobi sifatida turkiy til rivojiga munosib hissa qo'shgan.

Abdulg'ozi xonning o'z asarlarida bildirgan fikrlarini tahlil qilish jarayonida uning nazariy-uslubiy yondashuvini ko'zatish va tarixiy tadqiqot uchun tegishli xulosalarni chiqarish mumkin.

Tarixiy tadqiqot uchun muhim bo'lgan qiyosiy taqqoslash uslubi xaqqoniylik mezonining asosiy ko'rsatkichi hisoblanadi. Abdulg'ozi Bahodirxon ijodida buning yorqin ifodasini ko'rish mumkin. U o'z zamonasining o'tkir bilimli tarixchisi sifatida tarixiy asarlarini yozishda boshqa tarixchilar kabi o'ziga qadar yaratilgan boy madaniy merosni juda chuqur va atroflicha o'rgangan va undan foydalangan. Xususan, "Shajarai turk"ni yozishga kirishar ekan, u qo'l ostida o'n sakkizta forsiy va turkiy tillarda yozilgan manbalar borligini qayd etgan: "Eron birlan Turonda o'tgan Chingizxon uglonlarinyng otlarina aytilgan tarixlardin ushbu zamon faqirning oldinda o'n sakkiz mujallad xozir turar erdi".

Bularning orasida tarixchi Fazlullox Rashididdinning (1247-1318 yy) "Jome'-ul-tavorix" ("Tarixlar yigindisi"), Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma", Mirxondning "Ravzat us-safo", Boburning "Boburnoma", Xofiz Tinish Buxoriyning "Abdullanoma", Gulbadanbegimning "Xumoyunnoma", Muhammad Solixning "Shayboniynoma" asarlari, Xondamir, Zayniddin Vosifiy, Abdurazzoq Samarqandiy, Juvayniy, ibn Arabshox kabi muarrixlarning kitoblari bo'lgan.

Albatta, o'zidan oldin o'tgan, tarixchilarning asarlaridan keng foydalangan Abdulg'ozi xon Sharq tarixnavisligining mavjud an'anaviy uslubini chetlab o'tmagan. Uning asarlari xam Rashiddiddin, Sharafiddin Ali Yazdiy asarlarida bo'lgani kabi xamd va na't bilan boshlangan. Shu jihatdan Abdulg'ozi xon ijodida o'ziga xoslik bilan birga an'anaviylikning saqlab qolinganligini ko'rish mumkin. O'z navbatida bu jihat keyingi davr tarixchilariga xam vorisiylik asosida o'tgan.

Shuningek, Abdulg'ozi xon asarlarida bugungi kun tarixiy tadqiqotlarida e'tibor berilganidek, bayon etishning murakkab, akademik uslubidan qochish masalasini ko'rish mumkin. Tarixchining o'zi qayd etganidek, "ravshan bo'lsin deb, asarlarimni turkiyda aytdim, turkiyni xam andok aytibmanki, besh yashar o'g'lon tushinur".

Uslubidan tashqari muarrix asarlarining keng xalq orasida ommalashishi, aholining barcha qatlamiga tushinarli bo'lishi nuqtai nazaridan ularning tiliga xam katta e'tibor bergan va bu narsa Abdulg'ozi xon asarlari va ularning o'ziga xos xususiyatlaridan biri xisoblanadi. Bu xaqda muallif shunday degan: "Barcha bilingkim, bizdan burun turkiy tarix aytkonlar arabiy lug'atlarni ko'shib tururlar, va forsiyni xam ko'shurlar, turkiyni xam sa'j qilurlar. Biz munlarning hech qaysisin qilmadik, aning uchunkim bu kitobni uquvchi va tinglaguvchi albatta turk bulg'usidir: bas turklarga turkona aytmoq kerakki, to ularning barchasi faxm qilgaylar".

"Shajarai turk" qimmati haqida fikr bildirgan K.Munirov xam asar tiliga alohida e'tibor bergan edi: "asarning qimmati shundaki, avvalo uning avvalgi qismlarida keltirilgan ma'lumotlar boshqa tarixiy asarda bo'lgan bo'lsada, ular fors yoki arab tilida yozilgan asarlar edi. Abdulg'ozi y ularni o'rganib, o'sha qismini o'zbek tilida bayon etgan".

Ob'ektivlik - tarixshunoslikning muhim tamoyili bo'lib, Abdulg'ozi xon bu masalaga xam alohida to'xtalib o'tgan. Tarixiy voqelikni yoritishda bir yoqlamalikka yo'l qo'ymaslikk xar qanday tadqiqotning qimmatini yanada oshiradi. Bu tamoyil Abdulg'ozi xonda tarafkashlik qilmay voqealarni bayon etish, deb atalgan. Xususan, u o'z asarini tarafkashlik qilmay, voqealarni qanday bo'lsa, shunday keltirganligini uqtirib o'tgan.

Shuningdek, Abdulg'ozi xonning tarixiy-ilmiy merosida xronologik izchillik tamoyiliga rioya qilinganligini kuzatish mumkin. Bu xolat tarixiy asarlari, jumladan "Shajarai turk"da boblarning nomlanishini belgilab bergan voqealar bayonining xronologik ketma ketligida aks etgan. Xususan, avvalgi bob Odamdin to mo'gul xonigacha; ikkinchi bob mo'gul xonidin Chingizxongacha; uchinchi bob Chingizxonning tuqqonidin o'lgonigacha. to'rtinchi bob Chingizxonning uchinchi o'gli Ugadayqoonning va aning avlodining va Chingizxonning o'g'lonlarini naslidin xar kim mo'gul yurtinda podshoxlik qilgan bo'lsa, aning zikri, beshinchi bob Chingizxonning ikkinchi o'gli Chigatoyxonning avlodidin Movarounnahr va Qoshgar yurtinda podshoxlik qilganlarning zikri; oltinchi bob Chingizxonning kichik o'gli Tuluyxonning avlodidin Eron mamlakatinda xukumat qilganlarining zikri; yettinchi bob Chingizxonning ulug o'gli Jujixonning avlodidin Dashti Qipchoqda podshoxlik qilgonlarning zikri; sakkizinchi bob Jo'jixonning o'g'li Shayboniyxonning avlodidin Movarounnaxr va Qrim, Qozoq va Movarounnahrda podshoxlik qilgonlarning zikri va taqi Jo'jixonning o'gli To'g'ray Temurning naslidan Qrim va Qozoq, Movarounnahrda podshoxlik qilgonlarning zikri; toqqizinchi bob taqi Shayboniyxon avlodidin, Xorazm mamlakatinda podshoxlik qilgonlarining zikri" deb nomlangan.

Ko'rinib turibdiki, Abdulg'ozi Bahodirxon XVII asr Xorazmda yuqori tarixiy, adabiy, ilmiy muhitni yaratgan, mamlakat madaniy-ma'naviy hayoti taraqqiyotiga ulkan xissa qo'shgan olim va ma'rifatparvar davlat arbobi edi. Shuningdek, u Xiva xonligi tarixshunoslik maktabiga asos solgan yetuk tarixnavisdir.

Tahlil qilingan ma'lumotlar Abdulg'ozi xon tarixiy-ilmiy merosida tarixshunoslikning bir qator jihatlari, quyidagi nazariy-uslubiy yondashuvlarning aks etganligini ko'rsatadi:

- qiyosiy, mantiqiy tahlil;
- xronologik izchillik;
- ob'ektivlik (bir yoklamalikka yul kuymaslik);
- an'anaviylikning saqlanishi;
- bayon etishning sodda usuli;
- asarlarning keng xalq ommasiga mo'ljallanganligi (sodda va sof turkiy tilda yozilganligi);
- tarixiy xotira, o'zlikni anglash va tarixiy tafakkurni shakllantirish

xam da rivojlantirishga qaratilganligi;

Xulosa qilib aytganda, "Abdulg'ozining asarlari shuning uchun xam muhimki, mazkur muallifdan ilgari bunday asarlar yaratilmagan edi, shuningdek ular vujudga kelgan va keyingi XVIII - XIX asrlar uchun xam xarakterli bo'lib kelavergan Xiva - turkman munosabatlarini va turkmanlarning Buxoro va Eron bilan XVIII asrdagi o'zaro aloqalarini tushunish uchun juda boy material beradi". Xaqiqatdan xam Abdulg'ozi xon faqat birgina millat chegarasida qolib ketmay, O'rta Osiyo xalqlarining, deyarli Sharq xalqlari tarixining ulkan bilimdoni sifatida xam nom qozongan.

3. Mahalliy tarixchilar talqinida Xiva xonligining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy munosabatlarning yoritilishi

Ma'lumki, XIX – XX asr boshlarida Xorazmda yaratilgan tarixiy asarlarda Xiva xonligi va unga qo'shni hududlarda joylashgan shaharlar, daryo va ko'llar, quduqlar, sahrolar va boshqa geografik ma'lumotlar ham berilgan. Jumladan, Ogahiy asarida Xiva xoni Muhammad Rahim II ning surunkali harbiy yurishlar qilib yovmutlarni bo'ysundirgandan keyin sayr va shikorga chiqqani haqida bayon etishi jarayonida xonlikning 1866-yillarda joylashgan geografik hududi haqidagi ma'lumotlar qayd qilingan. Asarda yozilishicha, Muhammad Rahim II avvalo Urganchdagi o'zining bog'iga borib, undan chiqib Jayhun (Amudaryo) daryosidan o'tib, Ko'hna Kat qal'asi janubidagi Shayx Abbos valiy maqbarasini ziyorat qiladi (Bu hozirgi Qoraqalpog'iston Respublikasining Beruniy shahri hududi). Undan chiqib Sulton Uvays va Shayx Jalil tog'iga, Qo'sh ko'lga, Ko'k o'zak va Qavanj yorma atroflariga va undan Tovqara muzofatiga kelib, Qilichbiy qal'asining atrofiga borganligi bayon etilgan. 39 kunlik sayr va shikor chog'ida Muhammad Rahim II yana Cho'michliko'l, Boyo'choqi, Bo'richi qiri, Oqsavat, Butonko'l, Chimboy, Tuk, Xo'jayli, Muzdehqon, Mazlumxon, Sho'rayor, Nayman, Po'rsiyon, Hiloliy (Ilonli), Toshhovuz, Shohobod (Shovot), Kat qal'a va mavzelarda bo'lganligi haqidagi ma'lumotlar orqali bu davrdagi ma'muriy hududlar va aholi joylari toponimikasi haqida bilimga ega bo'lamiz. Q.Munirovning yozishicha, mahalliy mualliflar asarlarida xonlik hududi haqidagi geografik ma'lumotlar uning bir yerida umumiy keltirilmagan bo'lib, tarixchilar tomonidan

xonlarning sayr, shikor yoki harbiy yurishlarini bayon etish jarayonida tilga olingan, xolos[1]. Biroq, shuni ta'kidlash lozimki, bu asarlar ma'lum bir sohalarga bag'ishlangan asarlar bo'lmay, balki xonlar topshirig'iga binoan xronologik tartibda yozilgan asarlar hisoblanadi. Mualliflarning asarni yozish jarayonida qiziqarli ma'lumotlarni munosib tarzda berishlari esa, bu asarlarning, aniqrog'i mahalliy mualliflarning yutug'idir. Bundan tashqari, mazkur tarixiy asarlar xonlikda yashagan elatlar, urug'lar, ularning kelib chiqishi, turmush tarzi va madaniyatini o'rganishda ham muhim manba sanaladi. Unga ko'ra, Xiva xonligi hududida nayman, mang'it, qo'ng'irot, qang'li, sart, o'zbek, uyg'ur, nukuz, imrali, yovmut, chavdur, qozoq, olobulik, qirq qayir, tanga xitoy, Qora Ahmad, Chumagoy, Erdor, do'rmon, yuz, ming, burloq, Ali eli, Kenagas, Xo'ja eli kabi toifa va urug'lar joylashgan. Shu bilan birga, daryo, kanal va arnalarning nomlaridan u yerda yashagan urug' va toifalarni, ayniqsa ularning qaysi hududlarda yashaganligini aniqlashda ham ushbu manbalarning ahamiyati kattadir. Jumladan, Suvonli kanali u yerga o'rnashib olgan urug' nomi bilan Xo'ja eli deb, Omonquli kanali Kenagas, Otaliq kanali esa. Mang'it arna deb atala boshlangan Lavzanning g'arbidagi Qang'li kanali. Qipchoq, Uyg'ur, Nayman, Gurlan yaqinidagi Nukus kanali, Xizir eli, Boshqird urug'i kanali va shu kabi kanallar shu yerda yashovchi urug'lar nomi bilan yuritilgan. Sharqning madaniy-xo'jalik mintaqalaridan biri bo'lgan Xiva xonligining iqtisodiy hayotida yer egaligi asosiy masalalardan biri bo'lib, xonning o'zi katta yer egasi edi. Xonning deyarli barcha bekliklarda yerlari va bog'lari bo'lgan va ular nasldan-naslga o'tib kelgan. Mazkur tarixiy asarlarda mualliflar xonlarga tegishli mulk yerlarni "mulki xolis", "mulki xossa", "amloki xossa", "Mulki maxsusa" va boshqa nomlar bilan ataganlari kuzatildi: "... namozi asr hangomida Urganch Bandai tayyibasining g'arbiy jonibidagi o'zining mulki xolisida farmoni..."

Xiva xonligida kanallar qazish va ularni tozalash, sug'orish ishlarini kengaytirish va yangi yerlarni o'zlashtirish xonlikning iqtisodiy hayotini va siyosiy mavqeini belgilashda asosiy omillardan biri edi. Mahalliy mualliflar tarixiy asarlarida irrigatsiya masalalariga doir ma'lumotlar berilgan bo'lib, ularda yozilishicha, hukmdorlar asosan

[1] Мунипров Қ. Хоразмда тарихнавислик (XVII – XIX ва XX аср бошлари). – Т Ғафур Ғулом, 2002. – Б. 154.

suv yo'lini berkitish orqali bo'ysunmagan aholini jazolaganlar, itoatkor odamlarga esa sersuv va serunum yerlarni ajratib berganlar. Ogahiy esa "Riyoz ud-davla" asarida Toshsaqo degan joyda daryogacha suv bog'langani xususida: "Hamul bahor viloyoti maxrusa mazorig'a suv jihatidan andak tanqisliq chekti. Ul hazrat (Olloqulixon) yurt manfaati va xosu-om behbudi uchun otlanib... hazrati Qutb-ul-avliyo Pahlavon otalarining saqosig'a borib, o'tgan yil qirdan yordurg'on saqonikim Toshsaqoderlar, yangidan hashar bila qazdurub suv joriy qildi", – deb xonlikdagi yop va solmalarning muntazam tozalanishi, xalqning ko'magida "qazuv" deb, nomlangan hashar uyushtirilib, kanallarning tuproqdan tozalanishi va bu ishlarga xonlarning o'zlari boshchilik qilishini bayon etgan. Xiva xonligi iqtisodiyotining asosini soliq va majburiyatlar tashkil qilgan. Tarixiy adabiyotlarda xonlikda aholidan olinadigan soliqlar, ularni yig'ib olish yo'llari, soliq yig'ish maqsadida shaharlarga kimlar tayin etilgani, qaysi joylardan qanday miqdorda soliqlar olingani, ba'zida soliq to'lashdan bosh tortgan yoki to'lay olmagan kishilar tomonidan xon soliq yig'uvchilarining o'ldirilgani, natijada xon harbiy qism yordamida soliq undirganiga oid ma'lumotlar mavjud. Jumladan, "Firdavs ul-iqbol" asarida bu haqida: "... tamomi Qo'ng'irot elin mute va mahkum qilib, Sayyidnazar biyda ixtiyor qo'ymadilar. Muxoliffat va muonidan ko'shin urub, isyon va tug'yon maydonig'a jur'at qadamin qo'ydilar. Bu jihatdin amiri kabir Avaz biy inoq alarning taadibu gushmoli uchun Xosa qo'shbegi boshlig' umaroi oliymiqdor va shujao inomdorni to'rt to'pa va Besh qal'a sipohi bila sana ming ikki yuz sekkizda Qo'ng'irot ustig'a yubordi. Sipohi nusratpanoh Qo'ng'irot sarhadig'a yetganda, alar istiqbol etib, tansuqot va peshkashlar bila umaroi izomning mulozimatig'a yetib, talbis yuzidin gurg oshtiy qildilar. Ul shart bilakimkelur yil Orol yurtining zakot va sirojoti bila Avaz inoqning xizmatig'aborib, mulorzimat qilg'aylar. Bu bahona bila umaroi oliyjoh va sipohinusratpanohni qaytarib, yana o'z ishlarining tahsil va takmilig'a ishtig'ol ko'rguzdilar", – deyilgan.

Ushbu ma'lumotlardan shu narsa ma'lum bo'ladiki, mahalliy mualliflar garchi ushbu asarlarini xonlar topshirig'iga binoan yozgan bo'lsalarda, hamda hukmdorlarning manfaatlariga mos qilib yoritishga majbur bo'lsalarda, ularning olib borgan siyosati, yuqorida tilga olingani kabi hatti-harakatlari, ba'zi-bir nomaqbul qarorlarini ham keltirib, ularga o'zlarining munosabatlarini ham bildirganlar. Xonlik aholisidan,

hamda savdo karvonlaridan qancha va qanday soliqlar olingani, Rossiyaga boradigan savdo karvonlari o'tuvchi Erdor yo'li xususida Q.Munirov Ogahiyning quyidagi jumlalarini keltiradi: "1273 yili rabi'-us soniy oyining 20 sida panj shanbasida[1]... Muhammad Yaqub mahram bir jamoa lashkari jarror... bila Xorazm va Buxoro korvonikim, urus viloyatidin chiqib, Xorazm va Buxoro savbig'a kelur erdilar, alarning istiqboliga chiqib, shariat hukmi bila kazotlarin olib kelmak uchun Dashti Qipchoqda Erdor yo'li Jonibiyga ozim bo'ldilar". Shuni aytish lozimki, ushbu tarixiy asarlarda Xiva va Buxoro karvonlarining Mang'ishloqqa borib savdo qilishi, Rossiya karvonlarining O'rta Osiyo shaharlariga kelishi va savdo yo'lidagi qiyinchiliklar to'g'risida ayniqsa, Rossiya bilan bo'lgan savdo munosabatlariga oid ma'lumotlar keng o'rin olgan. Bunga sabab, Rossiyada kapitalistik munosabatlarning taraqqiy etishi natijasida, Xiva xonligida Rossiya mollariga ehtiyoj katta bo'lgani holda, Rossiyada ham Xiva mollariga talab katta bo'lgan. Hamma davrlarda ham mamlakat taraqqiyoti va xalqning farovonligi unga yo'lboshchilik qilayotgan hukmdorlarga, uning vazirlari va amaldorlariga bog'liq bo'lgan. Xiva xonligida davlat boshqaruvi monarxiya tipida bo'lib, uning mansabi va huquqlari avloddan-avlodga o'tgan. Uning atrofidagi mansabdorlar ham hukmdorga yaqin kishilar, qarindosh,urug'doshlardan tayinlangan bo'lib, ularning mansab va huquqlari ham vafotlaridan keyin o'z avlodlariga me'ros sifatida qoldirilgan. Xiva xonligining Qo'ng'irotlar sulolasi davridagi davlat tizimini o'rganishda amalda bo'lgan turli mansablarning vazifalari to'g'risidagi ma'lumotlar muhim ahamiyatga ega. Biroq, sovet davri tarixshunosligida aynan shu davrdagi ma'lumotlar ko'proq tahlil qilinib, davlatchiligimizdagi mansabga qo'yish tartibi tamoman qoralangan. Xiva xonligi davrida yozilgan tarixiy manbalardagi ma'lumotlar esa, o'sha zamonda bo'lib o'tgan voqealar qandayligi haqida nisbatan ishonchliligi bilan ajralib turadi. Jumladan, Ogahiyning "Shohid ul-iqbol" asaridagi mansablarga qo'yilish bilan bog'liq ma'lumotlar diqqatga sazovor bo'lib, Ogahiy Muhammad Rahimxon II ning ustozi sifatida, hamda xonlikdagi yuqori mansabdor shaxs sifatida saroydagi ko'p voqealarning guvohi va ishtirokchisi edi. Shu sababli ham uning ma'lumotlari ishonchli hisoblanadi. Ogahiy ma'lumotlarida Muhammad

1 Hijriy 1273 yil – milodiy 1856-1857 yillarga to'g'ri keladi.

Rahimxon II hokimiyatga kelgan daslabki yillarida mavjud eski mansabdorlarning o'rniga o'ziga yaqin bo'lgan sodiq kishilarni yuqori mansablarga qo'yganini, bular qatoriga Muhammad Murod devonbegi va Abdullaboy mingboshi kabilarni bayon etganini ko'rish mumkin. Jumladan "Jum'a oqshomi erdi hazrat zillisubhoniy saltanat umuri intizomi va mamlakat masolihi istikmoli uchun Xudoynazar devonbegini devonbegilik va muzakkiylik mansabidin ma'zuletib, aning o'rnig'a Muhammad Murod mahramnikim, ul hazrat tufuliyatzamonidin to bu [illegible] avong'acha davlat yonglig' hamdam bo'lub,xizmatnigorlig' [illegible] jonsiporlig' qilg'an qadimiy xodimlariningsarbalandi va [illegible] qadam qilib sadoqat rasmida havodorlig' ko'rguzganboyiri mulozimlarining arjumandi erdi va bag'oyat donishmandufarosatpayvand va [illegible] diyonatosor va davlatg'a loyiqu tarbiyatg'amuvofiq [illegible] erdi" Yoki: "Orol qo'ng'irotining umarosidin Muhammad [illegible] Qo'ng'irotda maraza tab'iiy bila jahondin rihlat qildi. Mazkur [illegible] vositida aning vafoti xabari dargohi jahonpanoh mulozimlarig'a keldi. Hazrat zilli subhoniy kamoli shafqat va bandaparvarlikdin aning [illegible] uchun o'z tarafidin arkoni davlat akobiridin [illegible] mutavalliyni buyurib, oshu obi uchun yuz tillo berib yibordi. Va mazkurbiyning o'g'li Hayniyozbekni hamkim... hazrat zilli subhoniy kamolikaramidin anga muruvvat va shafqat ko'rguzub, atosining [illegible] biylikmansabig'a nasb etti", – kabi misollar orqali otasi dunyodan o'tgach,hukmdor tomonidan o'g'lini uning o'rniga [illegible] haqida asarning boshqa joylaridan ham parcha keltirish mumkin. Bunda otasi ishini kuzatib yurgan farzand bu ishni uddalay [illegible] deb umid qilingan. Shu bilan birga, agar mansabdorning o'g'il farzandi bo'lmasa, uning o'rniga ukasi yoki amakisi qo'yilganligi [illegible] misollar ham asarda ko'plab uchraydi.Mansabda o'tirgan, [illegible] yumshoqligi va odamlar bilan muomalani o'rniga qo'ya [illegible] mansabdorlarni ham xon almashtirar edi. Bu haqida ham "Shohid ul-iqbol" asarida bir qancha misollar keltirilgan. Xivalik [illegible] Bayoniy asarida ham xonlikda mavjud a'lam, qozirais, devonbegi yasovulboshi, mirzaboshi, eshik og'osi, qushbegi, yuzboshi, [illegible] mehtar, mirshab, mahram, sarhang, vazir, inoq, biy, mirob, [illegible] kabi mansablar to'g'risida ma'lumotlar mavjud bo'lib, ularning [illegible] tartibi, hamda o'sha shaxslarning ismlari haqida ham keng ma'lumotlar berilgan.Demak, ushbu tarixiy asarlar orqali Qo'ng'irotlar

sulolasiga mansub Xiva xonlari (ayniqsa Muhammad Rahimxon II) tomonidan davlat boshqaruvida o'zgarishlar sodir etilib, ko'plab mansabdorlarning o'rniga nisbatan kuchliroq shaxslar qo'yilgan yoki muayyan mansabga yangi kishini belgilashda bilimli mutaxassislar tanlangani ma'lum bo'ladi.Mahalliy mualliflar tarixiy asarlaridashoir va tarixchilarning ham nomlari keltirilgan. Biroq, ularning nomlari asarning bir yerida umumiy keltirilmagan bo'lib, mualliflar tomonidan biror tarixiy voqeani bayon etish jarayonida tilga olingan. Chunki o'sha shoirlar ana shu bo'lgan voqeaga atab qasida yoki tarix yozganlar. Ana shu qasidalarni yoki tarixlarni keltirish barobarida ularni yozgan mualliflarning nomlari ham tilga olingan. Bu kabi ma'lumotlarni biz Ogahiy va Bayoniy asarlarida ham uchratishimiz mumkin. Xususan, Q Munirov Ogahiyning "Gulshani davlat" asarida: "Va navras fikru tozatab' shuarodin fazlu hunar ahli arosida mumtoz Pahlavon Niyozboykim, fozillar guruhi ichra taxallusi Komildur, bu ta'rixni nazm etibdurkim, tastir topar: Ta'rix: Komil zi bahri guft "azsari bashorat" "Shud voliy viloyat shoh Sayyid Muhammad", – deb keltirib o'tgan, Bayoniy esa, o'zining "Shajarayi Xorazmshohiy" asarida: " Alimahramning Ahmad otlig' bir o'g'li bor edi. Ul ham o'zini Tabibiy taxallusibila mutaxallis etib she'r aytmoq boshladi... Tabibiy farmoni mujibibila amal qilib, ul g'azallarni jam' qilib har g'azalni yozmoqchi bo'lg'onda,masnaviy bila ul g'azalni aytg'on kim erkanin bayon etib, bu tariqada tamomig'azallarni jam' qilib tamom etib ul kitobg'a "Majmuat ush-shuaro" otqo'yuldi. Oning itmomi ham ushbu yil voqye bo'lub erdi. Faqir onga butarixni aytdim..."[1], – deb bayon etgan. Demak, ushbu asarda xonlikda yashagan shoir va tarixchilar haqida ma'lumotlar mavjud bo'lib, bu manbalar ularning hayoti va faoliyatini o'rganishda ham katta ahamiyat kasb etadi. Ogahiy, Bayoniy va Kamyobning tarixiy asarlari XIX – XX asr boshlarida xonlikdagi bunyodkorlik ishlari tarixiniyoritishda muhim o'rin tutadi.Jumladan, Bayoniy asarida Xivadagi bunyodkorlikka oid ma'lumotlar mavjud. Unga ko'ra: "Chun Xevaq shahrining orqa tarafi tamomi viloyat xalqining rohguzarlaridur, bag'oyat vayron va nozirlarg'a boisi nafrat erdi.Xohlardilarkim, ul yerlarni obod etib, Toza Xevaq ismi bila mavsum etgaylar. Bas, Otajon

[1] Мунировa Қ. Хоразмда тарихнавислик (XVII – XIX ва XX аср бошлари). – Т Гафур Гулом, 2002. – Б. 156. 30

...vong'a buyurdilar, tokim, qal'aning orqa darvozasinikim, oni Urganch ...rvozasi derlar, yiqib tozadin o'rnig'a ikki darvozaxona bino qilg'ay. ...elning shaharga kirmaklari uchun va birichiqmoqlari uchun... Yana ...rvozaning yovuqida yo'l ustida bir tiligramxonabino qilmoqni ham ...ojon devong'a buyurdilar... va oning muqobilidayo'lning sharq ...tida bir g'oyatda vase' dorushshifo bino qilmoqni Rahimberganga ...yurdilar "[1], – deb bayon etilgan. Ma'lumki, XIX asrda Xiva xonli... ...da hujjatlarni saqlash yaxshi yo'lga qo'yilgan bo'lib, Toshhovlida ...jjatlar saqlanadigan maxsus joylar qurilgan.Tarixchilarning bergan ...'lumotlariga qaraganda, saroydagi arxiv hujjatlari Xazinaxonada – ...lohida binoda juda ehtiyotkorlik bilan maxfiy holda saqlangan.Arxiv ...jjatlarini nazorat qilib turish uchun alohida kishilar ham ajratilgan. ...qorida keltirilgan ma'lumotlardan shu narsa ma'lum bo'ldiki, ...ng...otlar sulolasi davrida Xorazmda qurilish sohasida ancha ishlar ...ilingan. Xiva xonlari tashabbusi bilan mamlakatda yangi masjid, ...adrasa saroy va boshqa bir qator inshootlar qurishga e'tibor berilgan, ...unda saroy amaldorlari ham bu ishga jalb qilingan. Tarixiy ...'lumotlarga qaraganda, Xiva xonlari turkman, qoraqalpoq, Xurosonda ...shi ba'zi bir xalqlarni Xorazm atrofiga ko'chirib keltirib,daryo ...kanallar atrofidan ularga muqim joy tayin etganlar. Shunday ...ulardan biri – eroniylar bo'lib, Xorazmning Qo'shko'pir tumanining ...qdarband qishlog'ida makon topganlar. Mahalliy mualliflar asarlarida ...bu masala yuzasidan to'liq va ishonarli ma'lumotlar mavjud. Unga ... XIX asrning birinchi choragiga kelib, islom dinida mavjud ...oqimlar orasidagi nizo kuchayishidan foydalanib, Xiva ...ulislomi shialarga qarshi g'azovot e'lon qilib, ularni qirib tashlash ...qul qilib sotish haqida fatvo bergan. Shundan so'ng, Ogahiyning ...icha, Xiva xoni Rahimquli to'ra boshchiligidagi qo'shin 1826 ... Xuroson o'lkasining Oqdarband qal'asiga hujum uyushtirib, zafar ...ahＯlisini asir olib kelgan. Nazarimizda, xonlar tomonidan ...niylarning Zeyyop bo'yiga joylashtirilishi xonlikka qarshi turli ...hlarni daf qilish, chegaralarni mustahkamlash uchun bo'lgani ...hasiz. Chunki XIX asrning birinchi choragida Xiva xonligi ...ofidagi hududlarda turkman, qoraqalpoq elatlari teztez g'alayonlar

[1] Баёний Муҳаммад Юсуф. Шажарайи Хоразмшоҳий // Мерос тўплами. – Т.: ... 1991. – Б. 261-262.

qilib turganlar. Ko'chmanchi turkmanlar soliq to'lashdan bosh tortganlar, boshqarish uchun yuborilgan noib yoki beklarni o'ldirganlar, ayrim hollarda Xiva shahriga qarshi yurishni amalga oshirganlar. Turkmanlarning bu kabi xujumlari esa asosan Xiva shahrining shimoli-g'arbiy tomonidan bo'lgan. Xiva xonlarining qo'shni hududlarga harbiy yurishlar olib borishi natijasida ko'chirib keltirilgan xalqlar bilan tub aholi o'rtasidagi etnik jarayon va munosabatlarni o'rganishda ham ushbu asarlar muhim manba hisoblanadi.Mahalliy mualliflarning Xiva xonligi tarixini yoritishga oid birlamchi manba bo'lib xizmat qiluvchi asarlarida mamlakatning tashqi siyosatiga doir bir qancha ma'lumotlar keltirilgan. Xususan, ularda XIX–XX asr boshlarida Xivaning Rossiya, Eron, Buxoro, Hirot, Dashti Qipchoq, Qobul, Kurdiston bilan savdo va diplomatik munosabatlari tarixiga doir ma'lumotlar o'z aksini topgan. Ushbu ma'lumotlarni biz to'rt guruhga ajratishimiz mumkin:

1) Elchilik munosabatlari;
2) Chegara masalalari va migratsiya;
3) Qo'shni davlat qochoq rahbarlarining Xivaga kelishi;
4) Chet davlatlar bilan yozishmalar.

Elchilik munosabatlari masalasi yuzasidan shuni aytish mumkinki, Xiva xonligida xorijiy mamlakatlarga elchi qilib nufuzli amaldorlar yuborilgan. O.Mutalov Ogahiyning ushbu masala yuzasidan ma'lumotini keltiradi.

Unga ko'ra:

Rossiyaga – Vays Niyozboy, Otajon oxund, Eshboy;

Eronga – Bekish xalifa, Ota Niyoz mahram, Holmuhammadboy, Holnazarbek;

Buxoroga – Gadoyniyoz mahram, Davlat Qorako'z mahram, Muhammad Rasuldomla, Niyoz Qilich yuzboshi, Norbek, Shukrullo oqo, Eshonxo'ja muftiy;

Hirotga – Yormuhammadxon, Mirzo Husayn, Tabibboshi, Naymon Muroddorg'a, Otajon mahdum, Oqo Niyoz sardor, Sayid Niyoz mahram, Shukrullo oqo, Erniyoz mahram, Eshon qozi, Abduqodir mahdum, Qutbiddin Hojashayxulislom, Hasan Murod mahram, Hoji Nazar sardor;

Dashti Qipchoqqa – Vays boy, Mulla Murod Ali yuzboshi, Sattorquli oqo;

Inglizlarga (Qobul) – Yoqubboy Xonaqohiy;

Kurdiston (Xuroson)ga – Niyoz Qilichsardorlar elchi qilib yubo-

olgan.

Chegara masalalari va migratsiya. Ushbu masala yuzasidan Xiva xonligidagi chegara masalalari, siyosiy va tabiiy o'zgarishlar [illegible]lixalqlarning ichki migratsiyasi, ayniqsa, qozoq va turkman qavmlarining birjoydan ikkinchi joyga ko'chirilishi to'g'risidagi ma'lumotlarni keltirishmumkin. Jumladan, taka turkman urug'ining Xiva xonligi tasarrufigakelishi haqida quyidagi ma'lumot mavjud: "Xuroson takasidin bir jamoahazrat zilli subhoniyning davlatlig' ostoni xizmatin orzu qilib, masokinumavotinlarin tashlab, uyu eli bila ko'chub , mamoliki mahrusadin yertiladilar... Ul hazrat muruvvat va shafqat yuzidin alarg'a marhamat vabandanavozliq ko'rguzub, [illegible]sharig' tavobe'ida Os mavze'idin ma'vo vasukano va mazra' berdi";

Qo'shni davlat qochoq rahbarlarining Xivaga kelishi. Ushbu masalayuzasidan quyidagi misolni keltirish mumkin. Rossiya imperiyasi [illegible]olgan hududlarda ayrım mahalliy rahbarlarning o'z mag'lubiyatni tan olib, unga xizmat qilishga o'tgan bo'lsalar, boshqa bir qismi esa, chet elbosqinchilari va mahalliy rahbarlarga qarshi kurashni davom ettirganlar.Shulardan biri, Amir Sayyid Muzaffarning o'g'li Abdumalik to'ra bo'lib.Muhammad Rahimxon II dan panoh izlab kelgan. Ogahiyning "Shohid ul-iqbol" asarida: "Abdumalik to'ra mazkur [illegible]ning hamrohlig'i bilaramazonu-l-muborak oyining yigirmasida, [illegible]shanba kuni, Xivaq shahrig'a kelib, amri oliy mujibi bila Angariq mavze'ida Hasanmurod qushbegininghavliyi oliysig'akim, aning manzili va osoyishi uchun burunroqto'shalib, ta'yin etilib erdi, tushub [illegible]g'atmishin va rog'atguzin bo'ldi", – deyilgan. Asarda Abdumalik to'raning Buxoroda otasi bilan kelishmay Xivaga kelishi bilan bog'liq [illegible] boshqa misollar ham mavjud;

Chet davlatlar bilan yozishmalar. Xiva xonligining boshqa davlatlar bilan yozishmalari tashqi aloqalarni o'rganishda muhim manba [illegible] xizmat qiladi. Jumladan, mahalliy mualliflar asarlarida Xiva [illegible] Buxoroxonligi o'rtasida doimiy ravishda xat yozishmasi bo'lib [illegible]ganligi ta'kidlanadi. Shuni aytish lozimki, Xiva bilan Buxoro [illegible] yozishmalar juda iliq holatda kechganki, buni yozishmalardan [illegible] "muhabbatnoma" deb atalishida ko'rish mumkin. Bundan tashqari Qo'qonxonlari bilan Xiva xonlari o'rtasidagi yozishmalar ham diqqatga sazovor bo'lib, tadqiqot jarayonida ular asosan o'zbek [illegible] tillarida olib borilgani, Buxoro bilan olib borilgan yozishmalar

esa, faqat fors tilida yuritilgani kuzatildi. Bayoniy asarida xonlikning rus qo'shinlari tomonidan katta harbiy kuch yordamida bo'ysundirilishi manzarasi berilgan. Unda muallif rus zobitlariga nafratini, xalqqa nisbatan xayrixohligi, achinish tuyg'ularini ifodalagan. Zero, Bayoniy o'z asarida Mang'it qal'asi aholisining 1500 nafarining rus qo'shini tomonidan o'ldirilishini aniq tasvirlagan, hamda bir so'z bilan Rossiya O'rta Osiyoni "tasxir etdi – ya'ni, zabt etdi, bo'ysundirdi", – deb qayd qilgan. Ushbu jumlalardan muallifning xonlikning mustamlakaga aylantirilgan bir paytda tarixiy jarayonga o'zining dadil munosabat bildira olganligining guvohi bo'lamiz. Zero, Bayoniyning yozishicha "Tarix kitobi yozishning bir sharti bor. Tarixiy voqealarni yozuvchi tarafdorlik etmasdan, bo'lgan voqealarni rostlik bilan bayon etishi kerak Agar rostlik bilan bayon etmasa, uning so'zlari hech bir odamga ma'qul bo'lmaydi". Ana shu avlod vakillaridan yana biri Sayid Homid to'ra Kamyobdir. T.Tog'aev va J.Jo'raevlar "Tavorix ul-xavonin" asarining yangi nashrida yozishlaricha, Kamyob xon oilasiga mansub bo'lganligi bois, sovet davrida unga sinfiylik nuqtai nazaridan baho berilib, asarlari ham yetarli darajada ilmiy muomalaga kiritilmaganligini qayd qilganlar Kamyob "Tavorix ul-xavonin"ni yaratish uchun Munis va Ogahiyning asarlaridan foydalangan holda, mazkur mualliflarning asarlarida tarixiy voqealar bayonini to'lig'icha keltirmay, faqat asosiy mazmunini berish, zarur hollarda mavjud nazmiy misralarni olish bilan kifoyalangan.

"Tavorix ul-xavonin" asari besh bobdan iborat bo'lib, ular:

I bob - Odam Atodan Nuh a.s.gacha bo'lgan davr zikri;

II bob - Yofasdan qo'ng'irot urug' voqeasigacha;

III bob - Qurlos avlodidan podshohlik martabasiga yetganlar zikri;

IV bob - Qo'ng'irot podshohlarining va ularning avlodlarining zikri,

V bob - Muhammad Amin Inoqning avlodlaridan Xorazm mamlakatida podhsohlik qilganlarning zikri va xotima[1].

Mundarijada Kamyob o'z salaflarining asarlari mazmunini ayrim jihatlari bilan takror holatlari mavjud. Shu bilan birga beshinchi bobda Kamyob Ogahiyning "Riyoz ud-davla", "Zubdat ut-tavorix", "Jome' ul-voqeoti sultoniy" singari har biri bitta hukmdor faoliyatini yoritishga qaratilgan yirik asarlarining asosiy mazmunini berib o'tgan. Ayni paytda "Tavorix ul-xavonin" Ogahiyning "Shohidi iqbol", Bayoniyning

[1] Жўраев Ж. А. Камёб хаёти ва ижодий мероси манбалари. Т., 2012. – Б.78

Shajarai xorazmshohiy" kabi asarlarining Feruz hukmronligi davrini yoritishda ham birbirini to'ldiruvchi ma'lumotlarga ega. Xususan, ayniqsa qimmatli bo'lgan qismi-muallifning o'z hayoti hamda ijtimoiy muhit to'g'risida ma'lumot beruvchi bir maqola va xotima qismidir. Shu jihatdan "Tavorix ul-xavonin" salaflari asarlarining to'ldiruvchi manbasi desak xato bo'lmaydi. J.A.Jo'rayev nomzodlik dissertatsiyasida Kamyob xon oilasi a'zolarining hayoti, xonlikning rus qo'shinlari tomonidan bosib olinishi, shuningdek, o'z davrining eshon va shayxlarning boshqaruviga ta'siri, karomatlari, mavjud tasavvufiy tariqatlar, ularning turmush tarzi, suluk odob-axloq qoidalari kabi masalalar haqida qimmatli ma'lumotlar berilganligi, qayd etib o'tgan[1]. Tavorix ul-xavonin"ning mundarijasi qayd etilgan jihati bilan salaflari asarlaridan Xiva tarixining ijtimoiy, madaniy ma'naviy hayotini tadqiq etish bu davrga oid tarixiy ma'lumotlardagi bo'shliqlarni to'ldirish va mukammalashtirishga xizmat qiladi. "Muntaxab ul-voqeot" uch bob va xotimadan iborat bo'lib, mavzuga aloqador qismi uchinchi bobda qo'ng'irot urug'ining xonlari haqida qimmatli ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Kamyob bu asarda ham turli voqealar bayoniga mos keltirilgan ayrim shoirlarning ijod namunalaridan keltirgan. Xususan, Sayyid Muhammadxon vafoti munosabati bo'yicha o'n besh banddan iborat marsiya havola etilgan. Yuqorida berilgan dalillar asosida ushbu bo'limga quyidagi xulosalarni qayd qilish mumkin: – mahalliy tarixchilar asarlarida Xiva xonligining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy ahvoli xususida ma'lumotlar mavjud. Ushbu asarlarda ma'lumotlar sohalar bo'yicha emas, balki xronologik tartibda joylashtirilgan. Shu tufayli ushbu asarlarni biz "Xiva solnomalari" deb atashimiz mumkin; – saroy tarixnavislari Xiva xonlarining qo'shni xalqlarning yerlarini, molmulkini xonlikka tortib olish siyosatini qo'llab-quvvatlab yozganlar, ularning milliy ozodlik va mustaqillik uchun olib borgan harakatlarini ma'qullamaganlar. Bu asarlarda qo'shni xalqlar [illegible] aytilgan "tug'yonkor", "isyonkor", "avbosh" "noshukur" kabi atamalarning uchrashi, ularning o'z faoliyatini xon boshqaruvi siyosati bilan uzviy bog'lab,hukmdorlar manfaatlariga mos qilib talqin qilishga majbur bo'lganliklari kuzatiladi; Xiva xonligi XIX asr oxiri-XX asr boshlarida Xorazm tarixnavislik maktabi o'z taraqqiyotining

[1] O'sha manba. – Б.78

yangi bosqichiga ko'tarildi. Shu tufayli xonlikda tarixchi, shoir va tarjimonlar jipslashib, ularning tarixiy va adabiy asarlari bir yerga to'plangan holda, ulardan nusxalar ko'chirilganini, ko'p sonli manbalar sharq tillaridan o'zbek tiliga tarjima qilinganini tarixnavislar Ogahiy, Bayoniy va Kamyob misolida ko'rish mumkin; Bayoniyning "Shajarayi Xorazmshohiy" asarida rus qo'shini tomonidan xonlikning katta harbiy kuch yordamida bo'ysundirilishi manzarasi keng yoritilgan bo'lib, unda muallifning rus zobitlariga nafrati, xalqqa nisbatan achinish tuyg'ulari ifodalangan. Ogahiy, Bayoniy va Kamyob tomonidan yaratilgan tarixiy asarlar qanchalik kamchiliklarga ega bo'lmasinlar, Xiva xonligining Qo'ng'irotlar sulolasi davri siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotini yorituvchi o'zbek tilidagi asosiy manba hisoblanib, ilmiy ahamiyatini va qimmatini saqlab kelmoqda.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Xiva xonligi tarixiga doir qanday asarlar mavjud?
2. Ogahiyning asarlari haqida ma'lumot bering?
3. "Firdavs ul-iqbol" asari qanday asar?
4. Xonlikda boshqaruvga oid asarlar bormi?
5. Iqtisodiyot va savdo-sotiq ishlariga doir asarlar haqida ma'lumot bering?

MAVZU № 9. QO'QON XONLIGI TARIXI TARIXSHUNOSLIGI VA TARIXIY BILIMLARNING RIVOJLANISHI

REJA:

1. Qo'qon xonligining XVIII-XIX-asrlar tarixi tarixshunosligi
2. Qo'qon xonligi tarixi tarixshunosligiga oid asarlarning mazmuni
3. Qo'qon xonligi tarixshunosligining davrlashtirilishi masalalari

Tayanch so'z va iboralar: situativ-epizodik, "Alimquli amirlashkar tarixi", doimiy va muttasil, "Muntaxab at-tavorix" asari, "Tarixi jahonnamoyi", "Tarixi Aziziy", "Tarixi jadidai Toshkand", qo'zg'olonlar, "Nusratnoma", adabiy-tarixiy, tarixiy-badiiy, "Amirnoma", poetik, "Tarixi Muhojiron", adabiy muhit, ijtimoiy qatlamlar

1. Qo'qon xonligining XVIII-XIX asrlar tarixi tarixshunosligi

O'rta Osiyo tarixini, jumladan o'rta asrlar tarixini o'rganish bo'yicha bir qator ishlar qilingan bo'lsa-da, lekin shunga qaramay O'rta Osiyoning qadimgi tarixini manbalar asosida o'rganish bo'yicha maxsus tadqiqotlarga ega emasmiz, tarixshunoslik tadqiqotlari esa juda kam. O'rta Osiyo tarixini tarixshunoslik jihatdan to'la o'rganilmaganligining sababi tarixiy manbalarning yo'qligi emas, manbalar ko'p va xilma-xildir, biroq O'rta Osiyo xalqlarining XVI XIX asr o'rtalarigacha bo'lgan hayoti tariximizning eng kam o'rganilgan davri xisoblanadi. Bu davr tarixshunosligini o'rganishni Bo'rivoy Ahmedovning 1985 yilda nashr qilingan O'rta Osiyoning XV – XVIII asrlar tarixiy jo'g'rofiy adabiyoti (yozma yodgorliklar) va B.V.Luninning 1988 yilgi O'zbekiston tarixi manbalari XVI – XIX asr sayoxatchilari, olimlari, yozuvchilari, memuarlari ancha yengillashtiradi. O'rta Osiyo tarixini o'rganuvchilar uchun B.V.Lunin tomonidan chop etilgan "O'zbekiston tarixiy manbalari" nomli 3 tomli asari yaxshi yordam beradi. Bu qismdagi ikkinchi kitob 1988 yilda chop etilgan. Unda XVI – XIX asrlarning sayoxatchilari, olimlari asarlari, xotiralari e'lon qilingan. B.A.Ahmedovning O'rta Osiyoning XV – XVIII asrlar tarixiy jo'g'rofiy adabiyoti (yozma yodgorliklar) asarida "Nusratnoma", "Fatxnoma",

"Shayboniynoma", "Mehmonnomai Buxoro", "Tarixi Muqimxoniy", "Ubaydullanoma", "Tarixi Abulfayzxoniy" asarlari kiritilgan va XVI – XVIII asrlardagi O'rta Osiyo tarixiga oid qimmatli ma'lumotlar beradi. "Tavorixi Guzida" (Nusratnoma) asarida Abuxayrxon, uning nabirasi Abulxayr Shayboniy (1488-1510 yy.) faoliyati va xarbiy yurishlari, uning oqibatlari bayon etiladi. Shayboniyni ko'pchilik o'zbek urug'larini birlashtirib temuriylarga qarshi chiqishi ko'rsatilgan "Nusratnoma"da o'sha davr sharoitini murakkabligi, Movarounnahr xalqlarining Shayboniydan noroziligi, Samarqand Buxoro, O'sh, Axsi, Andijon, Qarshi, Qorako'l va O'rta Osiyoning boshqa shaharlaridagi qo'zg'olonlar sabablari ochib beriladi. Shunday qilib, barcha turk va mo'g'ullarning afsonaviy bobosi O'g'izxon sultonligi tarixi "Nusratnoma"da birinchi qismini egallaydi. Ikkinchi qismi Chingizxon va uning avlodlari tarixini, Shayboniyxonni tug'ilishi, bolalik yillari va xarbiy yurishlari, to Samarqand taxtiga o'tirguniga qadar davrni o'z ichiga olgan. Uni 1405 yilgacha butun Movarounnahrni egallagani tarixi kitobni uchinchi qismidan joy olgan. Kitob 1502-1505 yillar orasida yozilgan. "Nusratnoma" ikki nusxada saqlangan. Biri FA Sharqshunoslik institutining Peterburg bo'limida, ikkinchi qo'lyozma Britaniya muzeyida saqlanadi. "Nusratnoma" to'liq tarjima qilinmagan S.K.Ibroximov va V.P.Yudinlar bu asarni ba'zi parchalarini o'zbek tiliga o'girishgan.

Qo'qon xonligining XVII-XIX asrlar tarixi tarixshunosligi musulmon sharq tarixiy asarlari adabiy-tarixiy hamda tarixiy-badiiy janrga taalluqli asarlardir. An'anaga binoan Sharq musulmon tarixchisi tarixiy-xronologik haqiqatni boy adabiy tasvir tili bilan tashbix, mubolag'a, istiora va mavjud bo'lgan barcha tasvir va bayon vositalari orqali berishi lozim edi. Aks holda, yuqori saviyali Sharq o'quvchisi bunday asarni tan olmasdi. O'quvchi bu asarni mutolaa qilib, o'zining estetik, g'oyaviy talablarini ham qondirishi lozim bo'lgan. Buyuk san'atkor, olim, yozuvchi va muarrix oddiy haqiqiy ijodkorlardan shu jihati bilan ham farq qiladiki, u nafaqat zamonasining ruhini, balki o'z xalqi va millatini ham vaqt o'lchovlari ichida ko'rsatadi. Shunday ekan, tarixiy asarning manba sifatidagi ahamiyati hech qachon pasaymaydi. Uning imkoniyatlari har xil ilm sohalariga tegishli bo'lgan olimlar uchun material beradi. Buning sababi shundaki, har bir tadqiqotchi va olim u yoki bu manba ahamiyatini o'zi olib borayotgan izlanishlari uchun

belgilaydi. Bunday holatda manba va sarchashmaning ahamiyati va qimmati doimiy bo'lmay, o'zgaradigan o'lchovga egadir. U ham sub'yektiv, ham xususiylik kasb etadi. Shuni ham qayd qilish kerakki, tarixiy manbalarning informativ va zamonasining kommunikativ timsoli sifatidagi ahamiyati ham ilm, ham amaliyot uchun zarurdir. Shu ma'lumotlarni olish uslub va vositalarini takomillashtirish uchun ham kerakdir. Tarixiy asarlar muayyan vaqt va zamonning ijtimoiy, siyosiy, madaniy hayotini aks ettiruvchi manbadir. Tarixiy asarlar zamonasining ma'naviy muhitini to'g'ridan-to'g'ri, bevosita o'zida mujassam etadi. Shuning uchun ular o'zlarida muayyan ijtimoiy va intellektual guruh va tabaqalarning tafakkurlari, dunyoqarashlarini aks ettirgan. Qo'qon tarixnavislik maktabi asarlari o'zbek, tojik hamda arab tillarida yaratilgan. Ular nazm va nasrda yozilib, turli janrlarda doston, qissa, tarixiy-adabiy asar, memuar-tarixiy va biografik-tarixiy asar sifatida vujudga kelgan. Sharq an'anasiga muvofiq, keluvchi sof tarixiy asarlar ham Qo'qon xonligida kam emas, jumladan tarixiy asarlar:

1) situativ-epizodik mavzularga (Mutrib va Andalib dostonlari, "Alimquli amirlashkar tarixi" va boshqalar);

2) doimiy (dinamik) va muttasil mavzularga (Qo'qon tarixnavislik maktabida bundaylar "Muntaxab at-tavorix" asari, "Tarixi jahonnamoyi", "Tarixi Aziziy", "Tarixi jadidai Toshkand" hisoblanadi) bag'ishlangan bo'ladi.

Bu asarlar mualliflari olam yaralishidan to o'z zamonalarigacha bo'lgan tarixni birgalikda mufassal bayon qilishga intilganlar. XX asrning boshlarida esa amerikalik olim E.M.Forster Kembrij universitetida o'qigan lektsiyalarida (1927 yil) tarixiy asarlarni ikkiga bo'lgan. Uning ta'biricha: story (tarixiy) - bu xronologik tartibi bilan voqealarni bayon qilish bo'lib, poet - sabablar aloqasiga urg'u berib, hodisalar bayon etilgan asardir.

Qo'qon tarixchilarining asarlarida shu uslublarga xos bo'lgan asarlar uchraydi. Bu esa muarrixlarimiz ijodida fantaziyaning boyligi, fikrlar erkinligi, ijodkor sifatida har birlarining betakror ekanliklaridan darak beradi. Hozirgi o'zbek manbashunoslik ilmida quyidagi tamoyillar mavjud:

- manbalarni topish;
- manbashunoslik nuqtai nazaridan tahlil yoki ilmiy tanqid;
- manba ma'lumotlaridan foydalanish uchun yangi uslub va vosi-

talarni, qo'llanmalar, metodik tavsiyalar, xrestomatiya va boshqa xildagi asarlarni yaratish.

2. Qo'qon xonligi tarixi tarixshunosligiga oid asarlarning mazmuni

Qo'qon xonligida yozilgan eng birinchi tarixiy asar Sher Muhammad Akmal Xo'qandiyning "Amirnoma" asaridir. Muallifning mazkur asarni 1801-1802 yilda yozgani taxmin qilinadi, chunki undagi eng oxirgi sana hijriy 1216 yil tarzida tilga olingan. Sher Muhammad Akmal Xo'qandiyning tarjimai holi A.P.Qayumovning "Qo'qon adabiy muxiti" kitobida, Po'latjon Qayumiyning "Qo'qon tarixi va adabiyoti" hamda "Tazkirai Qayumiy"sida yoritilgan. Tarixnavis AvazMuhammad Attor Xo'qandiy esa o'z asari "Tarixi jahonnamoyi"da Akmal Sherning "Nasabnomai tarixi xavonini Farg'ona" nomli asari haqida xam so'z yuritadi. "Amirnoma"ning yagona nusxasi O'zR FA ShI fondida saqlanadi. Uning forzatslistdagi varag'ida "Umarnoma" "Akmal" taxallusli Sher Muhammad Akmal Xo'qandiyning asari". - deb yozilgan Bu qaydga ba'zi aniqliklar kiritish lozim. Birinchidan asar 1214-1216 hijriy yillar orasida yozilgan. Amir Umarxon esa milodiy 1810 yili fevralida xonlik taxtini qo'lga kiritdi. 1818 yilga kelib u o'zini Amir ul-mo'minin deb e'lon qiladi. Ikkinchidan, asarda Umarxon davriga doir biror bir tarixiy voqea bayon qilinmagan. "Amirnoma"ning mazmuni juda murakkab bo'lib, janri xususida so'z yuritish ham ayrim chigalliklarni vujudga keltiradi. Asar Olimxon davrida yozilganiga qaramasdan bu xonning nomi hech bir o'rinda eslanmaydi. Aniqrog'i, muallif uning To'raqo'rg'on, Isfara va Xo'jandga qilgan yurishlarini bayon qilarkan, nomini "sohibiqiron" shaklida tilga oladi. Asar oxirida Akmal Sher Toshkent hokimi Yunusxojaning Qo'qonga yurish qilib, Asht mavzesigacha kelganini qayd etgan. Kitob fors-tojik tilida nazm va nasrda yozilgan. Uning she'riy qismi 3250 baytdan iborat. Har bir sahifada 13 satr yozuv joylashgan. Qo'lyozma 133 varaqdan iborat Xati nasta'liq, qora va qizil siyohda yozilgan, kotibi noma'lum, nusxa avtograf bo'lishi ham mumkin. Asarning mazmuni quyidagicha:

- Asar yozilishining sabablari;
- Payg'ambar na'ti va Xulafai Roshidin madhi;
- Yaxshi va yomon, qalam va qilichning fazilati, qalamning qilichdan

afzalligi;
- Amir, maliklar, ilm va qalam arboblariga murojaat;
- Bir necha bobda turli mazmundagi hadislar sharhi keltiriladi;
- Oltin beshik davri;
- Amiri sohib qiron (Olimxon)ning Andijon, Isfara va Xo'jandga yurishlari zikri;
- Yunusxojaning Asht mavzesiga (1216 yili rabi al-oxir oyining oxiri yakshanba kuni /1801 yil 6 sentyab) kelgani.

Mazkur asarning boshqa nusxalari borligi, uning buyurtmachi tarafiga ma'qul bo'lgan yoki bo'lmagani ma'lum emas. Umarxon davrida Akmal Sher saroy shoirlari qatoridan joy olgan bo'lib, Qo'qon adabiy muhitida munosib o'rin egallagan. Uning tarixchi sifatidagi nufuzi ham yuqori bo'lgan. Biroq Umarxon o'z davri tarixini yozishni Abdulkarim (Fazliy) Namangoniyga buyurgan.

"Umarnoma" asarining muallifi Fazliy Farg'oniy (Abdulkarim Namangoniy) - Qo'qon adabiy muhitida shoir sifatida shuhrat topgan adibdir. Fazliy Umarxon saroyida "malik ush-shuaro" unvoniga ega bo'lib, o'z she'rlaridan devon tartib bergan yirik shoir va mashhur "Majmu'at ush-shuaro" tazkirasining tuzuvchi-muallifidir. Uning she'riy ijodi A.Qayumov tomonidan qisman o'rganilib, hayoti va ijodi ta'rifi o'zbek adabiyoti tarixining to'rtinchi jildida qisqacha yoritilgan. Fazliy Farg'oniyning "Umarnoma" nomli tarixiy asari Qo'qon tarixshunosligida hozirgacha bizga ma'lum bo'lgan birinchi asarlardan hisoblanadi. Bu qo'lyozma asar yagona nusxada yetib kelgan bo'lib, hozir Rossiya FA Sharqshunoslik institutining Sankt-Peterburg bo'limida S 2467 raqami ostida saqlanadi. Bu asar haqidagi birinchi ma'lumotni Mirzo Qalandar Mushrif ijodiy faoliyati va Avazmuhammad Attor qaydlari orqali qo'lga kiritamiz. Zero, Mirzo Qalandar Mushrif Fazliyning mazkur asarini nazmdan nasrga o'girib, undagi tarixiy voqealarni keng bayon qilgan. Mushrif "Umarnoma" haqida shunday yozadi: Kechalarning birida Umarxon huzurida tarixiy kitoblardan va Temurga bag'ishlangan asarlardan parchalar o'qilardi. Umarxon faqirga qarab Fazliy Farg'oniyning nazmda bitilgan "Shohnoma" asarini nasr tiliga tarjima qilishni buyurdi. Oliy hazratlari amiri olamgir o'zining sehrli va yorqin diqqatlarini bu faqiri bebizotga qaratib dedi: "Nazm tili yaxshi va xush bo'lsa xam, lekin nasrning kamoli ulamo diqqatlariga shirin sado bilan tegadi, chunki nasr fazosi kengdir... Nazm nasrsiz bo'lolmaydi.

Bizning iltimosimiz asosida yozilgan "Shohnoma" asari istagimizga qarshi bo'lib chiqdi... Shuning uchun uni isloh, qilib, o'zgartirib bizning marhamatimiz diqqatiga havola etgil" Fazliy Farg'oniyning asari nima uchun xonga manzur bo'lmadi va keng tarqalmadi? Uning mazmuni, g'oyalari va umumiy yo'nalishi qanday? Bu asarning nasriy bayoni haqiqiysidan qaysi jihatlari bilan farq qiladi? Fazliyning asari Qo'qon tarixiy asarlari ichida qanday o'rin egallaydi, qimmati va ahamiyati nimada? Farg'oniy asari yagona nusxada bo'lib, 1962 yili Moskvadan Rossiya Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutining Sankt-Peterburg bo'limiga berildi. Fazliy Farg'oniyning "Umarnoma" asari tojik tilida yozilgan manzuma doston bo'lib, asosan, Umarxon davriga bag'ishlangan. Umarxondan oldin xon bo'lgan Qo'qon xonlarining davrlari juda qisqa bayon etilgan. Asar matni Qo'qon qog'oziga yozilgan bo'lib, rangli ramka ichiga olingan. Asarning birinchi beti chiroyli "sarlavha" bilan bezatilgan. Xati nasta'liq. Matn qora rangda, boblarning nomlari qizil rangda bitilgan. "Umarnoma"ni yozishda Fazliy Abdulloh Hotifiy (Jomiy)ning "Temurnoma" asarini namuna sifatida tanlagan. "Umarnoma" yozilishi sabablarini Mushrif o'z asari "Shohnomai nusratpayom"da quyidagicha izohlaydi: "... Jumladan, Mavlono Fazliy Namangoniykim, asr malik ush-shuarosi va daxr fuzalolarining afzali bo'lib, she'riyat maydonida so'z chavgoni bilan sabqat go'yini yaqinlari va hamkasblaridan tortib olgan edi. Alhaq, u zamonaning zabardasti va so'z lashkarining sipoxsoloridirkim, kamoli javhari garonbaxo va tojomuli yeli ruhbaxshdir. Uning sof nazmi oldida zilol suv ham durdanno'sh va nozuk qalami oldida hilol ham qulog'iga qulliqdan halqa osgandir. Nazm fasohatida naziri va nasr balohatida adili yo'qdir. Olimxon ko'xistonliklardan qo'shin tuzib, ularga xomiylik qilardi, uning tayanch kuchlari xam shular xamda qullardan tashkil topgan lashkar edi, ularning ko'p vakillariga mansab va amallar berdi. Natijada, Ko'xistondan chiqqan askarlar bilan shahar axolisi va ruxoniylar o'rtalarida qarama-qarshilik paydo bo'ldi Olimxon soxta so'filar, shayx va tariqat pirlariga xam qarshi chiqib, ularni o'ziga raqib qilib qo'ydi. Ko'chmanchi qabilalarning biylari, ruxoniylari vaziyatdan foydalanib, Olimxon o'rniga Umarxonni loyiq nomzod deb biladilar. Sayram va Chimkent yurishidan so'ng Olimxon xamma o'ljani o'ziga oladi va yig'ma qo'shin noroziligi oxirgi nuqtaga yetadi. Olimxon 12 yillik xonlikdan so'ng, 36 yoshida Saroy mavzeida

o ldiriladi Amirxon xonlik taxtiga o'tirib, Turkistonni Qo'qon tobeligiga kiritganidan so'ng (1818 yili) o'zini amir deb e'lon qiladi". Asarda Olimxon zolim, sitamkor sifatida keltirilgan va tabiatida kasallik xam mavjud bo'lgan savdoyi kishi o'rnida talqin qilingan. "Umarnoma"da xonlikning Buxoro amirligi, Ko'xiston, Sharqiy Turkiston va Janubiy Qozog'istondagi elatlar bilan bo'lgan o'zaro munosabatlari haqida ham qimmatli ma'lumotlar uchraydi. Asarning Qo'qon xonligidagi kosibchilik va kosib-hunarmandlar haqidagi ma'lumotlari xam katta axamiyatga ega. Unda Umarxonning yaqinlari haqida xam xabar bor Fazliy Farg'oniy Yusuf xattot, Ko'kaldosh inoq me'mor hamda zamonasining mashxur kosib hunarmandlari zargar va yaroqsoz (Usta Xo'ja Yahyo kamongar yoychi), Xo'ja Qosim oxangar (temirchi), Xo'ja Ibroxim, Usta Jamshid, Usta Doniyorlarni tilga oladi. Shunday qilib, Fazliy Farg'oniyning asari Qo'qon tarixshunosligida birinchi nodir asarlardan bo'lib, Qo'qon tarixchilik maktabida o'zining xos o'rniga egadir Asarning tugallanmagan xolda va yagona nusxada yetib kelishi olimlarimiz orasidagi baxsu munozaralarga sabab bo'larkan, bu, asar mazmunining xokim tabaqa, xususan, amir Umarxonga yoqmagani va shu sababli uni nasrda qaytadan yozish uchun Mushrifga topshirgani bilan izoxlanadi. Shu sababli uning qo'lyozma nusxalari ko'chirib ko'paytirilmagan va asar chala qolib, Umarxon topshirig'ini bajargan Mushrifning yangi asari shuxrat topgan. "Umarnoma" asari Fazliy Farg'oniy (Abdulkarimi Namangoniy) ijodini o'rganishda boshqa asarlari bilan bir qatorda asosiy manba sanaladi. Uni tarjima qilib, nashrdan chiqarish esa, shubhasiz, Qo'qon tarixi va madaniyatini o'rganishda katta ahamiyat kasb etuvchi omillardan biri bo'lgan.

Mirzo Qalandar Mushrif Isfaragiyning "Shohnomai nusratpayom" (G'alabadan darak beruvchi shoh kitob) nomli tarixiy asari fors-tojik tilida yozilgan bo'lib, xozirgi kunda bu asarning ikkita qo'lyozma nusxasi mavjud. Ulardan bir nusxasi Rossiya FA ShI SanktPeterburg bo'limida S 471 raqam ostida, ikkinchisi esa Tojikiston Sharqshunoslik instituining qo'lyozmalari fondida (qo'lyozma 10088, 73 var.) saqlanadi Mirzo Qalandarning tarjimai xoli borasida ko'p ma'lumotga ega emasmiz. O'z nomiga "mushrif" unvonini qo'ygani muallifning mirzoligi va saroyda amaldor bo'lib xon axli doirasiga kirganidan darak beradi. Isfaragiy yoki Isfaroyiniy nisbasi esa uning Isfaradan bo'lganligini bildiradi. "Muntaxab at-tavorix" muallifi Muhammad

Hakimxon ma'lumotiga qaraganda, Umarxon 1818 yili Mirzo Qalandarni qozi askar etib tayinlagan. Ma'lumki, qozi askar qo'shinda xizmat qilib shariat qonun-qoidalari, tartiblari ustidan nazorat olib borardi. Bu lavozimga, albatta, o'qimishli va savodi chiqqan faqih-olim tayinlanishi aniq. Mirzo Qalandar Mushrif Isfaragiy bu asarni, yuqorida aytganimizdek, Qo'qon xoni amir Umarxonning bevosita buyrug'iga binoan Fazliy Farg'oniyning "Umarnoma" asari asosida yozgan ("Shoxnomai nusratpayom", muallif Umarxon saroyida va qo'shinida xizmat qilgan shoir, tarixchi olim bo'lib, uning bu asari keyinroq yozilgan manbalarda boshqa nom ostida xam tilga olinadi, masalan, "Tuhfat at-tavorixi xoniy"da u "Shoxnomai Umarxoniy" nomi bilan tilga olingan. Amir Umarxon 1822 yili Fazliy Farg'oniy tomonidan yozilgan "Umarnoma" asarini ma'qullamaydi va Mushrifga uni boshqatdan ishlab, nasr tiliga o'girishini buyuradi.

Shoira Dilshod Barno ham tojik va o'zbek adabiyotida o'zining betakror iste'dodi bilan ajralib turadi. Uning adabiy asarlari bilan birga tarixiy asarlari ham bizgacha yetib kelgan. "Tarixi muhojiron" ("Muxojirlar tarixi") Dilshod Barno qalamiga mansub ana shunday tarixiy asarlardan biridir. Dilshodning tarjimai holiga tegishli ma'lumotlar uning asarlarida hamda ilmiy risolalarda keltirilgan. Shoiraning xayoti va adabiy merosi olimlarimizdan A.Muxtorov va M.Qodirova tomonidan ilmiy tadqiq etilgan. Dilshod hijriy 1215, milodiy 1800 yil O'ratepa shahrining Miri Mushon mahallasida, shu mahalla masjidining muazzini shoir tabiat Raximquli dodxoh oilasida dunyoga kelgan. Dilshod 13 yasharligida otasi O'ratepa mudofaasida qatnashib, halok bo'ladi. Onasi ham otasidan uch yil oldin vafot etgan edi. Shoira 90 yoshga kirgan momosi Kattabibi qo'lida qolib, ip yigirib kun kechiradi. Hijriy 1232, milodiy 1814 yili Umarxon O'ratepaga qo'shin tortib, uni qamal qiladi va uzoq, muddat davom etgan muhosiradan keyin shaharni bosib olib, viloyat hokimlarini o'ldiradi. Shahar aholisidan 13400 nafarini asir qilib, 400 kishini dorga osib, qolgan 13000 nafarini Qo'qonga olib ketadi. Asirlar ichida Dilshod xam bor edi. 17 yashar qizning buvisi firoq, dardida olamdan o'tadi. Qo'qonga kelgan Dilshod yana ikkita qiz bilan Umarxon haramiga tortiq etiladi. Lekin Dilshodning shaddodligi sabab qiz amirga manzur bo'lmaydi va uni zindonga tashlatadi. Zindonbon xodim shoiraning hamshahari bo'lib chiqadi va uning qochishiga yordam beradi. Dilshod ancha sarson-sargardonlikdan so'ng

po laxiy so'filar yordami bilan bo'lg'usi eri Mullo Tosh imom oilasiga tushadi. Mullo Tosh Hoji kalon mahallasining imomi edi. Dilshod uning onasi qo'lida tarbiya topib, undan o'zbek tilini o'rganadi. Qaynonasi vafotidan so'ng Dilshod maktab ochib, qizlarga ta'lim beradi. Mullo Tosh 1857 yili 90 yoshida vafot etadi. Shoiraning o'zi yuz yildan ko'p umr ko'rgan. Akademik Ahror Muxtorov taxminicha Dilshod 1905-1906 yili vafot etgan. Dilshod o'zidan keyin ajoyib meros qoldirdi. Shoira sifatida u o'ziga "Barno" taxallusini oladi. Dilshod she'rlarining qo'lyozma nusxalari, "Tarixi muhojiron" ("Muxojirlar tarixi") asari tojik va o'zbek tilida bizgacha yetib kelgan. Biz bu yerda shoiraning faqat tarixiy-biografik mazmundagi "Tarixi muhrjiron" asari va bu asarning Qo'qon tarixnavislik maktabida tutgan o'rni haqida so'z yuritamiz. Dilshod Barno dastlab fors-tojik tilida bitgan bu asarini o'zi o'zbek tiliga tarjima qilgan. Tojik tilidagi nusxa hozir Tojikiston Jumhuriyati Axmad Donish nomidagi Tarix, arxeologiya va etnografiya instituti fondida, o'zbek tilidagi nusxasi esa O'zbekistan Respublikasi FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida (inv. № 1207) saqlanadi. Bu nusxalar Tojikistonda A.Muxtorov va O'zbekistonda M.Qodirova tomonidan nashr etilgan. Har ikkala qo'lyozma nusxaning ham bosh qismlari yo'q. Shuningdek, bu qo'lyozmalar bir-birini to'ldirishga ham xizmat qiladigan farqlarga ega nusxalar sanaladi. "Tarixi muhojiron" biografik-tarixiy asarlar qato-riga kiradi. Asarning qisqacha mazmuni quyidagilardan iborat: 1816 yildagi O'ratepa qamali bu voqeaning Dilshod kabi zukko shohidi tomonidan yozilgan. Dilshodning ta'kidlashicha, undagi ayrim tafsilotlar hatto "Tazkirai ...", "Tazkirai muhoriba", "Tazkirai is-taravshan", shoir Shahdiy dostoni, Xo'ja Kalonning "Jangnoma"sida ham yo'q ekan. Muallif hikoya qilishicha, qamal hijriy 1232 yili boshlanadi. Uzoq davom etgan muhosiradan so'ng O'ratepa bosib olinib, aholisi asirga tushadi. Farg'ona amiri Umarxon o'zi olim va katta shoir bo'la turib, bu mazkur shaharning birorta olim va shoiriga rahm qilmadi. Chorsu mavzeida 400 kishi o'ldiriladi. Shahar hokimlaridan Sarimsoqbek va Kattabek ham asirga olinib o'ldiriladi. 13 ming kishi Navqand, Bekat, Kurkat va Maxram orqali Qo'qonga olib kelinadi. Dilshod yana ikki qiz - Izzatoy va Hurmatoy deganlar bilan amir haramiga ajratib olinadilar, qolgan xalq esa O'ttiz adir degan mavzega oq (surgun) etiladi.

Uvaysiyiing "Voqioti Muhammad Alixon" asari ham Qo'qon

xonligi tarixshunosligida muhim o'rin tutgan. Uvaysiy - Jahon otin asli Marg'ilonning Childuxtaron mahallasidan, 1780 yili tavallud topgan Uvaysiy o'z zamonasining mashhur shoiralaridan bo'lib, Nodira-Moxlaroyim homiyligida Qo'qonga maxsus yorliq bilan kelgan edi Uvaysiyning Qo'qon adabiy muhitida ko'rsatgan xizmati va o'rni adabiyotchilarimiz tomonidan o'rganilgan hamda tahlil etilgan. Uvaysiy 1845 yili 68 yoshida Marg'ilon shahrida olamdan o'tgan. Uvaysiyning tarixiy dostoni - "Voqioti Muhammad Alixon (Muhammad Alixon voqealari)"ning nusxasi shoiraning "Devoni" va "Karbalonoma" dos-toni bilan birga ko'chirilgan bo'lib, nusxasi O'zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti xazinasida, qo'lyozma 1837 raqam ostida saqlanadi. Doston ko'chirilishi tugallanmay qolgan, balki muallif tomonidan ham bu asar oxirigacha yozilmagan. Mavjud asarning qismi shuni ko'rsatadiki, Uvaysiy Muhammad Alixon davrini to'liq yozmoqchi bo'lgan. Ma'lumki, 1842 yil voqeasidan, ya'ni Muhammad Alixon amir Nasrulloh tomonidan qatl etilganidan so'ng shu dostonga yaqin ruxda yozilgan Andalib va Mutriblari ham yuzaga kelgan edi Har holda 1845 yilgacha umr kechirgan shoira bu voqeani bayon qilmasdan, asarini "Voqioti Muhammad Alixon" deb atab, shu vaqtda halok bo'lgan xomiysi Nodira va Umarxon haqida quyidagicha samimiy so'zlarii yozmasdi:

Er shohlar orasinda ul Umarxon, bir necha kuni surdi davron.
Mohpora edi oni zaifi "Maknun"dur taqallubi latifi.
Yusuf edi, budur Zulayxo, ul Vomi edi, u erdi Uzro.
Biri edi Laylo, birisi Majnun,
Bir-birini muxabbatiga mamnun!

Asarning yozilgan qismi Chin g'azotiga bag'ishlangan. Qo'qon tarixidan ma'lumki, Umarxon vafotidan so'ng (1822 yili), Qoshg'ar xokimlarining vorislaridan bo'lmish Jahongirxo'ja Sharqiy Turkiston - Koshg'arga 1824 yili qochib borib, xitoyliklarga qarshi qo'zg'olon ko'taradi va Sharqiy Turkiston taxtiga chiqadi. Qo'qonliklar bu urush-larda faol qatnashgan edilar. 20-yillarning oxiri va 30-yillarning bosh-larida Muhammad Alixon Qo'qon lashkari bilan Koshg'arga keladi va xitoyliklarning Gulbog' nomli qal'asi qamalida qatnashadi. Koshg'arga xitoyliklarga qarshi uyushtirilgan ikki yurishdan so'ng Muhammad Alixon "G'oziy" ismini oladi. Shu yurish tafsilotini Uvaysiy nazmda bayon etgan. Asar mazmunidan shu narsa ma'lum bo'ladiki, Muhammad

Alixon yurishdan oldin onasi Moxlaroyimning maslaxati va roziligini olgan

Mutribning "Shoxnomai devona Mutrib" ham 1842 yili Qo'qonda sodir bo'lgan voqealar, ya'ni Farg'onaning Buxoro amiri Nasrulloh tomonidan bosib olinishi va Qo'qon shoirasi Nodira-Mohlaroyimning vaxshiyona qatl etilishini bayon qiladi. Asarining uch nusxasi bizgacha yetib kelgan, ulardan Rossiya FA ShI Sankt-Peterburg bo'limidagi T raqam ostidagi 2412 qo'lyozma to'liqdir. Toshkentdagi ikki nusxasi esa noqis va to'la emas. Asar doston shaklida juda sodda va ravon til bilan yozilgan bo'lib, oddiy o'quvchi uchun mo'ljallangan. Qisqacha mazmuni Aziz Qayumov kitobida quyidagicha keltirilgan: "Qo'qon xoni Muhammadalixon ba'zi yomon niyatli vazirlarning so'ziga ishonib, ukasi Sulton Maxmudxonning taxtga da'vosi bor deb shubxa qiladi va uni Shahrisabzga jo'natadi. Ularning onasi Moxlaroyim kichik o'g'lidan ajralib, uning firoqida zor-zor yig'lab qoladi. Oradan bir oz vaqt o'tgach, Buxoro amiri Nasrulloh Qo'qonga bostirib kela boshlaydi. U O'ratepa, Qo'qon, Qaroqchiqumni bosib olib, Sulton Muhammad xukmiga o'tkazadi Shundan so'ng Muhammad Alixon o'z ukasi bilan kelishadi va Toshkentni xam uning ixtiyoriga o'tkazadi. Birodarlarining o'zaro kelishib, ittifoq tuzganidan xabar topgan Nasrulloh yana Qo'qonga hujum boshlaydi. Sulton Maxmudxon Toshkentdan Qo'qonga qaytib, akasi va onasi bilan uchrashib, xokimiyatni o'z qo'liga oladi. Ammo bu paytda Buxoro lashkari Qo'qonga kirib kelgan edi. Muhammad Alixon Marg'ilonga qochadi, ammo odamlar uni tutib, Nasrullohga topshiradilar. Muhammad Ali-xonni Qo'qonga amir Nasrullohning oldiga olib keladilar, ular o'rtasida qisqacha bahsdan so'ng amirning buyrug'i bilan Muhammad Alixon qatl etiladi. Shundan keyin qamalib yotgan Sulton Maxmud va Muhammad Alixonning 12 yashar o'g'li Muhammad Aminxon ham qatl etiladi. Bolalarning o'limiga chiday olmay amirga xaqorat so'z aytib, uni la'natlagan Mohlaroyim xam amir Nasrulloxning buyrug'i bilan qatl etiladi".

Bu asarning qimmati shundaki, asosiy qahramonlar xonu xonzodalar va ularning onalari oddiy inson maqomida tasvirlangan. Ularning boshlariga tushgan fojia ashraflarning insonga xos bo'lgan ojizligi, xorligi, amirning esa zolimligi va boyligu mansab, manfaat uchun ko'rsatgan razolati ochib berilgan. Muhammad Alixon odamlarga mu-ruvvat qilib, ulardan xudo marxamatiga loyiq bo'lib, do'zax azobiga

giriftor bo'lmasligi uchun duo tilaydi. Ulardan kechirim so'raydi, qilgan ishlaridan, yetkazgan jabru sitamlaridan pushaymon yeydi. U o'limga mahkum bo'lganini tushunib, amirdan shafoat tilaydi. Endi u zulmu zolimlik jazosiz qolmasligini tushunadi. Zolim kishi xalq qahriga mubtalo bo'ladi. Asarda Moxlaroyim obrazi markaziy siymo qilib olingan. Bu malika ham bir jabrdiyda ona, kulfatzada, farzand dog'iga mubtalo bo'lib, bolalarining o'limini ko'rayotgan inson sifatida tasvirlangan. Moxlaroyimning shu his-tuyg'ulari, dardu alamlari, psixologik ruhiyati asarda juda xam jozibali va haqqoniy tarzda bayon etiladi. Muallif o'zini ham voqeaning bir ishtirokchisi sifatida ko'rsatadi. "Shohnomai devona Mutrib"da voqealar tasviri orqali oddiy xalq, ruxiyati, uning psixologik holatlari ko'rsatiladi. Asar shuni isbotlaydiki, xalq xonlarining aybu gunohlarini bilsa xam uning shunday yo'l bilan amir tarafidan jazolanishiga qarshi edi. Qatl qilish bu Alloh bandasining ishi emas. Insonga jon ato etgan Allohning o'zi bandasiga xo'jayindir. Bunga qo'shimcha Muhammad Alixon bahonasi bilan ukasi, o'g'li, onasi xam qatl etildi, xalq ularning o'limiga afsuslandi. Amir tomonidan hokim etib tanlangan Ibrohimbek xayol jabriga giriftor bo'ladi. Ikki oydan so'ng bu mang'it hokimi Qo'qondan haydaladi. Ammo bu istilo Qo'qon xonligidagi uzoq muddat yuz bergan o'zaro nizolar, qonli urushlar natijasida Rossiyaga yem bo'lib qolishning boshlanishi edi, xolos.

Qo'qonda 1842 yili yuz bergan voqealardan so'ng o'zbek tilida yozilgan "Shoxnomai devona Andalib" asari Andalib qalamiga mansub bo'lib, shu yili Buxoro amiri Nasrulloh Qo'qonni bosib olib, Muhammadalixonning o'g'li Muhammadamin, onasi Mohlaroyim va ukasi Sulton Murodxonni o'ldiradi. Andalib nazmda shu voqeani lirik bir ruhda bayon qiladi. Asarda nasriy parchalar xam bor. Andalib Buxoro amirining vahshiyligi, dushman qo'shinining qatlu g'oratlari va zulmlarini qoralaydi.

Asar tarkibi quyidagilardan iborat:

- So'zboshi;

- Sheralixon dilovar podshohi zolim (amir Muzaffarning) Xo'qandni olib, xonlarni boshini kesib, hamma xaloyiqni paymol qilib, uylarini toroj qilib ketgonini eshitib toqat qila turolmay xuruj qilib, viloyatni yana mang'it elidan olganlari Podshohi Buxoro o'rdasida davlat sharobidin mast va ishrat mayidan alast erdi, kunlardin bir kun arkoni

[illegible] birla bazm orosta qilib o'lturib erdi, eshikdan bir kishi kirib [illegible] qildi, ta'zim va tavoze' qilib aytdikim: bir oy bo'ldiki, Mashriq [illegible] bir amiri dilovar xuruj qilib, Xo'qand viloyatini musaxxar [illegible]. Ibrohim parvonachini shahardan badarg'a qilib, hukumat [illegible] minib, Xo'qand viloyatini atrofiga qal'a bino qilibdur deb, [illegible] tamom qildi. Bu xabari jonso'zni eshitib, mast erdi hushyor [illegible] uyquda erdi, bedor bo'ldi. G'azab birla lashkar yig'ib, Xo'qand viloyatini avvalgidan battarroq vayron qilib, ba xoki dahr yakson qilay [illegible] ravona bo'lgani;

Podshoh, lashkari birla Saritol dashtida ko'p yotib, najosatga botib, [illegible] ul sahroning badbo'yligidan toqat qilolmay, podshohga arza [illegible] Io'qaytepaga borib tushgoni, anda hayron-sarosima bo'lgoni;

- Buxoro amirini sulxu saloh uchun Sheralixon huzuriga yana elchi [illegible]

Qo'qon tarixnavislik maktabida shoir, kotib va tarixchi Avaz Muhammad Attor ibn Mullo So'fi Muhammad Attor Xo'qandiy o'zining sermahsul ijodi bilan katta iz qoldirgan. Uning nomi Sharq adabiyoti va madaniyatida tarixchilar Narshaxiy, Tabariy, Juzjoniy, Bal'amiy, [illegible]uddin Bayzaviy, Rashididdin, Faxriddin Banokatiy, Hamidulloh [illegible]vayniy, Muhammad Shabongaroyi, Fasihiddin al-Xafaviy, Ali Yazdiy, Mas'ud, Xondamir, Hakimxon va boshqa mashhur mutafakkirlar bilan bir qatorda turadi. Avaz Muhammad Attor xayotiga tegishli ma'lumotlar [illegible] ham oz. U o'zining asarlarida tarjimai xoliga tegishli ba'zi [illegible] beradi. "Tarixi jahonnamoyi" muallifi XIX asrning boshlarida [illegible] kelib, shu asrning 70-yillarida vafot etgan. AvazMuhammad [illegible], Muhammadalixon, Sheralixon, Xudoyorxon, Mallaxon, [illegible] Sayidbek va Qo'qon taxtiga qisqa bir muddatga ko'tarilgan [illegible] zamondosh bo'lib, ko'p tarixiy voqealar va hodisalarning [illegible] bo'lgan. Uning bir o'g'li borligini V.V.Nalivkin o'z kitobi "Qo'qon xonligining qisqacha tarixi"da qayd etadi. Chunki V.V.Nalivkin "Tarixi jahonnamoyi" asarini AvazMuhammadning ana shu o'g'li [illegible] ko'rgan va undan foydalangan ekan. AvazMuhammad Attor [illegible] tarixiga bag'ishlangan ikki jildli "Tarixi jahonnamoyi" [illegible] ko'rsatuvchi tarix") hamda Qo'qon xonligi tarixiga oid [illegible] at-tavorixi xoniy" ("Tarixning shoxona tuhfasi") nomli asar[illegible] muallifi xamdir. AvazMuhammad ota kasbi attorlik, tabibchilik [illegible] kotiblik bilan shug'ullangan. AvazMuhammad qo'li bilan

ko'chirilgan hind tabibi Muhammad Arzoniyning "Mufarrih al-qulub ("Qalblarning sururi") asari bizgacha yetib kelgan (Bu asar sobiq, O'zR FA Sharqshunoslik instituti xazinasida, qo'lyozma 4880 raqam ostida saqlanadi). AvazMuhammad Attor "Tarixi jahonnamoyi" asarining birinchi jildida kitobining ta'rifi haqida quyidagi ma'lumotlarni keltiradi: "Shunday tarixiy kitob qadimdan xozirgi kun, ya'ni 1854-1855 yilgacha bizga yetib kelmagandir va bu ish yangi bo'lib, uning yangicha lazzati bor. Bu nusxaning yozilish sababi quyidagicha: "Bu banda va faqir, bu musavvada va satrlarning muallifi attorlar rastasida turub, bekorchilikdan bir necha qop doru va attorlik narsalarni sotish bilan mashg'ul erdim. Mening kambizoatligim va faqirligim xamma yaqinlarim va do'stlarimga ma'lum edi. O'shanda uzoq muddatlar fors tilidagi kitoblar va qo'lyozmalar ko'chirish bilan mashg'ul erdik. Kitobat va yozilish vaqtida qo'limizga "Muntaxab at-tavorix" nomli bir kitob tushib qoldi. Uni xam ko'chira boshladik. Va biz uning tafsilotlarida ko'p ziddiyat va qarama-qarshilik ko'rdik. Shu sababdan men do'stlarimdan tarixiy kitoblarni menga berishlarini iltimos qildim, chunki ular ko'p tarixlar va hodisalarni o'qib eshitgan edilar. Olloh taolo inoyati bilan biz xammasini tartibga solib, kitob shakliga keltirdik. Bu kitobning bayoni Odam alayxissalom davridan boshlab ... bugungi kungacha, ya'ni Sayid Muhammad Xudoyorxon kunlarigacha davom etadi. Kitobning yozilishi 16-17 yilga cho'zilgan. Bu faqiru bechora arab tilini maxsus o'rganmagan va boshqa ilmlar ustozlaridan xam dars olmagan, faqat forsiy kitoblar bilan qanoatlangan edim. Shuning uchun xam kitobning xar bir bobi va fasli xar xil davrda yozilib, kambag'allik xam hayotim etagini tutardi... Davr podshoxlari va dor as-saltanat amirlari tuxfa yoki marhamat uchun biror narsa, biror dirxam ham berganlari yo'q. Men o'z ixtiyorim bilan shu asarni bezab tugatdim. Ammo qayta ko'chirib, yangi nusxalarini tuzib, xar bir bobni yaxshi va keng bayon etib, joy-joylariga qo'yish uchun vaqt bo'lmadi. Agarda vaqt taqozosi va sharoit talabi bilan fikrlarimiz chalkash va mantiqsiz tushgan bo'lsa xam tugatolmadik. Qo'lyozmaning ko'chirilishi va tanzimi xam "Ravzat as-safo"dek cho'zilib ketdi. Asar juda xam mufassal bo'lg'onidan uni ikki daftar (jild)da tuzdik".

Shunday qilib, Avaz Muhammad "Tarixi jahonnamoyi" asarini ikki jildda yozgan, asarning birinchi jildi ayni kunlarda Rossiya FA Sharqshunoslik instituti Sankt-Peterburg bo'limida qo'lyozma S 439

raqami ostida saqlanadi. Asar qo'lyozmasi A.Kun tomonidan 1890 [illegible] muzeyiga taqdim etilgan. Asarning ikkinchi jildi O'zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti xazinasida qo'lyozma 9455 raqami ostida saqlanadi. Bu nusxa 1940 yili Navoiy adabiyot qo'mitasiga Boqiy Nasruddinov tomonidan taqdim etilgan. Avaz Muhammad Attor yana "Tuhfat at-tavorixi xoniy" ("Tarixga shoxona [illegible]) asarining muallifidir. Bu asar xam Rossiya Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti Santk-Peterburg bo'limida qo'lyozma S 440 raqami ostida saqlanadi. Bu asar 1902 yili V.V.Bartol'd tomonidan Farg'ona viloyati ma'muriyatining tarjimoni O.U.Kazbekovdan Osiyo muzeyi uchun sotib olingan.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Qo'qon xonligining madaniy-ilmiy va adabiy muhitda yuzaga kelib, shakllangan va rivojlangan tarixnavislik maktabi XIX-XX asrning boshlarida shu hududlarda yashagan aholining ma'naviy hayotida katta o'rin egallaydi. Qo'qon tarixchilari o'z asarlarida xalqimizning yillar davomida kechgan iqtisodiy-xo'jalik, ijtimoiy, etnik, siyosiy va madaniy hayotini aks ettirgan. Tarixiy asarlardagi ma'lumotlar turli ijtimoiy qatlamlarning har xil sohalardagi faoliyatini ko'rsatish va ularni ilmiy jihatdan o'rganishga yordam beradi, shuningdek, olimlar oldiga yangi baxstalab masalalarni ham qo'yadi. Qo'qon tarixchilik maktabining tahqiqi va tadqiqi ularning qiyosiy o'rganilishi quyidagi xulosalarga olib keladi: Qo'qon xonligi XIX asrning boshlarida muayyan, ob'ektiv omillar va sabablarga binoan katta iqtisodiy va siyosiy hamda madaniy taraqqiyotga erishdi. Shu rivojlanish asosida ma'naviy va madaniy, jumladan, adabiy badiiy, tarixiy asarlar yaratildi. Qo'qon adabiy-ilmiy muhitidagi ilk tarixiy asarlar ham aynan shu davrda vujudga kelib, tarix fani va tarixnavislikka bo'lgan an'anaviy munosabat ham yangi sharoitda qayta [illegible] rivoj topdi. Akmal Sher "Amirnoma" asari, Fazliy farg'oniy (Mulla Karim Namangoniy) o'zining "Umarnoma" asari va Mushrif [illegible] (Mirzo Qalandar qozi askar) "Shoxnomai Nusratpayom", [illegible] Barnoning "Tarixi muxojiron" asari bilan Qo'qon adabiy muhitida tarixnavislikka asos solganlar. Bu mualliflardan Fazliy nazmda, Akmal Sher va Mushrif esa nasrda o'z asarlarini yaratgan. Fazliy va Mushrifdan boshlab Qo'qon tarixnavislik maktabida biz ikki tamoyilni kuzatamiz. Birinchi yo'nalish bu tarixiy voqealarni haqqoniy-ob'ektiv [illegible] ob'ektiv sabablarga ko'ra tarix va tarixiy voqealarni "buyurtmachi"

shavq-zavqi va talabi bilan o'zgartirgan holda bayon qilganlar. Ular buyurtmachi talabiga binoan hukmdor sulola vakillarining hokimiyatini legitimlash uchun soxta shajaralar yasab, voqealar talqini va bayonida ham ma'lum doiralaridan chiqa olmaganlar.

3. Qo'qon xonligi tarixshunosligining davrlashtirilishi masalalari

Tarix va tarixiy jarayonlar, siyosiy-tarixiy vaziyat ularning ro'y berishidagi asosiy sabab va xususiyatlarini ilmiy jihatdan tadqiq etishda har tomonlama tahlil qilish tarixiy haqiqatning yuzaga chiqishida katta omil sanaladi. Ayniqsa, turli davrlarda yaratilgan tarixiy ilmiy asarlarda mualliflarning tadqiqot masalalariga turlicha yondashuvlari va fikrlari, xulosalarning turlichaligi, ularni ilmiy jihatdan chuqur tahlil qilish va tarixiylik, ilmiylik hamda xolislikka asoslanilgan eng to'g'ri xulosalarni chiqarish bugungi kun tarixchi mutaxassislari oldida turgan muhim vazifalardan sanaladi. Respublikamiz birinchi Prezidenti I.A.Karimovning "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" nomli asarida tarixchilarimiz oldiga bir qator ilmiy nazariy va amaliy dolzarb muammolarni tadqiq etish vazifasini qo'yilib, O'zbekistonda o'troq madaniyatning vujudga kelishi va rivojlanishi, o'zbek xalqining kelib chiqishi tarixi va shakllanish bosqichlarini tarixiy manbalar asosida ilmiy konseptual tadqiq etish, o'zbek davlatchiligining ko'p asrlik tarixi va shakllanishining tarixiy bosqichlarini tadqiq etish va ayniqsa tarix ilmini zamonaviy talablar darajasida rivojlantirish masalalari alohida ko'rsatib o'tildi.- **"Modomiki, o'z tarixini bilgan, undan ruhiy quvvat oladigan xalqni yengib bo'lmas ekan, biz haqqoniy tariximizni tiklashimiz, xalqimizni, millatimizni ana shu tarix bilan qurollantirishimiz zarur. Tarix bilan qurollantirish, yana bir bor qurollantirish zarur"**[1].

Tarix fani tadqiqotlarida tadqiqot obyektining to'g'ri tanlanishi va tadqiqotchi tomonidan tadqiqotning eng maqbul va samarali usullarining qo'llay olinishi muhim ahamiyat kasb etadi. Qo'qon xonligi tarixini o'rganish XIX asrning o'rtalaridan boshlab bugungi kungacha tarixchilar e'tiborini o'ziga jalb qilib kelmoqda. Xonlik tarixini

[1] Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Тошкент: Шарқ, 1998. 22-б

[illegible] turlicha yondashish va munosabatlar, ayrim vaqtlarda [illegible] jarayonlar va voqelikni obyektiv baholamaslik holatlariga [illegible] qo'yildi. Xonlik tarixini yoritishdagi bunday munosabat ushbu [illegible] tarixshunoslik nuqta-nazaridan chuqur tahlil qilishni talab etadi. [illegible] kelib chiqqan holda mavzuning o'rganilishini mavjud ilmiy tadqiqotlarning yo'nalishi, davr va boshqa xususiyatlariga ko'ra bir necha guruhga bo'lib ko'rib chiqish talab etiladi. Birinchi asosiy davrga XIX asr 30-yillaridan XX asrning dastlabki o'n yilliklarigacha, [illegible] Turkistonning mustamlaka davrida yaratilgan asarlarni kiritish mumkin. Bunda ayniqsa rus sharqshunoslarining mehnati salmoqli [illegible] egallaydi. Rus sharqshunoslari tomonidan Qo'qon xonligi tarixini o'rganish XIX asrning o'rtalaridan boshlandi. Bungacha xonlik ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayoti haqida asosan chor armiyasi harbiylari va elchilik aloqalari orqali, turli yo'llar bilan olingan ma'lumotlar umumiy ma'lumotlar tarzida to'plangan. XIX asrning o'rtalarida va ayniqsa ikkinchi yarmida yaratilgan tarix asarlarida, esdaliklarda, tavsifnoma va [illegible] xizmati hisobotnomalarida xonlikning asosan so'nggi davr [illegible] yoritib berilgan. Shundan kelib chiqib, bu davr tarixshunosligini [illegible] ikki qismga ajratish mumkin[1]. Birinchi qismida, ya'ni XIX asrning 50-60 - yillarigacha yaratilgan asarlar Rossiya imperiyasining o'zbek xonliklarini bosib olish maqsadidagi harbiy bosqinchiligini amalga oshirish vaqtida foydalanish uchun yig..ilgan ma'lumotlar [illegible] xonlikning shu davrgacha bo'lgan umumiy ahvoli haqida qimmatli ma'lumotlarni bugungi kungacha yetib kelishini ta'minladi. Bunday asarlar qatoriga F.Nazarov, N.I.Potanin, V.V.Velyaminov-Zernov, M.N.Galkin, A.Maksheyev hamda A.Nurekin kabilarning

[1] [illegible] Ҳ. Қўқон хонлиги тарихшунослигининг айрим масалалари. Т. 2007.

asarlarini va maqolalarini kiritish mumkin[1].

Bu mualliflar asarlaridagi asosiy xususiyat shundaki, ular rus tarixchilari yoki tadqiqotchilari uchun deyarli noma'lum bo'lgan Qo'qon xonligi haqida, uning aholisi, urf-odatlari, hududlari va chegaralari, harbiy ahvoli va boshqalar yuzasidan asosan ilk axborotlarni to„plaganlar ma"lumot tarzida yetkazib berganlar. Shuningdek, bu asarlarda keyingi davrlarda yuzaga kelgan "buyuk davlatchilik" g'oyalarini bo'rttirib ko'rsatish kabi holatlar sezilmaydi. Mustamlaka davri tarixshunosligining ikkinchi davrida, ya'ni XIX asrning ikkinchi yarmida yaratilgan asarlarda xonlikning so'nggi davrlari ichki va tashqi siyosati, harbiy ahvoli, xonlikning chor Rossiyasi tomonidan bosib olinishi va tugatilishi voqealari keng ma'lumotlar asosida yoritib berilgan. Bu asarlardagi ma'lumotlar voqealarning bevosita ishtirokchilari va ayni zamonda yashagan olimlar tomonidan yoritilganligiga qaramay, ularda Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi manfaatlariga mos ravishda, buyuk davlatchilik nuqtai nazaridan yondashilganligini ko'rish mumkin. Masalaga bunday konseptual yondashuvning asosiy sababi bir tomondan buyuk davlatchilik qarashlari bo'lsa, ikkinchi tomondan podsho tuzumining ta'siri edi. G.A.Ahmadjonovning ta'kidlab o'tishicha, "mustamlakaga aylantirish va uning oqibatlari bilan aloqador haqqoniy tarixiy-siyosiy asarlarni chop etish" "podsho senzurasi ta"qiqlari sababli" mumkin emas edi[2]. Biroq, bu ma'lumotlarni tanqidiy ravishda jiddiy o'rganish foydadan xoli emas. O'rta Osiyo xonliklarining chor Rossiyasi tomonidan zabt etilishi bu yerda yashovchi xalqlar uchun

[1] Назаров Ф. Записки о некоторых народах и землях Средней части Азии. С.-Пб., -1821; Также: Записки о некоторых народах и землях Средней части Азии - М.: Наука, 1968. - 76 с. Записки о Кокандском ханстве хорунжего Потанина (1829-1830 гг.) // Туркестанский сборник. -Т.389; // Военный журнал. С.-Пб. 1831 № 4-5. –С.35.Вельяминов-Зернов В.В. Исторические известия о Кокандском ханстве от Мухаммед-Али до Худаярхана. -С.-Пб.: 1856. -С.327-371; Сведения о Кокандском ханстве // Вестник Русского Географического общества. –С.-Пб 1856. Т. 18. -С.108-151. Галкин М.Н. Краткая записка об исторических правах России на кокандские города Туркестан и Ташкент // Русский вестник. 1856 №5. Туркестанский сборник. Т.6. Макшеев А. Показания сибирских казаков Милюшина и Батыришкина, бывших в плену у кокандцев с 1849 по 1852 гг. // Вестник Русского Географического обхества. –Ч.17 (II). –С.-Пб. 1856. -С.20-32.

[2] Ахмеджанов Г.А. Российская империя в Центральной Азии. – Т.: Фан, 1995 – 137 с.

[illegible] foydali bo'lganligi" hamda Rossiya O'rta Osiyoga "sivilizatsi-[illegible] olib kelganligini" zo'r berib ko'rsatishga urinish asosan harbiylar [illegible] pida xususiyatli bo'lgan. Ular orasida M.A.Terentyev tomonidan [illegible] uch jildlik "Завоевание Средней Азии" asari boshqa mualliflarning asarlariga nisbatan voqealarning keng va mukammal yoritilganligi bilan alohida o'rin tutadi[1]. Bunda muallif chor Rossiyasining [illegible] XIX asr ikkinchi yarmidagi harbiy yurishlarini emas, balki XVIII asr boshlarida O'rta Osiyo hududlariga qilingan harbiy yurishlar [illegible]iga ham keng o'rin beradi. M.A.Terentyev voqealarni bir tomonla[illegible] chor imperiyasining manfaatlari nuqtai – nazaridan yoritadi. [illegible] asosan podsho armiyasi askarlarining jang faoliyatlari voqealar [illegible] markazida turadi. U boshqa mualliflarga nisbatan mahalliy [illegible] asarlaridan foydalanish imkoniyatiga ko'proq ega bo'lsada, [illegible] masalaning asosiy manbalari sifatida qaramaydi[2].

[illegible] T.Smirnov tomonidan yozilgan "Султаны Кенисари и Садык (библиографические очерки)" nomli asarda Qozog'iston hududla[illegible] chor qo'shinlari tomonidan bosib olinishiga qarshi kurashgan [illegible] sulton, Janubiy Qozog'iston hududlari, Toshkent himoyasi, Buxoro amirligi hamda Xiva xonligining chor Rossiyasi qo'shinla[illegible] qarshi olib borgan kurashlarida sarkardalik faoliyati bilan mash[illegible] bo'lgan Sulton Sodiq haqida qimmatli ma'lumotlarni berib o'tadi. Muallif har ikki sarkarda haqida ma'lumotlarni mahalliy manbalar [illegible] tahlil etib beradi. Shuningdek, ushbu asardan Qo'qon xonligi [illegible] siyosatiga aloqador ma'lumotlar bilan birga xonlikning chor Ros[illegible] harbiy bosqinchiligiga qarshi kurashlari tarixi va tarixiy shaxslar [illegible] qimmatli ma'lumotlar keltirib o'tilgan[3].

[illegible] I Veselovskiyning "Киргизский рассказ о русских завоеваниях в Туркестанском крае" nomli asari mahalliy tarixchi Mullo Holi[illegible] Mambetovning "O'rus lashkarining Turkistonda tarix 1269-1282 [illegible]larda qilg'on futuxotlari" asari asosida yozilgan va rus tiliga tarji[illegible] ayrim voqealar muallif tomonidan tahlil etilgan. Ushbu asar [illegible] xonligining chor Rossiyasiga qarshi 1853 yildan 1865 yillar[illegible] olib borgan kurashlari haqidagi qimmatli ma'lumotlarni o'z ichi-

[1] Терентьев М.А. История завоевания Средней Азии. – СПб., 1906.70

[2] Қўқон хонлиги тарихшунослигининг айрим масалалари. 18-б.

[3] Смирнов Е.Т. Султаны Кенисара и Садык. -Т.: Тип С.И.Лахтина, 1889;

ga olish bilan birga xonlikning ichki siyosati va xonlik boshqaruvida alohida o'rin tutgan tarixiy shaxslar haqidagi ma'lumotlar o„rin olgan. Yana shuni alohida ta"kidlab o'tish joizki, V.V.Bartold, N.I.Veselovskiy, A.Zimin O'rta Osiyoning chor Rossiyasi tomonidan bosib olinishi tarixini mahalliy tarixchilar tomonidan yozilgan asarlarni, ularda bu masalaga bildirilgan munosabatlarini o'rganib, xolis yondashilgandagina obyektiv baho berish mumkinligini alohida ta'kidlab o„tganlar[1].73 Shu jihatlari bilan bu olimlar tomonidan yozilgan bir qancha asarlar o„zining ma'lum darajada obyektivliligi bilan ajralib turadi, bunda ular mahalliy tarixchilar tomonidan yozilgan asarlarni bevosita o'rganib va tahlil etib, masalaga oydinlik kiritishga harakat qilganlar[2]. Qo'qon xonligi tarixi masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlarning ikkinchi asosiy davrni sovet davri tarixshunosligi tashkil qiladi. Sovet hokimiyatining dastlabki yillaridan XX asrning 40-50 - yillarigacha bo'lgan vaqt mobaynida sobiq ittifoqqa birlashtirilgan mamlakatlarda fanning barcha sohalarida sotsialistik tuzum va kommunistik mafkura ta'siri kuchayib bordi. Tarix fani sohasida amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlar kommunistik mafkura tamoyillari asosida yo„naltirilgan bo'lib, ularda partiyaviy-siyosiy ta'sir va bosim ostida sovet ijtimoiy fanlari sohasiga xos bo'lgan metodologik noxolisliklar ustunlik qiladi. Bu davr mobaynida fan sohasida birmuncha yutuqlar qo'lga kiritilgan bo'lsada, XX asrning 50-yillariga kelib sobiq Sovet Ittifoqi markazining milliy masalalar borasidagi siyosatining kuchayishi, xususan "yagona sovet xalqini" shakllantirish borasidagi mafkuraviy siyosati fan sohasiga, jumladan tarix fani sohasiga ham katta ta'sir o'tkazdi. O'rta Osiyo davlatlari tarixining milliy xususiyatlarini chuqur o'rganish va ommalashtirish cheklab qoyildi. Ayniqsa, chor Rossiyasining O'rta Osiyo xonliklarini bosib olishi va mustamlakaga aylantirishi masalasida ob'yektivlik jihatlari kamaydi. XX asrning 80-yillari o'rtalariga kelib, sobiq ittifoqda "qayta qurish" jarayoni boshlanishi bilan oshkoralik va demokratiya tamoyillari yuzaga chiqa boshladi. Tarix fani sohasida, ayniqsa, chor Rossiyasining O'rta Osiyo xonliklarini bosib olishi va mustamlakaga aylantirish borasida ilmiy jihatdan asoslangan

[1] Веселовский В. Киргизский рассказ о русских завоеваниях в Туркестанском крае. -С. 7-9.

[2] Кўқон хонлиги тарихшунослигининг айрим масалалари. 20-б.

va kommunistik mafkuradan holi bo'lgan fikrlarni bildirish uchun keng imkoniyatlar yuzaga keldi. Yuqoridagilarga asoslangan holda, Sovetlar davri (1917-1991 yy.) tarixshunosligini, garchi u umumiy yaxlitlikni tashkil etsada, masalaga bo'lgan yondashuv xususiyatiga asosan uch qismga bo'lish mumkin. Birinchi qismi Sovet hokimiyatining dastlabki yillaridan XX asrning 50- yillari o'rtalarigacha bo'lgan vaqtni o'z ichiga oladi. Bu davrda A.F.Kalujin, A.Baymurzin, G.A.Plyashko, A.Popov va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda va tarix kitoblarida Qo'qon xonligi tarixi va chor Rossiyasi tomonidan uning mustamlakaga aylantirilishi masalalari qisman avvalgi davr tadqiqotlari an'analarini davom ettirgan holda, ya'ni voqealarni manbalar va arxiv hujjatlari asosida deyarli obyektiv ravishda yoritishga harakat qilganlar[1]. Qo'qon xonligi tarixi masalalarini yoritishda bir tomonlama, "buyuk davlatchilik shovinizmi" nuqtai nazaridan yondashuvni Sovet davri tarixshunosligining ikkinchi qismida yaqqol ko'rish mumkin. Bu davr XX asrning 50-yillaridan 80-yillarning o'rtalarigacha bo'lgan vaqtni o'z ichiga oladi. XX asrning 50-yillaridan boshlab Rossiya imperiyasining O'rta Osiyoni "bosib olishi" iborasi o'rniga sun'iy ravishda "qo'shib olishi" iborasi ishlatila boshlandi. Mazkur jarayon 1955 va 1959 yillarda O'rta Osiyoning 1917 yilgacha bo'lgan tarixiga bag'ishlangan birlashgan ilmiy anjumanlardan so„ng yanada avj oldi. Ularda rasmiy ravishda O'rta Osiyoning chor Rossiyasi "qo'shib olinishi", mahalliy xalqlarning imperiya tarkibiga "ixtiyoriy" ravishda "qo'shilganligi"ning "progressiv natijalari" ta'kidlab o'tildi. Aynan shu vaqtdan boshlab amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarda hamda maqola va asarlarda masalaga xolis, ilmiylik va tarixiylik nuqtai nazaridan ob'yektiv yondashuvga to'la amal qilish kamaydi. Bu holni XX asrning 50-80 yillarida tadqiqot olib borgan aksariyat tarixchilarning asarlarida kuzatish mumkin. Jumladan, bu davrda K.Usenbayev, S.Sagatov, S.T.Tileuqulov, L.D.Dergachyova, R.Beknazarov, A.X.Xasanov, X.SH. Inoyatova, N.Xalfin, R.Nabiyev, H.Z.Ziyoyev, O.Bo'riyev va A.O'rin-

[1] Калужин А.Ф. Из истории завоевания Узбекистана царской России // Труды Узб. гос. ун-та. Самарканд. 1939. Т.16. С.109; Баймурзин А. Из истории захвата царизмом Большой и Средней Орды. // Изв. Каз филиала АН СССР. Серия история. Алма-Ата. 1940. -Вўп.1. -С.95; Пляшко Г.А. К истории русско-английских отношений в Средней Азии. Дисс ... канд.ист.наук. -Кировоград., 1953; Попов А. Из истории завоевания Средней Азии. -М.- Л. Наука, 1940

boyev hamda boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida Rossiya imperiyasi tomonidan o'zbek xonliklarining bosib olinishi voqealari ancha batafsil, manbalar hamda arxiv hujjatlari asosida yoritib berilgan bo„lsada, kommunistik mafkura tazyiqi va senzurasi ta'sirida masalaning asl mohiyatini ochib berishda to'sqinlikka uchradilar va ayni vaqtda chor Rossiyasining O'rta Osiyoni bosib olinishining "progressiv axamiyati"ga ham alohida urg'u berishga majbur bo'ldilar. Tarixshunoslik masalalarining bu bosqichidagi tarixiy tadqiqotlar orasida X.Z.Ziyayev, X SH. Inoyatov, R.N.Nabiyev, A.Popov, N.A.Xalfin kabi tadqiqotchilarning asarlari alohida o'rin tutadi. O'rganilayotgan mavzu yuzasidan ularning amalga oshirgan eng katta xizmatlari mavzuga aloqador ma'lumotlarni to'plash va sistemalashtirish, yangi manbalarni ilmiy muomalaga kiritish Qo'qon xonligining XIX asr ikkinchi yarmidagi ijtimoiy – siyosiy hayoti hamda xonlikda sodir bo'lgan tarixiy jarayonlar va chor Rossiyasining harbiy bosqinichiligi masalalarini chuqur ilmiy tahlil qilish bilan belgilanadi. Bularning barchasi o'rganilayotgan muammo yuzasidan tarixiy bilimlar saviyasining ortishiga xizmat qildi. Biroq, mavjud totalitar tuzumning partiyaviy siyosiy mafkurasi ta'siri va ta'qiqlari tufayli mazkur olimlar ham o'z ishlarida tarixiy voqelikni asl holida ko'rsatib berishda to'sqinlikka uchradilar.

Qo'qon xonligi tarixi tarixshunosligining uchinchi asosiy davrini O'zbekiston mustaqilligining qo'lga kiritilishi va mustaqillik yillarida yaratilgan ilmiy asarlarni va tadqiqotlar tashkil etadi. Mustaqillik yillarida H.Z.Ziyoyev, H.N.Bobobekov, SH.H.Vohidov, G'.Ahmadjonov, N.A.Abduraximova va boshqalar tomonidan Qo'qon xonligi va Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi tarixiga bag'ishlangan bir qancha ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirildi va asarlar yaratildi[1]. H.Z.Ziyoyevning "Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash"[2] asari keyingi yillarda nashr etilgan ishlar orasida o'zining mu-

[1] Зиёев Х.З. Туркистонда Россия тажовузи ва хукмронлигига карши кураш. -Т.: Шарк, 1998; Бабабеков Х.Н. Народные движения в Кокандском ханстве и их социально – экономические и политические предпосўлки (XVIII – XIX вв). Дисс ... д-ра ист. наук. - Т. - 1991. 302 с. Вохидов Ш.Х. XIX – XX аср бошларида Кўкон хонлигида тарихнавислигининг ривожланиши. Тарих фанлари д-ри илм 1998. - 240 б

[2] Зиёев Х.З. Туркистонда Россия тажовузи ва хукмронлигига карши кураш -Т.: Шарк. 1998. -478 б.

kammalligi bilan alohida o'rin tutadi. Asarda Qo'qon xonligi tarixining ayrim jihatlarini yoritish bilan birga Rossiya imperiyasining O'rta Osiyo xonliklariga harbiy yurishlari, mustamlakachilikning o'rnatilishi va uning mohiyati, milliy istiqlol uchun kurashgan vatanparvarlar faoliyatiga ham keng o'rin ajratadi. H.N.Bobobekov o'z ilmiy tadqiqot ishlarida XIX asr ikkinchi yarmida Qo'qon xonligida yuz bergan milliy ozodlik harakatlari va ularning sabablari va natijalarini yoritishga katta ahamiyat bergan[1]. SH.H.Vohidov o'z ilmiy tadqiqot ishida Qo'qon xonligi tarixshunoslik maktabining shakllanishi va xususiyatlari hamda manbalar tahliliga boshqa tadqiqotchilarga nisbatan kengroq to'xtalib o'tadi[2]. G'.Ahmadjonovning "Российская империя а Центральной Азии" nomli monografiyasi chor Rossiyasining O'rta Osiyo xonliklarini mustamlakaga aylantirishi va imperiyaning Turkistonda yuritgan mustamlakachilik siyosati tarixining tarixshunosligiga bag'ishlangan bo'lib, bu sohada tadqiqot olib brogan bir qator olimlarning ilmiy xulosalari tarixshunoslik nuqtai-nazaridan tahlil etilgan[3]. Shu sohada ayrim manbalar bilan tanishib, o'ziga xos tadqiqot ishlari olib borgan adabiyotshunos olim SH.Yusupov Qo'qon xonligi tarixi bilan bog'liq ma'lumotlarga bir muncha batafsil tavsif berishga harakat qilgan. U o'z fikrlarini Ibratning "Tarixi Farg'ona", Mullo Olim Mahdumhojaning "Tarixi Turkiston", Mirzo Olim Mushrifning "Ansob us-salotin va tavorix ul-xavoqin" asarlari asosida yoritib bergan[4]. Keltirib o'tilgan asarlar bilan bir qatorda horijlik tarixchi olimlar ham XIX asr ikkinchi yarmi Qo'qon xonligi va Rossiya imperiyasi o'rtasidagi o'zaro munosabatlar masalasiga to'xtalib o„tganlar. Horij olimlari tomonidan chor Rossiyasining O'rta Osiyo xonliklari, xususan Qo'qon xonligiga qarshi olib brogan harbiy siyosati va ularni mustamlakaga aylantiri-

[1] Бобобеков Х. ва бошк. Ўзбекистон тарихи Кискача маълумотнома. -Т.: Шарк. 2000 Б 160–163

[2] Вохидов Ш.Х. XIX – XX аср бошларида Кўкон хонлигида тарихнавислигининг ривожланиши. Тарих фанлари д-ри ... диссер. -Т. -1998; Каранг: Мухаммад Юнус Тоиб ТарихиАликули Амирлашкар // Шарк юлдузи. -1996. №1-2; Аваз Мухаммад Аттор Хўкандий. Тарихи жахоннамойи // Шарк юлдузи. 1998 йил. 6–сон; Кўкон хонлиги ва Бухоро амирлигида унвон ва мансаблар. Т.: Фан, 1996. Б. 49

[3] Ахмеджанов Г.А. Российская империя в центральной Азии (история и историография колониальной политики царизма в Туркестане). – Т.: Фан, 1995. 318 с.

[4] Юсупов Ш. Хуфия катламлар. -Т.: Маънавият, 1999. Б. 80-95.

shi tarixi masalasida olib borgantadqiqot ishlari ham o'rganilayotgan mavzuning tahlilini chuqurroq va kengroq tahlil etishda katta ahamiyatga ega. Totalitar tuzum davrida murojaat qilish va o'rganilishi ta'qiqlangan horij tadqiqotchilarining asarlarida sovet tadqiqotchilari uchun mumkin bo'lmagan tarixiy tahlilga keng o'rin berilgan hamda tarixiy jarayonlarning asl mohiyati ochiq oydin yoritib berilgan. Bunday tadqiqotchilar va ularning asarlari orasida D.Bergxorn, E.Bekon, R.Konnuest, E.Ollvort, T.Ranovski – Xarmstoun, L.Tillet, D.Uiler, D.Xuson va boshqalarni alohida ko'rsatib o'tish mumkin. Ular haqli ravishda sovet tarixshunoslik fani va unda yo'l qo'yilayotgan haddan tashqari mafkuraviy yondashishni qattiq tanqid qilgan edilar[1]. O'zida Qo'qon xonligi tarixi, ayniqsa xonlikning elchilik masalalari bilan bog'liq siyosati haqida qimmatli ma'lumotlarni jamlagan M.Saray va Inalchiklarning asarlari ham muhim ahamiyatga ega bo'lgan horij tadqiqotlari sanaladi. Bu asarlar Qo'qon xonligi tomonidan Turk sultoniga yuborgan elchilik masalalarining batafsil yoritib berilganligi bilan ahamiyatlidir.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Amir Umarxonning Qo'qonga bosqini va uning sabablari haqida qaysi asarda ma'lumor berilgan
2. Umarxonning ijodi haqida nimalarni bilib oldingiz
3. Qo'qon xonligining tarixnavisligi boshqa xonliklardan nimasi bilan farq qiladi

[1] Barghorn L. Sovet Russian Nationalism. – New York, 1956; J. Wheeter. The modern history of Central Asia. –London, 1964; E.A. Allworth. Uzbek Literary politics – New York 1964; E. Bacon. Central Asiens under Russians Rule. – New York, 1966; R. Conguest. Soviet Nationalitiea in Practice. – London, 1967, L. Tillet. The Great Friendship. Soviet Historians on the Non-Russian Nationalities – North Carolina, 1969. T. Rakovska-Harmstone. Russian and Nationalism in Central Asia. – Baltimore, 1970; D.Hooson. The Soviet Union. People and Regions – California, 1977 и др.

MAVZU № 10. XIVA XONLIGI TARIXI SOVET VA XORIJ OLIMLARI TOMONIDAN YARATILGAN ASARLARI TALQINIDA

REJA:

1 Xonlik tarixining sovet tadqiqotchilari tomonidan o'rganilishi
2. Xiva xonligi tarixiga doir xorij olimlarining asarlari

Tayanch so'z va iboralar: adabiy-tarixiy asarlar, Xiva xonlari arxivi, birlamchi manbalar, "bosib olish", "qo'shib olinishi", qo'lyozmalar, tabiiy boyliklar, sug'orish tizimi, vaqf hujjatlari, ijtimoiy-iqtisodiy hujjatlar, soliqlar, jadidchilik, yosh xivaliklar

1. Xonlik tarixining sovet tadqiqotchilari tomonidan o'rganilishi

Xiva xonligining XIX asrning ikkinchi yarmi - XX asr 20-yillari tarixi tarixshunosligi sovet yillarida o'rganishning xususiyatlari, o'ziga xosliklari va umumiy jihatlarini bir tizimda o'rganib chiqish hozirgi davr taqozosidan kelib chiqqan holda, uni ilmiy va siyosiy jihatdan tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuni aytish joizki, Rossiya imperiyasi tomonidan olib borilgan mustamlakachilik siyosatida ochiq-oydin tub xalqlar turmushining kamsitilishi namoyon bo'lgan bo'lsa, sovet tuzumida esa davlat mafkurasi baynalmilalchilikka asoslangan bo'lib, uning mohiyati barcha millat va elatlarga teng huquq va imkoniyatlar berishini anglatar edi. Aslida esa, totalitar davlat tizimi sharoitida davlat tuzilmalarining avvalgi hukmronligini rivojlantirdi va mustahkamladi, mintaqa iqtisodini xom-ashyo yetishtirishga yo'naltirdi, milliy madaniyat va qadriyatlarni oyoq osti qildi, rus tilining rasmiy til sifatidagi yetakchi mavqeini mustahkamlab, mahalliy xalqlarga nisbatan ruslashtirish siyosatini amalga oshirdi. XX asrning birinchi yarmida sovet hukumati tomonidan tadqiqotchilarning nuqtai nazariga mafkuraviy tazyiqlar nisbatan kam darajada bo'lganligi tufayli tadqiq qilinayotgan muammoga doir dastlabki konsepsiya ilgari surilgan bo'lib, u rus bo'lmagan xalqlarning Rossiya imperiyasiga qo'shib

olinishi "mutlaq jaholatdir" degan mazmunga ega edi[1]. Keyinchalik tarixni siyosatlashtirish yo'lining tanlanishi, shuningdek, uning mustabid tuzumga qaramligining yanada kuchayishi munosabati bilan tarix fanida "qo'shib olish – mutlaq jaholatdir" degan tushunchaning o'rniga "qo'shib olish – qisman jaholatdir" degan yangicha yondashuv joriy qilingan bo'lib, bu haqida 50-yillarda tadqiqotchilar M.V.Nechkina, A.V.Yakuninlar maqolalarida keng ma'lumotlar berilgan[2]. Jumladan, akademik V.V. Bartold Xiva xonligida yozilgan manbalar xususida quyidagicha yozadi: "Munis va Ogahiy tomonidan yaratilgan adabiy-tarixiy asarlar qanchalik kamchilikka ega bo'lmasinlar, tarixiy voqealarni bayon etish va ularda keltirilgan faktik materiallarning ko'pligi jihatidan bizgacha yetib kelgan Qo'qon va Buxoro xonliklari tarixi bo'yicha yozilgan hamma asarlarni o'zidan ancha orqada qoldiradi"[3]. Tadqiqotchi P.P. Ivanov esa qoraqalpoqlar tarixiga oid kitobida: "XVIII – XIX asr qoraqalpoqlar tarixi uchun Xiva tarixini o'rganish juda katta ahamiyatga ega"[4], turkmanlar tarixiga bag'ishlangan asarida esa: "XIX asrda O'rta Osiyoda yozilgan tarixiy asarlar orasida Xiva tarixchilari Munis va Ogahiyning asarlari turkman tarixini o'rganishda juda katta ahamiyatga ega", – deb bayon etgan. Bundan ko'rinadiki, V.V. Bartold va P.P Ivanovlar mahalliy mualliflarning manbalarini sinchkovlik bilan o'rganganlar va shu asosda O'rta Osiyo xalqlari tarixini yorituvchi bir qator asarlarini yaratganlar.Shu bilan birga, 1936 yil P.P. Ivanov tomonidan Sankt-Peterburg shahridagi M.Y Saltikov-Shedrin nomidagi milliy kutubxonaning ro'yxatga olinmagan fondidan Xiva xonlari arxivi topib o'rganilgan. Bu arxiv 1873 yilda rus qo'shinlarining Xivaga qilgan yurishidan keyin ko'p vaqt o'tmay, Cankt-Peterburgga olib ketilgan, biroq keyinchalik unutib yuborilgan O'rta Osiyo kutubxonalarida bu noyob arxivning bir qismigina saqlanib

[1] Блиев М.М. О некоторых проблемах присоединения народов Кавказа к России // История СССР. – М., 1991. – № 6. – С. 67-84.
[2] Нечкина М.В. К вопросу о формуле – "наименьшее зло" // Вопросы истории – М., 1951. – № 4; Якунин А.В. О применении понятия «наименьшее зло» в оценке присоединения к России нерусских народностей // Вопросы истории. – М., 1951. – № 11
[3] Бартольд В.В. История культурной жизни Туркестана. – Л., 1927. – С. 113
[4] Иванов П.П. Очерк по истории каракалпаков. Материалы по истории Каракалпаков // Труды института Востоковедение АН России. – М.–Л., 1935. Т VII. – С. 44

qolgan. Shu tariqa, xonlik arxivining hech kimga ma'lum bo'lmagan 11000 varaqdan ortiq bo'lgan hujjatlari o'rganilgan. Bundan tashqari P.P.Ivanov tomonidan Xiva xonlari arxivining topib o'rganilishi katta hodisa bo'ldi. Ushbu tadqiqot natijalari kitob holida nashr qilingan bo'lib, unda Xiva xonligining XIX asrga oid ijtimoiy-siyosiy tarixi hamda hujjatlar tahlili masalasiga e'tibor qaratilgan[1]. Muallifning ushbu tadqiqotini chuqur asosiy tadqiqot sirasiga kiritish mumkin, chunki ushbu asar Xiva xonligining arxiv hujjatlari bo'yicha yo'l ko'rsatkich ko'rinishiga ega bo'lib, ko'plab yangi tadqiqotlar uchun birlamchi manba vazifasini bajardi. Ushbu asarning birinchi bobi "Xiva xonligining ijtimoiy-iqtisodiy tarixini o'rganishda arxivning tutgan o'rni" deb nomlanib, muallif unda Xiva xonlari arxivi, uning o'rganilishi, o'zining tahliliy fikr va mulohazalarini bergan. XX asrning o'rtalarida Xorazm vohasidagi tarixiy obidalarni arxeologik va etnografik jihatdan o'rganish ishlari keng miqyosda amalga oshirilgan bo'lib, bunda S.P. Tolstov boshchiligidagi ekspeditsiya faoliyati alohida o'rin tutadi[2]. Uning tadqiqotlarida Xorazmning miloddan avvalgi V ming yilliklaridan XX asrning 70 yillarigacha bo'lgan ma'lumotlar mavjud. XX asr 50-yillari boshlaridan boshlab tarixiy adabiyotlarda "O'rta Osiyoning Rossiyaga qo'shib olinishi progressiv fakt bo'lgan edi", degan ibora keng o'rin olgan. Mustamlakachilik muammolari bilan shug'ullangan tarixchilar "bosib olish" atamasini deyarli rad etgan holda, "o'z ixtiyoriga ko'ra qo'shib olinishi" atamasini qo'llay boshlaganlar[3]. Shu bilan birga Rossiya imperiyasining xonliklardagi talonchilik, mustamlakachilik siyosati, mahalliy xalqni qirg'in qilganliklari oqlanib yoki berkitilib, tarixni yoritishdagi haqqoniylik buzilgan. O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasi tomonidan nashr qilingan "O'zbekiston xalqlari tarixi"ning 1947 yilgi (rus tilidagi) nashrida: "Turkiston,

[1] Иванов П.П. Архив Хивинских ханов XIX в. / Исследование и описание документов с историческим введением // Новые источники для истории Средней Азии. Л. Издание Государственной Публичной Библиотеки. 1940 – 287 с
[2] Толстов С.П. Древний Хорезм. Опыт историко-археологических иследований М. МГУ. 1948. 352 с
[3] Мухамеджанов А.Р., Нигматов Т.Н. Некоторые источники по истории связей России с Бухарой и Хивой в первой четверти XIX в. – Т.: ФАН, 1957. – 223 с.; Мамажанов М. Некоторые изменения в социально-экономической жизни народов Хивинского ханства в период с 1873 по 1920 г. // Научные записки Ташкентского финансово-экономического института. – Т., 1958. Вып.10. – С. 49.

Orenburg va Kavkaz otryadlari 1873 yil may oyining ikkinchi yarmida hech qayerda jiddiy qarshiliklarga uchramasdan Xivaga keldilar ...Xiva shahri ostonasida ozgina to'qnashuv bo'lib o'tdi[1], – degan so'zlar yozilgan. "O'zbekiston SSR tarixi" ning 1971 yil nashrida ham: "... 1873 yil 29 mayda rus qo'shinlari Xivani egalladılar..."[2], – deyish bilan kifoyalangan. Vaholanki, Xiva ostonasida va Xiva qal'ası ichkarisida ruslarga jiddiy qarshiliklar ko'rsatilgani, Mang'it va Hazoraspda bosqinchılarning qırg'inbarotlarini esa tılga olmay iloji yo'q. Buning natijasida, mustamlakachilik tuzumining salbiy oqibatlari xaspo'shlangani ma'lum bo'ladi.Shu bilan birga, bir guruh tadqiqotlarda ham shunday kayfiyat hukm surganini ko'rish mumkin. Xususan, A.S.Sodiqov tadqiqotida Oktyabr to'ntarishining xonlikka ko'rsatgan ta'siri hamda Xiva xonligining ag'darilishi masalalari ijobiy baholangan bo'lsa[3], M.Mamajanov Rossiyaning xonlikda shafqatsiz mustamlakachilik tizimi o'rnatilishiga,mahalliy aholining huquqları kamsitilganiga qaramay, Xiva xonligining Rossiyaga qo'shib olinishi ulkan ijobiy ahamiyat kasb etdi, deb hisoblab: "Xiva xonligini Rossiya tarkibiga qo'shib olinishi tasodifiy bo'lmay,balki tarixiy vaziyat shuni taqozo etgan edi"[4], – deb ta'kidlagan. Xonlik tarixini manbalar va arxiv ma'lumotlari asosida o'rganishda bu davrda ham tadqiqotchilar tomonidan ko'plab ishlar amalga oshirildi.Xususan tadqiqotchi M.Y. Yo'ldoshevning: "Bayoniyning asarı faktik hujjatlarning ko'pligi va voqealarning izchil bayon qilinishi jihatidan Munis va Ogahiyning ko'p tomli qo'lyozmalariga nisbatan ham qimmatliroqdir"[5], – deb qayd etishi uning mahalliy mualliflar asarlaridan keng foydalanganini anglatadi. Shu bilan birga, M.Y. Yo'ldoshev P.P. Ivanovning ishlarini davom ettirib, Xiva xonlari arxivi ma'lumotlarini ilmiy jamoatchilikka taqdim qilgan[6]. Bundan tashqari, muallif arxiv hujjatlarining ko'p

[1] История народов Узбекистана. – Т.: Изд-во АН УзССР, 1947. Т. II. – С. 241
[2] Ўзбекистон ССР тарихи. – Т.: Фан, 1971. Т. II. – Б. 29.
[3] Садыков А.С. Экономические последствия установления протектората России над Хивинским ханством: Дисс. ... канд. истор. наук. – М., 1954.
[4] Мамажанов М. Некоторые изменения в социально-экономической жизни народов Хивинского ханства в период с 1873 по 1920 г. – С. 49
[5] Йўлдошев М.Й. Хива хонлигида феодал ер эгалиги ва давлат тузилиши. – Т.,1959.- Б. 89
[6] Йўлдошев М.Й. XIX аср Хива давлат хужжатлари. Т. Фан. 1960 Т. 2 404 б

qismini yozgan devon xodimlarining 1873 yilda tushgan nodir fotosuratlarini mahalliy muzey arxividan topishga muvaffaq bo'lgan. 1964 yil Rossiya Milliy kutubxonasida mavjud bo'lgan Xiva xonligi tarixiga oid 3000 dan ziyod hujjatlar O'zbekiston Davlat arxividan o'rin olib, ushbu hujjatlarda Xiva xoni nomiga yozilgan arznomalar, turli amaldorlarga murojaatnomalar, soliq yig'ini, turli tadbirlar xususida ma'lumotlar qayd qilingan. Ushbu arxivda Xiva xonligi tarkibida bo'lgan Turkmaniston, Qoraqalpog'iston va Qozog'istonning bir qismi tarixiga oid juda ko'p materiallar o'z aksini topgan bo'lib, O'rta Osiyoning Rossiya, Eron, Hindiston mamlakatlari bilan olib borgan aloqalari to'g'risida ham ma'lumotlar mavjud. Jumladan, B.V. Lunin tadqiqotlarida rus sharqshunosligida O'rta Osiyo xonliklarining tarixshunoslik tahlili va tadqiqotchilar izlanishlari natijalari keng tahlil etilgan[1]. Muallif rossiyalik sharqshunoslar X.D. Fren va P.I. Lerxlarning O'rta Osiyoda mavjud bo'lgan noyob qo'lyozmalar nomini aniqlaganligini, Xiva xonligida o'zlashtirish mumkin bo'lgan turli boyliklar bayon qilingan maxsus dasturni Turkiston general-gubernatorligiga taqdim etganliklarini va boshqa bir qator ma'lumotlarni qayd etgan. Bundan tashqari, muallif Rossiya imperatori Nikolay I O'rta Osiyo shu jumladan, Xiva xonligi hududidagi tabiiy boyliklarni ilmiy o'rganishga katta e'tibor qaratgani va shu maqsadda 1854 yilda Sankt-Peterburg universitetida Sharq tillari bo'limini fakultetga aylantirish haqida farmon chiqarganini qayd qiladi. Shu bilan birga, 1857 yil oktyabr oyida V.V.Grigorev (1818 – 1881 yy.) tashabbusi bilan Sharq fakulteti kengashi hukumatga ariza berib, Sharqiy Osiyo tarixi va musulmonlar Osiyosi tarixi kafedralari ochishni iltimos qilgani, bubilan sharq tillarini yaxshi biladigan mutaxassislar tayyorlash tezlashtirilganini alohida ta'kidlaydi. 60 – 80-yillarning birinchi yarmiga kelib, tadqiqotlarning muammoviy doirası kengayib, Xiva xonligining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotiga oid ko'plab tadqiqotlar nashr qilingan[2].

[1] Лунин Б.В. Средняя Азия в дореволюционном и советском востоковедении. - Т. Наука, 1965. – 408 с.; Ахунова М.А., Лунин Б.В. История исторической науки в Узбекистане. – Т.,1970. – 256 с., Лунин Б.В. История Узбекистана в источниках. Узбекистан в сообщенияхпутешественников и учёных (20 – 80-е годы XIX в.). – Т. Фан. 1990. – 196 с.
[2] Горяченко А.А. Создание народно-советского государства и права и их революционнопреобразующая роль в Хорезме и Бухаре. – Т. САГУ, 1959. – 197 с

Shu bilan birga, A.A.Gordiyenko O'rta Osiyoning Rossiya tomonidan bosib olinishini ijobiy hodisa sifatida baholab, O'rta Osiyo xalqlari ixtiyoriy ravishda Rossiyaga qo'shilganligi haqidagi g'oyani ilgari surgan. Ushbu tadqiqotda rus qo'shinlari Xiva xonligini protektoratga aylantirgach, yetkazilgan zarar uchun tovon pulini to'lashdan yovmut turkmanlari bosh tortganliklari, shuning uchun rus qo'shini ularga qarshi shafqatsiz urush olib borgani, turkmanlar qarshilik ko'rsata olmaydigan darajaga keltirilgani va bu holat o'ta shafqatsizlik bilan amalga oshirilganligi kabi masalalarni ham ochiq ayta olgan. T.G.To'x-tametov esa, Xiva xonligining Rossiya tomonidan bosib olingandan keyingi siyosiy va iqtisodiy sohalarda olib borilgan munosabatlari xususida fikr yuritib, ularni ijobiy baholagan.Muallifning tadqiqotida xonlikning ichki hayoti, o'zbek va turkman xalqlari o'rtasidagi aloqalar va ziddiyatlar yoritilgan bo'lib, Xiva xonligining Rossiya vassalligi tarkibiga kirgandan keyin turkmanlardan soliq olishda o'zgarish yuz bergani, rus qo'shinlari tomonidan turkman urug'larining qarshiliklari shafqatsiz bostirilgani masalalari ham e'tibordan chetda qolmaganligini qayd qilish lozim[1]. I.V. Pogorelskiy Xiva xonligining iqtisodiy va siyosiy masalalariga Rossiyaning xonlikka ijobiy ta'sirini ko'rsatish nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda yondashgan. Shu bilan birga muallif asarida Rossiya bosqinidan keyin Xivadagi qozilik sudining ahvoli xususida ham keng qamrovli ma'lumotlar mavjud[2]. Umuman, sovet tarixshunosligida Rossiyaning Xiva xonligini bosib olishini bunday tarzda tahlil qilinishi "ma'naviy qolip"dan kelib chiqqan xususiyatlarga xos bo'lgan. 80-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab, "qayta qurish" munosabati bilan ilmiy tadqiqotlarda "ko'rsatma bilan ishlash" prinsipi o'rniga tarixiylik prinsiplari tiklana boshlangan, qator respublika va xalqaro miqyosda ilmiy anjumanlar o'tkazilib, ularda Rossiya imperiyasining O'rta Osiyoni, xususan Xiva xonligini bosib olishi masalasi, davlatchilik tarixi, mustamlaka va sovet hokimiyati boshqaruv tizimlarining mohiyati va xususiyatlarini o'rganish, ularning

[1] Тўхтаметов Т.Г. Россия и Хива в конце XIX – начале XX века. – М.: Наука, 1969. – С. 36-39, 92

[2] Погорельский И.В. История Хивинской революции и Хорезмской Народной Советской Республики. -Л.: ЛГУ, 1984. – С. 32

o'ziga xos jihatlarini aniqlash kabi masalalar muhokama qilingan[1]. Sovet davri tarixshunosligini o'rganish jarayonida asosiy e'tibor xonlikning ayrim masalalari, sug'orish va dehqonchilik madaniyati, Xorazmning me'moriy obidalari, amaliy san'at tarixi[2] masalalariga ayniqsa katta e'tibor qaratilgani ma'lum bo'ladi. Jumladan, Ya.G'.G'ulomovning monografiyasi Xorazmda sug'orish tizimining eng qadimgi davrlaridan to 1950 yilgacha bo'lgan davrini yoritishi bilan birga, xonlikning siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayoti haqida ham muhim ma'lumotlarni qamrab olgan[3]. Ya. G'ulomov asarida XX asr boshida Xiva xonligidagi 9 ta yirik kanal (Polvon, G'azovot, Shohobod, Yarmish, Qilich Niyozboy, Mang'it, Suxat, Lauzan, Xonyop), 128 suv taqsimlagichlar, o'n mingdan ziyodroq yop va solmalar mavjudligi qayd etilgan. Uning yozishicha: "Xorazmda katta kanallar "arna", kichigi "yop"deb atalib, ular "badak"larga bo'lingan va ulardan dalalarga chiqarilgan ariqchalarni mahalliy aholi "salma" deb ataganlar. Muallif Xorazmda sug'orish tizimini bu tarzda keng yoritish orqali xonlikning iqtisodiy ahvoli, xalqning turmush tarzi daryo xosiyatiga asoslanganini ko'rsatib bera olgan. XIX – XX asr boshlarida Xiva xonligida yer egaligi munosabatlari hukmron bo'lib, qishloq xo'jalik ekinlari, chorvachilik iqtisodiyotning asosini tashkil qilar, ko'p tarmoqli hunarmandchilik rivojlangan edi. Yer egaligi munosabatlari masalasi yuzasidan sovet tadqiqotchilari A.M. Aminov, M.Y. Yo'ldoshev, O.S. Sodiqov, T.G. To'xtametov, O. Qo'shjonov,A. Shayxovalar tomonidan yozilgan asarlar manbalarni keng jalb etilganligi, masalaning har tomonlama o'rganilganligi, avval e'lon qilingan ilmiy ishlarning yutuq va kamchiliklarini ochib berishi bilan ajralib turadi. Ularning shaxsiy xulosalari chuqur isbotlangan hamda ishonchli dalillar bilan mustahkamlangan. Tadqiqotchi A.M. Aminov keltirgan ma'lumotlarga ko'ra, Xiva xonligida yer egaligining

[1] Межрегиональное совещание по проблемам национально-освободительных движений в Средней Азии и Казахстане. – Т., 1987, 23 декабря; История и историография национально- освободительных движений второй половины XIX – начале XX вв. в Средней Азии и Казахстане. – Т.: Фан, 1989.

[2] Гулямов Я.Г. Памятники города Хивы. – Т.: АН УзССР, 1941. – 44 с.; Булатова В.А., Ноткин И.И. Хиванинг архитектура ёдгорликлари. – Т.: Ўздавнашр, 1963. – 96 б., Булатова В.А. Хива обидалари (йўл кўрсаткич). – Т.: Ўзбекистон, 1972. – 94 б., Ноткин И.И. Хива миноралари. – Т.: Ўзбекистон, 1978. – 30 б.

[3] Гулямов Я.Г. История орошения Хорезма с древнейших времён до настоящих дней. – Т.: АН УзССР, 1957. – 297 с

uchta shakli mavjud bo'lgan:

1. Davlat (xonlik);
2. Mulk (xususiy mulk yerlari);
3. Vaqf (diniy muassasalarga qarashli yerlar)yer egaligi[1].

M.Y. Yo'ldoshev asarida ham Xorazm xonligida yerga egalik shakllari xususiy mulk yerlari, vaqf yerlari, davlat yerlaridan iborat bo'lganligi qayd qilingan. Mulkdorlarga, amaldorlar, o'rta va kambag'al dehqonlarga ajratilgan yerlar mulk yer egaligi bo'lib, ular atoi mulk va yorliqli mulk shaklida bo'lgan. Ba'zi hujjatlarda "atoi mulk" – "mulki xolisi", "yorliqli mulk" – "mulki ushri" deb ham yuritilgan. Xiva xonligida XIX asr oxiri va XX asr boshidagi yer egaligi munosabatlari tarixiga oid O. Qo'shjonovning nomzodlik dissertatsiyasida muallif "atoi mulk" yerlar miqdori bo'yicha 3 xil: "a'lo", "avsat", "adno" nomlariga ega bo'lganini qayd qilgan[2]. O. Qo'shjonov asarida xonlikda "suv puli", "mirobona", "chig'ir puli", "asiya puli" kabi soliqlar ham mavjud bo'lganligi, Xiva dehqonlari alohida yig'im – "suv puli" (10 tanob yer bir suv puli hisoblanib, 20 so'm olingan) to'lashgani, bundan tashqari xonlikda "mirobona" (mirob foydasiga), "chig'ir puli" – ichki hokimiyatga (suv g'ildiraklari uchun),"nabaki puli" (ariqlarni qazish uchun), "asiya puli" xazinaga (xonga qarashli yoplardan, solmalardan suv olgani uchun), "bakiya puli" (irrigatsiyadagi boshqa zaruriyatlar uchun) kabi bir qator soliq va yig'imlar olib borilganini qayd qilgan. Xiva xonligidagi dehqonchilik, xususan yer egaligi masalasi yuzasidan A.O.Shayxova tadqiqotlarining qimmati va ahamiyati shundaki, mualliflarni qo'lyozma manbalarni, xususan vaqf hujjatlari, qozi hujjatlari asosida yozgan. A.Shayxova o'z tadqiqotida bu kabi yurdik hujjatlar Xiva xonligining ijtimoiy-iqtisodiy hayotini o'rganishda muhim manba ekanligini ta'kidlagan[3]. Sovet davri tadqiqotlarida Xiva xonligida xon va saroy amaldorlari egalik qilgan yerlarda ishlovchi bevatanlar haqida ham ma'lumotlar mavjud. Jumladan, M.M.Matkarimov ma'lumotiga ko'ra, bevatanlar –qonunda ijarachi dehqonlar bo'lib,

[1] Аминов А.М. Экономическое развитие Средней Азии (колониальный период). – Т., 1959.– С. 28

[2] Кошчанов А. Из истории аграрных отношений в Хивинском ханстве в конце XIX века.: Автореф. дисс. … канд. истор. наук. – Т., 1966. – С. 12.

[3] Шайхова А. О Хивинской казийской книге из фондов Института востоковедения АН УзССР //ОНУ. – Т., 1982. – № 6. – С. 53-57

[illegible] faoliyatini avlodlari davom ettirgan. 1873 yilda qabul qilingan [illegible] qulchilik munosabatlariga chek qo'yilishi bevatanlar [illegible] ko'payishiga sabab bo'lgan[1]. Tadqiqotchi O.S.Sodiqov [illegible] chorvador xo'jaliklardan olinadigan "ko'mak", "qo'shar", [illegible] kabi soliqlar haqida ma'lumotlar uchrasa, I.V.Pogorelskiy [illegible]: "Xivaliklar chorvachilik xo'jaligini olib borganlar, har bir [illegible] 5 tiyin, har bir tuyaga 10 tiyindan "Cho'p puli" solig'ini [illegible]ganlar. Xiva xazinasiga "Cho'p puli" solig'idan 152000 so'm pul [illegible] tushgan"[2], – deb uning ma'lumotlarini to'ldirgan. XIX – XX asr [illegible] xonlikda hunarmandchilik sohasi ham rivojlangan bo'lib, [illegible]mandlar teri va qo'y ichagini ishlash, paxtani qo'lda tozalash, [illegible] ip tayyorlash, jundan gilam, palas, kigiz, qamishdan chipta [illegible] dehqon xo'jaliklari chopon, po'stin va telpaklar tayyorlash [illegible] shug'ullanganlar. O.S.Sodiqov tadqiqotida ularning mahallalari [illegible] keng ma'lumotlar berilgan[3]. XIX asrning 80 – 90-yillariga kelib, [illegible] iqtisodiy jihatdan zabt etish sur'ati kengayib, paxtachilik [illegible] eng muhim sohasiga aylantirilgan, hamda bu yerda [illegible] birinchi ishlov berish korxonalari ishga tushirilgan.Ushbu [illegible] yuzasidan tadqiqotchi T.G. To'xtametov 1889 yilda Yangi [illegible] Toshhovuzda va Xivada paxta tozalash zavodlarining qurilishi [illegible] fabrika-zavod sanoatining paydo bo'lishiga olib kelgani, [illegible] yilda Xiva xonligida 63 paxta tozalash zavodlari mavjud [illegible] qayd qilgan[5]. O.S. Sodiqov esa Xiva sanoat korxonalarining [illegible] xususida fikr yuritib, ularda ish vaqti 13-15 soatga, ayrim [illegible] 16-18 soatga cho'zilishi, mehnat muxofazasi, ishchilar [illegible] muxofaza qilish, sanitariya-xizmati deyarli bo'lmaganligini [illegible]. Xonlikning harbiy ahvoli xususida tadqiqotchi M.Y.

[illegible] М.М. Аграрные преоброзования в Хорезме и их социально-[illegible]ческие последствия.: Дисс. ... канд. истор. наук. – Т., 1976. – Л. 27-28.

[illegible] А.С. Экономические последствия установления протектората [illegible] России над Хивинским ханством.: Автореф. дисс. ... канд. истор. наук. [illegible]

[illegible] И.В. Очерки экономической и политической истории [illegible] в конце XIX и начале XX вв (1873 – 1917 гг). – Л., 1968. – [illegible]

[illegible] А.С. Россия и Хива в конце XIX – начале XX века. ... – С. 75-76.

[illegible] Россия и Хива в конце XIX – начале XX в. Победа Хорезмской [illegible] М., 1969. – С. 108-109

Yo'ldoshevning asarida ma'lumotlar keng yoritilgan. Unga ko'ra, Xivada o'ldirilgan har bir dushman uchun pul mukofoti berish odat bo'lib, dalil sifatida o'ldirilgan kishining boshi, kesilgan qulog'i yoki shilib olingan terisini keltirib ko'rsatilishi shart bo'lgan. Bundan tashqari, Xivada harbiy yurishlar vaqtida askarlarga davlat tomonidan tibbiy yordam ko'rsatilmagani,yaralangan jangchilar o'z hisoblaridan davolanishga majbur bo'lgani, urushda o'lgan jangchining beva qolgan xotiniga pul yordami yoki bir qul berilgani,Eron, Buxoro singari chet davlatlarga qilingan harbiy yurishlar vaqtida xon navkarlarga maosh to'lamay, balki har bir navkar yurish vaqtida o'zini-o'zini ta'minlashi va yurishda qo'lga tushirgan o'ljasining 1/5 qismini "g'on" sifatida xonga berishi lozim bo'lgani bayon qilingan[1]. Protektorat joriy qilingach,xonliklararo to'qnashuvlar barham topib, savdo rivojlana boshlagan, rus qo'shinlarining joylashtirilishi tufayli xon hokimiyatining markazlashuvi yuz berib, o'lkaning Angliya tomonidan bosib olinishi havfi tugatilgan. Qishloq xo'jaligida bu yerlarda ilgari ma'lum bo'lmagan ekinlar - kartoshka, qandlavlagi, pomidor yetishtirila boshlangani, sekin va noizchil bo'lsa-da, chorva nasldorligi yaxshilana borganligi ta'kidlanadi. Rus-Xiva aloqalarini tadqiq etgan T.G. To'xtametov va O.Sodiqovlarning tadqiqotlarida mualliflar Rossiyaning xo'jalik yuritishda Xiva bilan yaqin munosabatda bo'lishi, shubhasiz har ikki tomon uchun ham manfaatli bo'lganligini ta'kidlaganlar[2]. Sovet tarixshunosligida Xorazm vohasidagi jadidchilik harakati va yosh xivaliklar faoliyati, Xorazmga qizil armiyaning bosqini, Junaydxon boshchiligidagi harakat masalalari turli xil talqin qilingan. Xususan, sovet tarixshunosligida yosh xivaliklar harakati aniq maqsadli ilg'or ijtimoiy-siyosiy harakat sifatida emas, balki "tor doiradagi ma'lum sinflar va guruhlar manfaati uchun xizmat qiluvchi burjua millatchilari"sifatida baholangan. Mualliflar jamoasi tomonidan yaratilgan monografiyada yosh xivaliklar burjua millatchiligi g'oyalari bilan zaharlangan kishilar sifatida baholanib, mehnatkashlarni ijtimoiy jihatdan to'liq ozod etishga emas, doimo feodallar bilan kelishishga

[1] Йўлдошев М.Й. XIX аср Хива давлат ҳужжатлари. – Т.: Фан, 1960. Т. 2. – Б. 12

[2] Тухтаметов Т.Г. Взаимоотношения царской России с Хивинским ханством с 1873 по 1910 г.:Дисс. .. канд. истор. наук. – Т., 1949; Садыков А.С. Экономические связи Хивы с Россией. – Т.: Наука, 1965. – С. 39.

[illegible] turishda ayblanib, ularning mulkdorlar bilan aloqasi sinfiylik nuqtai nazaridan baholangan va qoralangan. Zero, Xorazm jadidchiligining o'ziga xos tomonlaridan biri, ularda matbuot va gazetachilik [illegible] qo'yilmagani va bu g'oyalarni keng xalq orasida targ'ib etish imkoni bo'lmagan. Shuning uchun mazkur harakat asosan yuqori [illegible] tabaqa vakillari orasida kengroq yoyilgan. X. Hamdamov ham [illegible] yondashuv asosida yosh xivaliklarni "endigina paydo bo'layotgan burjuaziya manfaatlarini himoya qilishni maqsad qilib [illegible] millatchilar edi", deb ta'riflagan. Bu millatchilarning og'machiligi Xivada revolyusiyaning tashkiliy tayyorgarligiga katta halal berdi deb [illegible], fikrini quyidagicha asoslashga harakat qilgan: "Masalan, [illegible] Aleksandrovskdagi yosh xivaliklar kommiteti Xiva fuqarosi bo'lmagan hamma kishilarni partiyadan chiqarishni taklif qiladi. U [illegible] katta ishlar olib borayotgan tatarlar va ruslarni bu talabga [illegible] partiyadan chiqarish lozim edi. Bu harakat millatchilikdan [illegible] lak narsa emas edi"[1]. Bunday ta'riflar, tarixiy voqelikka sinfiy nuqtai nazaridan yondoshuvning oqibati bo'lib, milliy g'oyalar uchun kurash [illegible] tuzumiga taxdid tug'diruvchi asosiy omil sifatida [illegible] dalolat beradi.Sovet davri adabiyotlarida Xiva xonligining [illegible] masalasi soxtalashtirilgan. Bu voqealar "xalq inqilobi" [illegible] qo'zg'olon ko'targan Xiva xalqiga yordam ko'rsatish" deb baholangan. Sovet qo'shinlarining Xiva xonligiga hujumi paytida mahalliy aholiga nisbatan qilgan zo'ravonliklari va Xiva xonligining [illegible] ishlariga aralashishi atayin ko'rsatilmagan. Umuman olganda, yosh xivaliklar partiyasi tadrijiy taraqqiyotini quyidagicha qayd qilish mumkin: 1904 – 1905 yillarda hamfikr, 1910 yil boshlarida manfaatlar guruhi sifatida shakllangan amaldorlar,ma'rifatli boylar, milliy burjuaziya va ziyolilar 1917 yil Xiva xoniga muxolifat, 1918 yilda esa, [illegible] siyosiy kuch sifatida namoyon bo'lgan. Bular dunyoqarashining [illegible] rivojlanishida xonlikdagi mavjud tuzum, Rossiya va Turkistondagi siyosiy o'zgarishlar katta ta'sir qilgan hamda rus inqilobchilari, [illegible] va Turkistondagi mahalliy inqilobchilar ta'siri ham katta rol [illegible]. Xiva xonligidagi 1916 yilgi qo'zg'olon, Junayd (Qurbon Muhammad Sardor) boshliq turkman qabilalarining xonlikka qarshi

[1] Ҳамдамов Х. Хива хонлигининг ағдарилиши ва Хоразм Совет халқ [illegible] Республикасининг тузилиши. – Т.: Ўздавнашр, 1960. – Б.180 .

bosh ko'tarishi masalasi yuzasidan sovet davri mualliflarining turli xildagi qarashlari va yondashuvlari mavjud. Jumladan, P.F. Alekseenkov bu qo'zg'olonni o'zbeklar va turkmanlarning milliy ozodlik harakati sifatida ta'riflab,"ular o'z kuchlarini umumiy dushman bo'lgan Rusiya jaxangirligi bilan kurash uchun birlashtirgan edilar", deb qayd qilgan[1] Bu davr tadqiqotlarida mafkuraviy tazyiqlar nisbatan kam bo'lganligi, tadqiqotchi tomonidan bu harakatga milliy ozodlik harakati, deb baho berilganida ko'rinadi. Lekin, muallif fuqarolarning harakati xon zulmiga ham qarshi qaratilganligini tilga olmagan, bu esa masalaga tarixiy dalillar asosida aniqlik kiritishni taqozo etadi. Tadqiqotchilar G'. Nepesov va A. Sodiqovlar bu qo'zg'olonni ikki bosqichga: birinchi bosqich Junaydxon boshchilik qilgan ilg'or va ijobiy hodisa, ikkinchi bosqichni esa "reaksion" deb ta'riflaganlar[2]. Chunki 1950-1960 yillarda birorta xalq harakatida mulkdor yoki dindor ishtiroki sezilsa, unga "reaksion" nomi berilgan. Zero, bu qo'zg'olon tashkilotchilari hokim, amaldor, dindor va turkman yo'lboshchilari bo'lgan. Bunday vaziyatda, qo'zg'olonga boshqacha baho berish ham mumkin emas edi.Tadqiqotchi T.G. To'xtametov ularning fikrini tanqid qilib, 1916-yilgi voqealarni "butunlay ikki feodal guruh o'rtasidagi hokimiyat uchun kurash edi"[3], – deb ta'riflagan.Tadqiqotchi I.V. Pogorelskiy esa, G'. Nepesov va A. Sodiqovlarning fikriga qo'shilgan xolda, 1916 yilgi Xiva xonligida bo'lgan voqealarni,ya'ni Junaydxonning faoliyatini ikki davrga ajratgan Uning Xiva xonligiga shaharga kirguniga bo'lgan davrini xalqparvar, xonlikka qarshi bosh ko'targanlarga raxnamo rahbar sifatida, Xiva shahrini bosib olgandan keyingi faoliyatini reaksion-talonchilik harakati[4], - deb ta'kidlagan.Biroq, tadqiqotchilar tomonidan Junaydxon boshchiligidagi birinchi bosqichga berilgan munosabat haqiqatdan uzoq, nazarimizda.Shundan ko'rinadiki, Xiva xonligida mustaqillik, ozodlik uchun kurash nihoyatda murakkab sharoitda kechgan. U yerda bolsheviklar hokimiyati o'rnatilgandan keyin tom ma'nodagi milliy

[1] Алексеенков П. 1916 йилда бўлган Хива қўзғолони. – Т.: Ўздавнашр, 1931 – 65 б

[2] Непесов Г. Из истории Хорезмской революции. – Т.: Госиздат, 1962. – С 63; Садыков А.С. Россия и Хива в конце XIX – начале XX века. ... – С. 174-175

[3] Тухтаметов Т.Г. Россия и Хива в конце XIX – начале XX века. ... – С. 92

[4] Погорельский И.В. История Хивинской революции и ХНСР. – Л., 1984. – С 50

ozodlik kurashi yuzaga kelib, unda xalq ommasi va jadidlar faol qo'zg'olonlar.Sobiq sovet tarixshunosligida Xiva xonligining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarining o'rganilishi bo'yicha xulosa qila[illegible] bo'lsak, bu davrda qo'lyozma manbalarni o'rganish sohasidagi tadqiqotlar ozchilikni tashkil qilsada, arxiv hujjatlarini o'rganish, arxeologik va etnografik tadqiqotlar va izlanishlar olib borish sohasida keng faoliyat olib borilgan. Sovet davri adabiyotlarida tarixiy voqealarga partiyaviylik, sinfiylik nuqtai nazaridan kommunistik mafkura asosida yondashilgan bo'lsada, Xiva xonligining ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, yer [illegible], dehqonchiligi va irrigatsiyasi, me'moriy yodgorliklari va amaliy san'ati masalalari keng yoritilgan. Biroq, xonlikdagi madaniyat, savdo, shaharsozlik masalalari yetarli tadqiq etilmagan. Xonlikning davlatchilik tarixi siyosiy sabablarga ko'ra, o'rganilmaganligi kuzatiladi.

60 – 80-yillar oralig'ida tadqiqotlarning muammoviy doirasi kengayib, Xiva xonligining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hayotining ko'pgina masalalarini o'rganish vazifasi qo'yilgan bo'lsa, 80-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab "qayta qurish" munosabati bilan ilmiy tadqiqotlarda ko'rsatma bilan ishlash prinsipi" o'rniga tarixiylik prinsipi tiklana boshlagan. Natijada, Rossiya imperiyasining O'rta Osiyo xonliklarini bosib olish masalasi, davlatchilik tarixi, mustamlaka va sovet hokimiyati boshqaruv tizimining mohiyati va xususiyatini o'rganish va o'ziga xos jihatlarini aniqlash kabi masalalarga e'tibor kuchaygan; Sovet tarixshunosligida yosh xivaliklar harakati qoralangan. Ular [illegible] maqsadli ilg'or ijtimoiy-siyosiy harakat sifatida emas, balki "tor doiradagi ma'lum sinflar va guruhlar manfaati uchun xizmat qiluvchi burjua millatchilari" sifatida baholangan. 1916 yildagi Xiva qo'zg'oloni [illegible] sovet davrida turlicha fikrlar mavjud bo'lib, 1930 yilda yozilgan P.F. Alekseenkov asarida ushbu harakat "Rossiya imperializmiga qarshi milliy ozodlik harakati" sifatida baholangan bo'lsa, 1950–1960-yillarda G'. Nepesov, O. Sodiqov asarlarida bu qo'zg'olonning dastlabki davri [illegible], keyingi davri "reaksion"ahamiyatga ega edi deb baholangan. Shu [illegible] bir qo'zg'olonga sovet davrining o'zida birbiriga zid ikki xil baho [illegible] T.G.To'xtametov esa ularning fikrini tanqid qilib, 1916 yilgi voqealarni "butunlay ikki feodal guruh o'rtasidagi hokimiyat uchun kurash edi" deb ta'riflagan.

2. Xiva xonligi tarixiga doir xorij olimlarining asarlari

XIX asrning 50-yillaridan boshlab, ingliz-rus raqobatining oshganı sayin Yevropa va Amerika diplomatlari va sayyohlarining e'tıbori Xiva va Buxoroga qaratilgan, natijada xorijlik mualliflar tomonidan ilmıy izlanishlar va tadqiqotlar olib borilgan. Ushbu tadqiqotlar qamrovı keng bo'lib, asosan mamlakatning ijtimoiy-iqtısodiy va siyosiy ahvolı yoritilgan. XIX asrning ikkınchi yarmida xorijliklar Xiva xonlıgidagı qulchilik munosabati, qul savdosi ishini ko'p o'rganganlar. Jumladan, A. Vamberi xonlikda 80 mingdan ortiqroq qul bo'lganligi haqida ma'lumot bersa[1]54, ingliz tadqiqotchilari Charls Mervin va Djeyms Abbotlar qullar soni – 42 ming kishi ekanligini, shundan 30 ming nafari – eroniylar, 12 ming nafari – hirotliklar va qolganlari ruslar ekanligını qayd qilganlar[2]. Bu masala yuzasidan XX asrda M. Xoldsvort ham ma'lumot bergan. Muallif 1851-yilda Xivaga sayyohat qilgan Eron elchisi Rizoqulining qullar bayrami haqidagi xotirasini keltiradi: "Ro'za hayiti ayyomida56 Xorazmning yon-atrofi va uzoq-yaqin qishloqlarıda qullıkda yashab, navkarlik, aravakashlik va dehqonchilık qılayotgan eronliklar va boshqa o'lkalık asirlar uch kun davomıda bandilik ishlaridan qutulib, mamlakatning har burchagidan Xivaga keladilar va shaharni tomosha qilib, hordiq chıqaradilar Haqiqatan ham, bu davrda Xiva xonligida qulchilik saqlangan bo'lib, har bir xivalikning kamida bitta quli bo'lgan. Biroq, bu qulchilikni klassık formada edi deb bo'lmaydi, balki ular uy xizmatkorları hisoblanganlar. Angliyaning O'rta Osiyo xonliklariga jumladan, Xiva xonligiga munosabati, uni xonlikni bosib olmoqchi emasligi, balki Angliya koloniyalari bo'lmish Hındiston va Afg'onistonni Rossiyadan himoya qilish uchun kurashmoqchi ekanligi haqıdagi fikrlarni ingliz tadqıqotchısı G.Makmung ma'lumot berib o'tadi. Muallif 1840-yilda Angliyanıng Ost-Indiya kompaniyasi vakili kapitan R. Shekspir Xiva xonligiga kelgani, uning vazıfası O'rta Osiyo xonliklari ittıfoqini tuzib, Rossiyaga

[1] Вамбери А. Путешествие по Средней Азии. – М., 1867. – С. 200-201

[2] Marvin Ch. The Russian advance towards India. Conversation with Skobeleff. – London, 1882; Reconnoitring Central Asia: Pionering adventures in the regions lying between Russia and India. –London, 1884. – P. 13; Abbot J. Narrative of Journey from Heraut to Khiva, Moscow and St-Petersbourg during the Late Russian Inavasion of Khiva, vol.1. – London, 1884. – P. 24

qarshi kurashni amalga oshirish bo'lganini ta'kidlagan[1]. Muallifning so'zlaricha, vakil oldiga qo'yilgan vazifaning uddasidan chiqaolmagan bo'lsa ham, Angliya ittifoq tuzish faoliyatini to'xtatib qo'ymagan.Bu [illegible] misollar esa, angliyaliklarning ham ruslar kabi ilgaridan Xivaxonligiga qiziqishi katta bo'lganligini ko'rsatadi. Xiva xoni Muhammad Rahimxon II Rossiyaning Xiva xonligiga hujum qilishiga aniq ishonch hosil qilgach, harbıy diplomatik yo'l bilan Angliyadan va Afg'onistondan yordam so'ramoqchi bo'lib, 18 kishidan iborat elchi yuborgan. Elchilarni Qobul shahrida Afg'oniston amiri Sher Ali kutib olgan va har tomonlama yordam berishga va'da bergan. Xiva elchilari delegatsiyasi Peshovorga – Angliyaning vitse-qiroli Nortbruk huzuriga borganlar.Ammo, u Xiva xoni elchilari bilan mustaqil muzokara olib borolmagani tufayli Londonga xat yuborilgan, uning javobi esa 25 kunda yetıb kelgan.Xatda Angliya Rossiyaning Xiva xonligini bosib olishiga qarshi ekanligini, buning uchun musulmon davlatlari ittifoqini tuzib kurash olib borish lozimligi, hamda rus asirlarini o'z vataniga qaytarib yuborıshi. Rossiyaning hujum qilish bahonasini keyinga suradi, deb ta'kıdlangan. Shuni aytish lozimki, O'rta Osıyo xonliklari Rossiya tomonidan bosib olinayotgan bir paytda, Angliya afg'on xalqining qarshiligiga o'ralashib qolgan va natijada Xivaga e'tibor qarata olmagan. Rossiyaning Xiva xonligiga bostirib kirishı masalasi esa, O.Masaliyeva o'z tadqiqotida L. Krader, S. Bekker, R. Pirs kabi xorijlik tarıxchilar, harbıylarning axborotlari haqida ma'lumotlarni yoritgan[2]. O.Masalievaning ta'kıdlashıcha, XX asr o'rtalarigacha Angliya va AQShda O'rta Osiyo tarixini o'rganishga yagona ixtısoslashgan ilmiy tadqıqot markazlari tashkil etilmagan bo'lsa-da, "Buyuk Britaniya va Irlandiya Qirollik Osiyo jamiyati", O'rta Osiyoni o'rganuvchi Qirollik jamiyati", "Islom sharhi", Amerika sharqshunoslari jamiyatlari jurnallarida O'rta Osiyo tarixiga oıd ma'lumotlar e'lon qilingan[3]. Ikkinchi jahon urushıdan keyin esa, Anglıya va Amerikada O'rta Osiyo tarixi bilan shug'ullanadigan maxsus ilmiy-tadqiqot markazlari tashkil topgan va ularning faoliyatida asosiy e'tibor turkiy xalqlar tarixi,

[1] Holdeworth M. Turkestan in the nineteenth century: A brief history of the khanates of Bukhara, Kokand and Khiva. – London: Oxford, 1959. – P. 21. 58

[2] МасалиеваО. XIX асрингяиз-америкатарихшунослигида Бухоро, Хива ва Қўқон хонликлари тарихи.: Тарихфан. номз. ... дисс. – Т., 1999. – В. 96.

[3] O'sha asarda., – B 16-17.

geografiyasi, madaniyati, maorifi, tili, etnografiyasi, urf-odatlarini o'rganishga qaratilgan. Xususan, Indiana (AQSh), Vashington (AQSh), Manchester (Angliya) universitetlari huzurida turkiy xalqlar tarixini o'rganish bo'limlari tashkil topganini aytish joiz[1]. XX asr 50 yillari ikkinchi yarmidan boshlab, ingliz tarixshunosligida Xiva xonligiga oid ma'lumotlar hajmi kengayib, asarlar soni ko'paydi. Bu davrda faoliyat ko'rsatgan M. Xoldsvort[2], Uiler[3], Allworth[4], Yu. Bregel[5], Rambaud[6], Qrauset[7] va boshqalar Xiva xonligi tarixi masalalariga ham o'zlarining munosabatlarini bildirishgan. XX asr 50 yillari ikkinchi yarmida yaratilgan asarlar tahlil etilsa, ular orasida Xiva xonligi tarixi masalalari M.Xoldsvortning "Turkiston XIX asrda"[8] asarida nisbatan kengroq yoritilganligining guvohi bo'lamiz. Muallif Xiva xonligi siyosiy tarixi, ma'muriy tuzilishi, yer egaligi, iqtisodiy rivojlanishi, Rossiyaning xonlikni zabt etishi va Rossiya zabt etgandan keyingi xonlik holati kabi masalalarni yoritib berar ekan, xorijlik olim R.Pirs[9] asarlaridan foydalanganligini, shuningdek Markaziy Davlat Tarix arxivi, Markaziy Davlat Harbiy Tarix arxivi, Rossiya tashqi ishlar ministrligi arxivi, O'zbekiston Markaziy Davlat arxivi, Tojikiston Markaziy Davlat arxivi materiallaridan foydalanganligini e'tirof etadi. U 1937 yilda tashkil etilgan Xiva xonlari arxividan ham foydalanganligini yozib, o'z asariga Osiyo bo'limi ba'zi boshliqlari biografiyasini, Tashqi Ishlar bo'limi boshliqlarini, Turkiston generalgubernatorligi Orenburg bo'limi boshliqlari haqidagi ma'lumotlarni ilova qiladi. M.Xoldsvort manba sifatida rus tarixchilari asarlaridan, oynoma va ro'znomalardan ham

[1] O'sha asarda., – B. 22-23.
[2] Holdsworth M. Turkestan in the nineteenth century. – Oxford, 1959.-p.80
[3] Wheeler Y. The modern history of Soviet Central Asia.Weidenfeld and Nicolson, 1964.-p.45.
[4] Allworth E. The modern Uzbeks.From the fourteenth century to the present.A cultural history. Stanford, 1990.- P.15
[5] Bregel Y. Central Asia. VII. In the 12-13/18-19 th centuries/ Encyclopedia Iranica. – HU.1978.-Vol.Y.-P.195
[6] Rambaud A. The expansion of Russian. Problems of the East and problems of the far east. – Cambride 1988. – P. 45-49.
[7] Qrouset r. The empire of the steppes. A history of Central Asia. –New Jersey, 1970.-P.60-687..
[8] Holdsworth M. Turkestan in the nineteenth century. – Oxford, 1959.-p.80.
[9] Pierre R. Russian Central Asia. 1867-1917.- Berkeley and Los Angelos, 1960.-P.359.

foydalandi. Uning yuqorida nomi qayd etilgan asarida Xiva xonligining XIX asrdagi tarixiga asosiy e'tibor qaratiladi. Asarda Xiva xonligi tashkil etilgandan to XIX asrgacha bo'lgan davri tarixi haqida deyarli hech narsa yozilmagan. M.Xolsdvort Xiva xonligi aholisi haqida to'xtalib, uning umumiy aholisi 700 ming atrofida bo'lganligini, ulardan ma'muriyatni boshqarishni ta'minlagan va hukmdor sinflarni tashkil etgan o'zbeklar 400 ming nafarni tashkil etganligini taxmin qiladi. Shuningdek, "shaharlarda, o'zbeklardan tashqari ayniqsa, bosqinchilik yurishlarida asirga olingan eronlar bilan aralashib ketgan asl voha aholisi ham mavjud edi"[1], - deb ta'kidlaydi. M. Xoldsvort "XVI asrning oxirida eski Amudaryo o'z oqimini o'zgartirganligi sababli eski Urganch suv ta'minotini yo'qotadi va Xiva poytaxtga aylanadi"[2], - deb yozadi. Xuddi shu fikrni keyinroq J.Uiler ham takrorlaydi. Xoldsvort yana xonlikda qullar ham mavjud bo'lganligini yozib bu qullar turkmanlarning Eronga va bir necha marta Isfaxonga qilgan kengaytirilgan hujumlari vaqtida asirga olingan edi. Ular xonlik madaniyatida sezilarli ta'sir ko'rsatganga o'xshab tuyuladi" - deb ta'kidlaydi. M.Xoldsvort o'z asarida yana 1851 yilda Xivaga sayohat qilgan Eron elchisi Rizoqulining yo'llar bayramini qanday tasvirlaganiga to'xtalib o'tadi: "Ramazon oyining navbatdagi bayramlari munosabati bilan eronliklar va uy xizmatkorlari, yuk tashuvchilar va ishchilar bo'lib xizmat qilgan qullar, qishloqlarga hamda Xorazmning turli manzilgohlariga tarqaldilar va 3 kunni ozodlikda o'tkazardilar. Ular barcha yerlardan Xivaga kelardilar vao'zlarining vaqtlarini atrofda sayr qilish bilan o'tkazardilar. Ular o'zlarining yurtdoshlari o'zlari kabi baxtsizlikdagi do'stlari bilan uchrashardilar, o'zlarining ahvoli haqida suhbatlashardilar bir-birlariga ayanchli badarg'alikdagi hayotidan nolirdilar" Haqiqatan ham, xonlikda qullar mavjud bo'lgan bo'lib, bu haqda mahalliy adabiyotlarda ma'lumotlar uchraydi. Masalan, "1851 yilda Xiva xonligiga tashrif buyurgan Eron elchisi Rizoqulixon Hidoyat Lolaboshi(ba'zi adabiyotlarda qizilboshi deb yuritiladi) elchiligi fuqarolarni ozod qilish va Eronga olib ketish, shuningdek, musulmonlarni olib-sotish ya'ni qulchilikni bekor qilishga majbur etish" edi. M.Xoldsvort yana "XIX asrda ichki birlashtirish uchun kurash boshlandi. XVIII asrdan beri hali hamma

[1] Holdsworth M. Turkestan in the nineteenth century. – Oxford, 1959.-p.21
[2] O'sha adabiyot.,-P. 21

yerda sulola tashkil etilmagan edi. Inoq Eltuzar o'zining hokimiyati va taxt merosi tartibini o'rnatib, oliy hokimiyatni o'z zimmasiga oldi", - deb yozadi. Haqiqatan ham 1804 yildan boshlab, Xivada hukmronlik o'rnatiladi. M. Xoldsvort o'z asarida yana Xiva xonlari ro'yxatini ham qayd etadi:

Inoq Eltuzar 1804 – 1806
Muhammad Rahim 1806 - 1826
Olloquli 1826 - 1842
Rahimquli 1842 - 1845
Madamin (Muhammad Amin) 1846 – 1855
Sayid Muhammadxon 1856 - 1864
Muhammad Rahim II 1864 - 1910
Asfandiyorxon 1910 - 1918
Sayid Abdulloh 1918- 1920

Shu o'rinda 90-yillarda E.Ollvortning asarida[1] ushbu xonlikni boshqargan hukmdorlar ro'yxatini ham keltiramiz.

Rahimquli 1842-1845
Muhammad Amin 1845-1855
Sayid Muhammad 1856-1864
Muhammad Rahim II 1865-1910
Asfandiyor 1910-1918
Sayid Abdullo 1918-1920

1918-1920 yillarda Xivaning 49-xoni Sayid Abdulloh 1920 yil 1-fevral kuni qamoqqa olingan va shu yil 12-iyulda surgun qilingan. Avvlo, Moskva, so'ngra Ukraina qamoqxonalarida saqlangan. 1934-yilda ozod etilgan va Toshkent shahrida vafot etgan. Ingliz olimi M.Xoldsvort o'z asarida Xiva xonligining ma'muriy tuzilishiga to'xtaladi. "Xiva xonligi Buxoro va Qo'qondan kuchli mahalliy va ajratuvchilik an'analariga asoslangan bekliklardan iborat emasligi bilan farq qilardi, tez-tez avtonom bo'lgan qo'ng'irotlardan tashqari, ikkinchidan shaharlar kuchli mahalliy hokimiyatni namoyish etardi[2] . Haqiqatan ham, mahalliy adabiyotlarda yozilishicha, Xiva xonligi bekliklarga bo'linmasdan idora etilgan.Muallif xonlikning yer egaligi masalasi to'g'risida esa, XX

[1] Allworth E. The modern Uzbeks.From the fourteenth century to the present.A cultural history. Stanford. 1990.-P.15

[2] Holdsworth M. Turkestan in the nineteenth century. – Oxford. 1959.-p.9.

asr xorij tarixshunoslari bilan deyarli bir xil fikrga keladi: yer egaligi tadbirlari Buxoro va Qo'qondagiga o'xshash edi, "hadya yerlar xon tomonidan uning xizmatchilariga ulashilardi va ular juda ortiq bo'lgan barcha soliqlardan ozod qilinardi".

Shuni ta'kidlash joizki, Xiva xonligida yerlarning katta qismi xon va uning yaqin qarindoshlariga qarashli edi. Bu yerlardan dehqonlarga ijara yerlar ajratilib berilardi. Xiva xonzodalariga qarashli yerlar xususiy mulk bo'lib, ular soliq to'lamas edi. M. Xoldsvort ushbu masala bo'yicha yaratilgan asarlarni tahlil etar ekan, zamonaviy sobiq sho'ro tarixchilari xo'jalik yerlarining yarmi xonga tegishli bo'lib, uning ruxsati bilan yer egalariga berilardi ,-deb yozgan". Muallif xonlikdagi vaqf yerlar umumiy sug'oriladigan yerlarning 4 foizini tashkil etardi, degan fikrga keladi. Uning ta'kidlashicha, "yer soliqlari 3 ta farqli ko'rinishda to'planib, yer uchastkasi hajmiga bog'liq edi. Soliqni mahsulot bilan to'lash "diak"o'rniga asta - sekin pul bilan soliq to'lash (salg'ut) kelib chiqdi. XIX asrning so'nggi choragida bir vaqtning o'zida ikkalasi ham mavjud edi". Haqiqatan ham, mahalliy adabiyotlarda ko'rsatilishicha, Muhammad Rahim xalqning noroziligi yana kuchayib, tug'yon ko'tarishdan qo'rqib, soliq solish tartiblarini o'zgartirishga kirishdi. Xiroj deb atalgan va natura bilan olinadigan eski soliq "mahsulot solig'i" tizimi bekor qilindi. Buning o'rniga solg'ut deb atalgan pul solig'i joriy qilindi, Xoldsvort yana"...qishloqlarda dehqonlar va hunarmand o'zlarining mahsulotlarini sotardilar yoki o'zlarining qo'shnilariga xizmat qilib, haqini doimo mahsulot bilan yoki ba'zida naqd pul bilan olardilar. Shaharlarda hunarmandlar ustaxonalari tashkil etilgan bo'lib, u yerda temirchi, teri (po'st) va charmni ishlovchilar, kulollar, arqon tayyorlovchilar va gilam to'quvchilar ishlardilar. Rus tovarlari bilan tanishish natijasida hunarmandchilik ayniqsa bo'yoqchilik va kulolchilik mahsulotlarining bozori kasodga uchray boshlagan"ligini ta'kidlaydi[1]. Xiva xonligida ichki savdo haqida Meri Xoldsvort xonlikdagi ichki savdo Buxorodagi va Farg'ona vodiysidagidek yaxshi rivojlanmagan edi, degan xulosaga keladi. Uning ta'kidlashicha, "shaharlarda bozor bo'ladigan kunlar tashkil etilgan edi, tashqi savdo Afg'oniston, Eron va Rossiya bilan olib borilardi. Xiva savdogarlari o'zlarining shaxsiy mollarini Rossiya yarmarkalariga olib borardi.

[1] O'sha manba. - p.23-24

Tovarlar tagi yassi qayiqlarda Amudaryodan Urganchga yoki Chorjo'yga olib borilardi, so'ng karvon yo'llari orqali tashib ketilardi". Xivadan Rossiyaga, Eronga tuya karvonlari qatnaydi Buxoroga esa mollar tuyalardan tashqari suv orqali kemalarda ham jo'natiladi". "Kemalar faqat Shovot va Polvon kabi kanallardagina qatnamasdan hatto, Amudaryo bo'ylab Buxoroga va Orol dengizi bo'ylab Sirdaryoning quyilish joyigacha boradi". M.Xoldsvortning xonlikdagi savdo haqidagi fikrlariga keyinroq xorijlik olim Uiler ham qo'shiladi va o'zining asarida yuqoridagi fikrlarga mos fikrlar keltiradi. Ingliz olimi M. Xoldsvort xonlikdagi pul munosabatlari U yana "qadimgi voha maydonlari intensiv sug'orilardi va yerlar o'g'itlanardi"[1], deb yozadi. Uiler "xonlikda yashagan yarim ko'chmanchi turkmanlar asosan chorvachilik bilan birga ikkinchi darajali bo'lgan dehqonchilik bilan shug'ullandi. Qo'ng'irot shimolida va Amudaryo deltasida yashaydigan qoraqalpoqlar aralashib ketgan o'troq qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanib, u hosil yetishtirish va mol boqishga bo'linadi". Muallif yana "aholining 75 foizi o'troq bo'lib, hosil yetishtirish bo'yicha har tomonlama tajribaga ega bo'lib, shimoliy rayonlarda bug'doy va tariq, janubiy rayonlarda bug'doy, paxta, meva, jumladan qovunlarning turli navlarini yetishtirardi"[2], Uiler yana xonlikda sug'orish ishlari ham yaxshi yo'lga qo'yilganligini yozadi. 70 yillarda ingliz tarixshunosligida fransuz muallifi Kraussetning inglizchaga o'girilgan "Dasht imperiyasi. "O'rta Osiyo tarixi"[3] asari o'n uchinchi bobida "Xiva xonligi" mavzusi bilan xonlik haqida qisqacha ma'lumot beriladi.Krausset asosan xonlikning siyosiy tarixiga e'tibor beradi. U Arab Muhammad hukmronligi davrida ruslar Urganchga yurish qilganliklari va taxminan 1613 yillar atrofida Xorazm qalmiqlarining talonchilik bilan bostirib kirib, keyinchalik tashlab ketgan bosqinidan azob chekkanligi haqida yozadi. Shuningdek, Arab Muhammadning hukmronligi davrida Amudaryo deltasining qurib qolganligi tufayli poytaxt Urganchdan Xivaga ko'chirilganligini qayd etadi. Muallif yana "Urganch va Xivaning sun'iy aholisi Eron generallariga qarshi qo'zg'adi... Qo'zg'olonga boshchilik qilgan

[1] Wheeler Y. The modern history of Soviet Central Asia.Weidenfeld and Nicolson. 1964.-p.46.
[2] Qrouset r. The empire of the steppes, A history of Central Asia. –New Jersey. 1970.-P.687.
[3] O'sha joyda -P.687.

shayboniylarga qarindosh bo'lgan Elbars boshchiligida Xiva mustaqil xonlik barpo etildi. Shayboniylar sulolasi Xorazmda 1512 yildan to 1920 yilgacha hukmronlik qildi" - deb ta'kidlaydi. Krausset Xiva xonlaridan Abulg'ozi Bahodirxon (1643 -1665) mashhur ekanligini yozib, u chig'atoy turk tarixchilari ichida buyuklardan biri edi, Chingizxon va chingiziylar tarixi haqidagi qimmatli asar "Shajarai turk" ning muallifidir, deb baho beradi. Uning xon "sifatida olib borgan faoliyatini tahlil etib, 1890 yilda Kat regionini talash uchun kelgan Kandelung Ubasha boshchiligida xazar-qalmiqlarning bosqiniga va qo'shni Xazoraspni talagn qalmiqlarga zarba berganligini haqida ma'lumotlarni keltirib o'tgan . 70 yillarda yana Alfred Rambaud Xiva xonligi haqida qiziqarli ma'lumotlarni keltiradi. Bu muallif o'z asari[1] da ko'proq ruslarning O'rta Osiyoga bostirib kirishi masalasiga e'tiborni qaratgan. O'rganilayotgan masala tarixshunosligini tahlil etar ekanmiz, Indiana universiteti O'rta Osiyo, Chig'atoy, Oltoy bo'limi direktori, muhojir - tarixshunos Yuriy Bregelning baholashga arzigulik maqolalari xususida to'xtalib o'tish lozim, deb o'ylaymiz.Uning maqolalari XX asr 20 yillari ingliz tarixshunosligida Xiva xonligiga oid eng qimmatli materiallardir. Yuriy Bregel maqolalarida Buxoro va Qo'qon xonliklari bilan bir qatorda Xiva xonligiga ham batafsil to'xtalib o'tadi. U Xiva xonligi bo'yicha rus, ingliz olimlari asarlari bilan bir qatorda xonliklar davrida yashab o'tgan saroy tarixchilari Munis va Ogahiy asarlaridan ham foydalangan.Yuriy Bregelning Eron ensiklopediyasi "O'rta Osiyo" bo'limida chop etilgan "XVIII-XIX asrlarda O'rta Osiyo"[2] nomli maqolasida Buxoro, Qo'qon xonliklari bilan bir qatorda Xiva xonligi siyosiy tarixiga ham to'xtalib o'tadi. Yu.Bregel Xorazmda etnik bo'linmalar o'ziga xosligini ta'kidlab, "qadimiy o'troq eroniy aholini nihoyat mo'g'ullar davrida turkiylashdi, sartlar asosan mamlakatning janubiy qismida shahar va qishloq joylarida ikkala bo'linma ham jamlandi. O'zbeklar ular bilan aralashib ketdi, lekin o'zlarining qabilaviy mansubligini...saqlab qoldi. Ularning ko'pchiligi xonlikning shimoliy qismida yashardilar", - deb yozadi. 60-yillarda S.Bekker Xiva xonligi "geografik birlashmasiga qaramay, Buxoroga nisbatan etnik

[1] Rambaud A. The expansion of Russian. Problems of the East and problems of the far east – Cambridge 1988. –P. 45- 49.
[2] Bregel Y. Central Asia. VII. In the 12-13/18-19 th centuries/ Encyclopedia Iranica. HH 1978 -Vol Y -P.195

jihatdan bir xil bo'lgan. Xivada o'zbeklar 65 foizni... shimolda aholining 4 foizini yarım ko'chmanchi qoraqalpoqlar va ozroq sondagi ko'chmanchi qozoqlar tashkil etardi", - deb yozadi. Indiana universiteti xodimi Yu. Bregel o'z asarida "Xorazm kichikroq va markazlashgan sug'orish tizimiga ega bo'lgan"ligini. davlat rahbarlik organlari hududiy hokimlarga topshirilganligi va soliqlar yilda bir - ikki marta markaziy davlat tomonidan maxsus tayinlangan lavozimli shaxslar tomonidan to'plangan[1]ligini ham qayd etadi. Yu. Bregel[2] o'z maqolasida yana Xiva xonligi va Eron shohlari o'rtasidagi munosabatni ifodalab, Xiva xonlarining shajarasini Xorazmshohlardan to qo'ng'irotlar sulolasi vakillarigacha bo'lgan shohlarning ota bobolari haqida qimmatli ma'lumotlar keltirib o'tgan.Yu. Bregel tomonidan tuzilgan xonlar shajarasi ikki xil bo'lib, ular jadval tarzida berilgan. Shajaraning biri Chingizxondan Xivaning Shayboniy sulolasiga mansub Arang Muhammadgacha va yana biri shushajaraning davomi sifatida Qo'ng'irot sulolasiga mansub xonlar shajarasi hisoblanadi. Har ikkala shajara ham mukammal tuzilgan bo'lib, unda nafaqat hukmdorlarning nomi, balki ularning xonadoniga mansub boshqa shaxslarning ham ismlari berilgan. Ushbu shajarani mahalliy tarixchilar shajaralari bilan taqqoslaganda anchayin mukammal ekanligi ko'rinadi. Xonlikning ma'muriy tuzilishi, iqtisodiy rivojlanishi shu kabi masalalarini yoritishda xorijliklar ko'proq rus sharqshunoslari, vatan tarixchilari va mahalliy arxiv hujjatlariga asoslanadi. Xorijda faoliyat ko'rsatayotgan Yuriy Bregel boshqa xorijliklardan farqli ravishda Xiva xonligi masalalarini yoritishda rus, ingliz olimlari asarlari bilan bir qatorda saroy tarixchilari Munis va Ogahiy hamda Muhammad Yusuf Bayoniy asarlaridan foydalanadi. Xulosa qilib aytganda, XIX asrning ikkinchi yarmi - XX asr 20-yillari xorij tarixshunosligida Xiva xonligi masalalariga oid adabiyotlar hajmini nisbatan ozchilikni tashkil etsada, vaqt o'tgan sari, ma'lumotlar yig'ilib bordi va asarlar soni ortishi bilan matbuot sahifalarida chop etilgan lavhalar mazmuni ham boyib bordi. XIX asrda yevropalik tadqiqotchilar tomonidan yozilgan asarlarning mazmuni asosan mustamlakachilik kayfiyatida yozilgan bo'lsa-da, ularda xonlikning

[1] Becker S. Russias protectorates in Central Asia: 1865-1924.- Harvard Univ.-P.5.ersity Press. Cambridge, 1968. – P. 356.

[2] Bregel Y. Central Asia. VII. In the 12-13/18-19 th centuries/ Encyclopedia Iranica. – HU. 1978. - Vol.Y.-P- 200.

siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, davlat boshqaruvi va madaniyati kabi masalalar yoritilgan edi. XX – XXI asr boshiga kelib, Yevropa va AQShda O'rta Osiyo bilan maxsus shug'ullanuvchi ilmiy tadqiqot institutlari va jamiyatlari ochildi. Natijada xonlik tarixi, madaniyati, me'moriy yodgorliklari, bu yerda yashagan xalqlar, xonlikda yuritilgan davlat hujjatlari, jumladan,xon yorliqlari, qozilik hujjatlari kabi masalalarni yorituvchi yangi nashrlar vujudga keldi. Ammo ularda asosan O'rta Osiyoning umumiy tarixi berilib, xonliklarga alohida yondashuv kam uchraydi.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Xiva xonligining XIX asrning ikkinchi yarmi - XX asr 20-yillari tarixi tarixshunosligi o'rganishning o'ziga xos xususiyatlari namalardan iborat?

2. P.P. Ivanovning qoraqalpoqlar tarixiga oid qanday kitobi mavjud va bu kitobning Xiva tarixini o'rganishdagi ahamiyat nimalarda namoyon bo'lgan?

3. 1936 yil Sankt-Peterburg shahridagi M.Y. Saltikov-Shedrin nomidagi milliy kutubxonadan topilgan Xiva xonlari arxivining o'rganilishining tarixshunoslikdagi ahamiyatiga to'xtalib o'ting?

4. Oktyabr to'ntarishining Xiva xonligiga ko'rsatgan ta'siri qanday edi?

5. Xivaning bosib olinishi tarixi bo'yicha qanday mahalliy tadqiqotlarni keltira olasiz va ularni tahlil qiling?

6. Rossiyalik sharqshunoslardan O'rta Osiyoda mavjud bo'lgan noyob qo'lyozmalar nomini aniqlagan?

7. Qaysi sharqshunos olimlar Xiva xonligining iqtisodiy va siyosiy masalalariga Rossiyaning xonlikka ijobiy ta'sirini ko'rsatish nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda yondashgan?

8. Yer egaligi munosabatlari masalasi yuzasidan kimlar izlanishlar olib brogan va bu jarayonlar qanday tasvirlangan?

9. A.O Shayxova tadqiqotlarining qimmati va ahamiyati tomoni nimada?

10. Sovet tarixshunosligida Xorazm vohasidagi jadidchilik harakati va yosh xivaliklar faoliyati qanday ifodalangan?

11. Xiva xonligi tarixiga doir xorij olimlarining qanday asarlarini bilasiz?

12. Xiva xonligi tarixi to'g'risida sovet olimlarining qanday asarlari yoki fikrlari bor?

13. Xonlikdagi rus tarixchilarining yozgan asarlarida obyektivlik qanday?

14. Xorij olimlarining xonlik tarixiga oid asarlarini bilasizmi?

MAVZU № 11. O'RTA OSIYO XONLIKLARI CHOR ROSSIYASI TOMONIDAN BOSIB OLINISHI TARIXINING TARIXSHUNOSLIGI

REJA:

1. O'rta Osiyo ijtimoiy-iqtisodiy sohalari tarixini yoritishga oid tarixshunoslikning rivojlanishi
2. A.L.Kun vaqf hujjatlarining tarixiy bilimlarni rivojlanishidagi o'rni
3. Turkiston o'lkasining rus olimlari tomonidan o'rganilishi
4. Turkiston o'lkasining ma'naviy-ma'rifiy sohalarini yoritishga oid tarixshunoslikning o'ziga xos xususiyatlari

Tayanch so'z va iboralar: Tatarinov esdaliklari, vaqf hujjatlari, "Iskandarko'l safari kundaligi", arxeologik albom, yodgorliklarni talash, qazilmalar qidirish, topografik ekspeditsiyalar, M.Nevskiy ekspeditsiyasi, V.M.Oshaninh sayohati, statistika qo'mitasi materiallari, K.Palen taftishi, V.Bartol'd ilmiy faoliyati, V.L.Vyatkin izlanishlari, etnografik kollektsiyalar

1. O'rta Osiyo ijtimoiy-iqtisodiy sohalari tarixini yoritishga oid tarixshunoslikning rivojlanishi. A.L.Kun vaqf hujjatlarining tarixiy bilimlarni rivojlanishidagi o'rni

1868 - 1870 yillarda Knyaz Urusov Rossiya bosqiniga qadar Zarafshon vohasida jun yetishtirishning ahvolini mufassal o'rganib chiqdi. Urusov, nafaqat okrugdagi jun ishlab chiqarish tarmoqlarini o'rgandi, balki Turkistonda chorvachilikni, ayniqsa, uning ipak junli qo'ychilik tarmog'ini yanada rivojlantirish yo'llarini izladi. Uning tadqiqotlari natijalari "Zarafshon okrugida jun yetishgirish to'g'risida yozuvlar"da aks etgan. Keyinroq, 1870 yilda harbiy injener - kapitan Bogolevskiy Zarafshon daryosiga ko'priklar qurish imkoniyatlarini ko'rib chiqdi. Okrug muhandislik ishlari mudiri bo'lgan bu harbiy injener o'sha vaqtdagi tog' ishlari bo'yicha maxsus topshiriqlar amaldori Tatarinovga Zarafshon daryosiga ko'prik qurishga mos joy topish uchun asbob va burg'ulash ishlari bilan tanish bir nafar ishchi yuborishini so'rab murojaat qiladi. Bu haqda Turkiston harbiy okrugi muhandislari boshlig'i

vazifasini bajaruvchiga xabar bergach (действительной статский советник). Tatarinov bahorgacha burg'ulash ishlariga ehtiyoj yo'qligi tufayli Bogolevskiyga uskunalardan tashqari, tog' ishchisi va geologiya, mineralogiya va tog' ishlari bilan tanish tog ustavshigini xam jo'natish imkoniyati borligini tushuntirdi.

Albatta, Tatarinovni aholi uchun zarur bo'lgan ko'priklar qurilishi emas, o'zi ta'kidlaganidek, Zarafshon vodiysi qazilma boyliklari qiziqtirardi. Zarafshon okrugi boshlig'iga yuborgan shaxsiy xatida u shunday deb yozgandi: "...Men shuningdek uddaburon kishini ham yuborishga qaror qildim. U imkoni boricha Samarqand atrofining geologik tuzilishini o'rganish va ko'prik qurish uchun qurilish materiallari izlash bilan birga boshqa foydali qazilmalar joyini ko'rsatishi lozim..., agar toshko'mir koni chiqishiga umid tug'ilsa, uni amalga oshirish uchun o'zim boraman yoki muhandis yuboraman".

Rossiyaning O'rta Osiyoni bosib olgan dastlabki davridanoq, Chor hukumati Amir Temurning kutubxonasini izlashga katta e'tibor berdi. Turkiston viloyatining harbiy gubernatori o'z raportida (1866 yil 17 yanvar) shoshilinch choralar ko'rgani, xususan, Buxoroga Samarqand orqali qatnovchi toshkentlik savdogar boylarga, ehtimol Samarqandning qayeridadir yashirin yotgan Temur kutubxonasini qidirish bo'yicha ko'rsatma berganini xabar qiladi. Keyinroq, 1868 yildan boshlab, mashhur rus orientalisti A.L.Kun turli vaqf hujjatlari yig'a boshlaydi. U o'zi yiqqan 150 dan ko'proq qimmatli hujjatlarni rus tiliga o'girdi va umumlashtira boshladi. 1870 yili general-gubernator fon Kaufmanning topshirig'iga ko'ra A.L.Kun O'rta Osiyo, Zarafshon vodiysida qazish ishlarini olib borib, qadimiy obidalarning qoldiqlari, tangalar va boshqa ashyolarni to'pladi. Arxiv materiallarining guvohlik berishicha, A.L.Kun ko'plab qadimiy topilmalar to'plagan. Bular 1871 yilning may oyida Samarqanddan Toshkentga, so'ng u yerdan Rossiyaga jo'natilgan. A.L.Kunning bu topilmalari Peterburgda Ermitajda ko'rgazmaga qo'yilishi lozim edi.

Shuni ham aytish lozimki, A.L.Kun qazish va arxeologik materiallarni o'rganish ishlariga mahalliy aholining bilimdon vakillarini ham jalb etgan. Masalan, Mirzo Mulla Abdurahmon ibn Muhammad Latif (tarixiy adabiyotda Mirzo Samarqandiy nomi bilan mashhur), Muxtojir Samarqandiy shular jumlasidan. Samarqandlik Mirzo Mullo Abdurahmon A.Kunning (1840 - 1888 yy.) yaqin do'sti va tarjimoni

edi. Mirzo Samarqandiy A.Kunning 1870 yilgi Iskandarko'lga ekspeditsiyasida hamrohlik qilgan edi. U safar taassurotlari asosida "Ro'znomai safari Iskandarko'l" ("Iskandarko'l safari kundaligi") ni yozdi. Unda Zarafshon daryosi yuqorisidagi Panjikentdan to Paldaragacha, Yagnobdan Iskandarko'lgacha bo'lgan barcha aholi maskanlarining tavsifi berilgan. "Kundalik"da mazkur joylarning ijtimoij - iqtisodiy ahvoli, xalq turmushi, tili va an'analari to'g'risida muhim ma'lumotlar va ba'zi arxeologik dalillar bor. "Kundalik"ning asosiy qiymati shundaki, unda u yoki bu ma'lumotning qayerdan olingani va qachon yozilgani ko'rsatilgan. Mirzo Samarqandiy "Kundalik"ni 1870 yil 30 aprelida Panjikent shahri yaqinidagi Ro'dak qishlog'idan boshlab, 1870 yilning 29 iyunida Samarqandda tugatgan.

"Kundalik"ning kirish qismida asarning maqsadi bayon qilingan va u 1870 yilning 1 iyunida Samarqand shahrida yozilgani aytilgan. "Ilova"da esa boy ashyoviy materiallar, xususan, masjid va boshqa binolar devoridagi bitiklardan ko'chirmalar, qabrtosh yozuvlari va yo'l ko'rsatkichlaridan, ekspeditsiya yo'lida uchragan boshqa turli yozuvlardan ko'chirmalar, Falg'ar va Matchoh rayonlaridagi aholi orasida to'plangan lapar va qo'shiqlar keltirilgan.

"Kundalik"ning muallifining qo'lyozmasi A.Kun tomonidan qisman rus tiliga o'girilgan. Mirzo Samarqandiyning bizgacha yetib kelgan ikkinchi asari 1872 yili yozilgan. "Moskva ekspeditsiyasi kundaligi" (Ro'znomai safari Maskob) asaridir. Asar Mirzo Samarqandiy va A. Kunning "Tabiatsevarlar jamiyati" taklifi bilan Rossiya Politexnika instituti Pyotr I tug'ilgan kunning 200 yilligiga bagishlab uyushtirgan ko'rgazmada qatnashish uchun Moskvaga sayohati natijasida yuzaga keldi. "Kundalik"da Rossiyaning madaniyat va xalq xo'jaligidagi yutuqlari mufassal yoritilgan. Ayniqsa, ko'rgazmaning Turkiston bo'limi ishi keng yoritilgan. Bu bo'lim shunisi bilan jozibali ediki, u Sherdor madrasasini eslatuvchi ayvon – pavil'onda joylashgan edi.

Olim va tarjimon Mirzo Mullo Abdurahmon Samarqandiyning bizgacha yetib kelgan qo'lyozma asarlari O'rta Osiyo xalqlarining tarixi, tili, etnografiyasi va arxeologiyasi bo'yicha qimmatli manba hisoblanadi. A.L.Kun tadqiqotlarining eng muhim natijasi shuki, 1871 1872 yillarda, Turkiston o'lkasining arxeologik al'bomini tuzish maqsadida Samarqand obidalari suratga olindi.

1870 yilda Perm boylari - aka-uka Kamenskiyning ishonchli

vakili Semyon Lyaxtin Zarafshon vohasidan 109 pud, 0,5 funt xar xil arxeologik u va ko'plab qadimiy Sharq qo'lyozmalari to'plab, Peterburg Imperatorlik arxeologiya jamiyatı va jamoat kutubxonasıga va Moskvadagi aniq fanlar ishqibozlari jamiyatiga topshirdi. Biroq, shunaqa savobli ishlar bilan bir qatorda, Zarafshonda xam butun o'lkada bo'lgani kabi, rus amaldor, ofiser va savdogarlari o'rtasida qadimiy noyob narsalarga bo'lgan g'arazli qiziqish kuchaydi. Ular har xil yo'l va usullar bilan qadimiy narsalarni qo'lga kiritishga urindilar. Maqsadlari keyin ularni qimmatga sotib boyish edi. Masalan, A.Kun general Abramovga yuborgan maktublaridan birida mahalliy millat vakillaridan uch kishi uning iltimosiga ko'ra, Buxorodan qadimiy oltin va boshqa metallardan zarb qilingan tangalar olib kelgani, biroq, bir xil narx taklif qılınganıga qaramay, ular tangalarni A.Kunga emas, keyin qimmatiga sotish umidida bo'lgan Samarqand bo'limı boshlig'i podpolkovnik Serovga sotishganını yozadi va Abramovdan Chor amaldorlarining qadimiy yodgorliklar bilan chayqovchilik qilishining oldini olish bo'yicha choralar ko'rishini so'raydi. Abramov javobida A.Kun bu masalada haq ekanini tan olsada, bu ishga aralashishdan qat'iy bosh tortadi va Chor amaldorlarining xususiy mulkiga tegib bo'lmasligini ta'kidlaydi.

General Abramovnnng yodgorliklarni talashga sukutli roziligi rus amaldorlarini yanada "yirik" ishlarga ruhlantirdi va ularning ba'zilari arxeologik topilma nimaligi xususida tasavvurga ega bo'lmagani holda Samarqanddagi Afrosiyobni qazib, talashga tushdi. Bu talonchilikni cheklash maqsadida Turkistondagi Chor xukumati 1871 yil 3 martda 942 - sonli maxsus hujjat chiqarishga majbur bo'ldi. Unga ko'ra, shaxsan Kaufmannng ruxsatısız hech qanaqa qazish ıshlarını amalga oshirish mumkin emas edi. Biroq, bu ko'rsatma kam samara berdi va Chor hukumati keyinroq, 1879, 1882, 1892 yillarda xam shunga o'xshash qarorlar qabul qildi.

Rus jo'g'rofiya jamiyati topshirig'yga ko'ra, 1874 yilning yozida N.P.Barbotde Marni Zarafshon vohasida geologik kuzatishlar olib bordi. Uning natijalari umumlashtirilmagan, qo'lyozma holda bayon qilingan, xolos.

G.D.Romanovskiy va I.V.Mushketovlarning 1874 yilda o'tkazgan foydali qazilmgalarni qidirish ishlari katta ilmiy ahamiyatga ega. Ularning tadqiqotlari natijalari 1878 yilda e'lon qilindi. 1886 yilda esa bu materiallar I.V.Mushke-tovning "Turkiston" asarida ilmi jihatdan

umumlashtirildi.

1875 yili Afg'oniston Buxoro chegarasida yuzaga kelayotgan voqealar munosabati bilan Kaufman buyrug'iga ko'ra harbiy topografik xarakterdagi ekspeditsiya uyushtirildi. U ikki oy davomida Hisor va Ko'lob rayonlarıda bo'ldi. Ekspeditsiya a'zolari, Turkiston o'lkasi statistika qo'mitasi raisi N.Mayev (rahbar) podporuchik Vishnevskıy va astronom Shvars Hisorning muhım rayonlarida bo'ldilar, ulargacha bu joylarga bironta Yevropalikning oyogi yetmagan edi. Ular Darvoza va Kunduz chegarasigacha yetıb borıshdi. Ekspeditsiya qaytishi bilan Vishnevskiy Hisor, Ko'lob, Zarafshonning yuqorı qısmi hamda darali tog' rayonlarınıng mufassal xaritasini chizdi va olimlari halı noma'lum mamlakatlar bılan tanıshtirdi. N.Mayev ekspeditsiya o'tgan joylarning tarixiy antropologık va topografik tafsilotini tuzdi, astronom Shvars esa Hisor va Qo'lob rayonlarida 14 ta astronomik kuzatuv punktlarını belgiladi.

1878 yillarda fanlar, antropologiya va etnografiya ishqibozlari Turkiston bo'limiga birinchi ilmiy ekspeditsiyasi uyushtirildi. V.V.Bartold dunyo aytishicha, bu bo'lim 1870 yilda ish boshlagan. Ekspeditsiya tarkibida olimlar V.F.Oshanin (bo'lim kotibi, rahbar), G.Ye.Rodionov (topograf) va M.I.Neveskiy (botanik) bor edi. Ekspedıtsiyaniig vazifasi Qorategin va Amudaryo yuqori qismini tadqiq etish edi. 1878 yilning yozida ekspeditsıya Samarqanddan jo'nab ketdi va yo'l-yo'lakay Qorategin va Darvoza hududlarining bır qismını tekshirdi. So'ng Muksu vodıysi yuqorisida ulkan tog' muzligini topdi va bu muzlik yuqorida eslatganimızdek, olim A.P.Fedchenko nomiga qo'yildi. Bu muzlik - Zarafshon daryosi suv manbaidir, daryo - suvinıng oz - ko'p bo'lishi, vohanıng suv bilan kanchalik ta'mınlanishi shu muzlikning erishi hajmiga bog'liq.

M.Neveskiy ekspeditsiya mobaynida Samarqand tabiati, o'simliklar dunyosi haqida juda qimmatli ma'lumotlar to'pladi. Unıng 1894 yili e'lon qilingan asarida vohada o'suvchi 25 xil daraxt va butalar ro'yxati, mevali daraxt va butalarning payvandlangan (introduksiyalangan) turlari nomi keltirilgan.

Rus olimi V.M.Oshaninning ikkinchi yirik sayohati 1879 - 1905 yillarga to'g'ri keladi. Bu sayohat davomida asosan hasharotlar to'plandi, entomologık tadqiqotlar o'tkazildn. 1884 yilning iyunida Toshkent gimnaziyalaridan biri o'quvchilarining Zarafshon.vodiysiga

ekskursiyasini uyushtirdi. Uning marshruti Toshkent, Mirzacho'l, O'ratepa, Jizzax, Samarqand va Namangan orqali o'tgan edi. Olim va uning shogirdlarini dehqonlarning sug'orish - shoxobchalarini qurish va foydalanish san'ati, mahalliy - aholining xo'jalik yuritish faoliyati, tabiiy sharoit va hayvonot olami qiziqtirardi.

Zarafshon vodiysi Oshaninda kuchli taassurot qoldirdi. U shunday deb yozadi: "Zarafshonning har ikki qirg'og'i bir - biri bilan tutashib ketgan qishloqlar va bog'- rog'lar bilan to'la, go'yo bu yerlarda eni 25 chaqirim, uzunligi behad bo'lgan bitta shahar o'raganiga o'xshaydi. Bu yerlar tabiatan hosildor, nam ko'pligi tufayli qora ko'rinadigan lyossdan tarkib topgan. Zarafshon bu yerlarni "xoritmaydi", o'zi bilan olib kelayotgan ko'plab mineral jinslarni bu yerga berib, oziqlantiradi..."

V.F.Oshanin Samarqand to'g'risida chuqur hurmat bilan gapiradi. U Samarqand va uning atrofi qalin daraxtzorlar bilan qoplangani tufayli, issiq bu yerda Toshkentdagidek kuchli sezilmasligini yozadi. Uni ayniqsa, Abramov xiyoboni (hozir Gorkiy bog'ida) va istirohat bog'i hayratga soladi. "Bog' va xiyobonga, - deb yozadi Vasiliy Fedorovich, - nafaqat Toshkent, Peterburg ham havas qilsa arziydi". Olim, shuningdek, Samarqandda bog'dorchilik va uzumchilik juda rivojlanganini yozadi.

V.F.Oshanin asarlaridan Zarafshon vohasida paxtachilik va ipakchilikni rivojlantirish bo'yicha bir qator foydali maslahat va tavsiyalarni topish mumkin.

1879 yil qurilajak temir yo'l yo'nalishini belgilash va Amudaryoda kemalar yurishi imkoniyatlarini aniqlash uchun o'tkazilgan kompleks ekspeditsiya xam ulkan ishlarni bajardi. Bu ekspeditsiya tarkibiga graf Rostovsev, injener Lyapunov, professorlar Sorokin va Mushketov, musavvir va adib N.N.Karazin, injener E.O.Sokolovskiy, musavvir Simakov, podpolkovnik N.Maev, Lunevich, Kregmeyr, doktor Valiskiy, zoolog Pel'sam va boshqalar kirdi. Ekspeditsiya ikki guruhda ikki yo'nalish bo'yicha ish olib bordi. 1879 yilning iyunida ekspeditsiyaniig barcha a'zolari Samarqandda yig'iladilar. Bir guruh cho'l bilan Qarshiga yo'l oladi va quruqlik yo'lini o'rganadi, ikkinchi guruh Kitob, Shaar, Yertepa, Kaltanor orqali Darbandga boradi, deb qaror qilinadi. Darbandda uchrashgach, guruhlar yana dasturga muvofiq tadqiqotlarni alohida - alohida olib borishga kelishadilar. Aholining turmush tarzini o'rganish N.N.Karazinga topshirildi. U ekspeditsiyaniig mufassal

yo'l jurnalini to'ldirib borishi lozim edi. Musavvir N.Ye.Simakov esa davomida bo'lgach, Samarqandga qaytishi va uch hafta mobaynida tarixiy obidalarni, asosan, Go'ri Amir, Shohi Zinda, Bibixonim yodgorliklarini o'rganishi va nusxa ko'chirishi lozim edi. Bu ekspeditsiya yakuni bo'yicha katta hajmda ma'lumotlar to'plandi va ular Turkiston o'lkasini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etdi.

2. Turkiston o'lkasining rus olimlari tomonidan o'rganilishi

O'lkaning rus olimlari tomonidan muntazam o'rganilishi XIX asr oxirlaridan boshlandi. Samarqandda (1878 y.), Panjikent, Jizzaxda (1881 y.), Kattaqo'rg'onda (1901 y.), Krasnogvardeyskda (1909 y.) meteorologiya stansiyalar tashkil qilindi. Bu stansiyalarning keng qamrovli ma'lumotlari esa keyinchalik O'rta Osiyoning iqlim xaritasini chizgan L.A.Molchanov tomonidan ishlab chiqildi.

1887 yildan boshlab Turkiston general - gubernatori va yana uch mahalliy viloyat harbiy gubernatorlari huzurida statistika qo'mitalari tuzildi. Ularning tarixiy rolini Samarqand viloyat statistika qo'mitasi misolida ko'rish mumkin. Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risidagi Nizomning 55 - moddasi va Turkiston o'lkasi bo'yicha 1887 yil 29 avgust va 1 oktyabrdagi buyruqlarga ko'ra, Samarqand viloyat statistika qo'mitasi tuzildi. U guberinya statistika qo'mitalari haqidag'i Nizomga ko'ra ishlashi lozim edi. Statistika qo'mitasi huquqi, vazifalari, byudjeti va tarkibiga ko'ra davlat muasasasi bo'lsa-da, u yerda asosan Chor hukumat apparatining quyi zvenosi va mahalliy faol o'lkashunoslar to'plangan edi. Samarqand qo'mitasiga o'z ma'muriy vazifasiga ko'ra uchta doimiy a'zo va mahalliy amaldorlardan 29 nafar haqiqiy a'zo kirardi. Uning doimiy kotibi va bosh tashkilotchisi M.Virskiy edi. Graf K.Palen uni unvoni yuqoriroq kishi bilan almashtirishni taklif etgan. Uningcha, Virskiy o'z ma'lumoti va dunyoqarashiga ko'ra bu vazifani hukumat talabiga mos emas edi. Haqiqatda esa gap statistika qo'mitasining tuzilishida emas, balki ish uslubida edi. qo'mita kotibi M.Virskiy, mahalliy o'lkashunos olim V.L.Vyatkin, V.P.Nalivkin va boshqalar ko'proq fan va o'lkashunoslik bilan shug'ullana boshladilar. Biroq, bu rasmiy hukumat vakillarining fikricha, statistika qo'mitasi vazifasiga kirmasdi. K.Shlenning fikricha, qo'mita asosan Samarqand viloyatidagi barcha tarmoqlar bo'yicha iqtisodiy va xo'jalik hayotiga

oid ma'lumotlarni to'plashi va shu asosda, harbiy gubernatorlar hisobotiga ilova sifatidagi hisobotlar statistika obzorlari tayyorlab, bilan shug'ullanishi lozim edi. To 1891 yilgacha, deyiladi K.Palenning taftish hisobotida, qo'mita bu vazifani yaxshi bajarib keldi. 1891 yildan keyin qo'mita faoliyati ko'p tomonlama kengaydi, nafaqat obzor uchun zarur bo'lgan, balki o'ta ilmiy materiallarni to'play boshladi, tarixchilik va ma'rifatchilik bilan shug'ullana boshladi. Bu Rossiya hukumati manfaatlariga zid edi. Xususan, 1907 yil boshlarida Samarqand viloyati statistika qo'mitasi kutubxonasida 2505 nomda 4877 nusxada kitob bor edi. Faqat 1906 yilda kutubxonaga 167 nomdagi 299 nusxada kitoblar keltirilgandi. 1908 yilda unda 2672 nomdagi 5168 nusxa kitob bor edi. Usha davrga nisbatan bu katta kutubxona edi.

V.L.Vyatkin ilmiy va ijtimoiy faoliyat bilan bir qatorda ba'zi nashrlarga muharrirlik ham qilgan. 1900 - 1907 yillarda u "Samarqand viloyati obzori"dan tashqari, S.A.Lagin yozgan "Ruscha-o'zbekcha lug'at"ning 1-, 2-, 3-nashrlariga muharrirlik qildi, lug'atning 3-nashri 1907 yilda "Russkaya Okraina" bosma-xonasida 3000 nusxada nashr etildi.

Viloyat statistika qo'mitasi boshqaruvchi a'zolari tashabbusi bilan 1908 yili Samarqandning eski shahar qismida maxsus kutubxona ochildi. U Sherdor madrasasi binosida joylashgan bo'lib, mudiri V.L.Vyatkin edi. Kutubxona asosan Chorizm olimlariga, baъzan musulmon aholiga xizmat ko'rsatardi. Kutubxona o'lkaning endi shakllanib kelayotgan demokrat ziyolilari - jadidlar to'planib, munozara qiladigan ma'rifat markazi edi.

Yana shuni alohida ta'kidlash lozimki, statistika qo'mitasi to'plagan barcha materiallar, 1908 yili taftish qilgan senator K.Palen aytganidek o'rtacha, taxminiy edi. Samarqand viloyati statistika qo'mitasi Rossiyaning boshqa guberniyalaridagi Yer ishlari statistika qo'mitalariga o'xshagan idora edi. Uning ba'zi ma'lumotlari aniqligi va to'liqligi jihatidan g'arbiy Yevropa statistikasidan a'loroq edi. Biroq, shuni ham aytish kerakki, bu ma'lumotlar hozirgi paytda tadqiqotchilar uchun juda qimmatli va hatto, Zarafshon vohasining 1887 yildan to Oktyabr to'ntarilishigacha bo'lgan davrdagi ijtimoiy - iqtisodiy tarixini o'rganishning yagona manbai bo'lib qolmoqda.

Statistika qo'mitasi o'z faoliyatining dastlabki kunidan boshlaboq Samarqandning 20 yillik, ya'ni, Rossiyaning uni bosib olgan davri

tarixini yozishga urindi. Bu vazifa qisman bajarilib, materiallar muhokamaga tavsiya etildi. Biroq, tasodifanmi, ataylabmi, Samarqand shahar sobiq shtab boshlig'i (unga qo'lyozma tanishib chiqish uchun berilgandi) uni yo'qotib qo'ydi. Keyin, qo'mita Samarqand tarixiy yodgorliklarini tasvirlab, shu asosda qisqacha lavha chop etishga qaror qildi.

Keyingi yillarda qo'mita ancha qimmatli ma'lumotlar to'pladi va o'z vaqtida ko'pgina atoqli sharqshunoslar ahamiyatini ta'kidlagan ilmiy statistika maqolalarini chop etdi. 1890 yili qo'mita "Samarqand viloyati statistikasi uchun materiallar to'plami"ni nashr etdi. Bu to'plamda ilk bor Zarafshon vohasining 1887 - 1888 yillardagi ijtimoiy - iqtisodiy ahvolini ko'rsatuvchi ba'zi raqamlar berilgan edi. "To'plam"dan, shuningdek, qishloq xo'jaligi, maorif, jo'g'rofiya va o'lka sug'orish tarmoqlari to'g'risidagi o'lkashunoslik ruhidagi bir qator maqolalar ham o'rin olgandi. 1889 - 1912 yillarda qo'mita "Samarqand viloyati obzorlari"ning 23 to'plamini nashr qildi (Samarqand 1890 - 1913 yy.). Bundan tashqari, qo'mita M.Virskiy tuzgan "Turkestanskiy kommercheskiy adres-kalendar v 1898 g."ni ham chop etdi.

Bu manzil - kalendarda Samarqand, Farg'ona, Sirdaryo viloyatlari va Buxoro xonligining savdo - sanoat firmalari to'g'risida juda qimmatli m'lumotlar bor. Bundan tashqari, M. Virskiyning ba'zi asarlari Samarqand statistika qo'mitasi tashkil etilishidan oldin nashr qilingandi. Ularda Zarafshon vodiysi aholisining antropologiyasi (yuz tuzilishi), turmush tarzi, umuman etnografiyasi bo'yicha qiziqarli ma'lumotlar bor edi.

M.S.Andreev, M.Virskiy, I.M.Sluskiy, N.V.Pozdnyakov, N.S.Likoshin, I.Pospelov, V.L.Vyatkin va boshqalarning tarixiy-iqtisodiy xarakterdagi va ba'zi aholi punktlarining madaniy turmush sharoitini yirituvchi turli matbuot organlari va to'plamdarda chop etilgan ilmiy ishlari diqqatga sazovordir.

3. Turkiston o'lkasining ma'naviy-ma'rifiy sohalarini yoritishga oid tarixshunoslikning o'ziga xos xususiyatlari

Samarqand o'lkashunoslari M.Virskiy, I.P.Petrov, V.L.Vyatkin o'lkaning vaqf hujjatlarini o'rganish bo'yicha bir qator maqolalar e'lon qilishdi. Yu.O.Yakubovskiy, N.A.Kirpichnikov, F.Pospelovlarning

asarlari esa Samarqand viloyati hunarmandchiligi tarixi va ahvoliga bag'ishlangan edi.

V.L.Vyatkining (1859 - 1932 yy.) inqilobgacha nashr etilgan ilmiy asarlari eng qimmatli manbalardir. V.L.Vyatkin o'z hayotini, kuch - g'ayrati va bilimini insonlarga bag'ishlagan yirik rus olimi edi. Uning arxeologik maktabi ham, ustozlari ham yo'q edi. U mustaqil o'qigan bilimdon, iqtidorli o'lkashunos edi. Shuning uchuy ham arxeologik qazilmalarni u "fan o'rgatganday" emas, o'zicha olib borardi. V.V.Bartol'd aytganidek, u "Samarqand obidalarining ajoyib bilimdoni" edi.

Vasiliy Lavrent'evich Vyatkin Samarqandga Toshkent o'qituvchilar seminariyasini tugatgach kelgan edi. O'zbek, fors, tojik kabi bir necha tillarni mukammal bilgan bu olim shaharning tarixi, noyob qo'lyozmalarini, vaqfnoma, xalq afsona va dostonlarni yig'ish va tarjima qilish bilan shug'ullandi. B ular unga hanuzgacha o'z qimmatini yo'qotmagan ilmiy asarlar yozish imkonini berdi.

U tarix, iqtisod, madaniyat, etnografiya bilan qiziqdi. Mir Abu Tohir xoja Samarqandiyning "Samariya"sini ruschaga tarjima qildi. So'ng Imom Abdulfozil Muhammad bin Abdujalil bin Abdumalik bin Haydar as Samarqandiyning "Qan-diyoyi Xurd" (Kichik qandiya) asari qo'lyozmasining birinchi qismini tarjima qildi. Bu qo'lyozma Samarqandning turli mozorlari bayonini va shahar tarixiga oid bir qator qimmatli ma'lumotlarni o'z ichiga olgan. Keyin u "Boburnoma"ning ancha qismini, Muhammad Solihning "Risola"sini, Samarqandning bunyod etilishi va tarixiga oid afsonalarni tarjima qilib, e'lon qildi.

V.L.Vyatkin Samarqand joylashuvini ham o'rgandi va "Samarqand viloyati tarixiy jo'g'rofiyasi materiallari" asarida o'z tadqiqotlarining natijalarini bayon etdi. Biroq, yosh tadqiqotchiga oson bo'lmadi. Chor hukumati tarixiy obidalar taqdiriga befarq qarar edi. V.L.Vyatkinning ketma - ket noroziliklari tufayli, aytaylik, yodgorliklarni talash kamaygani, Astraxan vayron bo'lishining, Shohi Zinda binosida naqshlarning olib qo'yilishining oldi olinishi kabi bir necha hollarning o'zigina bu olim to'g'risida ma'lum tasavvur beradi.

Samarqanddagi umri davomida V.Vyatkin Ulug'bek rasadxonasini qidirdi va 1908 yili rasadxona vayronalarini topdi. Rasadxona sekstanti (Vyatkin topgan) hanuzgacha ham o'rta asr falakiyotshunoslari foydalangan eng qadimgi noyob asbob hisoblanadi.

...me'moriy yodgorliklarni tiklash, Afrosiyobda katta qazish ishlarini boshlash, ulkan va boy kolleksiyalar to'plab, Samarqandni muzey holiga aylantirishni orzu qilardi. V.A.Vyatkin orzu qilgan ishlar bugungi kunda ro'yobga chiqmoqda. Bevaqt o'lim olimning orzularini o'zi bilan olib ketdi. Minnatdor samarqandliklar olimni Registon devorlari poyiga dafn etishdi, keyinroq hokini Ulug'bek rasadxonasi yoniga ko'chirishdi. O'rta Osiyo, shu jumladan, Samarqandni tarixiy arxeologik jihatdan o'rganishda sharqshunos olim, akademik V.V.Bartol'd (1869 - 1930 yy.) yetakchi o'rinni egallaydi. U O'rta Osiyo xalqlarining qadimgi va o'rta asrlar tarixini o'rganishning asoschisidir. 1893 yili Peterburg dorilfununi V.V.Bartol'dni qadimiy yozuv va yodgorliklarni joyida o'rganish uchun O'rta Osiyoga yo'lladi. U o'zining birinchi ma'ruzasini 1893 yilning 11 dekabrida aniq fanlar, antropologiya va etnografiya ishqibozlari jamiyati Turkiston bo'limining majlisida qildi. Uning ma'ruzasi Xitoy va O'rta Osiyoning Yettisoy orqali o'tuvchi aloqa yo'lini o'rganishga bag'ishlangan edi. Bartol'd Turkistonda Arxeologiya ishqibozlari to'garagi ochish g'oyasini ilgari surdi. 1895 yilning oktyabrida uning rahbarligi ostida to'garak Nizomi tuzilib, tasdiqlandi. Bu to'garak Chor hukumati tomonidan hech qanaqa mablag' bilan ta'minlanmasdi. 107 nafar to'garak a'zolaridan 16 nafari uning tashkilotchilari bo'lib, ular orasida V.V.Bartol'd, D.M.Levshin, N.S.Likoshin, K.V.Aristov, V.F.Oshanin bor edi.

Tez orada V.V.Bartol'd rahbarligidagi bu to'garak tarixchi va arxeologlarning ilmiy markaziga aylandi. V.Bartol'd esa butun Turkistondagi tarixchi va arxeologlar faoliyatiga rahbarlik qila boshladi. 1899 yilda Samarqand, Ashxobod va Farg'onada to'garakning filiallari ochildi. V.Bartol'dning yordamida 1899 yili V.L.Vyatkin "Samariya" va "Boburnoma"ning tarjimasini nashr etdi.

V.V.Bartol'dning eng kuchli asarlaridan biri "Turkiston mo'g'ul bosqini davrida" (1898 - 1900 y.) edi. Bu asar bilan V.Bartol'd rus tilida O'rta Osiyo tarixini o'rganishda ulkan hissa qo'shdi.

V.V.Bartol'd Temur va temuriylar tarixi bilan shug'ullandi. Bu masalada u Hofiz Abro'ning asarlarini sinchiklab o'rgandi va jug'rofiyun va sharqshunos tarixchilar o'rtasida davom etib kelayotgan O'zboy to'g'risidagi ko'p yillik tortishuvni hal qildi. Asar 1897 yilda chop etildi. Unda Samarqandning XV - XVI asrlardagi tarixiy - jo'g'rofiy rivojlanishiga yetarli tarif berilgan.

Samarqanddagi Bibixonim masjidining qurib bitkazilganining 500 yilligi munosabati bilan (1399 - 1899 yy.) V.V Bartol"d Samarqand va Turkiston o'lkasining boshqa rayonlaridagi tarixiy obidalarni saqlash va tuzatishga bag'ishlangan maxsus ilmiy maqola yozdi. Bu inqilobgacha bo'lgan davrdagi Turkiston o'lkasi tarixiy yodgorliklarini qo'riqlash va tiklash yuzasidan bo'lgan birinchi urinish edi.

1896 - 1901 yillarda V.Bartol'd Peterbug dorilfununini ishlaganida O'rta Osiyo tangalaridan kolleksiya to'plagan, u yerda Samarqand dirhamlariga alohida o'rin berilgan edi. V.V.Bartol'd ilgari fanga ma'lum bo'lgan va ma'lum bo'lmagan Samarqand dirhamlari haqida qator maqolalar e'lon qildi. Bu maqolalarda Samarqand aholisining qadimgi va o'rta asrlardagi tarixi, ijtimoiy - iqtisodiy hayoti aks etgan edi.

V.V.Bartol'dning "Ulug'bek va uning davri", "Turkistonda sug'orish ishlari tarixiga oid" va boshqa ajoynb asarlari bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Olimning shogirdi, SamDD professori, marhum I.I.Umnyakov guvohlik berganidek, V.V.Bartol"d o'zi tanlagan sohasida o'chmas iz qoldiradigan kishilar sirasiga kiradi. Uning ilmiy qiziqishlari qamrovi juda keng edi. O'z asarlarida u Yaqin va O'rta Sharq va ayniqsa, Markaziy Osiyoning o'rta asr tarixini, islom tarixini, qadimgi Arab xalifaligi tarixini, Eron va Afg'oniston tarixi va filologiyasini, tarixiy jo'g'rofiyani, Xitoy va Kavkaz orti tarixini, turkiy va mo'g'ul xalqlari filologiyasi va etnografiyasi tarixini, musulmon epigrafiya va numizmatikasini, manbashunoslik, rus va jahon sharqshunosligi tarixini qamrab oladi.

B.G'.G'afurov, I.I.Umnyakov va boshqa sharqshunos olimlarning taklifiga ko'ra, 1962 yili Moskvadagi Sharq adabiyoti nashriyotida akademik V.Bartol'dning 10 jildlik asarlari to'plami chop etildi. Uni nashrga tayyorlashda tahrir hay'ati Bartol'd asarlarini nashr etish bo'yicha bosh tahrir hay'ati a'zosi bo'lgan professor I.Umnyakov tuzgan "Akademik V.V.Bartol'd asarlarining tavsiflangan bibliografiyasi"dan keng foydalangan. Professor I.I.Umnyakov Leningrad, Moskva, Toshkent arxivlaridan misqollab material to'pladi va natijada V.V.Bartol"dning 460 dan oshiq nomdagi chop etilgan asarini bibliografiyaga kiritdi. Bundan tashqari, I.Umnyakov rus qomusiy lug'atlaridagi 28 maqolani, "Islom qomusi"dagi 246 maqolani hisobga oldi. I.Umnyakov V.Bartol'dning "Dissertasiya himoyasi oldidagi nutq",

"Turkiston mo'g'ul bosqini davrida"ning 5 bobini, Samarqandda 1894 yil yanvardan chiqa boshlagan "Okraina" ro'znomasida bosilgan bir qancha publisistik maqolalarini topdi va bibliografiyaga kiritdi. O'sha davrlarda Samarqand Bartol'dning asosiy o'rganish ob'ekti edi, ular V.Vyatkin bilan Afrosiyobda qazilma ishlarini olib borishar. O'rta Osiyo tarixiy obidalarini qo'riqlash va tiklash ishlari bilan shug'ullanishardi.

Shu yerda bizning tarixiy adabiyotimizda faoliyati to'g'risida hech narsa deyilmagan rus o'lkashunosi Yu.I.Brjeziskiy xususida to'xtalib o'tish joizdir.

O'tgan asrning to 90 - yillarigacha mahalliy dehqonlar qutilarda boqiladigan asalarichilik bilan kam shug'ullanar edilar. Panjikentda xizmatda bo'lgan Yu Brjeziskiy mahalliy aholini bu ishga o'rgatishga qaror qildi. Buning uchun u oyna quti sotib oldi va dehqonlarga arilarni parvarishlashni o'rgatdi. 1890 yili uni Samarqandga o'tkazishdi. Bu yerda ham u sevimli ishi bilan shug'ullandi. Asalarichilikni rivojlantirgani uchun u 1890 yili Samarqand ipakchilik va asalarichilik ko'rgazmasining oliy mukofoti bilan taqdirlandi. 1909 yilgi Turkiston qishloq xojaligi, sanoat va ilmiy ko'rgazmasida esa u Langbragning "Pchela i uley" kitobini mahalliy tilga o'girgani (1910 yili Samarqandda chop etilgan), qutili asalarichilikdagi ko'p yillik faoliyati uchun katta oltin medal' bilan mukofotlandi.

Brjeziskiy Samarqandda madaniyat va maorif muassasalariani ochishga xam katta hissa qo'shdi. Ma'lumki, Samarqanddagi muzey 1874 yilda ochilgan va 10 yil o'tgach, kolleksiyalari Toshkentga berib yuborilgandi, muzeyning ikkinchi tug'ilishi 1896 yilga to'g'ri keladi. Muzey va kutubxona binosini qurishni Brj'ziskiy rahbarlik qiluvchi maxsus qo'mita bajardi. U muzey va kutubxona ishida faol qatnashdi, zoologik kolleksiyalar to'pladi. Yu.Brjeziskiy Samarqand Botanika bog'ining (hozir SamDD tajriba botanika bog'i) asoschisidir. Bu yerda Yu.Brjeziskiy Xitoy, Hindiston va boshqa mamlakatlardan keltirgan turli daraxt va butalar to'plangan edi.

Yu.Brjeziskiyning qo'llab - quvvatlashi natijasida 1911 yili Samarqand ilmiy kutubxonasi (hozir bu binoda Samarqand 1 - bolalar kutubxonasi joylashgan) qurib bitkazildi va kitob fondi ilmiy adabiyotlar bilan to'ldirildi.

Rus sayohatchi rassomi S.Dudinning faoliyati ham o'lkamizning XIX asr oxiri - XX asr boshi tarixi bilan bog'liq. S.Dudin buyuk - rus rassomi

I.Repinning shogirdi edi. U Peterburg Badiiy akademiyasinn tugatgach. O'rta Osiyoga keldi. 1895 yili S.Dudin arxeologiya komissiyasining topshirig'iga ko'ra, Samarqandning tarixiy yodgorliklaridan 200 ta surat ko'chirdi va "Ornament va Samarqand masjidining hozirgi ahvoli" asarini yozdi. U 10 yildan oshiq umrini O'rta Osiyo xalqlari etnografiyasi va amaliy san'atini o'rganishga bag'ishladi. 1905 yili S.Dudin Shohi Zinda mavzoleyida qazish ishlari olib bordi va shu bilan bir vaqtda O'rta Osiyo ganch o'ymakorligi bo'yicha boy kolleksiyalar to'pladi, 1908 yili esa u o'lkaning tarixiy obidalarining suratlarini oldi.

Bu sayohatlar paytida S.Dudin etnografik kolleksiyalar to'pladi, O'rta Osiyo me'morchiligi, yog'och va metall buyumlari va gilamlari haqida maqolalar yozdi, Afrosiyob ganchkorligini o'rgandi. U 4000 dan oshiq turli narsa va amaliy san'at namunalari to'pladi, 2000 surat chizdi.

Shu orada mahalliy o'lkashunoslar ham yetishib chiqdi. Bular Mirzo Buxoriy, Mirzo Abdullaev, Mirzo Barot Mulloqosimov va boshqalar edi. Ular birinchilardan bo'lib o'lkadagi foydali qazilmalarni qidirish va tarixiy yodgorliklarpi o'rg'anishni o'zlashtirib oldilar.

Samarqand Rossiya tomonidan bosib olingach, rus olimlarining bu yerdagi tarixiy yodgorliklarga qiziqishi yanada jonlandi 1870 yilda rus sharqshunosi A.Kun rahbarligida Samarqandda birinchi marta arxeologik qidirishlar va tarixiy yodgorliklarni to'plash bo'yicha anjuman o'tkazildi.

Ammo, Rossiyaning ba'zi amaldorlari shaxsiy boylik orttirish maqsadida qimmatbaho nodir buyumlarni o'zlashtirib olish hollari uchrab turardi.

Toshkent, Buxoro, Samarqand, Ashxobod va boshqa shaharlarda azaldan qadimiy yodgorliklar savdosi mavjud bo'lsa-da, Rossiya istilosidan so'ng Samarqand bunday savdoning markaziga aylandi. "Bu shu bilan izohlanadiki, Zakaspiy harbiy temir yo'li Samarqandga kelib tugardi Va shu bois Rossiya va chet ellardan Temurning qadimiy poytaxtiga ko'plab ziyolilar kelishga intilardi".

Vaqt o'tishi bilan qadimiy osori - atiqalar bilan savdo qilish mahalliy aholiga ham yuqdi. Mahalliy aholi orasida osori - atiqalarni to'plovchidardan biri Mirzo Buxoriy edi. U 2 – gil'diya savdogari, Samarqand, keyinroq Xo'janddagi dastlabki ipak yigiruv ustaxonalarining egasi edi. ipak bilan va boshqa mollar bilan yirik savdo qilardi. Biroq, uning bu ishlari qadimgi noyob buyumlar yig'ishga hech xalaqit

bermasdi U 1878 va 1886 yillardagi Toshkent va 1887 yilgi Xar'kov ko'rgazmalarining qatnashchisi va sovrindori edi.

Mirzo Buxoriy 1883 yili I.I.Veselovskiy bilan tanishadi. U o'zbek ziyolisining bu ishga qiziqishini orttiradi. B.V.Luninning xabar berishicha, rus olimi Mirzo Buxoriydan 1883 yili 1202 ta buyum sotib oladi Ular orasida 11 ta tilla, 77 ta kumush va 951 ta mis tanga, 13 ta mis sirg'a, 3 ta haykalcha, 18 ta muhr, odam na hayvonlar tasviri tushirilgan 6 ta tosh bor edi.

1887 yilda Xar'kov ko'rgazmasidan keyin Mirzo Buxoriy Moskva bilan Peterburgda bo'ldi, bu yerlarning numizmat olimlari bilan yaqindan tanishdi. oddiy buyum yig'uvchidan o'lkashunosga aylandi. Ko'p hujjatlarning guvohlik berishicha, Mirzo Buxoriy (1893 yil bezgakdan vafot etgan) umrining oxirigacha o'z faoliyatini davom ettirdi va o'lkani o'rganishga o'z hissasini qo'shdi. U 1889 yilning 6 iyunida Arxeologiya komissiyasi nomiga yuborgan maktubida shunday yozadi: "Ko'p yillardan buyon qadimiy buyumlarni yig'ib kelaman va juda katta mukofot kerak emas men har holda Rossiyaning fani va umummanfaati uchun harakat qilyapman. Aynan Turkiston o'lkasida shug'ullanganim ma'nisi shuki, mahalliy aholimiz qadimiy buyumlarni qadrlashni o'rganishi lozim".

Mirzo Buxoriy Furqat bilan shaxsan tanish edi. Bu haqda akademik Ibrohim Mo'minov shunday deb yozadi: 1891 yili Furqat Samarqandda bo'ladi va Mirzo Buxoriynikida yashaydi. "Furqat O'rta Osiyo madaniyati darajasini ko'rsatuvchi qadimiy buyumlarni zo'r diqqat bilan ko'zdan kechiradi, - deb yozadi I.Mo'minov. - Furqat bu haqda Turkiston viloyati ro'znomasi"da 1891 yil avgustda bosilgan xatida yozadi Qadimiy buyumlarning yana bir ishqibozi Mirzo Barot edi. Mirzo Barot Mullo Qosimov olim, tarjimon va kalligraf - hattot edi. Uning nabirasi Faxriddin Baratovning xabar berishicha, Mirzo Barot Mulloqosimov taxminan XIX asrning birinchi yarmida Samarqandning Mahdum Xorazmiy mahallasida tug'ilgan. U bolaligidan arab va fors tillarini o'rgandi, kalligrafiya turlari bilan qiziqdi. Uning kalligrafiya bo'yicha oxirgi ustozi mashhur Samarqand kalligrafi Mirzo Hoji Samarqandiy edi. XIX asrning 50 – 60 - yillarida Mirzo Barot atoqli olim va rangli kalligrafiyaning ustasi sifatida mashhur edi. U Samarqanddagi birinchi rus - tuzem maktabining birinchi o'qituvchilaridan edi. Mirzo Barot uch yil davomida ona tili va husnixatdan dars berdi. Ish borasida u O'rta Osiyoning tadqiqotchilari, rus olimlari bilan yaqindan tanishdi.

Manbalar Mirzo Barotning N.Veselovskiy bilan yaqin munosabatda bo'lganidan guvohlik beradi. N.Veselovskiy 1885 yilda 4 oy mobaynida Afrosiyobda qazish ishlarini olib bordi. Shu davrda rus olimi Mirzo Barot bilan tanishdi va uni Samarqand tarixi bilan jiddiy shug'ullanishga ko'ndirdi, ayniqsa, Samarqandning tarixiy yodgorliklaridagi arab yozuvlarini ko'chirib, o'rganishga undadi. Bunga ular o'rtasida bo'lgan 1886 yilgi yozishmalar ham guvohlik beradi. Mirzo Barot Mullo Qosimov ajoyib musavvir va kalligraf sifatida birinchilardan bo'lib ranglarga aniq rioya qilgan holda Sherdor madrasasi, Bibixonim, Go'ri Amir qabr toshlari, Shohi Zinda devoridagi va undagi qabr toshlaridagi hamma yozuvlardan ko'chirmalar oldi. Jizzax uezdidagi "Temurlang darvozasi" qoyasidagi ikki yozuvdan ham ko'chirma oldi. 1886 yili Mirzo Barot Ulug'bek madrasasi chizmasini tayyorlab, Tashkent ko'rgazmasiga qo'ydi. Ulug'bek madrasasining bu chizmasi va lavhalar 1944 yil 9 dekabrda rassomning nabirasi Faxriddin Barotov tomonidan O'zbekiston Fanlar akademiyasiga sovg'a qilindi.

Mirzo Barot Toshkent ko'rgazmasida boshqa ko'plab mahorat bilan bajarilgan qur'oniy, kufiy va kitobiy usuldagi kalligrafik ishlari bilan qatnashgan. Ma'lumki, O'rta Osiyo ustalari shuhratini olamga yoygan Samarqandning tarixiy obidalari ana shu uslublarda bezatilgan edi. Mirzo Barot tibbiyot, tarix va islomshunoslikning ham bilar edi edi. Bunga uning Samarqanddagi Bazarov bosmaxonasida chop etilgan "Sharxi Islom" asari guvohlik beradi. Bu asarda muallif islom dinining afzal jihatlarini qiyosiy tahlil qilib bergan. Mirzo Barot shariat qonunlarini yaxshi bilganidan, uning Qur'on suralarini bilimdonlarcha tahlil qilgani ham guvohlik beradi. Bu asar muallifning ijtimoiy hayotga qarashlarini aniqlashga yordam beradi. Mirzo Barotning kasbi noyob kasb bo'lsa-da, o'sha davrda mehnatiga unchalik ko'p xaridor buyurtmachilar topmagan. U, kalligraf va rassom sifatida yetarli qadrlanmaganligini ham ta'kidlab o'tish joiz. U umrining so'nggi yillarini qashshoqlikda o'tkazdi, yorug kunlarga yetmay, 1888 - 1889 yillar orasida Samarqandda vafot etdi. Mirzo Barotning kasbini o'g'li Kiromiddin Baratov davom ettirdi. U shuningdek, kitoblarni qayta ko'chirish, she'r yozish bilan ham shug'ullangan. K.Barotov 1886 yili Samarqand bosmaxonasiga harf teruvchi bo'lib ishga kiradi. Oktyabr inqilobidan so'ng esa Sho'ro hukumatini qo'llab - quvvatlagan bosmaxona ishchilari safida bo'ldi. U Abu Tohir Xojaning "Samariya"sini tojikchadan o'zbekchaga ag'dardi. Bu tarjima 1884 yili N.P.Ostroumov tomonidan Toshkentda chop

etildi. Rus olimi G.D.Romanovskiyning 1879 yilda o'lkaning tog'li rayonlarida o'tkazgan ilmiy ekspeditsiyalarida unga xo'jandlik Mullo Sangin yordamchi va yo'l boshlovchi bo'lgan.

Shunday qilib, mashhur rus olim va sayohatchilari - A.P.Fedchenko, I.V.Mushketov, T.D.Romanovskiy, V.V.Bartol'd, V.L.Vyatkin va boshqalar O'rta Osiyo xalqlari tarixi, madaniyatini o'rganish va umumlashtirishga ulkan hissa qo'shdilar. Bu olimlardan ko'plari mahalliy aholi bilan do'stona, iliq munosabatda bo'lib, uning hayotini yengillashtirish, tarixi va madaniyatini o'rganishni istashar edi. Rus ziyolilarining ilg'or vakillari xalq maorifi, sog'liqni saqlash, san'at va adabiyotga ulkan hissa qo'shish bilan birga Turkiston o'lkasi mahalliy xalqlaridan ham bilimdon kishilar yetishib chiqishiga hamkorlik ko'rsatdilar. O'zbekistonning atoqli olimi va jamoat arbobi T. N. Qori Niyoziy aytganidek, "ba'zan aqlga sig'mas to'siqlarni yengib o'tgan bu olimlarning chidamiga qoyil qolmay iloj yo'q. Ana shu fan zahmatkashlarining xayrli mehnati oqibatidagina, ulkan ish davom ettirildi va Turkiston o'lkasini jo'g'rofiy, zoologik, botanik va geologik jihatdan o'rganish boshlandi".

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Tarixiy bilimlarning rivojlanishida Tatarinov esdaliklari ahamiyati qanday bo'lgan?
2. A.L.Kun vaqf hujjatlarida keltirilgan ma'lumotlarga to'xtalib o'ting?
3. "Iskandarko'l safari kundaligi" asari muallifi kim va bu asarning ahamiyati nimadan iborat?
4. Rossiya tomonidan olib borilgan arxeologik ekspeditsiyalar va yodgorliklarni talash siyosati?
5. Tarixshunoslikda Rossiya tomonidan olib borilgan topografik ekspeditsiyalar qanday ahamiyatga ega?
6. M Nevskiy ekspeditsiyasi asosiy maqsadi nimadan iborat bo'lgan?
7. V.M.Oshaninh sayohati natijasida tarixshunolikda qanday dalillar tarkib topdi?
8. Tarixshunoslikda statistika qo'mitasi materiallari ahamiyati bo'yicha to'xtalib o'ting?
9. K.Palen taftishining o'ziga xos tomonlari nimalarda edi?

MAVZU № 12. MUSTABIDLIK DAVRI TARIXNAVISLIGINING VUJUDGA KELISHI VA RIVOJLANISHI. TURKISTONDA ROSSIYA HUKMRONLIGINING O'RNATILISHI MUAMMOLARI

REJA:

1. Mustabidlik davri tarixnavisligining vujudga kelishi va rivojlanishi
2. 1917-1945 yillarda tarixi tarixshunosligining muammolari
3. Sho'rolar davri tarixshunosligining o'ziga xosligi
4. Turkistonda Rossiya hukmronligining o'rnatilishi bo'yicha tarixiy bilimlarning rivojlanishi

Tayanch so'z va iboralar: Oktyabr to'ntarishi, mustamlikachilik, istilo va uning oqibatlari, Rossiya tajovuzi, "Turkiston tarixi", ijtimoiy-siyosiy tafakkur, "progressiya" ahamiyat, "bir yoqlamalilik", "O'rta Osiyoda inqilob", milliy ozodlik harakati, Sharqdagi siyosat, "sotsialistik inqilob", dogmatik oqim, xolislik, tarixiy rivojlanish yo'li, "qo'shib olinishi", do'stlik aloqalari, tarixiy bilimlarning rivojlanishi

1. Mustabidlik davri tarixnavisligining vujudga kelishi va rivojlanishi

1917 yil oktyabr davlat to'ntarishiga qadar bo'lgan davrda tarix fani juda sust sur'atda rivojlandi. Chunki hukmron doiralar bu jarayonni atayin to'htatib turishga harakat qilar edilar. O'sha davr tarixiy asarlarining ko'pchiligida Rossiya markazidan chiqqan tadqiqotchilar mustamlakachilik siyosatini maqtab targ'ib qilar, mahalliy ilmiy kadrlar esa nihoyatda oz, bori ham bu borada yozishga jazm eta olmas edi. O'rta Osiyo yerlarining bosib olinishi rus kapitalizmi uchun istilochilik jihatidangina manfaatli bo'lganligi haqida so'z yuritilardi xolos. Jug'rofiya, geologiya, iqtisodiyotga oid izlanishlardan faqat Turkiston o'lkasini va vassal xonliklarni ekspluatatsiya qilinishini kuchaytirishga yordam beradiganlarigina rag'batlantirilar edi. Chor senzurasi istilo va uning oqibatlariga tegishli tarixiy-siyosiy asarlarning chop etilishiga yo'l qo'ymas edi.

Bundan tashqari: mustamlakachilarning bostirib kirishi va Chorizm hukmronligining' o'rnatilishi haqida bu jarayon bilan bog'liq voqealar

tinqqanidan so'ng, ularning rivojlanish tabiati va dinamikasi namoyon bo'lgach, ya'ni "vaqt omili" yuz ko'rsatgandan keyingina hukm chiqarish mumkin bo'lardi. Shu bois oktyabr to'ntarishigacha bo'lgan ko'pgina asarlarda dalillar ilmiy tahlil etilmasdan keltirilishi ko'proq ko'zga tashlanadi. Ularning ko'pchiligini tadqiqot deb bo'lmaydi, zero, ularda publitsistik ruh kuchli bo'lib, buyuk saltanatchilik kayfiyati ustun turar edi. Istilo jarayonida bevosita ishtirok ettan ayrim mualliflar siyosatdan ko'ra ko'proq harbiy masalalarda ixtisoslashgani sababli, o'zbeklar, qozoqlar, tojiklar va boshqa O'rta Osiyo xalqlarining iqtisodiy, madaniy hayotini chuqur tadqiq etish, ijtimoiy ongini o'rganish o'rniga etnografik mulohazalarni, ekzotik lavhalarni bayon etishga berilib ketishar edi.

Istilo va uning oqibatlari muammosini tadqiq etish puxta nazariy asosga ega emasdi. Dalillar va ma'lumotlarni to'g'ri yig'ish va ularning ustida ishlash uslubiyati yaratilmagan edi. Shu bois yozilgan tarixiy asarlarda materiallarni to'plash hamda xulosalar chiqarish muayyan mualliflarning sub'yektiv qarashlariga bog'liq bo'lib qolganligi ajablanarli emas. O'quvchini chorizm O'rta Osiyoga "tsivilizatsiya" olib kirganiga ishontirishga harakat qilgan M.A.Terentьevning uch tomlik yirik asari shunga misol bo'la oladi1.

XIX asrning ikkinchi yarmi — 1917 yil Oktyabr davlat to'ntarishiga qadar Turkistonda chor Rossiyasi tajovuzi va mustabid tuzumi xolisona o'rganilmadi. Bu masala yoritilgan taqdirda ham, Chorizmning mustamlakachilik siyosatini ko'klarga ko'tarib maqtashdan nariga o'tilmas edi. Bunda masalaning ijtimoiy-iqtisodiy tomonini ko'rsatish o'rniga, harbiy tarixga oid ko'pdan-ko'p dalillar keltirish bilan cheklanilar edi. Bunday asarlarning mualliflari ham, turgan gapki, ko'proq harbiylardan iborat edi[1].

Shu o'rinda "O'zbekistonning yangi tarixi" - 1 - kitobi "Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida" keltirilgan fikr - mulohazalarni keltirish o'rinlidir. Ya'ni o'sha davrga mansub tarixiy - ilmiy kitoblarda ularning mualliflari asosan boshqa xalqlarni talashdan, ezishdan manfaatdor bo'lgan dvoryan-pomeshchiklar, zobitlar, savdo-sanoat korchalonlari, nufuzli amaldorlar bo'lishgan. Ular o'z asarlarida ko'proq Rossiyaning Turkistonda qo'llay boshlagan iqtisodiy - siyosiy

[1] Ахмаджонов Ф.А. Россия империяси Марказий Осиёда. Т., 2003. -54

zug'umlarini oqlash, saltanat hukmron doiralarining manfaati nuqtai nazaridan o'lkani o'zlashtirish bo'yicha yana qanday tadbirlar ko'rish zaruratini bahs etganlar Maqsad, yetakchi yo'nalish, qanday bo'lmasin, saltanatning Turkistondagi tajovuzi va mustabid tizimni g'oyaviy asoslashga, ya'ni "ikkinchi rus Turkistoni"ni barpo etish uchun zarur yo'nalishlarni belgilashga qaratilishi bilan bog'liq edi[1].

N.G.Pavlovning XX asr boshlarida chop etilgan "Turkiston tarixi" kitobida ham Rossiyaning Sharqdagi siyosatiga muayyan maqsadlar asosida bir yoqlama baho berish uchun juda ko'p joy ajratilgan. Shu bilan bir qatorda O'rta Osiyoda o'troqlashib qolgan ba'zi mualliflar mahalliy xalqlarning madaniy va ijtimoiy hayotini o'z asarlarida bir muncha tushunib ifoda etganlarini ham ko'rsatib o'tish zarur.

Turkistonning bosib olinishi bilan shug'ullanuvchi har qanday tarixchi XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida O'rta Osiyo xalqlarining ijtimoiy - siyosiy tafakkuri masalasiga murojaat etmay iloji yo'q. Bu tarixiy davrning ijtimoiy - siyosiy tafakkuri avvalo badiiy adabiyot namunalarida o'z aksini topgan. Huquqi toptalgan dehqonlar ommasining og'ir ahvoli haqida Ahmad Donish, Furqat, Muqimiy, Toxtagul, Durdi Qilich va boshqa demokrat-ma'rifatparvar yozuvchilar hamda olimlar ko'p va xo'p yozishgan. Ularning asarlari hanuzgacha O'rta Osiyo xalqlari orasida sevib mutolaa qilinadi, kuyga solinib qo'shiq tariqasida og'izdan - og'izga ko'chib yuradi O'sha davrning bu ilg'or kishilari Turkistonda chorizm hukmronligi o'rnatilishining ayrim ijobiy tomonlarini ham ilg'ay bilishgan. Masalan, Furqat Rossiya davlatiga kiritib olinishi natijasida xonliklar va bekliklar o'rtasidagi urushlar barham topganligi, O'rta Osiyo va Rossiya o'rtasida qizg'in o'zaro manfaatli madaniy muloqotdan mamnunlik hissini ifodalaydi. Ammo buning orqasidagi Rossiya olib kirgan iqtisodiy va siyosiy istibdod oqibatlarini ko'ra bilmaganini ham aytib o'tish darkor.

1917 yildan 30 - yillarning boshlariga qadar - sovet tarix fanining tarkib topishi va rivojlanishi davri hamda tarixnavislikka oid materiallarni to'plashga kirishish davri hisoblanadi. O'sha yillari Oktyabrgacha bo'lgan davrda hukmron tarixnavislik hisoblanmish dvoryanlar burjuali- beralcha tarix faniga qarshi kurash keskin tus olgan

[1] "Ўзбекистоннинг янги тарихи" 1-китоб Туркистон чор Россияси мустамлакачилиги даврида. Т., 2000, 8-9-б.

edi Zero, bu soha Oktyabr to'ntarishidan keyingi dastlabki yillardanoq g'oyaviy tanazzulga yuz tuta boshladi.

B.Sulaymonov va B.Ya.Basin kabi qozoq tadqiqotchilari "Qozog'iston Rossiya tarkibida" nomli asarlarida 20-yillarda, hatto urush oldi yillarida ham ko'pgina mualliflar Qozog'iston va O'rta Osiyoning Rossiya tarkibiga kiritilishi muammosini faqat Chorizmning mustamlakalarni bosib olishi tomonidan yoritib, mazkur jarayonning oqibatlarini hisobga olmagan, degan mulohazani o'rtaga tashlashadi. Ayni vaqtda, bu mualliflar Qozog'istonning Rossiyaga qo'shilishi asrimizning 20-yillarida "mutlaqo zulm", 30-yillarda "arzimas zulm" deb qaralganidan afsus chekib va 40-yillarga kelibgina Qozog'istonning Rossiyaga qo'shilishining "progressiv" ahamiyati tan olinganini olqishlaydilar.

Qanday bo'lmasin, Rossiyaning O'rta Osiyodagi siyosatiga bog'liq ishlarining ko'p qismi M.Pokrovskiy ta'siri ostidagi markschi tarixchilarning yangi avlodi tomonidan yaratildi. Mazkur tarixiy tadqiqotlarda asosiy urg'u Chorizm tomonidan O'rta Osiyoning bosib olinishi masalasiga qaratilgan edi. Keyinchalik ta'kidlanishiga ko'ra, bunday "bir yoqlamalilik" muammoning asl mohiyatini va murakkab tomonlarini inkor etishga olib kelib, O'rta Osiyo va Qozog'istonning Rossiya tarkibiga kiritilishining ijobiy natijalarini O'rta Osiyo va rus mehnatkashlari ommasining Chorizmga qarshi birgalikdagi kurashini O'rtanishdan chetga chiqib ketishga majbur qilar emish.

M.N.Pokrovskiyning asarlaridagi kamchiliklar ana shu tariqa "fosh" qilindi. O'sha yillarda uning qoidalari bunchalik o'tkir tanqid ostiga olinishi go'yoki yangi markscha tarix fanining rivoji o'laroq yuzaga kelgan edi. G.A.Hidoyatov 1934 - 1935 yillarda qabul qilingan tarix fanidan ta'lim berish to'g'risidagi partiya va hukumat qarorlarida "Pokrovskiy xatolari" haqida hatto og'iz ham ochilmagan. Pokrovskiyning xato qoidalaridan qutulib chiqish, ularning tanqidiy o'rganilishi tarix fanining taraqqiy topganligi, uning shiddat bilan olg'a harakat qilganligi sababli yuz berdi, deb isbotlashga urinadi[1]

Aslida esa, M.N.Pokrovskiyning ijodiy-ilmiy merosiga yondashuvda markschi tarixchilar o'z ustozlari V.I.Leninning "tarixiy xizmatlar" degan qoidasini unutib quyib, oimni nohaq badnom qilgan edilar.

[1] Аҳмаджонов Ф.А. Россия империяси Марказий Осиёда. Т., 2003. -56-59

2. 1917-1945 yillarda tarixi tarixshunosligining muammolari

Oktyabr to'ntarishidan keyingi dastlabki ikki o'n yillikda Rossiya tomonidan O'rta Osiyoning istilo qilinishi masalasi bo'sh tadqiq etilgan bo'lsa-da, bu mavzuning ayrim masalalari yuzasilan vaqti-vaqti bilan turli asarlar chop etib turildi. 1927 yilda Toshkentda S.P.Pokrovskiyning Rossiya bilan Buxoro amirligi o'rtasidagi siyosiy aloqalarga doir masalalar yoritilgan asari chop etildi , inqılobdan avvalgi Turkistonning ijtimoiy hayoti A.A.Semenov, P.Galuzo, V.Lavrentьev asarlarida ifoda topdi .

Tarixiy jarayonni o'rganishga sinfiy yondashuvning sun'iy ravishda tiqishtirilishi natijasida o'lkadagi inqılobıy harakatni mahalliy mehnatkashlar ommasining Rossiya proletar harakatiga qo'shiluvi, deb zo'rma-zo'raki talqin qilishiga e'tibor kuchaytirilgan edi. Shu tariqa "O'rta Osiyoda inqilob" degan ikkita to'plam va S.Muraveyskiy hamda Ye.Fedorovning O'rta Osiyodagi iiqilobiy va milliy ozodlik harakatıga doir asarlari paydo bo'ldi.

20-30 - yillarda e'lon etilgan asarlar hajm jihatidan kichik - kichık bo'lib, bu daliliy materiallardan yetarli foydalanilmagani tufayli yuzaga kelgan edi. Voqealarni izohlashda, shuningdek, Chor qo'shinlarining Turkistonga bir muncha oson kirib kelishiga sabab bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy omillar yetarli e'tiborga olinmas, ayrim O'rta Osiyo o'lkalari nima sababdan Rossiyadan madad kutib, uning tarkibiga "ixtiyoriy qo'shilganligi" sabablariga aniqlik kiritilmay o'tib ketilar edi. Keyinroq tasdiq etilishicha esa, Rossiya tarkibiga rus bo'lmagan xalqlarning kiritilishi natijasidagi "shak-shubhasiz ijobiy holatlar" ham biron - bir dalil-isbotsiz inkor etilgan, Rossiya va Angliya raqobati tufaylı bu mintaqadagi xalqaro ahvol mavzui ham yetarlıcha talqin qilinmagan. Keyinchalik ham tarixchilarning adashıshlarını "M.N.Pokrovskiy maktabi"ning Rossiya o'z hududini chet o'lkalar hisobiga kengaytırishi "mutlaqo zulm" deb baholanishi sababli yuz bergan, degan mulohazalarning keti uzilgani yo'q.

Urushdan oldingi davr va hatto 1941 yilda ham XIX-XX asrlardagi O'rta Osiyoga daxldor uslubiyat jihatidan bo'sh tadqiqotlarni nashr etısh davom etaverdi. Hatto shu davrning jiddiy tadqiqotchilari P.G.Galuzo, V.Lavreitьev, N.N.Yakovlev, Ye.G.Fedorov kabilar ham Turkistonning bosib olinishi muammosini va xalqlar hayotidagi ijtimoiy - iqtisodiy

o'zgarishlarni bir tomonlama, Chorizm tomonidan chet o'lkalarning istilo etilishi va bu hodisaning go'yoki ijobiy jihatlarini hisobga olish asosida yoritdilar1.

Rossiyaning O'rta Osiyoni bosib olishi Rossiya imperiyasining tashqi siyosati masalalariga, uning boshqa davlatlar bilan, jumladan Sharq mamlakatlari bilan munosabatiga bevosita aloqador ekanlıgini hisobga olinadigan bo'lsa, ikkinchi jahon urushiga qadar bu masalalar chorizmning Yevropaga, hatto Yaqin Sharqqa oid siyosatiga nisbatan ancha kam tadqiq etilganini ko'rish mumkin. Sovet tarixnavisligidagi bu bo'shliqni 1939-1940 yillardayoq AL.Popov ko'rsatib o'tgan edi. Uning qalamiga mansub "O'rta Osiyo plzts- darmi uchun kurash"1 nomli-maqolalarini Chorizmning Sharqdagi siyosati masalasi yuzasidan O'rta Osiyo muammosini chuqur amaliy tadqiq etilgan dastlabki asarlar qatoriga qo'yish mumkin. To'g'ri, bunga qadar ham Ye.N.Kushevaning "O'rta Osiyo masalasi va XIX asrning 40-yillarida rus burjuaziyasi" , Z.D.Kastelskayaning "O'rta Osiyoda ingliz-rus raqobati tarixiga doir (XIX asrning birinchi yarmidan 1907 yilgacha)" nomli maxsus maqolalarida Rossiya siyosati va O'rta Osiyoga oid ingliz - rus munosabatlari masalalari ko'rib chiqilgan edi, ammo, ular mulohazalarning shartliligi, materialni yuzaki bayon qilinishi bilan ajralib turadi[1].

Ayrim tadqiqotchi olimlar tarixiy jarayonni partiya tizimlari ularning ongiga singdirib yuborgan e'tiqod asosida O'rtanar va ko'p millatli Rossiya tarixi faqat Lenin asarlaridagina chuqur ilmiy tahlil etilgan. markazda va chekka o'lkalarda "sotsialistik inqilob" g'alaba qilganligining qonuniyatlari ochib berilgan, ilgari "qoloq" bo'lgan xalqlarning to'g'ridan-to'g'ri sotsializmga o'tish yo'llari belgilab berilgan, ko'p millatli sovet davlati tuzilishining tarixiy zarurligi va buning tarixiy ahamiyati asoslab berilgan, tarixda birinchi bo'lib milliy masalani hal etish yo'l-yo'riqlari ko'rsatib berilgan, deb ishonar edilar. Go'yo bularning hammasi sovet tarixchilariga milliy o'lkalarning Rossiya tarkibiga qo'shilishining progressiv tomonlarini urushgacha yillardayoq to'g'ri tushunish va anglab yetish imkonini bergan emish. Ayni chog'da Turkiston, Xiva, Buxoroda XIX asrning ikkinchi yarmida Chorizm hukmronligi o'rnatilishini to'g'ri yoritish sari dastlabki qadamlar qo'yilgan-

---

[1] Ахмаджонов Ф.А. Россия империяси Марказий Осиёда. Т., 2003. -60

ligini hisobdan chiqarib tashlash noto'g'ri bo'lardi.

Sho'rolar davri tarixchilarning yangi salafi shakllanishida "Yangi Sharq", "Proletar inqilobi", "Xorijiy Sharq" kabi jurnallarning ahamiyati katta bo'ldi. Ularning sahifalarida tadqiqotchilardan N.Narimonov, M.Pavlovich va boshqalar maxsus maqolalari bilan chiqishgan edi. Mahalliy, ammo, tub millat vakili bo'lmagan mualliflarning Turkiston to'g'risidagi umumlashtiruvchi maqolalari paydo bo'ldi. Ulardan ayrimlari (masalan, G.Safarov) keyinchalik KPSS milliy siyosatini tushunmaslikda ayblandilar.

Bundan tashqari, mazkur murakkab sohani tadqiq etmoq uchun malakali, shu jumladan mahalliy millat vakillaridan yetishib chiqqan tarixchilarning katta guruhi talab qilinar edi. Sovet tarixchilarining yangi avlodini voyaga yetkazish vazifasi qo'yilib, uning muhim ahamiyatga molikligi O'rta Osieda ayniqsa, mafkura sohasida go'yo sinfiy qarama-qarshiliklar boshqa mintaqalardagiga nisbatan ancha uzoq vaqt saqlanib kelayotganligi bilan izohlandi.

Xalq og'zaki ijodiyoti vakillari orasida Sho'rolarni madh etuvchi oqin va baxshilar qatorida milliy ruhni saqlab qolgan, Rossiyaning O'rta Osiyoga bostirib kirishini haqqoniy ifoda etgan ijodkorlar ham bor edi. Ular ana shu tarixchilar nazarida go'yo ruslarga qarshi kayfiyat uyg'otuvchi, Rossiyaning O'rta Osiyoni qo'shib olishining mohiyatini "buzib ko'rsatuvchi" ijodkorlar hisoblanardi. Katta avlodga mansub sharqshunoslar, masalan, V.V.Bartolьd o'z hayotining oxirigacha tarixiy taraqqiyotning markscha-lenincha talqin etish tamoyillarini qabul qilmaganligi yangi yetishib kelayotgan tarixchilarga maktab rolini o'tashi mumkin edi. Ammo, amalda buning aksi bo'ldi. Partiya mafkurasi faqat markscha-lenincha maktabni tan olardi, xolos.

Gumanitar olimlar orasidan sun'iy ravishda yaratilayotgan mafkurachilar tabaqasi nazarida go'yo tarixiy materializm uslubiyati bilan yetarli darajada qurollanilmasa, tarix fanida dogmatik oqimning kuchayuviga va ijtimoiy hayotning dialektik ravishda taraqqiy etishini inkor qilinishiga olib kelar edi.

40-yillarga kelib O'rta Osiyoning o'tgan asrning oxiri va asrimizning boshlaridagi iqtisodiy-siyosiy va ijtimoiy hayotiga oid ilmiy nashrlar soni ancha ko'paydi . Afsuski ularda ham avvalgi yillarda yo'l qo'yilgan kamchiliklar batamom tugatilmagan edi. Hatto, K.Jitov va V.Nepomninning "Mustamlaka asoratidan — sotsializm sari"

nomli monografiyalarida ham go'yo keng daliliy hujjatlar asosida o'zbek xalqining "sotsializm g'alabasi sari" bosib o'tgan yo'li umum-[illegible] ko'pgina xato xulosalarga ham yo'l qo'yilgan. Misol uchun XIX asrning ikkinchi yarmidagi voqealar shu tariqa yoritiladiki, go'yo butun O'rta Osiyo xalqlari rus qo'shinlariga qarshi ayovsiz jang qilgan edi, degan xulosa paydo bo'ladi. Holbuki, Turkistonda Rossiya hukmronligini o'rnatish turli joylarda turlicha kechgan. Haqiqatan ham, qo'lda qurol bilan bosqinchilarga qarshilik ko'rsatishgan yerlar ham, aholisining bir qismi rus bosqiniga befarq qaragan joylar ham, bir guruh sotqinlar butun aholi nomidan rus xalqiga qasamyod qabul qilgan mintaqalar ham bor edi.

Kitobda rus burjuaziyasining maqsadi O'rta Osiyoning qulay ob-havo sharoitini hisobga olib, bu diyorni paxta yakkahokimligi o'rnatiladigan hududga aylantirishdan iborat edi, deyiladi. Ammo kapitalistlar xuddi shu O'rta Osiyoning boy xom ashyolarini, masalan yer osti qazilmalarini ham olib chiqib ketish maqsadida ekanligi, ko'mir, mis, tuz va temir konlaridan boylik orttirishni yo'lga qo'yib yuborganliklari haqida lom-mim deyilmaydi.

K.Jitov va V.Nepomninlarning bu tadqiqotlari ana shu kamchiliklarga qaramay, Turkistonni bosib olinishining iqtisodiy, siyosiy oqibatlarini o'rganish uchun o'z zamonasiga nisbatan yondashganda, boshqalarga qaraganda bir muncha dadilroq mushohada va xulosalari bilan [illegible] turishi va sovet tarixchilarining keyingi tadqiqotlari uchun turtki vazifasini bajarishga o'xshashi mumkin. Ammo bu mualliflar butun [illegible] izlanishlari davomida bolshevistik yondashuv va uslubiyatni tarix faniga tiqishtirishga urinishdan nari bormadilar.

Ayni chog'da, 30-yillarda yaratilgan tarixiy asarlarda O'rta Osiyoning Rossiya tarkibiga kiritib olinishining "ijobiy ahamiyatini ko'ra bilmaslik" go'yoki o'sha davr tadqiqotchilari "Rossiyada istiqomat qiluvchi xalqlarning munosabatlarida ularni ayirib turuvchi hodisalargina ko'rib", "bu xalqlarning tarixan yaqinligi va birdamligini" isbotlovchi dalillarni har qanday yo'l bilan kamsitishga harakat sifatida baholangan. Bu o'sha qatag'onlar avj olgan yillar uchun tabiiy bo'lgan [illegible] amaliy ifodasi edi xolos. Keyinchalik bunday safsatalar [illegible] chuqurlashtirilib, ayrim mualliflar Chorizmni rus xalqi bilan bir [illegible] etganlikda, Chor Rossiyasi bilan inqilobiy Rossiya o'rtasida-[illegible] ajrata olmaganlikda ayblandilar. Emishki, ular rus Chorizmi

siyosati ortidagi hodisalarning boshqa tomonini — Rossiya xalq ommasining zulmga qarshi, shu jumladan milliy va mustamlaka zulmiga qarshı kurashını ko'ra bilmadilar. Bu mualliflar Turkistonning Rossiyaga qo'shilishi tufayli O'rta Osiyo xalqlari rus xalqi siymosida ob'yektiv ravishda qudratli ittifoqdosh orttirib olganligini va u Rossiyadagi barcha xalqlarning ijtımoiy va milliy ozodlik kurashlariga yetakchilik qilganligini anglab yetmagan[1].

Muammoni tadqiq etishdagi xatoliklarni "tanqid" qilish bo'yicha bunday og'ishlar urushdan avvalgi davr tadqiqotlarini boshdan - oxir kamsitish uchun asos bo'la olmaydi, albatta. O'rta Osiyoning XIX asr oxiri, XX asr boshlaridagi tarixiga qiziquvchi bugungi kitobxon o'sha davr nashrlari orasidan O'rta Osiyoda kapitalistik munosabatning shakllanishi va inqilobiy harakatga doir juda ko'p dalil va hujjatlarni topishlari mumkin. 30-yillar o'rtasiga kelib, markscha-lenincha dunyoqarash sovet tarix fanida hukmron mavqeni egallab oldi, tarixchilar "partiyaviylik" tamoyiliga qat'iy amal qildilar. Mafkuraning xolislik ustidan, partiyaviylikning tarixiylik ustidan baland qo'yilishi ana shu davrda yuzaga keldi va avjga mindi. Lo'nda qilib aytganda, hatto talqin qiluvchilarning o'zi ham oxirigacha tushunib yetmagan markscha-lenincha mafkura ijtimoiy hayotning hamma sohalariga hukmronlik qila boshlagan edi.

Avvalroq ta'kidlab o'tganimizdek, M.N.Pokrovskiy va boshqa tarixchilarning asarlaridagi "eskirgan va xato qoidalarnı" tanqid qilish 20-yillarda boshlanib, 30-yillarning boshlarida avj oldi. Sovet tarixnavisligi shunga ham shohidki, Stalin shaxsiga sig'inish davrida M.N.Pokrovskiy va boshqa olimlar asarlaridagi bo'sh tomonlarni tanqid qılish bir tomonlama, faqat "po'stagini qoqısh" usulida olib borildı. M.N.Pokrovskiy asarlarıdagi kamchiliklarni do'pposlash shunchalik zo'rayib ketdiki, ayrim tadqiqotchi va publitsistlar tarixiylik tamoyiliga mutlaqo amal qilmay qo'ydilar. Munozaralarga "berilish" shu darajaga yetdıkı, boshqa tarixchilarning xatoliklari ham M.N.Pokrovskiy bo'yniga "ilıb" qo'yildi. Bu taniqli olimning yangi va eng yangi tarix fani ravnaqiga qo'shgan hissasi mutlaqo unutildi. M.N.Pokrovskiyning asarlari qay yo'sinda tanqıd qılinganligi haqida aniqroq tasavvur hosil qilish uchun

[1] Аминов А. Ўрта Осиёнинг Россияга қўшилишининг прогрессив аҳамияти. Звезда Востока. 1955. № 10. 107-б.

1939–1940 yillarda chiqqan ikki qismdan iborat "M.N.Pokrovskiyning tarixiy kontseptsiyasiga qarshi" va "M.N.Pokrovskiyning g'ayri marksistik kontseptsiyasiga qarshi" maqolalar to'plamini ko'rib chiqish kifoya (4 1. M.,-L., 1939; Ch. 2. M.,-L., 1940)[1].

Bu davr tarixshunosligi va tarıxnavıslik ahvoli nihoyatda murakkab va og'ir kechdi. Shunga qaramasdan o'z davri tarix fani erishgan yutuq va kamchiliklarnı anglashga ıntilish jarayoni bilan bir qatorda, partiyaviylik talablari asosıda yangi tarix fanining shakllanish va tiklanish jarayoni yuz berdi.

Mamlakatdagi universitetlar va yirik pedagogika oliy o'quv yurtlarida tarix fakultetlari ochilib u yerda tarixchilarning yangi avlodi yetisha boshladi. Shuningdek, partiyavıy va mafkuraviy maqsadlarda qabul etilgan bo'lsada, 1934 - 1936 yillarda qabul qilingan tarix fanini o'qitishga doır qarorlar tadqiqotlarning ravnaq topishida muayyan omil vazifasini o'tadi.

Milliy respublikalari tarixi yuzasidan umumlashtiruvchi asar yaratishga birinchilar qatori 1935 yilda qozoq tadqiqotchisi S.D.Asfandiyarov undadi. Uning asaridal Kenesari Qosimov rahbarligidagi isyonga to'g'ri baho berilgan. Shundan so'ng 1941 yilda M.P.Vyatkinning "Qozog'iston SSR tarixi ocherklari": kıtobi nashr etildi. Bu kitob boshqa mualliflar tomonidan Qozog'iston SSR tarixini yig'ma ravishda tadqiq qilishni davom ettirıshlari uchun ijobiy turtki vazifasini o'tadi.

1941-1945 yıllardagi urush davrida sovet xalqi atalmish barcha xalqlar fashizm yovuzligini daf etishga tashlangan bir pallada, ko'pgina tarixiy muammolar ustıda olib borilayotgan tadqiqotlar ham to'xtatib qo'yildi. Tabiyki, u yillarda partiya va hukumat ziyolilarning tafakkur imkoniyatini va ilmiy salohiyatini vatanparvarlik mavzuini targ'ib qilishga yo'naltirgan edi. 1943 yılda "Qozog'iston SSR tarixi" nomli umumlashtiruvchi asarni nashr etishga muyassar bo'linganligini tarix fanidagi yutuqlardan biri deb e'tirof etish mumkin. Ammo, afsuski, partiyaning mafkura xizmatchilari tomonıdan bu monografiyaning birinchi nashrida jiddiy xatoliklar (jumladan, O'rta Osiyo va Qozog'istonning Rossiyaga qo'shilıshi masalasida) borligi aniq lanıb, Qozog'iston KP(b) Markaziy Komitetining 1945 yil 14 avgustdagi qarorida ayovsiz fosh etishdi".

3. Sho'rolar davri tarixshunosligining o'ziga xosligi

Urushdan keyingi yillarda O'rta Osiyo xalqlari hayotidagi eng muhim voqealarni tarixiy anglash borasida yangi urinishlar boshlanib ketdi. Xususan, O'rta Osiyoning Rossiya tarkibiga kiritilishi masalasiga qiziqish kuchaydi. O'rta Osiyo tarixchilari markazdagi ilmiy institutlar olimlari bilan hamkorlikda ko'p tomli umumlashtiruvchi tadqiqot larni nashr etishga xuddi o'sha yillari kirishdilar. Bu tadqiqotlarda ayrim O'rta Osiyo xalqlarining vujudga kelishi davridan asar chop etilgan paytgacha bo'lgan tarixiy rivojlanish yo'li o'z ifodasini topdi[1].

Arxiv hujjatlaridan yetarli foydalanilmaganligi, shuningdek, shaxsga sig'inish ta'sirining kuchayuvi munosabati bilan hatto S.D.Asfandiyorov, M.P.Vyatkin kabi mualliflarning asarlari ham kamchiliklardan xoli bo'la olmadi. Ayni chog'da, xuddi shu yillarda O'rta Osiyoning Rossiya tarkibiga "kiritilishi" va bu jarayonning oqibatlari muammosini 50 - yillarga kelib "intensiv va samarali" tadqiq etilishi uchun ziyolilar kuch-g'ayratini sun'iy sur'atda safarbar etildi.

1947 yilda "O'zbekiston xalqlari tarixining birinchi nashri chiqdi. Uning ikkinchi jildida Turkistonni bosib olinishi oqibatlariga bog'liq voqealar bayon etilgan. Keyinchalik akademik S.Rajabov da'vo qilganidek, "asar mualliflari Turkistonning Rossiyaga qo'shilishi arafasidagi ijtimoiy-iqtisodiy va xalqaro siyosiy ahvolni to'laqonli tadqin etmaganlar va qo'shilishning oqibatlarini yoritmaganlar". Ammo, bu tanqidni xolis niyatda qilingan deyish qiyin. Nazarimizda, ko'pgina noaniqliklar bu turdagi murakkab va ma'suliyatli asarlarni nashr etish bo'yicha tajribaga ega bo'linmaganligi boisidan kelib chiqqan. Aslida, "O'zbekiston xalqlari tarixi"ning chop etilishi O'zbekiston tarixchilarining, qardosh respublikalardan qatnashgan olimlarning o'z davriga va o'sha sharoitga nisbatan olib qaraganda, o'ziga xos olg'a siljishidir.

40 - yillarning oxiri va 50 - yillarning boshida vaqtli matbuotda Ye.B.Bekmaxanov, BD.Jamgerchinov, A.Tursunboev, A.Hasanov kabi tarixchilar qalamlariga mansub bir qator maqolalar e'lon qilindi. Ular

[1] Асфандиёров С.Д. История Казахстана (с древнейших времен). Т. 1. А., 1935. 145-б.; Вяткин М.П. Очерки по истории Казахской ССР. Т 1. Л., 1941.; Раджабов С. Присоединение Средней Азии к России. «Ўрта Осие- нинг Россияга қўшилишининг прогрессив ахамиятш-га багишланган бирлашган илмий сессиядаги маъруза. Т., 1959. 8-б.

qo'shib olinish muammosining alohida qirralarini emas, balki "O'rta Osiyo va Qozog'istonning Rossiyaga qo'shib olinishi muammosiga tomonlar aniqlik kiritishni o'z oldilariga vazifa qilib qo'ydilar, bu esa istiqboldagi tadqiqotlar uslubiyati va yo'nalishini belgilash imkoniyatini berdi"[1]

O'sha davrga oid tadqiqotlarda O'rta Osiyo yerlarining "qo'shib olinishi'ning ("bosib olinishi" atamasi tadqiqotchilar lug'at boyligida mutlaqo uchramaydigan bo'lib qoldi) iqtisodiy, siyosiy, madaniy oqibatlariga taalluqli umumiy qarash, yagona nuqtai nazarni uchratmaysiz. Ko'pgina tadqiqotchilar O'rta Osiyoning kapitallashtiriluvini "qo'shib olinishining" progressiv oqibati sifatida talqin etadilar. Ammo, boshqa bu tadqiqotchilar fikricha, bu fikrni ilgari suruvchi olimlar "qo'shilish" birinchi navbatda chekka o'lkalar xalqlari uchun revolyutsion harakatga tortilishga olib kelganligini to'g'ri baholay olishmagan. Masalan, A.G. Zimma kabi bir qator mualliflar esa Turkiston istilo qilinishining "avvalo harbiy - siyosiy ahamiyatini"gina hisobga olishgan xolos. Ular bu fikrlarini hukumatning qo'shib olingan o'lkalar uchun qilyotgan xarajati daromadlaridan yuqori bo'lganligi bilan isbotlamoqchi bo'ladilar . Bu o'rinda ikki narsa hisobga olinmagan: Chor hukumati dastlabki chiqimlarini (masalan, irrigatsiya inshootlarini bunyod etish uchun) ongli ravishda kiritganki, uni keyinchalik ko'p karra ko'paytirib chiqarib olishi aniq edi. Bunday siyosat mustamlakachi davlatlar tajribasida odatda tashqari hodisa hisoblanmaydi. Bundan tashqari, markaziy Rossiya burjuaziyasi Turkiston ma'muriyati chiqimlarining yuqori yoki pastligiga qaramasdan, dehqonlar va ishchi mehnatkashlar hisobidan cho'ntaklarini qappaytirishni sira unutmas edilar.

"O'zbekiston xalqlari tarixi"ning birinchi nashri haqida chalkash, mantiqsiz fikrlar bisyor. Jumladan, kitobda o'lkaning kapitallashtiriluviga

[1] Бекмаханов Е.Б. О социально-экономических последствиях присоединения Казахстана к России /Большевик Казахстана/. 1946. №11- 12; Жамгерчинов Б.Д. К вопросу о присоединении Киргизии к России. /Известия Киргизского филиала АН СССР Вып.7. Ф., 1947; Нейштадт С.А. К вопросу об экономике колониального Казахстана /Известия АН Казахской ССР/. Сер. Эконом. Вып. 1. 1949. № 65; Зимма А.Г. Земельная политика царизма в Киргизии. /Труды Киргизского пединститута.Г.2. Вып.2. ф., 1947. 23-52-б.; Хасанов А. О присоединении северных киргизов к России /Вопросы истории/. 1950. № 7.; Турсунбаев А. Роль русского народа в социалистическом преобразовании Казахстана /Вестник АН Казахской ССР/. 1947. №1-2.

haddan tashqari ortiqcha ahamiyat ajratilgan, deyilsa, yana boshqa yerda "qo'shib olinish" arafasidagi O'rta Osiyo xalklarining sinfiy kurashlari aks ettirilib, mahalliy aholining Chor istilochilariga qarshi kurashi ruslarga qarshi kurash bilan aralashtirilib yuborilganki, buni tarixiy haqiqat va siyosiy adolatning ochiq buzilishi sifatida baholash mumkin, deb ko'rsatilgap. Bu fikrlarni Rossiya mustamlakachiligi bilan bog'liq barcha hodisalarni ijobiy baholashga odatlangan Soli Rajabov ilgari suradi[1].

"Voprosi istorii" jurnalining tahrir hay'ati 1953 yil avgust sonida I.S.Braginskiy, S.Rajabov, V.A. Romodinning "O'rta Osiyoning Rossiyaga qo'shib olinishi masalasiga doir" maqolasini e'lon qildi. Unda "O'zbekiston xalqlari tarixi" kitobining birinchi nashri ikkinchi kitobida keltirilgan qabilalararo to'qnashuvlarning kamayganligi haqidagi ma'lumotlar tarixiy xaqiqatga zid, zero, Nasrulloxonning feodal tarqoqlik va yirik feodallarning separatizmini tugatish bo'yicha barcha harakatlari hech qanday natija bermagan edi, deb uqtiriladi. Maqolada shuningdek, hozirgi O'zbekiston joylashgan hududda istilodan oldin xalq xo'jaligida yuksalishga erishilganligi haqidagi ma'lumotlar ham shubha ostiga olinadi. Maqola mualliflari "zo'rlik bilan qo'shib olish" bilan "qo'shilib kirish" natijalarini aralashtirmaslikni maslahat berib, mahalliy aholining Rossiya tarkibiga kiritilishi masalasiga differentsial yondashish zarur deb uqtiradilar. Chunki ko'pgina O'rta Osiyo yerlari uchun Rossiya tarkibiga kirish ixtiyoriy asosda ustuvor bo'lgan emish. Differentsial yondashuv masalasiga keladigan bo'lsak, ana shu maqola mualliflarining o'zlari bu usulga mutlaqo amal qilmaganliklariga amin bo'lamiz.

"Вопросы истории" jurnali tahririyati tashabbusi bilan boshlab yuborilgan munozara O'rta Osiyo va Qozog'iston xalqlarining "qo'shib olinishi progressiv ahamiyatga" ega ekanligini "to'g'ri" tushunishga yordam berish uchun atayin tashkil etilgan tadbir edi. Go'yo ana shu bahs jarayonida bu tarixiy hodisaga markscha-lenincha baho berilgan bo'lib, unda ko'p millatli Rossiya imperiyasi hayotida rus xalqining mahalliy xalqlarga inqilobiy ta'sir ko'rsatish bo'yicha xizmatlari ochib berilgan edi . O'sha davrda albatta, xo'sh, markscha-lenincha bahoning to'g'riligiga, inqilobiy to'ntarish usuli eng to'g'ri yo'l ekanligiga kim

[1] Ражабов С. Ўрта Осиёнинг Россияга қушилиши... Т., 1959.8-6.

kafolat bera oladi, deydigan odamning o'zi yo'q edi. Shubhasiz, markaz [illegible] bilan o'tkazilgan bu tadbir chorizm mustamlakachilik siyo[illegible] chirkin xususiyatlarini yashirish orqali, sovet imperiyasining milliy siyosatini" bezab ko'rsatishga intilishdan boshqa narsa emas edi.

Tabiiyki, bunday sharoitda Kavkaz, O'rta Osiyo va Qozog'iston Rossiyaga "qo'shib olinishining progressiv oqibatlari" muammosini tadqiq etish va yoritishda respublika ilmiy markazlari, qardosh respublikalarning fan va madaniyat arboblari "faol ishtirok etdilar" Jumladan, aholisi rus bo'lmagan hududlarning Rossiyaga "qo'shib olinishi muammolari" bilan shug'ullanuvchi ilmiy jamoatchilikning diqqat - e'tibori taniqli adib Mirza Ibrohimovning 1949 yili "Литературная газета"da bosmadan chiqishiga jalb etildi. Bu maqolada ko'pgina sharqshunoslarning xatosi "ular Sharq xalqlari adabiyotini ulug' rus adabiyotidan shu kunga qadar ayrim holda O'rtanayotganliklaridadir" deyiladi.

Rossiya bilan tarixiy aloqalar o'rnatilmaganda va demak rus madaniyatining ezgu ta'siri bo'lmaganda, Sharqimiz xalqlari adabiyotining Mirza Fatali Oxundov, Abay, Ahmad Donish, To'qay kabi namoyondalari "etishib chiqmagan bo'larkan"[1].

Mirza Ibrohimovning bu chiqishi O'zSSR Fanlar akademiyasi gumanitar fanlar bo'limi 1949 yil 21-27 alrel kunlari Toshkentda o'tkazgan kengaytirilgan yig'ilishi bilan bir vaqtga to'g'ri keldi. Ushbu anjuman qatnashchilari F.Engelsning 1851 yilning 23 mayida Marksga yozgan xatida bildirilgan Rossiyaning Sharq mamlakatlariga nisbatan "progressiv roli" to'g'risidagi mashhur mushohadasini ro'kach qilib, O'rta Osiyo xalqlariningo'ziga xos madaniyatiga azaldan rus xalqining, uning ilg'or madaniyatining ta'sirini isbotlashga uringan edilar .

Emishki, rus xalqi bilan muloqot, Chorizmdan farqli o'laroq, O'rta Osiyo mehnatkash ommasining o'zligini anglashiga yordam berib, ularning mustaqillik va ozodlikka intilishini shakllantiribdi. Rus inqilobiy – demokratik tafakkuri ularni razolat, zulm va jaholatga qarshi kurashga chorlagan, ilg'or rus adabiyoti O'rta Osiyo xalqlari adabiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, patriarxal-urug'chilik va qabilachilik [illegible]klanishlarni tugatishga, yangi adabiy janrlarning va demokratik tamoyillarning rivojlanishiga yordam bergan degan uydirma g'oyalar

[1] Ахмаджонов Ф.А. Россия империяси Марказий Осиёда. Т., 2003. -73-74.

tarixnavislik tadqiqotlarining o'zagini tashkil eta boshladi. Xalqlar o'rtasida yuzaga kelgan iqtisodiy, siyosiy va madaniy munosabatlar tufayli ular bir-biriga o'zaro ta'sir o'tkazishi to'g'risidagi hayotiy haqiqatni hech kim esga olmas edi.

Shunday qilib, Rossiyaning va rus xalqining progressiv roli haqidagi qayta-qayta takrorlanayotgan madhiyalar aslida rus bo'lmagan xalqlarni markazga toat-itoatda tutib turish, ularning milliy ongini kishanlash maqsadida maxsus tashkil etilgan mafkuraviy bosqinchiliqdan boshqa narsa emasdi. 1954 yilda A.Ya.Yakuninning O'rta Osiyo va Qozog'iston xalqlarining o'tgan asrning ikkinchi yarmidagi iqtisodiy va siyosiy ahvoli to'g'risidagi risolasi bosib chiqarildi1. Ayrim masalalarni to'g'ri yoritgani hapda (xo'jalik yuritishning o'troq va ko'chmanchilik usuli qo'shib olib borilgani, ishlab chiqarish tovarlashuvining kuchayishi, ingliz - rus muxolifligi va boshq.), A.Yakunin qo'shib olinish hech qanday bosqinchilik xususiyatiga ega emasdi, degan xulosani chiqaradi. Uning fikricha, XIX asrning ikkinchi yarmida "O'rta Osiyo davlatlarining iqtisodiy va siyosiy taraqqiyoti boshi berk ko'chaga kirib qolgan". Muallif O'rta Osiyo kapitallashuvining progressiv ahamiyatiga nihoyatda yuksak baho berib yuborgan.

Biz A.V.Pyaskovskiyning o'sha davrdagi O'rta Osiyo ishlab chiqarish kuchlarining ravnaqini rad etish ham, yuqori baholash ham noto'g'ri degan fikriga qo'shilishamiz. A.Ya.Yakunin o'z asarida "qo'shilish" natijasida qulchilik va aholi uchun nihoyatda og'ir bo'lgan feodal to'qnashuvlari tugatilib, go'e O'rta Osiyo xalqlarining rus mehnatkashlari bilan do'stligi mustahkamlandi, deb ta'kidlaydi.

O'rta Osiyolik tarixchilarning "ko'shib olish" mavzusiga qiziqishining ortib borayotganligini V.Ya.Nepomninning maqolasi ham tasdiqlaydi. Muallif unda go'yo inkor etib bo'lmaydigan dalillarga asoslanib, O'rta Osiyoning Rossiya tarkibiga kiritilishining ob'yektiv jihatdan progressiv ahamiyatga ega bo'lganligini isbotlashga urinadi. "O'zbekiston SSR tarixi"ning ikkinchi bobi (2-t., II kitob, 1956) ham shu muallif qalamiga mansub bo'lib, bugunicha "qo'shib olinish" muammosiga bag'ishlangan. V.Ya. Nepomnin O'rta Osiyoning nisbatan tez istilo etilishi sababini, bu yerdagi davlatlarning iqtisodiy va siyosiy jihatdan qoloqligi, aholining ko'pi passiv kuzatuvchi bo'lib qolganligi, mahalliy savdogarlarning ochiqchasiga va yashirin qo'llab-quvvatlashi va harbiy ishning nihoyatda ibtidoiy holatda qolib ketganligi bilan

izohlaydi. U O'rta Osiyo xalqlari ijtimoiy, siyosiy va milliy zulm ostida bo'lganliklarini ta'kidlaydi.

1954 yilda "O'zbekiston kommunisti" jurnalida V.Ya.Nepomninning "O'rta Osiyoning Rossiyaga qo'shilishining tarixiy ahamiyati" degan maqolasi e'lon qilindi. Bu respublika partiya organlari markazning ko'rsatmasiga "labbay" deb, "bu muammoni samarali tadqiq etishga katta e'tibor bilan qaraganligidan" dalolat beradi.

Xuddi shu davrda tarixchilar O'rta Osiyo va Rossiya xalqlari o'rtasidagi do'stlik aloqalarining "sarchashmalari" va bu do'stlikning muntazam ravishda mustahkamlanib borayotgani to'g'risidagi qator asarlarini e'lon qilishdi. Bu mavzuni O'rta Osiyo tarixchilaridan S.A.Rajabov, Z.Sh.Rajabov, A.M.Aminov tadqiq etishgan .

Barcha tadqiqotchilar yakdillik bilan Rossiya va O'rta Osiyo xalqlari o'rtasidagi do'stlik aloqalari azaliy ekanligini isbotlashga urinib, iqtisodiy, ayniqsa, savdo va siyosiy munosabatlarning boshlanish davri haqida "batafsil" so'z yuritadilar. Ular o'z fikrlarini, O'rta Osiyo va Rossiya elchixonalari o'rtasida savdo-diplomatik aloqalari yo'lga qo'yilgan bo'lib, buxorolik va xivalik elchilar Moskvaga tashrif buyurib turishganligi, ya'ni davlatlararo munosabatlardagi tabiiy holat bilan isbotlashga urinadilar1.

Qo'shni mamlakatlar o'rtasida tabiiy ravishda vujudga keladigan va rivojlanadigan ana shu odatdagi munosabatlarga ham siyosiy tus berilib, "buyuk rus xalqi bilan do'stlik" ifodasi sifatida talqin etilar va bu do'stlik qo'shilish bilan yakunlanganligi tarixiy zarurat ekanligini isbotlashga butun aqliy va ilmiy "iqtidorlari" sarf etilardi.

Sovet tarixchilarining 1955 yilda bo'lib o'tgan O'rta Osiyo va Qozog'istonning Oktyabrgacha tarixiga bag'ishlangan ilmiy sessiyasi ishtirokchilari O'rta Osiyoda kapitalistik munosabatlarning rivojlanishini "qo'shib olinish"ning oqibatlaridan biri sifatida talqin etishdi. A.F.Yakuninning ma'ruzasida: "Dehqon xo'jaligiga va qozoq ko'chmanchilari hayotiga kapitalizmning kirib kelishi nisbatan tez boshlanib ketdi. Boylarning xo'jaligi umumrossiya va xalqaro bozorga ishlay boshlagach, bu xo'jalik tobora tovarlashib borar edi. O'zbeklarda ekspluatatsiyaning feodal usullari qo'llanilganiga qaramay, paxtachilik kapitalistik xarakter (bozorga chiqish) kasb etdi", deyiladi.

Bu sessiyada feodal separatizmning va xalq xo'jaligidagi parchalanishning tugatilishi O'rta Osiyo xalqlarining tarkib topishiga qulay

sharoit yaratdi, deb ta'kidlanadi. Masalan, A.M.Bohoutdinov "o'zbek xalqining iqtisodiy birligining vujudga kelish jarayoni kapitalistik munosabatlar rivojlanishi tufayli kuchaydi", — degan aqidani ilgari suradi. So'zga chiqqanlarning bir qismi o'z qarashlarini isbotlash uchun qiziqarli, ilmiy ahamiyatga molik hujjatlarni keltirgan bo'lsa, boshqa bir qismi markscha - lenincha nazariya qoidalarini qayd etish va zo'rma-zo'raki dadillarni "asoslash"ga urinishdan nariga o'ta olmadilar. Shu bois O'rta Osiyoning inqilobgacha davrdagi tarixining ayrim masalalari yuzasidan, xususan, O'rta Osiyo xalqlarining millat sifatida shakllanishi borasida yagona fikrga kela olmadilar. Bu borada tadqiqotlarni davom ettirish haqida kelishib olindi xolos.

1955 yilda, xuddi o'sha birlashgan ilmiy sessiya o'gkazilgan yili, SSSR Fanlar akademiyasi nashriyotida O'zSSR Fanlar akademiyasining birinchi prezidenti T.N.Qori-Niyoziyning "Sovet O'zbekistoni madaniyati tarixining ocherklari" kitobi chop etildi. Partiya XX s'ezdi arafasida chiqqan bu asar O'rta Osiyoning Rossiyaga "qo'shib olinishi"ning progressiv oqibatlarini tadqiq etishga kompleks yondashilgan, deb baholashni maqsad qilib quyilgan edi. Kitobning birinchi qismdagi boblardan birida Turkistonning Rossiyaga "qo'shilishining progressiv ahamiyati"ga tavsif berilgan. Bu bobda "qo'shib olinish" madaniyat rivojiga "ijobiy ta'sir" ko'rsatganligini ta'kidlab, muallif Rossiyaga "qo'shilish" tufayli Turkiston xalqlari madaniyati taraqqiyotiga go'yoki yuzaga kelgan ikki tamoyil: Chorizm va mahalliy feodal - klerikal reaktsiya kuchlarining feodal va feodal-patriarxal munosabatlarni va ikkinchidan, Turkiston jamiyati ilg'or namoyondalarining xalqqa yaqin, uning orzu-havaslarini aks ettiruvchi milliy madaniyatni rivojlantirishga intilishini ko'rsatib berishga harakat qilgan.

Aslida partiya buyurtmasi bilan tayyorlangan va e'lon etilgan o'z asarida atoqli olim, akademik Qori-Niyoziy sho'rolar tutqini davrida O'zbekiston madaniyati tarixini xolisona yarata olmadi Rossiyaning Turkistonni bosib olishi va o'z hukmronligini o'rnatishi muammosiga doir Oktyabr "inqilobi"dan to mutloq hukmron kommunistik partiya XX s'ezdigacha bo'lgan davr tarixnavisligi ko'p qirrali va keng miqyosli mavzudir. Uning shakllanishi va rivojlanishiga Moskva va Leningradning, respublika va o'lkalarning (o'sha davrga xos atama bilan aytganda, buyuk Sovet Sotsialistik Respublikalari Ittifoqining)

olimlari hissa qo'shishdi. O'sha davr tarixnavisligida katta hajmdagi ilmiy ishlar yo'lga qo'yildi, ko'pgina tarixiy hujjatlar O'rtanilib, keng xalq ommasiga yetkazildi. Ammo bu tarixiy dalillar, voqea va hodisalardan chiqarilgan xulosalar "qizil imperiyaning" zug'umi bilan izohlanadi. Zero, bu asarlarda faqat Rossiya, "buyuk" rus xalqi boshqa xalqlarga ezgulik olib keldi, ularni taraqqiyot sari yetaklab bordi, bundan boshqa har qanday boshqa yo'l "kichik" xalqlar uchun xavfli va halokatli edi, degan tagi puch g'oyalar ilgari surilgan edi. Hamma xulosalar aylantirib kelinib, "xalqlarning buyuk do'stligi" nazariyasiga bog'lanar, biroq, bu do'stlik bir tomonlama talqin etilar (I.S.Braginskiy, S.Rajabov, M.Ibrohimov kabilar) ularda "mamlakatning ko'p tilliligi, millatlararo o'zaro ta'sir jihatidan, madaniy rang-baranglik jihatidan dunyoning mislsiz bir bo'lagi ekanligi haqida og'iz ko'pirtirilib, ikkinchi tomondan, u umuminsoniy qadriyatlar nuqtai nazaridan va milliy o'ziga xoslik jihatidan ham o'z o'rniga, mavqeiga ega ekanligi unutib qo'yilar edi.

4. Turkistonda Rossiya hukmronligining o'rnatilishi bo'yicha tarixiy bilimlarning rivojlanishi

50-60 - yillar tarixnavisligida Turkistonning bosib olinishi va zo'rlik bilan Rossiya tarkibiga kiritilishi muammosiga taalluqli rang-barang va keng ko'lamli materiallarni o'rganar ekanmiz, tarixiy tafakkurni siyosiylashtirish uchun harakat qilinganligini sezmaslikning iloji yo'q. Ittifoqning, Sovet Sharqining tarixchilari va jamiyatshunoslari tarixiy taraqqiyot muammolarini O'rtanish yuzasidan xorijiy hamkasblari bilan aloqa o'rnatish yo'lidagi saby-harakatlari "ijodiy tafakkur"ning yangi bosqichga ko'tarilishiga omil bo'ldi. Bu borada 1957 yilning 4-11 iyun kunlari SSSR Fanlar akademiyasi va O'zSSR Fanlar akademiyasi tashabbusi bilan Toshkentda chaqirilgan sharqshunos olimlarning I Butunittifoq anjumani xususida alohida to'xtalib o'tish zarur. Anjuman ishida Moskva, Leningrad, Rossiya Federatsiyasining boshqa shaharlaridan, qardosh O'rta Osiyo respublikalaridan, Kavkazorti va Qozog'istondan kelgan olimlar ishtirok etishdi. Bir qator sotsialistik mamlakatlar - Xitoy Xalq Respublikasi, Koreya Xalq Demokratik Respublikasi, Mo'g'iliston Xalq Respublikasi, Chexoslovakiya, Polsha, Ruminiya, Bulg'oriya olimlari mehmon tariqasida qatnashdilar.

Anjumandagi ma'ruzalardan birida: O'rta Osiyoning Rossiya tarkibiga kirishi, tarixan ijobiy hodisa bo'lishiga qaramay, uning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini yoritishda ikkita xato tamoyil namoyon bo'layotganligi, ya'ni bir tomondan bu hodisa faqat qora bo'yoqlarda ifodalanib, "qushilishning ob'yektiv progressiv jihatlari ko'rsatilmayotgani" bo'lsa, ikkinchi tomondan — Chorizmning mustamlaka siyosatining mohiyati to'g'risida lom-mim deyilmasligi va bu bilan mustamlakachilik va milliy zulm bilvosita oqlanib, "mustamlakachilikning taraqqiyparvarlik ahamiyati haqida bo'lmag'ur afsonalarning vujudga kelayotgani ta'kidlandi. Paypaslab, pardozlab aytilgan bo'lsa-da, o'sha davrga nisbatan bu anchagina dadil mushohada edi.

Sharqshunoslarning I Butunittifoq Toshkent anjumani O'rta Osiyo, Qozog'iston va Kavkazorti xalqlarining inqilobdan avvalgi tarixi singari muhim va murakkab bir mavzuni tarixchilar tomonidan chuqurroq O'rtanilishiga yo'l ochib berdi, mustamlaka o'lkalarning Rossiya imperiyasi tarkibiga kiritib olinishini yoritish va baholashda mavjud noto'g'ri tamoyillarni oz bo'lsa-da tuzatish uchun, tarixiy jarayonga metafizik yondashuvdan qochish uchun bir muncha imkoniyat yaratib berdi.

1956-1957 yillarda O'rta Osiyo va Qozog'iston milliy respublikalari akademiyasining tarix, arxeologiya va etnografiya institutlari tomonidan umumlashtiruvchi ahamiyatga ega bo'lgan "O'zbekiston SSR tarixi", "Qirg'iziston tarixi", "Qozog'iston SSR tarixi", "Turkmaniston SSR tarixi" asarlari nashr etildi .

Bulardan biroz avvalroq esa B.G'.G'afurovning "Tojik xalqi tarixi" kitobining yangi nashri chop etilgan edi2.

Xuddi o'sha yillari quyidagi monografik tadqiqotlar: Ye.B.Bekmaxonovning "Qozog'istonning Rossiyaga qo'shilishi", B.D.Jamgerchinovning "Qirg'iz xalqi tarixidagi muhim bosqich. Qirg'izistonning Rossiyaga qo'shib olinishining 100 yilligiga" va "Qirg'izistonning Rossiyaga qo'shilishi" bosib chiqarildi. A.Pyaskovskiyning "Turkistondagi 1905-1907 yillar inqilobi", F.Azadaevning "Toshkent XIX asrning ikkinchi yarmida. Ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tarix ocherklari" kitoblarini ham yuqoridagilar jumlasiga kiritish mumkin.

"O'rta Osiyoning Rossiyaga qo'shib olinishining progresiv ahamiyati"ga bag'ishlab 1958 yili Toshkentda o'tkazilgan Birlashgan ilmiy sessiya mazkur muammoni "yanada samaraliroq" tadqiq etish

uchun "yangi imkoniyatlar" yaratib berdi. Uning ishida ham markazdan — Moskva va Leningraddan, shuningdek, qardosh respublikalardan kelgan, O'rta Osiyo xalqlarining Rossiya davlatiga "qo'shilishi" muammolari bilan shug'ullanuvchi olimlar ishtirok etishdi. S.Rajabov sessiyada qilgan ma'ruzasida O'rta Osiyo respublikalari va Qozog'iston tarixiga doir jamoa bo'lib yozilgan asarlar va alohida monografiyalar xususida to'xtalib, ularda O'rta Osiyoning Rossiyaga "qo'shilishi" muammosi avvalgi nashrlarga nisbatan farqlanishini uqtirdi. Tanqidiy mulohazalarni hisobga olgan mualliflar avval yo'l qo'yilgan xatoliklarni tuzatishganini ta'kidladi. Ushbu ma'ruzada Turkistonning Rossiyaga "qo'shib olinishi" ilmiy izlanishlarda yetarli darajada yoritilganligi: O'rta Osiyo yerlarining Rossiyaga "qo'shilishi" to'g'risida maxsus boblar mavjudligi, Rossiya davlatining O'rta Osiyoga siesiy va iqtisodiy tomondan qaram qilinishi masaladari yeritilganligi, shuningdek, istilodan keyingi o'zgarishlar va inqilobiy harakat muammolari chetlab o'tilmaganligi qayd etildi.

Mazkur sessiyaga tayergarlik arafasida vaqtli matbuotda 80 dan ortiq maqolalar e'lon qilindiki, natijada bu anjumanga keng jamoatchilikning e'tibori ham jalb etildi.

Sessiya olimlar o'rtasida O'rta Osiyo xalqlarining Rossiya tarkibiga kiritilishiga doir umumiy masalalar bo'yicha mavjud bahsli masalalar yuzasidan "yagona" xulosaga kelish imkonini berdi. Jamoa mualliflgida yozilgan ba'zi asarlarda "qo'shilishning progressiv oqibatlari" bilan bir qatorda, e'tibor Chorizmning o'lkada olib borgan mustamlaka siyosatining reaktsion jihatlariga ham qaratildi. Masalan, "Tojik xalqi tarixi" (1964 y.) kitobida ta'kidlanishicha, "bosib va qo'shib olish natijasida O'rta Osiyo Chorizmning huquqsiz mustamlakasiga aylandi. Chorizmning O'rta Osiyodagi siyosati reaktsion, agressiv, mustamlakachilik siyosati bo'lgan. Chorizmning O'rta Osiyo xalqlariga munosabati hukmronlik va istibdod, metropoliya va mustamlaka siyosati edi. Chorizm rus bo'lmagan xalqlarning zulmkori va jallodi edi". Sovet tarixchilari zo'rlik bilan O'rta Osiyoni Rossiya davlatiga qo'shib olishning oqibatlarini O'rtanishda hodisalarni dialektik nuqtai nazardan ko'rib chiqishga harakat qilishadi. Qo'shib olinishning salbiy oqibatlari ham, ijobiy tomonlari ham bir xilda xolislik bilan hisobga olinmasa, bir tomonga og'ib ketish ro'y bersa, sub'yektivizmga, binobarin tarixiy haqiqatning buzib ko'rsatilishiga olib keladi.

Avvallari tarixchilar o'z xulosalarini tasdiqlash, isbotlash uchun o'zlariga mos bironta dalilni tanlab olar edilar. Boshqa "noma'qullarini" esa inkor etardilar. Tarixga dialektik yondashuv masalasi Rossiya davlatining xo'jalik hayotida kapitalizmning ahamiyati haqida V.I.Lenining quyidagi ta'rifida ham o'z ifodasini topgan: "Bu rolning progressiv ekanligini e'tirof qilish bilan birga, kapitalning salbiy va xunuk tomonlarini ham, kapitalizmga xos bo'lgan chuqur va har tomonlama ijtimoiy ziddiyatlarni ham batamom e'tiroz qilish mumkin".

O'rta Osiyoning Rossiya tarkibiga kirishining progressiv ahamiyatiga bag'ishlangan Birlashgan ilmiy sessiyada boshlanib ketgan bahs va munozaralar sovet tadqiqotchilari tomonidan tadqiq etilishi zarur bo'lgan muammolarni aniqlashtirib olishga yordam berdi.

O'rta Osiyoning Rossiya tomonidan bosib olinishi va uning oqibatlari tarixnavisligi mavzusiga bag'ishlangan maqola "O'zSSR fanlar akademiyasi xabarlari"ning 1959 yilgi ikkinchi sonida e'lon qilindi. Tahririyatning ta'kidlab ko'rsatishicha, "Turkiston, Buxoro va Xiva qishloq xo'jaligiga kapitalizmning kirib kelish darajasi va buning oqibatlari, Turkiston ishchilar sinfi otryadining, ayniqsa, mahalliy va milliy kadrlar hisobiga tarkib topishi va rivojlanishi jarayoni, qo'shilish" davrida va undan keyin keng mehnatkashlar ommasining sinfiy va milliy o'zligini anglash darajasining o'sganligi kabi muhim masalalar yetarli darajada tadqiq etilmagan. Olimlar orasida O'rta Osiyoda o'zbek va boshqa burjua millatlarining shakllanish darajasi to'g'risida fikrlar birligi yo'q. O'rta Osiyo tabiati va tarixini o'rganishda rus ilmining qo'shgan qissasini ochib beruvchi va umumlashtiruvchi tarixnavislik asarlari deyarli yaratilmagan. XIX asrning ikkinchi yarmidagi ayrim milliy harakatlarning tarixi va ijtimoiy mohiyati, ularning O'rta Osiyodagi milliy ozodlik kurashi, umuman Rossiyadagi inqilobiy harakatlar bilan aloqasi hali yaxshi o'rganilmagan".

50-yillarning oxiriga kelib, Turkistonda Rossiya hukmronligining o'rnatilishi nuqtai nazaridan tarixiy tadqiqotlarning quyidagi mavzulariga qiziqish ortdi:

tovar - pul munosabatlarining chuqurlashuvi;

dehqonchilik va chorvachilik xo'jaligining turg'unlikdan chiqa boshlagani;

ko'chmanchilar o'troq hayotga o'tishi uchun qulay sharoitlarning vujudga kelganligi;

eskicha yer-suv munosabatlarining buzilishi;

qishloq xo'jaligida yarim proletariatning tarkib topishi;

kelgindilar va mahalliy aholining ijtimoiy ahvoli;

qishloqlar va ovullarda sinfiy ziddiyatning kuchayishi;

millatlarning shakllanishi uchun shart-sharoitning vujudga kelishi;

xalq harakatlarining ijtimoiy ildizlari;

O'rta Osiyoda sanoat-shahar proletariatining vujudga kelishi.

O'rta Osiyo yerlarining bir qismi Rossiya imperiyasiga kiritib olingandan va xonliklar ustidan protektorat o'rnatilganidan so'ng, O'rta Osiyo iqtisodiyotida siljishlar yuz berdiki, bular hayotning boshqa sohasidagi o'zgarishlar bilan chambarchas bog'liq edi. Shu boisdan quyidagi masalalarni tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etgan edi: qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini Markazdagi burjua sanoati ehtiyojlariga bo'ysindirilishi: qishloq xo'jalik xomashyosiga dastlabki qayta ishlov beruvchi kichik korxonalarning tashkil etilishi; temir yo'llarning iqtisodiy ahamiyati: shaharlarning iqtisodiy jihatdan nufuzining ortishi, o'lkadagi ba'zi tumanlarning biqiqligiga chek qo'yilishi; mahalliy hunarmandchilik ishlab chiqarishining umumrossiya bozori ta'siri ostida iqtisodiy jihatdan o'zgarishi; ichki va tashqi savdo, jumladan Afg'oniston va Eron bilan savdoning yo'lga qo'yilishi; irrigatsiya tadbirlarining iqtisodiy natijalari; sanoat sohasida kon-qidiruv, shuningdek, oziq-ovqat va sovunchilik sohalarining vujudga kelishi; bog'dorchilik va polizchilikning rivojlanishidagi o'zgarishlar, ipakchilikning ahvoli kabi masalalar dolzarb ahamiyat kasb etgan edi.

O'rta Osiyo aholisining madaniy hayotidagi o'zgarishlar yetarli darajada to'liq o'rganilmagan. Quyidagi masalalarni chuqurroq yoritishga e'tibor berilsa, yomon bo'lmasdi:

mahalliy xalqlar adabiyot va san'ati taraqqiyoti;

xalq og'zaki ijodi va unda Rossiya mustamlaka siyosatining ifodalanishi;

mahalliy va rus madaniyatining o'zaro ta'siri;

shaharlar va qishloq madaniy hayotining umumiy ahvoli;

rasmiy hukmron doiralarning Turkistonning madaniy ravnaq topishiga qarshilik ko'rsatishi;

tibbiyot xizmatidagi o'zgarishlar;

xalq maorifining ahvoli va ma'rifatparvar ziyolilarning maqsadi;

matbaa ishining rivojlanishi;

amaliy san'at; kutubxonalar tashkil etilishi;

mahalliy madaniy hayotni ruslashtirishga qaratilgan hukumat tadbirlari.

Turkistonda ilmiy izlanish ishlarining (jumladan, jo'g'rofiya, madaniyatshunoslik, meteorologiya, agrotexnika, topografiya, zoologiya, arxeologiya, tarix, etnografiya kabi sohalarda) qanday yo'lga qo'yilganligi masalasi tarixchilar uchun nihoyatda qiziqarli mavzu hisoblanadi.

Shuningdek, Turkistonni boshqaruv bo'yicha chorizmning ma'muriy devonida yuz bergan o'zgarishlar, xonliklarga va ularga yarim tobe bo'lgan tumanlardagi boshqaruv tizimi juda kam o'rganilgan. O'rta Osiyo Rossiya imperiyasi tarkibiga kiritilganidan so'ng bu yerda valyuta tizimida yuz bergan o'zgarishlarni o'rganish ham nihoyatda maroqli mavzudir.

Tashqi siyosat masalalarini ham tugal o'rganib bo'lingan deyish qiyin, masalan, xonliklar o'rtasidagi munosabatlar; O'rta Osiyo xalqlarining Sins imperiyasi tarkibida istiqomat qiluvchi xalqlar bilan aloqalari; O'rta Osiyoga Rossiya bostirib kirishining janubiy qo'shni mamlakatlarga ta'siri; O'rta Osiyo va turk feodallari o'rtasidagi aloqalar; mahalliy feodallarning "panislomchilik" kayfiyatlari; O'rta Osiyoning Rossiya tomonidan bosib olinishi masalasining boshqa mustamlakachi saltanatlar (Angliya, Frantsiya, Amerika) matbuotida yoritilishi masalalarini oydinlashtirish zarur.

Mamlakatimiz tarixnavisligini tadqiq etuvchi olimlarning Turkistonda chorizm hukmronligi o'rnatilishi va buning oqibatlari muammosiga qiziqishi ob'yektiv jihatdan asosli, "uni hayotning o'zi, jonli, o'zgaruvchan ob'yektiv dunyoni aks ettiruvchi ilm-fan taraqqiyoti taqozo etmoqda. Zero, ilm-fanning o'zi ham shu hayotning ajralmas bir qismidir. Ilm-fanning hayot bilan bog'liqligi, uning muammolari va mavzularining qay darajada dolzarb ekanligi xuddi mana shunga bog'liqdir.

Mana shunday go'yo mantiqan asoslangan muammo va vazifalarni hal etishga ilmiy jamoatchilik safarbar etilib, tarix fanining to'xtab qolmay, bir maromda "rivojlanishini" ta'minlaydi.

Aslida tarix fani ijtimoiy fanlarning barcha sohalari kabi markazning nihoyatda niqoblangan ulug' millatchilik siyosati, sinfiy "xolislik", ilmiy izlanishda bir yoqlama "materialistik" yondashish tuzog'idan qutulib

keta olmas edi.

Ushbu holat ayniqsa Turkistonda Rossiya tajovuzi va mustamlakachilik hukmronligining o'rnatilishi hamda rus bo'lmagan xalqlarning ozodlik va mustaqillik uchun kurashi yopiq va g'ayri ilmiy mavzular bo'lib qolganligida o'z aksini topdi.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Oktyabr to'ntarishiga qadar Chor Rossiyasi tajovuzi davrining o'rganilishi qanday tamoyillar asoM.sida tadqiq etilgan?

2. Turkiston Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davri tarixiga oid tarixiy-ilmiy kitoblarni sanab o'ting?

3. N.G.Pavlovning "Turkiston tarixi" asarining mohiyati nimadan iborat?

4. M.Pokrovskiy ta'siri ostidagi tarixning bayon etilishi qanday talqinda qilingan?

5. 20-30 – yillarda e'lon qilingan asarlarning xolisligi bo'yicha fikr-mulohazalaringizni yuriting?

6. Sho'rolar davri tarixchilarining shakllanishida zamon va vaqt omili qanday ta'sir ko'rsatgan?

7. 40-yillarda yaratilgan ilmiy nashrlar asosan qaysi yo'nalishlarni ifodalashga urg'u berildi?

8. Urush yillarida tarixiy muammolarning tadqiq etish holati qay holatda edi?

9. Sho'rolar davri tarixining tarixshunosligi bo'yicha qanday tadqiqotlar yuzaga keldi?

10. Turkistonda Rossiya hukmronligining o'rnatilishi bo'yicha tarixiy bilimlarning rivojlanishiga kimlar hissa qo'shgan va ularning xizmatlari bo'yicha to'htalib o'ting?

MAVZU № 13. TARIXINI YORITISHDA MUHIM MANBA XISOBLANGAN ARXIV XUJJATLARINING O'RGANILISHI

REJA:

1. O'zbekistonda arxiv ishi (1925-1945) xonliklar davriga oid ishlar
2. O'zbekistonda arxiv ishi (1945-1990) xonliklar davriga oid ishlar
3. Mustaqil O'zbekiston arxiv ishi xonliklar davriga oid ishlar

Tayanch so'z va iboralar: Yagona Davlat arxiv fondi (YaDAF), bosh arxiv ishi, kasbiy layoqatsizlik, "markazlashtirish", arxiv byurolari, Markaziy davlat arxivi (MDA), kino, surat va ovozli hujjatlar arxivi (KSOH), "madaniy - ma'rifiy va tashviqot - targ'ibot", "Arxiv ishi to'g'risida"gi yangi Qonuni, shaxsiy tarkib hujjatlari arxivlari

1. O'zbekistonda arxiv ishi (1925-1945) xonliklar davriga oid ishlar

O'zbekistonda 1918-1945 yillar arxiv ishi murakkab va ziddiyatli bosqichlarda tashkil etilgan. Jumladan, 1918 yilda Turkiston ASSRning tashkil etilishi bilan sovet davlat muassasalarining yangi tizimini shakllantirish boshlandi. 1919 yil 5 noyabrda Turkiston ASSR MIQ "Arxiv ishini qayta tashkil etish va markazlashtirish to'g'risida"gi qarorini qabul qildi. 1920 yil yanvarida mazkur qaror asosida Turkiston MIQ Toshkent shahrida markazga bo'ysunuvchi Markaziy arxiv boshqarmasini tashkil etish to'g'risida buyruq chiqaradi. Arxiv boshqarmasi sobiq Turkiston general-gubernatorligi devonxonasi binosida joylashtirilgan edi. Yuqorida qayd etilgan huquqiy hujjatlarning qabul qilinishi respublika arxiv ishini tubdan o'zgartirish va alohida arxiv muassasalarni tashkil etilishiga asos bo'ldi. Jumladan, imperiya hukumati idora va muassasalari tugatilib, yangi mafkura talablariga mos keluvchi ilmiy-tarixiy, madaniy-ma'rifiy ahamiyatga ega bo'lgan hujjatlar davlat mulki, deb e'lon qilindi. Hujjatlarni markazlashgan holda yig'ish uchun Yagona Davlat arxiv fondi (YaDAF) tashkil etilib, uni RSFSR Bosh arxiv ishi boshqarmasi boshqarar edi.

1936 yidda P.P. Ivanov tomonidan Saltikov-Shchedrin nomidagi davlat kutubxonasi fondidan XIX asr Xiva xonlari arxivining topilishi muxim voqea bo'lgan edi. Ushbu arxiv xujjatlari Yu.E. Bregel, M.Y. Yuldoshev, A.B. Vildanova, A. Shayxova kabi olimlarning arxiv tadqiqotlari tufayli bir qator yangi xujjatlar bilan to'ldirildi. Dastlabki tadqiqotlar arxiv xujjatlarini tavsiflashga qaratilgan bo'lsa, M. Yo'ldoshev, o'zi ta'kidlaganidek, arxiv matnlarini tekshirish va xujjatlarni o'rganish bilan birga XIX asrda Xiva xonligidagi yer egaligi va davlat tuzilishi bilan bogliq aniq muammoni tadqiq qilishni maqsad qilib qo'ygan edi. Shu jihatdan mazkur kitob Xiva xonligi tarixini o'rganishda muxim daliliy materiallarni beruvchi manba xisoblangan arxiv xujjatlarining axamiyatini ko'rsatish bilan birga Xiva xonlari arxivining topilishi, tavsiflanishiga doir tarixshunoslik ma'lumotlarini xam beradi. Albatta, aniqlangan arxiv xujjatlari ijtimoiy-iqtisodiy tarixni o'rganishdagi dalillarga bo'lgan extiyojiga qisman javob berdi. Ushbu daliliy materiallar asosida Xiva xonligidagi agrar munosabatlar va soliq tizimi to'g'risida atroflicha ma'lumot beruvchi tadqiqotlar nashr etildi. Shu bilan birga Xiva xonligining XVI - XVIII asrlar ijtimoiy-iqtisodiy xolati o'rganilmay qolayotgani xolda ushbu ishlarning davriy chegarasi faqatgina XIX asrni o'z ichiga olganligini xam qayd etish lozim. "XIX - XX asr boshlari Xiva qozilik xujjatlari katalogining nashr etilishi bu yo'nalishdagi muxim ishlardan bo'ldi. Unga 1713 ta yuridik xujjat kiritilgan bo'lib, ularni tadqiq qilish yer egaligi tarkibi va xarakteri, usha davr uzunlik va ogirlik ulchovi, pul birliklari xamda madaniy qadriyatlarning o'ziga xos xususiyatlari haqida tasavvurga ega bo'lish imkonini beradi.

I.Karimov tomonidan nashr etilgan Xiva xujjatlari bu boradagi ishlarni yanada boyitdi. Aholi shaxsiy kollektsiyasidagi 73 ta qozilik xatlari, 5 ta xon yorliqlari xamda Xiva "Ichan qala" qo'riqxona-muzeyi fondidagi 14 ta xon yorliqlarini o'z ichiga olgan ushbu xujjatlar birinchi bor aniqlanib nashr etildi". Qozilik xujjatlarining eng dastlabkilari 1777 yil avgust-sentyabr, eng kechgisi esa, 1925 yil noyabr sanasi bilan belgilangan. Kitobda aniqlangan yangi xujjatlarning tarjimasi va faksimil nusxalarining berilishi bilan birga O'rta Osiyoda qozilik ishi, qozilik lavozimi va uning vazifalari xamda qozilik xujjatlari va ularning o'ziga xos jixatlari, xon yorliklarining tuzilishi kabi masalalar atroflicha yoritib berilgan.

Albatta, Xiva xonlari arxiv xujjatlari juda ko'p qismlarining aniqlanmaganligi, ilmiy muomalaga kiritilmaganligi keyingi yangi tadqiqotlarni talab etadi.

Turkistonda arxiv qurilishi, shuningdek, kadrlarning yetishmasligi bilan ham murakkablashib borgan. Arxiv boshqarmasi tashkiliy ishlariga taniqli sharqshunos olimlar jalb qilinganligiga qaramasdan, joylardan arxiv xodimlarining kasbiy layoqatsizligi oqibatida manbalarning ahamiyati va tarixiy qiymati to'g'ri baholanmagan. Shu bilan birga, arxiv xodimlari sovuq va zax xonalarda, minimal oylik maosh va turli moliyaviy qiyinchiliklarda faoliyat yuritgan. Ammo shunga qaramay, ish davom etar edi. Hujjatli materiallarni jamlash, saqlash va foydalanish ishlari maxsus uslubiy yo'riqnomalar va qoidalar ishlab chiqishni talab etgan. 1920-1922 yillarda Arxiv boshqarmasiga topshirilishi kerak bo'lgan arxiv fondlarini tekshirish, arxivlarni ko'chirish to'g'risidagi qoidalar, joriy arxivlarni boshqarish bo'yicha nazoratchilarning ish qoidalari va arxiv ma'lumotnomalarini berish qoidalari, arxiv hujjatlarini tartibga keltirish hamda yo'q qilishga ajratish yo'riqnomasi kabi tarmoq me'yoriy hujjatlari ishlab chiqilgan.

Biroq respublika arxiv ishining huquqiy asoslarini yaratish jarayoni dastlabki kunlardanoq uni markazga bo'ysundirishga qaratilgan edi. "Markazlashtirish" tushunchasi bilan amalga oshirilgan tadbirlar ikkilamchi xarakterga ega bo'lgan. Bir tomondan, arxiv muassasalari zamonaviy tushunchada arxiv fondlarini shakllantirishda katta nazariy-metodik yordam olgan, boshqa tomondan esa, amaldagi muammolarni hal etishda to'liq mustaqillikdan mahrum bo'lgan edi. Shu bilan birga, arxiv fondining to'laqonli jamlanishiga sinfiy yondashish siyosati sezilarli zarar yetkazgan, buning oqibatida hukmron mafkura manfaatlariga javob bermaydi, deb baholangan katta hajmdagi manbalar, davlat saqloviga qabul qilinmasdan, yo'q qilishga ajratilgan.

Respublika arxiv tizimiga bevosita ijtimoiy-siyosiy voqeliklar o'z ta'sirini o'tkazgan. O'rta Osiyo respublikalari milliy-hududiy chegaralanishi siyosati natijasida O'zbekiston SSR tashkil topganidan so'ng 1925-1926 yillarda hududiy ijroiya qo'mitalar qoshida viloyat arxiv byurolari tashkil etildi. XX asrning 30-yillari boshida respublikada markaziy arxivlar tizimi shakllana boshladi, ularda respublika ahamiyatiga ega bo'lgan hujjatlar mujassamlashtirilishi rejalashtirildi. 1930 yil 9 aprelda respublika MIQ Prezidiumi Markaziy arxiv ishi boshqarmasini Markaziy arxiv boshqarmasiga aylantirish to'g'risida qaror qabul qildi, boshqarmada jamlangan hujjatlar esa mazmuni va davriga ko'ra Oktyabr' revolyusiyasi Markaziy davlat arxivi va

Markaziy davlat tarix arxivlari o'rtasida taqsimlab tarqatildi. 1930 yil o'rtalaridan boshlab Toshkentda faoliyat ko'rsatgan markaziy arxivlar soni Markaziy harbiy tarix arxivi (1945 yilda tugatilgan), Kasaba uyushmalar harakati Markaziy arxivi (1942 yilda tugatilgan) va 1943 yilda tashkil etilgan Kino, surat va ovozli hujjatlar Markaziy davlat arxivi hisobiga ko'paytirildi.

Biroq mazkur jarayon respublika arxiv boshqarmasining sekin-asta idoraviy mustaqilligini yo'qotish bilan davom etdi. 1939 yilda O'zSSR Markaziy arxiv boshqarmasi butun arxiv tizimi bilan birga O'zbekiston Oliy Soveti Prezidiumining 1938 yil 30 dekabrdagi qarori va Ichki ishlar xalq komissariati (IIXK)ning 1939 yil 15 maydagi buyrug'iga asosan, O'zSSR IIXK tarkibiga kiritildi. 1940 yil 21 iyulda boshqarma O'zSSR IIXKning Arxiv bo'limiga aylantirildi, keyinchalik 1946 yilda O'zSSR Ichki ishlar vazirligi Arxiv boshqarmasi, deb nomlana boshladi. Bunday idoraviy bo'ysunish arxiv muassasalarining ijtimoiy vazifalariga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Ichki ishlar organlari arxiv hujjatlarini, eng avvalo, operativ-qidiruv maqsadlarda qo'llashga harakat qilgan, arxiv hujjatlaridan ilmiy-amaliy izlanishlarda foydalanish mafkuraviy cheklangan, hujjatlarni kirib ko'rish tartibi ularni asossiz ravishda "maxfiy", "o'ta maxfiy" kabi griflar bilan cheklash orqali murakkablashtirilgan.

2. O'zbekistonda arxiv ishi (1945-1990) xonliklar davriga oid ishlar

XX asr 50-yillar ikkinchi yarmida respublika arxiv tizimi navbatdagi qayta tashkil etish bosqichini boshdan kechirdi. 1958 yil 20 noyabrda O'zSSR Ministrlar Soveti davlat va idoraviy arxivlar ustidan nazorat va boshqaruvni yanada takomillashtirish maqsadida O'zSSR IIV Arxiv bo'limi Arxiv boshqarmasiga aylantirildi hamda Oktyabr' inqilobi Markaziy davlat arxivi va Markaziy davlat tarix arxivlarini yagona Markaziy davlat arxivi (MDA)ga birlashtirish to'g'risida qarorlar qabul qildi. 1959 yil 5 iyunda arxiv boshqarmasi va respublika markaziy va viloyat davlat arxivlari tizimi maxsus nizom asosida o'zgartirildi. Shu yilning o'zida arxiv tarkibiga Kino, surat va ovozli hujjatlar arxivi (KSOH MDA) ham qo'shib yuborildi.

1962 yilda O'zbekiston tibbiyoti sohasida yig'ilgan tajriba va

amaliyotdan har tomonlama foydalanishni tashkil etish maqsadida O'zSSR Markaziy davlat tibbiyot arxivi tashkil etildi. 1965 yildan esa fan-texnika taraqqiyoti natijasida mujassamlashgan manbalarni davlat saqloviga qabul qilinishi sababli arxiv Ilmiy-texnika va tibbiyot hujjatlari Markaziy davlat arxivi, deb o'zgartirildi. XX asr 70-yillar boshida respublika arxivlari saqlovxonalari sig'imi muammosi yuzaga keldi. Arxivlarning hujjatlar tarkibi va jamlanishi masalasini qayta ko'rib chiqish maqsadida 1973 yil 16 fevralda "Respublika arxiv ishi holati va uni yanada yaxshilash chora-tabirlari to'g'risida"gi qaror qabul qilindi. Unda hududlarda arxiv ishi va ish yuritish holatini yaxshilashga alohida e'tibor qaratildi. Mazkur qarorga asosan O'zbekiston KSOH MDA qayta tiklandi va Toshkent viloyati davlat arxivi asosida alohida Toshkent shahri davlat arxivi tashkil etildi. Shuningdek, mahalliy boshqaruv organlari huzurida fuqarolarning ijtimoiy-huquqiy so'rovlarini bajarish uchun alohida idoralararo xo'jalik hisobidagi shaxsiy tarkib hujjatlari arxivlari tuzildi.

1980 yillarning ikkinchi yarmida arxivlarning ijtimoiy-siyosiy vazifalariga e'tibor kuchayib ketdi. Davlat arxivlari faoliyati mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-madaniy rivojlanishidagi mafkuraviy vazifalarning bajarilishini ta'minlashda faol ishtirok etishga qaratilgan edi. Birinchi navbatda "arxivlarni ommalashtirish" o'rniga muassasalar, ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar, gazeta va jurnallar tahririyati, kinostudiya va televidenie, shuningdek, maktab, muzey va O'zbekiston tarixi va madaniyatini muhofaza qiluvchi jamiyatlar bilan hamkorlikda arxivlar "madaniy-ma'rifiy va tashviqot-targ'ibot"larni amalga oshirishi kerak edi.

1980-1985 yillar davomida respublika davlat arxivlari tomonidan 843 ta maqola chop etilgan, 583 ta radio va 29 ta teleko'rsatuvlar tayyorlangan, 243 ta hujjatlar ko'rgazmasi tashkil etilgan. O'quv zallarida 3096 nafar tadqiqotchi izdanishlar olib borib, ularga 146817 ta yig'majild foydalanish uchun berilgan. Shu bilan birga, arxivlarning respublika ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan hamkorligi kuchaygan, bu esa hujjatlar to'plamini tayyorlash va nashr etishda katta ahamiyat kasb etgan. Taqiqlash tartibining kuchsizlanishi va davlat arxivlarining hujjatlaridan foydalanishga doir bo'lgan cheklovlarini yengillashtirishga qaratilgan faoliyati tarixiy tadqiqotlarning manbaviy bazasi kengayishiga ma'lum ma'noda ijobiy ta'sir o'tkazdi. Jumladan, O'zbekiston MDA

1988-1990 yillar davomida arxivlar tomonidan 175 ta ro'yxat bo'yicha 1868-1987 yillarga oid 143 ta fond tanlab olingan. Shulardan, tarixiy davrga oid 57 ta fonddan maxfiylik cheklovini olib tashlash uchun 23 ta fond, sovet davri fondlaridan 1917-1987 yillarga oid ko'rib chiqilgan 120 fonddan 30 tasi birinchi kategoriya, ya'ni vazirliklarning fondlari bo'lgan. Bunday ishlar boshqa davlat arxivlarida ham olib borildi. Umumiy hajmda respublika arxivlari tomonidan ikki yilda 100 mingga yaqin yig'majilddan maxfiylik cheklovi olib tashlandi.

1980 yillar oxiri – 1990 yillar boshida mamlakatdagi og'ir iqtisodiy qiyinchiliklar sababli arxiv muassasalari faol ravishda qo'shimcha moliyaviy manbalarni qidirib topishga majbur bo'ldi, bu esa arxivlarni yangi xo'jalik yuritish sharoitiga o'tishga olib keldi. Mazkur tadbirlar pulli xizmat ko'rsatishni kengaytirish va tashkilotlar hujjatlarini shartnoma asosida tartibga keltirish, xo'jalik guruhlarining oylik maosh fondining oshib borishi, xodimlarni moddiy rag'batlantirishni qisman yaxshilash imkonini yaratdi. Biroq arxivlarning moddiy-texnik bazasi talab darajasida bo'lmagan, har doim ham yangi texnika va texnologiya sotib olish uchun zaruriy mablag' ajratilmagan. 1990 yillar boshida respublikada faoliyat ko'rsatgan 72 ta davlat arxivlarida umumiy hisobda 5 mln 412 mingta yig'majild saqlangan. Lekin ulardan faqat 5 tasigina maxsus ixtisoslashgan binolarda 58 tasi moslashtirilgan, qolgan 9 tasi vaqtinchalik va aksariyati ijaraga berilgan binolarda faoliyat yuritgan edi.

Xulosa qilib shuni ta'kidlab o'tish kerakki, sovet tuzumi davrida respublika arxiv qurilishi ikkilamchi xarakterga ega bo'lgan. Bir tomondan, arxiv xizmati tashkiliy, uslubiy jihatdan mustahkamlanib borgan, arxiv xodimlari hujjatlarni jamlash, hisobga olish, saqlovini ta'minlash va foydalanishda katta yutuqlarga erishgan. Ikkinchi tomondan esa, arxivlar faoliyatiga sezilarli ravishda mavjud davrga xos bo'lgan ijtimoiy-siyosiy voqeliklar, mustabid tuzum, kommunistik mafkura yakkahokimligi, iqtisodiy tanglik, arxiv hujjatlari bilan ishlashda turli xil cheklovlarni o'rnatgan siyosiy senzura hamma sohani qamrab olganligi salbiy ta'sir o'tkazgan edi.

3. Mustaqil O'zbekiston arxiv ishi xonliklar davriga oid ishlar

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda arxiv ishi qonunchiligining isloh qilinishi, sohani boshqarish va malakali kadrlar tayyorlashni takomillashtirish, modernizasiya jarayonlari, shuningdek, arxivlarning jahonning yetakchi ilmiy-tadqiqot, madaniy-ma'rifiy muassasalari bilan hamkorligi, sohadagi mavjud muammolar va ularni bartaraf etish istiqbollari bilan bog'liq bo'lgan masalalarni o'rganishga qaratilgan.

Sovet davrida sobiq tuzumdan meros bo'lib qolgan me'yoriy hujjatlarga asosan ittifoqdosh respublikalar manfaatlarini qamrab oluvchi partiya va davlat boshqaruv organlarining hujjatlari markazga yuborilgan. Natijada, 1990 yillar boshidanoq, sobiq sovet mamlakatlarida o'z Vatani tarixiga doir arxiv hujjatlari yig'indisini imkon qadar qaytarib olishga yo'naltirilgan harakat kuchayib bordi. Amaliyotga ko'ra arxiv fondlarini bo'laklarga ajratish mumkin bo'lmagan, chunki bunday holat oqibatda hujjatlarni yo'qotish va axborot butligiga ziyon yetkazishi mumkin edi. Bu esa 1992 yil 6 iyulda MDH davlatlari rahbarlaridan arxivlardagi hujjatlardan kelgusida o'zaro manfaatli ravishda foydalanish uchun "Sobiq ittifoq davlat arxivlari xususida huquqiy vorislik to'g'risidagi Bitim"ni imzolashni talab etdi. Unga ko'ra tomonlar o'z hududlaridan tashqarida saqlanayotgan arxiv hujjatlari kompleksiga egalik qilish da'vosidan voz kechishga kelishib oldi.

O'zbekistonda mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab arxiv muassasalari me'yoriy hujjatlari yangilana boshladi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan moddiy-madaniy boyliklarni huquqiy muhofaza qilishga qaratilgan bir qator xalqaro qonun hujjatlari ratifikasiya qilindi Jumladan, 1995 yil 22 dekabrda 181-1-raqami bilan "Moddiy boyliklarni noqonuniy olib chiqib ketish, olib kirish va egalik huquqini berib yuborishning oldini olish va taqiqlashga qaratilgan tadbirlar to'g'risida»gi va "Qurollangan to'qnashuvlar vaqtida madaniy boyliklarni himoya qilish to'g'risida"gi Konvensiyalar ratifikasiya qilindi. Xalqaro me'yorlar asosida, shuningdek, mamlakatda amalga oshirilayotgan demokratik jamiyat qurishning huquqiy asoslarini yaratish talablarini hisobga olib, 1999 yil 15 aprelda Oliy Majlis tomonidan birinchi marta O'zbekiston Respublikasining "Arxivlar to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi. Asta-sekin qonuning havola normalari asosida Vazirlar Mahkamasi tomonidan jamiyatning axborot so'rovlari hamda

rivojlanib borayotgan ilmiy, madaniy, ijtimoiy-siyosiy talablarga javob beruvchi qator maxsus qarorlar qabul qilindi.

"Arxivlar to'g'risida"gi Qonunni amaliyotga tatbiq etish shuni ko'rsatdiki, shakllanayotgan bozor munosabatlariga asoslangan fuqarolik jamiyati, xususiy mulk daxlsizligi va erkin axborot oqimi sharoitida shakl va mazmun jihatidan ko'proq davlat arxivlariga umumiy huquqiy yo'l-yo'riq bo'lgan eski qonun o'rniga arxiv ishi va ish yuritish sohalarini tashkil etish masalalarini batafsil yoritib beruvchi yangi qonun ishlab chiqish zaruriyati tug'ildi. 2010 yil 15 iyunda O'zbekiston Respublikasining "Arxiv ishi to'g'risida"gi yangi Qonuni qabul qilindi. Qonun arxiv muassasalari faoliyatining huquqiy mustahkamlashni ta'minlash, arxiv hujjatlarini o'z vaqtida jamlanib borishi, davlat hisobiga olinishi, but saqlanishi va arxiv hujjatlarini kirib ko'rish, ulardan foydalanish masalalarini tartibga solishga qaratilgan. Masalan, qonunning alohida bobida arxivlar va idoraviy arxivlar tashkil etish masalasiga bag'ishlangan bo'lib, unda arxivlarni tuzish shart-sharoitlari, arxivlar turlari, arxivlarni tuzish, qayta tashkil etish va tugatish masalalari. Milliy arxiv fondining davlatga tegishli bo'lmagan qismini shakllantirish. Davlat katalogini yuritish, hujjatlarni saqlash va ulardan foydalanishni tashkil etishning huquqiy jihatlari yoritib berilgan.

Mustaqillik yillarida respublikada ish yuritish va arxiv ishi sohalari yanada takomillashtirildi, huquqiy asoslari tubdan yangilandi hamda arxivlar faoliyatiga zamonaviy axborot texnologiyalari joriy etildi. Arxivlarning nafaqat ma'muriy mavqei va vakolatlari oshirildi, balki ularning tarmog'i sezilarli darajada kengaytirildi. Jumladan, bugungi kunga kelib, respublikadagi davlat arxivlarining soni 103 taga qo'payib, ulardan 4 tasi markaziy davlat arxivlari, 12 ta viloyat va ularning 86 ta hududiy filiallari hamda Toshkent shahar davlat arxividir. 2009-2014 yillarda davlat arxivlari uchun 20 tadan ortiq maxsus yangi binolar qurildi, 5 ta yirik arxivlarning binolari to'liq rekonstruksiya qilindi va, eng muhimi, qolganlari o'z balansidagi binolarga ega bo'ldi. Shunga qaramay, aksariyat davlat arxivlarida hujjatlarni saqlash uchun zaruriy sharoitlar yaratilmagan, jihozlari eskirgan, arxiv hujjatlarini restavratsiya qilish, hisobga olish, qidirib topish va nazorat qilish bo'yicha yangi texnologiyalar joriy etilmagan.

Bundan tashqari, mahalliy xokimliklar huzurida 110 ta idoralararo

xo'jalik hisobidagi shaxsiy tarkib hujjatlari arxivlari (IXHShTA) faoliyat yuritib, yuridik va jismoniy shaxslarning turli mazmundagi so'rovlarini bajarishda salmoqli hissa qo'shib qelmoqda. Statistik ma'lumotlarning ko'rsatishicha, 2011 yilda davlat arxivlari tomonidan fuqarolarning 112 mingta ijtimoiy-huquqiy so'rovlari bajarilgan bo'lsa, IXHShTA tomonidan 300 mingta so'rovlar ko'rib chiqilgan, 2014 yilda bu ko'rsatkich davlat arxivlarida 164 300 tani tashkil etgan bo'lsa, IXHShTAlarda 330 mingtaga oshgan. Biroq mazkur arxivlar faoliyatida bir qancha jiddiy muammolar mavjud bo'lib, ularning 78% hujjatlar bilan to'lgan, bino va saqlovxonalari me'yoriy talablarga javob bermaydi, fuqarolarni qabul qilish xonalari, moddiy-texnika bazasi, xizmat ko'rsatish spektori zamon talablari darajasida tashkil etilmagan. Shuningdek, ushbu arxivlarni "O'zarxiv" agentligiga faqat tashkiliy-uslubiy jihatdan bog'liqligi, byudjet mablag'lari bilan ta'minlanmasligi, 50% ortiq tugatilgan tashkilotlar hujjatlarini saqlanishi qator iqtisodiy qiyinchiliklarni yuzaga keltirmoqda. Bu esa mazkur arxivlar faoliyatini tashkiliy jihatdan qayta ko'rib chiqishni talab etadi.

Xususiy sektorning rivojlanishi hamda mamlakatda olib borilayotgan iqtisodiyotni monopoliyadan chiqarish va erkinlashtirish siyosatiga asosan, shuningdek, nodavlat tashkilot, muassasa va korxonalarning soni yil sayin oshib borishini hisobga olgan holda, oxirgi yillar ichida nodavlat arxivlarining ham soni oshib borib, 2010 yilda 47 taga yetdi. Biroq "Arxiv ishi to'g'risida"gi Qonun va Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan me'yoriy talablarga zid ravishda tashkil etilganligi bois 2014 yilga kelib ularning 40 tasi qisqartirildi.

Shu bilan birga, arxivlarning ilmiy-tadqiqot va ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda o'quv-metodik adabiyotlar va axborot-ma'lumot qo'llanmalarni ishlab chiqish, arxivlarga yosh malakali kadrlarni jalb etishga alohida e'tibor qaratildi. Bu o'rinda tadqiqotda davlat arxivlarining respublika ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan hamkorlikda fundamental, amaliy va innovasion loyihalarni amalga oshirish, ilmiy nashrlarni chop etish yo'nalishidagi ishlarini jadallashtirish, arxiv hujjatlaridan foydalanish me'yorlarini qayta ko'rib chiqish va maxfiylik cheklovini olib tashlash bo'yicha komissiya faoliyatini qayta tiklashga doir takliflar berildi.

Arxiv muassasalari faoliyatida to'planib qolgan boshqa bir qator muammolar kadrlar tayyorlash siyosatiga alohida urg'u berish kerak-

ligini ko'rsatar edi. Davlat arxivlarining malakali mutaxassislarga bo'lgan talablarini hisobga olgan holda, oxirgi o'n yil ichida kadrlar tayyorlash tizimi doirasida respublikaning 4 ta oliy va 28 ta o'rta maxsus ta'lim o'quv muassasalari qoshida ilk bor oliy va o'rta maxsus ma'lumotli mutaxassislarni tayyorlash yo'lga qo'yildi. 2007 yildan boshlab ikkita markaziy davlat arxivlari qoshida tashkil etilgan qisqa muddatli o'quv kurslarida har yili mingga yaqin idoraviy arxiv va ish yuritish xizmati xodimlari o'z malakalarini oshirib bormoqda. Bu va boshqa tadbirlar arxiv muassasalarini malakali kadrlar bilan ta'minlash masalasini ijobiy hal etish imkoniyatini yaratmoqda. Biroq shunga qaramasdan, "O'zarxiv" agentligining 2016 yildagi ma'lumotlariga ko'ra, davlat arxivlarida faoliyat yuritayotgan 895 nafar xodimlardan 332 nafari (23,5 %) oliy ma'lumotga ega bo'lib, ulardan 56 nafari (6 %) soha mutaxassislarini tashkil etadi. O'rta maxsus ma'lumotli 563 (40 %) nafar kadrlardan 42 (9 %) nafarigina soha mutaxassislaridir.

O'zbekistonning xalqaro hamjamiyatga integratsiyalashuvi jarayoni hamda axborot olish va saqlashning yangi turlari va vositalarini takomillashuvi arxivlarning yangi texnologiyalar joriy etish amaliyotini o'rganib chiqish hamda xalqaro tajriba bilan tanishish ehtiyojini yanada oshirdi. Bu maqsadlar amaliyotda dastlab davlat arxivlari xodimlarini turli xil respublika va xalqaro miqyosda tashkil etilgan forumlar, uchrashuvlar, konferensiyalar va malaka oshirish o'quv kurslarida qatnashish yo'li orqali hal etila boshlagan. Mazkur yo'nalishdagi keyingi bosqichda arxiv ishi sohasida davlatlararo hamkorlik to'g'risidagi bitimlarni imzolash, joylarga borib xorijiy arxivlar faoliyati bilan tanishish, respublika arxiv tizimini modernizasiyalashtirish bo'yicha xalqaro ilmiy-tadqiqot loyihalarini amalga oshirish joriy etila boshlandi.

Masalan, 2003 yil 21 mayda "O'zbosharxiv" boshqarmasi va Rossiya Federal arxiv xizmati bilan, shu yilning 6 iyulida esa "O'zbosharxiv" va Amerika memorial kengashi "Xolokost" va uning Vashingtondagi muzeyi bilan hamkorlik bitimlari imzolangan. 2008-2009 yillarda Gresiya, Misr, Janubiy Koreya va Turkiya hukumatlari bilan arxiv ishi sohasida hamkorlik qilish to'g'risida memorandumlar imzolangan.

2009 yil 27-28 mayda Jazoirda bo'lib o'tgan Xalqaro Arxivlar Kengashining navbatdagi majlisi qarori asosida "O'zarxiv" agentligi uning tarkibiga "A" kategoriyasi bo'yicha kiritildi. Bu yo'l orqali respublika arxivchilarining kengashning Yevro Osiyo bo'linmasi ishlarida rasmiy

ishtirok etish uchun mavjud bo'lgan to'siqlar bartaraf etildi.

O'zbekiston arxiv muassasalari tomonidan oxirgi yillar ichida yetakchi ilmiy-tadqiqot va ta'lim markazlari bilan hamkorlikda arxiv ishini yanada takomillashtirish uchun xalqaro loyihalar ishlab chiqish amaliyotini joriy etish yo'lga qo'yildi. 2008 yil 21 avgustda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi markaziy davlat arxivlarini rekonstruksiya qilish hamda Koreya Respublikasi hukumatining mablag'larini jalb etgan holda ularni texnik modernizasiyalashtirish to'g'risida"gi qarori bo'yicha arxiv binolari to'liq rekonstruksiya qilinib, zamonaviy axborot texnologiyalari bilan ta'minlandi.

2010-2013 yillarda ilk bor O'zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat arxivi, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti hamda Martin Lyuter universiteti qoshidagi Sharqshunoslik instituti (Germaniya) bilan hamkorlikda "The Archives Talk: Writing the Social History of Pre-Soviet Central Asia" [Arxivlar ovozi: sovet davrigacha bo'lgan O'rta Osiyo ijtimoiy tarixdan ocherklar] mavzusidagi xalqaro ilmiy-tadqiqot loyihasida qatnashib, zamon talablariga javob beruvchi yosh sharqshunoslarni tayyorlash, yangi yo'nalishlarda ilmiy izlanishlar olib borish va noyob arxiv hujjatlarini raqamlashtirish bo'yicha zamonaviy uskunalar bilan jihozlash ishlarini amalga oshirdi.

2016 yil avgustida "O'zarxiv" agentligi Koreya Milliy arxivi bilan o'zaro tajriba, mutaxassislar va hujjatli axborot almashish masalalarini qamrab olgan idoralararo hamkorlik to'g'risida bitim imzoladi. Unga asosan, 2016 yilning sentyabrida respublikadan uchta mutaxassis Xalqaro arxivlar kengashi tashabbusi bilan Seulda tashkil etilgan arxivchilarning Xalqaro Kongressida ishtirok etdi.

Umuman olganda, xalqaro hamkorlikning rivojlanishi respublikamiz arxivlari faoliyatiga zamonaviy axborot texnologiyalarini jalb etish, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, arxiv hujjatlarini raqamli asoslarga o'tkazish va restavratsiya qilish texnikalari bilan jihozlashga sezilarli hissa qo'shmoqda. Bundan tashqari, arxiv xodimlarining ilmiy-amaliy maqsadlarda malaka oshirishlari nafaqat xodimlar salohiyatini kuchaytirishga, balki sohani yanada sifatli va yangi rivojlanish bosqichiga olib chiqishga imkon yaratmoqda.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. O'zbekistonda 1918-1945 yillar arxiv ishi tashkil etish qanday olib borilgan?

2. Arxiv ishini tashkil etish bo'yicha qanday huquqiy asoslar qaqbul qilingan?

3. Hujjatlarni markazlashgan holda yig'ish uchun qanday fond tashkil etildi va uning asosiy vazifalari nimalardan iborat edi?

4. Arxiv boshqarmasi tashkiliy ishlarida qanday muammolar mavjud edi?

5. XX asr 50-yillar ikkinchi yarmida respublika arxiv tizimi qanday isloh qilindi?

6. 1980 yillarning ikkinchi yarmida arxivlarning ijtimoiy-siyosiy vazifalari asosan nimalardan iborat edi?

XULOSA

Tarix va tarixiy jarayonlar, siyosiy-tarixiy vaziyat ularning ro'y berishidagi asosiy sabab va xususiyatlarini ilmiy jihatdan tadqiq etishda har tomonlama tahlil qilish tarixiy haqiqatning yuzaga chiqishida katta omil sanaladi. Ayniqsa, turli davrlarda yaratilgan tarixiy ilmiy asarlarda mualliflarning tadqiqot masalalariga turlicha yondashuvlari va fikrlari, xulosalarning turlichaligi, ularni ilmiy jihatdan chuqur tahlil qilish va tarixiylik, ilmiylik hamda xolislikka asoslanilgan eng to'g'ri xulosalarni chiqarish bugungi kun tarixchi mutaxassislari oldida turgan muhim vazifalardan sanaladi.

Tarix fani tadqiqotlarida muhim sohalardan biri hisoblangan tarixshunoslik O'rta Osiyo tarixining turli davrlarda o'rganilishi jarayonlari, tadqiqotchilarning muammoning yechimini ochib berish jarayonida turli nuqtai-nazarlardan yondashganliklari va ilmiy xulosalar va natijalarning turlicha talqinlarini bir-biri bilan qiyoslash, taqqoslash va ularning tahliliy tadqiqoti jarayonida obyektiv xulosalar chiqarish imkoniyatini beradi.

Mazkur qo'llanmada ham mamlakatimizning siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy tarixining qadimgi davrdan XX asrcha bo'lgan davrdagi tarixining o'rganilishi, amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar va nashr etilgan ilmiy adabiyotlar hamda e'lon qilingan ilmiy maqolalarning tahlilini amalga oshirish orqali talabalarga yurt tarixini xolis o'rganish imkoniyati yanada ortdi.

Qadimgi davrdan XX asrning so'nggi yillari mobaynida O'zbekiston tarixiga oid yuzlab ilmiy tadqiqot amalga oshirilgan, ilmiy va uslubiy ishlar nashr ettirilgan. Amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarning asosiy tadqiqot obyektlari sifatida turli, asosan ko'proq Chor Rossiyasining O'rta Osiyo xonliklarini bosib olishi va mustabidlik davrlari siyosiy jarayonlari, ichki siyosiy hayot va O'rta Osiyoning tashqi siyosiy jarayonlardagi ishtiroki, qo'shni mamlakatlar bilan o'zaro siyosiy munosabatlarining asosiy xususiyatlarini ko'rish mumkin.

O'zbekiston Respublikasining mustaqillik yillarida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar avvalgi XIX asrda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlardan O'zbekiston tarixini, uning ichki va tashqi siyosatini atroflicha va keng yoritib berilganligi, ilmiy tadqiqotlarda va ilmiy nashrlarda tarixning obyektiv ravishda, tarixiylik va ilmiy asosida

yoritilganligini bilan mukammal tadqiqotlar hisoblanadi. Mustaqillik yillarida amalga oshirilgan tadqiqotlarning asosiy qismini O'rta Osiyo xonliklarining tarixshunosligi, manbashunosligi, siyosiy tarixi, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, savdo va diplomatik aloqalari, madaniy hayoti va boshqa muammolarga qaratilganligini ko'rish mumkin. Mustaqillik yillarida O'rta Osiyo tarixining horijlik tarixchilarning tadqiqotlarida yoritib berilishi va uning tarixshunoslik masalalari tadqiq etilganligini bir qator tadqiqotlarda kuzatish mumkin.

Mahalliy mualliflar tomonidan yozilgan tarixiy asarlarda ham O'rta Osiyoda ro'y bergan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar, xalq hayoti va turmush tarzi, madaniyatini chuqurroq anglab yetishga, Rossiyaga qaramlik sharoitida o'zlikni saqlab qolishga bo'lgan intilishni aniqlashga xizmat qiladi. Manbalarni o'rganish jarayonida mahalliy tarixnavislar ma'lumotlarni imkon qadar haqqoniy yoritishga harakat qilganliklarini ko'rish mumkin. Bu holatni xonliklar davridagi tarixnavislar asarlarida xonlarning davlat boshqaruvidagi faoliyati xususidagi ma'lumotlarida, Rossiya imperiyasi tomonidan xonliklarning mustamlakaga aylantirilgan bir paytda tarixiy jarayonga o'zlarining dadil munosabat bildira olganligida ko'rish mumkin. Mahalliy mualliflar asarlarida ma'lum bir sohaga oid ma'lumotlar asarning turli qismlarida uchrab, bu tadqiqotchilar uchun noqulaylik keltirib chiqaradi, biroq shuni ta'kidlash lozimki, ushbu xolat ular asarlarini hukmdorlar topshirig'iga binoan xronologik tartibda yozganliklari bilan izohlanadi. Shu jihati bilan ham ushbu tarixiy asarlar mamlakatimiz tarixini haqqoniy va ilmiy asosda o'rganishda muhim manba hisoblanib, o'z ahamiyatini hanuzgacha saqlab kelmoqda.

Sobiq sovet davrida arxiv hujjatlarini o'rganish, arxeologik va etnografik tadqiqot va izlanishlar olib borish, qo'lyozma manbalarni o'rganish sohasida faoliyat olib borilgan. Garchi, bu davrda tarixiy voqealarga partiyaviylik, sinfiylik nuqtai nazaridan kommunistik mafkura asosida yondashilgan bo'lsada, O'rta Osiyo tatixining ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, yer egaligi, dehqonchiligi va irrigatsiyasi, me'moriy yodgorliklari va amaliy san'ati masalalari keng yoritilganini aytish joiz.

XX-asr 50-yillarining boshlarida tarix muammolarini o'rganishda "Chorizmning mustamlakachi bo'lishiga qaramay, rus bo'lmagan xalqlarning, xususan O'rta Osiyoning Rossiyaga qo'shib olinishi progressiv fakt bo'lgan edi", degan soxta fikr qaror topgan va tarixchi olimlar

tomonidan "kiritilishi", "o'z ixtiyoriga ko'ra qo'shib olinishi" kabi atamalar ishlatila boshlangan.

60 – 80 yillarning birinchi yarmida tadqiqotlarning muammoviy doirasi kengayib, O'rta Osiyoning ijtimoiy - iqtisodiy, siyosiy hayotining ko'pgina masalalar qator tadqiqotlarda yoritilgan bo'lsa, 80 - yillarning ikkinchi yarmidan boshlab, "qayta qurish" munosabati bilan ilmiy tadqiqotlarda "ko'rsatma bilan ishlash" tamoyili o'rniga tarixiylik tamoyilik tiklana borishi bilan qator respublika va xalqaro miqyosda o'tkazilgan ilmiy anjumanlarda O'zbekiston tarixi, Temur va temuriylar tarixi, xonliklar tarixi, Rossiya imperiyasining O'rta Osiyoni bosib olish masalasi, davlatchilik tarixi, mustamlaka va sovet hokimiyati boshqaruv tizimining mazmun-mohiyati va xususiyatlarini o'rganish, ularning o'ziga xos jihatlarini aniqlash kabi masalalarga e'tibor kuchaygan.

XIX asrda xorijlik tadqiqotchilar tomonidan yozilgan asarlarda O'rta Osiyoning geografik joylashishi, siyosiy ahvoli, harbiy salohiyati masalalariga katta e'tibor qaratilgan, madaniyat, xalqning turmush tarzi masalalari esa nisbatan kam o'rganilganligini kuzatish mumkin. Shu bilan birga xorij tadqiqotlarining deyarli barchasida Rossiya O'rta Osiyoni qurol kuchi bilan zabt etganligi qayd qilingan. Biroq, ushbu tadqiqotlarning o'zida ham mustamlakachilik kayfiyati tasvirlanganini aytish mumkin.

Mustaqillik yillarida mamlakatimiz tarixi yoritishda birlamchi manbalarga, arxiv hujjatlari ma'lumotlariga asoslanib, ilmiy adabiyotlar, risola va maqolalar nashr qilindi, nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilindi. Tadqiqotlarda mamalakatimizda kechgan siyosiy jarayonlar, olib borilgan islohotlar, madaniyat, hunarmandchilik, ichki va tashqi savdo, O'rta Osiyoning xorijiy davlatlar bilan olib borgan diplomatik munosabatlari, shaharsozlik va davlatchilik tarixiga oid keng doiradagi ma'lumotlarni qamrab olganligi talabalar tomonidan O'zbekiston tarixini yanada chuqurroq, daliliy materiallar asosida o'rganishiga katta yordam berdi.

Qo'llanma pedagogika sohasidagi tarix yo'nalishida tehsil olayotgan talabalar uchun mo'ljallanganligi sababli tarixshunoslik darslarini zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanib o'qitish maqsadga muvofiq Zamonaviy pedagogik texnologiyalar talabalarda axborot bilan mustaqil ishlashni, o'z fikrini ravon bayon qila olishni, shu mavzu

asosida qo'shimcha materillar topish, ularni o'rganishni, o'z fikri va o'zgalar fikrini tahlil qilib, bir yechimga kelish malakalarini shakllantiradi. Qo'llanmada keltirilgan ma'lumotlar o'zining nazariy va metodologik jihatlari bilan ajralib turadi va mazmun jihatdan ob'yektiv ahamiyat kasb etadi.

GLOSSARIY

Abstraktlashtirish - bu usul universal xarakterga ega bo'lib, tafakkurning har bir qadami ushbu jarayon bilan bog'liq. Bu usulning mohiyati asosiy bo'lmagan xususiyatlarga, aloqalarga, munosabatlarga e'tibor qaratmasdan, predmetning tadqiqotchini qiziqtiradigan asosiy bir nechta tomonlarini tadqiq etishga e'tibor qaratiladi Abstraktlashtirish jarayoni ikki bosqichli murakkab xarakterga ega. Birinchi bosqichda muhim jihatlari muhim bo'lmaganlaridan ajratib olinadi. Aynan shu bosqichda voqeliklarning turli tomonlari va omillari baholanadi. Ikkinchi bosqichda esa turli xususiyatlarga boy bo'lgan obyekt bilan almashtiriladi. Abstraktlashtirish jarayoni boshqa tadqiqot usullari bilan, ayniqsa analiz (tahlil) va sintez usullari bilan chambarchas bog'liqdir.

Abstraktlikdan konkretlikka o'tish tafakkurning asosiy usullaridan biridir. "Abstraktlik" asosan inson bilimlarini tasniflash uchun ishlatiladi. Abstraktlik deganda bir tomonlama, to'liq bo'lmagan, predmetning asosiy mohiyatini ochib bermaydigan bilim tushuniladi. "Konkretlik" odatda ikki xil m a'noda ishlatiladi. 1) voqelik, turli xususiyatlarga ega bo'lgan obyektlar; 2) obyekt haqida ko'p qirrali, har tomonlama, tizimli bilim.

Amiri Hamid Abu Muhammad Nuh - Somoniylar sulolasidan, hukmdorlik yillari: 943 - 954. U haqda "Buxoro tarixi"ning XXXIII bobida to'liq ma'lumot berilgan. Aslida diniy jamoalar va ruhoniylarning oliy rahbarlik lavozimlarini egallab kelgan sadrlar XII asrda Buxoroda feodal davlat ustidan hukmronlikni ham o'z qo'llariga qolganliklari nazarga olinsa, Abdulaziz sadrga berilgan mazkur yuksak sifatlar boisi oydinlashadi.

Analiz (tahlil) (yunoncha - ajratish, parchalash) - bir predmetni tarkibiy qismlarga ajratish orqali ilmiy tadqiqot olib borish usuli.

Ajam - arablar o'zlaridan boshqa xalqlarni "Ajam" deb ataganlar, shuningdek, arablar yashaydigan yerlardan boshqa mamlakatlar, xususan Eron va Turonlar ham "mulki Ajam" nomi bilan yuritilgan.

Annalchilar - dastlabki qadimgi Rim tarixchilari, ular tarixiy voqea-hodisalarni konsullarning hukmronlik qilgan yillariga qarab yozishgan.

Annallar - qadimgi va o'rta asrlarga tegishli bo'lgan o'zining qisqa bayoni bilan farq qiluvchi yilnomalar ko'rinishidagi yozuvlar.

"Annallar" maktabi yoki "Yangi tarix fani" - XX asrda Fransiya

tarix fanidagi yo'nalish bo'lib, ijtimoiy fanlarda noan'anaviy tadqiqot usullarini taklif qilgan. Annallar maktabining eng asosiy namoyandalari L.Fevr, Blok, F.Brodel, Le Goff kabi olimlar edi.

Arxetip - namuna, birlamchi ko'rinish va g'oya.

Arxitektonika - qismlarning bir butunlikka birikuvi, jamlanma.

Aspekt - tadqiqot obyekti ko'rib chiqilayotgan nuqtayi nazar qirrasi.

Ahmad ibn-Ismoil — Somoniylar sulolasidan, hukmdorlik yillari: 907 - 914. U haqda "Buxoro tarixi"ning oxirgi boblaridan birida (XXXI) to'laroq yozilgan.

Gender tarixi - "Xotin-qizlar tarixi"dan farqli ravishda o'z predmeti sifatida jinslar dialogini tanladi. Gender tarixi tarixiy tadqiqotlarda fanlararo yondashuvning namoyon bo'lishi bo'lib, yangi ijtimoiy tarixning yaxlitligini tiklashga qaratilgan. Gender tarixining predmeti ijtimoiy munosabatlarning muhim jihatlaridan biri bo'lgan erkaklar va ayollar o'rtasidagi munosabatlar hamda ularning makro tarixiy kontekstda namoyon bo'lishi hisoblanadi. Gender tarixi jinslarning ijtimoiy-madaniy farqlari va jinslar iyerarxiyasi to'g'risidagi tasavvurlar kelib chiqqan holda ularning funksiyasini tarixiy retrospektivada ko'rsatadi. Gender munosabatlari dinamikasi ijtimoiy-tarixiy rivojlanishning umumiy konsepsiyasiga qo'shilib ketadi.

Vizual tadqiqotlar - XX asrning so'nggi o'n yilligida G'arb ijtimoiy fanlarida vizual materiallarga qiziqish ortib ketdi: yetakchi universitetlarda fakultetlar soni ko'paydi, maxsus nashrlar pay do bo'ldi va ushbu muammolar bo'yicha tadqiqotlar chop etila boshladi. Bu esa vizual antropologiyani bahslar maydoniga aylantirdi, hozirgacha tadqiqotchilar orasida vizual usullar, ulardan foydalanish va boshqa usullar bilan muvofiqlikda tadqiqotlar olib borish haqida turli fikrlar bildirilmoqda. Hozirgi kunda visual materiallar nafaqat tadqiqot manbasi, balki obyekti tarzida ham o'rganilmoqda. Vizual tadqiqotlarda miqdoriy tahlil va diskur tahlil usuli keng qo'llaniladi.

Dehqonlar - bu yerda va umuman "Buxoro tarixi"ning ko'p joyida bu so'z yirik yer egalari, nasldor zodagonlar ma'nosida ishlatiladi.

Diaxron usul yoki davrlashtirish usuli - inson, jamiyat yoki jarayonlar rivojlanishini alohida bosqichlarga ajratish. U tarixiy tadqiqotlaming muhim usullaridan biridir. Bu usul tarixiy jarayonning ma'lum bir davr mobaynidagi sifat jihatidan o'zgarishini aniqlash imkonini beradi. Shuningdek, m a'lum bir davrda tarixiy voqeliklarning

mohiyatini va qonuniyatini ochishga yordam beradi.

Diskurs (lotincha - muhokama qilmoq, muloqot o'matmoq) - XVI - XVIII asrda fanda qo'llanılgan bo'lib, dıskurs ilmiy dalillarga asoslangan nutqning sinonımi sifatida ishlatiladi. U ilmiy muammolarning aniq bir maqsadga qaratılgan muhokamasi. Uyg'onısh davrida dıskurs tadqiqot jarayoni va izlanish rejasi sifatida namoyon bo'lgan. Yangi davrda esa ilmiy faoliyatning qonunqoidalari sifatida qo'llanila boshladi. U muloqot ishtirokchılarınıng qarashları, maqsadlari, xabaming paydo bo'lish sharoiti va qabul qilinishi haqida tasavvur beradi.

Deduksiya (lotincha - surishtirib bilmoq) - bilish jarayonida umumiylikdan xususiylikka o'tish; xususıylikdan umumiylikni ajratish

Diskussiya - munozara, mubohasa, bahs, ma'lum bir bahsli masalalami muhokama qilish, unda har bir tomon suhbatdoshining fikriga e'tiroz bildirib, o'z pozitsiyasini asoslaydi va shu orqali maqsadiga erishishga harakat qiladi.

Zimmiylar - islom dini hukmron bo'lgan mamlakatda yashab turuvchi boshqa dinlarga mansub kishilar, islom davlati o'z himoyasıda saqlab turganligi evaziga zimmiylar ma'lum solig' - jiz'ya to'lab turganlar.

Zohid - molu dunyoga rag'bat va xohishi bo'lmagan, tarki dunyo qilgan kishi.

Ijtimoiy antropologiya - inson va jamiyatni, ulaming rivojlanish qonuniyatlari va madaniy xilma-xılligini o'rganuvchi fanlararo fandir.

Ilmiy bilish metodologiyasi - ilmiy tadqiqot faoliyatining tamoyillari, shakllari va yo'llari haqidagi ta'limot.

Ilmiy tadqiqot - aniq bir maqsadga qaratilgan bilish, uning natijasi tushunchalar, qonunlar va nazariyalar tizimi sifatida namoyon bo'ladı.

Ilmiy g'oya - nazariyaning turli komponentlarini birlashtirish asosi. G 'oya nazariyanıng boshqa komponentlariga nisbatan tadqiq etilayotgan sohaning asosiy xususiyatlarini ko'rsatib beradi.

Ilmiy fakt (dalil) - xulosa qilish yoki tasdiqlash uchun asos bo'luvchi voqea va hodisalar, ilmiy bilimning asosini tashkil etadi.

Imom Shofeiy - islom dinidagi mashhur to'rt sun'iy mazhabdan biri - "Shofeiy" mazhabining asoschisi; 767 yilda tug'ilib 819 yilda vafot etgan.

Induksiya - xususiy m a'lumotlardan umumiy xulosalarga o'tish.

Intellektual tarix - G'oyalar tarixi intellektual tarixning an'anaviy predmeti bo'lishda davom etsada, uning tadqiqot doirasi ancha

kengaygan va bitta ilmiy paradigmaga tayanmaydi. An'anaviy intellektual tarixdan farqli ravishda u faqat mazmun va shaklni emas, balki intellektual faoliyat sharoitini, davr intellektual iqlimini o'rganadi va tafakkur tarixini ijtimoiy-madaniy bog'liqlikda tadqiq etadi.

Kadivarlar - Arablar istilosi oldidan O'rta Osıyoda ilk feodal jamiyatining tashkil topa boshlagan davrida erkin dehqonlar tabaqasi bilan bir qatorda paydo bo'lgan, ammo erkin dehqondan farqli o'laroq, iqtisodiy jihatdan boy tabaqalarga butunlay qaram bo'lgan kishilar.

Konsepsiya - biron-bir narsa haqıdagi qarashlar tizımi, tadqiqotning maqsad va vazifalari hamda tadqiqot olib borish yo'llari haqıdagi asosiy fikr vaziyat.

Kuhandiz - "kundiz" qal'a. XIII asrdan boshlab Buxoroning kuhandizi "ark" deb ham atalgan.

Kuzatish - inson hissiy organlari orqali faol bilish jarayonidir. Kuzatish nazariy va amaliy harakatlar asosi bo'lib xizmat qilishi uchun predmet va voqealarning xususiyatlari haqida m a'lumot berishi zarur. Bilishning samarali usuli bo'lishi uchun kuzatish bir nechta talabga javob berishi lozim: 1) rejali; 2) yo'naltirilgan; 3) faol 4) tizimli.

Mentalitet (mentallik) - 1) u yoki bu jamıyat a'zolarining ma'lum bir aqliy, psixologik jihatlariga ega bo'lishi natijasıda ularning dunyoni va o'zini anglashiga ımkon berishi; 2) fikrlash obrazi, alohida bir kishining yoki ijtimoiy guruhning aqliy ko'nikmasi va ma'naviy qadriyatlari.

Metodika (uslubiyat) - tadqiqot usulları va yo'llari yig'indisi, ularni qo'llash tartibi va ular yordamida olingan natıjalarni talqin qilish. U tadqiqot obyekti, metodologiyasi, maqsadi, usullari, tadqiqotchıning umumiy tayyorgarlik darajasi bilan bog'liq.

Metodologiya - u yoki bu fanning asosini tashkil etuvchi umumiy tamoyillar, usullar, qarashlar tizimi.

Mol - har xil ma'noda ishlatıladigan termin: "Buxoro tarixi" da ko'pincha pul, mol mulk mazmunini anglatsa ham asosan xiroj, jon puli ma'nosida ham keladi.

Mikrotarix - mashhur bo'lmagan kishılar, u yoki bu ijtimoiy qatlamning odatiy bo'lmagan vakillari hayotini har tomonlama o'rganish orqalı tarixiy tadqiqotlar olib borish yo'nalishidir. 1950-60 yillarda "mikrotarix" atamasi F.Brodel tomonidan ishlatılgan. Mikrotarix 1970-yillarda Italiyada vujudga kelgan. Buboradagi dastlabki ishlar avval "Quaderni Storici" nomli jurnalda, keyinchalik Eynaudı nashriy-

otida Karl Ginzburg va Djovanni Levi tomonidan "Microistirie" nomli seriyada chop etilgan. 1970 yillarda Germaniyada ijtimoiy fanlarning tarixiy-tanqidiy vakillariga qarshi (X.U. Veler, X. Byome, Yu. Kokk, M. Shtyurmer) "davlat siyosatini o'rganishdan va global ijtimoiy tizimlarni tahlil qilishdan kichik hayotiy voqeliklarga murojaat qilaylik" shiori ostidagi harakat boshlandi. Mikro tarixning paydo bo'lishiga 1960 yillarda makro tarixiy tadqiqotlarning inqirozi sabab bo'lgan.

Miqdoriy usullar - voqelik va jarayonlarni miqdoriy ko'rsatkichlar tizimi asosida tahlil qilish.

Misqol - og'irlik o'lchovi: 4,25 gramm.

Monitoring - ommaviy axborot vositalari tomonidan ma'lumot to'planishi.

Muammo - yirik, umumlashtirilgan ilmiy masalalar bo'lib, y kelgusi tadqiqot chegarasini o'z ichiga oladi.

Mujovirlar - masjid va mozorlarda tunab yuruvchilar.

Muqotaa - ulush sifatida taqdim qilingan yer-mulk.

Nazariya - ishonchli g'oyalar, qoidalar, tushuntirish talab qiluvchi hodisalar tizimi. Nazariya isbotlangan, mantiqan to'g'ri tuzilgan ilmiy bilimlar tizimi, u mavjud xususiyatlarni, qonuniylikni, sabab-oqibat aloqalarini aniqlashga qaratilgan.

Narrativ - bayon, epik, tavsifiy.

Nasr - Ismoil Somoniyning akasi. Samarqandda hukmronlik qilgan; vafoti yili 892.

Nur - Samarqand viloyatidagi hozirgi Nurota.

Oriz - askarlar va mansabdorlarga maosh ulashish ishlarini boshqarish lavozimidagi kishi, xazinachi ma'nosida xam tushunish mumkin.

Omillar - umuman xizmatchi yoki amaldor ma'nolarida; bu yerda soliq yig'uvchilik lavozimidagi kishilar ma'nosini anglatuvchi tarixiy atama.

Og'zaki tarix - "Og'zaki tarix" atamasi paydo bo'lganligiga ko'p bo'lmagan bo'lsa-da, ammo og'zaki tarix tushunchasi yangi emas, tarix paydo bo'lishi bilan og'zaki tarix vujudga kelgan hamda tarixning birinchi turi edi. XIX asr o'rtalarida fransuz tarixchisi Ekol Normal, Sorbonna va Kollej de Frans professori Jyul Mishle "Fransuz inqilobi tarixi" (1847-1853) kitobining manbalari faqat yozma manbalar bo'lmasdan, u esdaliklardan ham keng foydalangan. U 1798 yilda

Parijda tug'ilgan, ya'ni Bastiliya ishg'ol qilinganiga hali o 'n yil ham to 'lmagan edi. U 10 yillar mobaynida Parijdan tashqarida og'zaki esdaliklarni tizimli ravishda to'plagan. Jyul Mishle rasmiy hujjatlar ma'lumotlarini aholining siyosiy qarashlari bilan uyg'unlashtirishni maqsad qilgan edi. Og'zaki tarixning "otasi" Pol Tompson "og'zaki an'ana" deganda alohida insonlarning - dehqonlar, shaharliklar, qariyalar, ayollar, bolalar fikrlari yig'indisini tushungan, bunda ba'zi fikrlar ko'p marotaba takrorlangan.

Paradigma - boshlang'ich konseptual sxema, muammolarni qo'yish va ularni yechish modeli, ma'lum bir tarixiy davrda ilmiy jam iyatda hukmron bo'lgan tadqiqot usullari.

Partiyaviylik tamoyili (prinsipi) - hodisa va jarayonlarni baholashda sinfiy yondashuvga o 'xshash bo'lgan partiyaviylik tamoyili tarixiy tadqiqotlarning markscha-lenincha metodologiyasining asosini tashkil etgan. Sobiq Ittifoq davrida olimlar partiyaviylik prinsipidan kelib chiqqan holda tadqiqotni tarixiy baholashda asosiy mezon sifatida amal qilgan. Tarix fanida partiyaviylik prinsipidan asosiy tamoyil sifatida foydalanish jam iyatda o'zaro munosabatlarni real tasavvur etishdan chetlashishga olib keldi.

Polemika - (yunoncha so'zdan olingan bo'lib, kelishmovchilik ma'nosini anglatadi) - bahs qilib savollarni aniqlash yoki muammolar yechimini topishdir. Shu bilan bir qatorda disput, bahslashish, diskussiya m a'nosida ham ishlatiladi.

Retrospektiv usul - tarixiy modellashtirish usuli ham deb ataladi. Bu usulning mohiyati "retrohikoya", ya'ni tadqiqotchining fikrlash yo'nalishi hozirgi zamondan o'tmishga, hozirgacha saqlanib qolgan eski elementlarni o'rganishdan ular asosidagi tarixiy voqea va hodisalarni rekonstruksiya qilishdadir. O'tmish hozirgi zamon va kelajakning birligi retrohikoyaga imkon beradi. Hozirgi zamondan ham ichpa borish natijasida tadqiqotchi voqeliklarning turli bosqichlarini ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladi. O'z navbatida o 'rganilayotgan jarayonlarning mohiyatini chuqur anglab yetishga, keyinchalik ularning mohiyatini ochib berishga imkon beradi. Ammo tadqiqotchi o 'sha davrdan rivojlangan voqelikni etalon sifatida qabul qilmasligi lozim.

Semiotika - bu tushunchaning paydo bo'lishi uning asoschisi F.de Sossyura nomi bilan bogMiq. u til belgilar tizimi ekanligini isbotladi. Demak, semiotika belgilar tizimi haqidagi fandir. Ancha yillar mobaynida

semiotika, asosan, jurnalistika va kommunikatsiya fakultetlari qoshida o'rganildi. Chunki aynan shu fakultetlar mediatekstlarni tadqiq etgan, ular uchun "vizual matn", "verbal matn" kabi muhim bo'lgan. Semiotika tushunchasidan fransuz poststrukturalizm vakili Roland Bart ham foydalanib, moda, upakovkalarni belgilar tizimi sifatida tadqiq qildi. Belgilarramzlar rolini bajaradi, unda m a'lumotlar mavjud. Belgilar tizimi madaniy tajriba, jamiyatdagi ijtimoiy va madaniy o'zaro ta'sir translatsiyasini amalga oshiradi.

Sinergetika - sinergetika atamasi qadimgi yunon tilidan kelib chiqqan bo'lib, birgalik, birlashgan holda, hamkorlik, ko'maklashish, ishtirokchilik yoki ko'maklashuvchi, yordam beruvchi degan m a'nolarni anglatadi. Sinergetikaning tadqiqot predmeti bo'lgan tizimlar turli xil bo'lib, turli fanlar, masalan, fizika, kimyo, biologiya, matematika, iqtisod, sotsiologiya, lingvistika va boshqa fanlar tomonidan o'rganilishi mumkin. Ilmiy bilishning an'anaviy sohalaridan tashqari sinergetika har qanday tabiatga ega bo'lgan tizim evolutsiyasining umumiy qonuniyatlarini o'rganadi. 1980-yillarda Germaniyada bu fan sinergetika (G.Xaken), fransuz tillik davlatlarda - dissipativ tizimlar nazariyasi (I.Prigojin), AQSHda - dinamik tartibsizlik nazariyasi (M.Feygenbaum) deb atalgan. Unda rivojlanish tizimning barqaror holatiga muvofiq ravishda uzoq davrlar izchilligi sifatida tushuniladi. O'rtada uzilish, ya'ni tartibsiz holatlarning qisqa davri ("bifurkatsiyalar") ro'y beradi. Undan keyin yana bifurkatsiya nuqtasida tanlangan fluktatsiyaga qarab keyingi barqaror holatga ("attraktorga") o'tiladi. Sintez (yunon.-ulanish) - analiz natijasida olingan qismlarni bir butunga birlashtirishdan iborat. Unda hodisalar o'zaro bog'langan, bir butun holda tadqiq etiladi, olingan natijalar umumlashtiriladi va xulosalar chiqariladi.

Sinxron usul - turli voqea va hodisalarni bir paytda o'rganish. Turli voqea va hodisalarni alohida o'rganish ularning ahamiyatini oshirib yoki kamaytirib yuboradi, natijada absolyutlashtirish kelib chiqadi. Voqelik haqida subyektiv qarashlar paydo bo'lishiga olib keladi. Bundan tashqari, sinxron usuldan foydalanish voqeliklar o'rtasidagi murakkab aloqalarni va o'zaro ta'simi o'rganish imkonini beradi.

Strukturali - tizimli usul – bu ususl jamiyatni turli vako'p aloqalarga (iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, g'oyaviy) aloqalarga ega bo'lgan yagona, ammo murakkab tizim sifatida tadqiq etadi, ya'ni "gorizontal holatda" o'rganadi; bu usul jamiyatning ijtimoiy strukturasini "vertikal

ko'rinishda" o'rganish imkonini beradi, ya'ni jamiyatni ierarxiyaga asoslangan guruhlar (shaxs, ijtimoiy guruh, sinf, partiya, davlat va b.) ga bo'lib o'rganadi.

Tadqiqot obyekti - o'rganish uchun tanlangan muammoviy vaziyatni keltirib chiqaruvchi jarayon yoki voqelik.

Tadqiqot predmeti - tadqiqot obyekti chegarasida ma'lum aspekti o'rganiluvchi narsalar. Tadqiqot predmeti aniq bo'lib, y tadqiqotda bevosita o'rganiladigan munosabat va aloqalarni o'z ichiga oladi. Har bir obyektda bir nechta tadqiqot predmetlarini ajratish mumkin. Tadqiqot predmetidan umumiy vazifalar va maqsad kelib chiqadi.

Tamoyil (prinsip) - qandaydir bir nazariya, ta'limot, fanning asosiy boshlang'ich holati.

Tarixiy tadqiqot predmeti - bilish jarayoniga kiritilgan obyektning bir qismi. U ko'p aspektli boTib, har doim tizimli xarakterga ega. Tarixiy tadqiqot predmetini doimo tarixiy tadqiqot obyekt bilan uzviy ravishda ko'rish kerak.

Tarixiy parallel (qiyosiy-tarixiy) usuli - o'rganilayotgan hodisalar o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni aniqlashga asoslangan. Bu usul o'rganilayotgan voqelikni o'rganib bo'lingan voqelik bilan qiyoslash hamda birinchisining mohiyatini anglab yetishga yordam beradi. Ushbu usul XIX oxiri - XX asr boshlarida yagona ilmiy usul sifatida tan olingan.

Tarixiy voqealar va jarayonlarni baholashda sinfiy yondashuv tarixiy va tarixshunoslik tadqiqotlarining markscha-lenincha metodologiyasining asosiy belgisi, unda voqea va jarayonlar, manbalar m a'lum bir sinf nuqtayi nazaridan o'rganiladi. Sovet hokimiyati yillarida kommunistik partiya rahbarlari va ideologlari tarix fanida nafaqat sinfiy yondashuvni qonunlashtirdi, balki uni mutlaqlashtirdi va uni ilmiy asoslashga urindi. Zamonaviy tarix fanida bunday yondashuvdan voz kechilgan, ammo voqea va jarayonlar bir davrda ma'lum bir mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat bilan bog'liq holda ro'y berishini unutmaslik lozim.

Tarix metodologiyasi - tarix fanining usullar haqidagi qismi. XIX asrning birinchi yarmidan bu tushuncha ishlatila boshlagan. Atama dastlab nemis tarixchilari tomonidan usul haqidagi ta'limot (Methodenlehre) va o'quv fanining nomi sifatida ishlatilgan. Hozirgi kunda "metodologiya" tushunchasi nafaqat dastlabki holatida, balki

tarixiy bilishning nazariy asosi sifatida qo'llaniladi. Tarixchining tadqiqot amaliyotini umumiylashtirgan holda metodologiya bilishga ongli ravishda munosabatda bo'lish, usullar va nazariy tamoyillarni ishlab chiqish va ongli ravishda ularni tadqiqotga qo'llash imkoniyatini beradi. Metodologiya qo'yilgan muammolarga tayyor javob bermaydi, ammo muammolarni qanday yechishni o'rgatadi. Tarix fanining umumiy metodologiyasi mavjud emas. Tarixchining nazariy pozitsiyasi uning tanlovi yoki mustaqil ijodi va bilim darajasi, ijtimoiy muhit bilan bog'liq.

Tarixiylik - tarixning mustahkam qonuniyatlari mavjudligiga ishonch va ijtimoiy rivojlanishning azaliy xarakterga ega ekanligiga asoslangan konsepsiya. Bunga asoslanib tarixiylik tarafdorlari tarixiy bashorat qilish mumkin deb hisoblaydi.

Tarixiy informatika - manbashunoslik va informatika chegarasida paydo bo'lgan tarix fanining yo'nalishi, uning asosini tarixiy manbalarni kompyuterda qayta ishlash, tadqiqotda yangi kompyuter texnologiyalarini qo'llash, o'quv jarayoniga kompyuter dasturlarini vujudga keltirish tashkil etadi.

Tarkibiy tahlil usuli (kontent analiz) - tahlil predmeti axborot berish qobiliyatiga ega bo'lgan matnlar tarkibidan iborat. Tarkibiy tahlil o'z mohiyatiga ko'ra xuddi miqdoriy tahlil usuli kabi matn va matnlar majmuasini tahlil qiladi. Tarkibiy tahlilda manba o'rganilayotganda unga yondash boTgan barcha axborot manbalari birdek tahlil qilinadi. Ushbu usulning keng qo'llanila boshlangan davri axborot asrining boshlanishi bilan bog'liq, biroq XVIII asrdayoq Shvetsiyada bu usul bilan bogTiq ayrim tadqiqotlar yaratilgan. XX asrning 30-yillaridan bu usul to'laqonli usul sifatida AQSHda ijtimoiy fanlar doirasida keng qo'llanila boshlandi. Mazkur usulning nazariy masalalarini yaratishda AQSHlik olimlar B.Met'yu, A.Tenni, D.Spid, D.Upkennie va keyinchalik fransiyalik tadqiqotchi J.Kayzerning xizmatlari katta bo'lgan. Dastlab tarkibiy tahlildan sotsiologik tadqiqotlarda, jumladan, reklama va targ'ibot ishlari materiallarini o'rganishda qoTlanilgan. Siyosiy tadqiqotlarda qoTlanilishi yuzasidan dastlabki tadqiqotni G.Lassuel amalga oshirgan. U ikkinchi jahon urushidagi tashviqot va targ'ibot materiallarini o'rganishda metod imkoniyatlarini ochib bergan. 1960 – yillardan boshlab kompyuter texnikalaridan keng foydalanishning boshlanishi bilan ushbu usulga ko'p murojaat qilish

boshlandi.

Taqqoslash - bilishning eng keng tarqalgan usullaridan biridir. Taqqoslash predmet va voqealarning o'xshash jihatlari hamda farqlarini aniqlash imkonini beradi. Taqqoslash natijasida ikkita va undan ortiq obyektga xos bo'lgan umumiylik aniqlanadi. Taqqoslash yordamida predmetning miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari ma'lum bo'ladi. Voqeliklarda takrorlanadigan umumiylikni aniqlash qonuniyatlarni bilish yo'lidagi bosqich hisoblanadi. Taqqoslash samarali bo'lishi uchun 2 ta asosiy talabga javob berishi lozim: 1) o'rtasida umumiylik mavjud bo'lgan voqeliklar taqqoslanishi lozim; 2) obyektlarni o'rganish uchun muhim, asosiy jihatlari taqqoslanishi lozim.

Tendensiya - biron bir g'oya, fikr, hodisaning rivojlanish yo'nalishi.

Transformatsiya - jamiyat hayotidagi sodir bo'ladigan o'zgarishlar.

Tobeinlar - Muhammad payg'ambarni o'z ko'zi bilan ko'rgan (sahoba)larni ko'rgan kishilar.

Eksperiment (tajriba) usuli - kuzatish usuliga qaraganda bir qancha ustunliklarga ega: 1) tajriba jarayonida u yoki bu voqelikni "toza" holatda o'rganish imkoniyati mavjud; 2) tajriba voqeliklarni ekstremal holatda tadqiq etadi. Ilmiy tajriba o4kazish uchun uning natijalarini umumlashtirish, natijalarni tushuntirish uchun nazariya zarur bo'ladi. Tajribani o'tkazish bir qancha bosqichlarni o'z ichiga oladi: 1) ilmiy farazni oldinga surish; 2) tadqiqotning aniq vazifasi va obyekti belgilanadi; 3) tajribani amalga oshirish uchun moddiy baza tayyorlanadi; 4) tajriba o'tkazishning optimal yo'li tanlanadi; 5) tajriba jarayonida voqeliklar kuzatiladi; 6) olingan natijalar tahlil qilinadi va umumlashtiriladi.

Fanlararo yondashuv - XIX asrda paydo bo'lib, tarix fanining tadqiqot usullarini doimiy ravishda boyitish ehtiyojidan kelib chiqqan. Fanlararo tadqiqotlarning metodologik asosini ijtimoiy gumanitar fanlarning obyekti umumiyligi tashkil etadi, ularning predmetlari esa turlichadir. Ijtimoiy gumanitar fanlarning obyekti inson bo'lib, uning hayotining barcha jihatlari o'rganiladi. Shu bilan birgalikda tadqiqot usullari turlichaligi ham ijtimoiy gumanitar fanlari predmetining o'ziga xos xususiyatini tashkil etadi.

Farab - (yoki Firabr), bu qishloq Chorjo'y ro'baro'sida. Amudaryo bo'yida Bitikka yaqin joylashgan va "Raboti Tohir ibn Ali" deb mashhur bo'lgan.

Faqih - shariat ilmini, shariat hukmlarini yaxshi biluvchi kishi.

Usul - ma'lum bir ravishda tashkil etilgan maqsadga erishish yo'li, fanda esa tadqiqotchining farazga asoslangan holda tadqiqot predmetini o'rganish yo'li.

O'lchov - taqqoslashga nisbatan aniqroq usul hisoblanadi. O'lchov sifati o'lchov asboblariga va tadqiqotchining harakatiga bog'liqdir. Bu usul asosan aniq fanlarda ishlatiladi.

Xronologik usul - tarixiy voqea va hodisalarni tarixiy davr doirasida ularning ketma-ketligi, harakati va o'zgarishi nuqtayi nazaridan o'rganiladi. Ushbu usul bir-biri bilan bogTiq voqealar xronikasini o'rganib, tadqiq etilayotgan jarayonning mohiyatini ochish imkonini beradi. Yangi ijtimoiy tarix - XX asrning oxirgi o'n yilligida an'anaviy ijtimoiy tarix transformatsiyasi asosida ilmiy bilimlarning antropologiyazatsiyalashuvi ta'sirida paydo boTdi. A n'anaviy ijtimoiy tarixdan farqli ravishda uning diqqat markazida ijtimoiy tizim va jarayonlar emas, balki "rivojlanayotgan jonli ijtimoiy organizmning hujayrasi sifatida" inson turadi. Ijtimoiyjarayonlarni o'rganish rakursi o'zgardi: tarixni "yuqoridan" turib, "dunyoning kuchli kishilari" idrok qilishi va rasmiy diskurs orqali o'rganishdan voz kechildi. turli davrlarda oddiy insonlar hayoti "pastdan" va "ichkaridan" o'rganila boshladi. Shuningdek, ijtimoiy borliq shakllari, hokimiyat institutlari va ular o'rtasidagi munosabatlar, insonlarning ijtimoiy munosabatlar tizimidagi o'rni va roli tadqiq etiladi. Shunday qilib, ijtimoiy tarixda inson ijtimoiy-madaniy amaliyoti va inson xatti-harakatining (kundalik hayotda insonlarning o'zaro munosabati va hokimiyat bilan munosabati; oila, nikoh, bolalar tug'ilishi va tarbiyasi muammolari; jinslar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, ta'lim, moddiy jihatdan ta'minlanganlik, dam olish va boshqalar; yashashning har kunlik muammolarini hal qiluvchi ijtimoiy muassasalar, jamiyatning moddiy ta'minlanganligi, axloqiy va psixik jihatdan salomatligi; ichkilikbozlik, jinoyatchilik, narkomaniya muammosi; e'tiqod ramzlari, ijtimoiy ong afsonalari, marosimlar, suhbat amaliyoti, folklor va boshqalar) ijtimoiy sabablari oldinga chiqadi

Xarvor - har xil shaharlarda miqdori har xil bo'lgan og'irlik o'lchovini anglatadi. Lug'aviy ma'nosi "bir eshak yuki", ya'ni bir eshakka ortilishi mumkin bo'lgan og'irlik mikdori. Bu o'rinda esa "xarvorho" shaklida yozilgan va umuman juda ko'p degan mazmunni anglatadi.

Xarqonrud - Zarafshon daryosidan chiqarilgan. Shopurkom va G'ijduvon rayonlarini sug'oruvchi qadimiy kanallardan biri. Bu yerda shundan nomli kanal bo'yida joylashgan, Buxoro qishloqlaridan biri bo'lgan, Karmina yaqinidagi Xarqona nazarda tutilishi kerak.

Haqqoniylik - inson irodasi va ongi bilan bog'liq bo'lmagan holda dunyo, predmetlar va ularning xususiyatlari mavjud boMishi.

Tarixiy tadqiqotlar haqqoniyligi - tadqiqot mavzusini avvaldan belgilab olingan baholashsiz va konyunktura tasavvurlarisiz butun murakkabligi, ko'p jihatliligi bilan o'rganish. Tadqiqotchi tarix fanini siyosiylashtirmasdan, haqiqatni izlashi va unga amal qilishi lozim. Olim milliy va boshqa jihatlarni hisobga olgan holda insonparvarlik qadriyatlarini va butun insoniyat manfaatlarini ustun qo'yishi kerak

Shahriston (Shoriston shaklida ham yozilgan) - shaharning mudofaa devori bilan o'ralgan asosiy qismi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Rahbariy adabiyotlar va normativ huquqiy hujjatlar

1. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Тошкент: Шарқ, 1998. 22-б.
2. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. Тошкент. “Ўзбекистон”, 2021. -Б. 233.

Asosiy adabiyotlar

3. Абдуллаев К.А. Культ хаомы в древней Центральной Азии. –Самарканд.: Международны Институт Центральноазиатских исследований. 2009.
4. Алексеенков П. 1916 йилда бўлган Хива қўзғолони. – Т.: Ўздавнашр, 1931.
5. Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. Тошкент, 2000.
6. Аминов А.М. Экономическое развитие Средней Азии (колониальный период). – Т., 1959.
7. Асқаров А.А. Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи. – Тошкент: Университет, 2007.
8. Аҳмедов Б. Ўзбекистон тарихи манбалари, Тошкент, 1991.
9. Ахмеджанов Г.А. Российская империя в центральной Азии (история и историография колониальной политики царизма в Туркестане). – Т.: Фан, 1995. – 218 с.
10. Аҳмаджонов Ф.А. Россия империяси Марказий Осиёда. Т., 2003.
11. Ахунова М.А., Лунин Б.В. История исторической науки в Узбекистане. – Т., 1970. – 256
12. Баёний Муҳаммад Юсуф. Шажарайи Хоразмшоҳий // Мерос тўплами. – Т.: Камалак,1991.
13. Бартольд В.В. История культурной жизни Туркестана. – Л., 1927.
14. Бойназаров Ф.Ўрта Осиёнинг антик даври. Т., Ўқитувчи 1991.
15. Бобобеков Ҳ. ва бошқ. Ўзбекистон тарихи. Қисқача маълумотнома. -Т.: Шарқ, 2000.
16. Булатова В.А., Ноткин И.И. Хиванинг архитектура ёдгорликлари. – Т.: Ўздавнашр, 1963.

17. Булатова В.А. Хива обидалари (йўл кўрсаткич). – Т.: Ўзбекистон, 1972.
18. Эшов Б. Ўзбекистон давлатчилик тарихи. – Тошкент: Маърифаат, 2009.
19. Гордиенко А.А. Создание народно-советского государства и права и их революционно преобразующая роль в Хорезме и Бухаре. – Т.: САГУ, 1959.
20. Гулямов Я.Г. Памятники города Хивы. – Т.: АН УзССР, 1941.
21. Илҳомов З. Қўқон хонлиги тарихшунослигининг айрим масалалари. Т. 2007.
22. Иванов П.П. Архив Хивинских ханов XIX в. / Исследование и описание документов с историческим введением // Новые источники для истории Средней Азии. – Л.: Издание Государственной Публичной Библиотеки, 1940.
23. Жўраев Ж. А. Камёб ҳаёти ва ижодий мероси манбалари. Т., 2012.
24. Каримов Ш., Шамсутдинов Р. Ватан тарихи, Тошкент, 1997., Центральная Азия в Кушанскую эпоху, Т. 2, Москва, 1974.
25. Лунин Б.В. Средняя Азия в дореволюционном и советском востоковедении. – Т.: Наука, 1965. – 408 с.;
26. Лунин Б.В. История Узбекистана в источниках. Узбекистан в сообщениях путешественников и учёных (20 – 80-е годы XIX в.). – Т.: Фан, 1990. – 196 с.
27. Мамбетуллаев М.М. Кочевники Приаралья и их этнокультурные связи с Хорезмом // Культура номадов Централной Азии. – Самарканд: 2008.
28. Муниров Қ. Хоразмда тарихнавислик (XVII – XIX ва XX аср бошлари). – Т.: Ғафур Ғулом,2002.
29. Муҳаммад Ризо Эрниёзбек ўғли Огаҳий. Шоҳиду-л-иқбол (Иқбол шаҳодати) // Нашрга тайёрловчи Н. Шодмонов. – Т.: Муҳаррир, 2009.
30. Мухамеджанов А.Р., Нигматов Т.Н. Некоторые источники по истории связей России с Бухарой и Хивой в первой четверти XIX в. – Т.: ФАН, 1957.
31. Назаров Ф. Записки о некоторых народах и землях Средней части Азии. С.-Пб., -1821

32. Ноткин И.И. Хива миноралари. – Т.: Ўзбекистон, 1978.

33. Огаҳий Муҳаммад Ризо. Зубдат ут-таворих (Тарихлар сараси) // Нашрга тайёрловчи Н. Жабборов. – Т.: Ўзбекистон, 2009. – 240 б.

34. Погорельский И.В. История Хивинской революции и Хорезмской Народной Советской Республики. –Л.: ЛГУ, 1984.

35. Қадимги тарихчилар Ўрта Осиё ҳақида. Тузувчи ва таржимон Зоҳир аълам.Т.: Юрист медиа маркази 2008.

36. Сагдуллаев А.А. Ўзбекистон тарихи. – Т.: Университет, 1999.

37. Смирнов Е.Т. Султаны Кенисара и Садык. -Т.: Тип С.И.Лахтина, 1889.

38. Тольстов С.П. Древний Хорезм. Опыт историко-археологического исследования. –М.: МГУ, 1948.

39. Терентьев М.А. История завоевании Средней Азии. – СПб., 1906.

40. Тўхтаметов Т.Г. Россия и Хива в конце XIX – начале XX века. – М.: Наука, 1969.

41. Йўлдошев М.Й. Хива хонлигида феодал ер эгалиги ва давлат тузилиши. – Т.,1959.

42. Йўлдошев М.Й. XIX аср Хива давлат ҳужжатлари. – Т.: Фан, 1960. Т. 2. – 404 б.

43. Вельяминов-Зернов В.В. Исторические известия о Кокандском ханстве от Мухаммед-Али до Худаярхана. -С.-Пб.: 1856.

44. Вамбери А. Путешествие по Средней Азии. – М., 1867.

45. Хазанов А.М.Социальная история скифов. –М.: 1975.

46. Ҳамдамов Х. Хива хонлигининг ағдарилиши ва Хоразм Совет халқ республикасининг тузилиши. – Т.: Ўздавнашр, 1960.

47. Юсупов Ш. Хуфия қатламлар. -Т.: Маънавият, 1999.

48. Зиёев Ҳ.З. Туркистонда Россия тажовузи ва ҳукмронлигига қарши кураш. -Т.: Шарқ, 1998.

49. Ўзбекистон ССР тарихи. – Т.: Фан, 1971. Т. II.

50. “Ўзбекистоннинг янги тарихи” 1-китоб. Туркистон чор Россияси мустамлакачилиги даврида. Т., 2000.

51. Шониёзов К.Ш. Қанг давлати ва қанғлилар. – Тошкент: Фан, 2000.

Boshqa ilmiy nashrlar va tadqiqotlar

52. Аминов А. Ўрта Осиёнинг Россияга қўшилишининг прогрессив аҳамияти. Звезда Востока, 1955. № 10.

53. Баймурзин А. Из истории захвата царизмом Большой и Средней Орды. // Изв. Каз филиала АН СССР. Серия история. Алма-Ата. 1940. -Вўп.I.

54. Бабабеков Х.Н. Народные движения в Кокандском ханстве и их социально – экономические и политические предпосўлки (XVIII – XIX вв). Дисс … д-ра ист. наук. - Т. - 1991. 302 с.

55. Блиев М.М. О некоторых проблемах присоединения народов Кавказа к России // История СССР. – М., 1991. – № 6.

56. Галкин М.Н. Краткая записка об исторических правах России на кокандские города Туркестан и Ташкент // Русский вестник. 1856. № 5.

57. Иванов П.П. Очерк по истории каракалпаков. Материалы по истории Каракалпаков // Труды института Востоковедение АН России. – М.–Л., 1935. Т. VII.

58. Калужин А.Ф. Из истории завоевания Узбекистана царской России // Труды Узб. гос. ун-та. Самарканд. 1939. Т.16.

59. Кошчанов А. Из истории аграрных отношений в Хивинском ханстве в конце XIX века.: Автореф. дисс. … канд. истор. наук. – Т., 1966.

60. Мамажанов М. Некоторые изменения в социально-экономической жизни народов Хивинского ханства в период с 1873 по 1920 г. // Научные записки Ташкентского финансово-экономического института. – Т., 1958. Вып.10.

61. Маткаримов М.М. Аграрные преоброзования в Хорезме и их социально-экономические последствия.: дисс. ... канд. истор. наук. – Т., 1976.

62. МасалиеваО. XIX асринглиз-америкатарихшунослигида Бухоро, Хива ва Қўқон хонликлари тарихи. Тарих фан. номз. … дисс. – Т., 1999.

63. Непесов Г. Из истории Хорезмской революции. – Т.: Госиздат, 1962.

64. Ражабов С. Ўрта Осиёнинг Россияга қушилиши... Т., 1959.

65. Садыков А.С. Экономические последствия установления протектората России над Хивинским ханством: Дисс. … канд.

истор. наук. – М., 1954.

66. Тухтаметов Т.Г. Взаимоотношения царской России с Хивинским ханством с 1873 по 1910 г. дисс. .. канд. истор. наук. – Т., 1949; Садыков А.С. Экономические связи Хивы с Россией. – Т.: Наука, 1965.

67. Вохидов Ш.Ҳ. XIX – XX аср бошларида Қўқон хонлигида тарихнависликнинг ривожланиши. Тарих фанлари д-ри илм. 1998. - 240 б

68. Юлдашев М.Ю. Ценный источникпо истории Хорезма (О рукописи Баяни «История Хорезма») // Известия АН УзССР. Серия Общественные науки. – Т., 1958. – № 6.

69. Шайдуллаев Ш., Омонтурдиев Ш. Ўрта Осиё кўчманчи халқларининг сиёсий бирлашмалари //Марказий Осиё деҳқончилик ва дашт цивилизациясининг ўзаро муносабатлари илмий назарий анжуман материаллари – Самарқанд: 2011.

70. Шайхова А. О Хивинской казийской книге из фондов Института востоковедения АН УзССР //ОНУ. – Т., 1982. – № 6.

Xorijiy manbalar

71. Abbot J. Narrative of Journey from Heraut to Khiva, Moscow and St-Petersbourg during the Late Russian Inavasion of Khiva, vol.1. – London, 1884.

72. Allworth E.A. Uzbek Literary politics – New York 1964; E. Bacon. Central Asiens under Russians Rule. – New York, 1966.

73. Barghorn L. Sovet Russian Nationalism. – New York, 1956.

74. Bregel Y. Central Asia. VII. In the 12-13/18-19[th] centuries/ Ensyclopedia Iranica. – HU.1978.-Vol.Y.-P.195

75. J. Wheeter. The modern history of Central Asia. –London, 1964.

76. R. Conguest. Soviet Nationalitiea in Practice. – London, 1967.

77. L. Tillet. The Great Friendship. Soviet Historians on the Non-Russian Nationalities. – North Carolina, 1969. T. Rakovska-Harmstone. Russian and Nationalism in Central Asia. – Baltimore, 1970.

78. D.Hooson. The Soviet Union. People and Regions – California, 1977 и др.

79. Marvin Ch. The Russian advance towards India, Conversation with Skobeleff. – London, 1882.

80. Holdeworth M. Turkestan in the nineteenth century: A brief

history of the khanates of Bukhara, Kokand and Khiva. – London: Oxford, 1959.

81. Qrouset r. The empire of the steppes, A history of Central Asia. –New Jersey, 1970.-P.60-687.

S.A. Toshtemirova

TARIXSHUNOSLIK

O'quv qo'llanma

Muharrir: X. Tahirov
Texnik muharrir: S. Meliquziyeva
Musahhih: M. Yunusova
Sahifalovchi: A. Muhammad

Nashr. lits № 2244. 25.08.2020.
Bosishga ruxsat etildi 29.11.2022.
Bichimi 60x84 1/16. Ofset qog'ozi. "Times New Roman" garniturasi. Hisob-nashr tabog'i. 19,5.
Adadi 100 dona. Buyurtma № 140.

«ZEBO PRINT» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Toshkent sh., Yashnobod tumani, 22-harbiy shaharcha.